Romandagi voqealar silsilasiga nazar tashlar ekanmiz, bu suhbatlardan Miryoqubning ruhiyatida ma‘lum o‘zgarishlar vujudga kela boshlaganligini his eta boshlaymiz. “Butun islom olami, musulmon o‘lkalari birma-bir ajnabiylar qo‘liga o‘tayotir”, - degan mulohazalarni tinglagan, Miryoqubning qalbidagi larzalar yanada kuchaya boshladiki, hatto “Har qalay, bu xotun menga hech narsa bermaganda ham roziman. Ko‘zimni to‘sib yotgan pardalarni olib tashladi-ku”, - deya hayqirgisi keladi. Qayd qilingan tushunchalarni bugungi kunda izohlash osondek tuyular, ammo o‘tgan asr boshlarida bu fikrlarni ayta olishi va talqin etishining o‘zi adibdan katta badiiy mahorat bilan bir qatorda juda katta jasoratni ham talab etishi, tabiiy edi. Bu obrazda mujassamlashgan tuyg‘ular, kechinmalarning asosida, o‘zlikni anglashga bo‘lgan intilishning teran talqinini kuzatamiz.

Darvoqe, hayotning murakkab qirralarini badiiy talqin etish orqali insonni anglashga, uning tafakkuridagi evrilishlarni namoyon qilishga intilganligi ham bejiz emas edi. Shuning uchun ham Miryoqub obrazi va uning badiiy xarakterining talqiniga nazar tashlasak, murakkab obraz ekanligidan dalolat beradi. Uning turfa xil xususiyatlari, asarning badiiy kompozitsiyasidagi o‘rni haqida so‘z yuritgan Dilmurod Quronov shunday yozadi: “Miryoqub dramasi uning faol harakati-yu, izlanishlari mahsuli sifatida yuzaga keladi: voqealar personajga ta‘sir qilganidek, u ham ma‘lum darajada voqealarni shakllantiradi, shu bois ham Cho‘lpon voqealarni qahramoni xatti-harakati ritmiga muvofiq tasvirlaydi” [2, 252-bet].

Bu tushunchalarga nazar tashlar ekanmiz, Miryoqub obrazida mujassamlashgan tushunchalar zamirida, davr kishilarining ma‘lum darajada hayotga teranroq nazar solish an‘anasining shakllanishiga ham urg‘u bermoqchimiz. Shu jihatdan o‘zbek adabiyotining yirik darg‘alaridan biri bo‘lgan Musa Toshmuhammad Oybekning “Qutlug‘ qon” romanidagi Abdishukur, Odil Yoqubovning “Diyonat” romanidagi Quدراتxo‘ja obrazlarida ham ijodkorlarning eng murakkab davrda aytishi kerak bo‘lgan voqelikni, qalb istiroblarini epizodik obrazlarga singdirib yuborganligi bilan izohlash mumkin.

Oybekning “Qutlug‘ qon” romanidagi Abdishukur xarakterining badiiy talqinida murakkab davrning xarakterli jihatlaridan qat‘iy nazar, insonni anglashga, o‘zlikni his etishga, millat fojialarini teranroq anglashga, ularning dard-u istiroblarini anglashga intilganligi kuzatiladi: “– Qayerga borasizlar? Odamlarni qayerga boshlayabsan? – tupugini sachratib, gapira ketdi Abdishukur. – Bu narsa ayni nodonlik, axmoqlik! San nimani tushunasan, boruvchilar nimani tushunadi? Yurt ishiga g‘amg‘o‘rlik odamlar bor” [5, 321-bet].

Odil Yoqubov “Diyonat” romanida davrning o‘ziga xos jihatlarini, inson xarakterining murakkab qirralarini yoritib beradi. Asarda asosiy qahramonlar orqali o‘tmishning turli xususiyatlarini ochib berishga intilsa, yordamchi obrazlar orqali bosh qahramonning xarakter qirralarini to‘ldirish, izohlash bilan bir qatorda, uning o‘ziga xos individual hayoti, sujetdagi o‘rni, inson taqdirining fojiali qirralarini ham ko‘rsatadi. Romandagi epizodik obrazlar bosh qahramon ziynatini yanada asosliroq ochib berishga xizmat qiladi.

“Diyonat” romani kompozitsion strukturasi eski raqiblar – Normurod Shomurodov va Qudratxo‘ja orasidagi munosabat hamda to‘qnashuvlar ham muhim o‘rin tutadi. Bu to‘qnashuvlar ijtimoiy burch va vijdon, diyonat va shafqatsizlik, baxt va baxtsizlik, hayot va o‘lim haqidagi keskin, o‘tkir psixologik kechinmalarga boy. Romanda bu ikki raqib orasidagi dastlabki to‘qnashuv Normurod Shomurodovning umr yo‘ldoshi Gulsara ayaning vafotidan keyingi ma‘rakalardan birida yuz beradi. Bu ma‘rakaga eski raqibi Normurod Shomurodovga ta‘ziya bildirish uchun kirib kelgan Qudratxo‘ja unga qarata odatdagi “falsafasini” boshlaydi. Shunda ham yozuvchi “yot unsur” Qudratxo‘ja “chuvak yuzining qat-qat ajinlari” va “chuqur botgan lunjlariga quyilgan ko‘z yoshlari”ga kitobxon diqqatini qaratadi: “Hukumatga ginam yo‘q manim. Ammo sen... Estdan chiqadigan ish qildingmi o‘shanda sen? Yodingdami men qishloqdan badarg‘a qilingan kuni tepada, gumbazli machit maydonida... bechora Oynisa dod solib kelib bo‘ynimga osilganda... – Qudratxo‘ja ko‘zlari pirpirab o‘rnidan turdi. Chuvak yuzining qat-qat ajinlariga, chuqur botgan lunjlariga quyilgan ko‘z yoshlarini artdi. – Qon yig‘lab kelib bo‘ynimga osilganda... esingdami, jindak rahm-shafqat o‘rniga... shafqat o‘rniga, “Haydang bu unsurlarni!” deb hayqirganing yodingdami, Normurod?! ...Shafqat! Shafqat nima qilsin senda?” [6,153-bet]. Shunisi muhimki, asarda har gal Qudratxo‘ja o‘zining ashaddiy raqibi Normurod Shomurodov bilan duch kelganda uning ko‘z o‘ngidan mudhish tafsilotlar, o‘z o‘tmishi, 30-yillar voqealari gavdalanaveradi.

Albatta, bu talqinlarda davrning achchiq haqiqati o‘z ifodasini topgan bo‘lib, Abdishukur odamlarni, yani olomoni yo‘ldan qaytarmoqchi bo‘ladi, ularni harakatga keltiruvchi, boshqaruvchi kuchlarning shakllanishiga diqqat qilingan. O‘tgan asrning boshlaridagi voqelik orqali, sobiq sho‘rolar davrining ba‘zi jihatlarini uzviy bog‘laydiki, bu albatta, inson erki, ozodligi, milliy g‘ururni anglash kabi jihatlar bilan bog‘lanib ketadi.

Xullas, milliy qahramon darajasiga ko‘tarilgan jadid harakatining yangilanish, islohatlar, ma‘naviy-ijtimoiy o‘zgarishlar haqidagi qarashlari u yoki bu darajada, badiiy asarlarda o‘z ifodasini topib keldiki, bu esa “Kecha va kunduz”, “Qutlug‘ qon”, “Diyonat” kabi romanlarida ham o‘ziga xos talqinlarda ifodalanganligini kuzatamiz.

Adabiyotlar

1. Nasirov A. Badiiylik va hayotiy haqiqat (“Yulduzli tunlar” va “Ona lochin vidosi” romanlari misolida). Monografiya. – Turkiya, Istanbul, Keset nashriyoti, 2019. – 134 bet.
2. Quronov D. Cho‘lpon nasri poetikasi. – Toshkent: Sharq, 2004. – 288 b.
3. Boltaboyev H. Fitrat va istiqlol ma’naviyati. Qarang: Fitrat. Tanlangan asarlar. Jild I. She’rlar, nasriy asarlar, dramalar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000. – 256 bet.
4. Fitrat. Tanlangan asarlar. Jild – I. She’rlar, nasriy asarlar, dramalar. – Toshkent: ”Ma’naviyat”, 2000. – 256 bet.
5. Cho‘lpon. Yana oldim sozimni: Kecha va kunduz. Roman. Yorqinoy. Pesa. She’rlar (To‘plovchilar: N.Karimov, Sh. Turdiyev). – Toshkent” G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991. – 576 bet.
6. Yoqubov O. Diyonat. Roman. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. –432 bet.

ASQAD MUXTORNING “JAR YOQASIDA CHAQMOQ” QISSASIDA DAVR VA INSON TALQINI

Nazarova F.Sh. – Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Asqad Muxtor ijodida inson konsepsiyasi va davr talqini turfa xil poetik tasvirlarda namoyon bo‘ladi. Adibning falsafiy asarlarida ham badiiy qahramonning turfa xil olamini talqin etish, hayotning murakkab qirralarini, davrning ziddiyatlarini yoritib berganligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: badiiy mahorat, davr va qahramon, obrazlar olami, inson fojiasi, shaxs konsepsiyasi.

ТОЛКОВАНИЕ ВРЕМЕНИ И ЧЕЛОВЕКА В ПОВЕСТИ АСКАДА МУХТАРА «ЖАР ЁҚАСИДА ЧАҚМОҚ»

**Назарова Ф.Ш. - самостоятельный исследователь Самаркандского
государственного университета**

Аннотация. В творчестве Аскада Мухтара концепция человека и трактовка периода нашли отражение в многообразии поэтических образов. Философские произведения автора также основаны на интерпретации разных миров главного героя, раскрывающих сложные стороны жизни, противоречия времени.

Ключевые слова: художественное мастерство, период и герой, мир образов, человеческая трагедия, концепция личности.

THE PERIOD OF "LIGHTNING NEAR THE ABYSS" BY ASKAD MUKHTAR AND THE INTERPRETATION OF HUMANS IN THE STORY

Nazarova F.Sh. - Independent researcher of Samarkand State University

Annotation. In Askad Mukhtor's work, the concept of man and the interpretation of the period are reflected in a variety of poetic images. The philosophical works of the writer are also based on the interpretation of the different worlds of the protagonist, the complex aspects of life, and the contradictions of the time.

Keywords. artistic skill, period and hero, the world of images, human tragedy, the concept of personality.

Asrlar davomida shakllanib kelgan badiiy adabiyot murakkab tarixiy davrni bosib o'tdi. Shunday bo'lsa-da, o'tgan asr adabiyotining serqirra ijod sohiblaridan biri Asqad Muxtor ijodi bu fikrlarimizning yorqin isbotidir. Adibning har bir asarida hayotning falsafiy mushohadasi, qahramonlar hayotining asosli badiiy talqini yetakchilik qiladi. Adib ijodi va uning mohiyati haqida so'z yuritgan Xayriddin Sultonov shunday yozadi: "Asqad aka – nihoyatda bilimdon, xayol va hofiza ufqi bag'oyat keng, izlash-izlanish va tafakkur butun borlig'ining mazmuni bo'lgan ulug'san'atkor edi. Abdulla Qahhor, agar Yevropa qarichi bilan o'Ichaganda ham, Abdulla Qodiriy ijodi eng yuksak talabga javob beradi, deya ta'kidlaganidek, Asqad Muxtor ijodi ham XXI asrning adabiy mezonlariga ko'p jihatdan munosib bo'lib kelmoqda" [1, 3-bet]. Davrning turfa xil ohanglariga javob bera oladiga asarlarni yarata olgan adib ijodining juda katta mohiyati, ma'naviy olamimizga ta'sir etadigan qirralari mavjudligini alohida qayd etish lozim. Adib jahon adabiyotini mukammal bilgan, undan sezilarli darajada oziqlangan iste'dod sohiblaridan biri sifatida e'tirof etilishi ham bejiz emas. Muhit va inson muammosi hamisha adabiyotda markaziy o'rin egallab kelgan va shunday bo'lib qolmoqda. Davr inson xarakteriga muayyan o'zgartirishlar kiritadi, biroq uning tub mohiyatini butunlay o'zgartira olmaydi. Jahon ilm-fani, tafakkur va dunyoqarashida sodir bo'layotgan globallashuv adabiyotshunoslikda ham badiiy adabiyot olamini umumbashariy mezonlar asosida baholashni talab etmoqda. Shuning uchun ham adabiyotshunos Suvon Meliyev bu haqida yozadi: "Ma'lumki, davr jamiyat taraqqiyotida muhim voqea, hodisa ro'y bergan, hukm surgan yoki o'ziga xos xususiyati bilan ajralib turadigan muayyan vaqt oralig'idir... Lekin vaqt – o'tkinchi, u ko'p narsalarni o'zgartiradi, ko'p muammolarni hal qiladi, ularning dolzarbligi yo'qoladi yoki yumshaydi. Ammo har bir davrda adabiylikka qo'shiladigan, abadiylikka daxldor muammolar doim bo'ladi" [2, 56-57-betlar].

Asosli ta'kidlanganidek, har qanday davr insoniyat ruhiyatiga, uning ruhiy-ma'naviy olamiga sezilarli ta'sirini ko'rsatsa-da, insonni anglashga, uning ruhiy-botiniy olamini his qilish yo'lida turfa xil izlanishlarni, badiiylik mezonlarini yuzaga chiqarishga intiladi. Buyuk so'z san'atkori Asqad Muxtor ijodiga nazar tashlar ekanmiz, uning talqinlarida insonni qalbini larzaga soladigan, insonni anglashga, hayot va davrni teranroq his etishga undovchi talqinlar bilan tanishamiz. "Chinor" romanidagi hikoyatlar zamiridagi davr va inson konsepsiyasi nuqtayi nazardan ham tahlil qilinganda juda katta muammolar talqinini kuzatamiz. Xalqimiz boshiga og'ir kunlar tushganda, uning og'irini engil qilish o'rniga yoki yovga kurashishni lozim topmasdan, toshlar orasiga yashiringani, keyinchalik toshbaqaga aylanib qolishi ham bejiz emas. Bu rivoyatning zamirida juda achchiq taqdirlar, qismatlar mujassamlashganligini unitib bo'lmaydi. "Inson muhit ta'siri ostida o'z xarakterini imkoniyatlari doirasida o'zgartirib boradi. Mustahkam irodali, kuchli xarakterli shaxs o'tkinchi muhit ta'siriga to'liq ma'noda bo'ysinmaydi. Muhitga qarshilik tuyg'usi ularda kuchli rivojlangan bo'ladi" [3, 19-bet]. Bu tushunchalar zamirida, adib asarlarining qahramonlari o'ziga xos jasorat, jur'at va shijoatning egasi ekanligini kuzatish mumkin.

Asqad Muxtorning "Jar yoqasida chaqmoq" qissasiga nazar tashlar ekanmiz, uning poetik talqinida insonni anglashga, uni qalb qa'ridagi istiroblarini yuzaga chiqarishga asos bo'ladigan voqealar silsilasini kuzatamiz. Shu jihatdan, Asqad Muxtor asarlarining badiiy-falsafiy taraqqiyotiga uning talqinlariga nazar tashlar ekanmiz, jahon va sharq adabiyotining yetakchi tamoyillari oltmishinchi, etmishinchi yillardayoq o'z ifodasini topganligini kuzatish mumkin.

Adabiyotshunoslik fanida muayyan davr adabiyotida muhim o'rin tutgan, o'ziga xos ijod uslubiga ega bo'lgan ijodkorlarning asarlarida davr va inson konsepsiyasining ifodasini ochib berish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Zamonaviy jahon adabiyotshunosligida davr va inson munosabatlariga yangicha yondashuvlar, adabiy-estetik tamoyillarning izchil takomillashuvi natijasida badiiy tafakkurning tadrijiy rivoji bilan bog'liq ilmiy konsepsiyalar adabiyotshunoslik sohalarining taraqqiyotini ta'minlashning muhim omillaridan sanaladi. Hozirgi zamon jahon adabiyotshunosligi ilm-fanining ayni taraqqiyot bosqichida badiiy asarga turli metodologiyalar asosida yondashishga, alohida olingan ijodkor asarlarida davrning inson omili, xarakteriga ko'rsatadigan ta'sirini belgilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davr va inson muammosi adabiyotshunoslikda muhim o'rin egallab kelayotgani, inson xakteri va ijodkor badiiy olamining mushtarakligi, ijodkor badiiy dunyosining hali ilg'anmagan jihatlarini, ochilmagan qirralarini tadqiq qilish zarurligini taqozo etmoqda. Tadqiqotni shu tamoyillar asosida bajarish, milliy adabiyot namunalarida davr va inson munosabati masalasini zamonaviy talablar asosida tadqiq etish jahon adabiyotshunosligida ham muhim masalalardan biri bo'lib

qolmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatimizda badiiy adabiyotni ijodiy individual uslub nuqtayi nazaridan tadqiq etish borasida jiddiy yutuqlarga erishildi.

Asqad Muxtorning bir qator qissa va romanlari, badiiy tarjimalari, hayotning turfa xil qirralarini badiiy talqin etuvchi publitsistik asarlari va she‘riyati adibning yetuk iste‘dod sohibi ekanligidan dalolat beradi.

Asqad Muxtor aksariyat asarlarida konflikt va sujet qurilishini ayni davr va inson munosabati asosida tiklaydi. Adibning nasriy asarlariga xos bo‘lgan xususiyatdir. Shuningdek, yozuvchi qahramonlari ikki tuzum – sho‘ro va mustaqillik sharoitida yashayotgan kishilar. Har xil mavzudagi bu asarlarning asosiy g‘oyasi insondagi insoniylikni tadqiq etish, inson mo‘jizasining turfa manzaralaridan hayratlanishdan iborat. Ularni birlashtirib turadigan yana bir jihat – zamonaviylik, ayni chog‘da o‘tkinchi “ob-havo”lardan holilikdir. Asqad Muxtor an‘anaviy tasvirlar bilan birga davr va inson konsepsiyasini badiiy tadqiq etishda shartli ramziy tasvir hamda epizodlardan ham samarali foydalanadi [4, 116-bet].

Ma‘lumki, ong va ongosti munosabatlari falsafiy tushuncha bo‘lib, adabiyotshunoslik atamalari safidan joy olganiga hali ko‘p vaqt o‘tmadi. Ong ifodasi deganda, eng avvalo ijtimoiy munosabatlar, muomala, yurish-turish madaniyati, xullas jamiyat uchun asosiy me‘yor holiga kelgan axloqiy, etik-estetik tushunchalar majmuini anglaymiz. Bu me‘yor azaldan Sharq adabiyotining ham diqqat-e‘tiborida bo‘lib kelgan. Shu bilan birga ongosti qatlamiga ham bot-bot murojaat qilingan. Shunisi e‘tiborliki, bugungi adabiyotda har ikkala tafakkur tarzining nisbati tenglik kasb etmoqda. Ba‘zi bir asarlar syujeti to‘laligicha ongosti tasviri prinsiplariga muvofiq qurilmoqda.

Darhaqiqat, adibning “Chinor” romanida inson qismati uning taqdiri, fojialari bir qator hikoyatlar misolida yoritiladiki, Ochil boboning dard-u amlari shu jarayonda mukammallik kasb etgan. Ochil bobo qalbidagi istiroblar hayotdan olingan saboqlar edi. Uning orif va Azimjonlar bilan bo‘lgan diologik suhbatlarida bu xususiyat yanada teranlashadi. Asardagi ramzlar uning qalb qaridagi murakkab hayotning vakili ekanligidan dalolat beradi. Hayotning shafqatsizligini, inson qalbidagi tuyg‘ularning badiiy konfliktini yoritishga asos bo‘lgan. Ochil bobo ruhiyatidagi o‘zgarishlarni yozuvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri talqin etmaydi. Uning qalb nolasini yaqinlari anglab ulgurmaydi.

Ijodkor har bir qahramonini uning ijtimoiy kelib chiqishi, kasb-kori, o‘rganib qolgan odatlari, maqsad-intilishlari nuqtayi nazaridan so‘zlatar ekan, ularning individual qiyofalari bilan birga ruhiy olami, ma‘naviy dunyosi ko‘zga tashlana boradi. Asqad Muxtorning “Chinor” romani qahramonlari o‘ylab topilgan yoki muallifning imlosiga mahtal qo‘lbola robotlar emas, kechagi va bugungi kunimizning odamlari. Ular jonli, tirik organizmlar bo‘lish barobarida ba‘zan ongning, ba‘zan savqi tabiiyning doiralari bo‘ylab harakat qilayotgan, o‘y-orzulari, hayotiy

maqsadlari yo'lida o'zligini topib, ba'zan yo'qotayotgan, gohida o'zligidan ham, dunyodan ham voz kechish arafasida yashayotgan kishilar, taqdir egalari. Zamon o'zgarishlarini kuzatish, undagi jarayonlar qonuniyatiga nazar solish yozuvchi uchun qahramonlar xarakterini mukammalroq ochishga yo'naltirilgan vositadir. Zamon o'zgaradi, qahramonlarning nutqi, yurish-turishi ham shunga muvofiqlashadi, ammo bu qahramonlarning asl qiyofasi, ruhiy-botiniy olami, xarakterining tub mohiyati o'zgarishsiz qolaveradi. Zamon o'zgarishlarini kuzatish, undagi jarayonlar qonuniyatiga nazar solish yozuvchi uchun qahramonlar xarakterini mukammalroq ochishga yo'naltirilgan vositadir.

Xullas, iste'dodli adib Asqad Muxtor ijodi, bugungi nasrimiz taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsata oldi. Bu talqinlar adib she'riyatini ham, nasriy asarlarini ham yashovchanligini ta'minlay olgan.

Adabiyotlar

1.Sulton Xayriddin. So'zi o'lmaganing o'zi ham o'lmas // Qarang: Asqad Muxtor. Tanlangan asarlar. She'rlar. Roman. Qissa. Hikoyalar. – Toshkent: Sharq, 2020. – 736 bet.

2. Meli Suvon. So'zu so'z. Adabiyot falsafasiga chizgilar (Nashrga tayyorlovchi – M.Qo'chqarova). – Toshkent: Sharq, 2020. – 528 bet.

3.Nasirov A. Badiiylik va hayotiy haqiqat. Monografiya. – Turkiya, Istanbul, "KESIT", 2019. – 134 bet.

4.Asqad Muxtor. Chinor. Roman. – Toshkent: "Ilm-ziyo-zakovat" nashriyoti, 2020. – 432 b.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KASBIY QAYTA TAYYORLASH JARAYONI TIZIM SIFATIDA

Ishbayeva N.A. – Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'qituvchilarni qayta tayyorlash jarayoni, uning muhim vazifalari, qayta tayyorlash jarayoning tizim sifatida tarkibiy qismlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada "o'qituvchi — o'quvchi" "uzatuvchi — qabul qiluvchi" munosabatlari, o'qitish, ta'lim berish tushunchalari tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: o'qitish, ta'lim, qayta tayyorlash jarayoni, o'qituvchilarni qayta tayyorlash, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini qayta tayyorlash.

ПРОЦЕСС ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПЕРЕПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ КАК СИСТЕМА

Ишбаева Н.А. – соискатель Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В данной статье описывается процесс переподготовки учителей, его важные задачи, составляющие процесса переподготовки как системы. В статье также исследуются отношения «учитель-ученик», «передатчик-приемник», концепции преподавания и обучения.

Ключевые слова: обучение, образование, процесс переподготовки, переподготовка учителей, переподготовка учителей начальных классов.

PROFESSIONAL RETRAINING PROCESS FOR PRIMARY SCHOOL TEACHERS AS A SYSTEM

Ishbaeva N.A. - Researcher of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. This article describes the process of teacher retraining, its important tasks, and the components of the retraining process as a system. The article also examines the "teacher-student" "transmitter-receiver" relationship and the concepts of teaching and learning.

Keywords: training, education, retraining process, retraining of teachers, retraining of primary school teachers.

Ta'lim tizimi har bir mamlakat rivojining asosiy iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy bo'g'ini bo'lib hisoblanadi. O'quvchilar mamlakatning kelgusi rivoji, ravnaqining ijodkorlari va yaratuvchilari sifatida o'rin tutadilar.

Ta'lim sohasi xodimlari va o'qituvchilarni qayta tayyorlash boshqa sohalar rivojida muhimroq bo'lib hisoblanadi, axir o'qituvchilarni qayta tayyorlashda o'quvchilarning ta'limiy va kasbiy-mutaxassislik malakalarini qondirish uchun zarur vazifalar amalga oshiriladi.

Rivojlangan industrial jamiyatlarda ta'lim tizimi o'zgarishlari odimi ta'lim sohasida bir necha yillar umumiy o'zgarishlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi, bu esa hamjamiyatlar tomonidan qayta tuzilmalar rivojiga olib boruvchi boshqa metodlar cheklanishiga yo'l qo'ymaydi.

Shu sababli ta'lim sohasida o'qituvchilarni qayta tayyorlash masalasi, inson resurslarining ayrim jihatlarini o'qitish boshqa jihatlar uchun ham umumiy bo'lib hisoblanadi, biroq ko'pgina sohalarda yanada ko'proq samaraga erishish maqsadida tizimlardan maxsus foydalanish zarur.

Bunday o'qituvchilar ertangi kuni yaratuvchi avlod bo'lmish – o'quvchilarni rag'batlantira oladigan, to'g'ri tayyorlaydigan bo'lishlari shart. O'qituvchilar nafaqat ta'lim, balki o'z shaxsiy hislatlari bilan ham o'quvchilarda o'z izlarini qoldiradi, ularning shaxslari shakllanishida mustahkam o'rin tutadi.

Bilim, malaka va ko'nikmalar — jismoniy predmetlar emas, ularni shunchaki uzatib bo'lmaydi. Ular bolaning miyasida, insonda faqat shaxsiy faolligi natijasida

yuzaga keladi. Ularni shunchaki qabul qilish mumkin emas, ular o'quvchining psixik faolligi natijasida va eng avvalo, tafakkurida yuzaga keladi. Demak, "o'qituvchi — o'quvchi" munosabatlarini "uzatuvchi — qabul qiluvchi" munosabatlariga o'xshatish mumkin [2].

Ta'lim jarayoni tushunchasining boshqa ta'riflarini tan olish ehtimoli ancha qiyin, unga ko'ra "ta'lim jarayoni – bu o'qituvchi va o'quvchining maqsadga muvofiq o'zaro hamkorligi bo'lib, unda o'quvchilarning ta'limiy masalalari hal etiladi" [1]. Mazkur ta'rifda asosiy mazmun "o'qituvchining va o'quvchilarning maqsadga muvofiq o'zaro hamkorligi"ga tushadi.

Biroq ishora qilingan o'zaro hamkorlik juda noaniq, bo'sh, sababi buni amalga oshirish mexanizmlari ko'rsatilmaganligini sezish oson, shunga muvofiq, ta'limning mohiyatini yaxlit pedagogik hodisa sifatida chetlab o'tgan.

Tadqiqotchi olimlar "o'qitish" tushunchasi ta'rifini berishda mazkur kamchilikdan qochishga harakat qilib, quyidagi: "Zamonaviy bosqichda o'qitish, ta'lim berish jarayoni – bu o'qituvchilar va o'quvchilarning maqsadga muvofiq, ketma-ketlikdagi o'zgaruvchan faoliyati bo'lib, o'quvchilarda bilimlar tizimini, ilmiy dunyoqarash asoslarini, mehnat va axloqiy tarbiya, ijodiy faollikni shakllantirishga, o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishni ta'minlashga yo'naltirilgan jarayonidir" degan o'z ta'riflarini taklif etganlar [3].

Mazkur ta'rifda urg'u faoliyat subyektlari sifatida nafaqat o'qituvchilar va o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlariga hamda ularning o'zaro hamkorligiga qo'yiladi, balki ularning maqsadga muvofiq, o'zaro bog'liq munosabatdagi, ketma-ket rivojlanuvchi faoliyatiga beriladi va o'qitish, ta'lim berish faoliyat sifatida ifodalanadi. Ta'lim jarayoni esa odamlarning o'zlari tomonidan yaratilgan faoliyat tizimi holatining almashishi sifatida ifodalanadi. Biroq ta'lim jarayoni mazmunining o'ziga e'tibor qaratib, mualliflar mazkur ta'rifda bir muhim vaziyatni tushirib qoldirganlar. Aslida esa o'qitish, ta'lim berishda faoliyat tizimi nafaqat insonlarning o'zlari tomonidan yaratiladi, balki ulardan alohida mavjud bo'la olmaydi. Ular tomonidan va ular orqali amalga oshiriladi. U jamiyatning ma'lum maqsadlarini amalga oshirish uchun mavjud bo'ladi. Haqiqatdan ham o'qitish, ta'lim berishga yagona ta'rif mavjud emasligini ta'kidlay olamiz. Birinchi navbatda, ta'lim aspektlarini ta'kidlash, ikkinchidan, ekspert va mutaxassislar fikrini ifodalash zarur. Mutaxassislar turli ta'riflarni ilgari suradilar. Quyida ulardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz:

O'qitish, ta'lim – inson, jamiyat, davlat manfaatlarini uchun tarbiya va ta'lim berishning maqsadga yo'naltirilgan, davlat tomonidan tashkil etilgan, belgilangan ta'lim darajasida fuqaro (o'quvchi) yutuqlarga erishib borish jarayonidir. Umumiy va o'rta ta'lim darajasi ishlab chiqarish, ilm-fan, texnika va madaniyat holati talablariga, shuningdek, jamiyat munosabatlariga asoslanadi. So'zning keng ma'nosida, ta'lim —

“...shaxsning aqli, xarakteri yoki jismoniy qobiliyatlarining shakllanish jarayoni yoki mahsulidir. So‘zning texnik ma’nosida ta’lim — bu jarayon bo‘lib, uning vositasida jamiyat maktablar, kollejlari, universitetlar va boshqa institutlar orqali maqsadga muvofiq o‘zining madaniyatini — davrlarda jamlangan bilim, qadriyatlar va malakalarini meros sifatida — bir avloddan boshqasiga (avlodlar o‘rtasida)” uzatadi.

Ta’limning ijtimoiy taraqqiyoti mazmun-mohiyatida ijtimoiy madaniy merosni uzatish mazmunidan tashqari, insonga uzoq hayotiy davrlarda bilish hajmi va o‘zaro aloqada bo‘lgan tabiat bilan aloqani uzishga imkon berdi. Hozirgi vaqtda inson ta’lim vositasida o‘zidan ilgari o‘tgan ajdodlari hayotiy faoliyati tajribalaridan foydalanadi hamda ularni ijtimoiy taraqqiyotga joriy etadi.

Muammoimiz bo‘yicha kelgusi izlanishlarda, o‘qitish va ta’lim bo‘yicha biroz chuqurroq fikr yuritish lozim. Chunki boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari malakasini oshirish kurslarini takomillashtirish va optimallashtirish muammosi nuqtayi nazaridan bu juda muhimdir. Boshqa tomondan, “qayta tayyorlash” tushunchasini mantiqan “ta’lim” va “o‘qitish” tushunchalari bilan bog‘laymiz.

Shu nuqtayi nazardan, ta’lim o‘z mazmun-mohiyatida ta’lim mazmuni va metodlari, o‘quv qo‘llanmalari, dasturlarni amalga oshirish va baholashga asoslanadi. Ta’lim natijalarini “ongdagi halqa” sifatida tasavvur etish mumkin. Shu tariqa, qabul qiluvchi mazkur jarayonni optimallashtirish uchun ijodiy muhitni yaratish maqsadida o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shubha yo‘qki, mazkur jarayon o‘qituvchi va o‘quvchi o‘zaro faol o‘zaro munosabatda bo‘lgan taqdirdagina, samarali bo‘ladi.

Ta’lim jarayonining ikki tomonlamaliligi o‘ziga xos xususiyat sifatida muhim yetakchi rol o‘ynaydi, axir bilimlarga ega bo‘lish o‘qituvchilar va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligini ko‘zda tutadi, mazkur jarayonda yangi axborotlarni o‘zlashtirish sodir bo‘ladi, malaka va ko‘nikmalar ishlab chiqiladi, tarbiyalanuvchilar tarbiyasi va ijodiy iqtidori rivojlanishi yuzaga keladi.

Aslida, ta’lim jarayoni pedagog-o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘zaro hamkorlik munosabatlarini ko‘zda tutadi, biroq mustahkam va chuqur bilim olish uchun birgina o‘zaro hamkorlikning o‘zi kamlik qiladi. O‘quvchilar o‘quv va bilish faoliyatini qanday tashkil etish, uni doimiy faollashtirish va rag‘batlantirish haqida o‘ylab ko‘rish zarur. Ko‘pincha shunday bo‘ladiki, pedagog-o‘qituvchi darsni tushuntirish paytida, o‘qitilayotgan materialga o‘quvchilarda qiziqish uyg‘ota olmay, o‘quvchilarni tinchlantirishga majbur bo‘ladi, shu tariqa, o‘quvchi bolalarda yangi bilimlarni o‘zlashtirishga intilish paydo qila olmaydi. Bunday holatda o‘qitish samarali natija bermaydi.

Ta’limning bunday xususiyatlariga alohida e’tibor qaratish zarur. Agar ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘zaro hamkorligi vaqtida bevosita muloqot ko‘zda tutilgan bo‘lsa, unda ta’limning muhim qismi bo‘lib hisoblangan uy vazifalari jarayoni qanday amalga oshiriladi. Shu sababli ta’lim jarayoni shunday metodlar

yordamida qurilishi zarurki, u o'qish jarayonida o'quvchilarning yangi bilimlar o'zlashtirishi, yangi malakalar orttirishi, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishi, ma'naviy-axloqiy estetik qarashlarini va dunyoqarashini shakllantirishi bilan o'quv va bilish faoliyatini rag'batlantirsin va faollashtirsin.

Yuqorida bayon etilganlar ta'lim jarayonining quyidagi muhim vazifalarini shakllantirish imkonini beradi:

- ilmiy bilimlar egallash va o'zlashtirish jarayonida o'quvchilar faoliyatini aniq va puxta o'ylab tashkil etish;
- tinglovchilar bilish va o'qish faoliyatini doimiy ravishda rag'batlantirib borish;
- xotira, tafakkur, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish ustida ishlash;
- olamga ilmiy qarashni shakllantirish, ma'naviy-axloqiy va estetik tarbiya;
- ta'lim olish davrida egallangan malaka va ko'nikmalarni takomillashtirish ustida ishlash.

Shu tariqa, ta'lim jarayonining vazifalari pedagog-o'qituvchi tomonidan o'qitish yoki tarbiyalash oldidan oldinga qo'yilgan chuqur anglab etilgan maqsadlar natijalari, shuningdek, mazkur maqsadlarni amaliyotda amalga oshirishga yordam beruvchi sharoit va usullar bo'lib hisoblanadi.

Qayta tayyorlash jarayoni – yaxlit, bir butunlikka ega tizimdir. Qayta tayyorlash jarayoni tizim sifatida quyidagi tarkibiy qismlardan: qayta tayyorlash maqsadlari, o'qituvchi faoliyati (mashg'ulotni olib boruvchi), o'quvchilar (tinglovchilar) faoliyati, yakuniy natijadan iborat. Mazkur jarayonning o'zgarmaydigan shartlariga boshqarish vositalari kiradi: bu o'rganilayotgan materialning mazmuni va ta'lim jarayonida qo'llaniladigan metodlar, texnik qo'llanmalar, darsliklar (moddiy vositalar), o'qitishning texnik vositalari hamda ta'limning tashkiliy shakllari, jarayonni takomillashtirish bo'yicha o'qituvchilar faoliyatini o'z o'qitish faoliyatida aks ettiradi [4].

Qayta tayyorlash maqsadlari va ularning yakuniy natijasi ta'lim vositalarining – doimiy va vaqti-vaqti bilan bog'liqligi va o'zaro asoslanganligini ko'zda tutadi. Ular zamonaviy maktablar sharoitlarida o'qituvchilarni faol faoliyatga tayyorlashni ko'zda tutuvchi yagona va yaxlitlik muhitini yaratadi, ta'lim integratsiyasi va umumiy qayta tayyorlash maqsadlariga bo'ysunadi.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha komponentlarni birlashtiruvchi element bo'lib, o'qitish va ta'lim faoliyatida hamkorlikdagi faoliyat yuzaga keladi, uning zaruriy komponenti muloqot bo'lib hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda o'qituvchilarni qayta tayyorlash jarayoni tizim sifatida jamlangan va yaxlit tushunchalarning uzviy aloqasiga ega bo'ladi. U o'zaro bir-biriga yaqin, uzviy bog'liq bo'lgan ko'plab elementlar: o'qituvchilarni qayta tayyorlash

faoliyatining barcha turlarini boshqarishni amalga oshirish natijalari yordamida o'quv axboroti, maqsadlari, o'qituvchilar va o'quvchilar kommunikatsiya vositalari, shakl va usullaridan tashkil topadi.

Adabiyotlar

1. Бабанский Ю.К. Педагогика. 2-нашр. М., 1988. 339 б.
2. Cheung, H. Teacher efficacy: A comparative study of Hong Kong an Shanghai primary in-service teachers. Australian Educational Researcher, 35(1). 2008. 103-124.
3. Ashton D, Green F., James D., & Sung J. Education and Training for Development in East Asia. London, England: Routledge. 1999.
4. Bernard, J.M., Bonnet, G., Beifith Kouak Tiyab, Ramaya Vivekanandan Rodrigues (Eds.). (2010). Methodological guide for the analysis of teacher issues. Retrieved from [http://: www.unesdoc.unesco.org/images/0019/001901/190129e.pdf](http://www.unesdoc.unesco.org/images/0019/001901/190129e.pdf)

INSON SALOMATLIGIDA SOG'LOMLASHTIRISH MASHQALARINING O'RNI VA UNING PEDAGOGIK MAZMUNI

Mattiyev I.B. - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Tillarni o'qitish" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada sog'lomlashtirishning asl maqsadi, inson salomatligi va uning tabiat, jamiyat bilan o'zaro murakkab aloqasi, tarbiya jarayonida jismoniy mashqlarning samarali ta'sirini belgilay oladigan omillarni bilish pedagogik jarayonni boshqarishni osonlashtirishi borasidagi fikrlarga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: nazorat qilish va ta'minlash, ekosistema, ta'lim jarayoni, salomatlik darajasi, ta'minlovchi jarayon, muhofaza, ehtiyojlarning qondirilishi, huquq, ishonch, mantiq, uzluksizlik, takomillashtirish.

МЕСТО И ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫХ УПРАЖНЕНИЙ В ЗДОРОВЬЕ ЧЕЛОВЕКА

**Маттиев И.Б. - доцент кафедры «Преподавание языков»
Самаркандского института экономики и сервиса**

Аннотация. В данной статье рассматриваются основное назначение здоровья, сложная взаимосвязь здоровья человека с природой и обществом, знание факторов, которые могут определять эффективность физических упражнений в учебном процессе, что облегчает управление педагогическим процессом.

Ключевые слова: контроль и снабжение, экосистема, процесс обучения, уровень здоровья, обеспечивающий процесс, защита, удовлетворение потребностей, закон, доверие, логика, преемственность, улучшение.

THE ROLE OF HEALTH EXERCISES IN HUMAN HEALTH AND THEIR PEDAGOGICAL CONTENT

Mattiyev I.B. - Associate Professor of "Language Teaching" Samarkand Institute of Economics and Service

Annotation. This article discusses the main purpose of health, the complex relationship of human health with nature and society, the knowledge of the factors that can determine the effectiveness of exercise in the educational process, which facilitates the management of the pedagogical process.

Keywords: control and maintenance, ecosystem, educational process, health level, supply chain, protection, satisfaction, law, trust, logical, continuous, improvement.

Sog'lomlashtirish omillari. Sog'lomlashtirish texnologiyasi – tibbiy-pedagogik va ijtimoiy toifadagi fan bo'lib, ham jismonan, ham ruhan sog'lom bo'lgan millat namoyondasini tarbiyalash va takomillashtirish borasidagi zarur omillarni va uslublarni o'rganib, ularni turmushga tadbiiq etish kabi vazifalarni o'z zimmasiga oladi. Sog'lomlashtirishning asl maqsadi muayyan shaxsning salomatligini nazorat qilish va ta'minlash orqali oilaning, jamiyatning, millatning va davlatning mustahkam bo'lishiga asos yaratishdir.

Ekologik omil. Tabiat ekosistemasining biologik obykti va jamiyat a'zosi bo'lgan inson ob-havo, kimyoviy, radioaktiv, elektromagnit, shovqin kabi murakkab majmua va boshqa omillar, ya'ni u istiqomat qiladigan ijtimoiy-iqtisodiy muhit deb ataluvchi barcha borliq ta'siri ostidadir. Shu sababdan inson salomatligini uning tabiat va jamiyat bilan o'zaro murakkab aloqasining kompleks natijasi deb qaralmog'i lozim. Shu munosabat bilan jamiyat salomatligi progressiv o'zgarishlarni, yangi ekologik sharoitlarda inson evolyutsiyasini ta'minlovchi jarayon sifatida qaralishi mumkin. Shunday qilib, jamiyat salomatligi – yangi tushuncha bo'lib, u avlodlar almashinuvi jarayoni, ularning psixofiziologik, intellektual, individual salomatlik kafolati, reproduktiv imkoniyatlari kafolatini o'zida mujassamlashtiradi.

Ijtimoiy omil. Ijtimoiy ko'rsatkichlar haqida gap borar ekan, birinchi navbatda "Salomatlik darajasi moddiy to'kinlik bilan aloqadormi?" degan savol tug'iladi [1]. Moddiy to'kinlik darajasi shubhasiz hayot tarziga muhim darajada ta'sir ko'rsatadi. Oddiy sog'lom fikr va tadqiqotlar natijasi faqatgina asosiy hayotiy ehtiyojlarni

qondirilishi sharoitidagina salomatlikni saqlash va uni mustahkamlash imkoniyati borligiga guvohlik beradi. Rivojlangan mamlakatlarda hayotning o'rtacha davomiyligi ko'rsatkichlari oshib borishining birinchi bosqichi bilan iqtisodiy yuksalish va odamlar farovonligining yaxshilanishi to'g'ridan-to'g'ri aloqadorligi bejiz emas. Bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda kishi boshiga olinayotgan daromadning 6-10 karra farqlanishi ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan chegaraviy aholi guruhlarida salomatlik ko'rsatkichlarining 3-4 karra farqlanishiga olib keladi [2].

Kamroq daromadga ega shaxslar ko'proq kasal bo'ladilar, profilaktika yordamiga kamroq murojaat qiladilar, o'lim ko'rsatkichlari ularda yuqori. Yuqori daromadli aholi guruhlari tibbiy yordamning profilaktik turlaridan ko'proq foydalanadilar. Gigiyenik omillar shaxsiy va jamoat gigiyenasi talablarini o'z ichiga olib, mehnat gigiyenasi, ovqatlanish, dam olish va tashqi muhitning zararli faktorlari va boshqalar jismoniy mashqlarni bajarish (dars, mustaqil mashq qilish, trenirovka) mashg'ulotlarida gigiyenik talab va normalarga rioya qilishni taqazo etadi. Ular jismoniy mashqlar ta'sirchanligini, samaradorligini oshirishini ilmiy, amaliy jihatdan isbotlagan. Gigiyenik sharoitni yetarli darajada ta'minlash, jismoniy tarbiya uchun foydalaniladigan moddiy-texnik baza, sport anjomlari, jihozlar va mavjud kiyim boshning holatiga bog'liq.

Jismoniy mashqlar, tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlari va gigiyenik omillarni ratsional qo'llash inson salomatligini mustahkamlaydi va jismoniy qobiliyatlarni rivojlantiradi. Havo, quyosh nuri, suv jismoniy tarbiya jarayonida tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlari tarzida jismoniy tarbiyaning vositasi sifatida foydalaniladi. Hayotiy sharoit, muhit insonni turli sharoitda moddiy ne'mat yaratish, yashashga majbur qiladi. Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish mashg'ulotlari inson hayotiy faoliyatining organik qismiga aylansagina jismoniy tarbiya tizimining sog'lomlashtirilishiga yo'naltirilgan prinsipni amalga oshirishning imkoni bo'ladi. Boshqa tomondan, kerak bo'lgan gigiyenik normalarga rioya qilinsagina jismoniy mashqlar kerak bo'lgan samarasini beradi.

Jismoniy tarbiyaning maxsus vositasi hisoblanmasa ham gigiyenik omillar jismoniy tarbiyaning vazifasini to'laqonli hal qilish uchun ahamiyat kasb etadi. Pedagogik jarayon qanchalik puxta tashkillanmasin, ovqatlanish, uyqu kun tartibiga rioya qilinmasa, shuningdek, mashg'ulotlar tibbiyot talablariga javob bermaydigan joy va jihozlar bilan o'tkazilsa, ular albatta, samarasiz bo'ladi. Mana shuning uchun maktablardagi jismoniy tarbiya dasturlariga gigiyenaga oid bilimlar mazmunini ifodalovchi nazariy ma'lumotlar uchun mavzular tavsiya qilingan. Tarbiya jarayonida jismoniy mashqlarning samarali ta'sirini belgilay oladigan omillarni bilish pedagogik jarayonni boshqarishni osonlashtiradi. Bu omillar quyidagicha guruhlanadi [6]:

1. O'qituvchi va o'quvchilarning shaxsiy tavsifi omili. Ta'lim jarayoni ikki tomonlama – o'quvchilar o'qiydi, o'qituvchi o'qitadi. Shuning uchun jismoniy mashqlarning ta'siri keng darajada kim o'qitayotganligiga va kimlarni o'qiyotganligiga, axloqiy sifatlariga va iqtidori (intellekti)ga, jismoniy rivojlanganligiga va tayyorgarligi darajasiga, shuningdek, birlamchi bajara olish malakasi, qiziqishi, harakat faolligi hamda boshqalarga bog'liq.

2. Ilmiy omillar – jismoniy tarbiya qonuniyatlari tomonidan anglanish me'yorini xarakterlaydi. Jismoniy mashqlarning pedagogik, psixologik, fiziologik xususiyatlari qanchalik chuqur ishlab chiqilgan bo'lsa, pedagogik vazifalarni hal qilish uchun ulardan shunchalik samarali foydalanish mumkin.

3. Metodik omillar – jismoniy mashqlardan foydalanishda amal qilinadigan juda keng qamrovdagi talablar guruhini umumlashtiradi. Jismoniy mashqni o'qitish davomida yoki boshqa pedagogik vazifani hal qilish uchun qo'llanayotgan usuliyat (jismoniy qobiliyatni ochsin, o'zlashtirishni osonlashtirsin) masalan, jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishda quyidagilar hisobga olinadi: birinchidan, jismoniy mashqdan kutilayotgan samara, ya'ni bu mashq bilan qanday vazifalar (bilim berish, tarbiyalash, yoki sog'lomlashtirish)ni hal qilish; ikkinchidan, jismoniy mashqni tuzilishi, statik yoki dinamik mashqmi, siklik, atsiklik harakatmi yoki boshqasimi; uchinchidan, mumkin bo'lgan takrorlash usuliyatlari (bo'laklarga ajratib yoki mashqni to'la bajarish bilan o'rgatish maqsadga muvofiqmi, takrorlashlar oralig'ida aktiv dam olishni qo'llash kerakmi yoki passiv dam olishni ta'minlay oladimi va hokazolar) [3].

Jismoniy mashq bajargandan so'ng organizmda maxsus funksional o'zgarish vujudga keladi va u ma'lum vaqtgacha organizmda iz qoldiradi, saqlanib turadi. Vujudga kelgan o'zgarish ko'rinishida keyingi mashqning ta'sir samarasi yanada boshqacharoq bo'lishi mumkin.

Dastlabki va so'ngi mashqda mashg'ulot samaradorligi ortishi yoki pasayishi mumkin. Masalan, diqqat uchun mashqlar navbatidagi qiyin koordinatsiya talab qiluvchi harakatlarni bajarishni osonlashtirsa, dumbaloq oshish mashqlaridan so'ng muvozanat saqlash mashqlarini o'zlashtirish qiyinchiliklarga sabab bo'lishi mumkin. Ta'sirning oz yoki kuchlilik darajasi o'zining chuqurligi va davomiyligi, o'quvchi holati uning jismoniy, aqliy tayyorgarligi va hokazolarga bog'liq. Mashqlar ta'sirining kompleksini ishlab chiqish harakat faoliyatining asosiy ta'siri samarasini hisobga olishga imkoniyat yaratildi.

Sog'lomlashtirish omillarida jismoniy barkamol avlod tarbiyasi va uning kamoloti, barqaror turmush tarzi madaniyati orqali yo'lga qo'yiladi. Unga asosiy mezon bo'lib individning salomatlik darajasi olinadi. Sog'lomlik, salomatlik esa inson jismining kamolotiga borib taqaladi va uning tamal toshini qo'yish biologik yoshining ilk davridan amalga oshiriladi. Ulug'maqсадlarga erishish, farovon

turmush, inson zotiga munosib hayot barpo etish, avvalo mavjud jamiyat a'zolari – komillikka intilayotgan kelajagimiz, yosh avlodga bog'liq. Sog'lom turmush, faol optimal harakat faolligi o'zining nazariy asoslariga ega, lekin bu muammo hozirgi kungacha to'liq o'rganilmagan. Umumiy va maxsus adabiyotlarning tahlili va mustaqilligimizdan keyingi davrda o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarning tahliliy natijalari mavzu bo'yicha fundamental tadqiqotlar o'tkazish lozimligini ko'rsatmoqda. Jismoniy madaniyat tarkibidagi sog'lomlashtirish mashg'ulotlarining nazariy va amaliy asoslariga oid bilimlar, amaliy malakalar jamiyat a'zosini sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyatiga egaligidan dalolat berishi jismoniy madaniyatga egalilikning belgisi ekanligi isbotlangan. Mustaqilligimizgacha bo'lgan davrda jismoniy madaniyat va sportni kundalik turmush tarziga singdirish maqsadida qator yillar davomida davlat dasturlari, ko'rsatmalari, farmoyishlar chiqarilgan bo'lishiga qaramay bu siyosat o'zining natijasini bermadi. Bunga sabab qilib individni, jamiyat a'zosining ongiga “kasal bo'lsang davlat o'zi qaraydi” yoki “sog'ligim faqat meni ishim emas” deb tashqaridan bo'ladigan yordamga tayanish, boqimandalikni jamiyat hayotida keng o'rin olganligini mahsuli deb qarasa to'g'ri bo'ladi [4].

Mamlakatimizda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan asoslangan o'ziga xos, mos turmush tarzi madaniyati tarkib topmoqda. Bu madaniyatning tarkibiy qismi turli xildagi mashg'ulotlar bilan bog'liq. Bunday taraqqiyotni belgilovchi muhim omil sog'lom madaniy hayot, uning tarkibidagi millat salomatligidir. Boylik sanalgan salomatlikni saqlashda sog'lomlashtirish mashg'ulotlarini ahamiyati beqiyos. Bugungi kunda texnik vositalarning shiddat bilan rivojlanib borishi, yuksalishga sabab bo'layotgan bo'lsa, boshqa tarafdin kam harakatchanlik va kam harakatchanlik bilan kelib chiqadigan ko'plab kasalliklarni ko'payib ketishiga sabab bo'lmoqda.

Sog'lomlashtirish mashg'ulotlari o'zining mazmun mohiyati bilan sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati tarkibida vosita tarzida munosib o'ringa ega bo'lib, jamiyat a'zolarini organizmini kundalik hayotiy faoliyatga tayyorlash, shu faoliyat uchun zaruriy biologik quvvatni yuzaga keltirish va ulardan aqliy, jismoniy mehnat jarayonida foydalanishni nazarda tutadi. Bu mashg'ulotlar inson hayotiy faoliyati davomidagi maqsadli mashg'ulotlardan farqlanadi. Shuning uchun ham sog'lomlashtirish mashg'ulotlarining vositalari va ulardan foydalanish nazariyasi va ularni amaliyotda qo'llaydigan vositalarni turkumlash, tizimga solish va amaliyotga tavsiya etish muhim. Barqaror turmush tarzi madaniyatini sog'lom asosga qurish fenomeni antik davrdan to shu kungacha turli mazmundagi ilmiy-nazariy ta'riflari va talqinlariga ega. Uni hozirgi kundagi ta'rifning tarkibiy qismida sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati va uning mashg'ulotlari, ularning asosiy sport mashg'ulotlari o'zining munosib jihatlari bilan barkamol avlod tarbiyasini amalga oshirishda yetakchi vositalaridan biri sifatida xizmat qilmoqda.

Jamiyatimizning salomatligi, uzoq umr ko‘rishi, uning jismi a‘zolarining yuqori ishchanlikda faoliyat ko‘rsatishi organizmning mashqlanganligi bilan bog‘liq. Mashqlanish darajasi esa jamiyat a‘zosi o‘zi uchun dinamik striativga aylantirgan sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari jarayoni bilan bog‘liq va bu muammo mustaqillik yillarida o‘zining muhimligi bilan davlatimiz rahbariyati va hukumatimiz siyosatida ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolaveradi [5].

Rivojlangan mamlakatlardagi kasal bo‘lmagan, sog‘ligini bir maromda uzoq ushlay olgan kasb egasiga ishlab chiqarish korxonasi qo‘shimcha moddiy rag‘batlantirishlar qilishi haqidagi matbuot, radio, televideniyelarning axborotlari biz “boqimandalar”da boshqacharoq tushunchalarni yuzaga keltirgan. Chunki yuqori malakali ishchi, kasb egasini vaqtincha mehnat faoliyatini to‘xtatishidan ish beruvchi mahsulot sifatini buzilishidan yuzaga keladigan moliyaviy ziyon ko‘rishi uni qoniqtirmagan. Chunki kasallangan yuqori malakali ishchini nisbatan malakasizrog‘i bilan almashtirishga to‘g‘ri kelgan. Shunga ko‘ra, salomatligini uzoq vaqt bir maromda ushlay rag‘batlantirilgan. Bunday natijaga erishish rivojlangan mamlakatlardagi STT jismoniy madaniyat tarkibidagi sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarini har bir individ uchun odatga aylanish darajasiga borib etganligidir.

Biz qo‘l urgan mavzu aynan shu muammo – inson organizmini uzoq umri davomida egalik qilishi lozim bo‘lgan salomatligini bir maromda, kasalliklarga yo‘liqmay tashqi muhitning zararli, noxush oqibatlariga qarshi tura olishi, uning jismonan immunitetini oshirishni vosita va metodlarini o‘z ichiga olgan “Sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarining nazariy asoslari” bilan bog‘liq. shug‘ullanuvchining funksional holatini lozim bo‘lgan darajada, vositalarning mazmuni, mashg‘ulotlardagi mashqlanish vositalarining shakllari, tashkillash usuliyoti, shuningdek, ularning umumiy qoida va qonuniyatlariga oid hamda mashg‘ulotlarning strukturasi va nazariy bilimlari hozirgi kungacha tizimga solinmagan.

Adabiyotlar

1. Jamoldinova O.R. Yoshlar sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirishda uzviylik va uzluksizlik tamoyillari amal qilishining pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish. Ped. fan dokt...diss. avtor. –Toshkent: 2015, - 86 b.
2. Ахраменко Э. В. Здоровьесберегающие технологии: здоровье учащихся // Молодой ученый. — 2015. — №24. – С. 910-912.
3. Safarova D.D. G‘ulomov N.G. “Valeologiya” o‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2013.
4. Arziqulov R.”Sog‘lom turmush tarsi asoslari”. – Toshkent, 2005.
5. Irgashov Sh. Valeologiya. – Toshkent, 2015.
6. Mutalova Z. Sog‘lom turmush tarzi. – Toshkent, 2007.

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK MUHANDISLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Adilov N.X. - Toshkent davlat pedagogika universiteti erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya. Teleko‘rsatuvlardan foydalanish orqali ham muhandislik sohasini integrativ yondashuv asosida o‘rganish va tajribalar tahlilini bilib olish va amalda sinab ko‘rish, qo‘lda tayyorlangan qurilmalarda elektromagnit maydon, razryad orqali chaqmoq tasvirini solishtirish tabiatda hali o‘rganilmagan jarayonlardan biri hidoblanadi. Ushbu maqolada mazkur jarayonlar o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: integratsiyalangan kurslar, tabiat hodisalari, teleko‘rsatuvlar, oliy ta’lim, elektrotexnika, elektronika, obyektiv integratsiya.

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПОДГОТОВКУ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

Адиллов Н.Х. - Ташкентский государственный педагогический университет

Аннотация. Изучение инженерной сферы, анализа и апробирования опытов на основе интегративного подхода посредством использования телепередач, сравнение в природе изображения молнии посредством электромагнитного поля, разряда в подручных устройствах являются одними из еще неизученными процессами. В этой статье изучены данные процессы.

Ключевые слова: интегрированные курсы, природные явления, телепередачи, высшее образование, электротехника, электроника, объективная интеграция.

FACTORS INFLUENCING THE PREPARATION OF FUTURE ENGINEERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH

Adilov N.Kh. - Researcher of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. The use of television is also an unexplored process in nature, as is the study of engineering in an integrated approach and the study and experimentation of experimental analysis, the comparison of electromagnetic fields in hand-made devices, and lightning images by discharge. This article examines these processes.

Keywords: integrated courses, natural phenomena, television, higher education, electrical engineering, electronics, objective integrated X-rays, and spherical plasma.

Integrativ ta'lim oddiydan murakkabga, bilishdan ilmga, tartibsizlikdan uyg'unlikka, chanqoqlikdan mohirlikka va ijodga bo'lgan harakatni taklif qiladi.

Integratsiyalangan kurslar talabalarga tushunarli va qiziq bo'lishi uchun bayon qilishning qiyinligi shundaki, bu omilni bartaraf etishning yo'llari amaliyotda tekshirilgan eng ma'qul uslublarni ishlab chiqishda hamda muhandislar tayyorlashning maxsus tizimidadir.

Oliy ta'lim uchun zarur va ustuvor yo'nalishlaridan biri ta'lim mazmunining yangilanishi, darsni innovatsion tajriba va g'oyalarga tayanib, zamonaviylashtirilgan, takomillashtirilgan hamda ilmiy - innovatsion texnologiyalar asosida o'tish zaruriyatini keltirib chiqardi. Chunki, dars ta'lim - tarbiya berishning asosiy o'zagidir. Talabalar o'quv fanlarini chuqur o'rganib borishi davomida uning bilimi mustahkamlanadi, savodxonligi oshib boradi. Fanlar bo'yicha beriladigan ta'lim-tarbiya hayot qonuniyatlari, tabiat dialektikasi, davr talabi asosida talabalarga etkazilsa, har bir o'qituvchi o'z vazifasini sidqidildan bajargan bo'ladi.

E.O.Turdiqulovning tadqiqot ishlarida tabiiy fanlarni integratsiyalab o'qitish muammosi ishlab chiqilgan bo'lib, u olam haqidagi bir butunlikni tashkil etishi nazarda tutilishi, ta'lim integratsiyasi fanlararo bog'lanishning yuqori darajasi, bir butun integrallashgan bilimlarni yaratishga imkon beradigan vositasi ekanligi qayd etilgan.

R.H.Jo'rayev tadqiqot ishlarida ta'limning muhim muammolaridan biri bilimlarni integratsiyalash va tabaqalashtirish masalalari ishlab chiqilgan. Jumladan, olimning fikricha, integratsiya – turli bilimlar tizimi o'rtasida tarkibiy bog'lanishlarni o'rnatish, ularni umumlashtirish, o'quvchilarning tabiat va jamiyat haqidagi yaxlit tassavurlarni shakllantirish uchun xizmat qiladi

Fanlararo integratsiyaga ta'sirni amalga oshirishda quyidagi omillarga to'xtab o'tamiz:

- ta'lim ixtisoslik yo'nalishiga mos bo'lgan ishlab chiqarish obyektlarini tanlash;

- ishlab chiqarish subyekti va ta'lim muassasasi o'rtasida hamkorlikni yuzaga keltirish yo'llarini izlash;

- ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish subyekti o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlash.

Fanlararo aloqadorlikka nima uchun ko'p to'xtalib o'tyapmiz, chunki fanlararo aloqadorlik ta'lim jarayoni elementlari (shakl, mazmun, metod va vositalari)ni bir butun tizimga birlashtirishga, ya'ni integratsiyalashga xizmat qiladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, fanlararo integratsiya ta'lim sifati va samaradorligini amalga oshirishning eng muhim omillaridan biridir.

Fanlararo integratsiyani amalga oshirish uchun:

- o'quv fanlarini o'rganishda shunday ketma-ketlikni tanlash lozimki, bir fanni o'rganish ikkinchi fanni o'rganishga ko'maklashish;

- fanlardagi umumiy bo'lgan tushuncha, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda bir xil yondashuvdan foydalanish;

- fanlarni o'rganishda ko'nikma va malakalar xosil qilishga bo'lgan talablar birligini ta'minlash;

- bitta fanga doir, ko'nikma va malakalarni o'rganishda boshqa fanlardan egallangan bilim, ko'nikma va malakalardan keng foydalanish.

Oliy ta'lim muassasalarida hozirda fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish uchun kompyuter va axborot texnologiyalaridan keng foydalanish yanada ortib bormoqda. Sababi, namoyish etuvchi va nazorat qiluvchi, modellashtiruvchi, o'rgatuvchi, dasturiy pedagogik vositalar talabalarga bilimlarni sintezlash va umumlashtirish, bilish va masalalar yechish metodlarini umumlashgan tarzda o'rganishga yordam beradi.

Tekshirish davomida o'quv fanlarini integratsiyalash jarayonida faol aqliy faoliyatga yordam beruvchi omillar: integratsiyalash uchun fanlarning ma'qul birlashishi, o'qituvchi va o'quvchi harakatlarining mos kelishi, o'quvchilarning yosh imkoniyatlarini hisobga olgan holda mazmun, metod, va vositalarni tanlash.

O'quv fanlarini integratsiyalashning didaktik mohiyati turli o'quv fanlari bo'yicha yangi bilimlarni shakllantirishning konseptual tuzilma va metodlarini aniqlash imkonini beruvchi pedagogik tadbirlar tartibi hamda qonuniyatlarini ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi.

Integratsiyalash mobaynida bir - biriga bog'liqlik hajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarniig ishlashi va o'rganish obyektining yaxlitligi tartibga solinadi. Amaliy integratsiyada ahamiyatga molik bo'lgan jarayonlar asosida texnik mahsulotlarni yaratish nazarda tutiladi.

Har bir o'quv mashg'ulotida o'qitishning elektron vositalari turlarini tanlash – individual ijodiy jarayon. Har bir o'qituvchi uni o'z predmeti mazmunidagi bilimlarni, o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini, ularning tayyorgarlik darajasini, o'quv predmetiga munosabatini inobatga olgan holda bajaradi. [2].

Biz yaratgan qurilmalardan foydalanib integrallashga ta'sir etuvchi omillardan obyektiv integratsiya masalasi — ma'lum bir kurs, bo'lim yoxud mavzuda bir obyektning turli predmetlar bo'yicha obrazlari aks ettirilganda magnit yoxud elektr maydoni, radiatsiya va hokazo bo'ladigan jarayonni ko'rib chiqamiz; obyektiv integratsiya masalasi.



1-rasm. Tayyorlagan qurilmamizda elektromagnit maydonning ko‘rinishi

Bu tasvir O‘zbekiston televideniyesi inovatsion strategiya ko‘rsatuvidan olingan bo‘lib, jarayon to‘liq o‘rganilmagan, darsda obyektiv integratsiya masalasini amalga oshirishda foydalanilgan, materialshunoslik fanini o‘qitish jarayonidagi biz o‘tkazgan tajriba natijalari.

Fizikada hozirgi kunda materianing ikki turi mavjudligi qayd etilgan. Birinchi tur materiyaga atomlar, molekulalar va ulardan tuzilgan barcha moddalar kiradi. Bu turdagi materiallar juda yaxshi o‘rganilgan. Materianing ikkinchi turi maydon, ya’ni elektromagnit, gravitsion kabi maydonlardan iborat bo‘lib, ular hali to‘liq o‘rganilmagan [3].

Aksariyat fizik qonunlar eksperiment orqali ochilgan. Eksperimental ishlar faqat fanlararo integratsiyaviy bilimlar asosidagina amalga oshiriladi. Fanlararo aloqadorlikda nazariy jihatdan ochilgan qonunlar ham eksperimentda o‘z isbotini topsagina qonun sifatida qabul qilinadi. Qurilma turlari ichida yuqori voltli o‘zgartirgich qurilma va kineskopli eski lampali televizorlardan yasalgan elektr yoy qurilma fizika, materialshunoslik, elektrotexnika va elektronika asoslari va ko‘pchilik muhandislik va umumta’lim fanlarga tegishli mavzularni integratsiyalab o‘qitish jarayonida kasbiy faoliyatga yo‘naltirishda asosiy vosita ekanligi haqida to‘xtalib o‘tamiz. Qurilma uning anodididagi kuchlanish 25 kv etsa ham, uning rentgen nurlari darajasi tabiiy quyosh nurlanish fonidagi rentgen nurlari darajasidan yuqori emas, bunga inson organizmi moslashgandir bu rentgen nurlari hosil bo‘lishini o‘rganish kimyo texnologiya sohasida ishlatiladigan rentgen qurilmalarning ishlashi to‘g‘risida talabalarda amaliy ko‘nikma hosil qilishga yordam beradi. Rangli televizorlarda yuqori kuchlanishni stabillash uchun GP-5 tipidagi lampalar qo‘llanilgan televizorda hosil bo‘ladigan kuchsiz rentgen nurlaridan saqlanish uchun mazkur lampalar qalinligi 1-2 mm keladigan po‘lat ekranlar bilan o‘raladi. Bu ekran kuchsiz rentgen nurlanishini kamaytiradiki, bu nurlar sog‘liq uchun xavfli emas.

Sinfdan tashqari ishlarda qiziqarli tajribalar, laboratoriya ishlari va unga mos bo‘lgan qo‘lda yasalgan boshqa asbob-uskunalar bilan almashtirish ishlari

o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlashga, ularning texnikaga moyilligi va ijodiy faolligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, bo'sh vaqtlarini foydali va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Darsdan tashqari vaqtlarida o'quvchilar o'z qo'llari bilan yasagan turli asboblari, modellar, ko'rgazmali o'quv qurollari orqali ularning bilim doirasi kengayadi, natijada ixtirochilik qobiliyatlari rivojlanadi [4].

Bunday televizor va kompyuterlarni biz har kuni kundalik hayotimizda hammamiz ishlatamiz, lekin uning ichki sxemalari elementlarida bo'ladigan jarayonlar zamirida juda ko'pchilik fanlarni integratsiyalab o'qitish imkoniyatlari mavjudligini bilishimiz va amalda qo'llashimiz mumkin. Shuni unutmaslik kerakki, har bir oxirgi modeldagi yaratilgan qurilma shu paytning shu zamon fanlarining integratsiyaviy bilimlar yuksalish darajasi cho'qqisidir.


Kundalik hayotda, xususan, tevarak-atrofimizda yuz berayotgan tabiat hodisalarida, fan-texnika, ishlab chiqarish va maishiy xizmatning barcha jabhasida integratsiyalashmagan faoliyat, jarayonni tasavvur qilish qiyin. Ular mohiyatiga ko'ra ilmiy bilimlar integratsiyasidir. Demak, integratsiya hayotiy ehtiyoj bo'lib, bu jarayonsiz o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi, fan-texnika, ishlab chiqarish va maishiy xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanmaydi. Shu bois "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va boshqa davlat hujjatlarida ta'lim mazmuniga integrativ yondashish alohida qayd qilindi.

Fanlar integratsiyasi vositalari asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish esa murakkab va oldindan aytib bo'lmaydigan tabiatda va ilmiy tadqiqot markazlarida va ishlab chiqarishda sodir bo'ladigan hodisalardagi vaziyatlarning xilma-xilligi, kasbiy faoliyatning oqibatlari haqida g'oyalar olish va ular uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish kabi qobiliyatlarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Shu o'rinda kundalik hayotda uchrab turadigan ko'pchilik fanlar va hali to'laligicha o'rganilmagan yo'nalishlarni birlashtirib integratsiyalab turgan juda qiziqarli tabiatda sodir bo'ladigan chaqmoq va unda sodir bo'ladigan jarayonlar haqida alohida to'xtalib o'tmoqchimiz. Hozirda olimlarda shunday savollar tug'ilmoqda chaqmoq aslida biz talabalarga doimo fizika darslarida ta'lim berib keladigan elektr razryadimikin, yashin hosil bo'lishiga aslida sabab nima. Florida ilmiy tadqiqot maydonida o'rganiladigan jarayon to'g'risida hozirgi kunda "Dunyo bo'ylab" kanalida teleko'rsatuvlar berib borilmoqda.

Aniqlanishicha chaqmoq paytida rentgen va hattoki gamma nurlar hosil bo'layotganligi bu esa kosmik nurlar radiatsiyasi deb nomlangan yangi ilmiy yo'nalish bo'lib, ko'pchilik jihatlari hali aniqlanmagan yo'nalish ekanligi aytilmoqda.


Quyida "Dunyo bo'ylab" telekanalida ko'rsatilgan Florida ilmiy tadqiqot maydonida Berlinlik olimlar tomonidan o'rganilayotgan atmosferada sodir bo'ladigan jarayonni ko'rishimiz mumkin.



2-rasm. Chaqmoq tasviri. Obyektiv integratsiya masalasi

Chaqmoqning o'zi ham juda ko'p rentgen nuridan, ular esa jarayonning ikkilamchi mahsulotlari bo'lib atmosfera kimyosida o'zgarishlar paydo qiladigan fanlararo integratsiyalangan yangi yo'nalishligi aytilmoqda. Yashin hosil bo'lish ortida qanday oqibatlar yashiringan, bizda bu kabi savollarga hanuz aniq javoblar yo'q. Sirli hodisa sanalgan sharsimon chaqmoq laboratoriya sharoitida o'rganilmoqda. Asrlar mobaynida bu hodisani ko'rgan guvohlar uning o'ta xavfli taxdid ekanligini ma'lum qilganlar. Berlinlik olimlar suvdagi elektr toki o'zaro reaksiyaga kirishishi natijasida fanlararo integratsiyaviy bilimlarni o'zida mujassam etgan shar shakldagi plazma xosil bo'lishini isbotladi.

“Dunyo bo'ylab” telekanalidan olingan shar shakldagi plazma tasviri.



3-rasm. Shar plazma obyektiv integratsiya masalasi

Integratsiya - fan bilimlari chegarasida yangi tasavvurlarni qabul qilish vositasi.

Bu esa sharsimon chaqmoq tasviriga o'ta yaqin o'xshashlikni o'zida mujassam etadi. Berlin laboratoriyasida yaratilgan fanlararo integratsiyaviy bilimlarni o'zida mujassam etgan sharsimon chaqmoq bilan bog'liq ko'plab savollar ochiq qolmoqda. Odatda chaqmoq yashinga nisbatan ancha kuchli. Biz keltirgan misollar muhandislik fanlar, (elektrotexnika va elektronika asoslari, materialshunoslik, fanlaridan) materiallarning mexanik elektr va magnit xossalari mavzusini o'rganish jarayonida, talabalarda integratsiyalashgan bilimlarni shakllantirishning obyektivlik tamoyilini amalga oshirish uchun qo'llanilgan omillardan biri bo'lib, talabalarda integratsiyaning asosi bo'lmish tabiat va jamiyat to'g'risida yaxlit tasavvurni shakllantirish ko'nikmasini hosil qila oladigan, ularni o'z ustida yanada ko'proq fanlararo integratsiyaviy bilimlardan foydalanib ilmiy ijodiy izlanishga yo'naltira oladigan qiziqarli samarali usullardan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar

1. Адиллов Н. Х. About the integration of educational subjekest in the system of higher professional education. Special Issue No: 9, Avgust 2020 Novateur publication Indias. A Multidisciplinary Peer Reviewed journal impact factor 7.223 107-108 б.

2. Адиллов Н.Х. Ўқувчиларни касбий фаолиятга тайёрлашда дидактик электрон воситалар ва қурилмалардан фойдаланиш/ “Касб- хунар таълими” журнали. – Тошкент, 2015. 25 б.

3. Адиллов Н.Х., Мустафақулов А., Юлдашев У. Электр ва магнит майдонларнинг тирик организмларга таъсири. // Физика-математика ва информатика, № 2. – Тошкент, 2018. 15-20 б.

4. Физика ютуқлари асосида синфдан ташқари машғулотларда электрон қурилмалар яшаш ва синаб кўриш. // Таълим, фан ва инновация, № 4. – Тошкент, 2017.

INNOVATION PEDOGOGIK TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA BO‘LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Ismailov B.B. - Termiz muhandislik –texnologiya instituti assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Texnika oliy ta’lim muassasalarida innovatsion pedogogik texnologiyalar asosida bo‘lajak muhandislarni tayyorlash metodikasini takomillashtirish deb nomlanib talabalarning ijodiy qobiliyatlarini oshirish hamda innovatsiyalarga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirilishi yoritib berilgan. Muammo texnik muhandislarning ijodkorligini oshirish, o‘z kasbiga nisbatan mas’uliyat bilan qarash ruhida tarbiyalashdan iborat.

Kalit so‘zlar: texnologiya, innovatsion, loyiha, tadbirkorlik, resurs, ehtiyoj, takomillashtirish, ijodiy g‘oya, metod, metodologiya.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

**Исмаилов Б.Б. - ассистент Термезского инженерно-
технологического института**

Аннотация. В данной статье освещаются современные педагогические технологии повышения творческих способностей и развития интереса к инновациям путем совершенствования методической подготовки инженеров-техников на основе инновационных педагогических технологий. Проблема

заклучается в повышении креативности инженеров-техников, воспитании в них чувства ответственности за свою профессию.

Ключевые слова: технология, инновация, дизайн, предприниматель, ресурс, необходимость, улучшение, творческая идеальная идеология, методология.

IMPROVEMENT OF METHODS OF PREPARATION OF FUTURE ENGINEERS ON THE BASIS OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

Ismailov B.B. - Assistant of the Termez Institute of Engineering and Technology

Annotation. This article highlights modern pedagogical technologies for increasing creativity and developing interest in innovation by improving the methodological training of technical engineers based on innovative pedagogical technologies. The problem is to increase the creativity of technical engineers, to educate them in a sense of responsibility for their profession.

Keywords: technology, innovation, design, entrepreneur, resource, necessity, improvement, creative ideal, ideology, methodology.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 19-martdagi PQ 5032 qarorining ijrosini ta’minlash borasida, 2021–2023-yillarda fizika fani bo‘yicha ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlar natijadorligini ta’minlash ta’limda yuqori natijalarda erishish uchun, amaliy va innovatsion loyihalar bo‘yicha yangi ishlanmalar yaratish innovatsion yondashuv asosida talabalarni muhandislik kasbida tayyorlashni takomillashtirish bosh dolzab vazifa etib belgilandi. “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab quvvatlash yili” deb e’lon qilinishi munosabati bilan “Innovatsiya – bu kelajakdir, biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz lozimdir. Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish zarur, buning uchun kerakli moliyaviy resurslarni rejalashtirish hamda ushbu jarayonda iqtidorli yoshlar ishtirokini, ijodiy g‘oya va ishlanmalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash vazifasi e’tiborimiz markazida bo‘ladi”.

Demak, endilikda har bir soha va tizim faoliyatini innovatsion g‘oyalar va texnologiyalar asosida olib borish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. “Innovatsiya” tushunchasi bo‘yicha turlicha talqinlar mavjud bo‘lib, ko‘p hollarda u “yangilik kiritish” tushunchasi sifatida talqin etiladi. Ya’ni, “innovatsiya” yangilik, o‘zgarish degan ma’noni anglatib, vosita va jarayon sifatida qandaydir yangilikning kiritilishini

nazarda tutadi. Demak, yangilik vosita (yangi tartib, uslub, metod, metodologiya, texnologiya va b.) bo‘lib, innovatsiya mazkur vositani o‘zlashtirish jarayoni hisoblanadi [1].

Innovatsiyalarning yangiligi va amaliyotda qo‘llanilishi uning zaruriy asoslari hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, innovatsiya natijalarini innovatsion jarayon bilan birgalikda, o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqish muammoning yechimida yaqinlashtiradi. Innovatsiyalarning o‘ziga xos o‘zaro bog‘liq bo‘lgan uch xususiyati mavjud: ilmiy-texnikaviy yangiligi, qo‘llanilishi, tatbiq etilishi. Oliy ta’limda, bizningcha innovatsion jarayonlari negizida quyidagi yondashuvlarni belgilash kiritish mumkin.

Innovatsion faoliyat jamoani harakatga keltiruvchi, olg‘a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir. “Innovatsion faoliyat-bu yangi ijtimoiy talablar bilan me’yorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me’yorining mavjud me’yor bilan to‘qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmuaviy muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir”, - deb ta’kidlaydi V. I. Slobatchikov [5].

Ma’lumotlarga ko‘ra, XX asrga kelib dunyo miqyosida yoshlarning tabiiy fanlarga bo‘lgan qiziqishlari susayib bormoqda. Ayniqsa, bu tendensiya AQSh, Yaponiya singari rivojlangan mamlakatlarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Zamonaviy amerikalik yoshlar gumanitar sohani ko‘proq afzal ko‘rmoqda. Tabiiy fanlar bo‘yicha tadqiqot sohasi hamda ishlab chiqarishdagi bo‘shab qolgan o‘rinlarni esa, Xitoy, Hindiston va MDH mamlakatlarining vakillari egallamoqda. Mamlakatimiz bu borada texnologik rivojlanish darajasidagi o‘rinlarda turgan bo‘lsada, tashvishlanmasdan bo‘lmaydi. Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, dunyo miqyosida turli davlatlarda ta’lim sifati, kadrlar tayyorlash me’yorlari, talabalar kompetentligiga qo‘yiladigan talablar turli tashkilotlar tomonidan o‘rganiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (10.12.1948y. 217A (III) Rezolyutsiya)»; «Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha birlashgan millatlar tashkiloti Ustavi» (1945-yil, 6-noyabr, London); Ijtimoiy taraqqiyot va rivojlanish deklaratsiyasi (BMT Bosh Assambleyasi, 01. 12.1969-y.); «Bola huquqlari to‘g‘risida»gi Konvensiya (20.11.1989y.); «XXI asr uchun oliy ta’lim: yondashuvlar va amaliy choralar» Butunjahon deklaratsiyasi (09.10.1998y.); Tinchlik madaniyati sohasidagi Deklaratsiya va harakat dasturi (BMT Bosh Assambleyasi, 13.09.1999y.); YuNESKOning «Ta’lim sohasida kamsitishga qarshi kurash to‘g‘risida»gi konvensiyasi (15.12.1960y. Parij); «Texnikaviy va kasb-hunar ta’limi to‘g‘risida»gi konvensiya (10.12.1983y. Parij); «Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi» (25.10.1995y. Parij); «Osiyo va Tinch okeani mintaqasi davlatlarida o‘quv kurslari, oliy ma’lumot to‘g‘risida»gi diplomlar va ilmiy darajalarni tan olish to‘g‘risidagi mintaqaviy konvensiya (16.12.1983y. Bangkok); va

boshqa xalqaro me'yoriy hujjatlar shular jumlasidandir. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yilning 10-dekabrida 217 A (III)-rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ning 23-26-moddalariga muvofiq har bir inson bilim olish huquqiga egadir, ya'ni boshlang'ich va umumiy ta'lim tekin bo'lishi zarur. Ushbu deklaratsiyada texnik va kasb-hunar ta'limi barcha uchun ochiq bo'lishi, oliy ta'lim esa har kimning qobiliyatiga asosan hammaga teng imkoniyat doirasida bo'lmog'i kerakligi belgilangan. Shuningdek, ta'lim - barchaga erkin jamiyatning foydali ishtirokchisi bo'lish imkoniyatini berishi; barcha millatlar, irqiy, etnik va diniy guruhlar o'rtasida hamjihatlik, bag'rikenglik va do'stlikni qo'llab-quvvatlashi; Birlashgan Millatlar Tashkilotiga tinchlikni saqlashda ko'maklashishi darkor [1, 3].

Davlatimizda ham mazkur faoliyatga bog'liq me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 20-maydagi «Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1533-sonli Qarori , 2015-yil 12-iyundagi PF-4732-sonli Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 20-avgustdagi 242-sonli qarorida, 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ – 2909-sonli Qarori , O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3775-sonli Qarorlari xizmat qiladi .

Innovatsion yondashuv olgan bilim va ko'nikmalarini amaliyotga qo'llashgina emas, balki ularni doimiy takomillashtirishni talab etadi. O'qituvchi muhandislarni tayyorlash uchun o'qitish metodlarini tanlash va amaliyotga qo'llash o'z navbatida ta'lim jarayonida qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirishni talab etadi. Oliy ta'limda talabalarga qo'yilgan talablar umumiy malaka talablari va kasbiy malaka talablaridan iborat bo'lib, talabasining nazariy va amaliy tajiribalari darajasiga qo'yilgan umumiy talablar majmuasidan iborat. Ular qatorida, jumladan, quyidagi talablar keltirilgan:

- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va undan samarali foydalanish bilimlarni egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlarni qabul qila olish tegishli ta'lim yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila olishi lozim [2]. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak muhandislarni kasbiy kompetentligini rivojlantirishni tashkil etiladigan innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish, mazkur jarayonga texnik muhandislarning qiziqishlarini rivojlantirish hamda ko'zlangan natijalarga erishishda

innovatsion jarayonlarni oldindan loyihalashtirish va bunda innovatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarur. Bo'lajak muxandis talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda tashkil etiladigan innovatsion jarayonlarni murakkab, ko'p darajali sifatida izohlash mumkin. Talabalar innovatsion faoliyatining eng muhim tavsifi kreativlikdir. Kreativlik atamasi angliya-amerika psixologiyasida o'tgan asrning 60-yillarida paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar innovatsiyalar hosil qilish qobiliyati, hislatini bildiradi.

Kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarga quyidagilar kiradi: fikrning ravonligi; fikrni maqsadga muvofiq qo'llay olish; o'ziga xoslik; qiziquvchanlik; farazlar yaratish qobiliyatidir; [3]. Talabalarda yangilikni qaytadan tiklashga hozirlikni shakllantirish; yangicha harakat qilishga o'rgatish. Innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun talabalarga zarur bo'lgan sifatlar uchun quyidagilar qayd etilgan motivatsiya va innovatsion jarayon haqida bilimlarga ega bo'lishi; texnik muhandislarni loyihalash ko'nikmasi; ixtiro va innovatsiyalarni takomillashtirish ko'nikmasining bo'lishi. Talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning asosiy omillaridan biri talabalar faoliyatining individualligini rivojlantirish hisoblanadi, ya'ni yangiliklarni o'zlashtirish individual-shaxsiy bosqichda amalga oshiriladi. Bo'lajak muxandislar innovatsion faoliyatga tayyorlash to'rtta bosqichda amalga oshiriladi.

1. Talabalarning ijodiy innovatsion qobiliyatini rivojlantirish bosqichida talabalarda ijodiy qobiliyatini aniqlash, tahlil qilish va echimini topish shakllantirish, shuningdek, ijodiy izlanuvchanligini rivojlantirish, ya'ni avval egallangan bilim va ko'nikmalarni yangi vaziyatga mustaqil olib o'tish, ma'lum bo'lgan vaziyatda muammo va obyektning yangi vazifasini ko'ra olish, obyektning tarkibiy qismlarini aniqlash, muqobil echim yoki uning metodlarini ko'rish, avval o'zlashtirilgan faoliyat metodlarini yangi paydo bo'lgan muammo bilan muvofiqlashtirish vositasida uni innovatsion mahsulotga aylantirish hamda talabalarning kreativ fikrlashni rivojlantirishni nazarda tutadi.

2. Talabalar tomonidan ilmiy bilish, texnik tadqiqot bosqichida innovatsion yo'nalishga kirish metodologiyasi asoslarining egallanishi ularni innovatsion qobiliyatini vujudga kelishining ijtimoiy va ilmiy zamini, shart-sharoitlari, uning asosiy tushunchalaridan bilan tanishligi, innovatsion faoliyat texnologiyasini o'zlashtirish bosqichida mualliflik ixtirochilik dasturlarini yaratishda ishtirok etishni tashkil etish, mualliflik dasturlarini mustaqil tuzishni o'zlashtirish, yangiliklarni keyinchalik rivojlanishi hamda yangiliklarni amalyotga qo'llashda shakllantirishni nazarda tutadi [4].

3. Innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish bosqichida tajriba maydonchasida talabalarning amaliy ishini tashkil etish, tuzatish ishlarini olib borish hamda tajriba natijalarini kuzatishni o'z ichiga oladi. Mazkur bosqichda talabalarda kasbiy

faoliyatini o'zi tahlil etish malakasi oshadi, ularning yangiliklarga nisbatan qarashlari, yo'nalishlari, munosabatlari o'zgaradi, innovatsion faoliyati shakllanadi.

Xulosa shundan iboratki, talabalar Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida bo'lajak muhandislarni tayyorlash metodikasini takomillashtirish innovatsion yondashuv jarayonining mazmuni bo'lajak mutaxassislarining kasbiy bilimlarni egallash ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lishi lozim ekanligi isbotlandi. Bunda muhandislik kasbidagi talabalar shaxsiy qiziqishlari, bilim darajalarini aniq hisobga olish lozimligini his etadilar. Talabalar, innovatsion yondashuv asosida ta'lim metodikasini takomillashtirish jarayonida o'z imkoniyatlariga nisbatan ishonch hosil qilib, umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirib, o'z o'quv faoliyatlari uchun mas'uliyatga ega bo'ladilar va o'z kasbining novatorlari bo'lib yetishadi.

Adabiyotlar

1. KarlibaYeva G.E. Fizikadan bilim berish samaradorligini oshirishning ba'zi omillari haqida // Mug'allim ham yzliksiz bilimlendirio'. –Nukus: –2018. –№1. –B. 110-114.
2. Sultonova O'.N. Fizikadan mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish individual va tabaqalashgan yondashuv. O'qitish muammolari. –Toshkent, 2008. –B. 49-51.
3. Razumovskiy V.G. Fizika o'qitish jarayonida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish. // O'qituvchilar uchun qo'llanma. –T.: O'qituvchi, 1989. –B. 284.
4. Раҳимов А.А. Психологическиэ особенности формирования приэмов умственной деятельности на эмпирической и теоретической основе. Автореф. дис. на соиск. уч. степ. канд. пед. наук. – М., 1974. – 19 с.
5. Sultonova O'.N. O'quvchilarning fizikadan mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish. O'qitish muammolari. –Toshkent, 2008. –B. 31-35.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА В МАТЕМАТИЧЕСКИХ КРУЖКАХ

Бабаева М.А. - преподаватель Термезского инженерно-технологического института

Аннотация. Основной целью данной статьи является развитие у учеников умственных способностей в результате компетентного подхода, организация самостоятельной учебной деятельности, применение знаний на практике, основная проблема обучения на основе инновационных подходов. Образование было односторонним, потому что компетентное образование до сих пор не использовалось для решения этой проблемы. В математике лучше

проработать один пример двадцатью разными способами, чем двадцать примеров одним способом. Так и в жизни. Когда человек попадает в проблемную ситуацию, у него должны быть разные варианты выхода из этой ситуации. Целью знания и использования научно-технических инноваций является умение читать и использовать различные формулы, модели, рисунки, графики и диаграммы в повседневной деятельности. В этом и заключается актуальность рассматриваемой статьи.

Ключевые слова: математика, компетентность, умение, мышление, уравнения, неравенства, функции, геометрические фигуры, коммуникативная информация, личность, активная гражданственность, грамотность.

MATEMATIK TO‘GARAKLARDA KOMPETENTLIK YONDASHUVIDAN FOYDALANISH

Babaeva M.A. – Termiz muhandislik - texnologiya instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi kompetensiyaga asoslangan yondashuv natijasida o‘quvchilarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil etish, bilimlarni amaliyotda qo‘llash, innovatsion yondashuvlarga asoslangan ta’limdir. Ta’lim bir tomonlama bo‘ldi, chunki bu muammoni hal qilishda hali kompetent ta’limdan foydalanilmagan.

Matematikada yigirmata misolni bir usulda ishlashdan ko‘ra, yigirma xil usulda bir misol ustida ishlash yaxshiroqdir. Hayotda ham shunday. Biror kishi muammoli vaziyatga tushib qolganda, bu vaziyatdan chiqish uchun turli xil variantlarga ega bo‘lishi kerak. Ilmiy va texnologik yangiliklarni bilish va ulardan foydalanish maqsadi - kundalik faoliyatda turli formulalar, modellar, chizmalar, grafiklar va diagrammalarni o‘qish va ulardan foydalanish qobiliyati. Bu ko‘rib chiqilayotgan maqolaning dolzarbligi.

Kalit so‘zlar: matematika, kompetensiya, malaka, fikrlash, tenglamalar, tengsizliklar, funksiyalar, geometrik figuralar, kommunikativ ma'lumotlar, shaxs, faol fuqarolik, savodxonlik.

USING THE COMPETENCY-BASED APPROACH IN MATHEMATICAL CIRCLES

**Babaeva M.A. -Lecturer of Termez Engineering and Technological
Institute**

Annotation. The main purpose of this article is to develop students' intellectual abilities as a result of a competency-based approach, the organization of independent learning activities, the application of knowledge in practice, the main

problem of education based on innovative approaches. Education has become one-sided because competent education has not yet been used to solve this problem.

In mathematics, it is better to work on one example in twenty different ways than to work on one example in twenty different ways. So it is in life. When a person is in a difficult situation, they need to have different options to get out of it. The goal of knowing and using scientific and technological innovations is the ability to read and use a variety of formulas, models, drawings, graphs, and diagrams in daily activities. This article or section needs sources or references that appear in credible, third-party publications.

Keywords: mathematics, competence, ability, thinking, equations, inequalities, functions, geometric shapes, communicative information, personality, active citizenship, literacy.

Основным видом внеклассной работы по математике в школе являются математические кружки. Вызывая интерес учащихся к предмету, кружки способствуют развитию математического кругозора, творческих способностей учащихся, привитию навыков самостоятельной работы и тем самым повышению качества математической подготовки учащихся. Задания в кружках должны призывать к размышлению, наблюдению, поиску, выдвижению идей, высказыванию своей точки зрения, к творчеству в его разных видах, к полету фантазии. В них непременно присутствие вопросов: “Ваше мнение?”, “Как вы думаете?”, “Каким будет ваше предложение?”, “Как объяснить?”, “Кто прав...?”, “Какую идею вы выдвинете?” и т.п. Таких и подобных им заданий желательно иметь много и предлагать их систематически.

Для многих учеников решение традиционных типовых математических задач – довольно скучное занятие, прежде всего потому, что в этих задачах часто речь идет об упрощенных идеализированных системах и ситуациях, которые имеют весьма слабое отношение к реальному миру. Их решение в малой степени помогают объяснить явления, происходящие в мире, понять их. Они прибавляют ученику уверенности в пользе своих знаний. Поэтому на математических кружках можно использовать нестандартные задачи. Педагогическая цель в этом не закрепление знаний, а использование их для тренировки в определенных видах деятельности, нужных для достижения заданной цели, требуемой условием задачи. Иными словами, подбирая такие задачи которые учат творчески применять знания, размышлять, анализировать ситуации, думать и думать.

Рассмотрим задачи с частично неверными сведениями в условии и на поиск ошибок в решении. Задачи этого типа учат ставить вопрос о

достоверности данных. В жизни таких ситуаций встречается немало, и школьники должны быть подготовлены к встрече с ними.

Пример первый: От пристани A до пристани B моторная лодка двигалась по течению реки равномерно со скоростью 60 км/ч, а обратно от пристани B до пристани A – также равномерно со скоростью 40 км/ч. Нужно найти среднюю скорость движения лодки.

Ученик решая задачу, использовал формулу

$$V_{cp} = \frac{V_1 + V_2}{2}$$

и получил ответ 50 км/ч. Правильно ли решил задачу ученик?

Если нет, найдите его ошибку и дайте верное решение.

Решение. Задача решена неверно. Ошибка ученика в том, что он использовал формулу, справедливую для случая, когда промежутки времени, в течение которых тело двигалось со скоростями V_1 и V_2 , равны, т.е. $t_1 = t_2$, но этого указания в условии задачи нет.

Правильное решение будет таким:

$$V_{cp} = \frac{2l}{t_1 + t_2},$$

где l – расстояние от A до B . После выражения t через V получим

$$V_{cp} = \frac{2V_1 \cdot V_2}{V_1 + V_2},$$

откуда

$$V_{cp} = \frac{2 \cdot 60 \text{ км/ч} \cdot 40 \text{ км/ч}}{(60 + 40) \text{ км/ч}} = 48 \text{ км/ч}.$$

Есть еще один важный момент, на который нужно обратить внимание: для того чтобы эти задания не стали в ряд традиционных и не просто дополнили их список, а полноценно выполняли свою развивающую функцию и активно помогали реализовывать деятельностный подход к обучению, нужно обязательно просить учеников составлять план их решения и после завершения работы проводить рефлексию действий. Эти меры помогут ученику в процессе работы учиться действовать осмысленно и совершенствовать свою деятельность. Приводим подборку разных развивающих заданий, которая суммирует задачи на движение. Эти задачи встречаются в жизни, и школьники должны быть подготовлены к встрече с ними.

Задания, требующие творческого мышления. Такие задачи требуют учащимся воспользоваться своими знаниями и навыками, мыслить творчески.

Пример второй: Возьмем любое 1962-значное число, делящееся на 9. Сумму его цифр обозначим через a , сумму цифр числа a через b , сумму цифр b – через c . Чему равно c ?

Сумма цифр любого числа дает при делении на 9 тот же остаток, что само число.

Например, $123:9=13(6 \text{ в ост})$ $1+2+3=6$ $6:9=0(6 \text{ в ост})$

Вывод: При решении физических и математических задач во внеурочной деятельности с использованием физических формул и геометрических понятий важную роль играет способность ученика изучать оба предмета независимо и связывать их с жизнью. Для этого нужен опыт и педагогические навыки учителя. Преподаватель должен улучшить когнитивные способности учащихся на протяжении всего учебного процесса, научить их работать самостоятельно, правильно объяснять условия проблемы, правильно мыслить, анализировать, применять теоретические знания на практике. На этом этапе важно, чтобы учитель правильно интерпретировал проблему и связывал ее с жизнью в умах учеников.

Литературы

1. Браверман Э.М., Преподавание физики, развивающее ученика // пособие для учителей и методистов. Москва. 2003. Ассоциация учителей физики, - С 247-253.
2. Петраков И.С., Математические кружки в 8-10 классах // Книга для учителя. Москва: Просвещение, 1987. - С. 49 – 50.
3. Васильев Н.Б., Егоров А.А. Задачи всесоюзных математических олимпиад. Москва. 1988. Наука.-С.24.

TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA AKT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MODELII

Raxmonov B.N. – Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada AKT kompetensiyasining to'rt komponentli tuzilishi va talabalarning AKT kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan fanlararo kurs modeli sxemasi keltirilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiya, raqamli avlod, axborot texnologiyalar, tendensiya, raqamli jamiyat, ta'lim modernizatsiyasi, AKT kompetensiya, motivatsion, integratsiya, fanlararo integratsiya, elektron ta'lim, resurs, an'anaviy ta'lim va elektron ta'lim.

МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ИКТ-КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКИХ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Рахмонов Б.Н. - преподаватель Каршинского инженерно-экономического института

Аннотация. В статье представлена четырехкомпонентная структура ИКТ-компетентности и схема модели междисциплинарного курса, направленная на развитие ИКТ-компетентности студентов.

Ключевые слова: цифровые технологии, цифровое поколение, информационные технологии, тренд, цифровое общество, модернизация образования, ИКТ-компетентность, мотивационная, интеграция, междисциплинарная интеграция, электронное обучение, ресурс, традиционное образование и электронное обучение.

MODEL OF THE DEVELOPMENT OF THE REAL COMPETENCE OF STUDENTS OF TECHNICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

**Raxmonov B.N. - Lecturer at the Karshi Institute of Engineering
Economics**

Annotation: This article presents the four-component structure of ICT competence and the scheme of the interdisciplinary course model aimed at developing students' ICT competence.

Keywords: Digital technology, digital generation, information technology, trend, digital society, modernization of education, ICT competence, motivational, integration, interdisciplinary integration, e-learning, resource, traditional education and e-learning.

Zamonaviy jamiyatda iqtisodiyotning o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarda ishlashga qodir bo'lgan professional harakatchanlikka ega malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoji ortib bormoqda. Hozirgi kunda inson hayoti va faoliyatining barcha sohalariga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, balki ortiqcha vaqt va harajatlarni ham kamaytiradi.

“Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi loyihasi”da oliy ta’lim va oliy ta’limning raqamli ta’lim jarayonini shakllantirish zaruriyatini keltirib chiqaruvchi omillar qayd etilgan. Bu omillar raqamli jamiyatning uchta tarkibiy qismidir:

- raqamli avlod (maxsus ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga ega talabalarning yangi avlodi);
- raqamli muhitni shakllantiradigan va unda rivojlanadigan yangi raqamli texnologiyalar (“ilg‘or”, “aqlli”, ”SMART”) (masalan, telekommunikatsiya texnologiyalari; katta ma’lumotlar; sun’iy intellekt; virtual va vizual texnologiyalar);
- raqamli iqtisodiyot va u tomonidan yaratilgan kadrlar uchun yangi talablar qo‘yiladi.

Bu tendensiyalar, ayniqsa, yosh avlodni zamonaviy raqamli jamiyatda ishlashi va hayotga tayyorlashiga o‘qituvchilar uchun dolzarbdir.

Raqamli ta’limni qurish davlat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishi sifatida qaraladi, bu strategik hujjatlarda o‘z aksini topadi: O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 05.10.2020 yildagi PF-6079-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 15.06.2021 yildagi 373-sonli qarorlari raqamlashtirish sharoitida talabalar o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishga tayyor bo‘lishi kerak, kompyuter vositalari va raqamli texnologiyalarning butun majmuasi va xilma-xilligidan maqsadli foydalanish, bu ta’limni modernizatsiya qilish doirasidagi bir qator yangi loyihalar bilan bog‘liq.

Shunga ko‘ra, texnika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak muhandisni tayyorlash axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalardan foydalangan holda amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim asosida amalga oshirilishi kerak, bu esa oliy matematika va AKT sohasidagi chuqur bilimlarni innovatsion rivojlanishning asosi sifatida belgilab beradi, ya’ni talabalarda AKT kompetensiyasini shakllantirish masalasi dolzarbligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili va metod

Tadqiqot ishlarida bo‘lajak muhandislarning AKT kompetensiyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan fanlar o‘quv materialini mazmunini fanlarni o‘qitishni integratsiyalashgan holda va tizimli fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish zarurligini asoslab beradi.


Jumladan, S.A. Zayseva tadqiqot ishlarida bo‘lajak muhandislarning AKT kompetensiyasini shakllantirishga integratsiyalashgan yondashuvga asoslangan konsepsiyani ishlab chiqadi, uning yo‘nalishlaridan biri oliy matematika fani va kasbiy ta’lim fanlarining integratsiyasi bo‘lib, o‘qituvchi faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini axborotlashtirish kontekstida aks ettiradi [4].

Talabalarda AKT kompetensiyasini shakllantirish uchun oliy matematika va umumkasbiy fanlarning integratsiyasi ta’minlanmagan. Professional modul bir yoki bir nechta fanlararo kurslarni o‘z ichiga oladi. Talabalar kasbiy modullarni o‘zlashtirganlarida, o‘quv va (yoki) ishlab chiqarish amaliyoti (mutaxassislik profiliga muvofiq) amalga oshiriladi [5].


AKT kompetensiyasini shakllantirishda oliy matematika va muhandislik sohasidagi uzviylik asosini tashkil etuvchi fanlararo aloqalarni hisobga olish zarurligi ta’kidlandi. Bo‘lajak muhandislarning AKT kompetensiyasini yaxlit shakllantirish mutaxassislik talabalari uchun fanlararo kurs modelida aks ettirilgan kasbiy modullardan birining fanlararo kursi doirasida qarab chiqish mumkin.

Muhokama AKT kompetensiyasining to‘rt komponentli tuzilishini taklif qilamiz: motivatsion-qiyamatli, umumiy foydalanuvchi, umumiy pedagogik, fan-pedagogik komponentlar [3] (1-jadval).

1-jadval.



NATIJARAR. Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining АКТ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan fanlararo kurs modeli sxemasi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining AKT kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan fanlararo kurs modeli

Maqsadli fanlararo kursni o'rganayotganda texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining AKT kompetensiyasini shakllantirishda uning resurs ta'minotini hisobga olish zarur: fanlararo kurs uchun oliy matematika fanidan elektron o'quv-uslubiy majmua (EO'UM), elektron resurslar, raqamli texnologiyalardan foydalanish uchun o'quv qo'llanma; va AKT laboratoriyalari, multimedia ma'ruza zali, ta'lim muassasasining integratsiyalashgan axborot-ta'lim muhiti, ishlab chiqarishning predmetli muhiti, jihozlar. "Energetika"ga ixtisoslashtirilgan kompetensiya markazi.

XULOSA. Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining AKT kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan modeli sxemasining amaliyotga tatbiq etish bo'yicha amalga oshirilgan barcha ishlar quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1. Talabalarga fanlararo integratsiya sharoitida elektron ta'lim resurslaridan foydalanishdagi ehtiyoji va talablari aniqlangan.
2. Fanlararo integratsiyani – an'anaviy va elektron ta'lim shakllarini o'zida mujassamlashtirgan hamda pedagogik texnologiyalaridan samarali foydalaniladigan o'qitish shakli ekanligi aniqlangan.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси (29.12.2020) // <http://uza.uz/posts/3329>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги “Рақамли Ўзбекистон-2030” стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ–6079-сон Фармони // ҚХММБ: 06/20/6079/1349. 06.10.2020 й.
3. *Вербницкий А.А. «Цифровое поколение»: проблемы образования // Профессиональное образование. Столица. 2016. № 7. С. 10–13*
4. Зайцева С.А. Система формирования информационной и коммуникационной компетентности будущих учителей начальных классов в педагогическом вузе: дис. ... доктора педагогических наук: 13.00.08. - Шуя, 2011. - 423 с.
5. Смирнова И.Н. Формирование профессиональной готовности будущего учителя экономики к использованию информационных технологий: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08. - Липецк, 2007. - 185 с.

OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA MOTIVATSION SOHA QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

Abduraxmonova D.A. - Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida motivatsion soha qadriyatlarini shakllantirish ko'nikmalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: motivatsiya, maqsad, o'quv motivi, qadriyat, omil.

ФОРМИРОВАНИЕ ЦЕННОСТЕЙ МОТИВАЦИОННОЙ СФЕРЫ У СТУДЕНТОВ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ

Абдурахмонова Д.А. - преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В данной статье представлены навыки формирования ценностей мотивационного поля в процессе подготовки студентов высшей школы к профессиональной деятельности.

Ключевые слова: мотивация, цель, мотив обучения, ценность, фактор.

FORMATION OF VALUES OF THE MOTIVATIONAL SPHERE AMONG STUDENTS OF A HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTION

Abduraxmonova D.A. - Teacher of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. This article presents the skills of forming the values of the motivational field in the process of preparing students of higher education for professional activities.

Keywords: motivation, purpose, learning motive, value, factor.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlarining asosiylaridan biri – bu yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalash. Albatta, barkamol inson deyilganda ma’naviy jihatdan yetuk, o‘z Vatanining tarixi, buguni va kelajagi uchun qayg‘uradigan hamda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shishi ishtiyoqida yonib yashaydigan shaxsni tarbiyalash bugungi kun talabiga hamohangdir. Ushbu tushunchaga tahliliy yondashilsa, uning naqadar serqirra, murakkab va har tomonlama umuminsoniy qadriyatlarga mos kelishini idrok etish mumkin.

Aytish mumkinki, barkamol insonning shakllanishi, uning munosib kasbkorni egallashi, jamiyat taraqqiyoti uchun baholi qudrat o‘z hissasini qo‘shib yashashi va shu tufayli jamiyatda o‘zligini anglashi, namoyon etishi, bir so‘z bilan aytganda shaxs sifatida kamol topishi nazarga olinadi. Komillik sari intilish shaxsning kasbiy shakllanishi bilan birgalikda, yaxlit holda kechadigan va deyarli bir umr davom etadigan murakkab jarayondir. Keng ma’noda kasbiy shakllanish deyilganda, insonning o‘z aqliy qobiliyatlari, jismoniy imkoniyatlari, u yoki bu sohaga bo‘lgan layoqatlari, qiziqish va intilishlari, shuningdek, qadriyat va dunyoqarashlariga ko‘ra biron bir kasb sohasiga oid ta’lim olishi, keyinchalik shu sohaga kirishib, moslasha borishi va nihoyat, yillar davomida yetuk va malakali mutuxassis bo‘lib etishishi tushuniladi.

Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o‘ta muhim bosqichi bo‘lajak kasbni tanlash, ya’ni aniq bir kasbiy qarorga kelishgacha davrni o‘z ichiga oladi.

Ma’lumki, uzluksiz ta’lim tizimida umumiy o‘rta ta’limning bitiruvchi 9-sinf o‘quvchilari o‘rta maktablarni yakunlash arafasida o‘zlarining kelajakdagi orzu-umidlarini amalga oshirish, yoshlik his-tuyg‘ulari va ehtirolarga to‘la hayot pallasidir. Ontogenezda bu davr o‘zining mustaqil hayotga qadam qo‘yayotgan yoshlarning fuqarolik maqomiga ega bo‘lishlari, shaxsiy, ijtimoiy va ma’naviy qarashlari va e’tiqodlari singari o‘ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadi. Shunday ekan, ayni shu davrda shaxsning hayot ostonasida o‘z maqsadlarini to‘g‘ri qo‘ya olishi, kelgusida o‘ziga ishonch va dadil qadam bilan yurishida mutasaddi shaxslarning mas’uliyati yanada oshishi zarur [2].

Ma'lumki, motivlar – kishining muayyan maqsad sari intilishida uni harakatga keltiruvchi ichki quvvat manbai hisoblanadi. Motivlar inson faoliyati jarayonida konkret ehtiyoj sifatida namoyon bo'lib, mazkur faoliyatni amalga oshirish tufayli qondiriladi. Inson faoliyati motivlari turlicha ko'rinish va tuzilishga ega, chunonchi, organik, funksional, moddiy, ijtimoiy, ma'naviy va shu kabilardir hamda tanlagan kasbga ijobiy munosabatni shakllantirish hisobiga shaxsda o'quv motivatsiyasini oshirish;

Ma'lumki, shaxsning ijtimoiy shartlangan muhim sifatlaridan biri – shaxsning yo'nalganligi, ya'ni motivatsiyasi.

Motivatsiya shaxsning barcha xatti-harakatlarini umumiy va yagona maqsad sari etaklovchi, undovchi, uning barqaror faoliyatini to'la ta'minlovchi shaxs tuzilishidagi muhim psixologik jarayondir. Undagi motivlar, ehtiyoj va qiziqishlar, mayl va xohishlar, ichki stimullar motivatsiyaning yadrosini tashkil etadi.

Dj. Ravenning fikricha, umumiy kompetentlik tabiatini tadqiq qilishda “motivatsiya – maqsad – xulq-atvor” tushunchalariga tayaniladi, ya'ni kompetentlikni qadriyatni yo'nalishsiz baholash mumkin emas deydi. Olim taklif etgan modelda qobiliyatni emas, balki eng muhimi motivatsiyani baholash nazarda tutiladi. Muallifning e'tirof etishicha, kompetentlik inson psixikasining qa'rida tug'iladi hamda “yashash muhiti”ga bog'liq holda shakllanadi va rivojlanadi (muhit uning rivojlanishiga to'sqinlik qilishi ham mumkin). “Yashash muhiti” deyilganda oila, maktabgacha ta'lim muassasasi, maktab, litsey, kollej, oliy o'quv yurti, ishchilar jamoasi, mikrososium (do'stlar, tanish-bilishlar va boshqalar) nazarda tutiladi. Ya'ni ko'nikma insonning irsiy, biologik qobiliyati, qiziqish mayli sifatida uning “ichki olami”da tug'iladi, tabiatiga ko'ra subyektiv sifat bo'lib, obyektiv shart-sharoitlarga bog'liq ravishda shakllanadi va rivojlanadi. Ko'nikma o'z ichiga nafaqat intellektni, balki effektiv xulq-atvor, qobiliyat, ichki motivatsiyani ham qamrab oladi. Ichki motivatsiya individning qadriyatlarini belgilab beradi, olimning fikricha, u ko'nikmaning rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega [3].

O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, motivatsiya tushunchasi motiv tushunchasiga nisbatan keng va uzoq maqsadni, istiqbolli rejalarni ko'zlovchi psixologik sifat jarayoni hisoblanadi. Ma'lumki, shaxsning dispozitsion va situativ motivatsiyalari, uning ichki va tashqi xulqlarining uyg'unligini ta'minlovchi harakat manbai. Shaxs tuzilishida motivatsiyalar ijtimoiy shartlangan komponent hisoblanib, ta'lim-tarbiya jarayonida rivojlantiriladi.

Mazkur metodika B.R.Qodirov tomonidan yaratilgan bo'lib, uning dastlabki varianti o'quvchilarning “O'quv motivlarini” o'rganishga qaratilgan bo'lib, 28 ta savoldan iborat bo'lgan. Biroq ba'zi savollar o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra, motivatsion sohani o'rganishga yo'naltirilganligi sabab, biz uning yangi variantini 34

ta savoldan iborat, zamonaviy o'zgarishlar manzarasida kechayotgan voqea va hodisalar mazmunidan kelib chiqqan holda tadqiqot ishlarimizga moslashtirildi [1].

Yuqorida zikr etilgandek, tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsadlarimiz jamiyatda yoshlarning o'z o'rnini topa bilishi, atrofdagilarning hurmat-e'tiborini qozonishga intilish, o'zi va o'zgalar nigohida o'zining nimalarga qodir ekanligini isbotlashga urinish, kelgusida o'z taqdiri va Vatanining istiqbollari bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlashga qaratilgan. Zero, keskin o'zgarish va islohotlar manzarasi hamda qadriyatlar mavqeining o'zgarib borishi ta'sirida bugungi yoshlarning ertangi kunga bo'lgan munosabatini bilish, haqiqiy insonlarni befarq qoldirmasligi tabiiy.

Shu nuqtayi nazardan savollarning mazmun va mohiyatiga ko'ra, ularni umumlashtirdik va 4 omilga bo'lishni maqsadga muvofiq deb bildik. Ular quyidagi omillar [4]:

Birinchi omil – *aniq maqsad va vazifaga yo'naltirilganlik omili*. Ushbu omilda, o'quvchi-yoshlarning bo'lg'usi kasbiga oid bilimlarni o'zlashtirishga hayrixohligi, predmetlarning nimaga yaroqli ekanligini, biror narsani isbotlashga urinish har doim ham muvaffaqiyatga olib kelavermasligi, o'rta maktabni tezda yakunlab, biror kasb egasi bo'lish istagini bildirishgan.

Olingan javoblarning sifat tahlillari, o'quvchi-yoshlarning bo'lajak kasbiga oid tushunchalari barqaror ekanligidan, ularning diqqat-e'tiborini o'z kasbiga oid ma'lumotlar qiziqtirayotganligidan, atrofdagilarga nisbatan birmuncha befarqlik hissi esa, ularning kelajakdagi maslakhatlari, yosh va intellektual xususiyatlari, yangi hayot bo'sag'asida qaror qabul qilish mas'uliyati turganligi bilan izohlash mumkin.

Ikkinchi omil – *mashg'ulotlarga nisbatan birmuncha sovuqqonlik va ichki himoyalalanish omili*. Mazkur omilda, o'quvchilar mashg'ulotlarning haddan ziyod vazifa va topshiriqlar bilan yuklanganligi, uyga berilayotgan topshiriqlarning murakkabligini, mashg'ulotlarni tezroq yakunlab, uylariga oshiqishini, uy yumushlarida ham ularning o'rni borligini ta'kidlashadi.

Darhaqiqat, o'quvchilarning oila tarbiyasidagi o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning uy-ro'zg'or yumushlarida ham munosib ulushlari bor, biroq bu holat ularni maktabdagi ta'lim-tarbiya ishlaridan ozod qilish degani emas. Sir emas, raqobatbardor, malakali mutaxassislar tayyorlash davrida munosib bilim va intellektual salohiyatga ega bo'lish davr talabiga aylanib bormoqda. Shu sabab, ta'lim jarayoni subyektlari bu jarayonni to'g'ri idrok etishlari, bilimlarni o'z vaqtida o'zlashtirishlari, buning uchun o'qituvchi mashg'ulotlarni zamonaviy tamoyillar asosida uyushtirishi maqsadga muvofiqdir.

Uchinchi omil – *ta'limni qulay uyushtirish omili*. Ushbu omildan o'rin egallagan javoblarning mazmuni, o'quvchilarning mashg'ulotlarda qo'yiladigan baho

va ballarning shart emasligini, darslar shoshilmay, asta-sekin o‘tilishini, maktabning ahamiyatini haddan ziyod bo‘rttirib yubormasligiga urg‘u berishadi.

Fikrimizcha, o‘quvchilar rang-barang ma‘lumotlar, turli kashfiyot va ixtirolar manzarasida ularning barchasini o‘zlashtirishga ulgira olmayotganligidan, mashg‘ulotlar jarayonida baholash esa ularni jazolashdek idrok etilishiga ishora qilayotgandek. Bu o‘rinda, shubhasiz, ta‘lim jarayoni mutasaddi shaxslardan ijodkorlikni, mashg‘ulotlarda noan‘anaviy metodlardan ham samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yishni taqozo etadi. Bunday yondashish talabaning jismonan va aqlan samarali faoliyat yuritishga imkon berishi, tabiiydir.

To‘rtinchi omil – ta‘lim - ma‘naviy boyluk va munosib kelajak garovi omili.

Natijalarni miqdor va sifat jihatdan tahlil qilish jarayonida, bizni quvontirgan holat ayni shu omil bo‘yicha olingan ma‘lumotlar bo‘ldi. Ahamiyatga molik bo‘lgan omil yuklamalarining eng yuqori ko‘rsatkichlari ham shu omil doirasida ko‘zga tashlanadi. Zero, bu omilda ta‘lim – ma‘naviy boyluk sifatida, albatta, kelajak uchun mustahkam poydevor yaratib berishi, o‘z xalqi, Vatanining ravnaqi uchun o‘qimishli, bilimli bo‘lishlari shart ekanligini ta‘kidlashadi. Tahlillar, yaxshi va sifatli bilimning har qanday davrda ham o‘z qiymatini yo‘qOliy ta‘lim muassasasiaganligidan, taraqqiyotning barcha bosqichlarida uning muvaffaqiyatli garovi ekanligidan dalolat beradi.

Bu esa, ta‘lim-tarbiya jarayonining barcha mutasaddi shaxslaridan islohotlarni amalga oshirish yo‘lida yanada samarali mehnat qilishni, bugun kechagiga nisbatan, ertaga bugungiga nisbatan unumli mehnat qilishga chorlaydi.

Adabiyotlar

1. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Т.: 2004.
2. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.:1989.
3. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.:1995.
4. Бозорова С. Олий мактабда касбий йўналтирилган ўқитиш технологиялари. – Т.:2000.

ONA TILINI O‘QITISH JARAYONIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Choriyeva Z.T. – Qarshi davlat universiteti Pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tilini o‘qitish jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini takomillashtirishning

muhim omillari keltirib o'tilgan. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining nutqiy darajasini aniqlovchi testlardan foydalanish haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetentlik, kasbiy tayyorgarlik, kompleks yondashuv, nutq madaniyati, diagnostik test, talaba, nutqiy malaka

ПОВЫШЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ РОДНОМУ ЯЗЫКУ

**Чориева З.Т. - старший преподаватель Педагогического института
Каршинского государственного университета**

Аннотация. В данной статье выделены важные факторы повышения профессиональной компетентности будущих учителей начальных классов в процессе обучения родному языку. Приведена информация об использовании тестов для определения уровня речи будущих учителей начальных классов.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, профессиональная подготовка, комплексный подход, культура речи, диагностический тест, студент, навык речи.

IMPROVING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS OF PRIMARY EDUCATION IN THE PROCESS OF TEACHING THE NATIVE LANGUAGE

**Choriyeva Z.T. - Senior Lecturer, Pedagogical Institute, Karshi State
University**

Annotation. This article highlights important factors in improving the professional competence of future primary school teachers in the process of teaching their mother tongue. Information is provided on the use of tests to determine the level of speech of future primary school teachers.

Keywords: professional competence, professional training, integrated approach, speech culture, diagnostic test, student, speaking skills

Jahonda ta'lim XXI asrning barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, Koreya Respublikasida o'tkazilgan xalqaro ta'lim forumida 2030-yilgacha belgilangan konsepsiyada "butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" [1] dolzarbligi qayd etilgan. Bu boshlang'ich ta'lim talabalari o'quv faoliyatida metodik tayyorgarlik darajasini oshirish, innovatsion yondashuv asosida mustaqil ta'lim olish jarayonini tashkil etish, ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanib bilim, ko'nikma va

malakasini oshirish uchun o'quv-metodik ta'minotni yaratish imkoniyatini kengaytirdi.

Kasbiy kompetentlikni shakllantirish muammosi ijtimoiy islohotlar vaqtida ayniqsa muhim hisoblanadi. Mazkur sharoitlarda inson faoliyatining miqdor va sifat ko'rsatkichlari to'g'risidagi masala ustuvor ahamiyatli hisoblanadi. Insonning kasbiy faoliyatga jalb etilganligi faoliyat subyektining shaxsi, kasbiy tayyorgarligi, tajribasining va kasbiy muhim sifatlarining mavjudligiga bog'liq. Boshqa tomondan, bu shuningdek, obyekt xususiyatlari va faoliyat sohasiga, mazkur kasb xususiyatlariga va kasbiy faoliyatning aniq turiga bog'liq bo'lib, ular ta'lim mazmuni, yo'nalganligi va muddatini, shuningdek, kasbiy tayyorgarlik vositalari va metodlarini belgilaydi.

Jahon ta'lim makoniga integratsiya jarayoni respublika ta'lim tizimini modernizatsiyalashni talab etadi. Ta'lim islohoti muvaffaqiyatining asosiy mezonlari mamlakatimiz har qanday fuqarosi tegishli ma'lumot va malakani egallab, mehnat bozorida mutaxassis bo'la oladigan darajaga erishishi hisoblanadi. Bundan kelib chiqib, ta'lim tizimi oldiga "aqli iqtisodiyot"ni shakllantirish vazifasi qo'yiladi va "uni shakllantirish uchun, avvalo o'zining shaxsiy inson kapitalini rivojlantirish kerak".

Shu tariqa, kasbiy tayyorgarlik – bu mutaxassisning intellektual, psixologik, ma'naviy va amaliy kompetensiyalari tizimi bo'lib, ma'lum kasbiy faoliyat sohasidagi egallangan bilim, ko'nikma, tajriba va boshqa xususiyatlar darajasini ifodalaydi.

Kasbiy faoliyat tuzilmasini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirishning o'quv va darsdan tashqari faoliyati doirasida ta'minlanishi kerak. Mazkur ta'minotni izlash tabiiy ravishda bizni, o'quv faoliyati kasbiy faoliyatdan motivlar, maqsadlar, predmeti, hatti-harakatlari, vositalari, natijalari bo'yicha sezilarli farqlanganligi sababli o'quv faoliyatini kasbiy faoliyatga aylantirishning yo'llari va vositalarini izlash zarurligi to'g'risidagi xulosaga olib keladi. Hozirgi vaqtda ta'lim sohasida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda va ular mavjud sharoitlarda boshlang'ich ta'lim talabalarining bilim, ko'nikma va malakasini oshirishda yangi ustuvorliklarni yuzaga keltiradi [7].

Shuning uchun, talabalarni o'quv faoliyatiga taalluqli qonunchilik hujjatlarida quyidagi vazifalar aniq belgilangan: keng fundamental bilimlarga ega bo'lgan, tashabbuskor, mehnat bozori va texnologiyalarning o'zgaruvchan talablariga moslasha oladigan yangi turdagi mutaxassislarni tayyorlash; butun ta'lim tizimining ta'lim jarayonini demokratlashtirish orqali barcha sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatishga motivatsiyasini kuchaytirish; talabalarining sifatli ta'lim olish huquqlarini mustahkamlash, Oliy ta'lim tizimida rahbar va professor-o'qituvchilarning sifatli

ta'lim xizmatlarini taqdim etishga javobgarliklarini belgilovchi mexanizmlarni ishlab chiqish va joriy etish.

Yuqorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda va talabalarni kasbiy tayyorlash sohasidagi sifatli o'zgarishlarni ta'minlash Oliy ta'lim tizimining vazifasi hisoblanadi. Ta'limda kompotentli yondashuvni amalga oshirish boshlang'ich ta'lim talabalarini bilim, ko'nikma va malakasini oshirishning kasbiy faoliyatga tayyorgarliklarini oshirishning samarali metodikalari va vositalarini ishlab chiqish kabi murakkab vazifalarini qo'yadi.

Ma'lumki, ta'lim mazmuni jamiyatning har tomonlama rivojlangan mutaxassisni tayyorlashga ijtimoiy buyurtmasini amalga oshirishning pedagogik modeli sifatida xizmat qiladi. Ta'lim mazmuni esa mazkur modelning ahamiyatli elementi sifatida, pedagog va talabaning faoliyatini belgilovchi o'quv axboroti qayd etiladigan element sifatida xizmat qiladi [3]. Bundan tashqari, ta'lim mazmuni talabaning ta'lim, tarbiya va rivojlanishi jarayoni quriladigan bazasi hisoblanadi, ya'ni mazkur pedagogik modelning amalga oshirilishi sodir bo'ladi.

Bunday kompleks yondashuv ona tili o'qitish metodikasi fanining mazmunini mazmunli strukturasi batafsil ishlab chiqish hisobiga yangilash imkonini beradi. Asosiy g'oya – tanlangan ilmiy bilimlarning tabaqalashtirilishi; faqat yetakchi bilimlarni samarali o'zlashtirishga ko'maklashuvchi qo'shimcha yoki ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan bilimlarni puxta aniqlashdan iboradir.[8]

Hozirgi vaqtda ta'limda bilimlarni etkazish emas, balki ta'lim oluvchining shaxsi asosiy hisoblanadi. Ta'limning innovatsion metodikalar tizimini tashkil etishning asosi sifatida nochiziqli ta'lim insonda kerakli axborotga kerakli joyda va kerakli vaqtda qobiliyatni shakllantiruvchi o'qitishning maxsus metodlarini qo'llashni ko'zda tutadi.

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida boshlang'ich ta'lim talabalariga talablar o'sib bormoqda. Shuning uchun boshlang'ich ta'lim talabalariga ta'lim berish sifatini takomillashtirish, talabalarni turli kommunikativ sharoitlarda, avvalo bevosita kasbiy faoliyatda til vositalaridan to'g'ri foydalanishga o'rgatish, pedagogik muloqot madaniyatini o'rgatish, pedagogik kommunikatsiya jarayonida o'quvchilarga samarali ta'sir ko'rsatuvchi ifodali to'g'ri nutq malakalarini shakllantirish zarurati bilan bog'liq.

Boshlang'ich ta'lim talabasining nutq madaniyatini rivojlantirish, bir tomondan o'qitishni optimallashtirish vositasi sifatida, boshqa tomondan esa – uning tarbiyaviy ta'siri omili sifatida qaraladi. Talabaga alohida talablar qo'yilib, ulardan biri – o'quvchilar bilan ularda muloqot, faoliyat, ta'lim jarayonining teng huquqli sherigini ko'rishga asoslangan muloqot qilish malakasi hisoblanadi. Bu o'quvchilar bilan nutqiy aloqa o'rnatish, sinfga ta'sirini ko'rsata olish, o'quvchilarning ruhiy

holatlarini tushunish, ularning fikrlarini inobatga olish, ta'lim oluvchilarning nutq jarayonlarini boshqarishni ko'zda tutadi.

Boshlang'ich ta'lim talabasi namunaviy nutqning haqiqiy tashuvchisi bo'lishi kerak. Agar uning lug'at zaxirasi boy bo'lmasa, uning o'z nutqi ifodali bo'lmasa, u o'z fikrlarini ifodalashda bir xillikdan qochish uchun sinonim til vositalaridan foydalana olmasa, o'quvchilarning umumiy nutq madaniyatlarining yuqori darajasiga erisha olmaydi.

Boshlang'ich ta'lim talabasining vazifasi – o'quvchilar uning diksiyasi, intonatsiyasi, til me'yorlari va uslubiga taqlid qilishlari uchun to'g'ri o'zbek tilining targ'ibochisi bo'lishi kerak. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi nutqi mazmunli, stilistik va orfografik xatoliklariga yo'l qo'yish mumkin emas. Amaliyot jarayonida o'quvchilar talabada bunday kamchiliklarni aniqlashlari salbiy holat hisoblanadi. Bundan Oliy ta'lim tizimida ona tili madaniyati muammosiga alohida e'tibor qaratilishi lozimligi ayon bo'ladi. Boshlang'ich ta'lim talabalarini bilim, ko'nikma va malakasini oshirishda ularga muloqot jarayonida nutq xatoliklaridan xalos bo'lishlariga yordam beruvchi nutq madaniyati bo'yicha maxsus kurslar va maxsus seminarlarni kiritish zarurdir. "Biz qanday so'zlaymiz", "Nutq mahoratiga qanday erishish mumkin", "Yagona nutq rejimi" va h.k. mavzular katta foyda keltirishi mumkin [9].

Tilshunoslarning fikrlariga ko'ra, talabalarning kasb mahoratlari shakllanishida nutq madaniyatining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:[6]

1. Kasbiy mahoratning muhim komponenti sifatida nutqiy ta'sir etish va o'zaro aloqa qilishning optimal vositalarini topish kompetentligini, malakasini shakllantirish.

2. Talabalarni kommunikativ yetakchi sifatida vaziyatning xususiyatini tezkor tushuna oladigan, tartibga soluvchi ta'sir etish texnologiyasini qo'llaydilar va o'zaro aloqalarga erishadigan nutq madaniyatiga oid shaxs sifatlarini tarbiyalash.

3. Turli kommunikativ vaziyatlarda nutqiy javob berish dasturlarini va o'quv mashg'ulotining, jumladan talabalarning salbiy nutq ssenariylariga spontan nutq mikrostrukturasini ishlab chiqish.

4. Nutq xususiyatini shakllantirish. Ta'lim va rivojlanish talaba shaxsining shakllanishiga yo'naltirilgan Oliy ta'lim tizimida ta'lim olish muvaffaqiyatligi nazoratining roli sezilarli o'zgaradi. Boshlang'ich ta'lim talabasi nafaqat nutqiy rivojlanish diagnostikasi vazifasini amalga oshirishi kerak. Pedagogik psixologiyada "diagnostika" atamasi (grekchadan diaqnoz - tanish) talaba shaxsi ma'lumotligi va rivojlanish sifatining darajasini aniqlashni anglatadi. Boshlang'ich ta'lim talabasi uchun diagnostik malaka kasbiy ahamiyatli sifat hisoblanib, u avvalo o'quvchilarning nutqiy rivojlanishlari diagnostikasi metodlarini egallashi lozim.

Ona tilini an'anaviy o'qitish metodikasida avvalo tilga oid bilim va malakalarni o'zlashtirish nazoratiga e'tibor qaratilgan, tilga oid, kommunikativ, lingvistik va madaniyatshunoslik kompetensiyalari hamda nutq rivojlanishi diagnostikasi hozirga qadar to'liq jihatdan amalga oshirilmaydi. Bunga sabab til bo'yicha bilimlar nazoratining ahamiyatini yuqori baholash, ma'lumotlilikni baholashga yondashuvdagi konservatizm va nutq diagnostikasi metodlarini yetarli egallamaganlik, ona tili bo'yicha diagnostik vositalar tizimining mavjud emasligi hisoblanadi [7].

So'nggi yillarda ona tilini o'qitish metodikasi testga oid mashqlar tayyorlanyapti va bunda testdan foydalanish imkoniyati va maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi masala bo'yicha fikrlar to'liq qabul qilmaslikdan to' ulardan tanqidsiz va ma'qullagan holda ona tili bo'yicha bilim va malakalarning universal nazorat vositasi sifatida foydalanishgacha qadar farqlanmoqda. O'qitish hamda diagnostika vositalari va metodlarining samarasi vaqt bilan tekshiriladi, test metodikasi tezkor nazoratning samarali vositalaridan biri sifatida nutq rivojlanishi va tilga oid ta'lim diagnostikasi tizimida o'z o'rnini egallashi kerak. Ammo bu faqatgina metodlardan biri bo'lib, shu bilan birga lingvodiagnostika (lingvistik diagnostika) tizimi sifatida kelajakda nafaqat nazorat vositasi, balki prognozlash mexanizmiga ham aylanishi kerak.

Lingvodiagnostika ostida maxsus nazorat va baholash vositalari yordamida amalga oshiriladigan talabning zarur tilga oid va lingvistik kompetensiyasi darajasini aniqlash metodlarining majmui hamda mazkur darajalarni prognozlash va korreksiyalash tushuniladi. Shu sababli, talabalarning ona tili bo'yicha ma'lumotliliklari mezonlarini, bilim va malakalarni baholash mezonlarini ishlab chiqish, nutq rivojlanishi darajalarini aniqlash va diagnostik vositalar tizimini yaratish ona tilini o'qitish nazariyasi va metodikasining muhim muammosi hisoblanadi.

Oliy ta'limning rivojlanish mafkurasi boshlang'ich ta'lim talabalarining bilim va malakalari nazorati va baholanishiga an'anaviydan ko'ra o'zgacha yondashuvlarni ko'zda tutadi. Asosiy masala e'tiborni tilni o'rganishdan nutqni o'rgatishga (tildan kommunikativ maqsadlarda foydalanish bo'yicha insonning alohida faoliyati sifatida) ko'chirish ona tilini o'qitish sohasidagi pedagogik nazorat vazifalarini qayta ko'rib chiqishni talab etganligidan iboratdir.

Lingvistik diagnostikaning vazifasi, avvalo lingvistik, tilga oid kommunikativ va madaniyatshunoslik kompetensiyalari darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, bu o'qitishning maqsadi hisoblanadi. Ixtiyoriy xatti-harakatning muhim bosqichi uning natijalarining nazorati va baholanishi hisoblanadi.

Ona tili bo'yicha dastur materialini o'zlashtirishning nazorati va tilga oid hamda nutqiy malakalarning shakllanganligining bahosi talabalarning o'tilgan

mavzular bo'yicha bilimlilik darajasini va umuman nutqiy rivojlanish darajalarini aniqlash maqsadini ko'zlaydi.

Ona tilini o'qitish metodikasida bilimlarni o'zlashtirishning nazorati (lingvistikaning asosiy tushunchalari) va tilga oid va nutqiy malakalarning shakllanganligining nazorati ajratiladi. An'anaviy ravishda joriy, mavzuga doir va yakuniy nazorat turlari ajratiladi.

Mashg'ulotda nazoratning asosiy metodi hamon frontal va individual savol-javob bo'lib qolmoqda. So'rovning frontal metodi talabalarning katta miqdorini qamrab oladi va alohida yakunlangan mavzu yoki bo'lim bo'yicha bilimlar darajasini aniqlaydi.

Frontal so'rovning qiyinligi o'qitish va nazoratning turli vositalaridan – topshiriqlar bilan kartochkalar, perfokonvertlar, testlardan foydalanish zarurati, shuningdek kompyuterli ta'limiy va nazorat metodlarini qo'llashdan iborat. Frontal so'rov o'zining afzallik va kamchiliklariga egadir. Mazkur metod har bir talabaning yetarlicha to'liq fikrlarini bildirishiga imkon beradi. Shuning uchun talabalar bilimi darajasini aniqlashda individual so'rov qulayroq bo'lib, uni og'zaki yoki yozma shaklda o'tkazish mumkindir. Uning samaradorligi har bir talabaga tabaqalashtirilgan yondashuv bilan bog'liqdir [6].

Ona tili mashg'ulotlarida talaba nutqiy malakalarining diagnostikasi muammosi juda muhimdir, chunki ona tili bo'yicha o'qitish qanchalik samarali bo'lishi uning hal etilishiga bog'liqdir. Talaba bilimlilikining diagnostikasi uchun zamonaviy metodikada ularning nutqiy tushunchalarni o'zlashtirishlari sifati va nutqiy malakalar darajasini aniqlovchi testlar qo'llaniladi.

Diagnostik testlar tizimi talabaga ma'lum talabaning nutqiy rivojlanishi darajasi to'g'risidagi obyektiv ma'lumotlarga tayanish bilan o'z ishini qurishiga imkon beradi. Test sinovini avval o'quv yilining boshida ta'kidlovchi sifatida, so'ngra yakuniy sifatida – o'qish oxirida o'tkazish kerak. Yakuniy test sinovi bilimlar va ular bilan bog'liq so'z, gap, matn kabi til birliklariga taalluqli malakalar darajasini aniqlaydi [9].

“Nutq” yakuniy testi

1-topshiriq. Nutqda so'z nima uchun xizmat qiladi? To'g'ri javob tagiga chizing.

1. Predmetlar, ularning belgilar va harakatlarini atash uchun.
2. Yakunlangan fikrni ifodalash uchun.
3. Gapdagi bir so'zlarni boshqalari bilan bog'lash uchun.

2-topshiriq. She'rlarni o'qing

Bu so'zlar gap yoki matn deb ataladimi?

Ma'nosi bo'yicha yaqin so'zlarni toping va yozing.

3-topshiriq. Gap matndan nimasi bilan farqlanadi? To'g'ri javob tagiga chizing.

1. Matn katta, gap esa katta emas.
2. Matn bir necha gaplardan tashkil topadi.
3. Bu bir xil tushuncha.

4-topshiriq. Matn gaplar guruhidan nimasi bilan farqlanadi? To'g'ri javob tagiga chizing.

1. Matnda bir yoki ikkita gap bo'ladi.
2. Matnda gaplar katta bo'lishi kerak.
3. Matnda gaplar bir mavzu bilan bog'langan.

5-topshiriq. O'qing.

Toza havo. Keng vodiy qalbni quvontiruvchi bog'lar va chiroyli tog'lar ranglarga burkangan. Ular o't-o'lan, qizil gullar, turli ekinlar va paxta bilan qoplangan. Qizil, qora, sariq va oq kapalaklar uchib yuribdi. Qushlar baland va past devorlarga, tomlarga qo'nib sayramoqdalar.

6-topshiriq. Bu matn ekanligini isbotlang. To'g'ri javob tagiga chizing.

1. Gaplar ma'nosi bo'yicha bir-biri bilan bog'lanmagan.
2. Bu yerda bir fikrga bo'ysungan bir necha gaplar berilgan.
3. Bu gaplar bir fikrga bo'ysungan.

6-topshiriqdagi parchani qaysi matn turiga kiritish mumkin. O'z fikringizni yozma ifodalang.

Matnda _____ to'g'risida aytilmoqda.

_____ hodisalarni bir vaqtda ko'rish.

Matnga savol qo'yish mumkin _____

Bu matn _____ hisoblanadi.

Matnga kalitlar

7-topshiriq. To'g'ri javoblar 1 va 3. So'zlar – bu nutq qismi. Ulardan birlari predmetlar, ularning belgilari, harakatlarini belgilash uchun xizmat qiladi. Bunday so'zlar nutqning mustaqil qismlari deb ataladi: xona, chiroyli, qurish. Boshqa so'zlar nutqning ko'makchi qismlari deb ataladi. Ular nutqning mustaqil qismlarini bir-biri bilan bog'laydi.

8-topshiriq. Bu so'zlar guruhi gap deb ataladi. Gap tugallangan fikrni ifodalaydi. Matn ikki yoki bir necha gaplardan tashkil topishi kerak.

9-topshiriq. Bu so'zlar guruhi gap deb nomlanadi: matnda bir emas, balki ikki yoki bir nechta gaplar bo'lishi kerak. Gap sodda (bir so'zdan tashkil topishi), yoki bu kabi murakkab bo'lishi mumkin.

4-topshiriq. To'g'ri javob – 2. Matn bir nechta gaplardan tashkil topgan.

5-topshiriq. To'g'ri javoblar – 1 va 3. Matndagi gaplar ma'nosi bo'yicha bir-biri bilan bog'liq bo'lishi kerak. Ular bir mavzuga va asosiy fikrga bo'ysungan. Agar

matndagi gaplar tartibi buzilsa, ma'no buzilishi mumkin. Bunday gaplar guruhi matn deb nomlanmaydi.

10-topshiriq. To'g'ri javoblar – 2 va 3. Mazkur matnda beshta gap. Ularning barchasi birgina “Bahor” mavzusiga bo'ysungan. Matn bahor qanday boshlanishi to'g'risidagi fikrni ifodalaydi.

11-topshiriq. Matnda o'zbeklar tarixi to'g'risida hikoya qilingan. Muallif o'zbeklar O'rta Osiyoning eng qadimgi xalqi hisoblanishi va ularning tarixi qabilalar tarixi bilan bog'liqligini ifodalagan. Matnga quyidagi savolni qo'yish mumkin: o'zbeklar tarixi qaysi xalqlar va qabilalar tarixi bilan bog'liq?

Ixtiyoriy matni bajarish muvaffaqiyatliligining eng yuqori koeffitsiyenti to'g'ri javoblarning matn bo'yicha ballarning maksimal mumkin bo'lgan miqdoriga nisbati bo'yicha belgilanadi va birga teng bo'ladi (kmuv. = 0,5). Testni bajarishning minimal yetarli darajasi 0,5 ga teng (kmuv. = 0,5), o'rtachasi – 5,5 dan 7,5 gacha va yuqori – 7,5 va undan yuqori.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim talabalarining bilim, ko'nikma va malakasini oshirishda avvalgidek an'anaviy tasavvurlar doirasida olib borilmoqda. Bu pedagogik jarayonga yangi g'oyalar va o'qitishning innovatsion texnologiyalarini kiritish va amalga oshirishda ma'lum qiyinchiliklarga olib keladi, boshlang'ich ta'lim talabasining o'qituvchi sifatida pedagogik shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonini boshqarishni deyarli cheklab qo'yadi.

Zamonaviy maktabda tarbiyaviy jarayonni yangicha tashkil etish uchun nazariy asos ishlab chiqish bosqichida hisoblanadi. Hozircha faqatgina tarbiyaning prinsipial g'oyalari muhokama etilmoqda, amaliyotchilar esa avvalgidek sinov va xatolar metodi bilan ishlamoqdalar. Maktabdagi tarbiya tizimi tashabbuskor talabalarning empirik tajribalariga tayanadi, ularning ish shakllari va metodlari shubhasiz nazariy anglash va asoslashni talab etadi [4]. Mazkur va boshqa sabablar tufayli boshlang'ich ta'lim talabalarining tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga tayyorlashda qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Shuning uchun tarbiyaning mohiyatiga yanada chuqur kirib borish, ijtimoiy ongda shaxs muammolarini aktuallashtirish, insonni shakllantirish jarayonini tashkil etishning pedagogik nazariyasini yaratish talab etiladi.

Tarbiya sohasidagi zamonaviy pedagogik tadqiqotlar asosan tarbiyaning insonparvarlik tabiati va shaxsiy yo'nalganligi bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlarni izlashga yo'naltirilgan. Shuningdek, ta'lim va tarbiyada o'zbek xalqining kelib chiqishi muammolari o'rganiladi.

Hozirgi vaqtda ijtimoiy muhitda tub o'zgarishlar sodir bo'ldi: aholining ijtimoiy tarkibida; fuqarolarning daromadlaridagi farqlik keskin oshdi; bular zamonaviy ijtimoiy muhit tavsiflanadigan belgilardir.

Ijtimoiy muhit avvalgidek shaxs shakllanishi va rivojlanishining asosiy omili bo'lib qolmoqda. Ammo muhit doimo ham barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishga olib kelmaydi. Insonning hayot faoliyati kechadigan insonparvarlik muhiti insonning gumanistik mohiyati va uning hayotining mazmunini tushunishni yaqinlashtiradi. Oliy ta'lim muassasasidagi insoniy va kasbiy faoliyatlarini takomillashtirish maqsadida pedagogik muhit insonparvarlik, demokratik, shaxsning huquq va erkinliklarini, uning hayotga va to'laqonli rivojlanishga huquqini himoyalovchi bo'lishi kerak [7].

Tadqiqotimizda insonparvarlik muhitining barcha elementlari talabalarining kasbiy tayyorgarliklarini takomillashtirilishi kerak degan xulosaga keldik. Shu sababli, boshlang'ich ta'lim talabalarining bilimini oshirishda o'quv-tarbiya tizimiga kiruvchi har bir strukturaviy elementning tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, pedagogik jarayon tomonlarining nisbatini o'zgartirish hisobiga talabalarining kasbiy o'z-o'zini rivojlantirishning rolini oshirish, ularning talaba kasbiy vazifalarini bajarishga tayyor emasliklari kabi kamchiliklarini bartaraf etish zarurdir. Shu sababli, boshlang'ich ta'lim talabasini pedagogik ishga tayyorlash jarayonida u bilimlarni o'zlashtirish va kasbiy-pedagogik sifatlarni rivojlantirishda ta'lim oluvchi "roli"dan chiqishi va o'zi o'qituvchiga aylanishni inobatga olish lozim. Bu masala hozirga qadar kam o'rganilganicha qolmoqda.

O'smirlik davridan endigina o'tgan yoshlar ko'p jihatdan o'quvchi va tarbiyalanuvchi bo'lib qolib, boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini o'qitish uchun mas'uliyatni qabul qilishlari kerakdir.

Shu tariqa, boshlang'ich ta'lim talabalarini tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashga insonparvarlik va shaxsiy yo'naltirilgan yondashuv bizning oldimizga ikki vazifani qo'yadi: muhitning alohida boshlang'ich ta'lim talabasining shaxsiy rivojlanishi va kasbiy o'sishiga ta'siri manbalarini maksimal darajada hisobga olish va ularni o'qituvchi sifatida tayyorlashdagi rollari va mas'uliyatlarini oshirish.

Adabiyotlar

1. Inncheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).
2. Адолф В.А. Теоретические основы формирования профессиональной компетентности учителя: дисс. ... д-ра пед. наук. М., 1998. – 356 с.
3. Зеер Э.Ф. Личностно-ориентированное профессиональное образование. - Екатеринбург, 1998. - 186 с.
4. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования / И.А. Зимняя // Высшее образование сегодня. - 2003. № 5. С. 34-42.

5. Зимняя И.А. Компетентностный подход. Каково его место в системе подходов к проблемам образования? - Высшее образование сегодня. 2006. № 8. С. 20–26.
6. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil Malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari: Ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent: 1995. – 253 b.
7. Muslimov N.A. Kasb ta’lim o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Ped. fan. dok. ...diss. –T.: 2007, – 315 b.
8. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T.: 2010.
9. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva SH., Sariyev SH. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T. 2009.

MILLIY TARBIYANI TARG‘IB QILISHGA BAG‘ISHLANGAN MATERIALLARNI YARATISH MODEL

**Raxmatullaeva G.I.- Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi
“Ma’naviyat va ma’rifat markazi” mutaxassisi**

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy tarbiyani targ‘ib qilishga asoslangan materiallarni yaratish modeli asosida talabalarni milliy ruhda tarbiyalash, milliy qadriyatlarga hurmatni oshirish, urf-odatlarini saqlash, o‘rgatish hamda metodikasini takomillashtirish imkoniyatlari haqida so‘z boradi. Shuningdek, uning komponentlaridan strategik maqsadning to‘g‘ri qo‘yilishi ish samaradorligining oshirilishini ta’minlashga xizmat qilishi haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan. Mazkur model asosida talabalarni milliy ruhda tarbiyalash metodikasini takomillashtirish imkoniyati haqida to‘xtab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: jarayonli mezon, kognitiv mezon, komponent, mediatehnologiya, milliy tarbiya, intellektual qobiliyat, bilim, tafakkur.

МОДЕЛЬ СОЗДАНИЯ МАТЕРИАЛОВ, ПОСВЯЩЕННЫХ ПРОПАГАНДЕ НАЦИОНАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ

**Рахматуллаева Г.И. - специалист Центра духовности и просвещения
Министерства высшего и среднего специального образования**

Аннотация. В данной статье рассматриваются возможности воспитания учащихся в национальном духе, повышения уважения к национальным ценностям, сохранения традиций и совершенствования их методики на основе модели создания материалов на основе пропаганды национального образования. Его компоненты также предоставляют подробную информацию о том, как установить стратегическую цель для повышения производительности.

На основе этой модели обсуждались возможности совершенствования методов воспитания школьников в национальном духе.

Ключевые слова: процессуальный критерий, когнитивный критерий, компонент, медиатехнология, национальное воспитание, интеллектуальная способность, знания, мышление.

MODEL FOR CREATING MATERIALS DEDICATED TO THE PROMOTION OF NATIONAL UPBRINGING

Rakhmatullaeva G.I. - Specialist of the Center of Spirituality and Education of the Ministry of Higher and Secondary Specialized Education

Annotation. This article discusses the possibilities of educating students in the national spirit, increasing respect for national values, preserving traditions and improving their methodology based on the model of creating materials based on the promotion of national education. Its components also provide detailed information on how to set a strategic goal to increase productivity. Based on this model, the possibility of improving the methods of educating students in the national spirit was discussed.

Key words: procedural criterion, cognitive criterion, component, media technology, national upbringing, intellectual ability, knowledge, thinking.

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim modeli jamiyatda erkin fikrlovchi shaxsni shakllantirishga olib keladi. Bu esa hayotiy maqsadlarga ega va irodali, o'z qadrini biladigan insonlarni tarbiyalash imkoniyatini beradi. Ta'lim va tarbiya muntazam ravishda zamon talablariga mos holda rivojlanib, yangilanib boraveradi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida o'quv ta'lim jarayoni orqali milliy tarbiyani rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish muhim hisoblanadi. Chunki, talabalarda zarur kompetensiyalarni shakllantirish uchun, avvalo, pedagogning o'zida kompetentlik rivojlangan bo'lishi lozim. Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan omillardan biri ta'lim-tarbiya hisoblanadi.

Inson kim va qanday kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar, shaxs hayotida, kasbiy faoliyatida, ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatli bo'lishi uchun egallashi lozim bo'lgan layoqatlar, qobiliyatlar va hayotiy ko'nikma va malakalar majmuidan iborat. Bunda har bir shaxs kommunikativ bo'lishi, axborot bilan ishlay olishi, o'zlikni anglash-milliy urf odat, an'analarni bilish, shaxs sifatida o'zini-o'zi rivojlantirishi, ijtimoiy faol fuqaro bo'lishi, umummadaniy hislatlarga ega va fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo'lishi nazarda tutiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev: "...hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qOliy ta'lim muassasasiydigan masala bo'lib qolmoqda. Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, go'l bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim" [1]. – deya ta'kidlaganlar, yosh avlod manfaatlarini ta'minlash "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun asosida davom ettirilishini qat'iy belgilab berdilar.

Darhaqiqat, jamiyat taraqqiyotida tarbiya jarayonining ahamiyati beqiyos. Bunda insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini sekin-asta ko'nikmaga aylantirib, tayanch kompetensiyalarni shakllantirib borish lozim.

Abu Nasr Forobiy inson kamolotga erishishi uchun boshqalar bilan hamkorlik qilishi, munosabatga kirishuvi lozim deb ko'rsatadi. Ana shu o'zaro ko'maklashuv jarayonida insoniy fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan inson jamoalari vujudga keladi. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda odamlarning yashashi va yetuklikka erishishi uchun zarur sharoit yaratadi [2; 224-b.].

Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, mediatexnologiyalar vositasida darsni qizg'in bahs munozaraga ko'ra o'tkazish, unga turli-tuman talabalar intilishini faollashtiradigan interfaol usullar bilan boyitish natijasida talabalarning o'zlashtirish darajasi oshganligini ko'rishimiz mumkin. Buning uchun dars jarayonini oqilona tashkil etish hamda o'qituvchi tomonidan talabalarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligini doimiy rag'batlantirib turishi darkor. Shuningdek, tadqiqotchilarning fikricha, integrativ yondashuv asosida kreativlikni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan quyidagi oltita o'zaro aloqador manbalar mavjud. Bular: intellektual qobiliyatlar, bilim, tafakkur uslubi, shaxsiy xarakter, motivatsiya va atrof-muhit. Bu jarayonga nisbatan tizimli yondoshuvni esa shaxs kreativlik qobiliyatlarining rivojlanishiga zamin yaratuvchi – ijodiy jarayon, mahsulot, shaxs va muhit bilan bog'lab asoslaydilar [4].

Shaxsning kamol topishida doimiy ravishda muhitning ta'siri sezilib turadi. Muhit – bu insonga ta'sir etuvchi tashqi voqea-hodisalar yig'indisidir. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining milliy tarbiyasini shakllantirishda mediatexnologiyalar vositasida milliylikni targ'ib qiluvchi modellar, ya'ni videomateriallar, roliklar hamda qisqa metrajli filmlar, kabi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya texnologiyalari asosida o'qitish ijobiy natija beradi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-

tarbiya jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiya tuzilmasi alohida o'rin tutadi. Chunki, milliy tarbiya tuzilmasining barcha komponentlari bevosita shaxsga yo'naltirilgan bo'lib, uning markazida talaba shaxsi turadi.

Milliy tarbiyani targ'ib qilishga asoslangan materiallarni yaratish modeli sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- ta'lim oluvchilarning yuqori darajadagi ma'naviy hamda intellektual-shaxsiy rivojlanishini ta'minlash;
- zamonga yangicha yondashuv asosida yangi texnologiyalar asosida, milliy tarbiyaga oid materiallarni yaratish;
- ta'lim oluvchilarning ilmiy tafakkur ko'nikmalarni egallashga shart-sharoit yaratish;
- nazariyani amaliyot bilan bog'lash;
- mediamateriallar bazasini mustahkamlash;

Ta'lim maskanlaridagi dolzarb vazifalardan bo'lgan talaba-yoshlarning tayyorgarlik sifatini yanada yuksaltirish asosiy maqsadlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Talabalarda milliy tarbiyani rivojlantirilishi hamda yetuk mutaxassis bo'lib ona Vatanga xizmat qilishi uchun ular oldiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- Milliy an'ana, qadriyatlardan boxabar bo'lish;
- o'z-o'ziga talabchan bo'lish; o'z-o'zini nazorat qilish;
- o'zgalarni hurmat qilish;
- doimo kamtarlik yo'lini tutish;
- o'ziga ishonchi yuqori bo'lishi;
- iboli-hayoli bo'lish;
- halol va adolatparvar bo'lish;
- samimiy va beg'araz bo'lish;
- o'zgalar mehnatini qadrlay bilish;
- kasbiy va ma'naviy bilimlarni egallab borish;
- o'z manfaatlarini Vatan manfaatlari bilan uyg'un holda ko'rish;
- kamolotga erishishga intilish;
- barcha axloq qoidalariga bo'ysunish;
- malakali mutaxassis bo'lishga astoydil intilish.

Mazkur model asosida talabalarni milliy ruhda tarbiyalash metodikasini takomillashtirish imkoniyati kengaytiriladi. Uning komponentlaridan strategik maqsadning to'g'ri qo'yilishi ish samaradorligining oshirilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kognitiv mezon – bilishga doir, ya'ni milliy tarbiya tushunchalar mohiyatini anglash; milliy tarbiyaning nima ekanligidan xabardorlik; milliy tarbiyani o'ziga xosliklarini bilish; milliy tarbiya asosida kasbiy faoliyat motivlarining shakllanganligi bilan belgilanadi.

Jarayonli mezon – faoliyatga doir, ya’ni milliy tarbiya fazilatlariga egalik; vatan, oila, Oliy ta’lim muassasasioldidagi burch va mas’uliyatni ado etishda jonbozlik ko’rsatish; milliy urf odat qadriyatlarini targ’ib qilish; tanlangan kasbga nisbatan ijobiy munosabatni namoyon eta olish; guruh va ta’lim muassasasi hayotida faol ishtirok etishi orqali aniqlanadi.

Natijaviy mezon – egallagan bilim va ko’nikmalarni amalda qo’llay olishga doir, ya’ni vaziyatni tahlil qila bilish va to’g’ri baholash; o’z-o’ziga ishonch, o’zini-o’zi ob’ektiv baholash, o’zini-o’zi nazorat qilish qobiliyatiga egalik; odob-ahloq munosabatlarga kirisha olish ko’nikmasiga egalik; egallangan kompetensiyalarni qo’llay olish bilan izohlanadi. Talabalar milliy tarbiya sifatlarini rivojlantirish tizimi samaradorligi namunali, yaxshi, qoniqarli darajalar asosida belgilanadi. Agar natija past daraja ko’rsatkichida bo’lsa korreksiya ishlari, ya’ni bu o’rinda talaba bilan individual-psixologik ishlar olib boriladi.

Ko’rish va eshitish orqali talaba yoshlarning milliy tarbiyasini shakllantirish va yuksaltirish asosiy maqsaddir. Darslarni audio, video, animatsiyalarga boy multimediali materiallar, axborot-kommunikatsiya vositalari yordamida o’tish talabalarni mediaga qiziqishini oshiradi. Elektron axborot-ta’lim resursi (EATR) zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mustaqil ta’lim olishning samarali usullarini qo’llash orqali o’quv materiallari va ilmiy ma’lumotlarni chuqur o’zlashtirishga mo’ljallangan manbadir. U talabalarda mustaqil ta’lim olish, ijodiy fikrlash malaka va ko’nikmalarini, media bilimlarini shakllantiradi [3]. Natija yuqori ko’rsatkichda bo’lsa, milliy-ijtimoiy kompetensiyaga ega mutaxassis tayyorlashga erishilganligi o’z tasdig’ini topadi.

Kvintilian (er.av.30-96 yil) insonning aqli mustaqil faoliyat ta’sirida rivojlanadi, shu sabab tarbiya o’quvchidagi mustaqil fikrlash va tanlash qobiliyatini rivojlantirishga yo’naltirilgan bo’lishi lozimligini ta’kidlaydi [5; 719-b.]. Ijtimoiy ehtiyojdan kelib chiqib, ya’ni talabalarni milliy tarbiyasini rivojlantirish va targ’ib qilish zarurati maqsad qilib olingan. Tadqiqotda talabalarni aynan mana shu faoliyat turlaridan milliy tarbiyaviy ruhda tayyorlash ko’zda tutilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, milliy tarbiyani targ’ib qilishga asoslangan materiallarni yaratish modeli asosida talabalarni milliy ruhda tarbiyalash, milliy qadriyatlarga hurmatni oshirish, urf-odatlarini saqlash o’rgatish hamda metodikasini takomillashtirish imkoniyati kengaytiriladi. Uning komponentlaridan strategik maqsadning to’g’ri qo’yilishi ish samaradorligining oshirilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Ш.Мирзиёев. Танқидий-таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Т. Ўзбекистон. 2017.

2. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. -Тузувчи М. Махмудов. -Т.: Халқ мероси, 1993. – 224 б.
Стернберг, Р.Ж. & Лубарт, Т.И. (1995): Delving thye crowd: Cultivating creativity in a culture of conformity. N.Y.: Freye Press.
3. Назаров Қ. Ғарб фалсафаси. – Т.: Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2004. – 719 б.
4. [хтти://марифат.уз](http://марифат.уз)

ТАБИИ ОВЬЕКТ МИСОЛИДА БАЛИQLАРНИНГ ТАШҚИ ТУЗИЛИШИ ВА НАРАКАТИНИ О‘РГАНИШИ

**Haqberdiyeva Sh.T. - Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti
assistenti**

Annotatsiya. Ushbu maqolada biologiya fani bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikma va malakalardan kundalik hayotda duch kelgan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanish va amaliyotda qo‘llay olish, kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiya fani yuzasidan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish metodikasi haqida fikrlar bayon etilgan. Amaliy mashg‘ulotlar va laboratoriyalarning bajarish davomida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi hamda ijodiy yondashuvi rivojlanadi, ularda fan asoslarini yanada puxta o‘zlashtirishga havas uyg‘onadi. Maqolamizda olingan nazariy bilimlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida amaliy mashg‘ulotlar va laboratoriyalarda o‘tkazish muhimligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: obekt, hayvonlar, suv muhiti, ho‘l preparat, barelef modeli, lupa, sklet, preparoval to‘plam, formalin, akvarum, baliq, eritma.

ИЗУЧЕНИЕ ВНЕШНЕГО СТРОЕНИЯ И ДВИЖЕНИЯ РЫБЫ НА ПРИМЕРЕ НАТУРАЛЬНОГО ОБЪЕКТА

**Хакбердиева Ш.Т. - ассистент Педагогического института
Термезского государственного университета**

Аннотация. Компетентность студента-биолога - это способность применять и применять знания, навыки и компетенции, приобретенные в биологии, для решения практических и теоретических проблем, возникающих в повседневной жизни. Это также позволяет применять теоретические знания на практике. Кроме того, на практических занятиях и лабораториях у студентов развивается самостоятельное мышление и творческий подход, что побуждает их к освоению основ науки. Поэтому важно проводить практические занятия и

лаборатории на основе грамотного подхода к теоретическим знаниям, полученным в нашей статье.

Ключевые слова: объект, животные, водная среда, влажный препарат, барельефная модель, лупа, скелет, препаровальный набор, фармалин, аквариум, рыба, раствор.

THE STUDY OF THE EXTERNAL STRUCTURE AND MOVEMENT OF FISH ON THE EXAMPLE OF A NATURAL OBJECT

Hakberdiyeva Sh.T. - Assistant of the Pedagogical Institute of Termez State University

Annotation. Biology student competence is the ability to apply and apply the knowledge, skills, and competencies acquired in biology to solve practical and theoretical problems encountered in daily life. It also allows you to apply theoretical knowledge in practice. In addition, during the practical classes and laboratories, students develop independent thinking and a creative approach, which encourages them to master the basics of science. Therefore, it is important to conduct practical pieces of training and laboratories based on a competent approach to the theoretical knowledge obtained in our article.

Keywords: object, animals, aquatic environment, wet preparation, bas-relief model, magnifying glass, skeleton, preapproval set, formalin, aquarium, fish, solution.

Biologiya fani bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda duch kelgan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Shuningdek nazariy bilimlarni amalda qo'llash imkonini beradi. Bundan tashqari, amaliy mashg'ulotlar va laboratoriyalarning bajarish davomida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi hamda ijodiy yondashuvi rivojlantirish dolzarb hisoblanadi.

Biologiya fanidan kompetensiyalar quyidagi guruhlarga ajratiladi: Bilimlarni o'zlashtirish: butun olamni zamonaviy tabiiy – ilmiy ko'rinishi shakllantirishda biologik fanlarni o'rni: tirik olamni bilib olish usullarini: tirik tabiat va unga xos bo'lgan qonuniyatlarni: tirik organizmlarni tuzilishi, faoliyati va muhitni hosil qiluvchi rolini: inson biosotsial zot ekanligi haqidagi bilimlarni o'zlashtirish [1].

Biologik bilimlarni qo'llash ko'nikmalarini egallash:

- tirik tabiatdagi jarayonlar va hodisalarni, o'z organizmlarning faoliyatini tushunishda biologik va ekologik sohasidagi zamonaviy yutuqlar to'g'risidagi ma'lumolardan foydalana olish:

- sog'liq va qaltislik omillari, biologik asbob va ma'lumotlar bilan ishlash:

- o‘z organizmning holati va boshqa biologik ob‘ektlar ustida kuzatishlar olib borish:

- biologik tajribalar olib borish:

Bilimga oid intellektual va ijodiy qiziqishlarini rivojlantirish:

- tirik organizmlar ustida kuzatishlar, biolog tajribalar o‘tkazish:

- turli ma’lumot ustida ishlash [3]

Tarbiya jarayoni

- Tirik tabiatni qadrlash va ijobiy munosabatda bo‘lish o‘z sog‘ligi va insonlarning sog‘ligini qadrlash tabiatni o‘zini tutish ekologik madaniyatni tarbiyalash.

- Qobiliyatni va olgan bilim hamda ko‘nikmalarni kundalik hayotda foydalanish

- O‘simlik va hayvonlarni parvarish qilishda o‘z sog‘ligini saqlashda o‘ziga va o‘zgalarga birinchi yordam ko‘rsatadi

- Tirik tabiatdagi jarayonlar va hodisalarni

Kompetensiyaviy yondashuv asosida hayotda o‘rganish zarur bo‘lgan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini va hayotda nechog‘li darajada ahamiyatli ekanligini hamda olingan nazariy bilimlarini amaliyotga qo‘llash maqsadida quyidagi laboratoriya mashg‘ulotini havola etamiz;

Baliqlarning tashqi tuzilishi va harakatanishini o‘rganish

Ishning maqsad: Baliq tuzilishini o‘rganish orqali umurtqali hayvonlarning suv muhitida yashashga moslashishi, tirik obektlarni mustaqil kuzatish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Kerakli asbob va jihozlar: Tirik baliq , akvarum balig‘i bilan farmalinga solingan baliq, baliqning ho‘l preparati, baliqning ichki tuzilishi barelef modeli, lupa, baliq skleti, preparoval to‘plam.

Ishning bajarilish tartibi: Tirik yoki formalin sidagi zog‘ara baliqning tashqi tuzilishi o‘rganiladi. Qotirilgan baliqni o‘rganishdan oldin uni bir necha soat suvda yuvib, formalin hidi yo‘qotiladi [4].

Baliqni kengroq idishga solib, uning tana shakli gavda rangi va tangachalarining qanday joylashganligiga e‘tibor beriladi. Baliq tanasi rangining qorin va orqa tomoni bir xilda bo‘lmaslik sabablari tushuntiriladi. Gavdasining bosh, tana va dum bo‘limlari qo‘shilib ketdanligi, tanasining ikki yon tomonidan siqilganligi yashash muhiti bilan bog‘liqligiga e‘tibor beriladi.

Tirik yoki yangi tutilgan baliq terisi shilimshiq modda bilan oplanganligi tufayli baliqni kaftingizda siqib turish oson bo‘lmasligini tekshirib ko‘ring. Baliq tanasidagi tangachalarning joylashuviga etibor bering. Tangachalarning oldingi uchi


teriga botib kirganligi keyingi uchi esa terisining ustida turganligi kuzating. Teri ustidagi yon chizig'ini toping.

Baliqning og'zi va ko'zlarining joylashuviga va etibor bering. Lablari va ko'zlarining tashqi tuzilishini o'rganing. Jabra qopqoqlarini ko'tarib, jabra yoriqlarini toping.

Baliq tanasidagi suzgich qanotlarining joylashuvi va tuzulishini o'rganing. Kurak va qorin orqa va anal suzgich qanotlarini topib tuzilishini o'rganing. Ularning vazifasini tushuntirib bering. Suvli idishda va akvariumda tirik baliqning harakatlanishini kuzating. Harakatlanayotgan yoki to'xtab turgan baliqni suzgich qanotlari va gavdasining holatining kuzating. Baliqni og'zi va jabra qopqoqlarining ochilib yopilishi sabablarini izohlab bering.

Akvariumga oziq tashlaganida yoki akvarium devorini shihsa tayoqcha bilan organingizga baliqlaning xatti-harakatini kuzating [4].

Laboratoriya mashg'uloti yakunida kuzatilganlar umumlashtirilib, jadvallar to'ldiriladi, tahlil va xulosalar yoziladi.



1-topshiriq. Ushbu raqamlar orqali zog'ora baliqning tashqi tuzilishini to'g'ri topib yozing

1. _____
 2. _____
 3. _____
 4. _____
 5. _____
 6. _____
 7. _____
 8. _____
 9. _____
 10. _____
 11. _____

1-jadval

2- topshiriq. Baliq suzgichlari va ularni vazifalarini aniqlang

Suzgichlar	Joylashgan	Vazifalari
Toq suzgichlar. 1. Orqa 2. Dum 3. Anal	Tananing orqa tomonida keng va uzun Tananing oxirida ikkiga ajralgan Dumining ostida	harakat tezligini oshiradi. Rul vazivasini bajaradi Oldingi tomonga suzishda
Juft suzgichlar. 1. Ko'krak 2. Qorin	Tananing ko'krak sohasini ikki yon tomonida Tananing qorin sohasini ikki yon tomonida	Juft suzgichlari tanasini muvozanatga solib turish va harakatlanganida burilishiga yoki to'xtashiga, shuning dek, oldinga qarab asta-sekin suzishiga yordam bera.

3-topshiriq .Baliqlarning suvda yashashga moslashgan belgilari.

№	Belgilari
1	tanasi suyri shaklida ikki yon tomondan yassilashgan suvning havoga nisbatan zich muhit ekanligini va uning harakatlanayotgan jismga ko‘proq qarshilik ko‘rsata oladi.
2	Tangachalar sirtidagi teri bezlari ajratib chiqaradigan yupqa shilliq parda baliq tanasining suvga ishqalanishini kamaytirib, harakatini osonlashtiradi.
3	Baliqlar tanasi rangi atrof-muhit rangiga bog‘liq.
4	Gavda rangi atrof-muhitga mos bo‘lganida hayvonlar yirtqichlar ko‘ziga tashlanmaydi. Bu hodisa himoya rangi deyiladi.

4-topshiriq .Baliq skleti suyaklar sistemasi bo‘limlari va ular funksiyasini aniqlash

	Sklet bo‘limlari	Suyaklarning vazifasi
	<p>Bosh suyagi</p> <p>1. Miya qutisi</p> <p>2. Og‘iz bo‘shlig‘ini o‘rab turadigan jag‘lar</p> <p>3. Jabra ravoqlari suyaklaridan</p> <p>4. Jabra qopqoqlari suyaklaridan</p>	<p>Bosh skeleti bosh miyani himoya qilib turadigan miya qutisi, og‘iz bo‘shlig‘ini o‘rab turadigan jag‘lar, jabra ravoqlari va jabra qopqoqlari suyaklaridan iborat.</p> <p>Skelet muskullar uchun tayanch, ichki organlarni himoya qilish vazifasini bajaradi.</p>
	<p>Umurtqa pog‘onasi</p> <p>1. bir juftdan ustki va ostki yoylar</p> <p>2. ikki yon tomondan qilichsimon qovurg‘alar</p>	<p>Umurtqa pog‘onasi chala harakatchan birikkan 39–42 ta umurtqalardan iborat. Har bir umurtqaning tanasida bir juftdan ustki va ostki yoylar bor. Ustki qarama-qarshi yoylar o‘zaro tutashishi tufayli ular orasida umurtqa nayi hosil bo‘ladi. Bu nayning ichida orqa miya joylashgan. Tana bo‘limidagi umurtqalarga ikki yon tomondan qilichsimon qovurg‘alar birikadi. Qovurg‘alarning ikkinchi uchi muskullar orasida erkin yotadi va orqa miyani ximoya qiladi.</p>
	<p>Suzgichlari</p> <p>1. Skeleti suzgich yoylari</p> <p>2. Suzgich kamari suyaklaridan</p>	<p>Suzgichlar skeleti suzgich yoylari va ular kamari suyaklaridan iborat. Kamar suyaklar umurtqa pog‘onasiga tutashmaganligi bilan boshqa umurtqalilardan farq qiladi.</p>

Daftaringizga baliqning tashqi tuzilishini chizib oling.

Xulosa. O'rgangan bilimlar asosida mustaqil tajriba o'tkazish va xulosa qilish. O'zining xatti-harakatlari va texnika xavfsizlik qoidalariga amal qilish: e'tiborli bo'lish, avval ko'rib o'rganish, laboratoriya mashg'ulotlarini bajarganda xavfsizlik qoidalarini yoddan bilish, tejamkorlik saboqlariga amal qilish. Mavzuga oid turli ko'rgazmali jihozlar: rasmlar, jadvallar, ho'l preparatlar tayyorlash va jonli burchak tashkil etishi zarur.

Maktabda va sinfxonasida odob axloq qoidalar: har bir o'quvchi odob–axloq qoidalarini bilish, dars jarayonida to'g'ri amal qila olishi, sinfxona va laboratoriya jihozlarini aasrab-avaylashi, o'zining dunyoqarashi shakillanganligi va sinfdoshlari dunyoqarashini hurmat qilish kerak.

Fanning rivojlanishidagi yangiliklardan xabardor bo'lishi: dastur talablariga mos bilimlarni puxta o'zlashtirish, har bir mavzu o'tilayotganda o'qituvchi jadval, diafilm, yoki kinofilmlarni ko'rsatishi, laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda virtual ko'rgazmali darslarni tashkil etish va o'quv materiallarni qismlarga ajratgan holda faollikni oshirishdan iborat.

Adabiyotlar

1. Tursunov Q.SH. Toshpo'latov Ch.X, Qorjovov M.J. Fizika ta'limi texnologiyasi. – Toshkent, 2013.
2. Niyozov Q. Biologik ta'lim jarayonida o'quvchilar kompetentligini rivojlantirish asoslari. – Namangan, 2017.
3. Tolipova J., G'ofurov A., Umaralieva M., Abdurahmonova I., Abdukarimov A., Eshonqulov O. "Biologiya". O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik. – T.: "Sharq", 2017.
4. Tolipova J.O. Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar. Pedagogika oily ta'lim muassasalari talabalari uchun darslik. – Toshkent, 2014.
5. Quronov M. Yoshlar tarbiyasi - strategik masala. // "Ma'rifat" gazetasi, 2017-yil 1-mart, 17-son.
6. Абдуллаев М., Расулов М., Фаёзова С. Умуртқали хайвонлар зоологиясидан дала практикаси. Педагогика олий ўқув юртлари табиёт-география факультети талабалари учун ўқув қўлланма. – Т.: "Ўқитувчи". 1987. – Б. 80.
7. Адолф Т.А., Бутев В.Т., Михеев А.В, Орлов В.И. - Руководство к лабораторным занятиям по зоологии позвоночных. Учебноу пособиу для студентов биологических специальности педагогических институтов. – М.: «Просвещение». 1977, 192 с.

8. Дадаев С., Туйчиев С., Хайдарова П. Умуртқалилар зоологиясидан лаборатория машғулоти. Олий ўқув юртлири биология ихтисослиги талабалари учун ўқув қўлланма. Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти нашриёти. – Т.: 2006. – Б. 224.

PSIXOFIZIOLOGIK USULLARNING PSIXOLOGLAR FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI

Yakubova G.A. - Toshkent davlat pedagogika universiteti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston muhitida amaliy psixologlar faoliyatini takomillashtirish maqsadida olib borilgan loyiha va uning asosiy maqsadi hamda psixologlar amaliy faoliyati uchun muhim bo‘lgan psixofiziologiya fanining o‘quv dasturlariga kiritilishi, uning muhim o‘rni haqida bayon etiladi. Maqolada Psixofiziologiya fani boshqa davlatlarning nufuzli ta’lim muassasalarida psixologlar tayyorlashda asosiy o‘quv fani sifatida o‘qitilishining afzalliklari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: usul, fiziologiya, psixofiziologiya, miya, tizim, neyron, hujayra, ta’lim, fan, asab hujayrasi, tadqiqot, mexanizm, loyiha, amaliy faoliyat, psixologiya, pedagogika.

РОЛЬ ПСИХОФИЗИОЛОГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПСИХОЛОГОВ

Якубова Г.А. - докторант Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В данной статье описывается основная цель проекта, направленного на совершенствование деятельности психологов Узбекистана, а также о включении в учебный план предмета «психофизиология» и о его значимой роли в практической деятельности психологов. В статье показаны преимущества преподавания психофизиологии как базового предмета при подготовке психологов в престижных учебных заведениях на примере других стран.

Ключавые слова: метод, физиология, психофизиология, мозг, система, клетка, обучение, наука, нервная клетка, исследование, механизм, проект, практическая деятельность, психология, педагогика.

THE IMPORTANCE OF PSYCHOPHYSIOLOGICAL METHODS IN THE ACTIVITIES OF PSYCHOLOGISTS

**Yakubova G.A. - doctoral student at Tashkent State Pedagogical
University**

Annotation. This article describes the project to improve the work of applied psychologists in Uzbekistan and its main purpose, as well as the inclusion of psychophysiology in the curriculum, which is important for the practical work of psychologists. The article highlights the advantages of teaching psychophysiology as a core subject in the training of psychologists in prestigious educational institutions in other countries.

Keywords: method, physiology, psychophysiology, brain, system, neuron, cell, education, science, nerve cell, research, mechanism, project, practical activity, psychology, pedagogy.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son qarori shuningdek, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus davlat ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qilib, unda Xalq ta’limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari o‘quvchilarini psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish maqsadida ta’lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini tashkil etish taklifi kiritilgan [1].

Yuqoridagilarni e’tiborga olib Toshkent davlat pedagogika universitetida Oliy va o‘rta ta’lim vazirligi va Akademik innovatsiyalar fondi bilan hamkorlikda “Oliy ta’lim muassasalarida pedagogika va psixologiya fanini o‘qitishda amaliy bilimlarni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish” nomli loyihasi doirasida universitetning Pedagogika va psixologiya fakulteti yo‘nalishi o‘quv dasturiga kelgusida psixologlar amaliy faoliyatini takomillashtirish maqsadida o‘quv dasturiga “Psixofiziologiya” fani kiritildi.

Psixofiziologiya fani psixik jarayonlarda sodir bo‘ladigan neyronlarning holati, mexanizmi va ular xatti-harakatlari hamda fiziologiyasini o‘rganadi. Psixofiziologiya fanini, eng avvalo, psixologiya sohasida alohida mustaqil fan sifatida o‘rganish nemis psixologi V.Vundtning nomi bilan bog‘liq. V.Vundt psixologiyada eksperimental usulni joriy etgan va psixologiya bo‘yicha ikkita tadqiqot yo‘nalishini aniqlagan.

Birinchisi, fiziologik psixologiya bo‘lib, uning obyekti eng oddiy psixik jarayonlardan iborat va bu usul psixofiziologik ilmiy tajriba deb hisoblanadi. Ikkinchi yo‘nalish esa “xalqlar psixologiyasi”dir. Bu madaniy va tarixiy, ya’ni – til, sa’nat, udum, an’analar va hokazolarni tahlil qilish usuli bilan bog‘liq psixikaning yuqori funksiyalar sohasi hisoblanadi. “Fiziologik psixologiya” atamasi G‘arbda keng qo‘llaniladi. P.Miller 1970-yilda psixologiya bo‘yicha mutaxassis D.Xebb tomonidan

olib borilgan psixofiziologiyada diqqatga sazovor ilmiy ishlari bilan tanilgan “Fiziologik psixologiya” o‘quv qurolini nashr qildi. Unda bosh miya tuzilishi va funksiyasiga oid tizimli tamoyillar, dalillar va hissiyotlarning fiziologik jarayonlari, shu jumladan, miyani o‘z-o‘zidan qo‘zg‘atish imkoniyatlari, xotira, harakat va sensorli tizimlarni o‘rganish natijalari haqida yangi ma’lumotlar taqdim etilgan [2].

Bu davrning boshqa mashhur darsligi – Richad Tompsonning “Fiziologik psixologiyaga kirish” kitobi (1975), ham tartibli, ham tizimli neyronlar faoliyatini o‘rganish bilan mashhur bo‘lgan. R.Tompson kitobining so‘z boshida aytib o‘tgan fiziologik psixologiyaning asosiy muammolari aslida psixologlarni ham tashvishlantiradi. Biroq, fiziologik psixologiyada diqqat, xulq-atvor va psixik hodisalarga asoslangan biologik tizimlarga va jarayonlarga jamlangan. Kitobda turli xulq-atvorlarning biologik asoslarini, genetik va ekologik omillarning rolini, qisqa va uzoq muddatli xotira, nutq va til fiziologiyasini o‘rganishga katta e’tibor berilgan. 1970-yillarda psixologiya va fiziologiya bilan bog‘liq ishlarni nashr etadigan Amerika psixofiziologlari jamiyatida va boshqa qo‘shma shtatlarda yangi “Psixofiziologiya” jurnali paydo bo‘lgan. O‘sha vaqtdan buyon “Psixofiziologiya” iborasi foydalanishga topshirildi va amaliy psixofiziologiyani mustaqil qo‘llanishi hamda rivojlanishi uchun asos yaratildi. Biroq, yangi yo‘nalish sifatida psixofiziologiya faqat 1982-yil may oyida Monrealda o‘tkazilgan birinchi xalqaro psixofiziologlar kongressida rasmiy maqomga ega bo‘ldi. Kongressda xalqaro psixofiziologiya uyushmasi yaratildi va aynan psixofiziologiya bo‘yicha xalqaro konferensiyalar tashkilashtirildi. Xalqaro psixofiziologiya uyushmasi birlashgan millatlar tashkilotida vakil sifatida qatnashadi.

Uyushma maqsadlaridan biri xalqaro hamkorlikni rivojlantirish edi. Birinchi kongressda yangi Xalqaro psixofiziologiya jurnali (“International Journal of Psychophysiology”) tashkil etilgan. Bu jurnalning uchta bosh muharrirlaridan biri Sharqiy Yevropa davlatlarining mashhur neyrofiziologi S.Peterburg shahridan N.P. Bexterev tahririyat vakili esa Ye.N.Sokolov bo‘lgan [5]. Birinchi bo‘lib o‘tgan xalqaro psixofiziologlar kongressida 1983-yil avgust oyida chop etilgan jurnalida psixofiziologiya fani to‘g‘risidagi muhokamalar o‘rin olgan. Psixofiziologiyaning vazifasi haqida muhokama qilinganda turli qarashlar mavjud bo‘lib, inson psixofiziologiyasi tadqiqotida foydalanishda faqatgina elektroensefalogramma (EEG), elektrokardiogramma (EKG) (teri sirtiga kirmaydigan) terining galvanik reaksiyasi (GTR)ni yozishni talab qiluvchi invaziv bo‘lmagan usullar va boshqa turli xil usullar aytilgan. Bu munozara qo‘llab-quvvatlanmadi. Asosiy munozara psixofiziologiyani psixik jarayonlar va shart-sharoitlarini fan sifatida qabul qilish kerakmi degan fikr avj oldi yoki psixofiziolog fiziologik mexanizm psixik hodisalar tadqiqotlari bilan makro darajada EEG, chaqirilgan potensiallar (ChP), TGR va hokazo kabi obyektiv indikatorlarini yozish orqali vazifasini cheklash haqida fikr

yuritildi. X.Delgado va Ye.N.Sokolovlar birinchi tarafdorlardan bo'lgan. Ularning o'rni odamlar va hayvonlarning neyronli va umumiy elektr miya faoliyatini o'rganishda katta shaxsiy nazariy va eksperimental tajribaga asoslangan edi [6]. X.Delgado maymunlarning xatti-harakatini manipulyatsiyasini o'rganib chiqish uchun tashkil etilgan yagona neyrobiologiya markazini yaratuvchisi sifatida tanilgan. U uzoq masofadagi hayvonlarning elektr kimyoviy va keyinchalik elektrmagnetik qo'zg'atish vaqtida xatti-harakat va miya faoliyatini telemetrik qayd qilish usullarini ishlab chiqargan. Fiziologik ko'rsatkichlarni qabul qilish va miyaga ta'sir etishni radiosignallar yordamida amalga oshirgan. Bu tabiiy muhit erkin harakatlanish sharoitida hayvonlarda tajribani o'tkazish va gala o'rtasidagi ijtimoiy o'zaro munosobatlarda amalga oshirish imkonini bergan. Ye.N. Sokolova tadqiqotlari neyron tarmoqlarida axborotni kodlash tamoyillarini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan [7].

Ular turli xil filogenetik darajadagi mavjudodlarda (molyuska, qurbaqa, baliq, quyon, maymun, odam) axborotni qayta ishlash jarayoni asosiy qonun qoidalariga oid o'xshashlikni aniqladilar. Biroq munozarada tadqiqotchilar umumiy miya faoliyati ko'rsatkichlari bo'yicha psixik vazifalarini o'rganib chiqishni afzal ko'rdilar. Natijada psixofiziologiya fani mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida mazmuni, rasmiy ravishda esa psixik jarayonlarni fiziologik tizimlarini o'rganish sifatida qayd etilgan. Biroq, ilm-fan rivoji makroreaksiyalarni o'rganishning yo'nalishi bilan to'xtab qolmadi. Psixofiziologik tadqiqotlar qayd etish usullarni jalb etgan holda nafaqat hayvonlarda, balki odamlarda ham neytral faoliyat keng tarqalgan. Bu X.Delgado va Ye.N.Sokolovalarning psixofiziologiyani rivojlanish istiqbollari haqidagi bashoratli fikrlarini tasdiqladi [8].

Bugungi kunda psixofiziolog o'z oldiga hid bilish qobiliyati, idrok, xotira, neyron mexanizmlari, hissiyotlar, tafakkur, nutq, ong, xulq-atvor va psixik jarayon, miya yarim sharlari o'rtasidagi munosobatlarni, funksional tizimlar, individual farqlar psixofiziologiyasi, kodlashtirish tamoyillari, asab tizimida axborotni qayta ishlash va boshqa vazifalarni o'z ichiga oladi.

Umuman olganda psixofiziologiya fani psixologiyaning barcha tarmoqlari bilan chambarchas bog'liqdir. Har bir bo'lajak psixolog psixofiziologik tadqiqotlardan xabari bo'lishi muhimdir. Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshida tashkil etilgan Psixologiya o'quv ilmiy markazi, Oliy va o'rta ta'lim vazirligi va Akademik innovatsiyalar fondi bilan hamkorlikda "Oliy ta'lim muassasalarida pedagogika va psixologiya fanini o'qitishda amaliy bilimlarni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish" nomli loyihasi amalga oshirilmoqda, loyihaning asosiy maqsadi psixologiya yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarda amaliy bilimlarni takomillashtirish maqsadida psixofiziologik laboratoriya tashkil etib laboratoriya uchun muhim bo'lgan barcha moddiy texnik baza ta'minlashdan iborat. Loyihada

ko'zda tutilgan keyingi muhim vazifa talabalarni psixofiziologik jihozlarni qo'llanilishini o'qitish va psixofiziologik tadqiqotlar olib borishga o'rgatishdir. Bundan tashqari universitetning barcha ilmiy ish bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilari o'zlarining ilmiy tadqiqotlarini aynan psixofiziologiya laboratoriyasida olib borishlari uchun barcha qulay jihozlar bilan ta'minlashdir.

Psixofiziologiya laboratoriyasining o'ziga xos o'ta muhim talablari mavjud bo'lib, ularga nihoyatda katta e'tibor berish lozimdir. Psixofiziologik laboratoriyani tashkil etishda xonaning holati va joylashuvi psixofiziologik uskunalarning joylashuvi bilan birga taqsimlash muhimdir. Laboratoriyada olib boriladigan psixofiziologik tadqiqotlarning ishonchliligi xonada joylashgan uskunalarning tartibiga bog'liq.

Psixofiziologiyada psixik jarayonlarda sodir bo'ladigan neyronlar holati, mexanizmi, xatti-harakatlari va fiziologiyasini o'rganish uchun maxsus tekshiruvlarning eng ko'p tarqalgan quyidagi usullari mavjud[9]:

- EEG(*elektroensefalografiya*) - miyaning elektr imkoniyatlarini ro'yxatga olish.

- MEG(*magnitoensefalografiya*) - miya tomonidan yaratilgan magnit maydoni.

- ChP (*chaqirilgan potentsiallar*) - inson miyasi faoliyatidagi uyg'otilgan kuchlar metodi va uyg'otilgan imkoniyatlar (potensial) bilan bog'liq bo'lgan elektr kuchlar ro'yxati yoki miyada uyg'otilgan magnit maydoni tashqi ta'sirlar yoki ichki jarayonlarga bog'liq.

- *Tomografik metod* – miya faoliyatini bilvosita aniqlaydigan inson miyasining virtual bo'laklarini olish.

- *Poligrafik metodlar* - inson organizmida sodir bo'layotgan fiziologik jarayonlarning turli xil ko'rsatkichlarini qayd etish [10].

- *NS-Psixotest* - psixik faoliyat, imkoniyati cheklanganlikni va salomatlikni baholashning ko'pqirrali psixofiziologik testlar jamlanmasi.

Shunday qilib, psixofiziologiya fani va psixofiziologik usullar oliy ta'lim muassasalarining psixologiya yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalari amaliy faoliyatini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari tadqiqotchilarning o'z ilmiy ishlarini to'g'ri va aniq olib borishida psixofiziologik ko'rsatkichlarga asoslanib tadqiqot o'tkazishlari ilmiy nuqtayi nazardan mukammal natijalarga erishishga sabab bo'ladi.

Adabiyotlar

1. “Ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмоний баркамол етиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жиҳатидан янги босқичга

кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 14 августдаги ПҚ-3907-сон қарори.

2. Данилова Н.Н. Психофизиологическая диагностика функционального состояния. М., 1992.

3. Соколов Е.Н. Восприятие и условный рефлекс. М., 1958.

4. Соколов Е.Н. Теоретическая психофизиология. М., 1986.

5. Фомин С.В., Соколов Е.Н., Вайткевичус Г.Г. Искусственные органы чувств. М., 1979.

6. Хьюбел Д. - Глаз, мозг, зрение. – М., 1990.

7. Конорский Ю. Интегративная деятельность мозга. – М., 1970.

8. Русинов В.С., Гриндел О.М., Болдырева Г.И., Вапард Е.М. - Биопотенциалы мозга человека. Математический анализ. – М., 1987.

9. Данилова Н.Н. Функциональные состояния: механизмы и диагностика.

KIMYOVIY TEXNOLOGIYA FANLARINI O‘QITISH SOHASIDAGI ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALAR

Xadjibekov S.N. - "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislar instituti" Milliy tadqiqot univerrisiteti, "Fizika va kimyo" kafedراسи dotsenti

Pulatova F.O. - Toshkent farmatsevtika institut "Organik sintez" kafedراسи mudiri, dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarda o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha egallangan nazariy bilimlarni tekshirib ko‘rish, katalitik reaktorlar bilan ishlashga oid bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish, xomashyoni katalizatorni qo‘llash bo‘yicha amaliy harakatlarni shakllantirish, mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: katalitik reaktorlar, xomashyoli katalizatori, mustaqil fikrlash.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ПЕРЕДОВОЙ ОПЫТ В ОБЛАСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ ХИМИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН

Хаджибеков С.Н. - Национальный исследовательский университет “Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства”, доцент кафедры «Физика и химия»

Пулатова Ф.О. - Ташкентский фармацевтический институт, заведующий кафедрой «Органический синтез», доцент

Аннотация. В данной статье речь идет о проверке теоретических знаний студентов по предмету, формировании знаний и привычкой работы с каталитическими реакторами, формировании практических действий по использованию сырья катализатора, обучению самостоятельному мышлению.

Ключевые слова: каталитические реакторы, сырьевой катализатор, самостоятельное мышление.

FOREIGN BEST PRACTICES IN THE FIELD OF TEACHING CHEMICAL TECHNOLOGY DISCIPLINES

Khadzhibekov S.N. - National Research University “Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers”, Associate Professor of the Department of “Physics and Chemistry”

Pulatova F.O. - Tashkent Pharmaceutical Institute, Head of the Department of “Organic Synthesis”, Associate Professor

Annotation. To test the theoretical knowledge of students on the subject, to form knowledge and skills in working with catalytic reactors, to form practical actions for the use of catalyst raw materials, to teach independent thinking.

Keywords: catalytic reactors, raw material catalyst, independent thinking.

Bygungi kunda talabalarda o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha egallangan nazariy bilimlarni tekshirib ko‘rish, katalitik reaktorlar bilan ishlashga oid bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish, xomashyoni katalizatorni qo‘llash bo‘yicha amaliy harakatlarni shakllantirish, mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish muhim hisoblanadi. Buning uchun ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Quyida keys-stadi texnologiyasi asosida bajarilgan tajribalar keltirilgan.

Keysning pedagogik annotatsiyasi

O‘quv moduli: “Umumiy kimyoviy texnologiya”

Mavzu: “Metanol sintezi uchun katalitik reaktor tanlash”

Keysning asosiy maqsadi:

Talabalarda o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha egallangan nazariy bilimlarni tekshirib ko‘rish, katalitik reaktorlar bilan ishlashga oid bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish, xomashyoni, katalizatorni qo‘llash bo‘yicha amaliy harakatlarni shakllantirish, mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish.

O‘quv faoliyatidan kutiladigan natijalar:

O‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladi;

Reaktorlar tuzilishi va ishlash tarzi haqidagi tushunchalarni chuqurroq anglaydi;

Katalizatorlar tuzilishi va ishlash tarzi haqidagi tushunchalarni chuqurroq anglaydilar. Katalitik reaktorda amalga oshiriladigan jarayonining fizik mohiyati, unga ta'sir etuvchi omillar, uning bosqichlari haqidagi bilimlarini faollashtiradi;

Amaliy vaziyatlarda katalitik jarayonini bajarish ko'nikmasini egallaydi;

Berilgan muammolarni yechish va qarorlar qabul qilishga o'rganadi.

Ushbu keys-stadini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun oldindan talabalar quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmoqlari zarur:

Tinglovchilar bilishi kerak: katalitik jarayon, uning ta'rifi, turlari, usullari, darajasi, bosqichlari va unga ta'sir etuvchi omillarni, reaktorturlari, tuzilishi va ishlash tarzini biladi.

Tinglovchi amalga oshirishi kerak:

mavzuni mustaqil o'rganadi;

muammoning mohiyatini aniqlashtiradi;

g'oyalarni ilgari suradi;

ma'lumotlarni tanqidiy nuqtayi nazardan ko'rib chiqib, mustaqil qaror qabul qilishni o'rganadi;

o'z nuqtayi nazariga ega bo'lib, mantiqiy xulosa chiqaradi;

o'quv ma'lumotlar bilan mustaqil ishlaydi;

ma'lumotlarni taqqoslaydi, tahlil qiladi va umumlashtiradi;

Tinglovchi ega bo'lmog'i kerak:

kommunikativ ko'nikmalarga;

taqdimot ko'nikmalariga;

hamkorlikda ishlash ko'nikmalariga;

muammoli holatlarni tahlil qilish ko'nikmalariga.

Texnologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda keys-stadining tavsifnomasi:

Ushbu keys-stadining asosiy manbai kabinetli, lavhasiz bo'lib, bugungi kun tartibida bayon etilgan. Keys-stadining asosiy obyekti shaxsga yo'naltirilgandir. Bu tashkiliy institutsional keys-stadi bo'lib, ma'lumotlar, vaziyatlar va savollar asosida tuzilgan. Hajmi o'rtacha, tizimlashtirilgan bo'lib, treningga mo'ljallangan o'quv mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalar hosil qilishga qaratilgan. Didaktik maqsadlarga ko'ra keys-stadi muammolarni taqdim qilishga, ularni hal etishga, tahlil qilish va baholashga qaratilgan.

Ushbu keys-stadidan "Kimyoviy texnologiyaning nazariy asoslari" va "Muhim noorganik moddalar sintezi" fanlarida foydalanish mumkin.

Keys –stadi.

Metanol sintezi uchun katalitik reaktor tanlash.

Kirish. Kataliz kimyo sohasining eng murakkab qismidan iboratdir. Kimyo sanoatining 90% va hamma biokimyoviy jarayonlar kataliz qo'llanadigan sohalar hisoblanadi.

Sulfat va nitrat kislota, ammiak, metanol olish, katalitik kreking, riforming, monomerlar sintezi, sintetik kauchuk va boshqa polimerlar olish jarayonlari katalizga asoslangan. Katalitik jarayonlarda reaksiyaga kirishayotgan moddalar va katalizatorlar har xil fazada bo'ladi, reaksiya ikki faza chegarasida sodir bo'ladi. Geterogen katalizda asosan, katalizator sifatida qattiq moddalar ishlatiladi. Texnologik hisoblashda katalitik aktivlik reaksiya tezligini hajmi birligi yoki massasiga nisbatan aniqlanadi. Katalizatorning faolligi uning kimyoviy tarkibiga bog'liq. Geterogen katalizda katalizator aktivligi uning sirt yuzasiga proporsional. G'ovaksimon yuqori dispers katalizatorlar yoki katalizator tashuvchilarga shimdirilgan katalizatorlar katta sirt yuzasiga egadirlar. Bundan tashqari jarayonga mos ravishda reaktor tanlanishi lozim. Katalitik jarayonlarda apparatlarning noto'g'ri tanlanishi ishlab chiqarish texnologiyasida muammolarni tug'diradi.

Keys stadidagi asosiy muammo: SN_3ON sintezi uchun mos ravishda katalitik reaktorni tanlash.

“Metanol sintezi uchun katalitik reaktor tanlash”

Kimyo ishlab chiqarish korxonasi yosh iqtidorli muhandis-texnolog Aziz Po'latov ishga qabul qilindi. Aziz Po'latov juda iqtidorli, bilimli ingliz tilini va axborot texnologiyasini yaxshi o'zlashtirgan talaba sifatida oliygohda tahsil oldi. U endi o'qishni tamomlagach institut yo'llanmasi bilan korxonaga ishga yuborildi.

Bosh texnolog Komilov Jasur aka korxonaning tajriba-sinov laboratoriyasining mudiri bo'lib ishlaydi. U bugun Azizga mustaqil ravishda SN_3ON sintezi uchun ishlatiladigan reaktorlarni tanlashni va tajribani olib borishini aytdi. Aziz mahsulot chiqish unumdorligini oshirish maqsadida ichiga temir katalizatorlari joylashtirilgan 3 xil sintez minoralaridan birini tanladi.

Minoralar 3 xil hajmda yasalgan: 2,7x 0,4; 2,7x 0,6; 2,7x 0,8m. Aziz eng katta hajmdagi (2,7x0,8m) reaktorni tanladi va yuqori unumdorlikda mahsulot chiqishini kutdi. Ammo kutilgan natija chiqmadi. 25% ga kam mahsulot chiqdi. Metanol chiqishi kichik diametrdagi reaktorlardan past qiymatni berdi. Aziz nima uchun bunday bo'lganini tushunolmay qoldi. Axir katalizatorlarning reaksiyaga kirishuvchi reagentlar bilan ta'sirlashuv yuzasi katta bo'lganda apparat ishining unumdorligi yuqori bo'lishi kerak edi-ku. Shunda bosh texnolog Jasur aka Azizga “Nazariy bilimlarni yaxshi o'zlashtiribsanu, ammo ertaklarni ko'p o'qimagan ekansanda. “Tulki va Laylak” ertagini yaxshilab o'qib, mohiyatini tushunib kel!” deb vazifa berdi.

Aziz metanol sintezi uchun, tanlangan reaktorga “Tulki va Laylak” ertagining nima aloqasi borligini tushunmay o'ylanib qoldi. **Savollar.**

Ushbu vaziyatda qanday muammo ko‘tarilgan?

Nima uchun bosh texnolog Azizga reaktor tanlashni aytdi?

Nima uchun Aziz katta diametrdagi reaktorni tanladi?

Azizda yetarlicha bilim va ko‘nikmalar bormi?

Unumdorlikning past chiqishiga qanday omillar ta’sir etgan?

Sizning fikringizcha ushbu muammoning echimi qanday?

Katalitik jarayonga “Tulki va Laylak” ertagining nima aloqasi bor?

Amaliy vaziyatni bosqichma-bosqich tahlil qilish va hal etish bo‘yicha o‘quvchilarga metodik ko‘rsatmalar.

Keys-stadini yechish bo‘yicha individual ish yo‘riqnomasi.

1. Avvalo, keys-stadi bilan tanishing. Muammoli vaziyat haqida tushuncha hosil qilish uchun bor bo‘lgan butun axborotni diqqat bilan o‘qib chiqing. O‘qish paytida vaziyatni tahlil qilishga harakat qiling.

2. Vaziyatdan keyingi savollarga javob bering.

3. Ma’lumotlarni yana bir marotaba diqqat bilan o‘qib chiqing. Siz uchun muhim bo‘lgan satrlarni quyidagi harflar yordamida belgilang:

“**D**” (dalil) harfi - ishning uslubiy ta’minoti bilan to‘liq tanishmaganligi, reaktorni tanlashning qiyinligi, katta hajmdagi reaktorning tanlanganligi, mahsulot chiqish unumdorligining kam bo‘lishi, ertak mohiyatini tushunmaganligi.

“**S**” (sabab) harfi – texnologning tajribasizligi, nazariyani amaliyotga qo‘llay olmasligi, reaktor o‘lchami noto‘g‘ri tanlanganligi, ertak mazmunidan to‘g‘ri xulosa chiqara olmasligi.

“**M.Ye.**” (muallif echimi) harflari - reaktor hajmi haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishi kerakligi.


4. Yana bir bor savollarga javob berishga harakat qiling.

Guruhlarda keys-stadini yechish bo‘yicha yo‘riqnomasi


1. Vaziyatlar bilan tanishib chiqing.

2. Guruh sardorini tanlang.

3. A1 formatdagi qog‘ozlarda quyidagi jadvalni chizing va to‘ldiring.



1-rasm. Katalitik reaktor chizmasi.[1,2,3]



2-rasm. Metanol sintezining texnologik sxemasi.[4,5,6]

Muammoni tahlil qilish va yechish jadvali.

Muammoni tasdiqlovchi Dalillar	Muammoning kelib chiqish sabablari	Yuzaga kelgan vaziyatda qo'llanadigan yechim
<p>1. Yosh texnolog Aziz Po'latov ishning uslubiy ta'minoti bilan to'liq tanishmaganligi.</p> <p>2. Katta hajmdagi (2,7x0,8m) reaktorning tanlanganligi.</p> <p>3. Mahsulot chiqish unumdorligining 25% ga kam bo'lishi.</p> <p>4. Azizning ertak mohiyatini tushunmaganligi.</p>	<p>1. Yosh muhandis - texnologning tajribasizligi.</p> <p>2. Nazariyani amaliyotga qo'llay olmasligi.</p> <p>3. Katalizator yuzasi bilan reagentlar ta'sirlashuvi haqida bilimning yetarli bo'lmasligi.</p> <p>4. Reaktor o'lchami noto'g'ri tanlanganligi, 2,7 x 0,4m hajmli minora o'rniga 2,7 x 0,8m tanlanganligi.</p> <p>5. Hayotdagi voqea va ertak mazmunidan to'g'ri xulosa chiqara olmasligi.</p>	<p>1. Aziz avval metanol sintezi uchun qo'llanadigan reaktor hajmi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi kerak.</p> <p>2. Jarayon uchun olingan reagentlar gaz moddalari bo'lgani uchun kichik diametrli reaktor (2,7x 0,4m) tanlanishi lozim. Shunda gaz oqimining tezligi oshadi va uning katalizator yuzasi bilan kontakti ortadi.</p> <p>3. Ertakdan chiqaradigan xulosa shuki, laylakning tumshug'i lagandagi ovqat bilan to'liq kontaktda bo'la olmaydi. Ko'zda esa aksincha, tumshug'ining butun hajmi ovqat yuzasi bilan kontaktda bo'ladi. Shuning uchun laylak uni bema'lol tanavvul qila oladi.</p>

4. Ishni yakunlab taqdimotga tayyorlash.

Keys bilan ishlash jarayonini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari (auditoriyadan tashqarida va auditoriyada bajarilgan ish uchun) [7].

Auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari.

Talabalar ro'yxati	Asosiy muammo ajratib olinib, tadqiqot obyekti aniqlangan mak. 0,5 b	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari aniq ko'rsatilgan mak. 1,5 b	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari aniq ko'rsatilgan mak. 2 b	Jami mak.4 b

Auditoriyada bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Guruhlar ro'yxati	Guruh faolligi mak. 2 b	Ma'lumotlar ko'rgazmali taqdim etildi mak.1b	Javoblar to'liq va aniq berildi mak.2 b	Jami mak.5 b

Xulosa qilib aytganda, keys-stadi texnologiyasi va boshqa xorijiy tajribalar asosida o'tilgan va talabalar tomonidan o'zlashtirilgan mavzular albatta o'z samarasini beradi

Adabiyotlar

- 1.C.A. Heaton The chemical industry Springer Science & Business Media, 6 dek. 2012 . – 384
2. Po'latova F.O. Umumiy kimyoviy texnologiya fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish uchun o'quv uslubiy qo'llanma. 1 – qism. FarmI, 2011.
3. Po'latova F.O., Alimdjanova L.I. Umumiy kimyoviy texnologiya fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv uslubiy qo'llanma. 2 – qism. FarmI, 2015.
4. Po'latova F.O. Umumiy kimyoviy texnologiya fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv uslubiy qo'llanma. 1 – qism. FarmI, 2013.
5. Po'latova F.O., Abzalova N.A.,Umumiy kimyoviy texnologiya fanidan test variantlari. FarPI, 2013.
6. Production management of chemical industries Golwalkar, Kiran r. Spinger science &, 2015.
7. Komilov X.M., Po'latova F.O. Umumiy kimyoviy texnologiya darslik. 2010.

AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH MAZMUNI VA BOSQICHLARI

**Shodiyeva M.J. - Qashqadaryo viloyat XTXQTMOHM Maktabgacha,
boshlang‘ich va maxsus ta‘lim kafedrası mudiri,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirishga doir ilmiy va o‘quv adabiyotlar, dissertatsiyalar tahlil qilinib, “rivojlanish”, “shaxsiy rivojlanish”, “o‘zini o‘zi rivojlantirish”, “kasbiy rivojlanish”, “uzluksiz kasbiy rivojlanish”, “uzluksiz malaka oshirish”, “o‘qituvchining mustaqil kasbiy rivojlanishi” kabi tushunchalarga mualliflik ta‘riflari keltirilgan. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning maqsad va vazifalari, amalga oshirish bosqichlari va unga qo‘yilgan talablar ilmiy-pedagogik jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: rivojlanish, shaxsiy rivojlanish, o‘zini o‘zi rivojlantirish, kasbiy rivojlanish, uzluksiz kasbiy rivojlanish, o‘qituvchining mustaqil kasbiy rivojlanishi.

СОДЕРЖАНИЕ И ЭТАПЫ НЕПРЕРЫВНОГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ АКМЕОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

**Шодиева М.Ж. - заведующий кафедрой Дошкольного, начального и
специального образования Кашкадарьинский областной ТЦППКРНО,
доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент**

Аннотация. В данной статье проведен анализ научной и учебной литературы, диссертаций по вопросам повышения квалификации педагогов, «развитие», «личностное развитие», «саморазвитие», «профессиональное развитие», «непрерывное профессиональное развитие», «авторские определения таких понятий, как «непрерывное повышение квалификации», «самостоятельное повышение квалификации педагога». Цели и задачи, этапы реализации и требования к непрерывному профессиональному развитию учителей начальных классов имеют научно-педагогическое обоснование.

Ключевые слова: развитие, личностное развитие, саморазвитие, профессиональное развитие, непрерывное профессиональное развитие, самостоятельное профессиональное развитие педагога.

CONTENTS AND STEPS OF CONTINUOUS PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS ON THE BASIS OF ACMEOLOGICAL APPROACH

Shodieva M.Zh. - Head of the department of Preschool, primary and special education Kashkadarya regional TC RATPEW, doctor of philosophy (PhD) in pedagogical sciences, associate professor

Annotation. This article analyzes the scientific and educational literature, dissertations on the professional development of teachers, "development", "personal development", "self-development", "professional development", "continuous professional development", "author's definitions of concepts such as "continuous professional development", "independent professional development of the teacher" are given. The goals and objectives, stages of implementation and requirements for the continuous professional development of primary school teachers are scientifically and pedagogically based.

Keywords: development, personal development, self-development, professional development, continuous professional development, independent professional development of a teacher.

Ta'lim sifatini oshirish, pedagogik kadrlar salohiyatini rivojlantirish davlat siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalarini hal qilishni ta'minlaydigan tizimli o'zgarishlarning umumiy asosidir.

Shunga muvofiq:

- mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash;
- dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish;
- bilimga asoslangan iqtisodiyot ta'lim va kasbiy tayyorgarlikning yangi modellarini talab qiladi. Bunda davriy malaka oshirishdan farqli ravishda ijtimoiy va iqtisodiy muvofiqlik imkoniyatiga ega bo'lgan "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida uzluksiz malaka oshirish tizimini takomillashtirib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bu orqali o'qituvchilarning ijtimoiy, kasbiy, maxsus va metodik tayyorgarligini takomillashtirish, ularni uzluksiz kasbiy rivojlantirish (continuous professional development) va o'zini o'zi rivojlantirish (self-development), bajarish orqali o'rganish (learning by doing) muhiti yaratiladi hamda ikkita eng muhim strategik maqsad – sifatli ta'lim olish imkoniyatini berish va inson kapitali (Human Capital) – inson va jamiyat manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalar yig'indisi)ni mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishiga erishiladi.

Tadqiqot doirasida o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish, metodik ta'minotini yaxshilash, o'qitish sifatini modernizatsiyalashga doir ilmiy va o'quv adabiyotlar, dissertatsiyalar tahlil qilinib, zarur xulosalar qilindi.

Ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish strategiyalari, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga nisbatan innovatsion yondashuv, pedagogning o'z-o'zini kasbiy rivojlantirishi masalalarini Djon Raven (Raven John) [12], Robert Marsano (Robert J. Marzano) [14], Mareyke Kunter (Mareike Kunter) [11] kabi xorijlik olimlar ilmiy izlanishlari uchun tadqiqot yo'nalishi etib belgilagan.

MDH olimlari V.I. Andreyev o'zini o'zi ijodiy rivojlantirish [2], A.A. Derkach kasb-hunarni rivojlantirish uchun akmeologik asoslar [4], R.V. Demyanchuk o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi hamda uni psixologik qo'llab-quvvatlash [5], Y.A. Klimov [8] kasbiy o'zini o'zi belgilash psixologiyasiga doir masalalarni tadqiq qilgan.

Ta'lim tizimida o'qituvchi o'rnining o'zgarishi, ularni kasbiy rivojlantirish, faoliyatini qo'llab-quvvatlash, doimiy ilmiy-metodik yordam ko'rsatib borish va faolligini orttirishga doir tadqiqotlar yurtimizning K.A. Karimov [7], X.I. Ibragimov [6], MDHning O. Gazman [3], L. Tarita [15] va xorijning A. Maslou [10], K. Rodjers [13] kabi olimlari tomonidan amalga oshirilgan.

O'qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishi yuzasidan o'tkazilgan nazariy tahlilni umumlashtirish quyidagi xulosalarni shakllantirishga imkon berdi:

1. Kasbiy shakllanish – bu kasbiy yo'naltirilgan faoliyat turlarini o'zlashtirish va o'z-o'zini proyeksiyalash (proyeksiya lotincha projectus — oldinga irg'itilgan – biror narsaning tekislik (qog'oz)ka tushirilgan tasviri), kasblar dunyosida o'z o'rnini belgilash, kasbda o'zini anglash va kasbiy mahorat darajasiga erishish uchun o'z potensialini amalga oshirish, shaxsiy rivojlanish va o'zini rivojlantirishning samarali jarayoni. Kasbiy shakllanish shaxsning faqat texnologik va kasbiy faoliyatni tanlash bilan bog'liq ehtiyoj va qiziqishlarini ifodalaydi.

2. Rivojlanish – bu tabiiy, muqarrar jarayon, bu progressiv o'zgarishlarni anglatadi. Insoniyat rivojlanishining manbalari, harakatlantiruvchi kuchlari yashash sharoitlari, ijtimoiy doiralar, shuningdek, uning ichki munosabati va ehtiyojlari kabi omillarga bog'liq.

3. Shaxsiy rivojlanish – bu shaxsning umumiy rivojlanishining bir qismi. Inson taraqqiyoti shaxs rivojlanishidan tashqari, jismoniy rivojlanish va aqliy funksiyalarning rivojlanishini ham o'z ichiga oladi. Shaxsiy rivojlanish – bu tashqi va ichki, boshqariladigan va nazoratsiz ijtimoiy hamda tabiiy omillar ta'siri ostida shaxsning shakllanish jarayoni.

4. O'zini o'zi rivojlantirish – bu inson o'z potensialini oshirish va o'zini shaxs sifatida anglash uchun turli resurslardan foydalangan holda, hech qanday tashqi

yordamsiz amalga oshiriladigan ongli jarayon. O‘zini o‘zi rivojlantirish – doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayoti davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

5. Kasbiy rivojlanish – bu shaxsiy yo‘nalishni, kasbiy malaka va muhim fazilatlarni shakllantirishni, kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan psixofiziologik xususiyatlarni rivojlantirishni, shaxsga mos ravishda professional darajada muhim faoliyatni sifatli va ijodiy bajarishning maqbul yo‘llarini izlashni ta‘minlaydigan shaxsni “rivojlantirish”, yetarli faoliyatni “shakllantirish”ning dinamik jarayoni.

6. Uzluksiz kasbiy rivojlanish – bu shaxs rivojlanishining hozirgi darajasi, ijtimoiy ahvoli va yetakchi faoliyatni rivojlantirish o‘rtasidagi ziddiyatlarni hal qilish orqali kasbiy yo‘naltirilganlik darajasi, kasbiy kompetensiya, ijtimoiy va kasbiy muhim fazilatlar va kasbiy ahamiyatga ega psixofiziologik xususiyatlar darajasini uzluksiz oshirish va takomillashtirish jarayoni. Shaxsning uzluksiz kasbiy rivojlanishidan dalolat beruvchi tarkibiy qismlaridagi asosiy o‘zgarishlar, faoliyatning faol rivojlanishi bosqichlarida turli xil fazilatlar va ko‘nikmalarning ajralmas professional ahamiyatga ega turkumlarining shakllanishi, ijtimoiy ehtiyojlarga mos zamonaviy talablarning bajarilishiga tayyorlik, inson kapitalini rivojlantirish, samarali ta‘limiy muhitni tashkil etishdan iboratdir.

Xalq ta‘limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish – shaxs kasbiy salohiyatining individual va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda hayot davomida o‘sishi jarayoni [1].

Uzluksiz kasbiy rivojlantirishning maqsadi – xodimlarning egallab turgan lavozimlari, mutaxassisligi yoki dars beradigan fanlari bo‘yicha kasbiy va pedagogik mahorati doimiy ravishda o‘sib borishini, ularning ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalari, shuningdek, o‘qituvchining interaktiv usullari bo‘yicha kasbiy bilimlari, malaka va ko‘nikmalari muntazam ravishda yangilab borilishini ta‘minlash hamda ularni davlat ta‘lim standartlari, davlat ta‘lim talablari va sohaga oid qonunchilik bilan muntazam tanishtirib borishdan iborat [1].

Uzluksiz kasbiy rivojlantirishning asosiy vazifalari [1]:

xodimlarning doimiy kasbiy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar taqdim etadigan ta‘lim muhitini yaratish;

mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini singdirish va xodimlarning qobiliyatini rivojlantirish hamda yangi bilimlar berish orqali o‘z ustida mustaqil ishlash va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish;

xodimlarning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi asosida kompetentlik darajasini oshirish va kasbiy mahoratini takomillashtirish;

ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish;

umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirishning asosiy manbai sifatida xodimlarning kasbiy rivojlanishini, tashabbuskorligini, ilmiy tadqiqotlarga intilishini va ijodiy mahoratini rag'batlantirish.

8. Uzluksiz malaka oshirish – xalq ta'limi xodimlarining professional vazifalari doirasidagi bilimlarini muntazam oshirib borishni, ijtimoiy buyurtma, ehtiyoj va zamonaviy talablar asosida o'qituvchilarning kasbiy va metodik tayyorgarligini takomillashtirish, kasbiy va pedagogik mahorati hamda samarali ta'limiy muhit yaratish ko'nikmalarini doimiy ravishda o'sib borishini nazarda tutadi. Malaka oshirish jarayoni kasbiy ahamiyatga ega faoliyat turlari va ijtimoiy vaziyat vositachiligida amalga oshiriladi.

9. O'qituvchining mustaqil kasbiy rivojlanishi – muayyan fandan belgilangan bilim, ko'nikma va malaka hamda kasbiy kompetentligini rivojlantirishga doir ma'lumotlarning ma'lum bir qismini tinglovchi-o'qituvchi tomonidan auditoriyadan tashqarida yoki kasbiy faoliyati davomida mustaqil o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyat bo'lib, o'qituvchining mustaqil tarzda kasb mahoratini oshirish, kasbiy kompetentligini takomillashtirishga, kasbiy layoqati va ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga yo'naltiradi. Shuningdek, o'qituvchining o'z lavozimi va mutaxassisligi bo'yicha yangi bilim, ko'nikma va malakalarini uzluksiz ravishda mustaqil o'zlashtirishini ham nazarda tutadi.

Mutaxassislar oliy ta'lim muassasalarida shaxsni kasbiy rivojlantirishning to'rtta asosiy bosqichini ko'rsatib o'tadilar: mazmun, dinamik (shaxsning ongli ravishda kasbiy ijodkorligini mustaqil ifodalashi), institutsionallik (shaxsni kasbiy rivojlantirish muhiti), texnologik (kasbiy rivojlantirishning vositalari, metod va shakllari, holatlari [9]).

Biz tadqiqot doirasida o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirishning pedagogik-psixologik aspektlarini o'rganish, shuningdek, kasbiy rivojlantirish komponentlarini, ijtimoiy va kasbiy-pedagogik mezonlarini aniqlashtirish, o'qituvchining pedagogik faoliyati va kasbiy rivojlanish kombinatsiyasining mazkur jarayondagi imkoniyatlari diagnostikasi xulosalariga tayanib, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi quyidagi bosqichlarda kechishi aniqlandi:

- innovatsion faoliyat bilan tavsiflanadigan kasbiy rivojlanishni idrok etish bosqichi;
- kasbiy rivojlanishni belgilaydigan innovatsiyalarga moslashish bosqichi;
- translyatsiya bosqichi, ya'ni, kasbiy rivojlanish natijasida o'zlashtirilgan kontentdan amaliyotda bevosita foydalanish;
- diagnostika (kasbiy rivojlanish darajasini aniqlash, o'zini o'zi baholash, o'z faoliyati va natijani baholash) bosqichi;

- korreksiyalash bosqichi;
- qayta aloqa bosqichi;
- yangi kasbiy rivojlanish yo‘nalishini belgilash bosqichi.

O‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirishning muvaffaqiyati, eng avvalo, mazkur jarayonni tashkil etish tamoyillari – kattalar ta’limiga qo‘yiladigan talablar, kasbiy rivojlanishning barcha bosqichlari va predmetlarini o‘qitish uchun asos bo‘ladigan qonuniyatlar, qoidalarning qanchalik to‘g‘ri amalga oshirilishiga bog‘liq. O‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirish bosqichlarini ketma-ketlikda va uzviy amalga oshirish asosida o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga erishiladi, deb hisoblaymiz.

Yuqoridagi fikr-mulohazalar, ilmiy-tadqiqot ishlari tahlili va o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirish tizimining mavjud holati o‘qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish, ularni kasbiy rivojlantirish jarayonini o‘qituvchilarning kasbiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda, quyidagi talablar asosida shakllantirish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatdi:

- mustaqil (uzluksiz) kasbiy rivojlanish jarayonida ta’lim oluvchilar tomonidan bilimlarni mustaqil izlash va ularni o‘zlashtirishni nazarda tutilganligi;
- kasbiy rivojlantirish jarayonining fan, texnika, texnologiyaning so‘nggi yutuqlariga muvofiq tashkil etilganligi hamda xalq ta’limi tizimida uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash talablariga mos kelishi.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirish tizimi oldida turgan dolzarb vazifalar quyidagilardan iborat:

- umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitish jarayonini samarali tashkil etish, o‘qituvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish yuzasidan o‘qituvchilarning metodik ta’minotini zamon talabi va o‘qituvchining ehtiyojlari ya’ni ijtimoiy-kasbiy ehtiyojlar asosida takomillashtirish;
- o‘quv jarayoniga mo‘ljallangan, integrallashgan axborot-ta’lim resurslariga ega zamonaviy portalni yaratish;
- axborotlashtirish jarayonini samarali rivojlanishini ta’minlash uchun axborot infratuzilmasini mukammal shakllantirish;
- uzluksiz kasbiy rivojlanishning eng keng tarqalgan usullaridan biri – o‘qituvchilarning umumiy muammolarini birgalikda hal qilish va o‘z kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan kasbiy uyushmalarni shakllantirish;
- elektron axborot ta’lim muhiti asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirish sifatini baholash, elektron monitoringini olib borish.

Xulosa shuki, ta’lim jarayonida ta’lim mazmuni, o‘rgatish, o‘rganish bir-biri bilan shunday uzviy aloqadagi, ulardan hech birini e’tibordan chetda qoldirish mumkin emas. O‘rgatish ham, o‘rganish ham asosiy maqsadga yo‘naltirilgan ta’lim obyekti va oxirgi natija – ta’lim mazmuniga, bu esa o‘rganishni tashkil etuvchi –

o'rgatuvchiga bog'liq. Shunday ekan, bizningcha, pedagogik faoliyatga yo'naltirilgan yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, ularni kasbiy rivojlantirish jamiyat rivojining zaruriy shartiga aylanishi lozim.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-sonli qarori.

2. Педагогика: Учебный курс для творческого саморазвития / В.И.Андреев. –3-е изд.–Казань: Центр инновационных технологий, 2012.–608 с.

3. Газман О.С // Новые ценности в образовании: десять концепций и эссе. – М.: Инноватор, 1995. – Вып.3. – 58-63 с.

4. А.А.Деркач. Акмеологические основы развития профессионала / А.А. Деркач. - М.: Изд-во Моск. психол.-соц. ин-та; Воронеж: Изд-во НПО "Модек", 2004 г. – 750 с.

5. Демьянчук Р.В. Личностно-профессиональное развитие педагогов и его психологическое сопровождение: Диссертация на соискание учёной степени доктора психологических наук. 19.00.07 – Педагогическая психология. Санкт-Петербург – 2020. –670 с.

6. Ибрагимов А.А. Халқ таълими ходимлари малакасини ошириш тизимини кўп векторли ёндашув асосида такомиллаштириш: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2018. – 56 б.

7. Каримов К.А. Педагог кадрлар малакасини ошириш тизимида ахборот таълим мухитини такомиллаштириш: Пед.фан.бўй.фалсафа доктори (PhD) ...дисс. –Т.: 2018, – 200 б.

8. Климов Е.А. — «Психология профессионального самоопределения. – М.: Академия, 2004. – 304 с.

9. Латюшин В.В. Антропоцентрированный *подход* к профессионально-педагогической подготовке будущего учителя / В.В. Латюшин.– С.50-58. Электрон манба: http://irbis.cfuv.ru:8080/cgi_bin/irbis64r_15/cgiirbis_64.exe?LNG=&Z21ID=&I2

10. Маслоу А.Х. Мотивация и личность: учебник. – Москва : Директ-Медиа, 2008. – 947 с.

11. Mareike Kunter. Motivation als Teil der professionellen Kompetenz : Forschungsbefunde zum Enthusiasmus von Lehrkräften. https://www.researchgate.net/institution/Goethe-Universitaet_Frankfurt_am_Main

12. Равен Джон. Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация / пер.с англ. – М., "Когито-Центр", 2002. – 396 с.

13. Роджерс К.Р. Становление личности: взгляд на психотерапию: научно-популярное издание. –М.: Институт общегуманитарных исследований, 2018. – с 480.

14. Robert J. Marzano., Michael D. Toth. Teacher Evaluation That Makes a Difference: A New Model for Teacher Growth and Student Achievement. Illustrated Edition.2013.

https://www.amazon.com/gp/product/B00E4NM6SI/ref=dbs_a_def_rwt_hsch_vapi_tkin_p1_i0

15. Тарита Л.Г. Методическое сопровождение инновационных процессов в управлении районной образовательной системой: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. специальность 13.00.01 - Общая педагогика. Санкт-Петербург – 2000. – с 24.

ELEKTRON TA'LIM MUHITI

Xakimov A.A. – O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada “Elektron ta’lim”, "Masofaviy ta’lim" va "Aralash ta’lim” tushunchalarining mohiyatini tizimlashtirish va aniqlash, zamonaviy ta’lim jarayonida ularning o‘zaro bog‘liqligini o‘rnatish kabi jarayonlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: elektron ta’lim, masofaviy ta’lim, aralash o‘rganish.

СРЕДА ЭЛЕКТРОННОГО ОБУЧЕНИЯ

Хакимов А.А. - преподаватель Академии МЧС Республики Узбекистан

Аннотация. Статья посвящена систематизации и выявлению сути понятий «Электронное обучение», «Дистанционное обучение» и «Смешанное обучение», установлению их взаимосвязей и соотношений в современном учебном процессе.

Ключевые слова: электронное обучение, дистанционное обучение, смешанное обучение.

E-LEARNING ENVIRONMENT

Khakimov A.A. - Teacher of the Academy of the Ministry of emergency situations of the Republic of Uzbekistan

Annotation. The article is devoted to the systematization and identification of the essence of the concepts of "E-learning", "Distance learning" and "Blended learning", the establishment of their interrelations and relationships in the modern

educational process.

Keywords: e-learning, distance learning, blended learning.

Jahon hamjamiyatining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotida ro'y berayotgan jarayonlar muqarrar ravishda ta'lim sohasida o'zgarishlarga olib kelmoqda. XXI asrning tendensiyalari bu transformatsiya, uzluksizlik, shaxsiy rivojlanish konsepsiyasiga o'tish, integratsiya va boshqa jarayonlardir. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, ularni o'quv jarayoniga kiritish, shuningdek, ta'lim sohasida bir qator yangi g'oyalarni, shu jumladan, elektron, masofaviy va aralash ta'limni amalga oshirish bilan bog'liq g'oyalarni joriy etishga imkon bermoqda [1].

Bu texnologik taraqqiyot - elektron ta'limga mos keladi. Axborotlashtirish, telekommunikatsiya, informatika va ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi nafaqat ta'lim turlarini, balki ta'lim infratuzilmasini va yangi ta'lim xizmatlarini ham o'zgarishigi olib kelmoqda.

Jahon ta'lim tizimining texnologik yangiliklar sharoitida rivojlanishi, ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish, zamonaviy pedagogika fanining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanayotgan elektron ta'lim turlarining rolini tushunishni talab qiladi.

Bunday vaziyatda hamda oliy ta'limning o'zgaruvchan maqsadlari sharoitida, shuningdek, o'quv axborotlarining ko'payishi bilan talabalarning mustaqil o'rganish va axborot oqimini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, mutaxassislarni tayyorlashda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish uchun mo'ljallangan va talabalarning indivudal resurslarini rivojlantirishga qaratilgan elektron, masofaviy va aralash ta'limning zamonaviy pedagogik texnologiyalari, ayniqsa, dolzarb bo'lib bormoqda. Yuqorida aytib o'tilganidek, ushbu turdagi mashg'ulotlarning didaktik imkoniyatlarini, ularning uslubiy asoslarini, amalga oshirish sharoitlarini o'rganish, ularni tashkil etishning pedagogik, uslubiy, psixologik muammolarining mohiyatini aniqlash hamda yetarli o'qitish usullarini izlash muhim ahamiyatga egadir [2].

Pedagogik adabiyotlarda ta'lim tushunchasining ko'plab ta'riflari mavjud. Masalan, T.A. Ilina uchun bu "o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning maqsadli jarayoni bo'lib, uning davomida ta'lim, tarbiya va inson taraqqiyoti amalga oshiriladi" [3]. Mashhur "Pedagogika lug'ati"da G.M. va A.Yu. Kodjaspirovning so'zlariga ko'ra, "Ta'lim-bu o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni o'zlashtirish, dunyoqarashni shakllantirish, tinglovchilarning aqliy kuchi va potensial imkoniyatlarini rivojlantirish, belgilangan maqsadlarga muvofiq o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalarini rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgan maxsus tashkil etilgan, boshqariladigan o'zaro ta'sir

jarayoni”. Oxirgi talqin deyarli umume’tirof etilgan bo‘lib, ko‘plab mualliflar bunga murojaat qilishadi.

“An’anaviy” deganda biz o‘quv materialini taqdim etish uchun axborot resurslarini elektron (raqamli) formatlarda qayta ishlashni ta’minlaydigan vositalar va texnologiyalardan foydalanmasdan o‘rganishni tushunamiz. Bu toifaga “kompyutergacha” texnik o‘qitish vositalari - kino va video proyeksiyalar, statik tasvir proyeksiyalari, elektron so‘rovnomalar va boshqalar kirmaydi. - ularni qo‘llash an’anaviy ta’lim vositalari va usullariga ham kiradi.

An’anaviy universitet ta’limida yuqoridagi tarkibiy qismlarning xususiyatlarini baholashda quyidagilarga e’tibor berish kerak:

- axborot ta’lim muhiti universitetda mavjud bo‘lgan qog‘oz manbalari - darsliklar, qo‘llanmalar, kitoblar, jurnallar asosida qurilgan; xorijiy nashrlarga, shu jumladan davriy nashrlarga kirish qiyin (ko‘pincha imkonsiz); axborotni qayta ishlashning avtomatlashtirilgan vositalari mavjud emas (va shunga mos ravishda axborot muhitiga kiritilmagan);

- resurslarga kirish faqat tegishli omborlar (kutubxonalar, o‘qish xonalari) orqali faqat belgilangan vaqtda va ma’lum bir joyda amalga oshiriladi; o‘qituvchi tomonidan resurslarni yangilash zudlik bilan amalga oshirilmaydi;

- o‘qituvchi va kunduzgi talabalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar faqat auditoriya mashg‘ulotlari va nazorat tadbirlari paytida interaktiv rejimda amalga oshiriladi; o‘quvchilar o‘qituvchiga savollar berishlari mumkin bo‘lgan konsultatsiyalar ham auditoriyada bo‘lib, talabalar uchun zarur bo‘lganda emas, balki belgilangan jadvalga muvofiq amalga oshiriladi; mashg‘ulotlar davomida o‘qituvchining sirtqi o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabati interaktiv (auditoriya) xarakterga ega, qolgan vaqtlarda o‘zaro aloqalarning aksariyati pochta kabi interfaol bo‘lmagan va sekin aloqa vositalari orqali amalga oshiriladi.

Shunday qilib, an’anaviy ta’limda bartaraf qilinishi talab etiladigan bir qator kamchiliklarga ega. Bu zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining rivojlanishi natijasida va ularning ta’lim jarayonida qo‘llanilishida amalga oshirish imkoniyatini vujudga keltirdi:

- axborotni turli shakllarda taqdim etish, uzatish va ulardan foydalanish (multimedia);

- katta hajmdagi ma’lumotlarni saqlash;
- masofaviy ma’lumotlarga tezkor kirish;
- manfaatdor tomonlarning tezkor aloqasi;
- virtual makonda birgalikdagi faoliyatni tashkil etish;
- operativ axborotni qayta ishlash, kompyuterli modellashtirish va boshqalar.

Yuqorida aytilganlarning barchasi har qanday ma'lumotni raqamli (elektron) formatlarda taqdim etishga, shuningdek uni avtomatlashtirilgan qayta ishlash, uzatish va saqlashni ta'minlaydigan qurilmalarning ishlashiga asoslangan. Bunday holda ruhsat etilgan o'qitish usullari ma'lumotlarning tabiati va uni qayta ishlash vositalariga nisbatan ikkinchi darajali bo'lib chiqadi. Shunday qilib, axborot-kommunikatsiya tizimlaridan foydalangan holda an'anaviy ta'lim va tarbiya, birinchi navbatda, elektron shaklda axborot bilan ishlash qobiliyati bilan ajralib turadi.

Mahalliy va xorijiy adabiyotlarda "elektron ta'lim" tushunchasining ko'plab ta'riflari mavjud:

- bu ma'lumotlar bazalarida mavjud bo'lgan va o'quv dasturlarini amalga oshirishda qo'llaniladigan ma'lumotlardan foydalangan holda o'quv faoliyatini tashkil etish va uni axborot texnologiyalari, texnik vositalar, shuningdek, ushbu ma'lumotlarni aloqa vositalari orqali uzatishni ta'minlaydigan axborot va telekommunikatsiya tarmoqlarini qayta ishlashni ta'minlash, talabalar va o'qituvchilar tarkibining o'zaro ta'siri;

- resurslar va xizmatlarga kirishni yaxshilash, shuningdek, masofadan bilim almashish va hamkorlik qilish orqali ta'lim sifatini oshirish uchun yangi axborot texnologiyalari, multimedia va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish [4];

- pedagogik va infokommunikatsiya texnologiyalarini birlashtirishga asoslangan mustaqil mashg'ulot turi, uning mohiyati axborot va ta'lim muhitida o'quv jarayoni subyektlarining masofaviy interaktiv o'zaro ta'siri bo'lib, ta'limning mobil mazmuni, faoliyatning interaktiv usullari va talabalarning ta'lim yutuqlarini shaxsiylashtirilgan hisobga olish asosida infokommunikatsiya shaxsini shakllantirishni ta'minlaydi [5];

- rivojlangan elektron ta'lim resurslari yordamida talabalarning mustaqil ilmiy ishlariga asoslangan o'quv jarayonini tashkil etishning yangi shakli; o'quv muhiti talabalar asosan va ko'pincha o'qituvchidan uzoq masofada bo'lishlari bilan tavsiflanadi, shu bilan birga ular istalgan vaqtda elektron telekommunikatsiyalar yordamida muloqotni davom ettirish imkoniyatiga ega [6].

- o'quv jarayonida yangi axborot texnologiyalari, multimedia texnologiyalari va internetdan foydalanish [7];

- dasturiy echimlarini o'z ichiga olgan yangi AKT yordamida o'quv jarayonida bilimlarni uzatish, boshqarish va ta'minlash [8].

- "Elektron ta'lim" tushunchasini turli talqin mavjud:

- bu masofaviy o'qitishning takomillashtirilgan shakli, ya'ni turli xil elektron o'quv vositalaridan faol foydalaniladigan masofaviy ta'lim turi;

- ta'limni boshqarish tizimlarini joriy etish va ulardan foydalanishni o'z ichiga olgan jarayon - uning mazmuni vakolatni shakllantirish jarayoni, o'quv natijalarini kuzatish tadbirlari; o'quv materiallarini "kerakli vaqtda tegishli joyga zarur miqdorda" etkazib berish tizimlari; sinov tizimlari va o'quv muhitini interaktiv qo'llab-quvvatlash;

- an'anaviy (face-to-face-learning) yuzma-yuz o'qitish mashg'ulotlarga alternativa, AKT texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib o'tkazilganda, bu o'quvchilarga nafaqat o'quv ma'lumotlari bilan tanishish, balki masofadan turib real vaqtda mashg'ulotlarda qatnashish va ishtirok etish imkoniyatini beradi.

Masofaviy ta'lim o'quv jarayonini tashkil etishning mustaqil ta'lim shakli sifatida ko'p tadqiqotchilar tan oladilar (V.Yu. Bikov, Ye.Yu.Vladimirskaya, N.B.Yevtux, V.O.Julkevskaya, S.A. Kalashnikova, M.Yu. Karpenko, S.P.Kudryavseva, Ye.P.Polat, N.G.Sirotenko, Ye.M.Smirnova-Tribulskaya, P.V.Stefa-Nenko, V.P.Tixomirov, O.V.Xmel, A.V.Xutorskoy, B.I.Shunevich, M.Allen, T.Anderson, J.Boat, F.Uyedemeyer, D.R.Garsion, J.Daniel, R.Delling, D.Kigan, M.Mur, O.Pitirs, K.Smit, R.Xolmberg va boshqalar.).

Masofaviy ta'limning ba'zi ta'riflariga murojaat qilaylik:

- o'qituvchi va o'quvchilar jismoniy jihatdan turli joylarda joylashgan va o'quv maqsadlarida audio, video, internet va sun'iy yo'ldosh aloqa kanallaridan foydalanadigan masofaviy o'qitish usuli [9];

- maqsadli, ma'lum bir didaktik tizimda tashkil etilgan, o'qituvchilar va talabalar o'rtasida joylashishiga aloqador bo'lmagan o'quv vositalaridan foydalangan holda interaktiv o'zaro ta'sir jarayoni amalga oshiriladi;

- asosan AKT va internet resurslari yordamida amalga oshiriladigan va masofaviy fanlar (talabalar, o'qituvchilar, moderatorlar va boshqalar) o'quv jarayonini amalga oshirish va ta'lim mahsulotlari yaratish [10].

Aralash ta'lim o'qituvchilar tomonidan turli xil o'quv faoliyatini, shu jumladan yuzma-yuz sinf mashg'ulotlarini, onlayn elektron ta'limni va ish joyida o'z-o'zini o'rganishni birlashtirgan ta'lim sifatida qaraladi [2];

- tarqatilgan axborot va ta'lim resurslari yuzma-yuz mashg'ulotlarda, shu jumladan, asinxron va sinxron masofadan o'qitish elementlarida ishtirok etadigan model;

- kunduzgi va masofaviy ta'limning kombinatsiyasi, ulardan biri afzal qilingan modelga qarab asosiy hisoblanadi;

- rejalashtirish va pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan elektron va an'anaviy ta'limni birlashtirish;

- turli xil nisbatlarda elektron va sinf o'quvchilaridan foydalanish, "jonli" ta'limni Internet resurslaridan (birinchi navbatda ikkinchi avlod) foydalangan holda o'rganish bilan birlashtirish, bu o'quv jarayonida ishtirokchilarning birgalikdagi faoliyatiga imkon beradi;

- qo'shimcha elektron texnologiyalardan foydalangan holda an'anaviy mashg'ulotlar.

Ta'riflarni taqqoslash shuni ko'rsatadiki, ularning barchasi qandaydir tarzda an'anaviy va elektron ta'lim shakllarining kombinatsiyasini ko'rsatadi. Aralashtirilgan ta'limning moslashuvchanligi shundaki, undagi an'anaviy kunduzgi va masofaviy shakllarning nisbati har xil bo'lishi mumkin. Ularning nisbati bir nechta aniq omillarga bog'liq: intizom mazmuni, tinglovchilarning yoshi, ularning o'z-o'zini tarbiyalashga tayyorlik darajasi, ta'lim muassasasining axborot ta'lim muhiti imkoniyatlari, o'quv-uslubiy ta'minot jihozlari.

Yuqoridagilarni quyidagicha umumlashtirishimiz mumkin: agar an'anaviy ta'lim segmentning bir uchida nuqta bilan, masofaviy ta'lim esa boshqa uchida nuqta bilan ifodalansa (cheklovchi holatlar sifatida), segment ichidagi har bir nuqta aralash ta'lim variantini ifodalaydi.

Shunday qilib, elektron ta'lim, bizning g'oyalarimizga ko'ra, aralash va masofaviy ta'limni birlashtiradi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, ko'tarilgan masalalar alohida ta'lim muassasalarining ham, umuman ta'lim tizimining ham strategik o'zini o'zi belgilash uchun muhim ahamiyatga ega. Texnologik vositalarning yanada rivojlanishi bilan elektron ta'limni didaktik imkoniyatlar makonida asosli joylashtirishning dolzarbligi oshadi.

Adabiyotlar

1. Соловов А.В. Электронное обучение: проблематика, дидактика, технология. Самара: Новая техника, 2006. 464 с.

2. Стариченко Б.Е., Семенова И.Н., Слепухин А.В. Образование и наука. 2014. № 9 (118) стр. 51

3. Ильина Т.А. Педагогика: курс лекций: учебное пособие для студентов педагогических институтов. Москва: Просвещение, 1984. 496 с.

4. Дубова Н. Э-Learning - обучение с приставкой «е» // Открытые системы. 2004. № 11. [Электрон. ресурс]. Режим доступа: <http://www.cpk.mesi.ru/materials/articles/other08/>.

5. Артыкбаева Е.В. Теория и технология электронного обучения в общеобразовательной школе: автореф. дис... д-ра пед. наук. Алмата, 2010.47 с.

6. Соловов А.В. Дидактический анализ проблематики электронного обучения // IЭЭЭ International Conference on Advanced Learning Technologies: сб. трудов международной конференции. Казань: КГТУ, 2002. С. 212-216.

7. Khan Badrul. A framework for Э-learning, 2003. Available at: <http://www.bookstoread.com/framework/>.

8. Саейд Бакер А. О содержании понятия «Э-Learning - электронное обучение» [Электрон. ресурс]. Режим доступа: <http://www.emissia.org/offline/2007/1178.htm>.

7. Львовский М. Б. О дистанционном обучении [Электрон. ресурс]. Режим доступа: <http://onmcs0.narod.ru/inf/do.htm>.

OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINING O'Z - O'ZINI RIVOJLANTIRISH KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJIY TILNING PEDAGOGIK POTENSIALINI AMALGA OSHIRISH

Xudoyarova Z.M. - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, umumiy va aniq fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Xorijiy tilning pedagogik potensialini darslarda o'qituvchining talabalar bilan hamkorligida o'tishi; talabaning bilim darajasidan kelib chiqib (uning bilim, ko'nikma, malakalari darajasi qanaqa bo'lsa), o'sha darajadan boshlanishi; talabalarning tashabbuskorligini rag'batlantirish uchun barcha choralarni ko'rish; o'zini baholash va o'ziga ishonch hissini rivojlantirish, mas'uliyat hissini va o'z faoliyatining natijalariga tanqidiy qarashni rivojlantirish, talabalar bo'lajak mustaqil ta'lim olish doirasida hayotiy muammolarni yechish uchun olgan bilimlarini qo'llashga intilishlari uchun xorijiy tilni o'rganishga tinimsiz rag'batlantirib borish juda muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini takomillashtirishga qaratilgan ko'nikmalar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Kalit so'zlar: o'qitish, ta'lim, psixologiya, pedagogika, kompetitsiya, ko'nikma, shakllanish, o'quv va intellektual jarayon, fikrlash, innovatsiya, innovatsion jarayon, innovatsion faoliyat, pedagogik texnologiya, loyiha, ta'limdagi muammo, ta'lim metodlari, boshlang'ich ta'lim, pedagogik jarayon.

РЕАЛИЗАЦИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ КОМПЕТЕНЦИЙ САМОРАЗВИТИЯ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Худоярова З.М. - Ташкентский государственный экономический университет, преподаватель кафедры общих и точных наук

Аннотация. Педагогический потенциал иностранного языка преподается на занятиях учителем в сотрудничестве со студентами; исходя из уровня знаний учащегося (каков его/ее уровень знаний, навыков, умений); принимать все необходимые меры для поощрения студенческой инициативы; развивать чувство собственного достоинства и уверенности в себе, воспитывать чувство ответственности и критическое отношение к результатам своей деятельности, побуждать учащихся применять полученные знания для решения жизненных задач в будущем самостоятельном обучении. Очень важно постоянно поощрять обучение. В данной статье рассматриваются навыки, необходимые для улучшения качества самосовершенствования.

Ключевые слова: преподавание, обучение, психология, педагогика, компетенция, умение, формирование, учебный и интеллектуальный процесс, мышление, инновация, инновационный процесс, инновационная деятельность, педагогическая технология, проект, проблема в обучении, методы обучения, начальное образование, педагогический процесс

IMPLEMENTING THE PEDAGOGICAL POTENTIAL OF A FOREIGN LANGUAGE IN IMPROVING THE SELF-DEVELOPMENT COMPETENCES OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Khudoyarova Z.M. - Tashkent State University of Economics, teacher of general and exact sciences

Annotation. The pedagogical potential of a foreign language in the classroom is a collaboration between teacher and students; starting from the level of knowledge of the student (the level, skills, and abilities); taking all measures to encourage student initiative; developing self-esteem and self-confidence, developing a sense of responsibility and a critical view, constantly encouraging students to learn a foreign language so that they can apply their knowledge to solve life problems in their future independent learning. This article is about ways of self-motivation in learning languages at universities and how we can improve their self-motivation.

Keywords: teaching, learning, psychology, pedagogy, competence, skill, formation, learning and intellectual process, thinking, innovation, innovative process, innovative activity, pedagogical technology, project, learning problem, teaching methods, primary education, pedagogical process.

Oliy ta'lim muassasasitalabalarida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini rivojlantirishda xorijiy tilning pedagogik potentsiali, birinchidan, oliy ta'lim muassasasi ta'lim makonida yoshlarning shaxsiy va kasbiy o'z mavqei, kelajagi,

taqdiri, o'rnini belgilash maqsadlarini qo'yish to'laqonli amalga oshirilganda (ya'ni, talabalarga o'z qobiliyatlarini namoyish qilishga imkoniyat beriladi); ikkinchidan, agar talabaning boshqa madaniyatlarni qabul qilishga bo'lgan motivatsiyasi uning o'zini mustaqil tarbiyalashi bilan qorishib ketsa (birgalikda kelsa), unda bu holat uning individualligida namoyon bo'layotgan shaxsiyatining xossalari va xususiyatlarini o'z imkoniyatlarini amalga oshirish yo'nalishida sinteziga olib keladi. Uchinchidan, agar o'qituvchi talabaning ma'naviy/ruhiy rivojlanishiga, unda o'z savodliligining ma'no-mohiyatini va umuminsoniy qadriyalarni qabul qilish zaruratini tushunishni tarbiyalashga tinimsiz e'tibor qaratib borsa talabaning o'zini aktualizatsiya qilish yo'nalishidagi mustaqil rivojlanishini tezlashtirish jarayoni real ahamiyat kasb etishi mumkin, deb aytish mumkin. To'rtinchidan, agar talabaga tinimsiz tarzda o'z intellektual/aqliy, ham ma'naviy jihatdan qodirligi/to'laqonligini tasdiqlashning muhimligi haqidagi fikr tinimsiz singdirib borilsa talabada borliqni ongli ravishda fikrlab tushunishga bo'lgan qobiliyatni rivojlantirish yanada samarali bo'ladi.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, xorijiy til o'qituvchisi hech bo'lmaganda quyidagi kasbiy/professional malakalarga ega bo'lishi kerak: o'z o'qitish metodikasini baholash va real erishsa bo'ladigan maqsadlar qo'yish malakasi, yuzaga keladigan metodik muammolarni mustaqil hal qilish malakasi, pedagogik vazifalarni yechishning nostandart yo'llarini variativ tarzda yondashish malakasi, o'z o'qitish metodologiyasini yaratish malakasi [4]. Bundan, xorijiy tilning pedagogik potensialidan kelib chiqib, darslarning o'qituvchining talabalar bilan hamkorligida o'tishi; talabani o'qitish u qaysi darajada bo'lsa (uning bilim, ko'nikma, malakalari darajasi qanaqa bo'lsa), o'sha darajadan boshlanishi; talabalarning tashabbuskorligini rag'balantirish uchun barcha choralarni ko'rish; har bir imkoniyat holati paydo bo'lganda talaba hayotiy ko'nikmalarni o'zlashtirish imkoni bo'lishi uchun vaziyatlar yaratish, masalan, o'zini baholash va o'ziga ishonch hissini rivojlantirish, mas'uliyat hissini va o'z faoliyatining natijalariga tanqidiy qarashni rivojlantirish (buning uchun talabada tanqidiy fikrlashni rivojlanish zarurki, u masalan, tillarni o'zrganish sohasida o'z rivojlanish darajasini kuzata olsin); talabalar bo'lajak mustaqil ta'lim olish doirasida hayotiy muammolarni yechish uchun olgan bilimlarini qo'llashga intilishlari uchun xorijiy tilni o'rganishga tinimsiz rag'batlantirib borish juda muhim hisoblanadi [1].

Xorijiy tilni o'rganishda, talabalar shaxsiy va kasbiy jihatdan rivojlanish uchun keng imkoniyatlar olishlari zarur va shunda, masalan, xorijiy tilda muloqot qilishga o'qitish jarayonida nutq madaniyatining rivojlanishi amalga oshadi va bu yerda esa – kommunikativlik (muloqot qila olish, muloqotga kirishib keta olish) shakllanadi. Bu: nutqni tezlashtirish, til sezgirligi/zehni (farosati), mustaqillik, o'zini nazorat qilish va boshqa shu kabi sifat/hislatlarning bo'lishini talab etadi. Bundan

tashqari, xorijiy tilni o'rganish ko'p hollarda yosh insonning ijtimoiy intellekti darajasini aniqlaydigan va bu asosda uning o'z-o'zini rivojlantirish ijtimoiy munosabatlarning shaxsiy ko'nikmalarini yaratishga yordam beradi. Bu yerda aytish lozimki, o'z-o'zini rivojlantirish barqaror kasbiy va hayot ma'nosi, mavqei, kelajagini belgilashsiz, boshqacha qilib aytganda – aniq hayotiy istiqbollarni qurishsiz bo'lmaydi. Shu asnod, xorijiy tilning pedagogik potentsiali o'z jiddiy zaxiralariga ega va ularning ta'lim resursi, avvalambor, o'qitishga kommunikativ yondashuvda ochiladi. O'z mohiyatiga ko'ra, ushbu yondashuv quyidagilarni nazarda tutadi:

- o'qituvchining talabalar bilan faol o'zaro faoliyatini tashkil qilishni;
- nutq va madaniyatlararo kommunikatsiyaning turli aspektlarini tinimsiz modellashtirish imkoniyatlarining mavjudligini; [6]
- talabalarning o'quv faoliyatining obyektlari maqomidan tabiiy ravishda (organik tarzda) uning subyektlari maqomiga o'tkazish va u yerda ular bu faoliyatning tashabbuskorlariga (boshlovchilariga) va keyinchalik esa bajaruvchilari va nazoratchilariga aylanishadi;
- talabalar uchun o'zlari uchun ahamiyatli, ular uchun shaxsiy ma'no-mohiyatga ega bo'lishi mumkin bo'lgan vazifalarni bajarishni belgilaydigan o'quv maqsadlarini ilgari surish imkoniyatlarini yaratish;
- talabalarda, masalan, ma'lumotnoma/spravochnaya adabiyotlar yoki davriy nashrlar bilan ishlashda zarur til materialini to'g'ri tanlash ko'nikmasi shakllanadigan va bu yordamida o'z dunyoqarashini kengaytirishga rag'bat/motivatsiya darajasini oshiradigan o'lkashunoslik / mamlakatshunoslik bilimlarini kengaytirishni ta'minlashni;
- o'rganilayotgan til bilan bog'liq etishmayotgan axborotni izlash sharoitlarida talabalarda tadqiqotchilik faoliyatini rag'batlantirish [3]. Shunday qilib, xorijiy tilning oliy ta'lim muassasasi talabalarining o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini takomillashtirishdagi pedagogik potentsiali yoshlarni xorijiy tilni muloqot vositasi (instrumenti, asbobi) sifatida savodli qo'llashga o'rgatishdan iborat ekan. Endi bu talabaning shunchaki ijtimoiy va madaniy rivojlantirilishini emas, balki uning o'z kasbiy faoliyatida amaliy ko'nikmalarini amalga oshirishda mahsuldor kommunikatsiyani (muloqotni) muvaffaqiyatli amalga oshirishi mumkin bo'ladigan ko'pmadaniyatlilik tarbiyasini ham taqozo etadi. Bunda xorijiy tildan foydalanishning pedagogik potentsialiga insonni o'rab turgan olamni bilishning turli sohalarida mustaqil ta'lim olish vositasi deb qarash mumkin. Xorijiy tilni egallaganlik (bilish) ma'lum darajada talabaning shaxsiy va kasbiy o'z mavqei, o'rni, kelajagi, taqdirini belgilashda ham yordam berishini hisobga olsak, o'qitish mazmunini uning o'qitish texnologiyalari va metodik priyomlari bilan savodli tarzda “qanday o'qitish va nima yordamida o'qitish kerak” deb nomlangan ma'lum didaktik kontekstda

birlashtirishning (birga qo'llashning) muhimligi haqidagi tabiiy savol yuzaga keladi [2]. Bu bizni mantiqiy ravishda talabalarda xorijiy tilni o'qitish vositasida til madaniyatini rivojlantirishga yordam beradigan muayyan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish emas, balki, xususan, o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalariga ham yordam beradigan muayyan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish kabi tabiiy fikrga olib keladi (bu shart-sharoitlar ushbu tadqiqotning ikkinchi bobida ko'rib chiqiladi). Bunda, talabalarning til madaniyatini oshirish va ularning til masalasida o'z istiqboli, kelajagini o'zlarida shakllangan madaniyatlararo kompetensiya asosida belgilashlari ham ta'lim sifatini oshirish uchun ham katta ahamiyatga ega. Bularning barchasi, xorijiy tilning oliy ta'lim muassasasi talabalarida o'z hayoti, ma'nosi, kelajagi, taqdirini belgilash qobiliyatini rivojlantirishda pedagogik potensialini hisobga olgan holda quyidagilarni nazarda tutadi:

- talabalarning o'zlari tanlagan kasb sohasida raqobatbardoshlikka erishish maqsadida o'z ijtimoiy ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib bilimlar olishlari;
- kasbiy kompetensiyalardan tashqari, har qanday jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya bo'la olish maqsadida madaniyatlararo va til kompetensiyalarini egallash;
- o'z faoliyatiga ijodiy yondashuvni ijimoiy hayotning turli sohalarda kerakli (talab bo'lish) bo'lish maqsadida kiritish va bu bilan o'z imkoniyalari, qobiliyatlari va salohiyatlarini amalga oshirish asosida hayotiy barqarorlikka erishish;
- ko'p madaniyatli muhitning turli sohalarda boshqa madaniyat odamlarining an'analari va turmush tarzi haqida qo'shimcha bilimlar olish maqsadida mahsuldor hamkorlikka intilish.

Tadqiqot ishlari xorijiy tilning pedagogik potensialini oliy ta'lim muassasasi talabalarida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini takomillishtirishda qo'llash ularning shaxsiy va kasbiy o'z mavqei, o'zni, kelajagi, taqdirini belgilashga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi: [4]

- talabalar bu olamda o'z o'rinlarini kengroq idrok qilish, tushunishni boshlaydilar va bunda sodir bo'layotgan voqea, hodisalarda boshqalarga xayrihoh bo'lish qobiliyatini namoyish qiladilar;
- u yoki boshqa qarorni qabul qilishda (vazifani yechishda) o'zlarining ishtiroklari va mas'uliyatlarini his qilib, talabalar pedagogik muammolarni yechishga ham motivatsiyani namoyish qilishni boshlaydilar;
- o'zlarining kasbiy xarakterdagi faoliyatlariga shaxsiy kontekstni kiritib, talabalar professional tarzda fikrlashni boshlaydilar va shu tariqa o'z pedagogik pozitsiyalari/nuqtayi nazarlari/munoabatlarini namoyish qiladilar;
- fikrlar, hukmlarida tashabbus, mustaqillik va erkinlikni namoyish qilish bilan talabalar o'zlariga ishonch hissini olishni boshlaydilar va shu tariqa ijtimoiy jihatdan ancha yetuk shaxs sifatida tutishni boshlaydilar;

- xorijiy til leksikasini birdan bir maqsad nuqtayi nazaridan emas, balki avvalambor uni (leksikani) muammolarni muhokama qilishda faol ishtirok etish maqsadida, zarur asbob/vosita sifatida qo'llash xorijiy tilni o'rganishga ancha yuqori darajada munosabatda bo'lishni bildiradi.

oliy ta'lim muassasasi talabalarida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini xorijiy tilning pedagogik potentsiali nuqtayi nazaridan o'rganishda, shaxsiy hislat, jihat sifatida ushbu qobiliyatda talaba quyidagilarni anglashi zarurligini taqozo etadigan muayyan psixologik tarkibiy qism mavjud: uning o'zi uchun shaxsiy va intellektual jihatdan nimani, jumladan, qanaqa jismoniy ma'lumotlarni anglatishi, ifodalashini; u hayotiy rejalar nuqtayi nazaridan o'z faoliyatining maqsadini qo'yganmi-yo'qmi; sotsium bilan o'zaro munosabatlarini qanday quradi va undan nimalarni kutadi (umid qiladi). Odatda, bu va boshqa aspektlar individning shaxsiy va hayotiy yo'naltirilganlik kontekstida o'z mavqei, kelajagi, taqdirini belgilashning o'zining mohiyatini hisobga olgan holda o'z kasbiy mavqei, kelajagi, o'rnini belgilashi mohiyatini aniqlashiga yordam beradi. Biroq, talaba uchun ushbu dolzarb bo'lgan aspektlarning barchasini bilimlar ko'rinishida o'zlashtira olmaydi, ularning echimiga faqat uni (talabani) muayyan/konkret bilish faoliyatiga kiritish natijasida erishish mumkin. Shuning uchun, xorijiy tilning pedagogik potentsialini oliy ta'lim muassasasi talabalarida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini oshirishi uchun mamlakatshunoslik va madaniyatshunoslik axborotning spesifikasini hisobga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi, buning uchun esa gumanitar fanlar tizimida "Xorijiy til" faniga fanlararo aloqalarni joriy qilish, xorijiy til imkoniyatlarini, xususan, uni madaniyalararo komunikatsiya vositasi sifatidagi imkoniyatlarini ham kengaytirish zarur [5]. Bularning barchasini talabaning nafaqat umumiy va til madaniyatiga taalluqli bo'ladigan, balki unda o'z shaxsiy, kasbiy va hayot ma'nosi, kelajagi, taqdiri, mavqeini o'zi belgilashiga bo'lgan qobiliyatni rivojlantirishga ham taalluqli maqsadlarini belgilaydigan/determinatsiya qiladigan tashkiliy-pedagogik yondashuv bilan shartlash mumkin. Shu munosabat bilan, talabalarni o'rganilayotgan til mamlakatining madaniyatiga kiritish, qo'shish, tanishtirishni; ularning filololgik kompetensiyalarini kengaytirish; eruditsiya, bilimdonligi va dunyoqarashi darajasini oshirishni; xorijiy til vositalari yordamida ko'p madaniyatli muhitda aloqalarni amalga oshirishga bo'lgan motivatsiyani shakllantirishni va hokazolarni bunday maqsadlar qatoriga kiritish mumkin. Bunga talabalarda universal, ham intellektual (aqliy), ham amaliy malakalarni rivojlantirishni, masalan, o'z harakatlari va amallarining motiv, rag'batlarini aniq ifodalash (bayon qilish) malakasi, tillarni o'rganishga nisbatan o'z rejalarini asoslab, dalillar bilan taqdim eta olish malakasi, bo'lajak faoliyatda o'z ustuvor jihatlarini aniqlash malakasi va hokazolarni ifodalaydigan ikkilamchi til shaxsini shakllantirishni ham qo'shamiz. Bu esa talabada xorijiy tilni o'rganish bo'lsin yoki o'z hayotining ma'nosini belgilashga intilish

bo'lsin - o'zini mustaqil tashkil qilishga tayyorlik sifatini shakllantirishga ishora qiladi. Demak, didaktik nuqtayi nazardan xorijiy tilni o'qitishda, talabalarda til, kommunikativ va boshqa kompetensiyalarni shakllantirishdan tashqari, ushbu fanning pedagogik potensialining o'zini ham hisobga olish zarurligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Ta'lim resursi sifatida ushbu potensial yoshlarda olamning madaniy siymosini, hamdan unda o'z o'rnini haqidagi tasavvurni (tushunishni) shakllantirishga yordam berishi bilan bog'liq. Shu munosabat bilan, talabalarda o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini takomillashtirish jarayonida ularning fuqarolik pozitsiyalar munosabalarini bilan bog'liq ma'naviy sifatlarining shakllanishi ong osti darajasida sodir bo'ladi va bu (shakllanish) ko'p madaniyatli muhit sharoitlarida muloqot etikasini (odobini) oshirishga muhim shart-sharoit hisoblanadi. Bunda talaba dolzarb pedagogik muammolar bilan bog'liq kasbiy faoliyatini amalga oshirishga to'g'ri kelishini anglaganda unda kasbga yo'naltirilgan manfaatlar/qiziqishlar ham rivojlanadi. Demak, xorijiy tilning talabalarda o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini takomillashtirishdagi pedagogik potentsiali har bir talabaning shaxsiy va kasbiy o'z mavqei, o'rnini, kelajagi, taqdirini belgilash uchun imkoniyatlar, vositalar va mexanizmlarning mavjud bo'lishini taqozo etadi va strukturaviy jihatdan shaxsiy, faoliyat va munosabat komponentlarini ularning o'zaro aloqadorligida o'z ichiga oladi. [3].

Shaxsiy komponent talabalarning til kompetensiyalarini shakllantirish davomida, ularda xorijiy til kommunikatsiyasi diapazonini ke'gaytirishda o'z hayotiy istibollari va kasbiy qiziqish, manfaatlarini fikrlab tushunishlari, anglashlaridan iborat. Faoliyat komponenti kasb bilan, hamda madaniy darajani oshirish bilan bog'liq madaniyatshunoslik, dunyoqarashni kengaytirish bilan; talabada qadriyat orientatsiyalarini/tayanchlarini o'z hayot faoliyatlarining turlari va shakllarini asoslangan holda tanlashga bo'lgan ustanovka sifatida shakllantirish bilan bog'liq. Munosabat komponentiga til komponentlarini shakllantirish davomida talabaning o'z imkoniyatlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlashga qaratilgan ta'lim jarayonini gumanizatsiya qilish [4]; o'qitish jarayonida talabalarda o'z bilish faoliyati haqida refleksiya qilishga va o'z hayotiy istiqbollari qadriyat nuqtayi nazarlaridan fikrlab tushunishga bo'lgan ustanovkaga yo'naltirilganlikka yordam berish kiradi.

Talabalarning hayot istiqbollari reflektiv-qadriyatlarga asoslangan holda fikrlab tushunish va ularning o'z imkoniyatlarini o'z hayotlarining subyektlari sifatida amalga oshirish haqiqatan ham sodir bo'lishi uchun oliy ta'lim muassasasi talabalarining o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini jadallashtirish (intensifikatsiya qilish) vositasi sifatidagi pedagogik qo'llab-quvvatlash kabi omillar zarurdir.

Adabiyotlar

1. Hutmacher W. Key competencies for.: Europe // Report of the Symposium Berne, switzerland 27-30 march, 1996. Council for cultural cooperation a secondary education for europe. Strasburg., 1997. C.11
2. Акимова М. Индивидуальность учащихся и индивидуальный подход.- М.: Знание., 1992 г. - 80 с.
3. Aliyarov A. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirish. Ilmiy ish.: T-2020 y. 128-b
4. Андреев А. Знания или компетенции?. // Высш. образование в России :н.п.ж. – 2005 г. - №2. - С. 3-11.
5. Бударный А. Индивидуальный подход в обучении // А.Бударный // Советская педагогика. - 1965. - №7. - С. 70 - 83.
6. Muslimov N. “Kasb ta’limi o’qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari.: dis..ped. fan. dok. – T., 2007.

O‘ZBEKISTONDA BOSHLANG‘ICH SINFDA INGLIZ TILINI O‘QITISHGA QO‘YILGAN TALABLAR

Subanova D.V. - Toshkent davlat pedagogika universiteti “Ingliz tili nazariyasi va va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasini dotsenti v.b

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinfda ingliz tilini o‘qitishga qo‘yilgan talablar ko‘rsatilgan. Shuningdek, bugungi kunda boshlang‘ich sinfda ingliz tilini o‘qitish jarayonida hosil bo‘layotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari, xususan o‘quv metodik ta‘minot haqida aytib o‘tilgan. O‘quv darsliklari tahlil qilinib, ularni to‘g‘rilash yuzasidan metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: ona tili, ikkinchi til, chet tili, o‘quv metodik ta‘minot, ta‘lim mazmuni, nutq malakalari, til materiallari, nutq mavzulari, leksik minimum.

ТРЕБОВАНИЯ К ПРЕПОДАВАНИЮ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ В УЗБЕКИСТАНЕ

Субанова Д.В. - и.о. доцента кафедры «Теория английского языка и методика его преподавания» Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В этой статье описаны требования к преподаванию английского языка в начальных классах. Также обсуждаются проблемы, которые возникают в процессе обучения английскому языку в начальных

классах, и пути их решения. Проведен анализ учебников и даны методические рекомендации по их совершенствованию.

Ключевые слова: родной язык, второй язык, иностранный язык, учебно-методическое пособие, содержание обучения, навыки говорения, языковые материалы, речевые темы, лексический минимум.

REQUIREMENTS FOR TEACHING ENGLISH IN PRIMARY SCHOOL IN UZBEKISTAN

Subanova D.V. – acting associate professor of the Department of "Theory of English and its teaching methods" Tashkent state pedagogical university

Annotation. This article describes the requirements for teaching English in primary school. It also discusses the problems that arise in the process of teaching English in primary school and ways of solving them. In this article textbooks were analyzed and methodological recommendations were given to improve them.

Keywords: native language, second language, foreign language, teaching aids, content of teaching foreign language, language skills, language subskills, topic of speech, lexical minimum.

O‘zbekiston ko‘p millatli mamlakat bo‘lganligi sababli vatanimizda o‘zbek, rus, qoraqolpoq, qozoq hamda boshqa tillarda so‘zlashuvchi insonlarni ko‘rish mumkin. O‘zbekistonda tahsil oladigan o‘quvchi yoshlar asosan maktab sharoitida uch tilni o‘rganadilar. Ushbu tillar ta‘lim nazariyasida maxsus nomlar bilan yuritiladi: ona tili, ikkinchi til va chet tili. Ona tili tafakkur hosil bo‘lishida alohida xizmat o‘taydigan birinchi tildir. Ikkinchi til haqida so‘z yuritilganda, unga boshqa millat vakillaridan iborat qardoshlar, qo‘shnilar tili sifatida qaraladi.

Chet tili - bu xorijiy mamlakat tili. Respublikamizda G‘arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, fransuz) tillari va Sharq (arab, turk, fors, urdu, xitoy, hind) tillari o‘qitilmoqda [1].

Ona tilini bola uyda ota onasi va tevarak atrofdagi insonlardan tinglab tushunish va muloqot qilish orqali o‘rgana oladi. Ikkinchi tilini ham o‘rganish uchun tabiiy muhit mavjud. Lekin chet tili, xususan, ingliz tilini o‘rganish uchun tabiiy muhit mavjud emas. O‘quvchilarda inglizzabon xalqlar bilan ko‘rishish hamda muloqot qilish imkoni yo‘q. Ingliz tili faqat o‘qituvchi tomonidan haftasiga 3 marotaba 45 daqiqadan o‘rgatiladi, xolos. Bu esa tilni mukammal darajada bilish uchun yetarli emas.

Ingliz tili dunyoda eng ko‘p tarqalgan til hisoblanadi – bu tilda so‘zlashuvchilar soni taxminan 1,5 milliard kishini tashkil etadi. Ayrim manbalarda

keltirishicha ingliz tili ona tili bo'lmasa-da, unda hammadan ham ravon so'zlasha oluvchilar – Shimoliy Yevropa xalqlaridir.

Reytingda Niderlandiya birinchi o'rinda qayd etilgan bo'lsa, undan keyingi o'rinlarda Shvetsiya, Norvegiya va Daniya ko'rsatilgan. Yuzta davlat kiritilgan ro'yxatda O'zbekiston – 95-pog'onada. Shuning uchun yurtimizda chet tilini o'rgatish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

O'zbekistonning birinchi prezidenti I.A.Karimovning 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, 2013-yildan maktablarda ingliz tili birinchi sinfdan o'rgatila boshlandi. Shu yildan boshlab oliy o'quv yurtlaridagi ayrim maxsus kurslar ham to'liq chet tilida o'qitilishi ko'zda tutilgan edi.

Qarorda o'quvchilarni chet tillari bo'yicha yangi darsliklar bilan ta'minlash, kerakli o'quv qo'llanmalar va dasturlar yaratish masalalariga ham e'tibor qaratilgandi. O'zbekistonda ingliz tilini o'qitish metodikasi va dasturlarini ishlab chiqishda va qo'llanmalar yaratishda AQSh, Angliyadan mutaxassislar Ta'lim vazirligiga yaqindan ko'mak berdi. Masalan, AQSh Markaziy Osiyo davlatlari uchun "Hududiy ingliz tili markazi" (Regional English Language Office) tashkil etildi. Idora viloyatlardagi ingliz tili o'qituvchilari malakasini oshirish uchun muntazam ravishda turli treyning va seminarlar tashkil etib borildi. Shuningdek, Angliyaning Toshkentda joylashgan "Britaniya Kengashi" idorasi tomonidan talabalar va muallimlar uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilgan edi.

Shu o'rinda bir savol tug'iladi. Bugungi kunda chet tilni o'qitishda nima uchun aynan ingliz tiliga ko'proq ahamiyat berilmoqda? O'zbekistonda ingliz tilini puxta o'rgatish uchun qanday chora-tadbirlar ko'rish talab etiladi?

Buning uchun avvalo nima uchun aynan ingliz tilini o'rgatish muhim ekanligini anglab olish kerak.

Ingliz tilini o'rganish muhimligining bir qancha asosiy sabablari quyidagilardan iboratdir:

1. Ingliz tili xalqaro tan olingan muloqot tili hisoblanib, 53 ta mamlakatda 400 milliondan ortiq kishi ingliz tilida so'zlashadi.

2. Ingliz tili bilim darajasi mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishiga ham to'g'ridan-tog'ri ta'sir qilishi barchamizga ma'lumdir.

3. Ingliz tili rasmiy biznes tili hisoblanib, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, chet elda biznes ko'pincha ingliz tilida olib boriladi va ko'plab xalqaro kompaniyalar xodimlardan ingliz tilini yaxshi bilishi talab etadi.

4. Bugungi kunda ilm-fanga oid yangiliklarning aksariyatini ingliz tilida nashr etilgan adabiyotlardan topish mumkin. Bundan tashqari so'ngi yillarda davlatimiz tomonidan "El-yurt umidi" jamg'armasi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'pchilik

xodimlarga xorijda malaka oshirib kelish imkoniyatini bermoqda. Buning uchun esa aynan ingliz tilini bilish talab etiladi.

5. Dunyodagi yangiliklar, eng yaxshi filmlar, kitoblar va musiqalar ingliz tilida ishlanadi. Shuning uchun, ingliz tilini o'rganish rivojlangan mamlakatlar qatorida bo'lish imkonini beradi.

6. Ingliz tilini bilish internetdan samarali foydalanish imkoniyatini berib, Education First tadqiqotlariga ko'ra, ingliz tili internet tili hisoblanadi. Har kuni taxminan 565 million kishi internetdan foydalanadi va dunyodagi eng ko'p tashrif buyurilgan veb-saytlarning 52 foizi ingliz tilida bo'lib, ushbu til internetdan ko'proq foydalanish imkonini beradi.

Prezidentimiz Sh.M Mirziyoyevning 2021-yildagi xalqimizga qilgan murojatnomalariga ko'ra ta'lim sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo, o'quv dasturlari, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalarni ilg'or xalqaro mezonlarga moslashtirish lozim [2].

Bolalarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga sermazmun va tushunarli darsliklar yaratish zarur. Bu borada kelgusi o'quv yilida boshlang'ich sinflarda davlat ta'lim standarti o'rniga, ilg'or xorijiy tajriba asosida, bolaga ortiqcha yuklama bermaydigan "Milliy o'quv dasturi" joriy etilishi hamda chet tilni o'rgatishga alohida e'tibor qaratish kerakligi ta'kidlandi. So'ngi yillarda ingliz tilini o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirmonovich Mirziyoyevning "O'zbekiston respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli qaroriga muvofiq ta'limning uzluksizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda [3]. Ushbu qarorning ijrosini ta'minlash maqsadida bugungi kunda ingliz tilini bog'chadan boshlab o'rgatish yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston respublikasi prezidentining "Ta'lim tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4884 sonli qaroriga muvofiq maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy o'qitish shakllari, jumladan, xalqaro standartlar va talablar asosida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning rivojlanishini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini ishlab chiqilishi kerakligi ta'kidlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-iyunda "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari qat'iy belgilab berilgan. Unga muvofiq, asosan ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ta'lim-tarbiya berish, maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha davlat talablari alohida ko'rsatilgan [4; 4-b.].

Yuqorida aytib o'tganimizdek, avvallari ingliz tili boshlang'ich sinflardan boshlab o'rgatilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ingliz tilini maktabgacha ta'lim muassasalarida ham o'rgatish sekin-asta yo'lga qo'yilmoqda. Ushbu masalani hal qilish esa pedagog, psixolog va metodistlar zimmasiga anchagina vazifalarni yuklaydi. Jumladan, maktabgacha ta'lim muassasalari (MTM) bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, pedagogik amaliyotni MTMlarda tashkil qilish, MTM tarbiyalanuvchilariga mos ta'lim metodlarini ishlab chiqish va o'quv-dasturiy ta'minotni yo'lga qo'yish va h.k. [5; 71-b.]. Bu esa kichik yoshdagilarga chet til o'rgatish metodikasini alohida ko'rib chiqishni taqazo etadi. Bugungi kunda O'zbekistonda ingliz tili bog'chadan boshlab o'rgatiladi. Chet tilini o'rgatish jarayonida, eng avvalo, bog'cha yoshidagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlaridan xabardor bo'lish, ularning qiziqishlari va asosiy faoliyat turini bilish zarurdir. Shundan kelib chiqqan holda bola yoshiga mos o'qitish texnologiyalarini yaratish va ulardan to'g'ri foydalanishni bilish kerak. Shu maqsadda pedagogika va xorijiy tillarni o'rgatishga ixtisoslashgan turli oliy ta'lim muassasalarida "Boshlang'ich sinfda chet til o'qitish metodikasi" kursi o'qitiladi. Ushbu kurs bo'lajak chet til o'qituvchilarini kichik yoshdagilarga chet til o'rgatish metodlari va texnologiyalari bilan tanishtiradi. Chet til o'qitish metodikasi fani bog'cha va maktab sharoitida chet til o'rgatishning zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan samarali foydalanishni o'rgatadi. Shu bilan birga ushbu fan o'quvchilarni chet tilga bo'lgan qiziqishlarini hosil qilish, ularning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'qitishda samarali usullarga erishish maqsadida o'yinli texnologiyalar va ular yoshiga mos o'qitish metodlaridan foydalanishni o'rgatadi.

Lekin, shuni ta'kidlash kerakki, ko'pgina maktabgacha ta'lim muassasalarida ingliz tili o'qitish darslari kuzatilganda, bog'cha tarbiyalanuvchilarga mos o'quv dasturlarining ishlab chiqilmaganligi hamda stabil darsliklar yaratilmaganligi, o'qituvchilarning esa ma'lum metodik prinsiplarga amal qilmayotganligining guvohi bo'lamiz.

Toshkent shahri Sirg'ali tumanidagi maktab o'qituvchilari bilan tashkil etilgan seminar-treninglar hamda ular bilan olib borilgan suhbatlardan ayon bo'ldiki, boshlang'ich sinflar uchun yaratilgan o'quv metodik ta'minotda anchagina kamchiliklar mavjud. O'quv metodik ta'minot deganda, o'quvchi kitobi "Student's book", o'quvchi ish kitobi "Student's work book" hamda o'qituvchi kitobi "Teacher's guide book" tushuniladi. Afsuski, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yaratilgan "Kid's English" deb nomlangan darsliklarda ayrim metodik kamchiliklar mavjud. Jumladan, maktab o'qituvchilarining bildirgan fikrlari hamda o'tkazilgan tahlillarga ko'ra, mavzular o'rtasidagi ketma-ketlikning yo'qligi, mashqlar shartining aniq emasligi, ayrim mavzular turli bosqichdagi sinflarda yana takrorlanganligi, yangi mavzuda berilgan til birliklarining uyga vazifa mashqlariga to'g'ri kelmasligi,

natijada o'quvchilarning uyga vazifa shartlarini bajarishda qiyinchilikka duch kelayotganligi ta'kidlangan. Bundan tashqari darslikda berilgan nutq mavzulari asosan Vatanimiz hayotiga oid bo'lib, tili o'rganilayotgan mamlakat hayoti va madaniyati haqida deyarli to'liq ma'lumot berilmagan. Chet til o'qitish metodikasidan ma'lumki, darslikda ta'lim mazmuniga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Bugungi kunda ushbu kamchiliklar ayrim metodistlar tomonidan bosqichma-bosqich bartaraf etilmoqda va darsliklarning yangilangan shakllari taqdim etilmoqda.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan qo'yiladigan yana bir kamchiliklardan biri shundan iboratki, ingliz tili darsida tinglab tushunishni rivojlantirishga qaratilgan audio materillardan ko'pincha foydalanilmaydi. Bunga ba'zi bir sinf xonalarida kerakli jihozlar, ya'ni audio moslamalarning etishmasligi va boshqalar sabab qilib ko'rsatilmoqda. Ba'zi o'qituvchilar tinglab tushunish uchun berilgan matnni o'zlari o'qib beradi. Lekin, o'quvchi "native speaker" ya'ni, o'rganilayotgan til sohibining nutqini tinglab, audio va video materiallardan foydalansa, qo'yilgan maqsadga erishilgan bo'lar edi.

Ta'lim mazmuni deganda nutq malakalari, til materiallari va nutq mavzulari nazarda tutiladi. Nutq malakalari tinglab-tushunish, gapirish, o'qish va yozuvdan iborat bo'lib, dastlabki bosqichlarda asosan tinglab tushunish va gapirish o'rgatiladi. Chunki kichik yoshdagilarda hali ona tilida o'qish va yozuv ko'nikmalari shakllanmagan bo'ladi. Shu sabab ularga o'qish va yozuv ikkinchi sinfdan boshlab sekin-astalik bilan o'rgatib boriladi. Til materiallari deganda leksika, grammatika va talaffuz tushuniladi. Har bir sinfda belgilangan leksik minimum tanlanadi va darslikda ushbu leksik minimumga amal qilish talab etiladi.

Nutq mavzulari 3 ta katta mavzu atrofida o'rgatiladi:

- 1) O'quvchining tevarak atrofi;
- 2) Vatanimiz;

3) Tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati. Boshlang'ich sinflar uchun yaratilgan darsliklarni ham ushbu ta'lim mazmuni asosida tahlil qilish mumkin [6; 153-157-betlar]. Yuqorida ko'rsatilgan muammolarni hal qilish bugungi kunda juda dolzarb sanalib, bu borada ko'plab izlanuvchilar ilmiy tadqiqotlar olib bormoqdalar. Shundan kelib chiqqan holda biz ham mustaqil izlanuvchi sifatida "Boshlang'ich sinf o'quvchilariga san'at vositalari yordamida ingliz tilini o'rgatish texnologiyalari" deb nomlangan ilmiy tadqiqot ishini olib bormoqdamiz. Ushbu ilmiy tadqiqotdan maqsad talabalar bog'cha yoshidagi bolalarga hamda boshlang'ich sinf o'quvchilariga qanday qilib chet til o'rgatish, bolalar diqqatini o'ziga qarata olish, ularning chet til bo'yicha dastlabki tushunchalarni hosil qilish, CEFR talablari asosida chet tilida nutq faoliyati turlarining asosini shakllantirishdan iboratdir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda chet tilni, xususan ingliz tilini uzluksizlik tamoyiliga asoslangan holda, oddiydan murakkabga qarab

bosqichma-bosqich o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Bunda albatta, ta'lim mazmunida belgilangan mavzu asosida leksik minimum tanlash va tanlangan leksika, grammatika va talaffuz asosida nutq faoliyati turlarini o'rgatish talab etiladi. Shu bilan birga kichik yoshdagilarga ingliz tili o'rgatish jarayonida bog'cha va maktab sharoiti, bolaning yosh va psixologik xususiyatlari inobatga olingan holda tegishli o'qitish texnologiyalarini yaratish va ularni maktab darsliklariga kiritish va amaliyotda qo'llash bugungi metodistlar oldida turgan ulkan vazifalardan biridir.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasidan. 06.01.2021. <https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/7998>
2. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh. Mirziyoyev Toshkent sh., 2019-yil 8-may, PQ-4312-son O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. <https://www.lex.uz/docs/4327235>
3. O'zbekiston respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablarini tasdiqlash haqida O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirining buyrug'i. – Toshkent, 2018-yil 18-iyun, Vazir A. SHIN. <https://lex.uz/docs/-3805404>
4. J.J.Jalolov. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2012. B.- 4
5. D.V.Subanova. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'rgatish masalalari. Pedagogika ilmiy jurnali. 2020, 2-son. B.-71.
6. D.V.Subanova. Kichik yoshdagi o'quvchilarga san'at vositalari yordamida chet til o'rgatish nazariyalari. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes. International Scientific Conference, December 18-19, 2021. (pp. 153-157.) <http://www.conferenceseries.info>

KOMMUNIKATIV YONDASHUVNI QO'LLASH - XALQARO TAJRIBALAR (PISA, PIRLS) TALABI

**Hamrayeva F.F. – Jizzax davlat pedagogika instituti Chet tillari fakulteti
ingliz filologiyasi magistranti**

Annotatsiya. Ushbu maqolada PIRLS tadqiqotlariga tayyorgarlik ko'rish va xalqaro dasturlarda muvaffaqiyatli ishtirok etish – ta'lim sifatini baholashning muhim omili ekanligi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, baholash tizimi, kommunikativlik, xalqaro assotsiatsiya, ekspert, uslubiyotchi, boshlang'ich ta'lim, ta'limni rivojlantirish, strategiya, matnni o'qish, matnni tushunish.

ПРИМЕНЕНИЕ КОММУНИКАТИВНОГО ПОДХОДА- ТРЕБОВАНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА (PISA, PIRLS)

**Хамраева Ф.Ф. - магистрант кафедры Английской филологии
факультета Иностранных языков Джизакского государственного
педагогического института**

Аннотация. В данной статье анализ подготовки к исследованиям PIRLS и успешное участие в международных программах является важным фактором оценки качества образования.

Ключевые слова: качество обучения, система оценки, международная ассоциация, эксперт, методист, начальное образование, развитие образования, стратегия, читать текст, понимание текста.

APPLYING AN COMMUNICATIVE APPROACH IS A REQUIREMENT OF INTERNATIONAL EXPERIENCE (PISA, PIRLS)

**Khamrayeva F.F. - master student of the department of English
philology of the faculty of Foreign languages of the Jizzakh state pedagogical
institute**

Annotation. This article examines the preparation for PIRLS research and successful participation in international programs as an important factor in assessing the quality of education.

Keywords: quality of learning, assessment system, communicative, international association, expert, methodist, primary education, educational development, strategy, read text, text understanding.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi xalqaro baholash tadqiqotlari, jumladan, OECD tashkiloti bilan PISA-2021 xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etish bo'yicha kelishuvga erishgan edi. Ilmiy-pedagog xodimlar va keng jamoatchilikka yaxshi ma'lumki, 2019-yilning 25-yanvar kuni Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'i Ulug'bek Tashkenbayev hamda Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (*IEA – International Association for the Evaluation of Educational Achievement*)ning Amsterdamdagi direktori Andrea Netton o'rtasida O'zbekistonning PIRLS – 2021 baholash tizimida ishtirok etishi yuzasidan ilk rasmiy uchrashuvi tashkil qilindi. Shu asosda 2019-yilning 22-26-aprel kunlari ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro PISA va PIRLS tadqiqotlariga tayyorgarlik ko'rishga bag'ishlangan o'quv-amaliy seminar o'tkazildi. *“Xalqaro dasturlarda muvaffaqiyatli qatnashish – ta'lim sifatini baholashning muhim faktori”*[1] mavzusida xalqaro ekspertlar ishtirokida bo'lib o'tgan ushbu

seminarda tegishli vazirlik va idoralarning rahbarlari, xalq ta'limi hududiy bo'limlarining boshliqlari, tayanch maktablarning direktorlari va direktor o'rinbosarlari, fan uslubiyotchilari ishtirok etishdi. Seminarda O'zbekistonni boshlang'ich ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro dasturlarda ishtirok etishga tayyorlash muammolari, unda ishtirok etishning istiqbollari xususida so'z bordi. Yechimini kutayotgan dolzarb vazifalar belgilab olindi.

Rossiya Federatsiyasi boshlang'ich ta'lim sifatini baholash markazi rahbari, Rossiyada akademik ta'limni rivojlantirish strategiyasi instituti tadqiqotchisi, pedagogika fanlari nomzodi Galina Sergeevna Kovaleva Rossiya Federatsiyasida ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish tajribasi, unda qatnashayotgan har bir o'qituvchi mas'uliyati xususida to'xtaldi. Xalqaro ekspert Mark Zelman matnshunoslikni rivojlantirishning dolzarbligi va bo'lg'usi matnshunoslarni tayyorlashning asosiy yo'nalishlari xususida so'zga chiqdi. Pedagogika fanlari nomzodi Galina Aleksandrovna Sidorovaning ta'lim sifati bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda qatnashuvchi o'quvchilarning savodxonlik madaniyatini oshirish haqidagi ma'ruzasi yig'ilganlarda qiziqish uyg'otdi. PIRLS dasturi bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilari savodxonlik madaniyatini oshirish sho'basida ma'ruza qilgan G.A.Sidorova PIRLS xalqaro tadqiqotlari doirasida yosh o'quvchilar savodxonlik madaniyatini baholashning o'ziga xosligi, muammoga yondashuvning umumiy jihatlariga to'xtaldi. Pedagogika fanlari nomzodi Larisa Olegovna Roslova, fizika-matematika fanlari nomzodi Aleksandr Yurevich Pentin, tadqiqotchi Nadejda Aleksandrovna Avdeenkolarning chiqishlarida muammoning aniq fanlar bilan bog'liq jihatlarini yoritildi.

PIRLS xalqaro baholash tizimining bosh maqsadi nimalardan iborat?

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study – xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish) – **bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matnini o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir.** Ushbu sinov turi har 5 yilda bir marta o'tkazishga mo'ljallangan. **PIRLS** tadqiqotida 50 dan ortiq davlatlar ishtirok etib kelmoqda. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi **turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlardagi boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnini o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat**[2].

Albatta, bunday tadqiqot xalq ta'limi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, o'qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga ega. Shuning uchun boshlang'ich sinflarning har bir fan o'qituvchisi PIRLS – 4-sinf o'quvchilarining matnini o'qish va tushunish darajasini baholash tizimi haqida

yetarli ma'lumotga ega bo'lishi va o'z o'quvchilarini PIRLS baholash imtihonlariga tayyorlashi muhim vazifalar sirasiga kiradi.

– Aslida bu tadqiqotlar mohiyati nimalardan iborat? Xorijda amalga oshirilgan tadqiqotlarda nimalarni baholashyapti?

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bu tadqiqotlarda Rossiya Federatsiyasi o'quvchilari va hatto o'qituvchilari ham ishtirok etishmoqda. Uning qanday shakl va mazmunda o'tkazilayotganini kuzatish foydadan holi bo'lmaydi. Rossiyalik maktab o'quvchilari alohida fanlar bo'yicha yutuqlarini aniqlovchi ta'lim sifatini baholash bilan bog'liq ko'plab xalqaro tadqiqotlarda faol qatnashishmoqda. Bunday tadqiqotlarda qatnashish quyidagi jihatlardan muhim ahamiyat kasb etgan:

Birinchidan, *xalqaro tadqiqotlarda qatnashish ta'limning darajasini obyektiv baholash va uni boshqa mamlakatlar bilan qiyoslash imkonini bergan.*

Ikkinchidan, *tadqiqotlarning xalqaro miqyosda o'tkazilishi ta'lim sifatini baholashda eng ilg'or va zamonaviy monitoring texnologiyalarini qo'llashni taqozo etgan.*

Binobarin, mamlakatimizda bu tajribalarni umummilliy va hududiy darajalarda keng qo'llash orqali shu yo'sinda muhim yangilanishlarga erishish mumkin. Xorijliklar PIRLS bo'yicha birinchi navbatda, e'tibor berishadigan masalalar quyidagilardan iborat.

Dastlab bo'lajak pedagoglarda oliy ta'lim muassasalarida pedagogik kommunikativlikni shakllantirish maqsadga muvofiq. Avvalo, kommunikativlik nima ekanligi va qanday shakllantirilishiga e'tibor qaratish lozim. Pedagogik kommunikativlikning yaqqol ifodalaridan biri – har qanday pedagogik ta'sirga nisbatan qo'llaniladigan chora-tadbirlarni his eta bilishdan iboratdir. Farosatli o'qituvchi bolalarga e'tibor berib, ziyraklik bilan qaraydi, ularning individual psixologik xususiyatlari bilan hisoblashadi.

Kommunikativlik qobiliyati – bu bolalar bilan muloqotda bo'lishga, o'quvchilarga yoshdashish uchun to'g'ri yo'l topa bilishga, ular bilan pedagogik nuqtayi nazardan maqsadga muvofiq o'zaro aloqa bog'lashga pedagogik taktikaning mavjudligiga qaratilgan qobiliyatdir.

Xalqaro baholash tizimi PISA VA PIRLS dasturining amaldagi natijasi ham o'quvchiga to'g'ri psixologik yondasha oladigan murabbiy darkorligini taqazo qilmoqda. Ma'lumot uchun shuni ta'kidlash o'rinliki, PIRLS turli yillarda o'tkazilishi jarayonida unda 35 tadan 50 kacha mamlakatlar ishtirok etishgan. Zotan bunday baholash tubandagi keng ko'lamlı jarayonlarni to'la qamrab oladi:

- matnni o'qish;
- axborotlar bilan tanishish;
- bilib olish;
- o'qish va uqishda adabiy tajriba orttirish.

Odatda, 4-sinf o'quvchilari bilimni baholash uchun ularga ikkita matn beriladi.

1. *Ilmiy-ommabop xarakterdagi matn.* Bunday matda axborotlarni etkazish maqsadi yetakchilik qiladi

2. *Badiiy matn.*

Berilgan matnlar bilan tanishgach, o'quvchilar ikki xil tipdagi matnlarning har biri haqida bir necha savollarga javob berishadi. Albatta, savollar o'sha matnlar doirasidan chetga chiqmagan holda beriladi. Ularni baholashda esa, quyidagi jihatlarga ahamiyat beriladi:

- Kerakli axborotlarni topish va eng muhimlarini tanlash;
- muayyan xulosalarni shakllantirish;
- axborotlarni umumlashtirish, to'g'ri talqin qila olish;
- matnni tahlil qilish va uning mazmunini baholash;
- berilgan matnning kompozitsion tuzilishi, tili haqida yetarli tasavvurga ega bo'lish

Shubhasiz, PIRLS da ishtirok etayotgan mamlakatlarning har biri o'ziga xos o'quv tizimi, maktab o'quv dasturlariga ega. Bunday keskin farqlanish bo'lishi tabiiy hol ekani bois, o'tkazilayotgan tadqiqotlarni amalga oshiruvchi ekspertlar erishilgan natijalarni qiyoslashga ahamiyat qaratishadi. Jumladan, aksariyat mamlakatlarda bolalar olti yoshdan maktabga borishsa, Angliya va Yangi Zelandiyada boshlang'ich sinflarning o'qishi besh yoshdan boshlanadi. Shu bois bunday mamlakatlardan PIRLS dasturida ishtirok etish uchun beshinchi sinf o'quvchilari tanlanadi. Binobaprin, matnni o'qish va tushunish sifati tekshirilayotgan bolalarning o'rtacha yoshi ham 10,5 yoshni tashkil qiladi. Sharqiy Yevropa davlatlarida esa, bolalar etti yasharligidan e'tiboran maktabga chiqishadi. Shu bois ularning o'rtacha yoshi 10,7-10,9 qilib belgilangan.

PIRLS – 2001 ilk tadqiqotlari o'tkazilgan kezda Rossiya 35 mamlakat orasida 16-o'rinni egallagandi. O'shanda dastlabki beshlikda 1. Svetsiya, 2. Niderlandiya, 3. Angliya, 4. Bolgariya, 5. Latviya turardi. Ammo, Rossiya 2006 yilgi tadqiqotlardayoq bayroqdorlikni qo'lga oldi. O'shanda ro'yxatning birinchi beshligida 1. Rossiya, 2. Gonkong, 3. Kanada (Alberto viloyati), 4. Singapur, 5. Kanada (Britaniya Kolumbiyasi) sanalgan edi. Afsuski, Rossiya 2011-yilgi tadqiqotlarda bayroqdorlikni qo'lidan chiqardi. Kuchli beshlikka 1. Gonkong, 2. Rossiya, 3. Finlandiya, 4. Singapur, 5. Shimoliy Irlandiya mamlakatlari kiritildi. Nihoyat 2016-yilga kelib bu ro'yxatdan 1. Rossiya, 2. Singapur, 3. Gonkong, 4. Irlandiya, 5. Finlandiya mamlakatlari munosib o'rin olishdi [3].

2017-yil oxiriga kelib, PIRLS – 2016 natijalari e'lon qilinganida Rossiya yana birinchi o'ringa chiqib olgani ayon bo'ldi. **Nima uchun bu yutuqqa 2001-yilda**

erishilmadi yoki 2006-yilgi natija saqlab qolinmadi? Bu yutuq oradan o'n yil o'tib yana qo'lga kiritildi?

Rossiya ta'lim sifatini nazorat qilish tashkiloti rahbari Sergey Kravtsov tasdiqlashicha, PIRLS o'qish va uqish savodxonligini baholarkan, Rossiya Federatsiyasi boshlang'ich sinf bitiruvchilarining yuksak natijalari e'tirof etilishi mamlakatdagi boshlang'ich maktab ta'limi sifat jihatidan jahon miqyosida eng yaxshi yo'lga qo'yilgani o'zining isbotini topganini ko'rsatadi. Darhaqiqat, yuqoridagi singari qiyosiy chog'ishtirishlar har bir mamlakat boshlang'ich ta'limi sifat darajasini aniqlash imkonini berishi bilan ahamiyatlidir.

O'zbekistonning PIRLS tadqiqotlarida ishtirok etishi qanday natijalar beradi?

a) Boshlang'ich ta'limni tugatuvchi o'quvchilar bilim darajasini baholash yoki monitoring qilishning "Milliy dasturi" yaratilishiga zamin hozirlaydi. Xalqaro tajribalarga tayanib shunday dastur yaratish davr talabidir.

b) Hududlar kesimida yoshlar tomonidan u yoki bu fanni o'zlashtirish darajasining sifati va sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar ko'lamini belgilab borish va tegishli islohotlar o'tkazish imkoniyatini yaratadi.

v) Boshlang'ich ta'lim muassasalaridagi o'qitish darajasining islohotlar shiddatiga hamqadam bo'lishi, malakali kadrlar tanqisligining kelib chiqmasligiga ko'maklashadi.

g) Boshlang'ich ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya berishga mas'ul mutaxassislarning malaka talablarini takomillashtirish, sinflarda xalqaro tajribada sinalgan usullardan kelib chiqqan holda o'quvchilar sonining maksimal hamda minimal ko'rsatkichlarini belgilash mumkin bo'ladi;

d) Boshlang'ich sinflardagi iste'dodli bolalarni psixologik testlar yordamida ajratib olib, 11-12 yoshlilar uchun har bir maktabda ixtisoslashgan sinflar tashkil etish imkonini beradi.

Ko'rinadiki, hozirgi global o'zgarishlar davrida mamlakatimizda tahsil olayotgan 4-sinf o'quvchilarining o'qish, va ijodiy fikrlash savodxonligini baholashda xalqaro tadqiqotlar metodologiyasi va baholash me'zonlaridan milliy o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratishda foydalanish samarali natijalar beradi. Buning uchun turli darajadagi ta'lim sifatini baholash tizimining rivojlanish tendentsiyalarini ham o'rganish zarur. Agar ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro qiyosiy-tipologik tadqiqotlar natijalari kompleks tahlillari amalga oshirilsa, ta'lim sifatini baholashning strategik yo'nalishlari ham aniqlanadi. O'zbekiston ta'lim tizimining salohiyati yanada oshadi.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha PIRLS xalqaro tadqiqotlarida O'zbekiston ta'lim tizimi ilk bor ishtirok etayotganligi sababli, o'qituvchilar va o'quvchilar orasida mazkur tadqiqotning mazmun-mohiyati, nazorat-sinov yo'sinlari haqida

turlicha tushuncha va tasavvurlar mavjud. O'tkazilayotgan konferensiya mazkur tasavvurlarning to'g'ri hosil bo'lishiga ko'maklashishi, 2021-yilda bo'lib o'tishi rejalashtirilgan tadqiqotlarga samarali tayyorgarlik ko'rishda muhim omil ekani jihatidan alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, PIRLS mazmun-mohiyati haqida atroflicha ma'lumot berilishi, PIRLS tadqiqotlarini amalga oshirish yo'l yo'riqlari bilan yaqindan tanishtirilishi boshlang'ich ta'lim fan o'qituvchilarining bunday tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rishlari, hamda ularni amalda qo'llab ko'rish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Zotan, ta'lim sifati nafaqat o'qituvchi-o'quvchi munosabatlariga, balki atrof-muhit va shart-sharoitga ham bog'liqdir.

Bugun ta'limning amaliyot bilan uzviyligi alohida ahamiyatga molik. ekani bois, o'qituvchi ish rejasini shakllantirishdayoq o'z o'quvchilarida mazkur mavzularni hayotga tatbiq eta olish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi maqsadlarni belgilab olishi lozim. Buning uchun o'qituvchilarni psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash va zarur yordamlar berish, yo'naltirish (motivatsiyalash) lozim. PIRLS ga past ko'rsatkichli maktablarni jazolovchi usul sifatida hadiksirab qarash to'g'ri emas. Aksincha keyinchalik ta'lim tizimidagi islohotlarni amalga oshirishga yordam beradigan tahliliy ma'lumotlar olinishida ko'makchi sifatida munosabatda bo'lish kerak.

O'qituvchilik faoliyatiga aniq mezonlar asosida tanlab olish, maktab direktorlari va o'qituvchilarini vaqti-vaqti bilan rotatsiya qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga erishish mumkin. Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik jarayonida ta'lim tizimining kuchsiz tomonlariga e'tibor qaratib, kuchli tomonlarini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik hamda uni qadrlash kerak. Ta'lim yutuqlarini baholashdagi kontseptual yondashuv, o'lchov mezonlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish lozim. Ta'lim xususiyatlarini baholashda o'zgarishlar tendensiyasini hisobga olish vaqti etdi:

- Endilikda bilim, ko'nikma va malakani baholashdan savodxonlik va kompetensiyani baholashga o'tish;
- baholash va uning me'zonlari kontseptual chegaralarini o'zgartirish;
- ma'noli matnga ega strukturali topshiriqlar miqdorini oshirish;
- elektron va interfaol topshiriqlar asosida texnologiyani o'zgartirish;
- ta'limdagi ustuvorlikni o'zgartirib borish orqali funksional savodxonlikni rivojlantirishga o'tish

Respublikamiz milliy ta'lim tizimini rivojlantirish va ta'limning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishda yangi-yangi loyihalar, turli-tuman ta'lim texnologiyalari, o'qitish va ta'lim-tarbiyaning yangi metodlarini joriy qilishga ahamiyat qaratilmoqda. Bunday sa'y-harakatlar o'quvchilarning o'qish va uqishga bo'lgan qiziqish va motivatsiyasini oshirmoqda. Ko'plab maktabgacha ta'lim muassasalarini qurish, shuningdek "Prezident maktabi", "Ijod maktabi" singari

istiqbolli loyihalarni amaliyotga joriy etish muhim qadam bo'ldi. Zotan, zamonaviy maktab deganda biz maktabgacha ta'lim, boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim tizimiga turli ta'lim texnologiyalari, o'qitish va ta'lim tarbiyaning yangi metodlarini joriy qilishni tushunamiz.

Shubhasiz, mazkur jarayonda mamlakatimizning barcha hududlari ishtirok etishi, yangi loyiha asosida maktablarni qurish, rekonstruksiya qilish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, qishloq hududlarida ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, shu bilan birga ta'lim standartlarini yangilash ham ko'zda tutiladi. Ta'lim standartlarini takomillashtirishda xalqaro ilg'or tajribalar, jumladan zamonaviy tadqiqotlar talablariga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Ijodiy o'zlashtirilgan xalqaro tajribalar asosida O'zbekiston hududlarida seminar, davra suhbatlari o'tkazish, jahon bankining READ dasturi bilan hamkorlik negizida xalqaro tadqiqotlar doirasidagi yo'nalishlar bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish, maktablar jamoalariga xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik bo'yicha atroflicha ma'lumotlar berish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish, o'quv hamda nazorat sinov materiallari ishlab chiquvchi ijodiy guruhlar uchun o'quv kurslari tashkil etish, metodik yordam ko'rsatish, maslahatlar berish yaxshi natijalar beradi.

Adabiyotlar

1. Семинар по подготовке к международным программам по оценке качества образования. Оценка читательской грамотности учащихся в международных исследованиях качества образования. – Ташкент, 2019.
2. www.centeroko.ru; <https://my.webinar.ru/record>; pirls.bc.edu; <http://www.pirls.org>; <https://web.archive.org>; <https://ru.wikipedia.org>
3. . Кузнецова М.И. Международное сравнительное исследование грамотности чтения младших школьников PIRLS: концепция, основные результаты и тенденции // Педагогические измерения. – 2017. – № 2. – С. 35–45.

SOG'LOM TURMUSH TARZI - FAROVON HAYOT GAROVIDIR

Uralova G.O'. - Toshkent davlat pedagogika universiteti erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda dolzarb masala bo'lgan va har bir inson uchun juda muhim hisoblanadigan, hayot tarzini to'g'ri tashkil etish, xususan, o'qituvchi-pedagoglar faoliyatida sog'lom turmush tarziga rioya qilishning ahamiyati to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: shaxsiy gigiena, semizlik, xolesterin, sport, badantarbiya, spirtli ichimliklar, ijobiy kayfiyat, toza havo.

ЗДОРОВЫЙ ОБРАЗ ЖИЗНИ – ЗАЛОГ БЛАГОПОЛУЧНОЙ ЖИЗНИ

Уралова Г.О. – свободный исследователь Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В данной статье рассматривается важность правильного управления образом жизни, особенно в работе педагогов, что является актуальным вопросом на сегодняшний день и очень важно для всех.

Ключевые слова: личная гигиена, ожирение, холестерин, спорт, фитнес, алкоголь, позитивное настроение, свежий воздух.

A HEALTHY LIFESTYLE IS THE GUARANTEE OF A PROSPEROUS LIFE

Uralova G.O. - Researcher of Tashkent State Pedagogy university

Annotation. This article discusses the importance of proper lifestyle management, especially in the work of teachers, which is a topical issue today and is very important for everyone.

Keywords. Personal hygiene, obesity, cholesterol, sports, fitness, alcohol, positive mood, fresh air.

XXI asr-texnologiyalarning rivojlanishi, turmush tarzining o'zgarishi bilan odamlarning harakatlanishi va jismoniy mehnat bilan shug'ullanishi kamaydi, chekadigan va spirtli ichimlik ichadigan insonlar ko'paydi, tarkibida yog', qand va tuz miqdori yuqori bo'lgan nosog'lom oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli keskin ko'paydi. Shuningdek, aholining ovqatlanish odatlari o'zgardi, jumladan, sabzavot va mevalarni yetarli iste'mol qilmaslik, tuzni meyordan ortiq iste'mol qilish holatlari ko'payganligi, bu esa o'z navbatida, turmush tarzining o'zgarishi, tana vaznining ortishi, semizlik, qonda xolesterin miqdorining oshishi va oqibatda, yuqumli bo'lmagan kasalliklarning rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Albatta bu xolat kupgina kasb egalari qatorida, ta'lim-tarbiya sohasi vakillarini ham chetlab o'tgani yuk. Chunki pedagoglar ham aqliy mehnat faoliyatini olib boradigan kasb egalariidan biri hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, O'zbekistonda har yili barcha o'lim holatlarining 78 foizi yuqumli bo'lmagan kasalliklar tashkil etishi achinarli holatdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.12.2018-yildagi "Yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4063 son qarori shular jumlasidandir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan

takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi [1] PF-5590-son Farmoni imzolandi. Farmonga muvofiq: 2019-2022-yillarda yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi, aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va jismoniy faolligi darajasini oshirish Konsepsiyasi, 2019-2022-yillarda yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi, aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari Dasturi tasdiqlandi

Dastur doirasida "Sog'lom turmush tarzi" platformasining joriy etilishi, ayniqsa, xalqimiz orasida ijobiy qarshi olindi. Serharakat bo'lish evaziga qo'shimcha mablag'ga ega bo'lish va shu bilan bir qatorda sog'ligidagi ayrim muommalarning hal bo'layotganligi xalqimizning hukumatimizdan mamnun bo'lishiga sababchi bo'lmoqda.

Insonlarning, xususan o'qituvchilarning hayot tarzi, ularning sanitariyaga doir bilimdonligi, bu bilimlarni kundalik turmushda qo'llay olishlari va unga qat'iyon rioya qilishlari, o'z organizmlari va badanlariga bo'lgan ong'li munosabatlari, o'z salomatliklariga bo'lgan munosabatlari ko'z oldida tarbiyalanayotgan o'quvchilar oldida namuna vazifasini o'taydi. Ana shu elementlar salomatlikni, jismoniy va ruhiy faollikni, uzoq umr ko'rish, umrni uzaytiruvchi omillar bo'lib xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, har bir muayyan shaxsning salomatligi birinchi navbatda uning hayot tarziga, ana shu turmush tarzi elementlariga ong'li yondoshishiga bog'liqdir. Shular bilan bog'liq holda aytish lozim-ki, sog'lom turmush tarzining asosida atrof muhitda bor bo'lgan barcha omillarning organizmga ta'sir etishi mumkinligi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish, va ana shu omillardan o'zining salomatligi uchun foyda keltiradigan tomonlaridan samarali foydalana olishi muhim ahamiyatga ega.

"Buyuk vatandoshimiz Abu Ali ibn Sinoning mashhur "Tib qonunlari" asari salomatlikni saqlash va mustahkamlash g'oyalari asosida yozilgan. Alloma insonlar o'zini o'rab turgan atrof-muhit bilan muloqotda bo'lishini va tashqi muhit omillari, o'z navbatida, uning salomatligiga ta'sir qilishini ta'kidlab o'tgan. Ulug'hakim salomatlikni saqlashda jismoniy faollik muhimligini alohida qayd etib, tartibli hayot tarzi omili sifatida jismoniy mashqlar, ovqatlanish tartibi va uyquni qayd etgan. U bunday yozadi: "Me'yorida va o'z vaqtida jismoniy mashqlar bilan shug'ullanadigan inson hech qachon davolanishga muhtoj emas"[5]

Odanda kasallik o'z-o'zidan, to'satdan paydo bo'lib qolmaydi. Uning organizmda paydo bo'lib, kasallik ko'rinishida shakllanmog'i uchun o'nlab sabablar kerak bo'ladi. Inson turmush tarzi – hayotining tayanch nuqtasi, har bir inson unga tayangan holda, o'z hayotini tubdan o'zgartirishga erishishi mumkin. Turmush tarzini belgilovchi bosh omil insonning o'zidir va bu haqida yosh avlodda to'g'ri tushincha hosil bulishi kup jihatdan hayotda tarbiya beruvchi katta avlod vakillariga va

o'kituvchilarga bog'liqdir. Sog'lom turmush tarzi –shunday yashash tarziki, unda odamlar salomatligiga ta'sir ko'rsatuvchi zararli omillar bo'lmasligi, inson ulardan ongli ravishda o'zini chetga olishi kerak. Ko'plab adabiyotlarda sog'lom turmush tarzining asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilangan:

- Sport bilan doimiy shug'illanish— umrimiz oxiriga qadar sog'lom hayot kechirishning asosiy shartlaridan biridir. U yosh ham, joy ham, hattoki shart-sharoit ham tanlamaydi. Uning ko'rinishlari, shakllari, usullari ko'p: yoga, piyoda yurish, yugurish, turnikka tortilish, raqs, gimnastika, futbol va hokazo turlari bor. Ushbu sport turlaridan biri bilan muntazam shug'illanish har kuni emas, kunora 30-60 daqiqa sport uchun vaqt ajratish lozim. Kamroq o'tirish va ko'proq harakatlanish kerak. Agarda kasbingiz o'tirib ishlashni taqozo etsa, har soatda kamida 5 daqiqa tanaffus qiling va bu vaqtda turli engil mashqlarni bajarib, elka, bel va oyoqlar chigilini yozing.

- Kun tartibiga qat'iy rioya eting. Birinchi navbatda — 8 soatlik uyqu! Ikkinchidan, kunning bir vaqtida uxlash va muayyan vaqtda uyg'onishga odatlanish! Uyquning buzilishi asta-sekinlik bilan inson ruhiyati, hissiyotlariga ziyon etkazadi, ishchanlik kayfiyatini yo'qotadi, keyinchalik turli surunkali, jiddiy xastaliklarning rivojlanishiga sabab bo'lishini unutmash lozim.

- To'g'ri ovqatlanish qoidalariga amal qilish juda muhim ahamiyatga ega. Organizmdagi immunitetning 80%i oshqozonda hosil bo'ladi shunday ekan ovqatlanish ratsioningizga tabiiy mahsulotlar — meva va sabzavotlar, vitamin va minerallarga boy oziq-ovqatlarni ko'proq kiriting [2].

Ovqatlanish ratsionining 65 foizini meva va sabzavotlar, non va turli bo'tqalar tashkil etishi, 30 foizi go'sht va sut mahsulotlari, 5 foizi shirinlik va yog'larga ajratilishi lozim. Ozuqalar imkon qadar yangi, mavsumga mos bo'lishi lozim. Bahor va yozda o'simliklar, qishda oqsil va yog'ga boy mahsulotlarga ko'proq o'rin ajratilishi maqsadga muvofiqdir. Har kungi suv iste'moli yoz mavsumida har 20 kg tana vazniga kamida 1 litr miqdorida, qish faslida esa 30 kg tana vazniga 1 litr atrofida bo'lmog'i zarur. Organizm uchun suvning ahamiyati beqiyos. Xalqimizda “Qarish-qurishdir” degan ibora bejizga ishlatilmaydi, chunki inson organizmining 2/3 qismini suv tashkil etadi. Organizmdagi suv miqdori yosh o'tib borgani sari kamayib boradi. Shunday ekan uzoq yillar davomida organizmni tetik, dadil va eng muhimi sog'lom holda saqlash o'z qo'limizda.

Fast-fud, gazli ichimliklar, yarim tayyor mahsulotlar, chips va kiryeshkilar, boshqa ko'plab sun'iy ta'm, rang va shakl berilgan ozuqalardan voz keching [3].

Ovqatlanishda xilma-xil taomlarni aralashtirib yubormaslik lozim. Mevalar ovqatdan yarim soat avval, choy va ichimliklar 1-2 soat keyin iste'mol qilinishi zarur.

-Organizmining asosiy dushmanlaridan bo'lmish tamaki va alkohol mahsulotlari, turli zararli odatlardan voz kechish orqali sog'lom turmush tarziga keng

yo‘l oching. Zararli odatlardan ongli ravishda voz kechishda o‘zingizda kuch toping, irodangizni ko‘rsating!!! Sizning sog‘lom hayot kechirish sari tashlagan muhim qadamingiz o‘zingizga dasturil amal vazifasini o‘taydi.

- Sog‘lom turmush tarzining yana bir muhim qoidasi — yorqin va ijobiy kayfiyat! Hayotdan ko‘proq zavq oling, muvaffaqiyatsizlik, omadsizliklarga ko‘p e‘tibor qaratmang, doimo olg‘a intilish uchun kuch topa biling va odamlarga nisbatan g‘araz, gina-kudurat, yomon gumonlar saqlab yurmang, kechirimli, bag‘rikeng bo‘ling. Nodonlar bilan aslo tenglasha ko‘rmang!

- Toza havo-tanga davo!!! Uyingiz, xona va ish kabinetingizni doimo toza tuting, har kuni uni artib-tozalang, derazalarni ochib, toza havo kirishini ta‘minlang. Normal jismoniy holatda bo‘lish uchun albatta chuqur va to‘g‘ri nafas olishni bilish lozim. Tabiat qo‘ynida sayr qilish, oynalarni ma‘lum muddat ochib qo‘yish, tomorqa yoki ochiq havoda jismoniy mehnat qilishga etadigani yo‘q.

-Shaxsiy gigiyenaga rioya qilish: ovqatlanishdan avval va keyin, albatta, qo‘llarni yuvish, uyqudan oldin va ovqatlangandan keyin tishlarni tozalash, toza kiyim, umuman, tozalikka qat‘iy rioya etish sog‘lom turmush tarzining asosiy shartlaridan hisoblanadi [4].

Unutmang! Sog‘lom turmush tarzi, bu — har qanday kasalliklar profilaktikasi va salomatlik, kuch-quvvat garovidir. U insonning turli qirralarini rivojlantirish, muvaffaqiyatga erishish garovidir.

Sog‘lom turmush tarzi qoidalariga rioya etgan odam oilasi, mehnat jamoasi, umuman, jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘ladi, turli murakkab vaziyatlarni yengib o‘tish, hayot qiyinchiliklari oldida o‘zini yo‘qotib qo‘ymaslika o‘rganadi.

Xulosa qilib aytganda, sog‘lom turmush tarzini yaratish, uzoq tinch va osoyishta hayot kechirish har bir insonning o‘z qo‘lidir.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5590-son Farmoni.

2. Xudoyshukurov T., Karimov M., Atoev V, Saidov B. “Ovqatlanish va salomatlik”. – Toshkent. O‘zSSR “Медицина” 1990.

3. Pol Bregg “To‘g‘ri ovqatlanish”. Adabiyot uchqunlari. Toshkent-2014.

4. Abu Ali ibn Sino “Tib qonunlari”. –Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1992.

5. Salomatlik ilmi ruknida, Yangi O‘zbekiston” muxbiri Risolat Madieva O‘zbekiston valeologlar uyushmasi raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor Shuhrat Ergashev bilan suhbat, 2020.

**O‘ZBEK MILLIY MUSIQA SAN’ATIDA FATTOHXON
MAMADALIYEVNING IJODIY MEROSI**

**Gulliyeva Y.Y. – Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch
doktoranti**

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek milliy musiqasining an’anaviy ashulachilik va maqom san’ati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan atoqli xonanda, bastakor, O‘zbekiston xalq hofizi, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professori F.Mamadaliyevning ijodiy merosi xususida gap boradi. Shuningdek, u bastalagan ko‘plab asarlar, jumladan, “Intizor”, “Oqibat”, “Sog‘indim”, “Falak”, “Mehmon”, “Judo keldi” va “Yuzi xajrida”, “Ahd qildim”, “Jononim mening”, “Orzu” va “Dehqonlarim”, “So‘rmasa”, “Kalomingdan” va “Dilkusho”, kabi ko‘plab ashulalar ijrochilik amaliyotida munosib o‘rinni topganligi bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: qo‘shiq, mumtoz ashula, maqom, shashmaqom, an’anaviy xonandalik, Ushshoq, Miskin, ijod.

**ТВОРЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ ФАТТОХОНА МАМАДАЛИЕВА В
УЗБЕКСКОМ НАЦИОНАЛЬНОМ МУЗЫКАЛЬНОМ ИСКУССТВЕ**

**Гулльева Ю.Ю. - базовый докторант Ташкентского
государственного педагогического университета**

Аннотация: В данной статье рассказывается о творческом наследии известного певца, композитора, народного артиста Узбекистана, профессора Государственной консерватории Узбекистана Ф. Мамадалиева, внесшего значительный вклад в развитие традиционного пения и макомного искусства узбекской национальной музыки. Он также является автором многих произведений, в том числе «Интизор», «Окибат», «Согиндим», «Фалак», «Мехмон», «Жудо келди» и «Юзи хажрида», «Ахд қилдим», «Джононим менинг». многие песни, такие как «Орзу» и «Сурмаса», «Дехконларим» и «Дилькушо» нашли достойное место в исполнительской практике.

Ключевые слова: песня, маком, шашмаком, традиционное вокальное исполнительство, Ушшок, Мискин, творчество.

**CREATIVE HERITAGE OF FATTOHKHON MAMADALIYEV IN
THE ART OF UZBEK NATIONAL MUSIC**

**Gulliyeva Y.Y. - Basic doctoral student of Tashkent State Pedagogical
University**

Annotation. This article tells about the creative heritage of the famous singer, composer, people's artist of Uzbekistan, professor of the State Conservatory of Uzbekistan F. Mamadaliyev, who made a significant contribution to the development of traditional singing and maqom art of Uzbek national music. He is also the author of many works, including "Intizor", "Okibat", "Sogindim", "Falak", "Mehmon", "Judo Keldi" and "Yuzi Khazhrida", "Akhd Qildim", "Jononym Mening". many songs, such as "Orzu" and "Surmas", "Dehkonlarim" and "Dilkusho" have found a worthy place in performing practice.

Keywords: song, excellent song, makom, shashmakom, traditional performance, Ushshoq, Miskin, creation.

O'zbek xalqi musiqa san'atining salmoqli qismini tashkil etuvchi maqom an'analari tarixan uzun va murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tgani ma'lum [2, 4-b.].

Mamlakatimizda yosh avlodga maqom san'ati asoslarini o'rgatish uchun sharoitlar yaratish, ijro mahorati orqali pedagogik natijalarga erishishni ta'minlash borasida 14 ta maqom markazi va 4 hududda maqom maktablari tashkil etildi, muntazam ravishda ko'rik-tanlov va festivallar hamda maqomlarni yozib olishga doir ishlar amalga oshirilmoqda va moddiy texnik bazasi yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida milliy musiqani o'rganishni yangi talablar nuqtai nazaridan tahlil qilib, qayta ko'rib chiqish belgilangan. Natijada, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, intellektual salohiyatli, mustaqil fikrlay oladigan va yuksak ma'naviyatli shaxslar sifatida tarbiyalashda keng imkoniyatlar yaratildi [5, 35-36-b.].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2020-yil 26-maydagi "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF 6000-son farmoni, 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3391-son, 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-noyabrdagi "Maqom san'atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarni tashkil etish to'g'risida"gi №940-sonli, 2020-yil 2-sentabrdagi "Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 536-sonli qarorlari, shuningdek, sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Mumtoz musiqaga hofizlarning salmoqli hissalarini qo‘shilishi jarayonlariga qisqacha to‘xtaladigan bo‘lsak, O‘rta Osiyo, qolaversa, Yaqin va O‘rta Sharq mintaqalarida joylashgan qadimgi madaniy o‘choqlarda birin-ketin vujudga kelgan maqom yo‘llarining mushtarak hamda farqli ijodiy, ijroviy va uslubiy jihatlari azaldan bo‘lgan [6, 16-b.]. Chunki asrlar osha hofizlar hamda tadqiqotchilarning ijodiy izlanishlarida qo‘lga kiritilgan muayyan badiiy yutuqlar ustozlardan shogirdlarga uzluksiz tartibda kasbiy va ma‘naviy mulk sifatida o‘tib kelmoqda.

Bu toifadagi ijodkorlik hamda ijrochilik mezonlari dastavval saroy san‘atkorlari kasbiy faoliyatining mahsullarida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, uning og‘zaki uslub sharoitidagi rivojlanish ko‘lami tobora kengroq tus olgan [3, 8-b.].

O‘zbek milliy musiqasi, an‘anaviy maqom san‘ati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan atoqli xonanda, xassos bastakor, jonkuyar ustoz murabbiy, O‘zbekiston xalq hofizi, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professori F.Mamadaliyevning ijodiy merosi nihoyatda salmoqlidir.

Mamadaliyev Fattohxon – bastakor, hofiz va pedagog, Toshkent Davlat Konservatoriyasida dars bergan. Ilmiy-uslubiy asarlar yaratgan, “Sharq, o‘zbek sozlarining sozlanishi” va “Aruz, zarb va musiqa mutanosibligi” mavzularida o‘nlab maqolalar yozgan.

Bir muncha vaqt mobaynida O‘zbekiston Teleradiokompaniyasining maqomchilar ansamblida maslahatchi sifatida ishlagan. Fattohxon 1923-yil Andijonning Baliqchi tumanida dunyoga kelgan. Maktabda o‘qigan kezlari musiqa o‘qituvchisi Zokirjon To‘rayev unga dutor sozini sovg‘a qiladi va u musiqa va san‘atga mehr qo‘yadi. Shuningdek, u taniqli skripkachi Mo‘minjon Karimovdan skripkada chalishni o‘rganadi.

Namanganlik musiqiy asboblari ustasi Ro‘zimatxon Isaboyev unga “Qo‘shiqchi tambur bilan kuylashni o‘rganishi kerak” so‘zlari bilan, o‘zining tambur sozini sovg‘a qiladi. Ijod yo‘lini bosib o‘tar ekan, umri davomida ustozlarining maslahatiga rioya qilib yashadi.

1963-yil u Andijon Davlat institutining tarix fakultetida tahsilini yakunlaydi. Talabalik yillarida u Yo‘ldosh Oxunboboyev nomidagi Andijon davlat teatrida ishlagan. U maqomchi ijrochilarning ikkinchi ansamblini tashkil qiladi va ozgina nomi chiqqach, uni Toshkent Davlat konservatoriyasiga taklif etishadi. Ehtimol, aynan shu hodisa uning qarshisida san‘at rivoji uchun bir qancha yo‘llarni ochdi.

1985–1999-yillar u Toshkent Davlat Konservatoriyasida dars beradi va ijrochilik jamoasida faoliyat yuritadi. U taniqli ijrochilarning butun bir avlodiga tahsil bera olgan, xususan, Hurriyat Isroilova, Mashrab Ermatov, Erkin Ro‘zmatov, Mar‘yam Sattorova, Nasiba Sattorova, Maysara Imomova, Azamat Otajonov va Bobur Yo‘ldoshevlar.

O‘zbekiston Teleradiokompaniyasi maqomchilar ansamblining maslahatchisi

bo‘lib, u O‘zbekistonda ilk bor 7 qisimli maqom “Miskin”, 8 qisimli maqom “Ushshoq”, 4 qisimli maqom “Nasrulloi” kabilarni yaratgan, konservatoriya talabalari bilan esa 5 qisimli maqom “Munojot”ni yaratgan. Ushbu barcha maqomlar plastinkalarga yozib olingan va televideniye ko‘rsatuvlarida ko‘p karra eshittirilgan.

F.Mamadaliyev qo‘shiqdari xalq orasida juda sevib tinglangan va hatto, hozirgi kunda ham zamonaviy radio to‘lqinlarda jaranglaydi. F.Mamadaliyev Navoiy, Muqimiy, Nodira, Furqat, Ogahiy, Ulfatiy, Vohid Abdulla, Vosit Sa‘dulla, Olimjon Holdor kabilarning she‘rlarini kuyga solgan. Habibiy, Sobir Abdulla, Anisiy, Ulfatiy, Vohid Abdulla, Vosit Sa‘dullalar bilan do‘stlashgan va ularning ko‘plab asarlariga kuy bastalab, yangi hayot baxsh etgan [7].

Uning san‘atdagi murabbiylari Yunus Rajabiy, Muhitdin xoji Najmitdinov, Komiljon Jabborov, G‘anijon Toshmatov, Jo‘raxon Sultonov, Qodirjon Ohunov kabilari bo‘lishgan. O‘zining asarlarida mukammallikka erishish uchun ustozlarining ijodiy uslubini barcha qirralarini o‘zlashtirgan.

F.Mamadaliyev ko‘plab xorij mamlakatlariga tashrif buyurgan, Hindiston, Italiya, Bolgariya, Malayziya, AQShda bo‘lgan. Taniqli bastakor, qo‘shiqchi, g‘azalshunos va o‘qituvchi F.Mamadaliyev Vatanida va boshqa mamlakatlarda chinakam xalq e‘tirofiga ega bo‘lgan. F.Mamadaliyev “O‘zbekiston xalq hofizi” deb topilgan. O‘zbekiston Mustaqilligining ettinchi yili “El-yurt hurmati” ordeni bilan taqdirlangan. F.Mamadaliyev 1999-yil Toshkentda vafot etgan [7].

Benazir ovoz sohibi va ulkan salohiyatga ega san‘atkor o‘z ijodiy faoliyatida hozirgi zamon an‘anaviy musiqiy-ijrochilik va milliy bastakorlik jabhalarining mushtarakligini yorqin namoyish qildi. O‘zbek milliy musiqasiga jonkuyarlik, ishtiyoq bilan ijodiy va professional darajada qo‘shgan ulkan hissalarini ta‘kidlash joizdir, albatta. Ham sozanda, ham xonanda bo‘lib faoliyat yuritgan ustoz F.Mamadaliyev o‘quvchi shogirdlar bilan ham ishlashda tengsiz ustoz edilar. Ko‘p yillar davomida izlanuvchan mehnati tufayli iqtidorli hofiz yakka holda va hamnafaslikda qo‘shiq, ashula, katta ashula, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari, Buxoro maqom namunalari, shuningdek, o‘tmishdosh va zamondosh bastakorlar ijodiga mansub asarlarning betakror ijroviy talqinlariga erisha oldi. Xorazm maqom yo‘llarini Madraxim Sheroziy, Xojixon Boltayev, Rozmat Jumaniyozov kabi vohaning yetakchi hofizlarining ijrolari bilan tanishishga muyassar bo‘ladi.

F.Mamadaliyev tabiatan o‘tkir zehni, falsafiy dunyoqarashi keng, kuchli va yorqin ovozga ega, mumtoz musiqa san‘atini turli jihatlarini ustozona tarzda idroklashga qodir inson edilar. Shu bois bo‘lsa kerak har bir bajarilgan ijodiy ishlarga amaliy yondashdi. Xoh u ashula ijrosida bo‘lsin, xoh katta ashula, xoh cholg‘u talqini yoki ansanbl bo‘lib ijro etish bo‘lsin o‘zining barcha imkoniyatlarini ishga soldi va uni namunali jihatlarini ko‘rsata oldi.

F.Mamadaliyev tanho o‘ziga xos ijro va ijod uslubini kashf etishga xususan

hofizlik va bastakorlik yo'nalishida katta maktab yaratishga muvaffaq bo'lgan usta san'atkordir. U bastalagan ko'plab asarlar orasida "Intizor" (Ulfatyi so'zi), "Oqibat", "Sog'indim", "Falak", "Mehmon", "Judo keldi" va "Yuzi xajrida" (Nodira so'zlari), "Ahd qildim" (Muqimiy so'zi), "Jononim mening" (Hayratiy so'zi), "Orzu" va "Dehqonlarim" (B.Sadullo g'azali), "So'rmasa", "Kalomingdan" va "Dilkusho" (X.Azimov so'zi), "O'lmag'ay" (Navoiy g'azali), "Ko'ngil" va "Sir ishqim" (X.Yaxyoyev so'zi), "Ra'no gullari" va "Sog'inurman" (O.Xoldor so'zi) kabi ashulalar xonanda-hofizlarning sevimli asarlariga aylangan. Ijrochilik amaliyotida esa, munosib o'rinni topgan desak adashmagan bo'lamiz.

F.Mamadaliyev o'zining ijodida mumtoz musiqa ijodiyoti rivojiga ham kamtarona hissasini qo'shganligini e'tirof etish lozim. U "Miskin", "Munojot", "Ushshoq" kabi musiqiy namunalarni turkumlash borasida aniq natijalarga erishdi. "Umrzoq Polvon Ushshog'i" va "Zikru Ushshoq" (Qadimiy Ushshoq) kabi musiqaviy namunalarni, ustozlari talqiniga xos holda qayta ishlab tiklashga muvaffaq bo'ldi [4, 31-b.]. Bastakorlikda esa "Savt Fattoxon" turkumini bastalashga erishdi. F.Mamadaliyevning konsert ijrochilik faoliyati juda salobatli. Shulardan bir misol, 1998-yili Pxeniyan (KXDR)da o'tkazilgan Osiyo musiqa minbarida F.Mamadaliyev o'zining "Dardu dilim" ashulasini maromiga etkazib ijro etadi va bu jahon radio korporatsiyalari tomonidan targ'ib etish uchun tanlab olinadi. Buning siri ashulaning nihoyatta mohirona, tovush pardalarini aniq va ravon ijro etilganligida desak adashmagan bo'lamiz. Musiqani til, millat, din, irq tanlamasligini ushbu mohirona kuylangan asardan ham bilishimiz mumkin [1, 18-b.].

F.Mamadaliyevning xizmatlari hukumat tomonidan munosib taqdirlangan. "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" (1981), "O'zbekiston xalq hofizi" (1992) faxriy unvonlari, "Mehnat shuxrati" va "El-yurt hurmati" ordenlari bilan mukofotlandilar.

F.Mamadaliyev qiziqishlari keng, irodasi kuchli, xotirasi mustahkam, bilimlari teran, ilg'or tafakkurga ega inson edi. U milliy musiqamizning bilimdon ijrochilaridan bo'la turib, o'zbek xalqi hamda klassik she'riyatining ham zukko mushtariylari qatorida murakkab aruz vaznlari qonuniyatlaridan yaxshi xabardor edilar. Boz ustiga, hofiz tomonidan bitilgan yuzdan ortiq adabiy-she'riy namunalar bor bo'lib, bular esa o'z navbatida san'atkorning musiqiy ijodi va ijrochiligining tobora kamol topishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmay qolmagan.

Andijon viloyatining Xo'jaobod, Izboskan kabi tuman madaniyat uylarida, Andijon davlat pedagogika institutida havaskorlardan iborat "Maqomchilar ansambli" jamoalarini tashkil qildi. U yerda olib borgan faoliyati davomida ularga ustozlik va maslahatchi-ko'makdoshlik qilib turdi. Andijon shahar madaniyat uyi qoshida tuzgan "Maqomchilar ansambli" bilan birgalikda muntazam tarzda xalq xizmatida bo'ldi. Respublika va Xalqaro anjumanlarda, konsert gastrollarda va ko'rik tanlovlarda faol

qatnashdi. 1985-yildan boshlab umrining oxirgi damlarigacha O‘zbekiston davlat konservatoriyasining “An’anaviy ijrochilik” kafedrasida samarali faoliyat olib bordi. Mazkur kafedrada dastlab dotsent, 1993-yildan professor lavozimida yoshlarga saboq berdi. Uning sinfida Maryam Sattorova (O‘zbekiston xalq artisti), Soyib Niyozov (O‘zbekistonda xalq hofizi), Abror Parpiyev (Nihol mukofoti sovrindori) kabi ko‘plab iqtidorli san’atkorlar ta’lim va tarbiya olib, yosh mutaxassis sifatida etishib chiqdi va ular ham hozir elimiz sevgan san’atkorlar safidan joy oldi [1].

O‘ylaymizki, Fattohxon Mamadaliyev haqidagi mazkur ma’lumotlar o‘zining mazmundorligi jihatidan mutaxassislarni ham, milliy musiqamiz ihlosmandlarini ham befarq qoldirmaydi. Katta hayotiy va ijodiy yo‘lni bosib o‘tgan ko‘plab milliy musiqamiz darg‘alarini zabardast ustozlarni ko‘rgan, ular bilan muntazam yaqin muloqotda bo‘lgan, o‘gitlarini puxta o‘zlashtirgan Fattohxon hofiz o‘zining yuqori ilmiy malakasini xam namoyish qildi. Zero u ilmiy jihatda chuqur idrok etilgan, amaliy asoslarga ega bir nechta o‘ta dolzarb mavzu va masalalarni baholi qudrat yoritishga muvaffaq bo‘ldi.

Xulosa sifatida shuni alohida ta’kidlash joizki, o‘zbek milliy musiqasining an’anaviy maqom san’ati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan atoqli xonanda, xassos bastakor, jonkuyar ustoz, murabbiy, O‘zbekiston xalq hofizi, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professori F.Mamadaliyevning ijodiy merosini o‘rganish va undan o‘sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida foydalanish, F.Mamadaliyevning bosib o‘tgan ijod yo‘lini namuna sifatida ko‘rsatish foydadan holi bo‘lmaydi. O‘ylaymizki, bunday atoqli ulug‘insonlar bosib o‘tishgan ijod yo‘li biz yoshlarni musiqiy olam dunyosida ijod qilishimizda yo‘lchi yulduz vazifasini o‘taydi.

Adabiyotlar

1. Begmatov S. Hofizlik san’ati 2007. – 212 b.
2. Ibrohimov O. O‘zbek xalq musiqa ijodi (metodik tavsiyalar I qism). – Toshkent, 1994. – 168 b.
3. Matyoqubov O. “Maqomot”. – Toshkent: Musiqa nashriyoti, 2004. – 321 b.
4. Murodova D. Shashmaqom an’analari va zamonaviylik. – Toshkent: Musiqa nashriyoti. 2005. – 124 b.
5. Yuldoshev U.Y. Barkamol avlodni tarbiyalashda milliy musiqiy tasavvurlarning o‘ziga xos xususiyatlari // Buxoro shashmaqomi: tarixiy nazariy va amaliy masalalari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Buxoro: Durdona, 2019. – 187 b.
6. Yunusov R. Milliy musiqa ijrochiligi masalalari. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2001. – 170 b.
7. <https://arboblar.uz/ru/people/mamadaliyev-fattokhon>

TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASI VA UNI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Ismoilov E.O. – Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada integrativ yondashuv asosida talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish ilmiy asoslari keltirilgan. Kasbiy kompetensiya tushunchasi o‘zbek va xorijlik olimlarning bu tushunchaga bergan ta’riflaridan foydalanib, batafsil izohlab berilgan. Tahlillar natijasida talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda matematika, informatika va fizika fanlari integratsiyasidan foydalanish zarurligi to‘liq asoslangan.

Kalit so‘z: kompetensiya, kasbiy kompetensiya, integratsiya, fanlar integratsiyasi, integrativ yondashuv, fundamental bilim, o‘quv reja, interfaol metod, kasbiy moslashish, kasbiy shakllanish.

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ СТУДЕНТОВ И ЕЕ РАЗВИТИЕ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

Исмоилов Э.О. – преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В данной статье представлены научные основы развития профессиональных компетенций студентов на основе интегративного подхода. Подробно разъясняется понятие профессиональной компетентности с использованием определений этого понятия узбекских и зарубежных ученых. Анализ полностью обосновывает необходимость использования интеграции математики, информатики и физики в развитии профессиональных компетенций студентов.

Ключевые слова и понятия: компетентность, профессиональная компетентность, интеграция, интеграция дисциплин, интегративный подход, фундаментальные знания, учебная программа, интерактивный метод, профессиональная адаптация, профессиональное развитие.

PROFESSIONAL COMPETENCE OF STUDENTS AND ITS DEVELOPMENT BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH

Ismoilov E.O.- Teacher of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. This article presents the scientific basis for the development of students' professional competencies based on an integrative approach. The concept of professional competence is explained in detail using the definitions of this concept by Uzbek and foreign scholars. The analysis fully justifies the need to use the integration

of mathematics, computer science, and physics in the development of students' professional competencies.

Keywords: competence, professional competence, integration, integration of disciplines, integrative approach, fundamental knowledge, curriculum, interactive method, professional adaptation, professional formation.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi muassasalari faoliyati asosida insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi. Raqobatbardosh, bozor iqtisodiyoti sharoitlarida faoliyat ko'rsatish ko'nikma va malakalariga ega mutaxassis kadrlar tayyorlash muammolari bo'lg'usi mutaxassislarning kasbiy-texnik, umummadaniy, aqliy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi har bir ilm-fan bo'yicha o'qitish maqsadlari, mazmuni, metodlari va o'qitishning tashkiliy shakllari mohiyatini ilmiy asoslash jarayonida paydo bo'ladi. Zamonaviy fan asoslarini chuqur o'zlashtirish uchun, eng avvalo, matematika fani asoslarini to'laqonli o'rganish talab etiladi. Matematika va unga bog'liq (fizika, informatika, kimyo, biologiya va mexanika) fanlardan boshlang'ich tayyorgarlikka ega bo'lmagan talabaga o'qituvchi, har qancha tajribali, malakali ustoz bo'lmasin, baribir ushbu fanlar asosini samarali o'zlashtirishi uchun yordam bera olmaydi. Fan va texnika taraqqiyotini ta'minlash jarayonida bilimlarning roli nihoyatda oshayotganligi munosabati bilan har bir bo'lajak o'qituvchi bu boradagi yangi muammo va vazifalar ustida izlanishlar olib borishi, ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiya va metodlardan unumli foydalanishi, ish beruvchi talablariga tez moslasha olishi, nazariy bilim, ko'nikma va tajribalarni amaliyotga keng qo'llashi uchun chuqur bilimlarga ega bo'lishi lozimligini anglab etmoqda.

Bugungi kunga kelib jahondagi mamlakatlarning 70 foizi ta'lim tizimida integrativ xarakterdagi o'quv dasturlari va darsliklaridan foydalanib kelmoqda. Ta'lim integratsiyasidan foydalanish natijasida pedagogik, psixologik jihatdan ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda qulay shart-sharoit vujudga keladi; umumdidaktik talablar uzviylikda bajariladi; o'quvchining vaqti, kuchi tejaladi; ortiqcha ruhiy va jismoniy zo'riqishlarning oldi olinadi, ta'lim samaradorligi oshadi. O'quvchilar zarur ko'nikma va malakalarni, tushunchalar hamda bilimlarni o'quv predmetlari mazmunini uyg'unlashtirish natijasida har tomonlama chuqur o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar. Ta'lim jarayonida integratsiya ma'lum fan doirasida va fanlararo bo'lib, uni dars mashg'ulotlarida amalga oshirish *integrativ yondashish* jarayoni bo'lib xizmat qilishini ta'kidlab o'tamiz. Integrativ yondashuv mazmunan tutash, aloqador, mantiqiy bir-birini taqozo etuvchi va bir-biriga singib chuqurlashtiruvchi va kengaytiruvchi o'quv fanlarini integratsiyalash uchun qo'llanib, yaxlit mantiqiy mukammal bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy sifatlarni shakllantirishdan iborat.

Integrativ yondashuv turli fanlarni o'zlashtirishdan olingan bilim, ko'nikma, malaka va tajribalarni hisobga olish, tayanish, integratsiya qilish, chet tillarda muloqot, kasbiy shakllanish, kasbiy moslashish, kasbiy kommunikativlik, kasbiy kompetentlikni baravar rivojlantirish.

Oliy ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan turli mutaxassislik fanlariga nisbatan matematika, informatika va fizika fanlarini o'qitish uchun ajratilgan vaqt, hajmiga ko'ra, mazkur fanlar ichida yetakchi o'rinni egallaydi. Ular ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida talabalarga o'zlari tanlagan mutaxassisliklarning fan-texnika taraqqiyoti jarayonidagi o'rni va ahamiyatini anglashga yordam beradi, shuningdek, talabalarda matematika, informatika va fizika fanlariga oid bilimlaridan kasbiy muammolarni hal etish vositasi sifatida foydalanishi mumkinligiga nisbatan ishonchning qaror topishini ta'minlaydi. Matematika, informatika va fizika fanlariga oid bilimlar talabalar ijodiy tafakkuri, kasbiy kompetensiya doirasini kengaytirib, ularda matematik modellashtirish metodi hamda o'rganilayotgan hodisalarning natijalarini oldindan tashxis qilish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yordam beradi [1; 36-37-b.]. Bularning barchasi oliy ta'lim muassasalarida matematika, informatika va fizika fanlarini o'qitishni tashkil etish ko'lamini kengaytirish, talabalarining kasbiy xususiyatlarini rivojlantirish, nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarini o'zaro uyg'unlikda shakllantirishni taqozo etadi. Shu bilan birga matematika ta'limi jarayonida o'zlashtirilayotgan materiallar umumkasbiy va ixtisoslik fanlari vositasida talabalarining kasbiy tayyorgarliklarini takomillashtirishning ayrim umumiy qoidalarini yoritishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilari tomonidan o'rganilgan nazariy va amaliy bilimlar darajasiga nisbatan qo'yilayotgan talablar integrativ yondashuv asosida o'qitishda ma'lum o'zgarishlarni amalga oshirilishiga sharoit yaratmoqda. Matematika, informatika va fizika fanlarining amaliy ahamiyati hamda talabalarining fundamental tayyorgarlik darajasini oshirish zaruriyati tug'ilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida matematika, informatika va fizika fanlarining o'qitilish saviyasini oshirish uchun har bir ixtisoslik bo'yicha aniq, mukammal dastur tuzilishi zarur.

Umumiy matematika ta'limi mutaxassislar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan oliy matematika fani uchun asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Mazkur holat turli ixtisosliklar bo'yicha yaratilgan o'quv rejalarida ko'zda tutilgan umumnazariy va maxsus fanlar asoslarini talabalar tomonidan muvaffaqiyatli o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Oliy ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan matematika, informatika va fizika fanlari dasturi hozirgi zamon ta'limiga qo'yiladigan yangi talablarni o'zida aks ettiradi. Amaliy yo'nalganlik va talabalarni amaliy masalalarni echa olishga yo'llash kabi

xususiyatlarga egaligi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Matematika, informatika va fizika fanlarining mazmuni katta miqdordagi bilimlar majmuidan iborat bo'lib, uni o'rganish uchun ajratilgan vaqt esa cheklangan. Mazkur holat talabalarning bilimlar majmuini mukammal o'zlashtirishlariga imkon bermaydi. Oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiluvchi ta'lim jarayonida matematika, informatika va fizika fanlari bilan bog'liq muammolar orasida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1) mutaxassisning matematik bilimi mazmunini hozirgi zamon texnikasi va ishlab chiqarish ehtiyojlariga yaqinlashtirish;

2) matematika, informatika va fizika ta'limi hamda mutaxassislik fanlari o'rtasida uzviylikni ta'minlash;

3) bo'lajak mutaxassis ehtiyojlari hamda matematika, informatika va fizika fanlariga mos dastur va darsliklar yaratish;

4) o'quv materialining bayoni usullarini takomillashtirish va o'qitish jarayonida talabalar faolligini oshirish;

5) o'qitishning interfaol metodlarini yaratish;

6) mutaxassislik kafedralari o'qituvchilarining matematik savodini oshirish;

7) maxsus kafedralarda oliy ta'lim muassasalarining ixtisosliklari bilan bog'liq ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish;

8) mutaxassislik (sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va h.z.) xodimlari faoliyati uchun matematika, informatika va fizika fanlaridan zarur bo'lgan yo'l-yo'riqlar berish;

9) ish beruvchi talabalaridan kelib chiqib fanlarning o'zaro integratsiyasini tashkil etish.

Yuqorida sanab o'tilgan muammolarning hal etilishi bo'lajak mutaxassis ehtiyojlariga imkon boricha yaqin bo'lgan matematika, informatika va fizika fanlari ta'limi mazmunini takomillashtirishni talab qiladi [2; 134-136-b.]. Masalan, bo'lajak mutaxassisning matematik tayyorgarligi yuzasidan ishlab chiqilgan dastur birinchi navbatda kursning mantiqiy matematik yaxlitligini emas, balki talabalar tanlagan ixtisoslik ehtiyojlarini ham hisobga olishi zarur. Biroq hozirgi zamon matematikasining ba'zi umumiy g'oyalarini kadrlar tayyorlash uchun mo'ljallangan o'quv fanlari dasturlariga singdirish lozim. Turli mutaxassislar tayyorlash uchun dasturlar matematika fanining qismlari bo'yicha qay darajada bilimlar hajmi talab qilinishi asosida yaratilishi zarur [3; 250-251-b.]. Oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan matematika fani dasturi mazmunida, eng avvalo, tabiat hodisalari va texnik jarayonlar, ularning o'rganilishi, matematik masalalarning qo'yilishi, yangi matematik tushunchalarning yaratilishi hamda matematik nazariyalarning amaliyot bilan uzviylikni tizimli ifoda etish lozim. Matematika fani bo'yicha dastur talabalarga mukammal ta'lim beradigan, ularning mantiqiy xatolik va asoslanmagan xulosalarni chiqarishlariga yo'l qo'ymaydigan tarzda tuzilishi lozim.

Bugungi kunda malakali mutaxassislarni tayyorlashda ba'zi qiyinchiliklar mavjud bo'lib, ular tarixiy, madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy sabablar bilan bog'liq. O'qitish tizimining ayrim jihatlari, xususan, auditoriya tizimi, ta'lim oluvchilarni o'qitish va tarbiyalash dasturini umumlashtirish, o'quv dasturlari mazmunini o'rtacha darajadagi bilimlarga ega bo'lgan talablarga moslashtirish o'z ahamiyatini yo'qotdi. Bu sohada anchagina ishlar qilingan bo'lsa-da, ular yetarli emas. Yuqori malakali, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan, hozirgi zamon talablari asosida fikrlay oladigan yetuk kadrlarni tayyorlash ham ijtimoiy-siyosiy, ham iqtisodiy muammolarni hal etishning kaliti hisoblanadi. Davlat o'zining intellektual salohiyatini shakllantirish, undan samarali foydalanish, ta'lim muassasalarini bitirib chiqayotgan yoshlarga bo'lgan ehtiyojni ta'minlash uchun mas'ul bo'lib qolishi lozim. Tabiiy, umumiy, aniq va umumta'lim fanlari talablari asosida bitiruvchi talabalar ishlab chiqarish va boshqarish holatini aniqlashning ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy ko'rsatkichlarini tahlil qilish va umumlashtirish xususiyatlarini, murakkab tizim va jarayonlarni matematik modellashtirishni bilishi lozim. Barcha fanlarni o'qitish tizimli muvofiqlashtirilgan bo'lishi, bu yagona maqsad – davr talablariga muvofiq kasbiy moslasha oladigan tarmoqli mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan bo'lmog'i lozim. Ta'lim sifatini oshirish – bu bugungi kunda butun jahon hamjamiyatidagi eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Uni hal etish uchun esa, ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, ta'lim jarayoni texnologiyalarini va so'zsiz ta'limning yakuniy maqsadini qayta ko'rib chiqish talab etiladi. Ta'limni jamiyat madaniyatini o'zlashtirish asosida ta'lim oluvchilar faoliyatini turli sohalarda, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni mustaqil hal etish qobiliyatini rivojlantirishning maxsus tashkil etilgan jarayoni sifatida qarash mumkin. Ta'lim maqsadini bunday tushunish esa, o'z navbatida kompetentli yondashuvni ro'yobga chiqarish uchun asos yaratadi.

Shu kontekstda psixologik-pedagogik nazariya va amaliyotda “kompetensiya” va “kompetentlilik” atamasini tushunishga turli yondashuvlar amalga oshiriladi. Xorijiy so'zlar lug'atida “kompetentli” tushunchasi qandaydir muassasa vakolati doirasida, shaxs yoki o'z echimini talab qiluvchi masalalar, shaxslar doirasida kompetensiyaga ega bo'lish sifatida ochib berilgan. Competent (fransuzcha) kompetentli, qonuniy huquqqa ega bo'lgan, competentia (lotincha) tegishli, layoqatli, competere (italyancha) talab qilish, mos kelish, yaroqli bo'lish, competent (inglizcha) qobiliyat (kompetensiya). Ko'rinib turibdiki, kompetentlilik va kompetensiya bir-birini to'ldiruvchi va bir-birini taqozo etuvchi tushunchalar hisoblanadi. Xorijiy tadqiqotchilar “kompetensiya” tushunchasini qobiliyatlar, bilim va malakalar majmui sifatida emas, balki aniq vaziyatga adekvat bo'lgan, ya'ni harakat borishining shartlari va maqsad bilan muvofiqlikda topshiriqni yuqori darajada bajarish uchun zaruriy barcha (bilim va malakalar, qobiliyat va psixik sifatlar tizimiga uyushtirilgan)

manbalarni safarbar qilishga qodirlik yoki tayyorlik sifatida sharhlaydilar (C.I.Beelisle, M.Linard, B.Rey, G.Le.Booterrf, L.Turkal, N.Guignon, M.Joras va boshqalar).

Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar nuqtayi nazaridan kompetentlik bo'lajak mutaxassisning muayyan vaziyatlarda bilim, ko'nikma va malaka, faoliyat metodlari majmuasini maqsadga muvofiq qo'llash qobiliyatini anglatadi. Pedagogik faoliyat nuqtayi nazaridan kompetensiya – bu bilim va vaziyat orasidagi aloqani o'rnatish imkoniyati yoki keng ma'noda muammoni hal etish uchun zarur bo'lgan jarayonni (harakat va bilim) ko'rsatish, topish qobiliyati. Kompetentlik faqatgina bilim va ko'nikmalar yig'indisi bo'libgina qolmay, talabalarning egallagan bilimlarini mobillashtirish va aniq vaziyatlarda tajribada qo'llay olishi bilan tavsiflanadi. Sh.B.Xasanova fikriga ko'ra talabalarda shakllantiriladigan kompetensiyalar uch darajaga ajratiladi: tayanch kompetensiyalar; umumiy (predmetli) kompetensiyalar; xususiy (biologik) kompetensiyalar. Biz kompetensiyalarni tayanch va asosiy kompetensiyalarga bo'ldik. Tayanch kompetensiya – bu o'z tavsifi va qo'llanilish darajasi bo'yicha. Asosiy kompetensiya esa, o'z tavsifi va qo'llanilish darajasi bo'yicha qaralayotgan mutaxassislikka mos keluvchi kompetensiya. Uni kasbiy kompetensiya deb ham atash mumkin. Tayanch kompetentlik oliy ta'limning har bir bosqichi uchun ta'lim bloklari va o'quv fanlari darajasida aniqlanadi. Tayanch kompetentlik tartibini belgilashda kasbiy pedagogik ta'limning asosiy maqsadlariga muvofiq ijtimoiy va shaxsiy tajribaning mohiyati, ijtimoiy jamiyatda kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida hayotiy ko'nikmalarni egallashda muhim ahamiyat kasb etadi. N.N.Narziyeva ta'kidlashicha, *tayanch kompetensiyalar* bilimlarni doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Talaba kasbiy faoliyat sohasida malakali bo'lishi uchun u tegishli kasbiy malakaga ega bo'lishi lozim. Kasbiy kompetensiya talabaning asosiy yetakchiligi, talabalarning ta'lim olishida o'z hissasini qo'shishi, keyingi hayotda muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam berishi, kasbiy faoliyatga o'rgatishi lozim.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi

ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda.

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

- o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi, ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi.

Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish talabalarning kasbiy tayyorgarligi, kasbiy shakllanishi va kasbiy moslashishi kabi muhim faoliyatlar jamlanmasi [4; 18-20-b.].

Kasbiy tayyorgarlik – zaruriy kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish asosida yuzaga keluvchi shaxs ijtimoiy kompetentligining o'ziga xos ko'rinishi sifatida izohlanadi. Kasbiy tayyorgarlik o'z-o'zidan yuzaga kelmay, balki aniq maqsadlar asosida rejalashtirilgan muayyan bosqichlarni qamrab oladi. Shaxsda kasbiy tayyorgarlikning shakllanishi dastlab kasbga mos tasavvur, tushunchalarni tarkib topganligi bilan belgilansa, keyinchalik mutaxassislikka oid bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishi, kasbiy sifatlarning qaror topishi hamda kasbiy moslashishi darajasi bilan izohlanadi. Kasbiy moslashish – obyektiv va subyektiv ta'lim sharoitida bo'lajak mutaxassis shaxsining kelgusidagi kasbiy faoliyat talablarini o'zlashtirishi, faoliyat jarayoniga moslashishi, kasbiy layoqatlilik darajasi. Kasbiy shakllanish shaxs kamolotining muhim jihatlaridan biri bo'lib, uning faqat texnologik va kasbiy faoliyatni tanlash bilan bog'liq ehtiyoj va qiziqishlarini ifodalaydi. Kasbiy sifatlarning mazmuni va uning shakllanishi mehnat faoliyati yoki kasb sohasining aniq turini tanlash bilan bog'liq bo'lib, aniq va ongli ravishda qabul qilinadigan qarorning ifodalanishidir.

Xulosa qilib aytganda, kasbiy kompetensiya kasbiylikning muhim tavsifi bo'lib, bu asosiy fundamental ilmiy bilimlar to'plamiga, talabalarning kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli bajarishga tayyorligi va qobiliyatini namoyish qiluvchi amaliy ko'nikmalarga asoslangan birlashtiruvchi shaxsiy sifat deb qarash mumkin. Har qanday ixtisoslik bo'yicha bo'lajak mutaxassisning faoliyati muhim ahamiyatga ega. Masalan, bo'lajak mutaxassis kasbiy muammolarni hal qilish uchun muammoning yalpi echimlarini izlab chiqishi, variantlarni tahlil qilishi, oqibatlarini bashorat qilishi, multimezon sharoitida murosali echimlarni topishi, noaniqlik,

loyihani takomillashtirish kabi masalalarni hal qilishi lozim. Buni amalga oshirishda asosan kasbga yo'naltirilgan vazifalar ishlab chiqiladi va ularning ta'lim mazmunidagi o'rni aniqlanadi. O'qitishning shakllari va usullari tanlangach, bunday vazifalar bilan integratsiyalashuv yo'llari va kasbiy kompetensiya mahoratlari rivojlantiriladi. Matematika, informatika va fizika fanlari o'zaro bog'liqligi kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradi va bo'lajak mutaxassislarni sifatli tayyorlashni ta'minlaydi [5; 105-b.].

Adabiyotlar

1. Ismoilov E.O., Tangirov A.E. Opportunities to develop students' professional competencies based on the integration of disciplines // International Journal on Integrated Education (ISSN 2620-3502) (Journal impact factor 7.242). – Indonesia, 2022. Volume 5, Issue 3, March 2022. – P. 36-44.

2. Ismoilov E.O., Tangirov A.E., Ruzmanov Sh.U. Ta'limda matematikani o'qitish jarayonida axborot texnologiyalari va kompyuter matematikasi tizimlaridan foydalanish // Ta'lim, fan va innovatsiya. – Toshkent, 2020. – № 2. – B. 133-138.

3. Ismoilov E.O., Ruzmanov Sh.U. Ta'lim tizimida fanlar integratsiyasidan foydalanish afzalliklari va imkoniyatlari // Mashinashunoslikning dolzarb muammolari va ularning echimi: Resp. ilmiy amaliy konf. material. – Toshkent, 2019. 20-21 noyabr 2019 yil. – B. 250-252.

4. Alimatova G.R. Kollej o'quvchilarining matematik tayyorgarligini kasbga yo'naltirish metodikasi. Avtoref. dis. ped. fan. nom. – T., 2004.

5. Исмоилов Э.О., Саттаров А.П. Физика ва математика фанлари алоқадорлиги // Физика, математика ва информатика. – Тошкент, 2014. – № 1. – Б. 103-105.

INTENSIV TA'LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH MODELII

**Pulatova D.R. - Toshkent davlat pedagogika universiteti “Ingliz tili
amaliy kursi” kafedrasida dotsenti v.b.**

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarida intensiv ta'lim texnologiyasi asosida kommunikativ kompetensiyalarni takomillashtirish modeli va mazmuni yoritib berilgan bo'lib, kompetentlilik yondashuvi o'qitishning yakuniy maqsadi va natijasini istiqbolli tarzda ko'rishni ta'minlaydi hamda o'qitishning natijaviyligiga yo'naltiradi.

Kalit so'zlar: ta'lim shakllari, ta'lim metodlari, ta'lim vositalari, intensiv ta'lim texnologiyasi, kommunikativ kompetensiya.

МОДЕЛЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИИ ИНТЕНСИВНОГО ОБУЧЕНИЯ

Пулатова Д.Р. – и.о. доцента кафедры «Практического курса английского языка» Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В данной статье описаны модель и содержание совершенствования коммуникативных компетенций студентов вузов на основе технологии интенсивного обучения.

Ключевые слова: формы обучения, методы обучения, средства обучения, технология интенсивного обучения, коммуникативная компетентность

A MODEL FOR IMPROVING COMMUNICATIVE COMPETENCIES BASED ON INTENSIVE LEARNING TECHNOLOGY

Pulatova D.R. – acting associate professor of the Department of "Practical course of English" Tashkent state pedagogical university

Annotation. This article describes the model and content of improving communicative competencies of students in higher education on the basis of intensive learning technology, the competency approach provides a perspective view of the ultimate goal and outcome of training and focuses on learning effectiveness.

Keywords: forms of learning, learning methods, means of teaching, intensive learning technology, communicative competence.

Intensiv ta'lim texnologiyasi asosida o'qitish sifatini oshirish bo'yicha o'quv faoliyati bilishga doir jarayonlarning rivojlantirilishiga, ya'ni kognitiv tayyorgarlikni shakllantirishga qaratilishi lozim. Intensiv ta'lim texnologiyasi asosida o'qitish sifatini oshirishga tayyorgarlikning barcha turlarini shakllantirishning shart-sharoitlari quyidagicha:

1. Guruhda talabalarni o'qitishning asosi bo'lib jamoaviy o'zaro harakatlar, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish, tabiatga mos holda o'qitish, o'qitish faolligi tamoyillari kabilar hisoblanadi.

2. Intensiv ta'lim texnologiyasi asosida o'qitish sifatini oshirishni shakllantiruvchi maxsus o'quv kursi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

motivatsion tayyorgarlikni shakllantirish;

kognitiv tayyorgarlikni shakllantirish;

ijtimoiy tayyorgarlikni shakllantirish.

3. Tayyorgarlikni shakllantirish bo'yicha o'quv faoliyati monitoringi.

Keyingi vazifa bo'lib aniqlangan pedagogik shart-sharoitlarga asoslanadigan va Oliy ta'lim muassasasitalabalarining intensiv ta'lim texnologiyasi asosida o'qitish sifatini oshirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni modellashtirish hisoblanadi.

"Model" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, "modulus" namuna, o'lcham, me'yor kabi ma'nolarni anglatadi [1; 387-b.].

"Model" atamasi aniq bitta ta'rifga ega emas. Ko'plab mualliflar tomonidan model o'rganilayotgan obyekt, uning qismlari, belgilarini "imitatsiyasi", "taqlid qilinishi", "qayta tiklash" tushuniladi.

Kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish modeli shaxsga yo'naltirilgan kompetentli, kommunikativ, differensiyalashgan didaktik ta'lim jarayoni faolligi darajasini baholashning motivatsion, kognitiv va kasbiy mezonlarini rivojlantirish, korpus turlari bo'yicha ilg'or ta'lim texnologiyalarining to'g'ridan-to'g'ri va asinxron holatlarini yaratish asosida takomillashtirilgan.

Pedagogik jarayonni yaxlit tizim sifatida olib qarash bilan tizimli-faoliyatli yondashuvga (M.S.Burgen, V.A.Dmitrienko, V.V.Kraevskiy, F.Rashidova, I.Siddiqova, I.Tuxtasinov, M.To'xtaxodjayeva va boshqalar) asoslangan holda tadqiqotning belgilangan maqsadini hal qilishga qaratilgan, unga kiradigan elementlar jamlanmasini aniqladik [3,4,5,6,7,8,9].


Pedagogik jarayon modeli intensiv ta'lim texnologiyasi asosida o'qitish samaradorligini oshirishning pedagogik shart-sharoitlarini ta'minlaydi va mos holdagi tizimli komponentlardan – ijtimoiy buyurtma, maqsad, nazariy yondashuvlar (zaxiraviy imkoniyatlar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetentli yondashuvi) kabilardan iborat bo'ladi hamda quyidagi shart-sharoitlarni yaratadi:

- bloklardan iborat bo'lgan va faol o'zaro ta'sirlashuvlar (muammoli topshiriqlar, o'yinlar, treninglar)ning shakllari hamda metodlariga asoslanadigan maxsus o'quv kursni amalga oshirish;

- pedagogik jarayonning korreksiyalanishini va tayyorgarlik shakllanishining monitoringini tashkil etish.

Bularning natijasi bo'lib oliy ta'lim muassasalari talabalarini intensiv ta'lim texnologiyasi asosida kommunikativ kompetensiyani samaradorligini oshirish hisoblanadi. Shunday qilib, intensiv ta'lim texnologiyasi asosida o'qitish sifatini oshirishga yordam beruvchi pedagogik shart-sharoitlarning nazariy asoslanishidan iborat bo'lgan tadqiqot vazifasini amalga oshira turib, biz uchta ilmiy yo'nalishlarda – zaxiraviy imkoniyatlar, kompetentli yondashuv va shaxsga yo'naltirilgan o'qitishga to'xtaldik.

O'quv jarayoni davomida o'z tajribasini orttiradigan va o'zini o'quv faoliyatida namoyon qiladigan va shaxsga yo'naltirilgan o'qitish jarayonida talabaning zaxiraviy imkoniyatlari rivojlanadi.



1-rasm. Intensiv ta'lim texnologiyasi asosida kommunikativ kompetensiyalarini takomillashtirish modeli

Kompetentlilik yondashuvi o'qitishning yakuniy maqsadi va natijasini istiqbolli tarzda ko'rishni ta'minlaydi hamda o'qitishning natijaviyligiga yo'naltiradi.

Intensiv ta'lim texnologiyasi asosida muloqotni o'rganishda oliy ta'lim muassasalari talabalari ma'lum bir qiyinchiliklarga duch keladilarki, ular turli xil darajali muammolarni anglash va paydo bo'lish sabablariga ko'ra qiyinchilik turlarini tasniflash imkonini berdi:

kommunikativ xususiyatdagi qiyinchiliklar;

bilishga doir jarayonlarning yetarlicha rivojlanmaganligi bilan bog'liq qiyinchiliklar;

talaba shaxsining individual o'ziga xosliklari bilan bog'liq qiyinchiliklar;

o'qituvchi shaxsiga va o'quv jarayonida qo'llaydigan texnologiyalarga bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar.

E.N.Gusinskiy va Yu.I.Turchaninoyalarning ta'rifiga ko'ra, "model" – bu ongda yoki amaliyotda originalning o'rnini bosuvchi "vakil"dir [2; 224-b., 123]. Model originalning namunasini namoyon qilib, u belgilar bilan, moddiy namunadagi sxemalar, chizmalar, grafiklar ko'rinishida ifodalanishi mumkin. Model originalning o'rnini bosib, u haqidagi axborotlarni beradi, biroq bunday analog aynan tenglik hisoblanmaydi.

Nazariy konstruksiyasini yaratishda tadqiqot maqsadlarida foydalanish uchun sun'iy ravishda yaratilgan model "Pedagogik model" deb ataladi.

Biz ilmiy abstraktning shakli bo'lgan modellashtirishni ingliz tilini intensiv ta'lim texnologiyasi asosida o'qitish sifatini oshirish jarayonini yaxlit holda tasavvur qilish zarurati bo'yicha va ingliz tilini intensiv ta'lim texnologiyasi asosida o'qitishga tayyorgarlikni shakllantirish bilan o'qitish shart-sharoitlarining funksional aloqadorliklarini aks ettirish uchun tanlab oldik. Modelni tuzishda uning nazariy yondashuvlarini, tamoyillarini, g'oyalarini, uni tuzish jarayonlarining ketma-ketligiga rioya qilishni kiritdik (1-rasmga qarang).

Ijodiy yondashuvlar asosida biz oliy ta'lim muassasalari talabalarida intensiv ta'lim texnologiyasi asosida o'qitish sifatini oshirishning quyidagi pedagogik shart-sharoitlarini ajratib ko'rsatamiz: bular ichki motivatsion, kognitiv va ijtimoiy tayyorgarlikni shakllantirish bloklarini oluvchi kommunikativ kompetensiyani intensiv ta'lim texnologiyasi asosida o'qitishga tayyorgarlikni shakllantirishning maxsus o'quv kursi; o'quv kursda o'qitishning faol shakllari hamda metodlarini va o'zaro ta'sirlashuv metodlarini qo'llash; tayyorgarlikning barcha turlari shakllanishini monitoring qilib borish.

Tarkibida ijtimoiy buyurtma, o'qitish maqsadi, pedagogik jarayonning asosiy nazariy yondashuv, maxsus o'quv kurs vositasida talabalarning o'quv guruhini tashkil etishda amalga oshiriladigan shart-sharoitlar, o'quv jarayonini tashkil etish

shakli (o'zaro ta'sirlashuvning faol shakllaridan foydalanish) va tayyorgarlik komponentlari shakllanganligini monitoring qilib borishdan iborat.

Adabiyotlar

1. Нечаев В.Я., Добренъков В.И. Российская система развития личности/ Человек и современный мир. Человек и современный мир, место издания ИНФРА. – М., 2002. – С. 387-418. 2000. – 224 с.
2. Гусинский Э.Н. Введение в философию образования. – М.: Логос,
3. Тўхтаходжаева М.Х. ва бошқа. Педагогика. – Тошкент: Ўзб. файласуфлари миллий жамияти нашри, 2010.
4. Тухтасинов И.М. Таржимон тайёрлашда касбий компетенцияларни эквивалентлик ҳодисаси асосида такомиллаштириш.: Автореф. ... канд. пед. наук. – Т., 2018
5. Сиддиқова И.А. Методика преподавания английского языка. – Т., 2002.
6. Rashidova F.M. O'zbekiston uzluksiz ta'lim tizimida CEFRni tatbiq etishning konseptual-metodik asoslarini takomillashtirish (ingliz tili misolida): Dis. ... ped. fan. dok. – Т., 2017. – 309 s
7. Kraevskiy V.V. Metodologiya pedagogiki: noviy etap. – М.: Akademiya, 2006. – 393 s.
8. Dmitrienko V.A. Metodologicheskie osnovi prognozirovaniya pedagogicheskoy deyatelnosti. Voprosi obucheniya i vospitaniya. – Tomsk, 2000.
9. Burgin M.S. Ponyatie i funktsii metodologii pedagogiki / M.S.Burgin // Sovetskaya pedagogika. – 1990. – № 10. – S. 74 – 77.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARI MOTORIKASINING JISMONIY RIVOJIDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING O'RNI VA AHAMIYATI

Xakimjanova K.B. – Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilot tarbiyalanuvchilarini jismoniy rivojlantirishda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida axborotlar bilan ishlash, tahlil qilish, tanqidiy fikrlash, umumlashtirish, muammolarni hal qilish yo'llarini izlash, o'zgaruvchan vaziyatlarga moslashish kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy mashq, sport, metod, o'yin, muammo, tahlil, nazorat, multimedia.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФИЗИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ МОТОРИКИ ВОСПИТАННИКОВ ОРГАНИЗАЦИИ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Хакимджанова К.Б. - магистрант Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В этой статье освещены вопросы о физическом воспитании в физической культуре дошкольных образовательных учреждений, работе с информацией: анализ, критическое мышление, обобщение, нахождение способы решения проблем, адаптирование к изменчивым ситуациям.

Ключевые слова: физические упражнения, спорт, метод, игра, проблема, анализ, контроль, мультимедиа.

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE USE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN THE PHYSICAL DEVELOPMENT OF MOTOR SKILLS OF PUPILS OF THE ORGANIZATION OF PRESCHOOL EDUCATION

Khakimdjanova K.B. - master student of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. This article provides information on physical education in physical education for preschool educational institutions, work with information: analysis, critical thinking, generalization, finding ways to solve problems, and adapting to changing situations.

Keywords. exercise, sport, method, game, problem, analysis, control, multimedia.

Mamlakatimizda “Maktabgacha ta’lim vazirligi”ning tashkil etilishi bu yo’nalishda jiddiy islohotlar boshlanganligidan dalolat berib turibdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Koreya Respublikasiga davlat tashrifi doirasida “Maktabgacha ta’lim vazirligi” tomonidan yigirmaga yaqin uchrashuvlar o‘tkazilib, tajriba almashinuvlar amalga oshirildi. Ilg‘or Koreya tajribalari mufassal o‘rganildi, birgalikda kadrlar tayyorlash va ilmiy izlanishlar olib borish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

Yuqorida keltirilgan holatlar maktabgacha ta’lim sohasidagi jiddiy islohotlar amalga oshirilishini, yaqin kelajakda maktabgacha ta’lim sohasida pedagoglar uchun

maksimal qulay sharoitlar yaratilishi, pedagoglar ijtimoiy statusining oshishini, bolalar o'zlarini namoyon qilishlari uchun ijodiy muhit yaratilishi, xonalarning jihozlangan bo'lishi, boy adabiyotlar va rivojlantiruvchi o'yinlar ishlab chiqilishini va taklif qilinishi kabi qator innovatsion yondashuvlar va jarayonlar amalga oshirilishini taqozo qiladi.

Maqolamizda "5-6 yoshdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining jismoniy rivojida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish" haqida fikr yuritamiz.

Fikrimizcha, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish muammolarining ko'plab jihatlari atroflicha ishlab chiqilmagan va undan foydalanish metodikasi o'rganilmagan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish amaliy jihatdan yo'lga qo'yilmagan. Ilg'or chet el tajribalari o'rganilmagan, umumlashtirilmagan, amaliy faoliyatga joriy etilmagan. Prezidentimizning ta'biri bilan aytganda "Velosipedni yangidan kashf etish shart emas, ilg'or chet el tajribasi, masalan, Janubiy Koreya tajribasidan unumli foydalanish kerak" [1].

Kuzatishlarimiz va maktabgacha tarbiya muassasalardagi ahvolni o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, muhtaram Prezidentimiz tomonidan qo'yilgan muammolarni ijobiy hal qilish uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash zaruriyati mavjud. Bundan tashqari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida (uning barcha tiplarida) jumladan, bolalar bog'chalarida qator muammolar mavjudligini qayd etish kerak bo'ladi. Bular:

- ba'zi moliyaviy-iqtisodiy muammolar;
- maktabgacha yoshdagi bolalar uchun (o'zbek guruhlarida) kompyuterdan foydalanishning metodlari, psixologik-pedagogik asoslari, tashkiliy shakllarini ishlab chiqilmaganligi;
- axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tarbiyachilarning, xizmat qiluvchi xodimlarning yetarli darajada tayyorgarlikdan o'tmaganligi;
- kompyuter texnikasi bo'yicha texnik personalning hozircha (bolalar bog'chalarida) yo'qligi;
- dasturiy ta'minotning, xususiyl holda maxsus pedagogik dasturiy vositalarning (milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda) maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yaratilmaganligi;
- bog'cha bolalarining kompyuter bilan ishlashga tayyorlanmaganligi va kompyuterdan foydalanishda bolalar sog'ligini asrash texnologiyalarining yaratilmaganligi;

- istiqbolda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish dasturini ishlab chiqarish zaruriyati mavjudligini keltirishni lozim topdik.

Umidimiz shundan iboratki, yaqin orada bu borada qabul qilinadigan davlat qarori (dasturi va chora-tabirlar) yuqoridagi muammolarni ijobiy hal qilinishiga yo'naltirilgan bo'ladi. Eng asosiy e'tiborni maktabgacha ta'lim sohasida xizmat qilishga tayyorgarlanayotgan pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalari hamda maktabgacha ta'lim kollejlari o'quvchilarining amaliy faoliyatlarida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tayyorgarliklarini tubdan qayta ko'rib chiqish zaruriyati mavjud.

Qator xorijiy mamlakatlar tajribalari (Koreya, Xitoy, Rossiya va h.k.) shuni ko'rsatadiki, ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari davomida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari juda katta va istiqbollidir [2], [3].

Bog'chada jismoniy tarbiya bolalarni harakatga o'rgatish va jismoniy sifatlarni tarbiyalash demakdir. Maqsad jismoniy tarbiya vositasida bolalarning sog'ligini mustahkamlash va ularning to'g'ri jismoniy rivolanishlarini hamda shaxsiy hislatlarini tarkib toptirishdir, ya'ni jasoratlilik, qat'iyatlilik, tashabbuskorlik, topqirlik, irodaviylik, ongli intizomlilik, mehnatsevarlik, eng muhimi, vatanparvarlik kabi hislatlarni tashkil toptirishdir.

Qator rivojlangan mamlakatlardagi ilg'or tajriba namunalarini (texnologiyalarni) o'rganish, tahlil qilish asosila ta'kidlash mumkinki, ijtimoiy rivojlanishning, fan-texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish eng istiqbolli yo'nalishlardan biridir degan xulosani aytishga haqlimiz.

Ma'lum qiyinchiliklarga qaramasdan bog'cha tarbiyachilari orasida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga qiziqish katta. Ularning fikricha mashg'ulotlar jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jismoniy tarbiya sohasining mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllariga jiddiy o'zgarishlar kiritish mumkin.

O'rganilgan, tahlil qilingan manbalarga asoslanib aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim muassalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishlarning asosiy istiqbolli yo'nalishlari quyidagilarda namoyon bo'lmoqda. Ular:

- jismoniy tarbiyaning turli bo'limlari bo'yicha nazorat etuvchi va o'z-o'zini nazorat qiluvchi dasturiy vositalarni yaratish va ulardan foydalanish;
- multimediali o'rgatuvchi tizimlar yaratish;
- ma'lumotlar ba'zasini yaratish va undan foydalanish;
- psixodiagnostikaning avtomatlashgan metodlardan foydalanish;

- funksional diagnostikani yaratish va undan foydalanish;
- tarbiyalanuvchilarda patologik holatlarni korreksiyalashning avtomatlashgan metodlardan foydalanish kabilar.

Biz yuqorida qayd etganimizdek, kompyuter nafaqat bog'cha bolalarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki ularda *motorikani*, shuningdek, ko'z analizatorlarining koordinatsiyasini shakllantiradi.

Aksariyat ota-onalar bog'chada tarbiyalanayotgan bolalarning jismoniy xatti-harakatlarni beo'xshov, qo'pol bajarishlaridan shikoyat qilishadi. Shuningdek, ular murakkabroq jismoniy mashqlarni qiyinchilik bilan takrorlashlarini qayd etishadi. Ba'zi bolalar hatto 5-6 yoshda ham chap va o'ng tushunchalarini farqlay olishmaydi. Bunday holat bolalarning aqliy zaif yoki aqliy rivoji kechikganligini bildirmaydi, ammo bunday holat o'z-o'zidan bartaraf bo'lib qoladi, degan fikr ham noto'g'ri. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, bunday kamchiliklarni bartaraf etishda kompyuter texnikasining imkoniyatlari katta.

Tarbiyalanuvchilarda sog'lom turmush tarzi bo'yicha tushunchalarni shakllantirish ularning ijtimoiy hayotga moslashuvlarida, mikro va makro muhitning ularga salbiy ta'sirlarini kamaytirish garovidir. Bunga misol sifatida ba'zi xususiy bog'chalarda foydalanilayotgan (технология БОС "Дыхание" (БОС-биологической обратной связи) texnologiyasini keltirish mumkin. Keyingi davrda BOSni qo'llash yangicha rivojlanishni namoyon etmoqda. Bunda ayniqsa, kompyuter vositasida ovozli yoki ko'rgazmali vositalar yordamida bolalar o'z holatini (jismoniy holatini) o'zi nazorat qilishi ta'kidlangan. BOS uskunalari yordamida tayanch-harakat apparati bilan bog'liq kasalliklarni davolash, nafas olishni va yurak qon tomir tizimlari faoliyatini mo'tadillashtirish, ko'z ko'rishining o'tkirligini korreksiyalash mumkin bo'lmoqda.

Jismoniy tarbiyani amalga oshirishda, ayniqsa, harakatlanish ko'nikmalarini shakllantirishda BOS texnologiyasidan samarali foydalanilayotganligi haqida qator ilmiy manbalarning ma'lumotlari mavjud.

Rossiyalik tadqiqodchi S.N.Kuchkinning ta'kidlashicha, BOS metodi quyidagilarni amalga oshirishga imkon yaratadi:

- bolaning o'z-o'zini boshqarish malakalarini tez va samarali egallashiga yordam beradi;
- uyquni yaxshilaydi, ishchanlik qobiliyatini oshiradi, diqqatni va xotirani tezkor jamlanishiga xizmat qiladi;
- surunkali bosh og'rig'i va migrendan xalos etadi;
- intellektual va jismoniy faoliyatni natijaviyligini oshiradi;
- kayfiyatning o'zgarishini nazorat qilishni ta'minlaydi;
- qator kasalliklarda qo'llaniladigan dori-darmonlardan xalos etadi;

– bolalar va o‘smirlarda diqqatni va giperaktivlik sindromini dori-darmonsiz samarali davolaydi.

Sankt-Peterburg shahridagi “Biosvyaz” firmasi 1996-yili BOS “Дыхание” trenajerni ishlab chiqib, iste’molga taklif qilgan. O‘rni kelganda ta’kidlash lozimki, OLIY TA’LIM MUASSASASIIlarda, o‘rta maxsus ta’lim va o‘rta umumta’lim maktablari, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil qilishdan oldin talaba yoshlarni, o‘quvchilarni, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish zarur. Yuqorida keltirilgan “Дыхание” trenajeridan ushbu maqsadda samarali foydalanish mumkin [4].

Albatta, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining jismoniy rivojida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish muammolarini hal qilish uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglar va tarbiyachilar alohida maqsadli maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan bo‘lishlari zarur.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish 5-6 yoshli bog‘cha bolalarida ijodiy va jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish vositasidir.

Tarbiya jarayonida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiya jarayonining mazmunini va rejasini tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqazo etadi. Bunda hamma uchun tanish bo‘lgan bir necha tamoyillarga amal qilish zarur. Bular uzluksizlik, yetarlilik, ketma-ketlilik va ba’zi amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish tamoyillaridir. Ushbu maqolada imkoniyatimiz darajasida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining jismoniy rivojida axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish ba’zi muammolari va echimlari borasidagi qarashlarimizni bayon etishga harakat qildik.

Adabiyotlar

1. <http://kun.uz/news/2017/11/24/maktabgacha-talim-vazirligida-korea-modeli-elementlari-kullaniladi-Sh.M.Mirziyoyev>
2. Загвязинский В.И., Атаханов Р. Методология и методы психолого-педагогического исследования. Учеб. пособ. — М.: Академия, 2001.- 208 с.
3. М.П. Шестаков, К.В. Анненков, Е.Т. Антохина. Современные компьютерные технологии в развитии спортивной науки //Теория и практика физической культуры., 1996-№ 8.-43-45 с.
4. А.А. Сметанкин, президент Российской Ассоциации БОС, один из создателей технологии БОС. (<http://dyhatelnaya.ru/po-smetankinu/dyihanie-po-smetankinu.html>). 25.01.2018 й.да олинган.

“TARIXIY O‘LKASHUNOSLIK” TA’LIMI TIZIMIDA EKOLOGIK TARBIYANING MUHIM JIHATLARINI O‘RGANISH USULLARI

Mulladjanova R.A. – Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti

Annotatsiya. “Tarixiy o‘lkashunoslik” ta’limi tizimida ekologik tarbiyaning muhim jihatlari o‘rganish usullari, o‘qitish jarayonida ekologik tarbiyani qo‘llash bugungi kunda asosiy rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada dars jarayonida talabalarga mehnatsevarlik, o‘lkamizning ekologiyasiga javobgarlik hissini uyg‘otish va e’tiborli bo‘lish kabi o‘qitish usullari va metodlari o‘z aksini topgan. Shuningdek, ushbu maqolada afsonaviy, tarixiy yozma manbalardan biri “Avesto”da keltirilgan suv va uni asrash to‘g‘risidagi fikr va mulohazalar orqali talabalarda ekologik tarbiyani mohiyatini tushuntirish o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: metod, amaliy dars, munozara, o‘qitishning innovatsion metodlari.

МЕТОДЫ ИЗУЧЕНИЯ ВАЖНЫХ АСПЕКТОВ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В СИСТЕМЕ ОБУЧЕНИЯ ИСТОРИЧЕСКОМУ КРАЕВЕДЕНИЮ

**Мулладжанова Р.А. - доцент Ташкентского государственного
педагогического университета**

Аннотация. Сегодня методы изучения важных аспектов экологического воспитания в системе обучения историческому краеведению, применение экологического воспитания в процессе обучения играют важную роль. В данной статье приводятся методы и приемы обучения студентов, основанные на воспитании нравственности, ответственности, трудолюбия и эстетического отношения к нашему краю. Также в статье приводятся сведения, написанные в легендарной книге «Авеста» о воде, и бережному отношению к ней. Всё это должно способствовать поднятию экологического воспитания среди студентов.

Ключевые слова: метод, практическое занятие, дискуссия, инновационные методы преподавания.

METHODS OF STUDYING IMPORTANT ASPECTS OF ECOLOGICAL EDUCATION IN THE SYSTEM OF EDUCATION "HISTORICAL LOCAL STUDIES"

**Mulladjanova R.A. - Associate Professor of Tashkent State Pedagogical
University**

Annotation. Methods of studying ecological education in “Historical regional studies”. Today the great role in studying plays ecological education. In this article, the author discovers methods and actions of studying students, which are founded on breeding, morality, responsibility, hardworking and an aesthetically conscientious attitude to our nature. And also this article shows us information about water and how people care about it. It all was written in the legend book “Avesta”. All this promote students to learn and take care of their own nature.

Keywords: method, practical lesson, discussion, innovative teaching methods

Bugungi kunimizda fanning biror sohasi yo‘qki, u ekologiya muammolarini hal etishda chetda qolgan bo‘lsa. Shunday ekan, istiqlol sharofati bilan O‘zbekiston Respublikasi oliy o‘quv yurtlari, qolaversa, maktablarning o‘quv rejalarida o‘zining qonuniy o‘rnini egallagan O‘zbekiston xalqlari tarixi, shuningdek, “Tarixiy o‘lkashunoslik” kursini o‘qitishda o‘quvchilarga ekologik ta‘lim-tarbiya berish ham chetda qolishi mumkin emas.

Shuni alohida qayd etish lozimki, hozirgi vaqtda inson bilan uni o‘rab turgan muhitning tuzilishi va xususiyatlariga, shuningdek, ekologik omilning insonni jismoniy va ruhiy holatiga ta‘sir kuchini tadqiq etadigan sotsial ekologiyaning mohiyati tez sur‘atlar bilan o‘sib bormoqda.

Sotsial ekologiya quyidagi asosiy qoidalarga asoslanadi: “Tabiat, Jamiyat va Inson” yagona bir butunlikni tashkil etadi; inson tabiatni bir qismi, uning rivojlanishi tabiatni o‘zgartirish inson hayotining asosini tashkil etadi; tabiat tarixi bilan jamiyat tarixining birligi mehnat jarayonida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy qonunlarga nisbatan tabiat qonunlari birlamchidir; Yangi ekologik madaniyatning rivojlanishi shaxsning tabiatga nisbatan yuqori darajadagi ma‘suliyatini ifodalaydi. Tabiatga yangicha madaniy munosabatning shakllanishi to‘la mazmundagi gumanizm g‘oyalarini o‘zida mujassamlashtiradi. Tabiat qonunlarini oyoq-osti qilish faqat yaqin foydaga intilish, xalq mablag‘larini sarflashda isrofgarchilikka yo‘l qo‘yish, shuningdek, tabiatga o‘z shaxsiy talabi nuqtayi nazaridagina yondashish gumanizmga qanchalik yod bo‘lsa, tabiatga nisbatan ham shunchalik ziddir.

Sotsial ekologiyaning insonparvarligi, ayniqsa, pedagogika faniga yaqindir. Ta‘lim – tarbiyaning hamma yo‘nalishi yangi avlodni ilgaridan an‘anaga kirgan g‘oya - “tabiat in‘omidan to‘la foydalanish kerak”, “biz tabiatdan xayr-ehson kutib o‘tirmaymiz, uni o‘zimizga bo‘ysundiramiz!” g‘oyalari bilan aloqasini batamom uzib tashlab, tabiatni himoya qilish va uning in‘omlaridan avaylab, unga zarar etkazmasdan foydalanishni taqozo etadi.

“Tarixiy o‘lkashunoslik” kursini o‘qitishda tashkil etiladigan darslar yosh avlodda tabiatga nisbatan doimo g‘amxo‘rlik qilish, uning in‘omlarini ardoqlab saqlash kabi madaniy hislatlarni tarbiyalab kamolga etkazmog‘i keark.

Ekologik madaniyat talaba-yoshlarimizni ijtimoiy faolliklarining ifodasi, mustaqil O‘zbekistonimiz tabiiy boyliklarini ko‘z qorachig‘idek saqlash va ko‘paytirish borasidagi vatanparvarlik harakatlarining sarchashmasi bo‘lmog‘i darkor.

Ekologik ta‘lim-tarbiya umumiy ta‘limning o‘zaro aloqadorligi, insonni uni o‘rab turgan tabiatga nisbatan ma‘suliyati to‘g‘risidagi umumiy tasavvur asoslarini shakllantirishga asoslangandir.

Bundan tashqari, ekologik tarbiya talaba-yoshlardan tevarak muhitga nisbatan munosabatlarida tubdan o‘zgartirish kiritishni, o‘z faoliyatlarini nazariy bilimlar bilan uzviy aloqadorlikda amalga oshirib borishlarini, bu boradagi ko‘nikma va malakalarini izchillik bilan boyitib borishlarini taqozo etmoqda.

O‘qitish jarayonida ekologik ta‘lim-tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi muhim talablarga amal qilmoq lozim:

- tabiiy muhit va uni yaxshilash bo‘yicha amaliy faoliyatni ma‘naviy va emotsional jihatdan uzviy birligini idrok etish;
- ekologik tarbiyaning bog‘liqliligi va uzluksizligini, uning predmetlar va kurslararo aloqa bog‘lash bilan amalga oshirib borish;
- ekologik ta‘lim –tarbiyani amalga oshirib borish ekologik muammolarni umumbashariy, bir vaqtda milliy va o‘lkashunoslik xarakter kasb etishini hisobga olgan holda faoliyat ko‘rsatish.

Talabalarni o‘rab turgan tabiiy muhitga nisbatan javobgarlik munosabatida bo‘lish his-tuyg‘ularini shakllantirib borish Respublikamizda sog‘lom ekologik muhitni ta‘minlashda katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ekologik tarbiya o‘quvchilarda faqatgina ekologik madaniyatnigina shakllantirib bormasdan, balki ta‘lim va tarbiyaning ko‘pgina umumiy bir butun vazifalarni hal etishda ham katta rol o‘ynaydi.

Tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ko‘rsatishning o‘zi talabalarda real dunyoning bir butun ekanligi to‘g‘risidagi dunyoqarashga xos bilimlarini yanada boyitadi. Ekologik bilimlar talabalarga sabab, maqsad aloqalari, voqea va hodisalarni tizimli tuzilishi jihatidan rivojlanishlarini ta‘min etadigan vazifalarni yanada ijobiy hal etib borishlarini ta‘minlashga ko‘maklashadi.

Tabiatni tushunish va u bilan aloqada bo‘lish shaxsning **axloqiy tarbiyasi**, uning insonparvarlik xususiyatlari – ezgulik, mehr, rahmdillik bo‘lishga da‘vat etadi.

Tabiat chin ko‘ngildan insonni har doim *“vijdonli, insofli bo‘lib olishga yordam beradi. Tabiat har doim u - ONA ekanligini eslatib turadi”*. Go‘zallikning manbai bo‘lgan tabiat - **estetik tarbiyaning** muhim vositasi, tabiatni shavqatsizlarcha vayron etishga qo‘l urgan kuchlarga qarshi turuvchi insonni kamol topishiga katta yordam beradi.

Ekologik bilimlar **mehnat ta'limi va tarbiyasida**, shuningdek yoshlarning **jismoniy rivojlanishlarida va gigiyenik tarbiyalarida** ham katta rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi, birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining **“O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li”** asarida Respublikamizdagi mavjud ekologik holat to'g'risida gapirar ekan, “tabiiy resurslardan ayovsiz foydalanishga, atrof-muhitga ziyon etkazilishiga va respublikadagi ekologik vaziyatning yomonlashuviga yo'l qo'ymaslik, boshqa davlatlarning ishtirokida Orolni qutqarish, Orol bo'yidagi ekologik sharoitni sog'lomlashtirish borasida samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish, mazkur mintaqalarning iqtisodi va ijtimoiy sohasidagi falokatli oqibatlarini bartaraf etish lozim ekanligini alohida uqtirib o'tadi [1].

Islom Karimov mazkur risolasining “O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari xususida fikr yuritganida uning falsafiy – dialektik tafakkur mantiqi bilan ifoda etilgan quyidagi fikrlari mazmuni har bir pedagog tomonidan talabalar ongiga singdirilmog'i lozim”: *“Butun dunyo, - deb yozadi Prezidentimiz, Orolning ekologik holati jahon miqyosidagi fojea deb e'tirof etilmoqda. Bu fojeani O'zbekiston va uning qondosh- qardosh qo'shnilari yakka holda daf etolmaydilar. Yashash muhiti, tabiat va ma'naviyat ekologiyasi bir-biridan ajralmasdir. Sihat-salomatlik bo'lishning an'anaviy qadrini qayta tiklash va oila qadri bilan sharafligi bir o'ringa qo'yish kerak”* [1].

Tabiatga yaqinlik, jonajon o'lkaning benihoya go'zalligidan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi [2].

Quyida Nizomiy nomidagi TDPUning Tarix yo'nalishi, 2-kurs talabalarga “Tarixiy o'lkashunoslik va turizm” fanida “Ekologik tarbiya” berishda nimalarga e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatamiz. O'qituvchi dastlab, eksperiment darslar asosida talabalarga “Ekologik tarbiya” berishni yo'nalishlar va bosqichlarga bo'lib olishi zarur.

I Yo'nalish. Ilmiy asosda o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirish:

- tabiat va jamiyat tarixining bir butunligi to'g'risidagi tasavvur;
- tabiat qonunlarining birlamchiligi va unda insonning tutgan o'rni;
- insonni tabiatga ta'sir etish xarakteri va uning tabiat muhitiga bog'liqligi;
- inson hayotida tabiiy va ijtimoiy omillarning tutgan roli.

II Yo'nalish. Talabalarga g'oyaviy-siyosiy va huquqiy tarbiya berish:

- talabalarni O'zbekiston Respublikasining tabiatni qo'riqlash to'g'risidagi qonunlari bilan tanishtirish;
- O'zbekiston Respublikasi tabiatni qo'riqlash sharoitlarining o'ziga xos xususiyatlari, tabiat umumxalq boyligi ekanligi tushunchalarini, o'quvchilarni “xalq”, “vatan”, “tabiat” tushunchalarining bevosita uzviy aloqadorligini ilmiy xulosaga keltirish;

- talabalarda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasidagi: “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar” [3] degan qonuniga qat’iy bo‘ysunishlari shart, O‘zbekiston Respublikasi hukumatining tabiiy muhitni saqlash to‘g‘risidagi siyosatining mohiyati bilan sistemali tanishtirib borish;

- tabiat-tevarak muhitni saqlash – umumbashariy muammo, uning echimida ishtirok etish har bir insonning muqaddas burchidir, degan axloqiy burchga sodiq bo‘lish.

III Yo‘nalish. Mehnat va iqtisodiy tarbiya:

- iqtisodiy jihatdan o‘z mehnatini to‘g‘ri tashkil etish mahoratini tarbiyalash, atrof-muhitni ifloslanishdan himoya qilishga bag‘ishlangan ijtimoiy ishlab chiqarish mehnatlarida faol ishtirok etish;

- tabiiy muhit holatini aniqlash ko‘nikmalarini, unga ta’sir ko‘rsatish va holatini yaxshilash bo‘yicha zarur tadbirlar qo‘llash ko‘nikmalarini tarbiyalash, “inson-texnika-muhit” birligi tushunchasidan kelib chiqib tabiiy materiallar, xomashyolar va energiyani oqilona ishlatish va qo‘llash ko‘nikmalarini tarbiyalash.

IV Yo‘nalish. Axloqiy – estetik tarbiya:

- ekologiya muammolarini hal etishning insonparvarlik mohiyatini hozirgi zamon va kishilik jamiyatining kelajagi uchun ahamiyati, estetik va mantiqiy go‘zallik qonunlarining birligini anglab olish;

- har bir inson tabiatga nisbatan munosabatda ijtimoiy axloq talablari va mas’uliyatlarini his etish;

праву становится решающей силой сегодняшнего дня, способной взять на себя ответственность за будущее Родины. Мы должны довести до логического завершения проводимую в этом направлении широкомасштабную работу, в частности, принятые общенациональные программы в сфере образования и воспитания. В связи с этим важнейшая задача правительства, соответствующих министерств и ведомств, наших уважаемых наставников, профессоров и преподавателей — обеспечить молодежи качественное образование, воспитать её физически здоровыми и духовно зрелыми личностями».

Литература

1. Закон «Об образовании» Республики Узбекистан, от 23.09.2020 г. № ЗРУ-637.
2. Об утверждении Президентом Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёевым Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года // <https://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-oliy-talim-tizimini-2030-yilgacha-riv-09-10-2019>.
3. Арустамов Э.А. Безопасность жизнедеятельности: учебник для бакалавров / Под ред. проф. Э.А. Арустамова. - 19-е изд., перераб. и доп. - Москва: Дашков и К, 2016. - 448 с.
4. Михайлов Л.А. Основы безопасности жизнедеятельности: Методика обучения 5-6 классы / Л.А. Михайлов, А.В. Старостенко. - С. Пб.: СОЮЗ, 2001. - 240 с.

TARJIMASHUNOSLIKDA EKVIVALENTLIK KONSEPTI VA UNING TALQINLARI

A'zamova G.S. – Farg‘ona davlat universiteti Gumanitar yo‘nalish bo‘yicha chet tillari kafedresi o‘qituvchisi

Xojaliyev I.T. – Farg‘ona davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlar nomzodi

Annotatsiya. Maqolada tarjimada ekvivalentlik, adekvatlik, adekvat tarjima borasida fikr yuritilgan. Ularning o‘zaro munosabatlari hamda ekvivalentlik konsepti va uning talqinlariga doir qarashlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tarjima, til, ekvivalentlik, adekvatlik, matn ekvivalentligi, kommunikativ ekvivalentlik, lingvistik ekvivalentlik, pragmatik ekvivalentlik, semantik ekvivalentlik, dinamik ekvivalentlik, ontologik ekvivalentlik.

КОНЦЕПТ ЭКВИВАЛЕНТНОСТИ И ЕГО ТОЛКОВАНИЯ В ПЕРЕВОДОВЕДЕНИИ

Азамова Г. – преподаватель кафедры иностранных языков гуманитарного факультета Ферганского государственного университета
Ходжалиев И. - доцент Ферганского государственного университета, кандидат филологических наук

Аннотация. В статье акцентируется внимание на эквивалентности, адекватности, адекватности перевода в переводе. Анализируются их взаимосвязь и взгляды на понятие эквивалентности и его интерпретации.

Ключевые слова: перевод, язык, эквивалентность, адекватность, текстовая эквивалентность, коммуникативная эквивалентность, лингвистическая эквивалентность, прагматическая эквивалентность, семантическая эквивалентность, динамическая эквивалентность, онтологическая эквивалентность.

THE CONCEPT OF EQUIVALENCE IN TRANSLATION STUDIES AND ITS INTERPRETATION

Azamova G. - a lecturer at the Department of Foreign Languages of the Faculty of the Humanities of FarSU.

Khojaliyev I. - Associate Professor of Fergana State University, Candidate of Philological Sciences

Annotation. The article focuses on the equivalence, adequacy, and adequacy of translation in translation. Their relationship and views on the concept of equivalence and its interpretation are analyzed.

Keywords: translation, language, equivalence, adequacy, textual equivalence, communicative equivalence, linguistic equivalence, pragmatic equivalence, semantic equivalence, dynamic equivalence, ontological equivalence.

Til eng muhim aloqa vositasi sifatida jamiyat ehtiyojlarini qondiradi. U jamiyat bilan qadam-baqadam rivojlanib boradi. O‘zi mansub bo‘lgan jamiyat a‘zolarining fikrini, his-tuyg‘ularini, ichki kechinmalarini jamiyat uchun zarur bo‘lgan darajada ifoda eta oladi. Shu ma’noda til imkoniyat, nutq uning voqe bo‘lishidir. Til imkoniyat sifatida istalgan narsani ifodalashi mumkin. Biroq nutqda – reallashganda hamma narsani to‘la-to‘kis ifodalashning ushbu potensial imkoniyati namoyon bo‘lavermaydi. Aynan mana shu sabab har tomonlama, to‘laqonli tarjima qilish uchun qiyinchiliklar yuzaga keladi [1]. Tarjima borasida so‘z ketganda, birinchi galda, o‘girilgan matn asliyatga mos keladimi, asliyatdagi bor jihatlarni to‘la ifodalay olganmi? degan savol tug‘iladi. Bu savolning javobi adekvatlik va ekvivalentlik tushunchalari bilan ifodalanadi. Ekvivalentlik tushunchasini

shakllantirish bilan bog‘liq asosiy qiyinchiliklar, birinchi navbatda, ushbu konsepsiyaning semantik, tarkibiy, funksional, kommunikativ, pragmatik, janr va boshqa xususiyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘p darajali va geterogenligi bilan bog‘liq. Bunda, yuqorida ko‘rsatilgan barcha parametrlar tarjimada saqlanishi kerak. Asliyat, shuningdek, tarjima qilish shartlari va usullariga ko‘ra, ularni amalga oshirish darajasi o‘zgaradi [2]. Tarjima nazariyasiga oid asarlarda ekvivalentlikning bir necha turlari: eng umumiy “tarjima ekvivalentligi” atamasidan tashqari “funksional ekvivalentlik”, “stilistik ekvivalentlik”, “formal ekvivalentlik”, “matn ekvivalentligi”, “kommunikativ ekvivalentlik”, “lingvistik ekvivalentlik”, “pragmatik ekvivalentlik”, “semantik ekvivalentlik”, “dinamik ekvivalentlik”, “ontologik ekvivalentlik” kabilarni sanab o‘tish mumkin [3.170].

Tarjima ekvivalentligi konseptini tushunish uchun, eng avvalo, ekvivalentlik strukturasi talqinini turli yondashuvlarini har tomonlama ko‘rib chiqish zarur bo‘ladi.

Ko‘pgina tadqiqotchilar o‘z ishlarini ushbu muammoga bag‘ishladilar. Jumladan, V.N. Komissarov o‘zining “Tarjima nazariyasi (lingvistik jihatlar)” kitobida [4] ekvivalentlik darajalari nazariyasini ishlab chiqdi, unga ko‘ra tarjima jarayonida asliyat va tarjimaning tegishli darajalari o‘rtasida ekvivalentlik munosabatlari o‘rnatiladi. V.N.Komissarov asliyat va tarjimaning mazmuni jihatidan besh xil darajasini aniqlagan:

1. Muloqot maqsadi darajasi;
2. Vaziyatni tavsiflash darajasi;
3. Bayon darajasi;
4. Axborot darajasi;
5. Til belgilari darajasi.

V.N. Komissarovning nazariyasiga ko‘ra, tarjima ekvivalentligi asliyat va tarjima matnlari mazmunining barcha darajalarining maksimal tengligidir. Asliyat va tarjima birliklari barcha besh darajada yoki faqat ba’zilarida bir-biriga ekvivalent bo‘lishi mumkin. Asliyat ham, tarjima tilda ham to‘liq ekvivalent, bir-biriga o‘xshash ekvivalent birliklar yoki kontekstual ekvivalent bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, ularni to‘g‘ri baholash, tanlash, saralash va qo‘llash tarjimonning mahoratiga, uning bilimi, malakasi va ijodiga, lingvistik va ekstralingvistik omillarning butun kompleks majmuasini hisobga olishi va taqqoslash qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Tarjima jarayonida har bir tarjimon qiyin vazifani hal qiladi: nafaqat kerakli ekvivalent birlikni topish va tanlash, balki undan to‘g‘ri foydalanish, ikki tilda kommunikativ ekvivalent axborotlarni yaratish kerak.

Komissarov ekvivalentlikning ikki turini ham ajratadi. Birinchisi, potensial erishish mumkin bo‘lgan ekvivalentlik bo‘lib, maksimal darajada bir-biriga yaqin yaratilgan ikki tildagi matnlar mazmun birligining umumiyliigi; ushbu matnlar yaratilgan tillardagi tizimli farqlarni hisobga olgan holda; bu ekvivalentlikni ideal

yoki nazariy deb atashingiz mumkin. Ikkinchisi amaliy, tarjima ekvivalentligi, ya'ni tarjima jarayonida tarjimon erishgan asliyat va tarjima matnlarining real semantik yaqinligidir. Shunga ko'ra, tarjima jarayonida tarjimon ma'lum bir matndan kelib chiqib, tarjimani asl nusxaga turli yo'llar bilan yaqinlashtiradi, mazmunning turli darajada saqlanishi va yaqinligiga erishadi, shu bilan birga potensial erishish mumkin bo'lgan ekvivalentlikka intiladi va unga erishadi.

Asl til va ko'rsatma til tizimlaridagi tafovutlar va bu tillarning har birida matn yaratishning o'ziga xos xususiyatlari turli darajada tarjimada asliyatning mazmunini to'liq saqlab qolish imkoniyatini cheklashi mumkin. Shuning uchun tarjima ekvivalentligi asliyatda mavjud bo'lgan turli xil ma'no elementlarining saqlanishiga (va shunga mos ravishda yo'qolishiga) asoslanishi mumkin. Tarjimada uning ekvivalentligini ta'minlash uchun mazmunning qaysi qismi uzatilishiga qarab ekvivalentlikning turli darajalari (turlari) farqlanadi. Lekin asosiysi, har qanday ekvivalentlik darajasida tarjima tillararo muloqotni ta'minlay oladi.

“Ekvivalentlik” tushunchasining aniq va to'liq ta'rifi bo'lmasa-da, ko'pchilik ta'riflar tavsiflovchi yoki inkor yo'li bilan berilgan. Shunga qaramay, agar yuqorida aytilganlarning barchasini umumlashtirishga harakat qilsak, unda tarjima ekvivalentligi tushunchasining asosiy mohiyatini mazmunning ekvivalentligi, axborotning tengligi orqali aniqlash mumkin. Ushbu konsepsiyani talqin qilishda ko'proq e'tibor tarjimada asl mazmun planini saqlash va uzatishga qaratilgan. Shunga asoslanib, biz ekvivalentlikni maksimal erishish mumkin bo'lgan mazmun umumiyliigi hamda asliyat va tarjima o'rtasidagi eng to'liq semantik o'xshashlik deb hisoblaymiz.

Tarjimashunoslik fan sifatida rivojlanishining dastlabki davrida uning ikki usuli ajratilgan. Birinchisi, to'g'ridan tog'ri tarjima bo'lib, asl nusxaning so'zma-so'z tarjimasini bildirgan. Har qanday vosita yoki har qanday yo'l bilan asliyatning sof mazmuninini etkazib berishga qaratilgan ikkinchi usul esa erkin tarjima hisoblangan. Keyinchalik, XVIII asrga kelib, tarjimaning asliyatni uning me'yorlari va klassitsizm talablariga muvofiq tarzda o'g'irishga asoslangan yo'nalishi maydonga keldi [5.9]. XIX asrdan boshlab “aniq tarjima” atamasi ko'pincha “to'g'ri qilingan tarjima” ma'nosida qo'llanilgan. Keyinchalik, XX asrda esa “so'zma-so'z aniq” va “xijjaviy” atamalari paydo bo'ldi. Shu bilan birga, ilgari qo'llanilgan “aniq tarjima” atamasi o'rniga “adekvat tarjima”, yani “mutlaq teng tarjima” atamasi paydo bo'ldi. “Adekvat tarjima” atamasi zamirida “to'g'ri, aniq, sifatli qilingan tarjima” ma'nosi anglashilgan. G.R.Gachechiladze “Badiiy tarjima va adabiy aloqalar” asarida shunday yozadi: “Badiiy tarjima ikki ekstremal tamoyil o'rtasida tebranib turadi: so'zma-so'z, lekin badiiy jihatdan nuqsonli tarjima va badiiy aniq, biroq asl nusxadan uzoq, erkin tarjima” [6.81]. Badiiy ma'noda “adekvat” tarjima tilshunoslikka, uning alohida elementlariga nisbatan adekvat bo'lmasligi mumkin [6.87-88]. Ba'zilari

konsepsiyaga yetarlicha aniq ta'rif bermagan, bu esa terminologik noaniqlikka olib kelgan. Bunday ta'riflarga quyidagilarni keltirish mumkin: "Adekvat tarjima asliyatning mazmun va shakl birligini boshqa til vositasida qayta yaratishdir. Adekvat tarjima - badiiy tarjimaning asosiy maqsadi" [7. 221]. Bunday ta'rif umumiy va mavhum bo'lib, "adekvat" tushunchasining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirmaydi. A.V.Fedorov "adekvat" atamasini boshqacha talqin qilib, uni "to'laqonli, semantik va stilistik jihatdan ekvivalent" ma'nosida qo'llaydi [8. 127]. Keyinchalik tarjima nazariyasining rivojlanishi bilan tabiiy ravishda "adekvat tarjima" tushunchasining boshqa talqinlari paydo bo'la boshladi. Ulardan I.I.Revzin va V.Y.Rozenzveyglar esa yanada qat'iy talablarni qo'ydilar. Ular "xijjaviy", "adekvat" va "erkin" tushunchalarini ilmiy nazariyada umuman qo'llab bo'lmaydi va boshqa aniqroq atamalar bilan almashtirilishi kerak, deb hisobladilar. Yuqoridagi atamalarni faqat poetikaga nisbatan qo'llash mumkin. Bunda, ular, bir tomondan, "til hodisalarini asliyat va tarjima tilining u yoki bu elementlari o'zaro mos kelishi yoki nomuvofiqligi, ikkinchi tomondan, badiiy va estetik hodisalar" nazarda tutilgan [9.121].

Yuqoridagi terminologik va konseptual noaniqlik ba'zan quyidagi kabi qat'iy fikrlarga ham olib keldi: "adekvatlik (to'liq va to'g'ri tarjima) tarjimaning majburiy sharti bo'la olmaydi" [10.21] yoki "yozma tarjimada butunlikni saqlash tushunchasi zaruriy shart emas" [11.6]. Bunday fikrlarni to'g'ri deb bo'lmaydi, chunki ular "adekvatlik" konsepsiyasiga bo'lgan yondashuv va e'tiborni susaytiradi. Asliyatni adekvat tarzda o'girmaslik, uning semantik va stilistik jihatlariga putur etkazadi. Shuningdek, tarjimani butun asl matnni yaxlit tushunmasdan amalga oshirish asl nusxaning alohida qismlari va umuman asl matnning buzilishi va asossiz o'zgarishlarga olib keladi. Shuningdek, tarjimani asliyatni butunlay tushunmasdan amalga oshirish, asl nusxaning alohida qismlari va umuman tarjima matnining ham buzilishi va asossiz o'zgarishlariga olib keladi.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, tarjima nazariyasining "adekvatlik" va "ekvivalentlik" kabi asosiy tushunchalar o'rtasidagi munosabat masalasi hali aniq echim topmagan. "Ekvivalent" atamasidan avvalroq paydo bo'lgan "adekvat" atamasi dastlab uning sinonimi sifatida ishlatilgan. Keyinchalik esa "adekvat" konsepti kengroq ma'noda "yaxshi", "to'laqonli" ma'nosini bildiruvchi atama sifatida, "ekvivalent" esa asl va tarjimaning semantik umumiyligini ifodalovchi torroq atama sifatida foydalanila boshlangan. Bu atamalar bilan ko'rsatilgan tushunchalar orasidagi farqlarning to'liq ilmiy tavsifini A.D. Shvaytser bergan: "Agar ekvivalentlik yakuniy matn asl nusxaga mos keladimi yoki yo'qmi, degan savolga javob bersa, adekvatlik tarjima, jarayon sifatida, berilgan kommunikativ shartlarga javob beradimi, degan savolga javob beradi" [12. 95]. "Adekvat" "berilgan aloqa muhitida eng maqbul" degan ma'noni anglatadi. "Tarjima, ikkilamchi matn asl nusxaga faqat semiotik

darajalardan birida yoki funksional o'lovlardan birida ekvivalent bo'lgan taqdirda ham adekvat bo'lishi mumkin", deb xulosaga keladi olim. [12.96]. Shunga ko'ra, A. Shvaytser ekvivalentlik va adekvatlik sinonim emas, deb hisoblaydi, chunki adekvatlik jarayon sifatida tarjima echimining sifatini belgilaydi, ekvivalentlik esa natijada asl va tarjima matnlarining nisbati hisoblanadi [12.96]. Shunga qaramay, "adekvat" va "ekvivalent" atamaları yuqorida tilga olingan barcha ma'nolarda, jumladan, tarjima amaliyotida ham, ilmiy adabiyotlarda ham sinonim sifatida ham qo'llanilib kelmoqda

Adabiyotlar

1. Hojaliyev I, & Azamova Gulasal Sodiq qizi. (2021). Methodology and Significance of Meaning in translation of Uzbek Literature. European Journal of Research Development and Sustainability, 2(11), 19-20. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/ejrds/article/view/1390>
2. Виноградов, В. С. Введение в переводоведение (общие и лексические вопросы) [Текст] / В. С. Виноградов. – М.: Издательство института общего среднего образования РАО, 2001. – 224 с.
3. Gorli 1994: 170
4. Комиссаров, В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты) [Текст] / В. Н. Комиссаров. – М.: Высш. шк., 1990. – 253 с.
5. Крюков, А. Н. Теория перевода [Текст] / А. Н. Крюков. – М.: Военный Краснознаменный ин-т, 1989: 9
6. Гачечиладзе, Г. Р. Художественный перевод и литературные взаимосвязи [Текст] / Г. Р. Гачечиладзе. – М.: Советский писатель, 1980: 81
7. Minyar-Beloruchev R.K. Общая теория перевода и устных перевод– М., 1980: 221
8. Федоров, А. В. Основы общей теории перевода (лингвистические проблемы): Для ин-тов и фак. иностр. яз. Учебное пособие [Текст] / А. В. Федоров. – М.: Высшая школа, 1983: 127
9. Ревзин, И. И., Розенцвейг, В. Ю. Основы общего и машинного перевода [Текст] / И. И. Ревзин, В. Ю. Розенцвейг. – М.: Высшая школа, 1964: 121
10. Minyar-Beloruchev R.K. Общая теория перевода и устных перевод– М., 1976: 21
11. Казакова, Т. А. Аспекты теории письменного перевода [Текст] / Т. А. Казакова. – Свердловск: СГПИ, 1988: 6
12. Швейцер, А. Д. Теория перевода. Теория перевода: Статус, проблемы, аспекты [Текст] / А. Д. Швейцер. – М.: Наука, 1988: 95

SAMARQAND SHAHRINING O‘ZBEK SHEVALARIDA TOJIKCHA VA RUSCHA O‘ZLASHTIRMALAR

Tillabayeva Z.R. - Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Samarqand shahri o‘zbek shevalaridagi so‘zlarning o‘zlashgan qatlamlari haqida fikr yuritilgan. Tadqiq etilayotgan shevadagi so‘zlarning tojik tili bilan mushtarakligi, o‘zaro chambarchas aloqalari misollar asosida ochib berilgan. Unda mazkur hudud o‘zbek shevalariga o‘zlashgan tojik va rus tillariga xos so‘zlar leksik-semantik guruhlarga bo‘linib, qiyosiy, tavsifiy aspektda tahlilga tortilgan. Ularning o‘zbek shevashunosligini boyitishdagi o‘rni aniq misollar asosida ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Samarqand shahri, sheva, adabiy til, tojik tili, rus tili, o‘zbek tili, so‘zlashuv nutqi, leksik-semantik guruh, lug‘aviy birliklar, qiyosiy-tavsifiy aspekt.

ТАДЖИКСКИЕ И РУССКИЕ ЗАИМСТВОВАНИЯ В УЗБЕКСКИХ ДИАЛЕКТАХ ГОРОДА САМАРКАНДА

**Тиллабаева З.Р. - научный сотрудник Самаркандского
государственного института иностранных языков**

Аннотация. В данной статье рассматриваются слои слов в узбекских диалектах Самарканда. На основе примеров выявляется общность слов изучаемого диалекта с таджикским языком и их тесная связь. В ней слова таджикского и русского языков узбекских диалектов разделены на лексико-семантические группы и проанализированы в сравнительном, описательном аспекте. Их роль в обогащении узбекского диалекта иллюстрируется конкретными примерами.

Ключевые слова: город Самарканд, диалект, литературный язык, таджикский язык, русский язык, узбекский язык, разговорная речь, лексико-семантическая группа, лексические единицы, сравнительный и описательный аспект.

TAJIK AND RUSSIAN BORROWINGS IN THE UZBEK DIALECTS OF THE CITY OF SAMARKAND

**Tillabayeva Z.R. - Researcher of Samarkand State Institute of Foreign
Languages**

Annotation. This article discusses the layers of words in the Uzbek dialects of Samarkand. The commonality of the words in the studied dialect with the Tajik

language and their close connection are revealed on the basis of examples. In it, the words of the Tajik and Russian languages of the Uzbek dialects are divided into lexical-semantic groups and analyzed in a comparative, descriptive aspect. Their role in enriching the Uzbek dialect is illustrated by concrete examples.

Keywords: Samarkand city, dialect, literary language, tajik language, russian language, uzbek language, colloquial speech, lexical-semantic group, lexical units, comparative and descriptive aspect

Har qaysi shevaning lugʻat tarkibida oʻzlashma soʻzlar alohida oʻrin egallaydi. Hech qaysi til va uning negizidagi sheva boshqa tillardan ajralgan tarzda taraqqiy qilolmaydi. Bu borada mashhur sharqshunos olim Ansoriddin Ibrohimov “Boburnoma”dagi hindcha soʻzlar” nomli doktorlik dissertatsiyasida quyidagi muhim fikrlarni bildirib oʻtadi: “... har qanday til, odatda, turli-tuman leksik unsurlarning qoʻshilishidan iborat boʻladi” (A.P.Barannikov). “Tillarning oʻzaro bir-biriga taʼsiri, odatda, ularning oʻzaro boyishiga olib kelgan va olib keladi” (I.U.Asfandiyorov). “...boshqa tillardan birorta ham soʻz kirmagan sof til dunyoda boʻlmagan va boʻlishi mumkin emas” (O.Azizov) [4; 35-bet].

Bundan yaqqol koʻrinib turibdiki, xalqning jonli soʻzlashuv nutqi boʻlgan shevalar ham turli-tuman tillardan oʻzlashmalar qabul qilish hisobiga boyigan.

Maʼlumki, oʻzbek va tojik millati bir zaminda juda uzoq vaqtdan buyon ahil, inoq munosabatda boʻlishgani sabab oʻzbek tiliga tojik tilidan talaygina soʻzlar oʻzlashgan. Samarqand shahar oʻzbek shevasi leksik qatlamida oʻzlashma soʻzlar, yaʼni fors-tojikcha, arabcha, ruscha kabi soʻzlar ham keng ishlatiladi.

Oʻzlashma soʻzlar, asosan, ikki usul bilan oʻtadi: ogʻzaki va yozma. Ogʻzaki tarzda soʻz oʻtishini oʻzlashmalarning quyi darajasi deyish mumkin, chunki bunda, asosan, uncha murakkab boʻlmagan, kundalik turmushda ishlatiladigan soʻzlar oʻtadi. Rus tilidan oʻzbek tiliga oʻtgan soʻzlar ham dastlabki davrda (XIX asrning II yarmi-XX asrning boshlari), asosan, ogʻzakiv - jonli muomala yoʻli bilan kirgan. Bu esa oʻsha davr imlosida aks etgan. Masalan, iskalod (склад), inostran (иностранец), aborot (оборот), pirakuror (прокурор) va boshqalar [7; 101-bet].

Professor A.K. Borovkov oʻzining oʻzbek va tojik tillarining oʻzaro munosabatiga bagʻishlangan asarida Buxoro va Samarqand shevalarida soʻzlovchilarning oʻzbekcha va tojikcha soʻzlarni qoʻshib gapirishlarini qayd etib oʻtadi. Qolaversa, oʻzbek va tojik tillarining oʻzaro qiyosiy-tipologik tahlili A.K.Borovkov, V.S.Rastorguyeva, H.Gʻulomov, M. Mirzayev kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Ammo kuzatishimizcha, ikki millat aholisi shevalarining oʻzlashmalari toʻliq va atroflicha yoritilmagan.

Qarluq lahjasi vakillari, asosan, shahar va shahar tipidagi dialektlar va shevalarni qamrab oladi [1; 85-b]. Biz ham Samarqand shahridagi aynan qarluq

lahjasiga xos o'zbek shevalarini tadqiq qilishga harakat qildik. Samarqand shahri o'zbek shevalari lug'at tarkibining salmoqli qismini umumturkiy so'zlar tashkil etadi. Mazkur shevaga so'zlar, asosan, uch manbadan: fors (tojik), arab, rus tilidan o'zlashgan, lekin kamroq bo'lsa-da, boshqa tillardan ham kirib kelgan talaygina so'zlar bor.

Kuzatuvimiz davomida shunga guvoh bo'ldikki, Samarqand shahri aholisi nutqi bilingvizm, trilingvizm xususiyatlariga egaligi ijtimoiy-madaniy jarayonlar, shevalar va tillararo o'zaro chambarchas aloqaning mavjudligi bilan belgilanadi.

“Ilmiy tadqiqot ishlarida o'zbek shevalarining zamonaviy leksik qatlamlari o'rganib kelingan. Ulardagi qatlamlar nomlanishida deyarli o'xshashlik bor, lekin sheva vakillarining kasb-kori, yondosh turkiy va turkiy bo'lmagan tillarning ta'siri, sheva leksikasini o'rganishga bo'lgan yondashuviga ko'ra, ular tarkibida muayyan farqlar ham mavjud” [1; 81,82-b]. Shu sababdan ham mazkur shevaning leksik qatlamlari xususiyatlari to'g'risida ma'lum bir xulolasalarga kelish uchun shevadagi ayrim o'zlashgan so'zlarini leksik-semantik guruhlarga bo'lib tahlilga tortdik.

Samarqand shahri qarluq lahjasiga tegishli shevalarning leksikasi turli-tuman. Hozirgi o'zbek adabiy tili va Samarqand shahri shevalarida shunday o'zlashmalar borki, ular xuddi o'z qatlamday bo'lib ketgan. “Ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari shuni ko'rsatadiki, shevalar lug'at tarkibida forscha (tojikcha) so'zlar ko'proq, arabcha so'zlar unga nisbatan kamroq, ruscha-baynalmilal so'zlar juda kam uchraydi, bu esa xorijiy so'zlarning o'zlashish jarayoni ko'proq vaqt talab qilishi bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi” [1; 78,79-b].

Mazkur hudud leksikasi bo'yicha olib borgan ishlarimiz natijasida tojik va rus tillaridan o'zlashgan leksemalarni quyidagi leksik-semantik guruhlarga (LSG) bo'lib tahlilga tortdik:

1. Qarindosh-urug'chilik bilan bog'liq LSG: *xesh-tavor, jo'ra, dugona, hamsoya, yangamullo, dommod, bachcha, biyimlo, biyi, mulamak, modaro's, padaro's, ayamlo, apamlo, akamlo.*

2. Uy-ro'zg'or, maishiy buyumlar nomlarini ifodalovchi LSG: *choyjo'sh, obdasta, o'g'urcha, xalta, lagan, turftaroshak, toscha, chinnivor, layli, tano'r; so'mka, tilfon, kalonka, kanvert, kashilyok* kabilar.

3. Non mahsulotlari bilan bog'liq LSG: *noni shirmol, chapchak non, osiyogi non, bublik, baton, bo'lka non, garbushka, bo'lichka* va hokazolar.

4. Oziq-ovqat nomlariga xos LSG: tojikcha: *g'o'raob, chosiyo, charbu, chalop, bichak, oshpalav, barak, mantu, o'gro, mazalek, sambo'sa, sho'la, chivot;* ruscha: *jarkop, zgushonka, kalbasa, sir, galupsi, drojji, kampo't, marojni, jivachka, suxari* va hokazo.

5. Meva hamda sabzavotlarni bildiruvchi LSG: *jigida, davucha, xarbuza, murut, gelos, olbolu, zoldoru, olu* va hokazo.

6. Hayvonot, hasharot olami bilan bog'liq LSG: *bedona, kaftar, mo'rcha, qung'uz, shulluk, kirm, go'sala, echkimar, qurvoqqa, tavuq, xuro'z, tashboqa, pishak* kabilar.

7. O'simliklarga oid LSG: tojikcha: *ajriq, namoshomkisho, pudina, ajdardahan, kuchukchagul, nano, ochuqpechon*; ruscha: *zelen, petrushka, kinza, limonnik* kabilar.

8. Dehqonchilik bilan bog'liq LSG: *pal, kalan, bel, hadcha, lapatka* va hokazo.

9. Asbob-uskunalar nomini bildiruvchi LSG: *kuvalda, kirka, g'altak, ombo'rcha, tokbur; tachka, molotok, otvyorka, rizekta, izalenta* va hokazo.

10. Tana a'zolariga xos LSG: *binni, kalla, go'sh.*

11. Marosim nomlarnin ifodalovchi LSG: *jogag'undoron, zavzipora, mushkilkisho, xayoshi, zavuchixo'ron, fotya, to'palangoshi, ro'binoni, talbon, azokishoyon*

12. Kiyim-kechak nomlariga oid LSG: *doman, kissa, qalpoq, chapon, girvon, jahak, boloyi, qo'ltuqkissa* kabilar. *Yupka, kofta, jimpir, shortuk, naski, tufli* va hokazo.

13. Insonlarning xarakter-xususiyatlarini bildiruvchi LSG: *nodida, naraki, pismuq, muloyimxunuk, gapkashon, qaynoq, gapkashon, benur, banur, nimgatir, mijmoruq, morboz* kabilar.

14. Kasalliklarning nomlanishini ifodalovchi LSG: tojikcha: *tumoq, quchanoq, quyanchiq, nazla, go'mijja, g'urri, gulafshon, shukufa, darunrav, dardigo'sh, dardisar, dardidast-u pocha, qaqanoq, miyong'u*; ruscha: *temperatura, gripp, davleni, radikulit* kabilar.

15. Kasb nomlarini ifodalovchi LSG: tojikcha: *durezgar, sando'qsoz, oshpaz, murdasho', go'rkob, bexalfa, xodim, lagandachi, tintinchi, naxo'tfuro'sh, nosfuro'sh*; ruscha: *milisa, kamitet, slesar, shofir, duxtur, moshinachi, tachkachi, chekchi, svetchi, pechkasoz, kafelchin, ishkafsoz* kabilar.

16. Bola tiliga oid so'zlani anglatuvchi LSG: *asha, nana, didit, cho'm-cho'm, kaka, didit, chish, happi, adi, ququ, kix, nini, nanay-nanay* kabilar.

17. Ziravorlarning nomlarini atab keluvchi LSG: *qaraqot, surxak, zarcho'ba, garmdoru, javhar; priprava*

18. Insonlarga xos harakatlarni ifodalab keluvchi LSG: *akar-akar qilli, chir-chir qilmoq, pursi-jo'y, mag'al qilmoq, xorish qilmoq, gabzanon qillik* kabilar.

19. Iboralarni ifodalovchi LSG: *miyamni gij qilma, sof-u samon bo'lmoq, ziti qilmoq, go'shga qimor bo'lib o'tirmoq, ittigayam-pittigayam arozlamoq, daf-unes bo'lmoq, as bo'p ketkon, guft-u shunutga yaxshi emas, hamyoza tortmoq, xanda-xarish ish qilmoq, kallasiga o'xshatib urmoq, angal bo'lib qolmoq* va hokazo.

Shevalarning leksik tarkibida rus tiliga oid soʻzlar miqdor jihatdan ham, fonetik oʻzgarish tomondan ham adabiy soʻzlashuv tilidan deyarli farqlanmaydi. Parta, doska, moshin, ustal, shikaf, direktir, zovud, teyatir, park va shu kabi soʻz-atamalar.

“Samarqand shahar va uning atrofidagi oʻzbek shevalarida i va u unlilari bir muncha choʻziqroq talaffuz etiladi va turgʻun holatga ega boʻladi. O qattiq unlisi yumshoq talaffuz etilish xususiyatiga ega. Shevalardagi leksik xususiyatlarni, birinchi navbatda, goʻsala (buzoq), zordolu (oʻrik), biyi (ona), murcha (chumoli), domot (kuyov), hamsoya (qoʻshni) kabi soʻzlar misolida koʻrish mumkin” [6; 97]. Darhaqiqat, yuqorida taʼkidlab, koʻrib oʻtganimizdek, tojik tilining oʻzbek shevalariga anchayin taʼsirlarini kuzatish mumkin. Qolaversa, Samarqand shahri aholisi nutqida -di oʻtgan zamon qoʻshimchasi –du, hozirgi zamon feʼlining –yap varianti –op qoʻshimchasi bilan shakllanishi kuzatiladi. (Bugun mehmonga *bodduk*. Hozir ishdan barvaxtar *keloppan*. “Juhuton” mahallasi) Joʻnalish kelishigi va oʻrinpayt kelishiklarining qaratqich va tushum kelishiklarining aralash holda ishlatilishi aynan mazkur shevaning oʻziga xosligi bilan belgilanadi. Jumladan, Balalarim *uyga qolli*. *Biyimlomni* loʻlasi shunnoq ibrat boʻlip ketipti, enni azdigar tikaman. (“Sebzor” mahallasi)

O. Begimov ham oʻzining tadqiqotlarida oʻzbek shevalarida toponimlarning yuzaga kelishida eroniy, yaʼni fors-tojik tilining katta oʻrinni egallashini taʼkidlab oʻtadi (2; 17-bet) Shundan kelib chiqib xulosa qilishimiz mumkinki, Samarqand shahridagi koʻpgina mahallalar nomlarining talay qismi aynan fors-tojik tilining taʼsirida yuzaga kelgan boʻlib, mazkur mikrotoponimlar shaharning eski qismida uchraydi: *Siyob, Jujuton, Sebzor, Boʻzi, Toshkandi, Koʻlobod, Navbogʻchiyon, Seguzar, Qoʻshhavuz, Andijoni, Dargʻom, Bogʻi Baland, Chorshambe, Bogʻi Maydon, Dari Zanjir, Devoli Koʻndalang, Zomini, Joyi Chuqur, Safedi, Urguti* kabilar.

Y.D. Polivanovning 1933-yilda nashr ettirilgan “Oʻzbek dialektologiyasi va oʻzbek adabiy tili” kitobida yozilishicha, Samarqand shahri hududida tojik tili elementi yaqqol oʻzbek tilida namoyon boʻladi. Chunki qadimdan Samarqand shahri markazida yashovchi mahalliy tub aholi tojik millatiga mansub kishilar boʻlib, qoʻshni oʻzbek qishloqlaridan kelganlar bilan mol ayirboshlash ehtiyojidan oʻzaro muloqot qilishgan. Tabiiyki, buning natijasida ikki tilning oʻzaro aralash holda ishlatilishi yuzaga kelgan [5; 11-bet].

Xulosa oʻrnida shuni taʼkidlash mumkinki, Samarqand shahri oʻzbek shevalarida tojik tili qatlamiga doir soʻzlar salmoqli oʻrinni egallaydi. Qolaversa, mazkur sheva lugʻat boyligining oshishida oʻzlashma soʻzlar, xususan, fors-tojik, rus tilidan oʻtgan lugʻaviy birliklar muhim oʻrin tutishini inobatga olib, bunday oʻzlashmalarni aniqlab, mazkur shevaga oid soʻzlar lugʻatini tuzish kerak.

Shuningdek, o'z va o'zlashgan qatlamga xos leksik birliklarni chuqur tadqiq etish hozirda qiyosiy tilshunoslikning dolzarb masalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 78-85.
2. Begimov O. Janubiy O'zbekiston toponimlarining o'zlashgan qatlami. Filol. fan. nomz. diss.- Toshkent, 1999. – B.17.
3. Dala materiallari. 2018-2021.
4. Ibrohimov A. “Boburnoma”dagi hindcha so'zlar. Toshkent, 2002. – B. 35.
5. Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. Ташкент. Узгосиздат, 1933. – С. 11.
6. Rajabov N. O'zbek dialektologiyasi. Toshkent: O'qituvchi, 1996. – B. 97.
7. Hozirgi zamon o'zbek tili (Leksikologiya. Fonetika. Grafika va orfografiya. Morfologiya). Toshkent: Fan, 1957. – B. 101.

TALABALARNING FUQAROLIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINING TUTGAN O'RNI

Umarov J.S. – Toshkent davlat pedagogika universiteti erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya. Oliy ta'lim muassasalarida huquq fanlarini o'qitishning nazariy tavsifi, ustuvor tamoyillari va muhim yondashuvlari hamda oliy ta'lim muassasalarida huquq fanlarini o'qitishning mavjud holati xususida so'z yuritganimizda, eng avvalambor, fuqarolik savodxonligini rivojlantirishda “Huquqiy ta'lim nazariyasi va amaliyoti” tushunchasiga aksariyat holatlarda e'tibor qaratishimiz zarur bo'ladi. Shunga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim nazariyasi va amaliyotini takomillashtirishda huquq fanlarini o'qitish metodikasi o'quv fanining umumiy mohiyati, yetakchi g'oyalari, didaktik imkoniyatini yetarlicha anglab olishni taqozo etadi.

Kalit so'zlar: ta'lim, huquq, ustuvor, tamoyil, yondashuv, oliy, muassasa, fuqarolik, savodxonlik, nazariya, metodologiya, didaktik g'oya, imkoniyat.

РОЛЬ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В РАЗВИТИИ ГРАЖДАНСКОЙ ГРАМОТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Умаров Ж.С. – свободный исследователь Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. Говоря о теоретической характеристике, приоритетах и важных подходах к преподаванию права в университете, а также о современном состоянии преподавания права в высшей школе, необходимо ориентироваться на понятие «Теория и практика юридического образования» в развитие гражданской грамотности. Соответственно, при совершенствовании теории и практики юридического образования в высших учебных заведениях, методики преподавания юридических наук требуется достаточное понимание общей сущности предмета, ведущих идей, дидактического потенциала.

Ключавой слова: обучение, право, приоритет, принцип, подход, высшее, учреждение, гражданство, грамотность, теория, методология, дидактическая идея, возможность.

THE ROLE OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CIVIC LITERACY

Umarov J.S. - Freelance researcher at Tashkent State Pedagogical University

Annotation. Speaking about the theoretical characteristics, priorities, and important approaches to teaching law at the university, as well as the current state of teaching law in higher education, it is necessary to focus on the concept of "Theory and practice of legal education" in the development of civic literacy. Accordingly, when improving the theory and practice of legal education in higher educational institutions, the methods of teaching legal sciences, a sufficient understanding of the general essence of the subject, leading ideas, and didactic potential is required.

Keywords: learning, law, priority, principle, approach, higher, institution, citizenship, literacy, theory, methodology, didactic idea, possibility.

Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan keng islohotlar bugungi zamon talablari va ehtiyojlariga har jihatdan javob beruvchi mutlaqo yangi tipdagi huquq tizmini shakllantirishga yo'naltirilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Chunki jamiyatda huquqiy jihatdan demokratiyaning rivojlanishi, mamlakatdagi joriy qonunlarning mustahkamlanishi va ularga fuqarolarning tartibli roya qilishi, ayniqsa, yoshlarimizning o'z identikligini, huquq, burch va erkinliklarini to'g'ri anglagan holda ulardan samarali foydalanishi, Vatan, oila oldidagi majburiyatlarini aqlan va vijdonan bajarishi, o'z hayotiy faoliyatlarida qonunga doimiy ravishda asoslanishlari bilan belgilanadi. Zero, jamiyatda huquqiy madaniyatning rivojlanganlik darajasi yoshlarning qay darajada o'z identikligini anglagan holda qonunlarga ongli ravshda amal qilishi bilan muhimdir. Shu jihatdan bugungi kunda mamlakatimiz kelajagi

sanalmish yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish vazifasi davlatimiz oldidagi strategik ahamiyatga ega vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Yoshlar huquqiy madaniyatini takomillashtirish vazifasining dolzarbligi shundaki, yoshlarning har biri avlodi o'zlaridan oldingi avlodlar tajribasini o'rganib, o'zgarayotgan yangi ijtimoiy, sotsial munosabatlarni anglash, ularga moslashish va jamiyat taraqqiyotiga o'z munosib hissasini qo'shishga intilishlaridadir. Bu jarayon esa o'z navbatida, fuqarolarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz huquqiy madaniyatini takomillashtirishning yangi metod va vositalarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Bu borada Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish taklifi xalqaro jamoatchilikka bildirildi [1].

O'zbekistonda BMT bilan hamkorlikda ilg'or xorijiy tajriba asosida tarbiyasi qiyin bo'lgan bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda [2].

Xalq ta'limini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribasini o'rgangan holda umumta'lim muassalarida o'quvchilar o'rtasida zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan dasturlarni joriy etish va maktablarda nizolarni hal qilish va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha samarali ichki tizim, shuningdek, o'quvchilarni xavf guruhidan chiqarish yuzasidan maxsus dasturlar ishlab chiqish ko'zda tutilgan [3].

Chunki, jamiyatda mavjud bo'lgan ko'plab ijtimoiy-sotsial muammolar orasida eng dolzarblaridan biri ayrim oilalardagi yoshlarning huquqbuzarlik va jinoyatchilikka moyilligi, ularning xatti-harakatlarida deviant xulqning shakllanishini belgilaydigan ichki va tashqi sabablar borligidir. Bu sabab globallashuv jarayonidagi axborotlarning fuqarolar ong-u tafakkuriga turli xil shakllarda ta'sir etishi, fuqarolarninigi, ayniqsa, yoshlarning sotsial hayoti va taqdirini u yoki bu tomonga burib yuboruvchi, gohida ijobiy, gohida esa salbiy jihatlari ommaviy madaniyatning qudratli vositaga aylanib yoshlar xulqida o'zgarishlarga olib kelmoqda. Shuningdek, yoshlarning sotsial hayotidagi turli salbiy ommaviy madaniyat ko'rinishlari, yoshlarning turmush tarziga urf bo'lib kirayotgani yangicha deviant xulq-atvor namunalarining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Ommaviy madaniyat globallashib borayotgan zamonaviy jamiyatdagi axobotlar tufayli yoshlardagi ijtimoiy-ruhiy va intellektual o'zgarishlar natijasida qaysarlik, depressiv holatlar hamda ommaviy madaniyatga xos so'zlashuv ritorikasi kabi xususiyatlar yoshlar xulqida deviantlik omili sifatida ko'zga tashlanmoqda.

Shuning uchun ham Prezident Shavkat Mirziyoyev yoshlar tarbiyasi butun millat oldidagi ulkan mas'uliyatli vazifa ekanligini ta'kidlab: “Agar farzandimizga to'g'ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan

ogoh bo‘lib turmasak, ularni ilm-u hunarga o‘rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo‘yishimiz hech gap emas” [4], deya ta’kidlaydilar. Oliy ta’lim muassasalarida huquq fanlarini o‘qitishning nazariy tavsifi, ustuvor tamoyillari va muhim yondashuvlari hamda oliy ta’lim muassasalarida huquq fanlarini o‘qitishning mavjud holati xususida so‘z yuritganimizda, eng avvalambor, fuqarolik savodxonligini rivojlantirishda “Huquqiy ta’lim nazariyasi va amaliyoti” tushunchasiga aksariyat holatlarda e’tibor qaratishimiz zarur bo‘ladi. Shunga ko‘ra oliy ta’lim muassasalarida huquqiy ta’lim nazariyasi va amaliyotini takomillashtirishda huquq fanlarini o‘qitish metodikasi o‘quv fanining umumiy mohiyati, yetakchi g‘oyalari, didaktik imkoniyatini yetarlicha anglab olishni taqozo etadi.

Ma’lumki, huquq fanlarini o‘qitish metodikasi bu ta’lim muassasasining faoliyat yo‘nalishi, sohani rivojlantirish konsepsiyasining mohiyati, bo‘ljak mutaxassisning kasbiy-huquqiy kompetentligiga qo‘yiladigan talablarni inobatga olgan holda yuridik materiallarni tanlash asosida talabalarni nazariy va amaliy jihatdan kasbiy faoliyatga tayyorlashga, huquq ta’limi sifatini yaxshilash, o‘qitish samaradorligini oshirish maqsadida ta’lim shakli, metodi, vosita hamda texnologiyalarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi o‘quv fanlari yig‘indisi bo‘lib hisoblanadi.

Shundan kelib chiqqan holda “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishida huquq fanlarini o‘qitish tegishli o‘quv fanlari bilan talabalar huquqbuzarliklari va jinoyatchiligining oldini olishda oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan “O‘zbek adabiyoti”, “O‘zbekiston tarixi”, ijtimoiy-gumanitar fanlar: “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari”, “Davlat va huquq asoslari”, “Tarbiya” kabi fanlar talabalarning huquqiy savodxonlik saviyasining o‘shishiga, dunyoqarashini shakllantirishga, didaktik jarayonda talabalarning ta’lim va bilimlarga bo‘lgan ishtiyoqini kuchaytirishga, (“Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari” hamda huquq fanlari – davlat va huquq asoslari, ma’muriy huquq, fuqarolik huquqi, mehnat huquqi, oila huquqi, jinoyat huquqi, ekologik huquq)dan talabalarga nazariy hamda amaliy bilimlar berib, mustaqil dunyoqarash, ish yuritish, milliy iftixor va umuminsoniy qadr-qimmat tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qilishiga kasbiy faoliyatda samarali foydalanish malakasini rivojlantirishga yordam beradi [5].

Demak, har bir o‘quv fanini o‘qitish aniq belgilangan maqsad asosida tashkil etish orqali talabalarning oliy ta’lim muassasalarida huquqiy ta’lim nazariyasi va metodikasini takomillashtirish muammosini hal qilishda tegishli o‘quv fanining nazariy-metodologik asoslari, o‘ziga xos xususiyatlaridan yetarli darajada xabardor bo‘lish orqali muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, huquq fanlarini o‘qitish metodikasi, talabalarning fuqarolik savodxonligini rivojlantirishda oliy ta’lim muassasalarining faoliyat yo‘nalishi, sohani rivojlantirish konsepsiyasi mohiyati, bo‘ljak

mutaxassisning kasbiy-huquqiy kompetentligiga qo'yiladigan talablarni inobatga olgan holda yuridik materiallarni tanlash, ulardan talabalarni xabardor qilish va kasbiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qiluvchi o'quv fanlari kompleksi bo'lib ham hisoblanadi. Ayni vaqtda, huquq fanlarini o'qitish metodikasi oliy ta'lim muassasalarining "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishida o'qitilmoqda va ularning fuqarolik savodxonligini oshirish uchun xizmat qilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida huquq fanlarini o'qitish metodikasining predmetini huquqiy ta'lim konsepsiyasi mazmuni (DTS, o'quv dasturi, darslik, o'quv-metodik qo'llanma, metodik tavsiyanoma, metodik ishlanma va nazorat topshiriqlari), o'qitishning tashkiliy usullari, vositalari va texnologiyalarining majmui tashkil etadi.

Huquq fanlarini o'qitish metodikasining maqsadi – tegishli ixtisoslik bo'yicha kasbiy faoliyatni tashkil etishga doir nazariy-huquqiy bilimlarni talabalar tomonidan puxta o'zlashtirishga erishish, amaliyotda ulardan samarali foydalanish ko'nikma-malakalarini rivojlantirish orqali kasbiy-huquqiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishlarini ta'minlovchi zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratishdan iborat [6]. Yoshlarning huquqiy madaniyatini rivojlantirish, ular orasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilikning oldini olish, bu borada pedagogik profilaktika tizimini takomillashtirish, talabalarining huquqiy ongini rivojlantirish orqali ularning huquqiy bilimning yetarli emasligi tufayli ba'zi bir kamchiliklari ham ko'zga tashlanadi, bular: aqliy faoliyat usullaridan keng foydalana bilmaslik, eng muhim bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdagi uzilishlar, o'z ustida mukammal ish olib bormaslik va hokazolar.

Shunday ekan, yoshlarni tashqi muhitning ta'siri natijasida vujudga keladigan nuqsonlar, chunonchi, oilaviy nizolar, ajralish, ota-onaning ichkilikka va shahvoniy hayotga berilishi ham tarbiyasi qiyin yoshlarning ko'payishiga sabab bo'ladi. Talabalar, ya'ni yoshlar yetuk komil inson qilib tarbiyalashda ulardagi ba'zi bir kamchiliklarni bartaraf qilishimiz zarur. Masalan,

1. Shaxsning ruhiy kamolotidagi nuqsonlar: aqlning ojizligi, irodaning zaifligi, zarur ehtiyoj va qiziqishlarning shakllanmaganligi, o'spirindagi intilish bilan imkoniyatlarning nomutanosibligi, shaxsda hissiyotning sust rivojlanganligi va hayotga bo'lgan qiziqishning pastligi.

2. Shaxsning tarbiyasidagi nuqsonlar: axloqiy hislatlarida uchraydigan kamchiliklar, talabalarining talabalar, guruh jamoasi va oila a'zolari bilan muloqotidagi zaifliklar, mehnat tarbiyasidagi nuqsonlar, axloqiy tarbiyasidagi kamchiliklar, bo'sh vaqtni taqsimlashdagi xatolar, salbiy xatti-harakat yurituvchi guruhlar ta'siriga tushib qolish.

3. Oldingi ta'lim bosqichlarida yo'l qo'yilgan kamchiliklar: ta'lim jarayonida bilimlar va xatti-harakatlarni adolatsiz baholanishi, bilimlar, maxsus ko'nikmalar va malakalarni egallashdagi uzilishlar.

4. Ta'lim muassasasi tarbiyaviy ishlaridagi kamchiliklar (talabanning atrofida gilariga nisbatan xayrixoh emasligi, empatiya hislarining mavjud emasligi, yoshlarning yakkalanishi, yoshlar jamoasidagi nuqsonlar, va h.k.).

Talabalarning fuqorolik savodxonligini rivojlantirishda ular, eng avvalombor, qonuniylik, insonparvarlik, tizimlilik, ishontirish usulining ustuvorligi, ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlarini farqlash kabi hislatlarini shakllantirish zarur.

Asosan yoshlarning huquqbuzarliklari va jinoyatchiligining oldini olishda oilaning rolini kuchaytirish va shu maqsadda oila institutining ta'lim hamda tarbiya muassasalari bilan o'zaro amaliy hamjihatligini mustahkamlash, ularning yaqin va samarali hamkorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish lozim. Buning uchun respublikamizda jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil yoki uni sodir etgan og'ir tarbiyali, muammoli o'smir yoshidagi (adektiv xulqli)lar bilan ishlash, ularni tarbiyalash va qayta tarbiyalash tizimining samarali faoliyatini tashkil qilish lozim.

Xususan, yoshlarning oilaviy sharoitini o'rganish va ota-onasiga pedagogik-psixologik yordam ko'rsatish; yoshlarning qiziqishlarini e'tiborga olgan holda turli madaniy-ma'rifiy tadbirlarga muntazam ravishda jalb qilish;

Xulosa sifatida bayon qilingan mulohazalar asosida yoshlar jinoyatchiligining oldini olishda, fuqarolik savodxonligini rivojlantirishda huquqiy bilimdonlikni shakllantirish jihatlari ortib bormoqda. O'zbekistonda yoshlarni barkamol, har tomonlama yetuk fuqarolar qilib tarbiyalash borasida jadal islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini milliy qadriyatlar asosida yuksaltirish amaldagi mavjud qonun hujjatlarini ular ongiga singdirish bilan birga oiladagi sog'lom muhitni shakllantirib borishdan iborat. Buning uchun esa, birinchi galda yoshlar ta'lim-tarbiyasiga e'tibor qaratish, shaxs sifatida ularning o'zligini anglashni kuchaytirish, milliy qadriyatlar urf-odatlarini ularning ongiga singdirib, chin vatanparvar, o'z huquq va majburiyatlarini chuqur anglagan, bilimli, yetuk salohiyat va aqliy tafakkurga ega huquqiy ong va madaniyati yuksak qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Adabiyotlar

1. lex.uz/m/acts/3864155
2. <http://uzedu.uz/Xtv/IndexBatafsil/71?ID1=1394>
3. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.04.2019 й., 06/19/5712/3034-сон
4. Шавкат Мирзиёев. Ватанимиз тақдири ва келажаги йўлида янада ҳамжихат бўлиб, қатъият билан ҳаракат қилайлик. – Т.: Ўзбекистон, 2017.- Б.21.
5. Kadirova. Ya.B. Issues of Civil Literacy Development in the Education System. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, pp 5477-5489. Retrieved

from. 2021. Volume 25: Issue 4 (<https://www.annalsofrscb.ro/index.php/journal/issue/view/28>).

6. Kadirova. Ya. Legal basis of formation of civic culture in students. Journal Of Information And Computational Science. Vol. 1 Issue 2, June. – 2021, p. 35-48. <https://www.sciencepublish.org/index.php/ics>

CHOLG‘U SOZLARI O‘QUVCHILARNING MILLIY MUSIQIY KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA

Yuldoshev U.Y. – Toshkent davlat pedagogika universiteti “Musiqqa madaniyati” fakulteti dosenti v.b., PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta’lim maktabi o‘quvchilarining milliy musiqiy ko‘nikmalarini shakllantirishda cholg‘u sozlarining o‘rni va ahamiyati, ta’lim va tarbiya masalalarini sifat va samaradorlikka ko‘tarish jarayonidagi ma’naviy vositalar hamda shular orqali milliy vatanparvarlik g‘oyalarini o‘quvchilar ongiga singdirish xususida so‘z borgan. Qolaversa, musiqqa san’ati ta’limi va targ‘ibotining bugungi kunda yoshlar ta’limi va tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati nechog‘li muhimligi xususida fikr-mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: vatan, strategiya, musiqqa, kuy-ohang, milliy cholg‘ular, legato, stakkato, badiiy did, musiqiy ruhiyat.

МУЗЫКАЛЬНЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ МУЗЫКАЛЬНЫХ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ

Юлдошев Ю.Ю. - Ташкентский государственный педагогический университет, доцент кафедры «Музыкальная культура», кандидат искусствоведения

Аннотация. В данной статье рассматривается роль и значение музыкальных инструментов в формировании национального музыкального мастерства у учащихся общеобразовательных учреждений, повышения у них качества духовности, благодаря которым в сознание учащихся внедрялись бы идеи национального патриотизма. А также говорится о роли, значении и популяризации музыки в обучении и воспитании молодежи сегодня.

Ключевые слова: родина, стратегия, музыка, мелодия, народные инструменты, legato, стаккато, художественный вкус, музыкальный дух.

MUSICAL INSTRUMENTS AS A MEANS OF DEVELOPING STUDENTS' NATIONAL MUSICAL SKILLS

**Yuldoshev U.Y. - Associate Professor of "Music Culture", Ph.D of
Tashkent State Pedagogical University**

Annotation. This article discusses the role and importance of musical instruments in the formation of national musical skills among students of educational institutions, improving their quality of spirituality, thanks to which the ideas of national patriotism would be introduced into the minds of students. It also talks about the role, significance, and popularization of music in the education and upbringing of young people today.

Keywords: motherland, strategy, music, melody, folk instruments, legato, staccato, artistic taste, musical spirit.

O‘zbekiston Respublikasining bugungi kunda o‘zining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma’rifiy sohalarida yuksak natijalarga erishayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Buning asosiy sababi O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov tomonidan mustaqillikning dastlabki yillarida rivojlanishning beshta tamoyili asosida O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasini belgilab bergan edilar. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevral kuni 2017–2021-yillarda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. 2022-yil 28-yanvar kuni esa 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi belgilab berildi [1].

Natijada, mamlakatning barcha tarmoqlari qatorida ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo‘l transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta’lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san’at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish ko‘zda tutilgan [1]. Agar bu yo‘nalish bo‘yicha ta’lim, ilm-fan va san’at sohalarini oladigan bo‘lsak, musiqa ta’limi sohasini yanada rivojlantirish hamda bu borada islohotlarning tobora keng quloch yoyishi davr taqozosi sifatida qaralmoqda. Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, BMTning bolalar huquqlari bo‘yicha konvensiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz majburiy ta’lim tizimining Davlat ta’lim standartlari hamda bir qancha qaror, nizom va dasturlarning hayotga tadbiiq qilinishi ushbu sohaning rivojlanishini ta’minlamoqda [9].

Mamlakatimizda fuqarolarga ta’lim-tarbiya berish, kasb-hunar o‘rgatishning huquqiy asoslari yaratildi va har kimning bilim olishdan iborat bo‘lgan

konstitusiyaviy huquqini ta'minlashdu. Umumta'lim maktablari o'quvchilarini milliy ruhda tarbiyalash deganda, avvalo, Ona-Vatanga, tug'ilib o'sgan zaminga bo'lgan muhabbat, uni sevish, ardoqlash, himoya qilish, boshqalarni ham shunga da'vat etish, Vatan ravnaqi, rivojlanishi uchun uning bir siqim tuprog'iga xiyonat etmaslik va aksincha sidqidildan mehnat qilish tushuniladi. Inson milliy ruhi deganda, uning Vatanparvarligi, jamiyat, tabiat, zamon va makon oldidagi burchi, shu hududda yashayotgan barcha kishilarni, turli millat va elatlarni birdamlikka birlashtiruvchi muhim omil ekanligi hammamizga ma'lum.

Vatan - arabcha so'zdan olingan bo'lib, "Ona yurt" degan ma'noni anglatadi. Vatan insonning kindik qoni to'kilgan, avlod va ajdodlari tug'ilgan joyi, ijtimoiy muhiti va inson, uning hayoti va ma'naviy tushunchalarni o'zida mujassasm etsa, milliy ruh deganda endi o'sib kelayotgan yosh avlodni shu millat, xalq, jamiyat va vatan uchun fidoiy qilib tarbiyalash tushuniladi. Nazarimizda Vatan va milliy ruh bir-biriga juda yaqin. Ular bir-birini to'ldirib, ta'lim va tarbiyada juda katta vosita bo'lib xizmat qiladi [2; 12-b].

Umumta'lim maktablarining o'quvchi yoshlarni milliy ruhda tarbiyalashda ularni Ona-Vatanga sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, Vatan ravnaqi uchun faol bo'lishga undaydigan shunday ma'naviy vositalar borki, ular asosida ta'lim va tarbiya masalalarini sifat va samaradorlikka ko'tarish mumkin. O'zbek milliy cholg'ulari ota-bobolarimizdan, ajdodlarimizdan qolgan meros. U asosida shu zaminni sevish, yurtning o'tmishi va kelajagi, xalq urf-odatlarini, kuy-qo'shiqlarini, qadriyatlarini asrash va rivojlantirish ishlarini yuqori saviyada tashkil etish mumkin.

Milliy vatanparvarlik g'oyalarini o'quvchilar ongiga singdirish oila, bog'cha, maktabda boshlansa-da, akademik lisey, kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalarida davom ettiriladi. Bu jarayon bobolar o'giti, ona mehri, ota ibрати, ustozlar namunasi orqali singdirilib boriladi. Milliy-ma'naviy g'oyalar o'quvchilar qalbi va ongiga singdirishda adabiyot, tasviriy san'at, tarix, musiqa birgalikda va hamjihatlikda olib boriladi. Ular orasida musiqa yosh avlodni tarbiyalashning eng oddiy va samarali vositasidir. Umumta'lim maktablari o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash masalasini maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlash lozim. Chunki bolalar musiqa bilan ona allasi orqali tanish. Bu biz uchun ancha qo'l keladi. Qolaversa, radio, televideniye, kino, badiiy filmlarda yaralayotgan kuy-ohanglar har qanday qalbni zabt etmay qolmaydi. Bevosita va bil vosita musiqiy mashg'ulotlar orqali olinadigan musiqiy axborotlar bolalar uquvini xalq musiqasi va turli-tuman shakldagi musiqa sadolari bilan ham boyitib boradi.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash musiqa ta'limining asosini tashkil etadi. Garchi, musiqa madaniyati fani dasturida o'zbek xalq musiqasi ma'lum tartibda berilgan bo'lsa-da, har bir ohang mazmunida milliy

ruhiyatni o'zida mujassam etgan kuy va qo'shiqlar gavdalanadi [7; 64-b]. Shunday ekan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining musiqa madaniyati fani darslarida o'zbek milliy cholg'ularining turlari haqida birma-bir ma'lumot berib borish orqali o'quvchilarni milliy ruhiyatini tarbiyalab borish ko'nikmasini shakllantiramiz.

Musiqa o'qituvchisi o'quvchilarni yoshi, sinfi, ovoz diapazoni qiziqishiga qarab, yoshlarni milliy ruhiyatini tarbiyalovchi Vatan, O'zbekiston, davlat ramzlari, ota-ona, tabiat haqida qo'shiqlarni tinglash barobarida ushbu asarlarning kuy-ohanglari, milliy kuy, ushbu ohang tarqatayotgan o'zbek musiqa cholg'u asboblari, ular rasmi tushirilgan tarqatma materiallar yoki umumta'lim maktabi fondida mavjud bo'lgan musiqiy cholg'ularni tanishtirish, ularning sadolanishi xususida fikr-mulohazalar berib borishlari ko'zlangan maqsad sari etaklovchi vositadir.

Musiqa darslarida eng qiziqarli faoliyat turi bu o'quvchilarni musiqiy cholg'ular bilan tanishtirish, unda kuy ijro etishni o'rgatish. O'quvchi o'zi eshitayotgan kuylarni o'zi milliy cholg'uda ijro etishi uning uchun juda qiziqarli faoliyatdir [4; 33-b]. Bu faoliyat o'quvchilarni ijodkorlikka undaydi.

O'quvchilar cholg'u asboblarida jonli tovushli milliy cholg'ularda ijro etishi har bir bolani qiziqtiradi. Chapak va o'quvchilar cholg'u asboblarida ritmik jo'r bo'lish, musiqaning harakter va obrazlarni chuqurroq his etishda, ularga mos emotsional tuyg'ular hosil qilish, ayniqsa, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa mashg'ulotlarida o'quvchilar cholg'u asboblaridan foydalanish ijobiy natijalar berish bilan birga o'quvchilarning mashg'ulotga intiluvchanligi, qiziqishi va musiqiy o'quvini, xotirasi, ritmni his qilish tuyg'usini, nutqini o'stiradi.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga olgandan so'ng, barcha sohalarda bo'lgani kabi milliy cholg'ularni o'quvchi yoshiga moslab, tayyorlash masalasiga ham bee'tibor bo'lmadi. Aksincha, nafaqat umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilari yoshiga mos xolda milliy cholg'ularni yaratish masalasini keng yo'lga qo'ydi. Bu asboblarning kattalar ijro etadigan tabiiy asboblardan farqi - shakl jihatdan kichkina, o'quvchilarning ko'tarishi echun engil, qo'lga ushlashda va foydalanishda toliqish sezilmaydi, pardalarda chalish juda engil, hatto cholg'u simlari kichkina qo'llarni qiyib yubormaydi, ya'ni ijro vaqtida o'quvchilarga qiyinchilik tug'dirmaydi.

O'quvchi yoshiga mos va xos bo'lgan cholg'ularni amaliyotga tadbiiq etish masalasi ham mutaxassilar oldiga turgan vzifalardan biri edi. Endi bu masalani hayotga tadbiiq etish uchun ma'lum bir o'quv qo'llanma talab etilardi. Bu borada O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori A.Leviyevning xizmatlari katta bo'ldi [5, 17-b]. Uning "O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik" nomli qo'llanmasi yuqoridagi masalani hal etishda juda qo'l keldi. Bu kitobning o'ziga xosligi shundaki, birinchidan, o'zbek bastakorlarining o'quvchilar uchun yozgan qo'shiqlaridan keng

foydalanilgan. Bu o'quvchilarda tanish bo'lgan qo'shiqlarni cholg'ularda ijro etib, kuylashlari uchun ancha qulayliklarni yaratadi. Ikkinchidan, aynan o'zbek xalq kuylaridan namunalar keltirilganligidir. Bu bog'cha o'quvchilarida yoshligidan o'zbek xalq kuylarida mehr-muhabbat hissini, ularga hurmatini uyg'otadi. O'quvchilar o'zlari o'zbek xalq kuylarini cholg'uda ijro etishsa, anchagacha eslarida qoladi. Uchinchidan, bu cholg'ular tavsifi, uni ijro etish malakalari va ko'nikmalari batafsil yoritib beriladi.

Musiqqa mashg'ulotlarida o'quvchilar cholg'u asboblarini qo'llashi, tarbiyachidan katta mas'uliyat, ijodkorlik va topqirlikni talab etadi. Umumta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida o'quvchilar musiqqa cholg'ulari asosan ikkita guruhga, ya'ni tovush balandligiga ega bo'lgan melodik hamda urib chalinadigan cholg'ularga bo'linadi. [3; 45-b].

Bolalar musiqqa cholg'ularida chalish - o'quvchilarning jamoaviy ijrochilik faoliyati turlaridan biridir. Uning dars mashg'ulotdagi o'rni o'quvchining musiqiy qobiliyatini yuzaga chiqarish va rivojlantirish, kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining badiiy tajribasini boyitish, ijrochilik faoliyatiga qiziqish uyg'otish va eng muhimi ularda milliy ruhni tarbiyalashdan iboratdir [8; 12-b].

Dars mashg'ulotlarida o'quvchilarning cholg'u asboblarida ijrochilik faoliyatini qo'llash bir necha o'quv-pedagogik vazifalarini hal etishga qaratilgan:

-o'quvchilarni dars mashg'ulotlarida milliy cholg'ularga bo'lgan mehr va muhabbatni uyg'otish va sinfdan tashqari hamda bo'sh vaqtlarida milliy cholg'ularda mashq qilish ehtiyojini singdirish;

- ularda badiiy did va qiziqishlar shakllanishiga yordam berish;

- jamoaviy faoliyatda cholg'u asboblarida ansambl bo'lib ijro etish ko'nikmalarini shakllantirish;

- cholg'ular tembrlarini farqlash, ularning jaranglashdagi uyg'unligini his eta olishlariga erishish;

- musiqiy qobiliyatlar - lad, ritm, shaklni his etish, tembr, melodik, garmonik eshituv, xotirani rivojlanishini faollashtirish;

- o'quvchilarda musiqiy ifoda vositalarining ahamiyati haqidagi tasavvurni shakllantirish va rivojlantirish.

Bu vazifalarni amalga oshirishda musiqiy-o'quv repertuari va ish metodlari hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Dars mashg'ulotlarida qo'llaniladigan musiqiy materialning eng asosiy xususiyati - uning serqirraligidir, ya'ni bir yoki bir necha asarning o'zida bir qator tasavvur, malaka, ko'nikmalar shakllantirilishi imkoniyati borligidadir. Bundan tashqari, musiqiy material deb tilga olinayotgan musiqiy asar o'quvchilar va o'qituvchining birgalikdagi ijrosi uchun qulay bo'lishi va ijodiy harakatlarni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bolalar cholg'ularida chalishda eshituvchanlik va ovoz koordinatsiyasi muvofiqligi bo'sh bo'lgan

o'quvchilarning musiqiy-ijodiy rivoji uchun ham ayniqsa foydalidir.

Musiqqa o'qituvchisi musiqqa cholg'ulari yordamida o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalashda, ularni musiqaga mos ravishda harakat qilishga o'rgatadi. Bolalar tanishib bo'lgan kuylariga mos ohanglarni chalishni, ritmga mos usul berishni, engil bo'lgan kuylarni ijro etishni, qo'shiq kuylash jarayonida jo'r bo'lishni o'rganadi. Ular cholg'ularning sof jaranglashi, toza sozlanishi, o'ziga xos tembriga ega bo'lish kabi jihatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi [6; 22-b].

Xulosa o'rnida shuni a'lohida ta'kidlash lozimki, umumta'lim maktablari o'quvchilari milliy cholg'ular asosida quyidagilarni to'la egallash ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Bular, cholg'ular nomlarini va ularning sadolanish xususiyatlarini, ovoz tembrini, cholg'ular tembrlarining eshituvchanligini farqlash va ularning ifodaviylik xususiyatlarini anglash, har qaysi cholg'u asbobida chalish usullari va yo'llarini o'rganish, unda o'zbek milliy kuylarining sadolanishi, cholg'ularda tovush hosil qilish va tovush yo'naltirishning (legato, stakkato) ifodaviylik ahamiyatini, ansambl ijrochiligi malakalarini hosil qilinishini, murakkab bo'lmagan o'zbek milliy kuylarni chala olish, tovush balandligiga ega cholg'ularda baland va past tovushlarning joylashuvini bilish, nota nomlari va ularning nota chizig'idagi o'rnini bilish kabi qator bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar. O'qituvchi musiqqa madaniyati darslarida Vatanga muhabbat, uning yutuqlaridan faxrlanish, uning ravnaqi yo'lida halol mehnat qilish, fidoiy, sadoqatli bo'lish kerakligini o'rganadi, ularda milliy ruhiyat tarbiyasini va milliy musiqiy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/89/0227-сон.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 108 б.
3. Акбаров И. Муסיқа луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – 384 б.
4. Иброҳимов О. 4-синф учун дарслик. – Тошкент: Ғ.Ғулом, 2012. –158 б.
5. Каримова Д. Педагогик маҳорат асослари. “Муסיқа”, – Тошкент, 2008.
6. Муродова Д. Шашмаком аънавалари ва замонавийлик. – Тошкент: “Муסיқа”, 2005. – 154 б.
7. Умумий ўрта таълимнинг ДТС ва ўқув дастури, 2020.
8. Шарипова Г. Муסיқа ўқитиш методикаси. – Тошкент: Муסיқа, 2000. – 233 б.
9. <https://lex.uz/uz/docs/5841063>

“TEPALIKDAGI XAROBA” ROMANI POETIK IFODA USLUBI

Atabayeva G.F.– Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada taniqli o‘zbek nosiri Omon Muxtorning “Tepalikdagi xaroba” romani o‘rganilgan. Mazkur roman misolida adib uslubining o‘ziga xos qirralari tahlil etilgan. Maqolada roman qahramonining o‘z borlig‘i, shaxsiy mavjudligini anglay boshlashi bilan bog‘liq tasvirlar kuzatilib, O.Muxtor mahoratining o‘ziga xosligi haqida muayyan xulosalar ifodalanadi.

Kalit so‘zlar: uslub, ifoda, roman, qahramon, ruhiy kechinma, shakl, mazmun, majoz, ramz, nosir, bayon.

РОМАН «РУИНЫ НА ХОЛМЕ» - СТИЛЬ ПОЭТИЧЕСКОГО ВЫРАЖЕНИЯ

Атабаева Г.Ф. - преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В данной статье рассматривается роман известного узбекского писателя Омона Мухтора «Тепаликдаги хароба». В романе анализируются особенности стиля писателя. В статье прослеживаются образы осознания героем романа собственного существования и личного бытия, делаются определенные выводы об уникальности мастерства О. Мухтора.

Ключевые слова: стиль, экспрессия, роман, герой, переживание, форма, содержание, метафора, символ, проза, повествование

THE NOVEL "RUINS ON THE HILL" - A STYLE OF POETIC EXPRESSION

Atabayeva G.F. - Teacher of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. This article examines the novel "Ruins on the Hill" by the famous Uzbek novelist Omon Mukhtor. The novel analyzes the peculiarities of the writer's style. The article follows the images of the novel's protagonist's realization of his own existence and personal existence, and draws certain conclusions about the uniqueness of O. Mukhtor's skills.

Keywords. Style, expression, novel, hero, emotional experience, form, content, metaphor, symbol, prose, narrative

Adabiyotshunos olim D.Quronovning ta’kidlashicha, ijodkorning kitobxon bilan muloqoti amalga oshishida hikoya qilinayotgan narsaga muallif munosabati,

dunyoqarashi, ayni paytdagi ruhiy holati muhim ahamiyatga egadir. U esa ko‘proq uslubda namoyon bo‘ladi [6. 231].

Badiiy uslub masalasi o‘zbek adabiyotshunosligida muayyan darajada o‘rganilgan. Adabiyotshunos olimlar turli xil muammolarga oid tadqiqotlarida uslubga ham munosabat bildirib o‘tishgan. Jumladan, adabiyotshunos M.Qo‘shjonov yozuvchi badiiy mahoratiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida “uslub” deb hayot voqeliklarini badiiy aks ettirishning ko‘pincha tasvir obyekti talablariga ko‘ra o‘zgarib turuvchi xilma-xil usullarini tahlil etadi [7]. Filologiya fanlari doktori U.Normatov esa ko‘proq “ijod tiplari” masalasiga jiddiy e‘tibor beradi [2] [114]. Adabiyotshunos olim T.Rasulov: “Uslubni u yoki bu ijod tipidan yoki priyom va badiiy tasvir usullaridan emas, balki yozuvchilarning shu ijod tipi hamda usullardan foydalanishdagi o‘ziga xos, original xususiyatlari, individual “pocherk”idan qidirish maqsadga muvofiqdir” [5. 179], deb yozadi.

Darhaqiqat, har bir asarda yozuvchi o‘zligi: o‘y-tushuncha, his-tuyg‘ulari namoyon bo‘ladi. O.Muxtor betakror iste‘dodining tabiati, ijodiy qiyofasini aks ettiruvchi uslubiy tamoyillar mavjud bo‘lib, shu asosda muayyan romanni tashkil etuvchi vositalar tizimi bir-biriga tutashadi. Binobarin, chinakam badiiy hodisa tabiatan betakroridir.

Omon Muxtor ifoda va uslub rang-barangligidan foydalanib fikr va tafakkurga asoslangan bir qator romanlar yaratgan. U o‘z asarlarida xalq og‘zaki ijodida mavjud bo‘lgan ko‘plab jihatlar: didaktika, majoziylik, mubolag‘a, shartlanganlik, sujet ixchamligi, sarguzashtlilik, tilsim vositalaridan foydalanishga alohida ahamiyat qaratadi. Turli ruhiy holatlarni tasvirlash va fon yaratish maqsadida bayonda dialog, monolog, kinoya, qochirim, ramz, majoz, shama, piching, o‘xshatish kabi poetik komponentlardan unumli foydalanadi. Nosir romanlariga xos bunday jihatlarni o‘rganish uning qarashlari, e‘tiqodi, uslubi haqidagi fikrlarimiz doirasini yanada kengaytiradi. Falsafiy-psixologik mushohadalarimiz esa Omon Muxtor romanlari mohiyatiga teranroq kirib borish, olamni sinergetik o‘zlashtirish g‘oyasining bugungi adabiy nasrimizdagi zuhurotini kuzatish imkonini beradi.

Omon Muxtor o‘zbek romanchiligiga yangi badiiy talqin ruhini olib kirishga intilib, har bitta romanida yangicha shakllarga murojaat qiladi. Omon Muxtor romanlari chuqur falsafiylik asosiga qurilib, ularda , tarix, bugun va kelajak o‘zaro bog‘liqlikda tasvirlanadi.

Adabiyotshunos U.Normatov O.Muxtorning “Ffu”, “Ayollar mamlakati va saltanati” romanlari xususida so‘z yuritib shunday deydi: “Bu asarlar sharqona milliy ruh, falsafa bilan yo‘g‘rilgan. Xalq og‘zaki ijodi namunalari-rivoyat va ertaklar sujetining qayta hikoyasi, xususan “Bir yolg‘onda qirq yolg‘on” ertagi bayoni asar matniga ajib fayz va jilo baxsh etgan. Omon Muxtor romanlari shakl-shamoyili, sujet tuzilishi, ifoda tarzi jihatidan yangicha” [3. 60].

O.Muxtor uchun aniq zamon va makondan ko'ra masalaning ma'no-mohiyati ko'proq ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham adib rang-barang ramziy va majoziy tasvirlarga murojaat qiladi. U asarlarida barqaror ramzlar qo'llash orqali ham voqea-hodisalar mohiyatini ifodalaydi.

Omon Muxtor inson o'z maqsadlariga ongli ravishda harakat qilish orqali erishadi, deb biladi. Adibning *"Tepalikdagi xaroba"* romanining qahramoni Mirza G'olib o'z sezgi va kechinmalari, kayfiyatlari olamida yashaydi, harakat qiladi.

Nosir romanda insonning tarixiy burilishlar davrida qanday yashay olishi masalasini keng tahlil etadi. Uning qahramoni kundalik odatiy hayotda o'zini anglab etishga harakat qiladi. Mirza G'olib tevarak-atrofdagi bo'layotgan hamma ishlar uchun o'zida aybdorlik tuyadi. Omon Muxtor metodologik asos sifatida borliqni sinergetik bilish uslubiga tayanib, hayotning chin mohiyatini ochadi.

Yozuvchi Mirza G'olibni o'lim bilan yuzma-yuz kelgan holatda, ya'ni chegara (ekstremal) vaziyatda tasvirlaydi. Natijada, qahramon o'z borlig'i, shaxsiy mavjudligini anglay boshlaydi. Ilk bor o'z erkinligini qo'lga kiritadi, o'z-o'zini shakllantiradi. Hayot talablariga moslashib ketavermay, olomonga nisbatan norozilik tuygan.

"Tepalikdagi xaroba" romanida XX asr boshlarida tafakkurda qilingan o'zgarishlarning samarasiz kechgani haqida so'z boradi. *"Bog"* orqali ishora qilingan makon shartli tarzda tushunilishi kerak. *"Bog"*dagi uylar bir-biridan ajralgan va omonat. *"Ummon"*dagi bunday *"orol"*larning nomlari ham muhim emas. Butun gap ularning mohiyatan o'xshashligida, odamlarning erksizligida. Tepalikdagi xaroba Mirza G'olibga goh qo'nalg'ani, goh oromgohni, goh turar joyini, gohida esa shifoxona yoki qamoqxonani eslatadi. Bu xarob manzaralar yaqin o'tmish hayoti lavhalaridir. Bu lavhalarni muallif ochiq-oshkor qatag'on davri qamoqxonalariga qiyoslaydi. Sho'rolar davri jamiyatini xaroba yoki mahbusxona deb atash uchun nosir fikri va hissini to'plab, jo'shib, sidqidildan tafakkur yuritgan [1. 25].

Mirza G'olib davr voqealarining borishida biron narsani o'zgartirishga qodir emasligini sezib, ruhan qiynaladi. Romanda O.Muxtor intellektual-psixik funksiyalarni birinchi o'ringa qo'yib tasvirlaydi. Natijada, Mirza G'olib konkret va takrorlanmas shaxs sifatida maydonga chiqadi. Bizningcha, bugungi o'zbek nasri, xususan, O.Muxtor romanlarining ijtimoiy-axloqiy mohiyatini erkinlikning noan'anaviy tushunilishi, ob'ektiv talqinidan izlamoq kerak.

O.Muxtor romanda iste'dodli nosir sifatida real voqelikni ramzlar orqali aks ettirib, dunyo haqidagi qarashlarimizni muayyan darajada kengaytiradi. Zero, badiiy ijod falsafiy dunyoqarash bilan chambarchas bog'liqdir. Zamon ruhini teran his qilgan muallif romanda poetik g'oyani yorqin ifodalay olgan.

Mirza G'olib jamiyatdagi befarqlik, loqaydlik, jur'atsizlik singari illatlarining sabablarini izlaydi. U bo'm-bo'sh olam bilan yuzma-yuz kelib, so'na boshlagan

umidlarini nurlantirish, ruhiy va jismoniy charchoqni unutish uchun omonat ilinj bo'lgan xarobada qoladi. Shu yerda qahramon o'y-xotiralar, muhokama-mulohazalar girdobiga sho'ng'iydi. Bu esa parchalangan ruhini yagona nuqtaga jamlab, o'zini o'nglay olishiga yordam beradi. To'qayzorda ketayotgan Mirza G'olib oldidan so'qmoq chiqqanida xursand bo'lib ketadi. "Yakka-yolg'iz to'qayzordan - bu so'qmoq yaxshi albatta: katta yo'lmi, kichikmi – bir erga olib ham chiqadi, degan xayoldan hozir Mirza G'olib, harholda, taskin topmoqda: yana oldinga sudralmoqda edi" [4. 240]. Bunda so'qmoq ramziy ma'noda qahramonning o'z yo'lini tanlab olishi, bo'lib uzoq yillar hayot changalzorida kezib yurgan Mirza G'olibning xursand bo'lishi, so'qmoq bo'lsa ham o'z yo'lini topganida edi.

Hech kimga e'tiroz bildirmaydigan, itoatgo'y Mirza G'olib sekin-asta o'ylovchi, fikrlovchi qahramonga aylana boradi. U sekin-asta hayot va yashash mazmunini anglay boshlaydi. Chirkin va biqiq muhitdan chiqish uchun o'ziga yo'l axtara boshlaydi. Bunda u o'tmishda yashab ijod etgan ulug'ijodkorlardan ma'naviy-ruhiy rag'bat oladi. Ko'pincha u Lutfiy, Mashrab, Bayronni eslaydi. Romanda qahramon fikr-qarashlari bilan uyg'un holda ushbu ijodkorlar she'rlaridan, ibratli hayot yo'lidan misollar berib boriladi. Insonning yolg'izligi haqida xayolga tolgan qahramon: "Behosdan "Keragim yo'q mening hech kimga" – Bayronning she'ri uning qayta yodiga tushdi. Mirza G'olib Mashrabni esladi: "Meni yo'qlar kishim bormu?". Keyin "Lutfiyi-bechora... tuman hasrat bila!" [4. 242], misralarini eslaydi. Shundan keyin o'zini-o'zi savolga tutadi. Bunday fikr-mulohazalar qahramonning o'ziga xos tafakkur kishisi ekanligini ko'rsatadi.

O'zidagi ichki moddiy-ma'naviy imkoniyatlarni ishga sola bilgan qahramon borliq, inson, moddiy va ma'naviy qimmatlarni yaxlitlikda tahlil etadi. Nihoyat, muhitdan, odamlardan, o'z-o'zidan norozilik sezib, xarobada qolib ketishni astoydil istamaydi. Chigal sharoit tufayli tushib qolgan muztarib holatidan qutuladi. Uning ko'nglida paydo bo'lgan norozilik o'ziga xos isyon bo'lib, yuragida ko'milib yotgan tuyg'ularning qalqib chiqishiga yo'l ochadi. "*Tun bag'rini yorgan nola*" [4. 223] qahramon qalbining sadosidir. Ko'ngliga quloq tutgan qahramon mavhumlik va zulmatni ortda qoldiradi.

Mirza G'olib ruhiy osoyishtalikdan quvvat oladi. Qalbini ilohiy nurlardan to'sib turgan hijob – parda tark etgach, fayzlardan bahramand bo'lib, ruhiy kamol topadi, qalb ko'zi ochiladi. O'zidagi xudbinlikni engib, fidoiylikka tomon yuz buradi. Umidlanish tuyg'usi uni nurli yo'lga eltadi. E'tiborli jihati shundaki, Mirza G'olib to'qayzorda yurib g'oyatda qiynaladi. Hatto o'limiga ham rozi bo'ladi. Allohga iltijo qilib o'zini yaxshi nom bilan eslashlarini, insonlarni munosib yaxshi yashashlarini so'raydi. "Dahshatli joyi; u shunchalik azoblangan ediki, yuragida endi o'limga zarracha norozilik yo'q edi" [4. 295]. Bunda biz hayot mashaqqatlariga sabrli, imon-e'tiqodli qahramon siymosini ko'ramiz.

Ko‘rinadiki, romanda insonning ruhi va tafakkurida kechgan jarayonlar qalamga olinadi. Roman erk va ruh ozodligi haqida bo‘lib, ruh ozod bo‘lmaguncha anduh barham topmaydi, degan fikr ilgari suriladi. Dildagi ozodlik ko‘ngilni g‘uborlardan, gunohlardan poklash orqali amalga oshadi.

Umuman, Omon Muxtorning “Tepalikdagi xaroba” romanida o‘ziga xos mahorat egasi ekanligini namoyon eta olgan. Romanda qo‘llanilgan ramziy-majoziy tasvir yozuvchi ilgari surgan yetakchi g‘oyani san’atkorona ifodalashga xizmat qilgan. Bu esa roman uslubining o‘ziga xosligini ta’minlangan.

Adabiyotlar

1. Normatov U. Nasrimiz ufqlari. – Toshkent, 1974.
2. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000.
3. Omon Muxtor. To‘rt tomon qibla.– T.: “Sharq” NMK Bosh tahririyati. 2000.
4. Quronov D. Cho‘lpon nasri poetikasi. – Toshkent: Sharq NMK, 2004.
5. Qo‘shjonov M. Hayot va mahorat. – Toshkent, 1962.
6. Qo‘shjonov M. Oybek mahorati. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1965.
7. Yoqubov I. Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2021.

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI O‘QITISHDA IZCHILLIK

Abdullayev Sh.S. - Farg‘ona davlat universiteti axborot texnologiyalari kafedrasini o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada informatika va axborot texnologiyalarini o‘qitishning izchilligi, oliy ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati yuzasidan fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: AKT komponentlari, gorizontal daraja, vertikal daraja.

ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТЬ ОБУЧЕНИЯ ИНФОРМАТИКЕ И ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ

Абдуллаев Ш.С. - преподаватель кафедры информационных технологий Ферганского государственного университета

Аннотация. В данной статье приведены представления о непротиворечивости, месте и важности преподавания информатики и информационных технологий в системе высшего образования.

Ключевые слова: компоненты ИКТ, горизонтальный уровень, вертикальный уровень.

PERFORMANCE IN TEACHING INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES

Abdullaev Sh.S. - Lecturer at the Department of Information Technology, Fergana State University

Annotation. This article provides ideas on the consistency, place and importance of teaching computer science and information technology in the higher education system.

Keywords: ICT components, horizontal level, vertical level.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan buyon ulkan islohotlar va taraqqiyot bosqichini bosib o‘tdi. Ushbu taraqqiyot va bunyodkorlik yo‘lida barkamol avlodning o‘rni juda katta. Mamlakatimiz rivoji taraqqiyotining asosi ta‘lim tizimining sifatli va mukammalligi bilan ham bog‘liq. Shu bois Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini tubdan takomillashtirish, ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash, shuningdek, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish yo‘lga qo‘yildi.

Zero shunday ekan, har bir fanni o‘qitish jarayoni hamda fanlar o‘rtasidagi uzviylik ham juda kata ahamiyatga egadir. Informatika va axborot texnologiyalarini o‘qitishda izchillik ikkita darajada ko‘rib chiqilishi mumkin: “gorizontal” darajada – bitta ta‘lim muassasasi sharoitida (o‘quv-tarbiyaviy jarayon umumiy tizimining tarkibiy qismlari o‘rtasidagi izchillik) va “vertikal” darajada – har xil ta‘lim muassasalari sharoitida (o‘rta va oliy maktablar izchilligi) [1].


Informatika va axborot texnologiyalarini (bundan keyin – AT) o‘qitishda izchillikni samarali amalga oshirish uchun ta‘lim oluvchining ichki pozitsiyasi, uning oldingi bosqichda olingan bilimlarni kuchaytirish va takomillashtirishga shayligi hamda tashqi ta’sirlar (sotsium, aholining ta‘lim olish ehtiyojlari, iqtisod, madaniyat va h.k.) kabi omillarni hisobga olish zarur.

Oliy ta‘lim tizimida izchillik muammosini tadqiq etishda muhim jihat bosqichlar o‘rtasidagi aloqalarni aniqlashdir. O‘zining kasbiy faoliyatida hisoblash texnikasidan, axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan dadil foydalana oladigan mutaxassisni tayyorlash jarayonining tizimli tabiatini tushunish ta‘lim tizimida izchillikni ta‘minlash uchun haqiqiy zamin yaratadi.

Maxsus malakalarni, ko'nikmalarni izchil shakllantirish birligi va uzluksizligi barcha o'qitish bosqichlarida o'quv dasturlari bilan belgilab beriladi. Informatika bo'yicha o'quv dasturlari ta'lim sohasi doirasida o'zaro bog'langan, ular o'qitish maqsadlarini, qadriyatlarini, informatikani o'qitishdagi tashkiliy shakllarni, uslub va vositalarni ochib beradi,

Axborot ta'minoti xususiyatlari nuqtayi nazaridan o'quv dasturlarini tahlil qilish ko'rsatadiki, o'quv kursining mazmuni axborot sotsiumida ham o'quv malakalarini, ham maxsus malakalarni shakllantirish uchun zarur axborot zaminini ta'minlaydi [2].

Oliy ta'lim muassalarida informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilarining pedagogik hamkorlik izchilligini 1-jadvalda ko'rishimiz mumkin.



1-jadval. OTM informatika va AT o'qituvchilarining pedagogik hamkorligidagi izchillik

Yuqoridagi jadvalda berilgan Oliy ta'lim informatika va Axborot texnologiyalari o'qituvchilarining pedagogik hamkorligi izchilligi o'rganilayotgan modullarning mazmunan muvofiqligi, AKT komponentlari va tamoyillariga bog'liq.

Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) shiddat bilan kirib kelishi bilan birga, u ta'limning samaradorligini oshirishda eng qulay omillardan biri bo'lib qolmoqda. Ta'lim tizimini dunyo standartlari darajasiga etkazish ushbu islohotning muhim vazifalaridan biridir. Jahonda zamonaviy ta'limning xarakterli tomoni shundaki, ta'limni axborotlashtirish va axboriy jamiyatning ehtiyojini hisobga olgan holda kadrlarni tayyorlash hisoblanadi. Respublikamizda ta'lim jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llashga doir keng ko'lamda ishlar olib borilmoqda. Zero, bugungi o'quvchining

faqatgina darslik matnida berilgan ma'lumotlar bilan ishontirish toboro mushkul vazifa bo'lib qolmoqda. Mazkur mavzuda xitoy faylasufi Konfutsiyning "Aytsang unutan, ko'rsatsang eslab qolaman, o'zim bajarib anglab etaman" degan fikrlari bugungi hayotimizga ham mos kelishini alohida ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Biz ma'lumotlarni "10 foizini o'qiganimizda, 50 foizini ko'rganimizda va eshitganimizda, 80 foiz gapirib berganimizda, 90 foizini gapirib berganimizda va bajarganimizda" eslab qolamiz. Axborot texnologiyasi –axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish va uni tarqatish uchun foydalaniladigan jami uslublar, qurilmalar, usullar va jarayonlar. Ayni paytda axborot texnologiyasi haqida fikr yuritganda "yangi", "kommunikatsion" yoki "zamonaviy" so'zlarini qo'shib ishlatiladi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyasi (AKT)-bu zamonaviy kompyuterlar va telekommunikatsion vositalaridan foydalanadigan, foydalanuvchi ishlashi uchun "do'stona" interfeysga ega bo'lgan axborot texnologiyasi demakdir. Shu o'rinda axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishning afzalliklariga to'xtalib o'tamiz. Eng avvalo, ta'lim jarayonida kompyuterlar va axborot kommunikatsiya vositalarining qo'llanilishi, o'quvchilarning ular bilan bemalol ishlay olishlari pedagogik jarayondagi eng muhim kamchiliklardan hisoblangan subyektivizmni cheklaydi. Masalan, agar o'quvchining javobi yoki bevoqarlik o'zlashtirishini baholash o'qituvchining o'quvchi shaxsiga munosabati ta'sirida kechgan bo'lsa, mashinalar vositasida beriladigan ma'lumotlar obyektiv xarakterga ega bo'ladi. Ikkinchidan, kompyuter orqali bolaga etkazilayotgan ma'lumotni zarurat bo'lganida, qayta-qayta chiqarish va takrorlash imkoniyati ham bor. Bu narsa ayrim o'quvchilarda, guruh sharoitida ishlaganda kuzatiladigan iymon bo'sqini kabi sifatning namoyon bo'lmavligini ta'minlaydi. Uchinchidan, har bir professor-o'qituvchining o'ziga xos bo'lgan tushuntirish uslubi, metodik yondashuvi mavjud. AKT vositalaridan foydalanish pedagogik jarayonlar ichidagi samarasiz uslubiyotlarga barham beradi. To'rtinchidan, yangi axborotlarni uzatish texnologiyalari bilimlarni o'zida ifoda etib, unda sxemalar, rasmlar, jadvallar, grafik va diagrammalarga keng o'rin beriladi. Bu narsa yoshlarda obrazli xotirani ancha jonlantirib, ularning eslab qolish qobiliyatlarini kuchaytirishi mumkin. Beshinchidan, ushbu axborot vositalaridagi ma'lumotlarni axborot saqlovchi vositalarga yozib olish va ulardan zarur o'rinlarda foydalanish mumkin bo'ladi.

Informatika va ATni o'qitishdagi o'rganilayotgan yo'nalishlarning mazmuniy-mantiqiy muvofiqligi axborot-kommunikatsion bilimdonlikning yuqori darajasini o'qitish mantig'iga muvofiq ravishda shakllantirishni taqozo qiladi [3]. O'qitishning har bir pog'onasida o'quvchi va talaba qo'shimcha bilimlarni o'zlashtiradi, amaliy ko'nikmalar va malakalarni kengaytiradi, ular asta-sekin bilimlarning mustahkam tizimini hosil qiladi, shaxsning dunyoqarashini shakllantiradi, tafakkurini rivojlantiradi, axborot-kommunikatsion bilimdonligi darajasini oshiradi.

Tizimli yondashuv asosida invariant kurs o'quv dasturlarining mazmundorligini aniqlaymiz hamda maktab va OLIY TA'LIM MUASSASASIdagi "Informatika" va "Axborot texnologiyalari" o'quv fanlarining negizini tashkil etuvchi o'rganiladigan beshta asosiy mazmun tarmoqlarini ajratamiz:

1. Axborot. Axborot jarayonlari.
2. Kompyuter. Hisoblash texnikasi.
3. Modellashtirish. Algoritmash. Dasturlash.
4. Axborot va kommunikatsion texnologiyalar.
5. Ijtimoiy informatika.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanar ekan, o'qituvchilar quyidagi holatlarga alohida e'tibor berishlari zarur. Birinchidan, axborot texnologiyalari zaminida yuz berishi mumkin bo'lgan yangiliklar an'anaviy muloqot sharoitlariga olib o'tiladi. Ikkinchidan, teskari aloqa kuchayadi. An'anaviy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari kompyuterlashadi. Ta'lim jarayoni uchun, shu jumladan, kichik yoshdagi bolalar uchun ham mo'ljallangan dasturiy va texnik vositalarning "insonlashuvi" kuzatilmoqda. Ularda foydalanuvchilar o'z faoliyatlarini mavjud bo'lmagan, ammo qandaydir amallarni bajarish uchun zarur bo'lgan elementlar bilan to'ldirishmoqda. Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bunday vaziyatlar axborot texnologiyalari bilan aloqador faoliyatning turli ko'rinishlarining (shu jumladan ta'lim olish bilan bog'liq faoliyatda ham) murakkab va ziddiyatli tuzilmasini shakllantiradi. Axborot texnologiyalarini faoliyatning turli doiralariga tatbiq etish asosida insonni ortiqcha va mashaqqatli mehnatdan ozod qilish va uning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar tayyorlash yotadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari asta-sekinlik bilan ayrim ko'nikma va malakalarning yo'qolishiga sabab bo'ladi. Ammo bunday yo'qotishlar har doim ham o'zini oqlayvermaydi. Masalan, bugungi kunda elektron jadvallarning ahamiyatini rad eta olmaydi. Ular insonlarni ko'plab ortiqcha mehnatdan qutulishga yordam beradi, ammo kalkulyatorlardan hattoki, boshlang'ich sinflarda foydalanish ularda og'zaki hisob, tez hisoblash ko'nikmalarini yo'qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu esa oqibatda bolalarning son tushunchasi ustida amallarni to'g'ri bajara olmay qolishiga olib keladi.

O'quv dasturlarining invariant qismini o'rganish umumta'lim maktabida informatikani o'qitish jarayonida "spiral bo'ylab" tashkil etilishi lozim. Dastlab – barcha o'rganiladigan mazmun tarmoqlarining tushunchalari bilan tanishish, so'ngra, navbatdagi o'qitish pog'onasida, – o'sha modullarning masalalarini o'rganish, lekin endi sifat jihatidan yangi asosda, chuqurroq, ushbu tarmoqqa tegishli bo'lgan ayrim yangi tushunchalarni qo'shgan holda. Informatika uchun ajratilgan o'quv soatlari soniga bog'liq ravishda bunday "o'ramlar" ikkita yoki uchta bo'lishi mumkin, oliy

ta'lim muassasalarida esa modullarni chuqurlashtirilgan va ixtisosga qaratilgan o'rganish bilan yangi "o'ram" ketadi [4].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, oliy ta'lim tizimida informatika va axborot texnologiyalari kursining izchilligini ta'minlaydi, maktabda olingan informatika sohasidagi bilimlarni tartibga soladi va bo'lajak kasbni hisobga olgan holda OLIY TA'LIM MUASSASASIDA chuqurlashtiradi, axborot va kommunikatsion texnologiyalar bilan ishlashning zarur ko'nikmalarini, malakasini shakllantiradi, boshqa fanlarni o'rganishda ularning amaliy qo'llanishini kengaytiradi.

Adabiyotlar

1. Вазиев В.М. Информация: понятия, виды, получение, измерение и проблема обучения // Информатика и образование 2000, - №4. – С. 10-20.

2. Васильева И.А., Е.М. Осипова, Н.Н. Петрова. Психологические аспекты применения информационных технологий // Вопросы психологи. 2002, -МЗ. – С.80 -88.

3. Голунова Л.В. Формирование информационно-коммуникационной компетентности старших школьников в учреждениях дополнительного образования: Автореф. канд. пед. наук. — Кемерово: КГУ, 2003. – С. 23.

4. Гурьева Л.П. Развитие творческой личности в условиях компьютеризации. М.: УШУ Народный учитель, 2001. – С. 273.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФИЗИКО - МАТЕМАТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА

**Курбанова Д.А. - старший преподаватель кафедры общего
языкознания Ташкентского государственного педагогического
университета**

Аннотация. В данной статье рассматриваются примеры, анализ, направления использования терминов, связанных с математикой и физикой на уроках русского языка.

Ключевые слова: словообразование, процесс, язык, новые слова, термины, способ образования, научная терминология, продуктивность.

RUS TILI DARSLARIDA FIZIKA - MATEMATIKA TERMINOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

**Qurbonova D.A. – Toshkent davlat pedagogika universiteti “Umumiy
tilshunoslik” kafedrasi katta o'qituvchisi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada rus tili darslarida matematika va fizika bilan bog‘liq atamalardan foydalanish bo‘yicha misollar, tahlillar, yo‘nalishlar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: so‘z yasalishi, jarayon, til, yangi so‘zlar, atamalar, yasalish usuli, ilmiy terminologiya, mahsuldorlik.

THE USE OF PHYSICAL AND MATHEMATICAL TERMINOLOGY IN RUSSIAN LESSONS

**Kurbanova D.A. - Senior Lecturer, Department of General Linguistics,
Tashkent State Pedagogical University**

Annotation. This article discusses examples, analysis, directions for using terms related to mathematics and physics in Russian language lessons.

Keywords: word formation, process, language, new words, terms, method of formation, scientific terminology, productivity.

Строго отработанная терминологическая система любой научной дисциплины является инструментом ее успешного развития. Овладение научной терминологией – одно из основных условий становления научного мировоззрения и свободной профессиональной коммуникации студентов и специалистов. Подготовка высококвалифицированных специалистов без обстоятельного обучения русскому языку невозможна [2, с. 173-176].

Каждая отрасль и сфера имеют свой собственный термин, который используется внутри того отрасли, если быть более точнее, оно формирует речь владельца профессии, создает условия для взаимного общения. Само собой разумеется, что эти термины не используются в речи какой-либо профессии, далекого от экономики.

Способность правильно писать не ограничивается только словами. Это также означает использование четких предложений. Новые термины в области математики, также появляются в узбекском языке, ряд ранее использовавшихся терминологий обретают новое значение. Поэтому в лексикологии, в частности перед терминологией, стоит ряд необходимых для решения важных вопросов.

Сегодня подробное изучение практических и теоретических вопросов терминологии, регулирование, создания и употребления терминов на основе законов языка стало проблемой государственного значения. Поэтому, более глубокое исследование различных терминологических систем нашего родного языка, их всестороннее изучение различных вопросов терминологии является сегодня одной из самых актуальных проблем.

Термин - это слово или фраза, используемые в процессе познания и усвоения определенных объектов, которые выражают профессиональное значение, выражают и формируют профессиональную концепцию, а также отношения между ними с точки зрения конкретных профессий.

Еще одна цель науки - собрать и систематизировать термины, употребляемые в современном русском языке. На данном этапе, то есть, в период высокого уровня научно-технической революции, возникают все новые вещи, предметы и понятия во всех сферах производства, науки и техники. Это приводит к значительному обогащению словарного запаса языка. Следовательно, проблема терминологии стала одной из основных проблем современной лексикологии.

При обучении русскому языку следует уделять особое внимание отбору терминологического материала, в том числе при обучении студентов-физиков. Физика, как и любая другая наука, имеет свой предмет исследования, свои понятия и категории. Лексику в текстах по физике составляют общелитературные слова, термины (вакуум, нейтрон, протон, джоуль, кельвин, динамика, демодуляция, диффузия, ом, рентген, диод и др.) и слова с терминованным значением.

Следует заметить, что в слова с терминованным значением вошли и общелитературные единицы, но в данном контексте они приобретают значение термина, т.е. слова приобретают специфическую окраску, характерную для данной отрасли науки, в данном случае физики. «Формально наличие одного и того же слова в словарях, отражающих лексику разговорно-бытового или общеупотребительного и научного стилей речи, не дает право считать это слово известным, освоенным, так как в научных текстах это другое слово. Это, к примеру, слова: свет, энергия, тепло, сила, тело, теплота, скорость, масса, поле, процесс, кипение, твердость, хрупкость, работа, трение и др.

В языке физики слово имеет одно значение, характерное только для научного стиля этого предмета, «многозначные, стилистически нейтральные слова употребляются в научном стиле не во всех своих значениях, которые свойственны им в системе общелитературного языка, а лишь в одном, реже – в двух». Так, например, если слово «сила» имеет двенадцать значений, то за термином в физике закреплено лишь одно его значение: Величина, являющаяся мерой механического взаимодействия тел; энергия, воздействующая на материальные тела, а также степень интенсивности, напряженности ее.

Общелитературные слова, которые в языке физики приобрели значение термина, образуют сочетания с определенной группой слов, приобретая, при этом, значение слов-терминов: сила тяжести, сила тока, упругие силы, поле

гравитационное, поле стационарное, поле сил, поле потенциальное, процесс адиабатический, процесс изобарический, процесс обратимый.

Специфика языка физики заключается в широком использовании физических величин, их характеристик. Для формулирования законов, теорий, для описания и объяснения физических явлений физика пользуется собственной терминологией. Физические термины – это точные названия, «имена понятий» объектов, их свойств, явлений и процессов физических величин. Успешное овладение языком физической науки способствует формированию знаний на вводимой на занятии новой терминологии. Хотя термины составляют малое количество лексического состава научного языка физики, но именно «терминология признается ведущим и более существенным признаком научного стиля».

В терминологическом составе языка физики наблюдается большое количество интернациональных единиц. Абсолютное большинство заимствований приходится на долю латинского и греческого языков. Так, например, из латинского языка в физическую терминологию перешли такие термины, как генератор, нейтрон, аккумулятор, антенна, вакуум, диффузия, инерция, материя, нуклоны, траектория; а из греческого языка – кристалл, магнит, манометр, механика, физика, электрон, анод, атмосфера, барометр, анализ и др.

Следует отметить, что большое количество физической терминологии образовано при помощи суффиксов -ени/-ани (движение, вычисление, изменение, соединение, направление, соединение, возмещение, основание, смещение, ускорение, колебание, парообразование) [5];

-ость/-есть (результативность, активность, потребность, плотность, емкость, напряженность), -к (установка, отправка, разбивка, накачка, перегонка, бомбардировка), -ств (воспроизводство, устройство, средство, свойство);

-ация (реакция, кристаллизация, амортизация, дифференциация, поляризация, вибрация, аккомодация, гравитация), -ник (проводник), -ик (диэлектрик), -тель (показатель, исследователь, ускоритель, носитель, выпрямитель, двигатель, усилитель, замедлитель, множитель).

Использование математических терминов

Аддитивный. Слово происходит от латинского *additio* - "сложение", "прибавление".

Аксиома. Термин впервые встречается у Аристотеля и перешел в математику от философов древней Греции. В переводе с греческого слово означает "достоинство", "уважение", "авторитет". Первоначально термин имел смысл "самоочевидная истина".

В современном понимании аксиома - высказывание некоторой теории, принимаемое при построении этой теории без доказательства, т.е. принимаемое как исходное, отправное для доказательств других положений этой теории (теорем). Аксиомы называют также постулатами.

Алгебра. Математическая наука, объектом изучения которой являются алгебраические системы, например группы, кольца, поля и др. Отдельной ветвью алгебры является элементарная алгебра.

Первый учебник алгебры - "Краткая книга об исчислении ал-Джабра и ал-Мукабалы" был написан в 825 г. арабским ученым ал-Хорезми. Слово ал-джабр при этом означало операцию переноса вычитаемых из одной части в другую и его буквальный смысл - "восполнение". Этот термин стал названием науки. В Европе такое название употреблялось уже в самом начале XIII в., но еще Ньютон называл алгебру "Общей арифметикой" (1707). Книга ал-Хорезми имеет особое значение в истории математики как руководство, по которому долгое время обучалась вся Европа. Именно под влиянием арабской математики алгебра сформировалась как учение о решении уравнений.

Алгоритм. В IX в. ал-Хорезми изложил позиционную систему в сочинении "Об индийском числе". Латинский перевод этого труда начинался словами: "Dixit Algorithmi", - сказал ал-Хорезми". Отсюда и произошел термин "алгоритм" ("алгорифм"). В средневековой Европе слово означало всю систему десятичной позиционной арифметики.

Современное понятие алгоритма установилось в середине 30-х годов XX в. в работах Геделя, Чёрча, Тьюринга, Поста, А.А. Маркова. Алгоритм - точное формальное предписание, однозначно определяющее содержание и последовательность операций, переводящих заданную совокупность исходных данных в искомый результат.

В начальной школе простейшими алгоритмами являются правила, по которым выполняются сложение, вычитание, умножение, деление.

Анализ. Логический прием или метод исследования, состоящий в том, что рассматриваемый предмет мысленно или практически расчленяется на составные части (признаки, свойства, отношения). Каждая из этих частей изучается в отдельности, с тем чтобы выделенные в ходе анализа части соединить затем с помощью другого логического приема - синтеза.

Понятия анализ и синтез были известны еще в древней Греции. В переводе с древнегреческого анализ означает "решение", "разрешение".

В начальной школе очень часто при решении самых разных задач мы используем анализ.

Аналогия. Подобие, сходство предметов или явлений в каких-либо свойствах, признаках, отношениях, причем сами эти предметы, вообще говоря,

различны. В математике часто рассматривают умозаключение по аналогии, сходству отдельных свойств (признаков) при сравнении двух множеств (фигур, отношений, объектов и т.д.).

Аналогия весьма доступна и проста как прием рассуждения, но она в первую очередь позволяет выдвинуть гипотезу, которую потом требуется строго доказать.

Апория. Ложное утверждение, к которому иногда прибегали в своих рассуждениях древнегреческие ученые.

Известна апория древнегреческого философа Зенона (V-IV вв. до н.э.) "Ахиллес и черепаха". Она утверждает, что быстроногий Ахиллес никогда не догонит черепаху, так как, когда Ахиллес добежит до того места, где была черепаха, она продвинется вперед на некоторое расстояние; когда Ахиллес добежит до второго месторасположения черепахи, она снова продвинется на какое-то расстояние, пусть даже меньшее, чем прежде, и т.д. Таким образом, Ахиллес никогда не догонит черепаху.

Арабские цифры. Собирательный термин для десяти математических знаков: 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, которые позволяют записать любое число в десятичной позиционной системе счисления. Правильнее было бы назвать арабские цифры индо-арабскими, т.к. пришли в Европу из Индии через арабов примерно в XI в.

Литература

1. Гарифуллина Р. В., Фаткуллина Ф. Г. Трудности профессиональной терминологии. Уфа.: издво БашГУ, 2004. – С. 220.
2. Ступина В. С. Педагогическая технология интерактивного обучения проектированию образовательного продукта средствами информационно коммуникационных технологий // Вестник Башкирск. ун-та. 2018. Т. 13. №1. – С. 173–176.
3. Земская Е. А., Кубрякова Е. С. Проблемы словообразования на современном этапе // Вопросы языкознания. 2008. №6. – С. 123.
4. Виноградов В. В. Вопросы современного русского словообразования. Исследования по русской грамматике. М.: Просвещение, 2015. – С. 156.
5. Шанский Н. М. Русский язык // Лексика. Словообразование. М.: Просвещение, 2015. – С. 240.
6. Лингвистический энциклопедический словарь / Под ред. Ярцева В. Н. М.: Большая Российская энциклопедия, 2002. – С. 709.

КЕЙСЫ В МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО

Абдуллаева Н.К. – преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В статье рассматривается специфика использования кейсов при обучении русскому языку как иностранному (РКИ) взрослых, получающих высшее профессиональное образование или изучающих русский язык в личных целях. В исследовании описаны операционные этапы учебного процесса кейсов и представлена инновационная трехкомпонентная модель кейса.

Ключевые слова: русский язык как иностранный; методы обучения второму языку; обучение общению; обучающая интерактивность.

RUS TILINI CHET TILI SIFATIDA O‘QITISH METODIKASIDAGI KEYSLAR

Abdullayeva N.K. – Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliygoxda ta’lim olayotgan yoki rus tilini yakka tartibda o‘rganayotgan o‘rganuvchilarga rus tilini chet tili sifatida o‘rgatishning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot keyslarni o‘rganish jarayonining operatsion bosqichlarini tavsiflaydi va innovatsion uch komponentli keys modelini taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: rus tili chet tili sifatida; ikkinchi tilni o‘rgatish usullari, muloqotga o‘rgatish, o‘rgatuvchi interfaollik

CASES IN THE METHODOLOGY OF TEACHING RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE

Abdullaeva N.K. – Teacher of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. The article discusses the specifics of using cases when teaching Russian as a foreign language (RFL) to adults receiving higher professional education or studying Russian in private. The study describes the operational stages of the learning process of cases and presents an innovative three-component case model.

Keywords: Russian as a foreign language; methods of teaching a second language; communication training; educational interactivity.

Среди современных методов обучения русскому языку как иностранному коммуникативный метод уже несколько десятилетий занимает

центральное место. Преподаватели стремятся преподавать язык не как систему (хотя это и является важнейшим компонентом учебного содержания РКИ), а как средство общения, обучать устному общению. Это означает, что в процессе овладения учащиеся должны не только запоминать элементы языковой системы, но и формировать навыки продуктивной речи, говорить и слушать (то есть генерировать и воспринимать тексты) в коммуникативных ситуациях, адекватно оценивая Их условия и особенности. В этих условиях методы обучения РКИ интегрируют множество интерактивных, коммуникативных и деятельностных подходов и форм, которые делают преподавание и изучение русского языка эффективными. Одним из таких новостных методов является метод кейс-стади.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

Кейсы — это нарративы, ситуации, выборочные выборки данных или заявления, в которых представлены нерешенные и провокационные проблемы, ситуации или вопросы. Кейс-метод — это основанный на участии, дискуссионный способ обучения, при котором учащиеся приобретают навыки критического мышления, общения и групповой динамики. Это тип проблемного обучения. Часто встречающийся в профессиональных школах медицины, права и бизнеса, кейс-метод теперь успешно используется в таких дисциплинах, как инженерное дело, химия, образование и журналистика. Кейс-технология родилась и активно используется в экономических вузах в США при обучении специальным дисциплинам [1, с. 43]. Учащиеся могут работать над кейсом во время урока в целом или в малых группах.

В дополнение к определению, приведенному выше, кейс-метод обучения:

Это партнерство между учениками и учителем, а также между учениками.

Способствует более эффективному контекстуальному обучению и долгосрочному запоминанию.

Включает веру в то, что учащиеся найдут ответы.

Отвечает на вопросы не только «как», но и «почему».

Предоставляет учащимся возможность «обойти проблему» и увидеть различные точки зрения.

Внедрение данного метода в систему гуманитарного и языкового образования позволило придать обучению деятельностный и проблемный характер. Под кейс-методом мы, вслед за С. В. Шермазановой, будем понимать «смоделированную проблемную ситуацию, вызывающую дискуссию, требующую анализа и предложений по эффективному решению проблемы. По сути, кейс – описание отдельно взятой конкретной ситуации, содержащей в

себе определенную проблему, вопрос, не всегда имеющий единственно правильный ответ» [2, с. 455]. Использование метода в нашей профессиональной сфере – преподавании РКИ – имеет свою специфику. Это касается как структуры кейса, так и особенностей его применения в учебном процессе. Эта специфика обусловлена тем, что конечной целью кейса является развитие навыков общения и построения текста на иностранном языке (даже если материалом кейса становится профессиональная терминология). Так специальная лексика вообще не фигурирует в содержании задач, взятых за основу кейсов (уровни владения языком А1, А2, В1), либо находится на втором плане (для уровней владения языком В2, С1, С2). Иными словами, развитие профессиональных компетенций не является самоцелью кейс-метода в методике РКИ.

Цель кейса в обучении РКИ – способствовать развитию коммуникативных, социальных и культурных компетенций студентов, изучающих русский язык как иностранный. Это достигается созданием речевых ситуаций, максимально приближенных к жизненным.

Внедрение методики в преподавание русского языка как иностранного ставит перед необходимостью найти ответы на ряд важных вопросов:

- 1) Как должна выглядеть падежная модель в РКИ с точки зрения структуры речевой ситуации?
- 2) Можно ли при разработке кейса систематизировать все речевые ситуации, возникающие в процессе общения учащихся?
- 3) Могут ли кейсы позволить реализовать индивидуальный и разноуровневый подходы в обучении РКИ? Если можно, то в какой форме?
- 4) Какая подготовка со стороны преподавателя и со стороны обучаемых необходима при использовании кейсов?

Поэтому, прежде чем разрабатывать такие кейсы, нужно иметь четкое представление о задаче. Это позволит уже на самом начальном уровне вовлечь учащихся в процесс общения.

Во-первых, обучаемые должны четко понимать, какие задачи они собираются решать. Это означает, что моделируемая задача должна соответствовать и соотноситься с аналогичной реальной жизненной, учебной или профессиональной, с которой обучаемый вполне может столкнуться в своей повседневной жизни. Если это условие не выполняется, задача теряет очень важный мотивационный аспект, без которого эффективность обучения может быть поставлена под сомнение. Кроме того, при построении задачи необходимо обозначить те условия, при которых будет осуществляться общение. Следовательно, постановка задачи должна быть детализирована. Оно может включать в себя имя участника общения (ваш друг, кассир, продавец и т.

д.), место общения (гостиница, магазин, больница и т. д.), точное описание общения. проблема (спросить, уточнить, рассказать, почувствовать и т. д.), время общения (сегодня утром, каждый день, вечером, завтра и т. д.) и всевозможные дополнительные детали, необходимые для эффективного общения. по конкретному предложенному делу.

Во-вторых, кейс должен включать в себя минимальный перечень вспомогательных языковых или речевых материалов, которые можно или следует (в зависимости от уровня владения языком и способностей конкретного студента) использовать при работе над кейсом. К таким материалам относятся слова, фразеологизмы, готовые речевые обороты или словосочетания.

В-третьих, стажеры должны с самого начала знать, каков будет практический результат их работы. Это, как было отмечено выше, может быть газета, открытка, презентация, выступление или что-то другое. Важно уметь создать этот продукт в ходе и/или в результате организованного обсуждения или представить его на занятии с последующим его совместным обсуждением?

Участники. Добавим, что представлять задачу необходимо так, чтобы информация в ней была точно структурирована и визуально хорошо воспринималась. Он обеспечивает лучшее усвоение лексики и речевых оборотов, позволяя соотносить содержание заданий и возможные варианты их решения. Мы тщательно разработали 80 кейсов и использовали эти упражнения для 150 студентов в течение 3 лет.

Материалы и процедура. Принимая во внимание все сказанное, можно было бы рекомендовать следующую приблизительную модель случая. Мы разработали эту модель кейса, внедрили ее в учебный процесс:

1. Проблема, сформулированная с помощью текста, вводящего ситуацию.
2. Ключевые задания и лексический и/или грамматический материал и речевые образцы, частично или полностью помогающие найти решение проблемы.
3. Что-то осязаемое (газета, альбом, интернет-страница, аудиозапись и т. д.), в форме которого должны приниматься идеи обучаемого.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Если внимательно проанализировать структурные особенности и содержание падежей, то нетрудно заметить, что их использование в учебном процессе имеет как преимущества, так и недостатки (как для учителя, так и для ученика).

Преимущества кейс-метода для обучающегося:

1. Повышение мотивации и интереса к предмету.
2. Развитие самостоятельности и целеустремленности обучаемых; они учатся ставить реалистичные цели.

3. Расширяется уровень знаний обучаемых, широта их кругозора и глубина опыта.

4. Лучшее усвоение учебного материала.

Преимущества кейс-метода для учителя:

1. Обогащение творческого потенциала учителя в процессе поиска новых возможностей подачи материала.

2. Использование возможности непосредственной адаптации научного заблаговременного стопа к конкретным ситуациям и состояниям.

3. Интеграция учебного материала в рамках отдельного блока на разных уровнях (межпредметном, метапредметном и личностном), что позволяет одновременно решать несколько задач – обучающую, воспитательную, организаторскую и исследовательскую.

Недостатки кейс-метода:

1. Составление кейса и работа с ним всегда творческий процесс, требующий «эрудиции, педагогического мастерства и времени на подбор соответствующей актуальной информации, в которой моделируется профессиональная ситуация и совокупность знаний, ноу-хау, которыми обучающиеся потребуются приобретать, отражается».

2. Невозможность применения этого метода на первых этапах изучения языка. Применение кейс-метода неэффективно без предварительного получения необходимых знаний по предмету и теме.

Таким образом, использование падежей требует определенных усилий как со стороны учителя, так и со стороны ученика. Преподаватель должен подготовить информацию, правильно оформить ее, поставить задачи и продумать систему работы. Студенту требуется много времени для ее реализации. В большинстве случаев выполнить кейс можно только во внеурочное время во время самоподготовки по предмету.

Литературы

1. Адонина Н. П. Кейс-стади: история и современность / Н. П. Адонина // Высшее образование сегодня. – 2012. – № 11. – С. 43–48.2.

2. Шермазанова С. В. Использование кейс-технологии при обучении иностранным языкам / С. В. Шермазанова // Научный альманах. – 2015. – № 11/2 (13). – С. 455–462.

3. Государственные стандарты по русскому языку как иностранному. Элементарный уровень. Базовый уровень. Первый сертификационный уровень. – СПб.: Златоуст, 2009

4. Polat E.S. New pedagogical and information technologies in the system of education///the textbook for students of pedagogical universities and the system of professional development of pedagogical staff. Moscow: Academia, 2000. pp. 272.

CHIZMA CHIZIQLARI TASVIRIDA RANGLARNING AHAMIYATI

Yakubova M.M. – Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti katta o‘qituvchisi

Mirzaraimova V.T. - Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada chizma geometriya fanini o‘qitishda chizma chiziqlari ranglarini tutgan o‘rni hamda ma’ruza va amaliy darslarda rangli tasvirlardan foydalanish metodikasiga tavsiyalar ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: chizma geometriya, ma’rifat (ta’lim, tarbiya), konstruktiv va metrik masalalar, tekis chizma, fazoviy ko‘rinish, spektr ranglar, turli xil rangli bo‘rlar, an’anaviy oq bo‘r, qora va rangli qalam, масаланинг қўйилиши, yordamchi chiziqlar, ingichka qora rang, natija qizil rang.

ЗНАЧЕНИЕ ЦВЕТОВ В ИЗОБРАЖЕНИИ ЛИНИИ ЧЕРТЕЖЕЙ

Якубова М.М. – старший преподаватель Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова

Мирзараимова В.Т. - старший преподаватель Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова

Аннотация. В данной статье приводятся рекомендации к методике использования цветных изображений и роль линии чертёжных цветов на лекционных и практических занятиях при обучении начертательной геометрии.

Ключевые слова: начертательная геометрия, образование (обучение, воспитание), конструктивные и метрические задачи, плоский чертёж, пространственный вид, спектральные цветы, разноцветные мели, традиционный белый мел, черный и белый карандаш, постановка вопроса, вспомогательные линии, тонкий черный цвет, результат красный цвет.

THE IMPORTANCE OF COLORS IN THE DRAWING OF DRAWING LINES

Yakubova M.M. - Senior Lecturer of Tashkent State Technical University named after Islam Karimov

Mirzaraimova V.T. - Senior Lecturer of Tashkent State Technical University named after Islam Karimov

Annotation. This article describes the role of graphic colors in the teaching of descriptive geometry and recommendations for the use of color images in lectures and practical classes.

Keywords: descriptive geometry, education (learning, upbringing), constructive and metric tasks, flat drawing, spatial view, spectral flowers, multi-colored shoals, traditional white chalk, black and white pencil, formulation of the question, auxiliary lines, thin black color, the result is red.

Rivojlanib borayotgan ijtimoiy jamiyatda yosh avlod ta'lim-tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Ta'lim-tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil, erkin va obod O'zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan ta'lim tarbiyaning asosiy maqsadi komil insonni tarbiyalab voyaga etkazishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim-tarbiyaga qaratilgan farmon, asar va nutqlari, Vazirlar Mahkamasining hujjatlari, xalq ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimining qator hujjatlari mazmuni bu borada amalga oshirilayotgan barcha ishlarning qonuniy va konseptual asoslari bo'lib, uni amalga oshirish jarayonida professor-o'qituvchi kadrlar muhim rol o'ynaydilar [1]. Yuqorida sanab o'tilgan pedagoglarga yuklatilgan maqsad va talablarga asoslanib oliy ta'lim muassasalarining texnik ta'lim yo'nalishlarida fundamental fanlar hajmida o'qitiladigan chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanidan misol tahlillarini keltiramiz.

1. Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanining maqsadi va vazifalari fazoviy geometrik shakllarga oid konstruktiv va metrik masalalarni shu geometrik shakllarning tekislikdagi tasvirlarini yasash yo'li bilan yechish usullarini o'rgatish; Chizmada geometrik masalalarni grafik yo'li bilan yechish usullarini o'rgatish; geometrik shakllarning berilgan tekis chizmalari bo'yicha ularni fazoviy ko'rinishini, vaziyatini tasavvur qilish hamda ularning yaqqol tasvirini yasash usullarini o'rgatish; talabalarning fazoviy tasavvurini o'stirishdan iboratdir [2].

2. Chizma geometriya misol va masalalari geometrik qonuniyatlar, ya'ni teorema, ta'rif, xossalar, alomatlar, usullar, ularning mohiyati, algoritmlar asosida ishlaniladi.

Ranglarning tabiatda qanday hosil bo'lishi va tarqalish hodisalari qadimdan g'arb olimlarining ham diqqatini tortgan. Atoqli va mashhur olimlar Nyuton, Lomonosov, Gelmgoltslar ranglarning mohiyatini ilmiy asosda tekshirganlar. Isaak Nyuton qator tajribalar o'tkazib, oq yorug'likning ko'p rangli ekanligini isbotlagan. Gelmgoltslar ekranda spektr ranglarini hosil qilgan.

Ranglardan o'quv jarayonida ham o'z o'rnida va kerakli joyda foydalanish ongni va bilishni orttiradi, uning yordamida ma'ruza va amaliy darslarni samarali


tashkil etishga xizmat qiladi. Biz ham chizma geometriya ma'ruza va amaliyot darslarida har bir misolni turli xil ranglar va chiziqlarni turli qalinlikda chizamiz, ularning inson psixologiyasiga bo'lgan ta'siridan foydalanib talabalarning mavzularni oson, tez, chuqur va samarali o'zlashtirishlariga erishishimiz mumkin. Chunki, ta'lim jarayonida talabalar bilmaslikdan bilishga, noto'g'ri va noaniq bilishdan tobora to'liqroq va aniqroq, chuqurroq bilishgacha bo'lgan yo'lni o'tadilar [3]. Mana shu jarayonda, ya'ni talabalarning bilmaslikdan bilishga, noto'g'ri, xato bilishdan to chuqurroq bilishgacha bo'lgan masofani qisqartira olish pedagogdan katta mahorat, bilimni talab etadi, ya'ni kerakli va mavjud usullardan, zarur bo'lsa, hali amaliyotga tatbiq etilmagan metodlardan foydalanishni taqozo etadi.

Ilmiy bilish bilan talabalarning bilishi o'rtasida umumiylik bo'lsa-da, ular birbiridan farq qiladi. O'qitish natijalari bilim sifatida, talabalarning rivojlanish darajasida o'z aksini topadi [3]. Talabalarga dars davomida etkazib berilishi lozim bo'lgan bilimlarni ular faqatgina sezish orqali qabul qiladilar, ya'ni ko'rish, eshitish, his qilish, diqqat-e'tibor – bularning bari bilimni xotirada saqlab va zarur bo'lganda bu bilimlardan foydalana olishga sababchi bo'ladigan asosiy sezish parametrlaridir. Aynan ranglar talabalarning eng kichik elementar ma'lumotlarni ham nazardan chetda qoldirmaslikka katta turtki bo'ladi. Chunki har bir rang o'z tilidan nimanidir so'zlaydi, aynan nimanidir anglatadi. Qaysidir bir rangni sezuvchi, xush ko'ruvchi talaba o'z auditoriya va uy vazifalari daftarlarida shu rangdan nisbatan ko'p foydalanadi. Agar dars davomida pedagog misolni yechishda bu rangdan foydalansa va talabani ham shunga undasa, u holda ushbu rang mazkur rangni yoqtiruvchi talabada misolning echimi ko'z oldida yaqqol namoyon bo'ladi, juda yaxshi tushunib o'zlashtiradi va natijada bilim xotiraga mustahkam joylashadi. Pedagog an'anaviy usulda – faqat oq rang (bor)ni qo'llab, talaba esa qora qalamdan foydalanib chegaralansa-chi? Bunda natija ham yuqoridagi holatning aksi bo'lishi mumkin, albatta. Ushbu vaziyatda faqat oq va qora rangdan foydalanish bilishni, sezishni keskin susaytiradi, chunki mazkur ranglarning atrofdagilarga ta'siri sovuqqon va hissizdir.

Yuqoridagi fikrlarimizning isboti yuzasidan chizma geometriya fani masalalaridan birini taxlil qilib chiqamiz. Chizma geometriya kursidan ma'lum bo'lgan to'g'ri chiziqning haqiqiy kattaligini aniqlash misolini ranglardan foydalanib, mazkur misolning echimini talabalarga oson, engil tasavvur etishlariga yo'naltiramiz. Chizma geometriya fanida to'g'ri chiziqning haqiqiy kattaligini aniqlashning bir necha xil usullari mavjud. Pedagogning vazifasi talabalarni masalaning echimini tez, aniq, qisqa vaqt ichida unumli va mazkur masalaning fazoviy ko'rinishini ular ongida shakllantira oladigan eng ma'qul usulni qo'llab, berilgan vazifani to'g'ri yechishga yo'naltirishdir. Mazkur masalani ishlab chiqishdan avval masalaning berilishini to'g'ri anglab, ketma-ketlik bilan masalaning echimini aniqlash kerak.

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, umumiy vaziyatdagi to‘g‘ri chiziq proyeksiya tekisliklariga o‘z kattaligidan kichiklashib proyeksiyalanadi. Ayrim masalalarni yechishda to‘g‘ri chiziq proyeksiyasi bo‘yicha uning haqiqiy uzunligi bilan proyeksiyalar tekisliklari o‘rtasida hosil qilgan og‘ish burchaklarini aniqlashga to‘g‘ri keladi. Kesmaning haqiqiy kattaligi va uning proyeksiyalar tekisliklariga nisbatan og‘ish burchagini topish uchun to‘g‘ri burchakli uchburchaklik yasash usulidan foydalanamiz [2].

Koordinatalari bilan berilgan umumiy vaziyatdagi to‘g‘ri chiziqning fazoviy chizmasini ko‘rib chiqamiz (1 - chizma).



1-chizma

Fazoviy chizmada to‘g‘ri burchakli (ABC) uchburchak chizamiz.

Uning 1-kateti [BC] = [a b]

2-kateti [AC] = [Aa] - [Bb]

[Aa] = |AH| = Za; [Bb] = |BH| = Zb; bo‘lgani uchun

$$[Ac] = Za - Zb = \Delta Z$$

Chizmadan kesmaning gorizontal proyeksiyalar tekisligi H bilan hosil qilgan burchagi α .

$$\angle \alpha = [AB] \wedge H$$


Chizmadan kesmaning frontal proyeksiyalar tekisligi V bilan hosil qilgan burchagi β .

$$\angle \beta = [AB] \wedge V$$

Shuning uchun, [AB] kesmaning gorizontal va frontal proyeksiyalari o‘zidan kichikdir.

$$[ab] < [AB] \text{ va } [a'b'] < [AB]$$

Koordinatalari bilan berilgan [AB] kesmaning epyurini chizamiz (2-chizma).



2-chizma

Demak, birinchidan pedagogning vazifasi auditoriyadagi har bir talabaga murojaat qilganda uning xarakter va psixologiyasiga munosib yondashishi, vazifa berganda esa uning bilimi, imkoniyatlari darajasini inobatga olishi, darsning samarali va mazmunli bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Ikkinchidan, dars davomida talabalarni turli xil rang gammalaridan foydalanishni bilishi keskin oshadi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan to‘g‘ri chiziqning xaqiqiy kattaligini aniqlash misolida ham berilgan to‘g‘ri chiziqni havo rangda, yordamchi tutash bog‘lovchi chiziqlarni ingichka qora rangda, to‘g‘ri chiziqning bir uchidan chiqarilgan perpendikulyar chiziqlarni hamda og‘ish burchaklarni yorqin ranglarda, misol natijasini, ya’ni to‘g‘ri chiziqning haqiqiy kattaligi esa albatta, qizil rangda chizilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Kuzatishlar natijasidagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, masalalarni yechishda ranglardan unumli foydalanish chiziqlarni rangiga qarab tahlil qilishni engillashtiradi va talabalarning fanga qiziqishi ortadi, bu esa fanni o‘zlashtirishda o‘z samarasini ko‘rsatadi [4].

Shuning uchun o‘qituvchi – pedagog darsda yuqori natijalarga erishish uchun ularning ko‘rish, eshitish va diqqatlarini jalb qiluvchi ranglardan foydalanib, misollarni yechishga undashi ham biz istagan natijani bermay qolmaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, hozirgi kunda ta‘limning hamma bosqichlariga axborot texnologiyalari keng miqyosda jalb qilinmoqda. Grafik ta‘limni samarali tashkil qilish uchun kompyuterning grafik darsturlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Ma’ruza va amaliyot darslari materiallarini animatsiya ko‘rinishida ekranda namoyish qilish, shuningdek, chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanlari topshiriqlarini “AutoCAD” yoki “KOMPAS”dan foydalanib loyihalash, davlat standartlaridan foydalanish, chizma chiziq ranglaridan foydalanish imkoniyatlari oshadi, chizmalar sifatli va aniq bajarilib yuqoridagi maqsadlarga erishiladi.

Adabiyotlar

1. Mavlonov J.X. Psixologiya. Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiya instituti, 2005. B. 4-bet.
2. Abdullaev U. Chizma geometriya va chizmachilik asoslari. – T: O‘zbekiston, 1999, 5-bet.
3. Abdullayev I.K. Pedagogika fanidan ma’ruzalar matni. – Urganch. Toshkent tibbiyot akademiyasi, Urganch filiali. 2007, 32-bet.
4. Maqsudova S.F., Tursunaliyev N.Y., Azimov T.D. - Chizma geometriya darslarida ranglarning tutgan o‘rni. –T: ToshDTU, Xabarlar № 1-2, 2011-yil, 214-217-betlar.

IJTIMOYIY FAOLLIK TUSHUNCHASI VA UNING NAZARIY MASALALARI

Pulatova Z.A. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada ijtimoiy faollik tushunchasi, uning nazariy masalalari bayon etilgan. Muallif talaba yoshlarning ta’lim-tarbiya, ilm-fan sohasidagina emas, balki madaniyat, san’at, siyosat, huquq kabi sohalarda ham faol bo‘lishini ta’kidlab, ijtimoiy faollik zarur axloqiy norma ekanligini qayd etadi.

Kalit so‘zlar: faollik, shaxs faolligi, ijtimoiy faollik, talaba yoshlar, talabalarning ijtimoiy faol faoliyati.

ПОНЯТИЕ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ И ЕЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ

Пулатова З.А. - преподаватель Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация. В статье описывается понятие социальной активности, её теоретические вопросы. Автор подчеркивает, что студенческая молодежь должна проявлять активность не только в сфере образования, науки, но и в таких областях, как культура, искусство, политика, право, отмечая, что социальная активность является необходимой этической нормой.

Ключевые слова: активность, активность личности, социальная активность, студенческая молодежь, социально-активная деятельность студентов.

THE CONCEPT OF SOCIAL ACTIVITY AND ITS THEORETICAL QUESTIONS

Pulatova Z.A. - Lecturer at Tashkent State University of Economics

Annotation. The article describes the concept of social activity, its theoretical issues. The author emphasizes that student youth should be active not only in the field of education, science, but also in such areas as culture, art, politics, law, noting that social activity is a necessary ethical norm.

Keywords. activity, personality activity, social activity, student youth, social activism students

Yoshlar mamlakat tayanchi, xalqning ishongan kuchi, millat bardavomligining asosi hisoblanadi. Shuning uchun ham yurtimizda amalga

oshirilayotgan islohotlarning mazmuni ko'p jihatdan, kelajagimiz egalari – yoshlarning har tomonlama yetuk bo'lishlarini ifodalaydi. Ayniqsa, hozirgi globallashuv davri har bir o'sib kelayotgan yosh avlodidan zamon talablariga hozirjavoblik va ijtimoiy faollikni talab qilish bilan bir qatorda, ularning ma'naviy-axloqiy kamolotini har qachongidan ko'ra dolzarb darajaga ko'tarmoqda. Chunki ma'naviy qadriyatlar va axloq normalari mohiyatiga ko'ra, kishilar ijtimoiy borlig'ining atributi sifatida insonlarning: bir-biriga, oilasiga, jamoasiga, Vataniga va butun insoniyat taqdiriga insonparvarlik munosabatlarini namoyon qiladi va ularning yuksak darajasi jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, ma'naviy qadriyatlar va axloq normalarining buzilishi jamiyat barqarorligiga putur etkazadi. Masalan, Aristotel: "tabiat insonga jismoniy va intellektual kuch-qudrat bergan. Ammo inson bu qudratdan g'ayriinsoniy maqsadlarda ham foydalanishi mumkin. Shuning uchun faoliyati axloqiy kafolatlanmagan inson eng pastkash va yovvoyi mavjudotdir", deb yozgan edi [2].

Shu ma'noda yosh avlod tarbiyasida olib borilayotgan faoliyatda har bir harakatimizning ma'naviy-axloqiy asosini ta'minlashimiz zarur. Xususan, ijtimoiy faollikni axloq normalari asosida tashkil qilish va ularga barcha kishilarning istisnosiz amal qilishi demokratiya va ijtimoiy adolatni namoyon qiladi.

Demokratik jamiyatda ijtimoiy faollik fuqarolarning o'z-o'zini anglash vositasidir. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar muvaffaqiyatining muhim sharti xalqimizning, har bir fuqaroning ijtimoiy faolligiga tayanishdir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, jamiyatimizda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan demokratik islohot jarayonlari, fuqarolarning milliy ma'naviy va ma'rifiy salohiyatlari, ijtimoiy faolliklari turli-tuman bo'lishiga qaramay, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorlashuviga olib kelmoqda. Buni umumbashariyatning obyektiv rivojlanish qonuniyati tarzida e'tirof etish zarur.

Xalqaro ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa munosabatlar tajribasidan ma'lumki, tarixiy davr taqozosi bilan har bir jamiyatda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar o'zgarib turgan. Jahon siyosiy makonidagi oshkora yoki xufyona manfaatlar kurashida ezgulik va yovuzlik kurashi namoyon bo'lgan. Shuning uchun insoniyat tarixi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni barqarorlashtiruvchi ma'naviy-axloqiy normalar va tamoyillarni, ularni hayotga joriy qilishning usullari, vositalarini uzluksiz takomillashtirish jarayonidan iboratdir. Shunday qilib, insoniyat sivilizatsiyasini saqlab qoladigan muqobil kuchlar tarkibida ma'naviyatning ustuvor kuchga aylanib borayotganligi obyektiv qonuniyatdir.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning markazida turgan yana bir muhim masala, yosh kadrlarni tarbiyalash siyosati hisoblanadi. Bu siyosatning ahamiyatga molik jihati, yosh kadrlarga boshqaruv sohalarida ham faolliklarini to'la namoyon qilish imkoniyatini beradi. Ammo, ushbu siyosat davlatning monopoliyasi

bo'lishi mumkin emas, faqat uning qonuniy-huquqiy va ma'naviy-axloqiy kafolati bo'lishi kerak. Bunga kadrlarni tanlash va joylashtirish tizimining qonuniy-huquqiy asosini yaratish, amalga oshirish mexanizmlarini, usullari va vositalarini takomillashtirish orqali erishish mumkin. Ya'ni, har qanday davlatning kadrlar siyosati barcha boshqaruv sohalarini huquqiy va axloqiy mezonlarini, siyosiy ustqurma elementlari tizimi orqali, umumiy tartibga solishdan iborat. Shuning uchun boshqaruvga saylanadigan va tayinlanadigan "kadrlar sifati"ga muayyan ma'naviy-axloqiy talablar asosida differensial yondashib, o'ziga xos mezonlari tizimi ishlab chiqilishi zarur. Chunki davlatning kadrlar siyosatini amalga oshira oladigan institutsional tizimi to'liq shakllangandagina, aniq mexanizmlari yaratilgandagina, rahbarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini aniqlash mezonlari to'g'risida fikr yuritish mumkin.

Har bir insonning jamiyat hayotida ongli holda mustaqil ishtirok etishi, ijtimoiy-ma'naviy sohada vujudga keladigan muammolarni hal etishga qaratilgan harakati ijtimoiy faollik hisoblanar ekan, mazkur harakatni ma'naviy qadriyatlar, axloqiy tamoyillar asosida tashkillashtirish – bugungi va kelajak hayotimizni ma'naviy-axloqiy inqirozlardan saqlashning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Xususan, ***birinchidan***, ijtimoiy faollikning ma'naviy-axloqiy omillar bilan determinlashganligi muayyan shart-sharoitlarni taqozo qiladi;

ikkinchidan, ijtimoiy faollikning ma'naviy-axloqiy tamoyillari ishlab chiqilishi zarur va ushbu tamoyillar milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanishi lozim;

uchinchidan, axloqiy normalar va tamoyillarning umumiy insonparvarlik mezoni butun insoniyat ijtimoiy faolligini barqarorlashtirish bilan xarakterlanadi;

to'rtinchidan, yoshlarda ma'naviy-axloqiy tamoyillarni shakllantirish bilan ijtimoiy faollikni uyg'unligiga erishish, barkamol avlodni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Jamiyatdagi takomillashish jarayonida yoshlar ijtimoiy faolligining oshishi dolzarb masala. Ma'lumki, jamiyat taraqqiyoti – ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy jihatlarni o'zida qamrab oladi. Jamiyatda yashovchi yoshlar ana shu sohalarning barchasida ijtimoiy faollik ko'rsatishi hayotiy zaruriyatdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek: "Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar xalqimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu o'zgarishlarning dastlabki natijalari aholimiz hayoti va kundalik turmushida o'zining yaqqol ifodasini topmoqda, el-yurtimizning ijtimoiy faolligi, ertangi kunga ishonchi o'sib bormoqda" [1].

“Ijtimoiy faollik” keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u talaba yoshlarning ta’lim-tarbiya, ilm-fan sohasidagina emas, balki madaniyat, san’at, siyosat, huquq kabi sohalarda ham faol bo‘lishini anglatadi. Demak, “ijtimoiy faollik” o‘zining tub mohiyatiga ko‘rakishilar jamiyat hayotining iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, sotsial va boshqa sohalardagi faolligini ifodalaydi. Bozor munosabatlari va yangicha dunyoqarash shaxsning ijtimoiy faolligi strukturasi ma’naviy-intellektual, ijtimoiy-siyosiy faollik yetakchi va hal qiluvchi element ekanligini ko‘rsatdi. “Ijtimoiy faollik” tushunchasining mohiyatini yoritish uchun “faollik” tushunchasining mazmuniga e’tibor berish lozim.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da faollik mehnatda yoki biror harakatda, jarayonda jadallik, jonbozlik ko‘rsatish, ishchanlik, ta’sirchanlik, deb ta’riflanadi [3].

Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda jamiyat taraqqiyotiga daxldor bo‘lgan barcha tashkilotlar va ijtimoiy harakatlar, tuzilma va subyektlar bab-baravar mas’ul hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlarni birlashtirgan maxsus ijtimoiy harakatning bu jarayondagi o‘rni o‘zgacha. Bunda, eng muhimi, aholining yoshlardan iborat qatlamiga xos bo‘lgan qiziqish va intilish, orzu-umid, his-tuyg‘u, maqsad va manfaatlarning mavjudligidir.

Demak, ijtimoiy faollik shaxsning o‘ziga xos qobiliyati ekan, guruh sharoitida tashkil etiladigan to‘g‘ri muloqot va samimiy muhit, bahs va tortishuvlarning omilkorona yo‘lga qo‘yilishi bunda katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishda, ularda hayotga, milliy-madaniy merosimizga nisbatan faol munosabatni shakllantirish, ularning ma’naviy sog‘lom, ruhan tetik rivojlanishi uchun ta’lim jarayonida zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadga muvofiq. Bu jarayonda esa insonning o‘zligini anglashi muhim sanaladi. Chunki, inson o‘zligini ro‘yobga chiqarishi o‘ziga bog‘liq ekanligini qancha tez tushunib etsa, u hayotga shunchalik chuqurroq qaraydi, oldiga muhim maqsadlar qo‘yadi. Yoshlarni tarbiyalashda ular ruhiyatiga o‘z-o‘zini anglash tuyg‘ularini singdirish orqali ijtimoiy yetuklikka erishuvini ta’minlash muhimdir. Chunki, bu tuyg‘u insonning ma’naviy shakllanishi jarayonida voyaga etadi.

Yoshlarda ijtimoiy faollik elementlarini milliy qadriyatlarimiz orqali rivojlantirishda xalqimizning ko‘p yillik ana’nalari, madaniyati, urf-odatlarini, milliy bayramlari, boy qadimiy merosi o‘zining alohida o‘rni, ahamiyatiga ega.

Yoshlarda milliy iftixor, milliy g‘ururni shakllantirish va mustahkamlash asosida ularning ijtimoiy faolliklarini oshirishga alohida ahamiyat berish boshlandi. Aqliy zakovat, ruhiy, ma’naviy kamolot, insof-u diyonat, muruvvat, mehr-oqibat – bular barchasi ma’rifatli, ma’naviyatli insonlarning asosiy fazilatlarini sanaladi. Ana shu fazilatlarini yoshlarimizda shakllantirish bugungi kunning muhim vazifasidir.

Hozirgi globallashuv jarayonida intizomli, mas’uliyatli, sabr-bardoshli, diyonatli, vijdonli, iymonli, e’tiqodli, bag‘rikeng, insonparvar, ijtimoiy faol va shu

kabi oliyjanob fazilatlar egasi bo'lgan yoshlargina yashash uchun zarur bo'lgan barcha qulayliklarni vujudga keltirishga qodir bo'la oladilar. Ijtimoiy taraqqiyotning demokratik rivojlanish jarayoni shaxsning o'z-o'zini anglashi, qadr-qimmatini qay darajada e'zozlashi, jamiyat uchun xizmat qila olish imkoniyati vaharakatlariga ham bevosita bog'liq. Bularning barchasi shaxsning ijtimoiy faolligi bilan bog'liq.

Yoshlarning ijtimoiy faollashuvi deganda, ularning ijtimoiy jarayonlarda ongli ravishda, mustaqil ishtirok etishlari, zarur bo'lganida, ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirishga tashqaridan bo'ladigan bosimsiz ko'maklashishga intilishlari tushuniladi.

Mas'uliyat ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning yetukligini belgilovchi muhim ko'rsatkichlardan sanaladi. Ijtimoiylashuvning mas'uliyat hissiga bog'liq yo'nalishlaridan yana biri shaxsda shakllanadigan maqsad va ideallardir. Ular shaxsni kelajakni bashorat qilish, ertangi kunini tasavvur qilish va uzoq-yaqinga mo'ljallangan rejalarni amalga oshirishga tayyorligini ta'minlaydi. Maqsad va rejasiz inson ma'naviyatsiz pessimistdir. Bu maqsad doimo o'zining anglanganligi va shaxs real imkoniyatlariga bog'liqligi bilan xarakterlanadi. Ularning shakllanishi va ongda o'rnatishida ma'lum ma'noda ideal ham rol o'ynaydi.

Inson shaxsi taraqqiyoti bo'yicha jahon ilmida to'plangan nazariy qarashlar hamda O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, *birinchidan*, inson shaxsining ijtimoiy faolligi, eng avvalo, jamoada, ma'lum faoliyat turlarida shakllanadi.

Ikkinchidan, talabalik davri ijtimoiy faollik hamda turli axloq normalarini namoyon qilish uchun keng imkoniyatlar davri bo'lgani sababli, yoshlar orasida ustuvor faoliyat hisoblangan ta'lim jarayoni muhim omil hisoblanadi.

Uchinchidan, ijtimoiy tasavvurlar ijtimoiy borliq mazmunini individual borliq bilan bog'lovchi ko'priq vazifasini o'taydi.

Bizning nuqtayi nazarimizdan, ijtimoiy faollik – bu shaxsning barqaror mulki va ijtimoiy muhit bilan intensiv, ongli ravishda o'zaro hamkorlik qilishga qaratilgan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan harakatlar majmui bo'lib, ular ichki (aqliy) va tashqi (amaliy) faoliyat jarayonida ijtimoiy ahamiyatga ega va ijtimoiy taraqqiyot vazifalariga muvofiq o'zini va jamiyatni o'zgartiradi.

Falsafiy, sotsiologik, pedagogik tadqiqotlarda ijtimoiy faoliyat ko'pincha sinonimlar vazifasini bajaradi (L.N.Arjangelskiy, B.Z.Vulfov, T.N.Malkovskaya, G.L.Smirnov, E.V. Strukov). V.F. Bexterev ijtimoiy faoliyat tushunchasini shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyatga bo'lgan ehtiyoj ongida va ushbu faoliyatga tayyorligida, umumiy manfaatlar uchun manfaatsiz harakat qilish qobiliyatida namoyon bo'ladigan sifatini tushunadi [4].

K.A. Abulxanova-Slavskayaning so'zlariga ko'ra, shaxsning ijtimoiy faolligi uning faoliyatga munosabatida namoyon bo'ladi va yangi ijtimoiy vazifalar va ishlarni qo'yish, ularni hal qilish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish va

hokazolardan iborat. Ijtimoiy faoliyat motivlar, rag‘batlantirishlar va mexanizmlar ta’siri ostida ijtimoiy foydali harakatlar shaklida amalga oshiriladi, bu ijtimoiy ahamiyatga ega ehtiyojlardir. Ijtimoiy faoliyatning subyekti – tashuvchisi shaxs, ijtimoiy guruh, turli jamoalardir. Ijtimoiy faoliyat shaxsning ijtimoiy mulki sifatida qaraladi, uning rivojlanishi bilish, faoliyat va muloqot jarayonida insonning atrof-muhit bilan munosabatlari tizimi orqali sodir bo‘ladi. O‘zining dinamik shakllanishi tufayli ijtimoiy faollik turli darajada namoyon bo‘ladi. Bu shaxsning ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyatdagi ijtimoiy majburiyatlari va faoliyatga subyektiv munosabati o‘rtasidagi bog‘liqlikka bog‘liq [5].

Kolesnikova dissertatsiya tadqiqotida talabaning ijtimoiy faolligini o‘zini, atrof-muhitni va jamiyatni o‘zining ijobiy qadriyat yo‘nalishlariga muvofiq o‘zgartirish uchun kasbiy rivojlanish jarayonida turli xil ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyatni amalga oshirishga imkon beradigan shaxsiy xususiyat sifatida qaraydi [6].

“Ijtimoiy faoliyat” tushunchasi bugungi kunda keng va tor ma’noda talqin qilinmoqda. Keng va tor ma’noda ijtimoiy faollik deganda, shaxsning ijtimoiylik darajasini aks ettiruvchi sifat tushuniladi, ya’ni uning ijtimoiy butunlik bilan aloqalari, jamiyat manfaatlarini yo‘lida harakat qilishga tayyorligi, jamoat manfaatlarini qabul qilish salohiyati, tor ma’noda esa shaxsning ma’lum bir ijtimoiy hamjamiyat bilan aloqasini ifodalovchi sifati tushuniladi.

Shunday qilib, bizning tadqiqotimiz nuqtayi nazaridan, ijtimoiy faollik – bu tashabbuskor, yo‘naltirilgan, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan faollik va ijtimoiy hamjamiyat manfaatlarini ko‘zlab harakat qilishga tayyorlikda namoyon bo‘ladigan shaxsning murakkab yaxlit sifati.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. www.prezident.uz. 2017 йил 22 декабрь.
2. Аристотель. Политика. Соч. Т. 4.– М.:Мысл, 1983. – С. 467.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбек миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2008.
4. Бехтерев В.Ф. Воспитание общественной активности учащихся: Учебное пособие. Красноярск, 1985. – С. 12.
5. Абульханова-Славская К.А. Деятельность и психология личности. М., 1980. – С. 39-40.
6. Колесникова М.В. Педагогические исследования в области социальной активности личности // Вестник Томского государственного университета (общенаучный периодический журнал), - Томск, ТГУ, 2007. № 298. – С.176-178.

**FORTEPIANO SINFINING DASTLABKI MASHG‘ULOTLARIDA
O‘QUVCHILARNING IJROCHILIK QOBILIYATLARINI
SHAKLLANTIRISH USLUBLARI**

**Olimova F.B. – Termiz davlat universitetining Pedagogika unstituti
magistranti**

Annotatsiya. Ushbu maqolada fortepiano musiqa sozini bolalar musiqa va san’at maktablarida tahsil olayotgan o‘quvchilarga o‘rgatishning pedagogik xususiyatlari, dastlabki mashg‘ulotlarda ulardagi ijrochilik qobiliyatlarini shakllantirish hamda o‘qitish uslublari yoritilgan bo‘lib, ushbu cholg‘u sozini o‘rganish jarayonida o‘quvchi-yoshlarda bilim berish, ko‘nikma hosil qilish, shuningdek, ijrochilik malakalarini shakllantirishga qaratilgan ba’zi bir tavsiyalar ham bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: pedagogika, strategiya, fortepiano, qobiliyat, musiqa san’ati, faollik, individuallik, ta’lim, tarbiya.

**МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИСПОЛНИТЕЛЬСКИХ
СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ НА НАЧАЛЬНЫХ ЗАНЯТИЯХ
КЛАССА ФОРТЕПИАНО**

**Олимова Ф.Б. - Магистрант Педагогического института Термезского
государственного университета**

Аннотация. В данной статье описаны педагогические особенности обучения фортепианной музыке детей, обучающихся в детских музыкальных и художественных школах, формирование у них исполнительских навыков на первых уроках и методы их обучения, некоторые рекомендации, направленные на приобщение учащихся к знаниям и умениям, а также описано формирование исполнительских навыков.

Ключевые слова: педагогика, стратегия, фортепиано, способность, искусство музыки, активность, индивидуальность, обучение, воспитание

**METHODS FOR THE FORMATION OF STUDENTS' PERFORMING
ABILITIES IN THE INITIAL LESSONS OF THE PIANO CLASS**

**Olimova F.B. - Master student of the Pedagogical Institute of Termez
State University**

Annotation. This article describes the pedagogical features of teaching piano music to children studying in children's music and art schools, the formation of their

performing skills in the first lessons and methods of teaching them, some recommendations aimed at familiarizing students with knowledge and skills, and also describes the formation of performing skills.

Keywords: pedagogy, strategy, piano, ability, art of music, activity, individuality, learning, upbringing

Taraqqiyot cho‘qqilari sari kun sayin olg‘a borayotgan ona Vatanimiz – O‘zbekistonda har bir sohada olib borilayotgan islohotlar tahsinga sazovor. Xususan, “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan imzolangan Farmon mazmun-mohiyatida, aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, mazkur Farmonning “41-maqсад”ida “Yoshlarni san‘at dunyosiga oshno etish, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta‘minlangan 100 mingdan ortiq bepul to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish” masalasi, bu borada amalga oshirilishi zarur bo‘lgan ishlarni yangi talablar nuqtayi nazaridan tahlil qilib qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda [1].

So‘ngi yillarda Respublikamizda ma‘naviyat, madaniyat va san‘atga qaratilayotgan alohida diqqat – samarasi o‘laroq, bugun O‘zbekiston musiqa san‘atini butun dunyoga tanitish, qolaversa, fortepiano cholg‘usini o‘rgatish va musiqiy asarlarni darslarda va darsdan tashqari ijodiy faoliyatda o‘rgatish musiqa o‘qituvchisi oldidagi dolzarb vazifalardan biridir.

Fortepiano chalishni dastlabki davrida o‘quvchilarning turli usullar bilan, xilma-xil tovush chiqara olish qobiliyatini tarbiyalashning eng yaxshi usuli fortepianoda kuylay bilishga o‘rgatishdir. Bunda “Ichki eshitish”ning ham o‘rni alohida ahamiyatlidir. Masha shu jarayonda tovush jaranglamasdan oldin ijro xususiyatlarini xayolan eshitish qobiliyati hal qiluvchi o‘rin tutadi. Tovushning ijrodagi jarangini yaqqol va to‘la tasavvur qilmay turib, badiiy ijroga erishib bo‘lmaydi.

Fortepiano ijrochiligiga o‘rgatishda o‘quvchilarda musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish bilan birga, ularning ijodiy faolligini oshirib borishdan iborat bo‘lmog‘i kerak. Ijodiy faollik birinchi navbatda o‘qitish usullarining samaradorligiga bog‘liq bo‘lib, ular o‘quvchida yoqimli va muntazam shug‘ullanadigan samarali mashg‘ulotiga aylanishini ta‘minlashi lozim [3, 45-b.].

Cholg‘u sozi (fortepiano)ni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarda ijrochilik malakalarini shakllantirish quydagilarni o‘z ichiga olishini ta‘kidlab o‘tmoqchimiz:

1. Musiqiy eshitish qobiliyatini shakllantirish;
2. O‘zini-o‘zi nazorat qilish ko‘nikmalarini hosil qilish;
3. Tahlil qilish va umumlashtirish malakalarini egallash;
4. Faollik va intiluvchanlikni qaror toptirish;

Darsda amalga oshiriladigan barcha faoliyatlar o'quvchini anglashilgan, vujudga kelgan muammolar, qiyinchiliklarni mustaqil hal qilishga da'vat etishi muhimdir. Har qanday yaratuvchilik, ijod, faoliyat faqatgina mehnat orqali samara beradi, har qanday muvaffaqiyatga mehnat orqaligina erishiladi, shu ma'noda har qanday qobiliyatlarni shakllantirish, rivojlantirishni ro'yobga chiqarish ham to'g'ri tashkil etilgan, yo'naltirilgan, yo'lga qo'yilgan mehnat mahsuli hisoblanadi. Asosiy dars mashg'ulotlarida o'rganish bilan birga, mustaqil ishlash ham o'quvchini mustaqil ravishda mehnat qilishga o'rgatadi va bu orqali ulardagi ijrochlik qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

O'quvchi fortepianoda musiqaning bir parchasini ijro etadi va qo'llarini olib, o'qituvchining ko'rsatmasi bo'yicha ichki eshitish bilan "chaladi" keyin yana fortepianoda ijro etiladi va h.k. - Bir ovozni kuylash va chalish [2, 35-36-b.].

- uch ovozlik o'zlashtirilgach, asarni ovozlari bo'yicha o'rganishga e'tibor qaratish lozim. Partiyada ikkita ovoz bir qo'lda bo'lsa, shu bo'lakni ikki qo'lda chalish tavsiya etiladi.

- ovozlarni har xil tembrlarda chalish ko'nikmasini tarbiyalashga jiddiy qarash kerak. Bu avvalo, sifatli chalish, klaviaturani har xil yo'sinda bosishga bog'liqdir.

- asarni quruq yodlab olish emas, yodlashdan oldin tonallikni modulyatsion jihatdan tahlil qilish, so'ngra qiyin joylaridan boshlab oz-ozdan o'rganishga kirishish lozim.

- polifoniya ustida ishlashda xotirani mashq qildirish, bu o'rinda eng yaxshi usul asarning turli joylaridan "tarqoq" holda chalishdir.

O'quvchilarning musiqiy ijrochilik qobiliyatlarini, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning samaradorligini ta'minlashda texnik va ko'rgazmali vositalardan ham o'rinli foydalanish katta ahamiyatga egadir.

Ijrochilik faoliyati qanchalik ongli, ixtiyoriy bajarilsa, shunchalik samarali bo'ladi. Fortepiano cholg'usida ijro etish ongli faoliyatdir [5, 137-b.]. Har qanday ta'lim fikrlashni, irodani, tashabbusni va ijodiy tasavvur talab qiladigan mehnatdir. O'quvchida ijrochilikni rivojlantirish yo'lidagi barcha sa'y-harakatlar ularda san'atga ijodiy munosabatni shakllanishiga olib keladi. San'atning barcha yo'nalishidagi fanlar shaxsni tarbiyalash va unda maxsus ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirishga bir-biridan ajralmas yagona pedagogik jarayon sifatida qaraydi. Musiqa bilan shug'ullanish jarayonida o'quvchi his etadigan yuksak estetik kechinmalar bilan birga cholg'u asbobini chalish ijodiy mustaqillikni, diqqat va intizomni, irodani, aniq maqsadga intilish malakalarini rivojlantiradi. Har qanday metodika kabi, cholg'u asbobini chalishni o'rganish, shu jarayonda ularni musiqiy va ijodiy ijrochilik qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan usullar juda ko'p bo'lib, bu o'rinda pedagogning zukkoligi, o'zining ijodiy yondashuvchanligi,

har bir ta'lim oluvchiga o'ziga xos yondashuvi, vazifalar, topshiriqlar, talablarni ularning imkoniyati, layoqati, zarur shart-sharoitlaridan kelib chiqib qo'yilishiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Bizning o'z amaliy faoliyatimizda qo'llagan usullar BMSMda fortepiano chalishni o'rgatishning boshlang'ich bosqichida quyidagi natijalarga erishish imkonini berishiga ishonch hosil qildik:

- musiqiy qobiliyati nisbatan quyi hisoblanuvchi bolalar musiqiy jihatdan kamol topishga layoqatli bo'lib qoladilar;
- o'quvchilarda cholg'u asbobi (fortepiano)ni o'rganishga qiziqish vujudga keladi;
- fortepiano chalish malakalarini shakillantirishga doir ishlar samaraliroq mazmun kasb etib boradi;
- o'quvchilarning badiiy obrazlarni his etishi hamda ijodiy tasavvuri kengayadi;
- badiiy faoliyat uchun zarur sifatlar shakllanadi;
- o'quvchilarda mustaqil ishlash hislatlari rivojlanadi;
- o'quvchining diqqati, irodasi, maqsadga intilishi faollashadi, o'zini-o'zi nazorat qilish mas'uliyati ortadi;

Musiqqa san'atida umumiy va maxsus xususiyatlar, ularning o'zaro bog'lanishi, shuningdek, iste'dodlarning sifatini aniqlash juda muhimdir. Pedagogika va psixologiyada iste'dod qobiliyatga nisbatan umumiyroq tushuncha bo'lib, maxsus qobiliyatlar paydo qiluvchi zamin sifatida talqin qilinadi [4]. Olimlarning uqtirishicha, maxsus qobiliyatlar faoliyatning ayrim maxsus sohalari munosabatida namoyon bo'ladi, shu bilan birga u yoki bu maxsus qobiliyatlar ichida umumiy iste'dod ham bo'lishi mumkin. Musiqiy faoliyatga moyillik qobiliyat paydo bo'lishining dastlabki belgisi hisoblanib, qobiliyatning rivojlanishi uchun imkon mavjudligini bildiradi. Juda ko'plab yirik pedagoglar, ijrochilar, metodistlar (G.Neygauz, B.Teplov, B.Shapov, T.Berkman va boshqalar) qobiliyat shakllanishini musiqqa tarbiyasi sohasidagi ta'lim bilan o'zaro bog'liqligini o'rganganlar. Ular ta'lim oluvchilarning bilim olishlari jarayonida kerakli ko'nikma va malakalarni egallashi uchun unga ta'lim va tarbiyaning tashqi ta'siri yetarli emasligini, balki uni ichki, o'ziga xos sifatleri va xususiyatlarini hisobga olish ham zarurligini tadqiq etishgan. Bunda asosiy vazifa ta'limni metodik jihatdan to'g'ri yo'naltirishdan iborat bo'ladi.

Musiqiy qobiliyatlar muammosini tahlil qilishda, avvalo ularning o'zaro bog'liq, shu bilan birga farqli ravishda ko'zga tashlanmaydigan sifatlar yig'indisidan iborat bo'lishini ham e'tiborda tutish lozim. Bu o'rinda musiqani tinglash, uni anglay olish, tinglashni nazorat qilish, musiqiy xotira, diqqat, tasavvur va maxsus ijrochilik qobiliyatlarini alohida ko'rsatib o'tish mumkin [5, 32-b.]. Forteplano ijrosi orqali o'quvchilarda musiqani anglashni tarbiyalash mumkin va uning rivojlanishi musiqqa mashg'ulotlarining qanday tashkil etilishi, bola qobiliyatlarining boshqa turlari bilan

uyg'un holda bir maqsad yo'lidagi xatti-harakati, intilishi, qiziqishlariga bog'liq bo'ladi. Dastlabki mashg'ulotlarda o'quvchilar musiqiy anglash orqali yorqin obraz va bolalar tushunadigan yuqori badiiy asosda tarbiyalanadi.

Musiqqa bilan jiddiy shug'ullanish, musiqiy iste'dodlarni shakllantirish hozirgi kundagi musiqaga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari pedagog murabbiylari oldiga ham ko'plab mas'uliyatli vazifalarni qo'yadi. Bu o'rinda musiqqa ta'limiga ixtisoslashtirilgan va umumta'lim maktablari, maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarida ko'plab tashkil etilayotgan cholg'u ijrochiligi sinf (guruh)larida o'quvchilarni ijrochilikka tayyorlash, birinchi navbatda ularda ijrochilik qobiliyatlarini rivojlantirishni taqozo etishini alohida ta'kidlash o'rinlidir [6, 49-b.].

Cholg'u ijrochiligining, xususan fortepiano cholg'usi yo'nalishidagi ta'lim-tarbiya ishlari o'ziga xos, nisbatan murakkab pedagogik jarayonni va metodik yondashuvlarni talab etadiki, mazkur tadqiqot mazmunida ushbu jarayonning o'ziga xos tashkiliy, uslubiy, amaliy ijrochilik bilan bog'liq jihatlari, uning samarali kechishiga xizmat qiluvchi ish shakllari hamda usullari ilmiy tadqiq etildi.

O'quvchining eshitish tasavvurlari, ko'z oldiga keltirishi, fantaziyasi, xayol qilishi va mo'ljallari faol eshitish orqali ijro harakatlari o'rtasidagi mutanosiblik o'quvchining ijroviy qobiliyatlari bilan birga ulardagi ijro texnikasi rivojlanishi va takomillashuvida eng muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchining o'z ustida mustaqil ishlash jarayoni ham faqat uy vazifalarini bajarishdan iborat bo'lib qolmasligi, o'quv jarayonidagi barcha ta'limiy-tarbiyaviy ishlar, o'z ijodiy harakatlari mazmunida o'z aksini topmog'i shart. Ana shu jarayondagi yo'naltiruvchi omil o'quvchilarda musiqiy eshituv tasavvurlarini tarkib toptirish va ixtiyoriy tarzda ana shu tasavvurlar bilan ishlashdir [5, 133-b.]. Mazkur tasavvurlar musiqqa asarini o'rganish, ijro etish jarayonida emotsional idrok, ta'sirlanish, diqqat, xayol, ijodiy tashabbus kabi boshqa psixik sifatlar bilan bog'liq holda takomillashadi. Musiqiy tasavvurlar shakllanishi ular bilan ishlay bilish, qiyoslash, taqqoslash, tahlil va sintez qilish kabi aqliy qobiliyatlar rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, ularsiz mustaqil ishning bo'lishi mumkin emas. Musiqiy eshitish tasavvurlari musiqqa ta'limida ijrochilik malakalarining tarkib topishi uchun asos sifatida ham xizmat qiladi.

Xullas, fortepiano sinfi dastlabki mashg'ulotlarda o'quvchi-yoshlarning ijrochilik qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan ilmiy asoslar keltirish barobarida har bir bolada o'ziga xos individual xususiyatlarning keng qamrovli majmuini, shuningdek, o'qitish uslublarini bayon qilishga harakat qildik. Musiqaning oliy maqsadi yoshlarda haqiqiy, to'la ma'nodagi musiqqa madaniyatini shakllantirishdir. Bu madaniyatning eng muhim omillari musiqiy idrok, musiqiy did, musiqiy ehtiyoj va qiziqishlardan iborat. O'quvchiga musiqqa san'atiga to'g'ri, ongli munosabat, hurmat, qadrlash, tushunish, baholash, zamonaviy va mumtoz, folklyor va qardosh

xalqlar, jahon xalqlari musiqasi xazinasiga ulkan hissa qo‘shgan kompozitorlar ijodiga oid asarlar, murakkab janrlardagi asarlarni qiymatini anglash, farqlash, unga o‘z munosabatlarini bildira olish malakalarini shakllanishi - bularning barchasi musiqiy tafakkur tushunchasida mujassamlashadi. Bulardan boxabarlik va musiqiy ta’lim-tarbiya jarayonida ularni e’tiborda tutib, o‘quvchilarning ijro imkoniyatlarini hisobga olgan holda ish tutish musiqiy faoliyat samaradorligini ta’minlansa ajab emas.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son [Farmoni](#). “Xalq so‘zi” gazetasi. 2022-yil 29-yanvar soni.
2. Rajabova D. Fortepiano mashg‘ulotlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994. – 212 b.
3. Soipova D. Musiqiy nazariy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish. – Toshkent: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2005. – 187 b.
4. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Matnazarova K., Shirinov M., Hafizov S. Umumiy pedagogika. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008. – 442 b.
5. Qodirov R. Musiqa psixologiyasi. “O‘quv qo‘llanma”. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2005. – 165 b.
6. Yuldoshev U. Musiqa o‘qituvchisi mutaxassisligining zamonaviy modeli va professiogrammasi. “Zamonaviy ta’lim” jurnali. – № 9 (82). – Toshkent, 2019. – 314 b.
7. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI TA’LIMIDA TRANSFORMATSIYALASH ASOSIDA UZLUKSIZLIK VA UZVIYLIKNI TA’MINLASH METODIKASI

Qunnazarov O.I. – Nukus davlat pedagogika instituti doktaranti

Annotatsiya. Hozirgi zamon ilmiy-texnik revolyutsiya bosqichining xarakterli xususiyatlaridan biri jamiyat hayotining barcha jabhalarini kompyuterlashtirishdan iboratligi, kasbiy va shu qatorda pedagogik faoliyatning tuzilishini keskin o‘zgartirishini keltirib chiqaradi. Ta’lim tizimi barcha bo‘g‘inlarining axborot texnologiyalaridan foydalanishi ta’limning axborotlashuvida kundalik talabni keltirib chiqaradi, bu esa, o‘z navbatida, bo‘lajak mutaxassislardan yangi axborotlar muhitida bemalol ishlay oluvchi ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni talab etadi. Buning uchun bo‘lajak mutaxassislar, albatta, daqiqasiga yangilanib boruvchi hozir zamon axborot texnologiyalarini uzluksiz ravishda o‘rganib, o‘z bilimlarini oshirib borishni taqozo etadi.

Kalit soʻzlar: transformatsiya, taʼlim, yaxlitlik, uzluksizlik, axborot texnologiyalari, geogebra, geoaxborot, informatika.

**МЕТОДИКА ОБЕСПЕЧЕНИЯ НЕПРЕРЫВНОСТИ И
ПРЕЕМСТВЕННОСТИ В ОБУЧЕНИИ ИНФОРМАТИКЕ И
ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ НА ОСНОВЕ
ТРАНСФОРМАЦИИ**

**Кунназаров О.И. - докторант Нукусского государственного
педагогического института**

Аннотация. Одной из характерных особенностей современного этапа научно-технической революции является компьютеризация всех сфер общественной жизни, что приводит к резкому изменению структуры профессионально-педагогической деятельности. Использование информационных технологий на всех уровнях системы образования создает ежедневный спрос на информатизацию образования, что, в свою очередь, требует от будущих специалистов приобретения навыков, позволяющих им комфортно работать в новой информационной среде. Для этого будущим специалистам необходимо будет постоянно совершенствовать свои знания, постоянно изучая современные информационные технологии, которые постоянно обновляются.

Ключевые слова: трансформация, образование, целостность, преемственность, информационные технологии, геогebra, геоинформация, информатика.

**METHODOLOGY FOR ENSURING CONTINUITY AND
CONTINUITY IN TEACHING COMPUTER SCIENCE AND
INFORMATION TECHNOLOGY BASED ON TRANSFORMATION**

**Qunnazarov O.I. - Doctoral student of the Nukus State Pedagogical
Institute**

Annotation. One of the characteristic features of the current stage of the scientific and technological revolution is the computerization of all spheres of public life, which leads to a sharp change in the structure of professional and pedagogical activity. The use of information technologies at all levels of the education system creates a daily demand for the informatization of education, which, in turn, requires future specialists to acquire skills that allow them to work comfortably in a new information environment. To do this, future specialists will need to constantly

improve their knowledge, constantly studying modern information technologies that are constantly updated.

Keywords: transformation, education, integrity, continuity, information technology, geogebra, geoinformation, informatics.

Ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning yuqori salohiyati, kuchli kasbiy bilimi va mahorati jamiyatimiz kelajagining poydevorini tashkil etadi. Ularning zimmasiga ulkan va zarur ijtimoiy vazifa yuklangandir. Bola tarbiyasi eng og'ir va yuksak ijtimoiy vazifa ekanligi hech birimizga sir emas. Barcha ota-onaning eng asosiy maqsadi har tomonlama yetuk va barkamol farzandni voyaga etkazish. Bu jarayon esa bevosita ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq. Ta'lim jarayoni samarasi esa hozirda faoliyat yuritayotgan va endilikda etishib chiqayotgan kadrlar bilimi va pedagogik mahoratida o'z aksini topadi. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya tizimining konseptual asosi – yaxlitlik, uzviylik va uzluksizlikdan iborat.


Uzluksiz ta'limda malakali kadrlar tayyorlashda ta'lim turlari o'rtasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash hamda ular o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishning eng asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, fanlarni informatika va axborot texnologiyalari fani bilan hamohang tarzda o'rganish bu jarayonning samarali bo'lishini ta'minlaydi. Negaki, bugungi kunda qaysi sohaga nazar tashlasangiz ham axborot texnologiyalari ishtirokisiz bu jarayonni tasavvur qilib bo'lmaydi. Masalan, tibbiyot sohasini olib qarasaq, turli xil zamonaviy tashxis qo'yish, muolaja qilish va davolovchi qurilmalarning barchasi biror bir dastur asosida ishlaydi yoki bo'lmasa kompyuter qurilmasi orqali uning ish jarayoni boshqariladi. Demak, bugungi kunda har bir tibbiyot sohasiga oid bo'lgan kasb egalaridan zamonaviy axborot texnologiyalaridan to'laqonli foydalana olish ko'nikmasi talab qilinarkan.

1-rasm



Barchamizga ma'lumki, fan-texnika rivoji orqali vujudga kelgan mana shunday qurilmalar bugungi kunda insoniyat salomatligi uchun xizmat qilib kelmoqda. Ushbu qurilmalarni samarali ishlatish uchun ham, eng avvalo, informatika va axborot texnologiyalaridan yetarlicha bilim va ko'nikmalar zarur bo'ladi. Bu

qurilmalar faqat bemorlargagina yordam berib qolmasdan shifokorlarning ham mushkulini oson qilib kelmoqda. Bundan tashqari aniq fanlardan biri bo'lgan matematika faniga axborot texnologiyalarining kirib kelishi fanni o'rganuvchilar va shu fan sohasiga oid kasblarda ishlaydigan xodimlar uchun ham katta imkoniyatlar yaratdi. Masalan, matematikadagi deyarli har bir mavzular bir qancha chizmalar orqali o'rganuvchilar e'tiboriga havola qilinadi. Aynan matematik chizmalar chizish uchun yaratilgan **Geogebra** dasturi yaratilishi chizmalar chizishda soha mutaxasislari uchun keng imkoniyatlar yaratibgina qolmasdan, kompyuter qurilmasi va turli dasturlar bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirib kelmoqda. Bu dastur orqali funksiya grafiklarini va istalgan turdagi geometrik shakl va figuralarni tez, oson va yuqori aniqlikda chizishingiz mumkin.



2-rasm

Yuqorida ko'rib turganingizdek chizmada geogebra dasturi orqali chizilgan piramida ifodalangan. Bu chizma geogebra dasturining kichkina bir imkoniyati. Ushbu dastur orqali bundan boshqada ko'plab chizmalar, funksiya grafiklarini chizish va ularga turli xil parametrlarni berishimiz mumkin.

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining geografiya fani bilan hamohang tarzda rivojlanishi natijasida **GAT** tizimi vujudga keldi. **Geografik axborot tizimi** (GAT) geofazoviy ma'lumotlarni to'plash, boshqarish va tasvirlashga mo'ljallangan kompyuter tizimi bo'lib, unda mazkur ma'lumotlarni voqea, hodisa, faoliyat yoki undagi tafsilotlar bilan birga ularning qayerda mavjud ekanligini tasvirlar, jadvallar orqali aks ettirish mumkin. Geoaxborot tizimining boshqacha ko'rinishi bo'lgan geoinformatika deganda geoaxborot tizimining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan ilmiy-texnik va amaliy fanlar majmuasi tushuniladi. Bu majmua geografiya, informatika va informatsion texnologiyalar nazariyasi, kartografiya va hisoblash texnikasiga yangicha yondashishlar o'rtasidagi bog'liqlikdan kelib chiqadi [3].

Hozirgi kunda axborot tizimining ushbu bo'limi jadal sur'atlar bilan o'sib borishi natijasida u nafaqat texnik sohalarda, balki hayotimizning turli ijtimoiy sohalarida ham qo'llanilib kelmoqda.



3-rasm

Mana biz tibbiyot, matematika va geografiya sohalarida informatika va axborot texnologiyalarining tadbiri va ahamiyati haqida qisqacha keltirib o‘tdik. Nafaqat ushbu fanlar, balki taraqqiyoti kutilayotgan jamiyatimizdagi har bir soha rivoji va yuksalishida axborot texnologiyalarining o‘rni beqiyos. Ayniqsa, ta’lim sohasi bunga yaqqol misoldir. Ta’lim sohasiga informatika va axborot texnologiyalarining joriy etilishi soha rivojida ahamiyatli o‘rin tutishi hech birimizga sir emas.

Keltirib o‘tilgan bir qancha misollar shuni ko‘rsatadiki, ushbu fan ya’ni informatika va axborot texnologiyalarini o‘rganish bugungi kunda zamon talabi darajasiga etgan ekanligini ko‘rsatib turibdi.

Davlatimiz tomonidan ta’lim jarayonini axborotlashtirish, uning moddiy-texnik bazasini boyitish, o‘quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun kerakli zamonaviy dasturiy vositalar bilan ta’minlash yuzasidan ko‘plab tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2003-yil 11-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-oktyabrda 821-son qarori “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish bo‘yicha ustuvor loyihalarning hududiy manzilli ro‘yxatlarini shakllantirish va moliyalashtirish tartibi to‘g‘risida qarori”,

2020-yil 6-oktyabrda “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4851 sonli qarori[2],

2017-yil 7-fevralda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-sentyabrda “Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo‘nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktabni tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3274-sonli qarori[1] va boshqa e’lon qilingan qarorlari buning yaqqol misolidir.

Yuqorida keltirib o‘tilgan huquqiy asoslarni ushbu fanning jamiyatimizdagi barcha tarmoqlar rivojida ahamiyatli o‘rin egallashining yana bir isboti sifatida ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin.

Mamlakatimizda ta‘lim tizimi rivojlanishi mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq hukumatimiz e‘tiboridan chetda qolmadi. 2002-yil 30-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish to‘g‘risidagi 3080–sonli Farmoni qabul qilindi.

Ushbu Farmonga binoan axborotlashtirishning milliy tizimi shakllantirildi, iqtisodiyot va jamiyat hayotining barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya vositalari ommaviy ravishda joriy etildi hamda ulardan foydalanish, fuqarolarning axborotga ortib borayotgan talab va ehtiyojlarini yanada to‘laroq qondirish, jahon axborot hamjamiyatiga kirish hamda jahon axborot resurslaridan bahramand bo‘lishni kengaytirish uchun ham qulay shart-sharoitlar yaratildi.

Davlatimizda nafaqat ijtimoiy va iqtisodiy sohalarimiz yuksalishida, qolaversa, fan va ta‘lim muassasalarida turli sohalarga oid zarur axborotlarni tezkorlik bilan etkazishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati kattadir.

2006-yil 3-avgustdagi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi Vazirligining 2006-2007-o‘quv yili Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish pedagog kadrlar salohiyatini oshirish o‘quv yili deb nomlash to‘g‘risidagi 6/5 – XB sonli buyrug‘i asosida ko‘plab ishlar amalga oshirildi.

Ma‘lumki, ta‘lim muassasalariga doimiy ravishda minglab o‘quvchilar, talabalar, tinglovchilar o‘zlariga kerakli bo‘lgan axborotlarni oladilar. Dars jarayonida axborotlarni etkazish va singdirish yo‘llari kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Bu ta‘limotlarni faqat ustozlar orqali olish mumkin. Shuning uchun har bir ustoz zamonaviy axborot texnologiyalaridan xabardor bo‘lishi shart. Ana shunday ustozlarning malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimida dars jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ishlarini yo‘lga qo‘yish, ularning kompyuter savodxonligini oshirishga keng e‘tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda pedagog kadrlarni ta‘lim texnologiyalaridan foydalanishi darsning mazmunli tashkil etilishiga hamda tinglovchilar o‘zlashtirishning sifat va samaradorligi oshishiga olib keladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-sentabrdagi “Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo‘nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktabni

tashkil etish to‘g‘risida” PQ-3274-son gi qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 38-son, 1031-modda.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktyabrdagi “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4851-son qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.10.2020-y., 07/20/4851/1352-son.

3. Michael N. Demers. Fundamentals of Geographic Information Systems. John Wiley and Sons. (2003) - 636 pages.

4.Samborsky A., Magdiev Kh., Popiv I. Creation of National Geographic Information System for Uzbekistan. Prezentatsiya. Inspire (2010) http://inspire.ec.europa.eu/events/conferences/inspire_2010/presentations/249_pdf_presentation.pdf

5.Ta’limning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash—soha taraqqiyotining muhim mezon, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2015-yil 17-mart.

FUTBOLCHI QIZLAR TERMA JAMOASINING MAXSUS JISMONIY TAYYORGARLIGI DARAJASI TAHLILI

Karimov F.J., Komilov J.K., Qodirov R.R. - Guliston davlat universiteti o‘qituvchilari

Annotatsiya Ushbu maqolada yuqori malakali futbolchi qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarligi darajasi tahliliga oid ma’lumotlar keltirilgan. O‘tkazilgan pedagogik testlar futbolchi qizlarning jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash imkonini berdi. Olingan natijalar va tavsiyalar mutaxassislarga yuqori malakali futbolchi qizlarning jismoniy tayyorgarligini rejalashtirishga imkon beradi.

Kalit so‘zlar: maxsus jismoniy tayyorgarlik, nazorat, yuqori malakali futbolchi qizlar, sportchilar tayyorlash tizimi

АНАЛИЗ УРОВНЯ СПЕЦИАЛЬНОЙ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ЖЕНСКОЙ СБОРНОЙ КОМАНДЫ ПО ФУТБОЛУ

Каримов Ф.Ж., Комилов Ж.К., Кадиров Р.Р. - преподаватели Гулистанского государственного университета

Аннотация. В статье приведены данные контроля уровня специальной физической подготовки футболисток высокой квалификации. Педагогическое

тестирование позволило установить уровень физической подготовленности футболисток. Полученные данные и рекомендации позволят специалистам планировать физическую подготовку футболисток высокой квалификации.

Ключевые слова: специальная физическая подготовка, контроль, футболистки высокой квалификации, система подготовки спортсменов

ANALYSIS OF THE LEVEL OF SPECIAL PHYSICAL FITNESS OF THE WOMEN'S FOOTBALL TEAM

Karimov F.Zh., Komilov Zh.K., Kadirov R.R. - teachers of Gulistan State University

Annotation. This article provides information on the analysis of the level of special physical fitness of highly qualified female players. Pedagogical tests allowed to determine the level of physical fitness of female players. The results and recommendations obtained allow professionals to plan the physical training of highly qualified football girl players.

Keywords: special physical training, control, highly qualified women football players.

So'nggi o'n yillikda ayollar futboli dunyoda keng ommaviylashmoqda. O'zbekistonda ham futbolni rivojlantirishga xususan, ayollar futboliga nafaqat hukumatimiz balkim, Osiyo futbol Konfederatsiyasi (OFK) tomonidan ham katta e'tibor qaratilmoqda. 2020-2021 yillarda Toshkent shahrida Osiyo kubogining saralash o'yinlarini o'tkazish haqida OFK tomonidan qaror qabul qilinishi yuqoridagi fikrning yaqqol isbotidir. Bundan tashqari OFK tomonidan mamlakatimizga 20 yoshgacha bo'lgan qizlar o'rtasida Osiyo kubogi-2022 musobaqalarining final o'yininga mezbonlik qilish huquqi taqdim etildi. Bu musobaqa jahon chempionatiga saralash bosqichi vazifasini ham o'taydi. Bunday nufuzli musobaqalarning bizning mamlakatimizda o'tkazilishi, O'zbekiston futbol Assotsiatsiyasining avtoriteti va umuman olganda, Osiyoda ayollar futboli va uning roliga qiziqishning oshishi to'g'risida guvohlik bermoqda. Shuning uchun ham bunday nufuzli va mas'uliyatli turnirlarda qatnashish alohida tayyorgarlikni talab etadi [1.2.3.4]

Zamonaviy futbol o'yinchilarning yuksak harakat faolligi va muskul ishlarining katta intensivligi, jismoniy yuklamalarning bir tekis emasligi hamda yuklama va dam olishning aritmikligi bilan tavsiflanadi (M.A.Godik, 2016; V.N. Seluyanov, K.S. Sarsaniya, V.A. Zaborova, 2012; A.V. Stepanov, 2012; A.I.Shamardin, 2010).

O'zbekiston futbolchilari ishtirokidagi turli darajadagi o'yinlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat futbolchilarning harakat faolligi zamonaviy o'yin talablariga

javob bermaydi. Ko'p jihatdan bu holat mashg'ulotlar jarayonida maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga yyetarlicha e'tibor qaratilmayotganligi bilan asoslanmoqda.

Bugungi kunda ayollar futboli butun dunyoda juda mashhur bo'ldi. Musobaqalar, rasmiy turnirlar ishtirokchilari soni ortdi. Osiyo qit'asining ko'plab mamlakatlari ayollar futbolini faol ravishda targ'ib qilish va rivojlantirishga kirishdilar. Ayollar o'rtasida futbol bo'yicha muntazam o'tkazib kelinayotgan Osiyo, Evropa va Jahon chempionatlari ayollar futboli tomoshabopligining yorqin tasdig'idir. Mamlakatimizda ham ayollar futbolini rivojlantirishga davlatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda. Milliy va yoshlar terma jamoalari jahon chempionati va Osiyo saralash turnirlarida muntazam ishtirok etib kelmoqda.

Biroq futbolchi qizlarimiz hali Osiyo qit'asida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishgani yo'q. Sportchilarimizning OFK shafeligida o'tkazilayotgan turnirlarda muvaffaqiyatsiz ishtirok etishining sabablaridan biri –ularda maxsus tayyorgarlikning etarli darajada yuqori emasligidir. Bu ko'p jihatdan mashg'ulotlar jarayonida maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga kam vaqt ajratilishi bilan bog'liq. Ayollar futbol jamoalarining jismoniy tayyorgarligi masalalari haligacha yetarlicha chuqur va har tomonlama o'rganilmagan.

Hozirgi kunda mavjud adabiyotlardagi metodik tavsiyalar asosan erkaklar futbol jamoalari uchun ishlab chiqilgan. Ayrim mutaxassislar yuqori malakali erkak va ayol sportchilar misolida ularning darajalaridagi farq sezilarli bo'lmasligi va hatto umuman bo'lmasligi, ko'p hollarda ixtisoslikning talablari, biomexanik stereotip hamda muskul faoliyatidagi energiya ta'minotining xususiyatlari bilan bog'liq ekanligini ta'kidlashgan (T.F. Abramova, 1993, I.I.Saenko, 2002 va boshq.). Shuning uchun ham ushbu mutaxassislar futbolchilar tayyorlash jarayonidagi uslubiy qarashlarni sportning jamoaviy turlarida faoliyat ko'rsatayotgan ayollar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarga moslashtirish kerak degan fikrni ilgari surishmoqda.

Shu bilan birgalikda, futbolchi qizlar tayyorgarligini rejalashtirishda ularning sport mahorati darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi ko'pgina omillarni ham hisobga olish lozim: organizmning individual xususiyatlari, maxsus jismoniy, texnik-taktik va ruhiy tayyorgarlik darajasi, mashg'ulot yuklamalarini ko'tarish hamda funksional tizimlarning tiklanish tezligi va h.k. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, futbol bo'yicha qizlar terma jamoalarini Osiyo chempionati va boshqa mas'uliyatli rasmiy musobaqalarga maxsus jismoniy tayyorlashning ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqish zaruriyati paydo bo'ldi.

Muammoning o'rgannilganlik darajasi: yuqori malakali sportchi qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish muammosi bugungi kunda o'zining dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Ushbu muammoning echimlari bo'yicha T.F.Abramova (1993), I.I.Saenko (2002), M.A.Godik (2006), V.N.Seluyanov (2006),

L.V.Slutskiy (2009), A.V.Antipov, I.V. Kulishenko (2017)lar izlanishlar olib borishgan. O'quv-mashg'ulot jarayonini rejalashtirish va tashkillashtirish masalalari I.N.Aleshin, V.V.Ro'bakov (2007), O.R.Atoev (2010), Sh.T.Iseev, J.K.Komilov (2016), I.A.Koshbaxtiyev, R.I.Nurimov (2005) va P.V. Pogrebnyak (2020) larning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Futbolchilarning jismoniy ishchanligi muammolarini A.A.Kirilov (1978), F.A.Iordanskaya (2013), R.M.Bagirova, Yu.N.Kuliev (2017) hamda S.K.Grigorevlar atroflicha o'rganishgan. Kuch va tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi bo'yicha A.A.Leksakov (1998), I.N. Novokshenov (2000), V.G.Pashintsev, E.Yu Suxanova (2003), V.N.Seluyanov (2012), N.M.Yusupov (2018) lar tadqiqotlar olib borishgan. A.A.Zaytsev (2003), I.A.Koshbaxtiyev (2017) va Sh.T.Iseev (2020) lar o'z tadqiqotlarini futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligini o'rganishga qaratishgan [5].

Mamlakatimizda ayollar kontingenti o'rtasida futbolning zamonaviy rivojlanishi, qizlarni faol trenirovka mashg'ulotlari va musobaqa jarayonlariga keng jalb etilishi bir qator muammolarni ochib berdi, ulardan asosiysi - futbolchi qizlarni tayyorlash tizimining yo'qligi hamda moddiy-texnik bazaning yetarli emasligidir. Afsuski, bugungi kunda futbolchilarni tayyorlash tizimining ish usullarini (ularning hajmi va intensivligi bo'yicha) ayollar jamoalari mashg'ulotlariga o'tkazish umumiy hol sifatida qabul qilingan. Bu mamlakatimizda ayollar futboli rivojining qisqa davrida haligacha futbolchi qizlarni tarbiyalashning ilmiy asoslangan tizimi shakllanmagani bilan izohlanadi. Hozirda 600 ga yaqin himoya qilingan dissertatsiya ishlari erkaklar futbolini rivojlantirish muammolariga bag'ishlangan bo'lsa, bor-yo'g'i 9 ta dissertatsiya ishi ayollar futboli muammolariga bag'ishlangan [14,15].

Tadqiqotning maqsadi: U-16 terma jamoasi futbolchi qizlarida maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini tahlil qilish.

Tadqiqotning tashkil qilinishi va usullari: futbol bo'yicha U-16 O'zbekiston terma jamoasi o'quv-mashg'ulotlari yig'iniga jalb qilingan futbolga qizlarning maxsus tayyorgarligini tekshirish maqsadida quyidagi me'yoriy talablar bo'yicha test sinovlari qabul qilindi:

- 10 m.ga yugurish;
- 30 m.ga yugurish;
- Turgan joydan uzunlikka sakrash;
- "YO-YO" testi.

Yugurish bo'yicha me'yoriy talablarni qabul qilishda "Micro Gate" firmasining elektron xronometridan foydalanildi.

"Chig'atoy" o'quv- mashg'ulot bazasida o'tkazilgan test sinovlarida U-16 terma jamoasiga nomzod 26 nafar futbolchi qizlar ishtirok etdi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Quyida keltirilayotgan jadvalda futbolchi qizlarning maxsus tayyorgarligi darajasini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan test natijalari berilgan.

1-jadval.

U-16 terma jamoasi futbolchi qizlarining maxsus tayyorgarligi darajasini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan test sinovlari

N A T I J A L A R I

	Futbolchining ismi,sharifi	Ampluasi	Nazorat testlari			
			10 m.ga yugurish (sek)	30 m.ga yugurish (sek)	Uzunlikka sakrash	«YO-YO» testi (m)
	P-ch A.	Darvozabon	2,16	5,19	2,03	-
	N-va N.	Darvozabon	2,39	5,75	1,69	-
	K-va M.	Himoyachi	2,08	5,0	1,86	1440
	K-va S.	Himoyachi	2,18	5,03	2,03	1580
	T-va F.	Himoyachi	2,37	5,62	1,66	1360
	A-va M.	Himoyachi	2,29	5,63	1,80	1040
	Z-va M.	Himoyachi	2,26	5,49	1,65	1420
	T-va R.	Himoyachi	2,28	5,41	1,86	740
	A-va D.	Himoyachi	2,24	5,11	2,03	1160
	J-va Z.	Himoyachi	2,22	5,24	1,97	1400
	S-va P.	Ya/himoyachi	2,32	5,41	1,96	860
	T-va Z.	Ya/himoyachi	2,24	5,31	1,88	1500
	Sh-va N.	Ya/himoyachi	2,18	5,11	1,90	780
	X-va U.	Ya/himoyachi	2,17	5,22	1,86	1020
	E-va K.	Ya/himoyachi	2,14	5,08	1,86	1660
	M-va D.	Ya/himoyachi	2,36	5,75	1,63	900

		chi				
	B-va A.	Ya/himoya chi	2,24	5,26	1,83	1340
	I-va N.	Ya/himoya chi	2,25	5,41	1,80	1020
	S-a U.	Ya/himoya chi	2,15	5,45	1,84	1140
	M-va Z.	Ya/himoya chi	2,22	5,33	1,73	1320
	A-va D.	Ya/himoya chi	2,30	5,51	1,86	820
	J-va D.	Hujumchi	2,10	4,99	2,01	1540
	O-va L.	Hujumchi	2,04	5,05	2,10	820
	A-va A.	Hujumchi	2,18	5,14	1,93	1380
	S-va O.	Hujumchi	2,11	5,05	1,87	1040
	U-va A.	Hujumchi	2,22	5,27	2,08	980
	X o‘rtacha		2,21	5,30	1,87	1177

Olingan natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “10 m.ga yugurish” testida o‘rtacha vaqt 2,21 sek.ni tashkil etadi. Ushbu nazorat talabida bor-yo‘g‘i 3 ta (11%) futbolchi qiz eng yaxshi natijani ko‘rsatishdi: O-va – 2,04sek; K-va -2,08sek va J-va – 2,10sek. Qolgan futbolchi qizlarning start tezligi darajasi model ko‘rsatkichlardan past darajada ekanligi aniqlandi.

“30 m.ga yugurish” testida eng yaxshi natija J-voy da kuzatildi-4,99 sek.V “Bege na 30m” luchshiy rezultat Oliy ta‘lim muassasasiechen u J-voy – 4,99s. Ushbu me‘yoriy talab bo‘yicha model ko‘rsatkichi 4,90 sek.ga teng. Aksariyat futbolchi qizlarning masofa tezligi past darajada. “Turgan joydan uzunlikka sakrash” bo‘yicha 6 nafar (23%) futbolchi qizlar eng yaxshi natija ko‘rsatishdi. Bular, O-va – 210sm; U-va – 208sm; P-ch, K-va va A-va bir xil – 203sm. Natija ko‘rsatishdi. J-voy esa 201 sm. natija ko‘rsatdi. Qolgan futbolchi qizlarda tezkor-kuch tayyorgarligi darajasi me‘yoriy talablar darajasidan past bo‘ldi.

“YO-YO” testida 7 nafar (27%) futbolchi qizlarda eng yaxshi natija kuzatildi: Ev-va – 1660m; K-va S. – 1580m; J-va D.– 1540m; T-va – 1500m; K-va M.- 1440m; Z-va M. – 1420m va J-va Z. – 1400m.

Shunday qilib, o‘tkazilgan test sinovlari natijalari aksariyat futbolchi qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarligi darajasi past ekanligini ko‘rsatmoqda. Bu holat esa U-16 terma jamoasi futbolchilarining mashg‘ulot jarayonidagi yuklamalari

tuzilishini asosiy jismoniy sifatlarni rivojlantirishga e'tiborni qaratgan holda qayta ko'rib chiqishni taqazo etadi.

Xulosalar:

1. U-16 terma jamoasi futbolchi qizlarining maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasida individual va guruhli farqlar mavjud. Futbolchi qizlarning start va masofa tezligi amaldagi model ko'rsatkichlaridan past darajada.
2. Futbolchi qizlarning faqatgina 23%ida tezkor-kuch qobiliyatlari darajasi me'yoriy talablarga javob beradi.
3. U-16 terma jamoasining 27% futbolchi qizlarida maxsus chidamlilik darajasini "qoniqarli" deb hisoblash mumkin.
4. Futbol - o'z qonunlari va qoidalariga ega o'yin, ammo shu bilan birgalikda u sportning boshqa barcha turlariga xos bo'lgan qonuniyat va tamoyillarga ham ega. Shuning uchun mashg'ulot jarayonini ushbu qonuniyatlar va tamoyillarni hisobga olgan holda tashkillashtirish lozim.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida» Qonuni // "Xalq so'zi", 2015-yil 5-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-martdagi "Futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3610-son [qarori](#) // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.03.2018-y., 07/18/3610/0912-son
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrda "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5887-son [Farmoni](#) // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.12.2019-y., 06/19/5887/4116-son
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5924-son [Farmoni](#) // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.01.2020-y., 07/20/5924/0081-son
5. Абрамова Т.Ф., Озолин Н.Н., Геселевич В. А. и др. Современные представления о научных основах тренировки женщин //Всероссийскому научно-исследовательскому институту физической культуры и спорта 60 лет. Сборник научных трудов. - М., 1993. - С. 183-194.
6. Yusupov N.M "Yuqori malakali futbolchi qizlarning tezlik- kuch tayyorgarligining vosita va usullari. Uslubiy qo'llanma. –Toshkent. O'zDJTI nashriyot-matbaa bo'limi. 2011. B 22-24.
7. Йулдашов М.Р. Совершенствование методики развития координационных способностей юных футболисток. Автореферат диссертации доктора философии (phd) по педагогическим наукам. -Чирчик., 2021.С-28

NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINI TASHKIL ETISH VA ULARNING FAOLIYATINI LITSENZIYALASH

**Alimova Z.K. – Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti
“Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limmetodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi**

Annotatsiya. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmoqlarini yanada kengaytirish bugungi kun talabidir. Joylarda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining yangi shakllarini joriy etish, sharoitlarini yaxshilash, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilar salohiyatini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Tarbiyachining bilimi, mahorati, maktabgacha ta’lim tashkilotida zukko bolalar safini oshiradi va ta’lim sifatini o‘zgarishiga turtki bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, davlat, nodavlat, tarmoqlar, tarbiyachi, salohiyat, qonun, qaror, muhimlik, vazifa, mashg‘ulot, ta’lim, sifat.

АЛИМОВА З.К. - СТАРШИЙ ПРЕПОДАВАТЕЛЬ КАФЕДРЫ «МЕТОДИКИ ДОШКОЛЬНОГО И НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ» ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА КАРШИНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

**Алимова З.К. - старший преподаватель кафедры методики
дошкольного и начального образования Каршинского государственного
университета педагогического института**

Аннотация. Требованием сегодняшнего дня является дальнейшее расширение государственных и негосударственных сетей дошкольного образования. Одной из актуальных задач на сегодняшний день является внедрение новых форм дошкольного образования на местах, улучшение их условий, повышение потенциала воспитателей дошкольных учреждений. Знания и умения воспитателя увеличивают количество умных детей в дошкольной организации и способствуют изменению качества образования.

Ключевые слова: дошкольное образование, государственный, негосударственный, отрасли, воспитатель, способность, закон, постановление, актуальность, задача занятия, обучение, качество.

ORGANIZATION OF NON-STATE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS AND LICENSING OF THEIR ACTIVITIES

**Alimova Z.K. - Senior Lecturer of the Department "Methods of Preschool and
Primary Education" of the Pedagogical Institute of Karshi State University**

Annotation. Further expansion of the governmental and non-governmental networks of preschool education is a requirement of today. One of the urgent tasks today is to introduce new forms of preschool education in the field, to improve their conditions, to increase the capacity of preschool educators. The knowledge and skills of the educator increase the number of intelligent children in the preschool organization and contribute to the change in the quality of education.

Keywords: preschool education, state, non-state, industries, educator, ability, law, decision, topical, task, occupation, training, quality.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Maktabgacha ta’lim tizimi uzluksiz ta’limning birlamchi, eng asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Kelgusi 3-4 yilda 5-6 yoshdagi bolalarni barcha maktabgacha ta’limga to‘liq qamrab olishga erishmog‘imiz shart. Bu ertangi kunimiz hal qiladigan masala va biz buni albatta amalga oshiramiz”,- degan hayotiy da’vati har birimizning, ota-onalar va keng jamoatchilikning ongi hamda qalbidan mustahkam o‘rin egalladi. Bu sohada olib borilayotgan keng miqyosli ishlar, xususan, ta’lim-tarbiya bo‘yicha qabul qilingan umummilliy dasturlarni mantiqiy yakuniga etkazish, yosh avlodga puxta ta’lim berish, ularni jismoniy va ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalash eng muhim vazifa ekanini alohida ta’kidlaydi. Shavkat Mirziyoyev ilk marotaba O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimining ilk faoliyatidayoq maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilish yuzasidan bir qancha ishlarni amalga oshirdi. Jumladan:

1) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda “2017 - 2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2707-son [qarori](#);

2) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3261-son [qarori](#);

3) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-sentabrdagi “Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3276-son [qarori](#);

4) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5198-son farmoni;

5) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” PQ-3305-son [qarori](#) [2]

6. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida O‘z.Res.Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-sonli qarori. [3]

Sohani rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvuni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198-sonli farmoni ijrosini ta’minlash hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmoqlarini yanada kengaytirish va ularda sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining yangi shakllarini joriy etish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim Vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-sonli qaror qabul qilindi. Joylarda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim Vazirligiga qarashli Maktabgacha ta’lim boshqarmalari tashkil etildi. Har bir hududda Maktabgacha ta’lim bo‘limlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi [2.].

Maktabgacha ta’lim bo‘limlarida ta’lim sifatini yaxshilash, maktabgacha ta’limga bola qamrovini oshirish maktabgacha ta’limning nodavlat tarmog‘ini kengaytirish maqsadida, davlat hamda nodavlat maktabgacha ta’lim shu‘balari tashkil etildi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tizimida sezilarli o‘zgarishlarga zamin yaratildi. Bolalarni sifatli maktab ta’limiga tayyorlash bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 626-sonli qaror ijrosini ta’minlash maqsadida bolalar yagona taomnoma asosida ovqatlantirilmoqda. Maktabgacha ta’lim bo‘limlari tasarrufidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 391-sonli 2019-yil 13-maydagi qarori asosida Maktabgacha ta’lim Vazirligining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini yuritish to‘g‘risida”gi 155-sonli buyrug‘i, “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi ijrosini ta’minlash maqsadida qabul qilindi. Maktabgacha ta’lim bo‘limlarida ta’lim sifatini yaxshilash, maktabgacha ta’limga bola qamrovini oshirish maktabgacha ta’limning nodavlat tarmog‘ini kengaytirish maqsadida, davlat hamda nodavlat maktabgacha ta’lim shu‘balari tashkil etildi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tizimida sezilarli o‘zgarishlarga zamin yaratildi. Bolalarni sifatli maktab ta’limiga tayyorlash bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 626-sonli qaror ijrosini ta’minlash maqsadida bolalar yagona taomnoma asosida ovqatlantirilmoqda [8.]. Maktabgacha ta’lim bo‘limlari tasarrufidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 391-sonli 2019-yil 13-maydagi qarori asosida Maktabgacha ta’lim Vazirligining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari

pedagoglarining ish hujjatlarini yuritish to‘g‘risida”gi 155-sonli buyrug‘i, “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi ijrosini ta‘minlash maqsadida qabul qilindi.

2020-2021-o‘quv yili yakunida maktabgacha ta‘lim tizimi to‘g‘risidagi qator qaror va farmonlar ijrosini joylarda qo‘llanilishi, tashkil etilgan davlat hamda nodavlat tashkilotlar hisobidan maktabgacha ta‘limga bolalarni qamrab olinishi 62%ni tashkil etdi. Bu borada islohotlarni jadal rivojlanishida 2019-yil 16-dekabrda 595-sonli O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta‘lim-tarbiya qonuni”, 11-bob, 58-moddadan iborat [9.], 2020-yil, 23-sentabrda 637-sonli O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuni, 11-bob, 75-moddadan iborat qabul qilinishi tizimni yanada rivojlanishiga imkon yaratdi [11.].

“Maktabgacha ta‘lim-tarbiya qonuni”ning 17-moddasida “Maktabgacha ta‘lim turlari”, 19-moddasida “Nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tashkil etish” va ular faoliyatini yo‘lga qo‘yish keltirib o‘tilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2020-yil Oliy majlisga qilgan murojaatnomasida 2023-yilgacha maktabgacha ta‘limda bola qamrovini 75%ga etkazish uchun 600 mlrd so‘m sub’sediya ajratilishini aytdi. Bu bilan maktabgacha ta‘limga bo‘lgan e‘tibor yanada oshirildi.

Nodavlat Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari quyidagi qarorlar asosida tashkil etiladi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-sentabrda “Nodavlat ta‘lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3276-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-aprelda “Maktabgacha ta‘lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3651-sonli qarori

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 30-iyulda “Oilaviy nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari hamda oilaviy nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-noyabrda “Maktabgacha ta‘lim sohasida davlat-xususiy sheriklik shakllarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 944-sonli qarori

Oilaviy NMTTlar tashkil etishda kerakli hujjatlar: [7]

1. Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat xizmatlaridan o‘tish. Tashkil etilayotgan tashkilotga muhr olish. Bankdan hisob raqam ochilishi.

2. Tadbirkorga tegishli hujjatlar:

3. Ariza, pasport nusxa, guvohnoma, inn, diplom (agar u mavjud bo'lmasa shahodatnoma).

4. Kadastr hujjatlari, er uchastkaga bo'lgan huquqning davlat ro'yxatidan o'tganlik guvohnomasi.

5. Tashkilot tashkil etilayotgan xonadonning DSENM va YONG'IN xulosalari.

6. Tashkilot tashkil etilayotgan uy kimni nomida bo'lsa o'sha kishiga tegishli hujjatlar (pasport nusxa, guvohnoma, INN).

7. Tadbirkorning kommunal to'lovlar (elektr energiya, gaz, suv, soliq)dan qarzi yo'q degan varaqasi.

8. Tadbirkorga tegishli bo'lgan tashkilotini muhri.

9. Tashkilot tashkil etilayotgan uy tadbirkorga tegishli bo'lmasa, tadbirkor va uy egasini o'rtasida ijara shartnomasi.

10. Tashkilot tashkil etilgan xonadon holati bo'yicha xonadonning ichki va tashqi ko'rinishidagi va 2 ta bo'sh xona foto lavhalari

11. Ishga qabul qilinadigan pedagog xodimlar hujjatlari:
pasport nusxa, diplom nusxa.

12. Tadbirkor va davlat o'rtasidagi bitim. Izoh: ruhsatnoma asosida faoliyat yuritadi

Nodavlat hamda davlat xususiy-sheriklik asosida NMTni tashkil etishda kerakli hujjatlar [11]

1. "XXXXXX" NMTT guvohnomasi

2. Ustav nusxa

3. Yer ajratish to'g'risidagi tuman hokimining qaroridan asliga to'g'ri nusxasi;

4. Yer uchastkasiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi haqidagi guvohnoma nusxasi;

5. Binoga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi haqidagi guvohnoma nusxasi (mavjud bo'lgan taqdirda);

6. Ariza taqdim etiladigan kundan uzog'i bilan bir oy oldin soliqlar, yig'imglar, boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorlik hamda boshqa moliyaviy sanksiyalar yo'qligi to'g'risida ma'lumot;

7. Loyiha qiymatining kamida 25 foizini moliyalashtirish bo'yicha xususiy sherikning imkoniyatini tasdiqlovchi hujjat yoki boshqa tashkilotning kafilligi;

8. Tashkil etish rejalashtirilgan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti binosining belgilangan tartibda tasdiqlangan va kelishilgan loyiha-smeta hujjatlari;

9. Hududdagi ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, organlarining maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish bo'yicha xulosalari;

10. Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati organlarining maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish bo'yicha xulosalari;

11. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti binosini qurish uchun dastlabki texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar.

12. Prezintatsiya (foto albom) Izoh: litsenziyalash asosida faoliyat yuritadi.

«Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash tartibi to'g'risida»gi 2018-yil 27-martdagi 241-sonli qaror asosida litsenziyalash [8].

1. Ariza

2. "XXXXX" NMTT guvohnomasi

3. Ustav nusxasi

4. Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati organ xulosasi

5. Yong'in xavfsizligi boshqarmasi xulosasi

6. Pedagog xodimlar haqida ma'lumot

7. Har bir guruh uchun o'quv reja dasturlar

8. Arizani ko'rib chiqish uchun yig'imning to'langanligi to'g'risida hujjat (eng kam ish haqi 2 barobari).

9. Ekspert xulosasi.

10. Litsenziya olish uchun to'lov. (eng kam ish haqining 10 barobari).

Izoh: NMT faoliyati 5 yilga litsenziyalanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmoqlarini yanada kengaytirish bugungi kun talabidir. Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini ortishi sog'lom raqobat muhitini shakllantirishda turtki bo'ladi. Shuningdek, farzandlarimizni ilk bog'cha yoshidanoq sifatli ta'lim va tarbiya olishida muhim poydevor hisoblanadi. Joylarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yangi shakllarini joriy etish, sharoitlarini yaxshilash, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilar salohiyatini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri. Tarbiyachining bilimi, mahorati, maktabgacha ta'lim tashkilotida zukko bolalar safini oshiradi. Endigi pirovard maqsadimiz, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashda zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni joriy etishdan iboratdir.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda "2017 - 2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2707-son [qarori](#) //Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018-y., 06/18/5483/1594-son;

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-iyuldagi "[Maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida](#)" 528-

son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.02.2018-y., 09/18/134/0809-son,

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3261-son [qarori](#) // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-sentabrdagi "nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3276-son [qarori](#) // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.12.2019-y., 06/19/5893/4150-son

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5198-son [qarori](#) // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2017-y., 06/17/5198/0043-son

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" PQ-3305-son [qarori](#) // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2017-y., 07/17/3305/0038-son

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 30-iyuldagi "Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati bo'yicha ruxsatnoma berish tartibi to'g'risida nizomlarni tasdiqlash haqida" 595-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.08.2018-y., 09/18/595/1598-son

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 27-martdagi "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash tartibini takomillashtirish to'g'risida" 241-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.03.2018-y., 09/18/241/0960-son

9. "Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati bo'yicha ruhsatnoma berish tartibi to'g'risida nizom" 2-ilova. 2018-yil, 30-iyuldagi 595-sonli qaror.

10. "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida". 2019-yil 25-iyul 626-son. 1-ilovasi.

11. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim-tarbiya qonuni" 2019-yil-16-dekabrdagi 595-sonli.

12. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi 2020-yil 23-sentabrdagi 637-sonli qonuni.

13. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ilk rivojlanishiga qo'yiladigan "Davlat talablari". – Toshkent, 2018.

14. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. – Toshkent, 2018.

HARBIY TAYYORGARLIK O'QUV BO'LINMALARIDA MA'RUZA MASHG'ULOTLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

**Mirzaxamdamov U.A. - Toshkent davlat pedagogika universiteti
harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarining harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmalarida umumharbiy va taktik fanlar bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlarini tashkil etish, ma'ruza mashg'ulotlarida texnik ta'minot vositalari va ko'rgazmali qurollardan samarali foydalanish, ma'ruzachining pedagogik mahoratiga qo'yilgan talablar va ma'ruza o'qishga yangi tayinlangan o'qituvchilarning ma'ruza o'qish bo'yicha mutaxassislik kompetensiyalarini takomillashtirish uslublari to'g'risida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: harbiy tayyorgarlik, ma'ruza, pedagogik mahorat, o'qituvchi, ko'rgazmali qurollar, oliy ta'lim, texnik ta'minot va h.k.

СВОЕОБРАЗНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЛЕКЦИИ НА УЧЕБНЫХ РАЗДЕЛЕНИЯХ ВОЕННОЙ ПОДГОТОВКИ

Мирзахамдамов У.А. - преподаватель факультета допризывного военного образования Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В данной статье рассмотрены вопросы организации проведения лекционных занятий в военно-учебных подразделениях высших образовательных учреждений, методы эффективного использования технических средств обучения и наглядности, требования к педагогическому мастерству лектора, даны некоторые рекомендации преподавателям, вновь назначенным для чтения лекций, по предметам общевойсковых и тактических дисциплин по повышению их педагогического мастерства на лекционных занятиях.

Ключевые слова: военная подготовка, учебная программа, лекции, педагогическое мастерство, преподаватель, наглядные пособия, высшее образование, техническое обеспечение и др.

CHARACTERISTICS OF LECTURE IN MILITARY TRAINING DEPARTMENTS

**Mirzaxamdamov U. A. - Lecturer at the Faculty of Military Education,
Tashkent State Pedagogical University named after Nizami**

Annotation. This article discusses the issues of organizing lectures in military educational units of higher educational institutions, methods for the effective use of technical teaching aids and visualization, requirements for the pedagogical skills of the lecturer, some recommendations are given to teachers newly appointed to lecture on subjects of general military and tactical disciplines. to improve their pedagogical skills in lectures.

Keywords: military training, lectures, pedagogical skills, teacher, visual aids, higher education, technical support, etc.

*“Ilmning avvali sukut, so‘ng eshitish, so‘ng yod olish,
so‘ng amal qilish, so‘ng uni tarqatishdir”.*

Imom G‘azzoliy.

Ma‘ruzani ishlab chiqishni tugatgandan so‘ng, muallif o‘z siklida (kafedfada) uning mazmun-mohiyati va boshqa muhim masalalarini muhokama qilib, auditoriyaga taqdim etish tartibini kelishib olinadi. Ushbu amaliyot yangi o‘quv savollarining yagona talqinini o‘rnatish va takrorlanishga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida amalga oshiriladi.

Sikl (kafedra) yig‘ilishida ma‘ruza muhokama qilinar ekan, u mudofaa vazirligining buyruqlari va yo‘riqnomalarining talablari, nizom va qo‘llanmalar qoidalarini ochib berishiga; ikkinchi jahon va mintaqaviy urushlar, harbiy to‘qnashuvlar, mashqlar va manevralar tajribasi; nizom va darslik nashr etilganidan keyin qurolli kurash vositalarining yanada rivojlanishi bilan bog‘liq yangi qoidalar; u yoki bu masalani amalda qanday hal qilish kerakligini ko‘rsatadigan misollarning mavjudligi; xulosalarning asosiligi va rivojlanish istiqbollari tahlil qilish; taqdimot materialining ravshanligi va uning ma‘ruza mazmuniga muvofiqligi; vaqt; umumiy xulosalarning to‘g‘riligi va to‘liqligiga alohida e‘tibor berilishi lozim bo‘ladi [4].

Ma‘ruza bo‘yicha muallif ishining yakuniy bosqichi uni o‘qishga tayyorgarlik jarayoni hisoblanadi. Avvalo, u matn bilan bog‘lanib qolmaslik uchun ma‘ruza matnini o‘zlashtirishi, buning uchun esa, avval ma‘ruza matnini vaqtni qat‘iyan kuzatmasdan o‘qishi va qayta o‘qiyotganida esa ajratilgan vaqt ichida ma‘ruzaning to‘liq va erkin taqdimotiga erishishi zarur. Birinchi navbatda, ushbu talab faoliyatni yangi boshlayotgan o‘qituvchilarga ta‘luqlidir.

Ma‘ruza o‘qishdan oldin, muallif o‘zi nutq so‘zlayotgan auditoriya bilan tanishishi, o‘quv video materiallari namoyish etilishini ta‘minlaydigan texnik vositalarning sozligini tekshirib olishi, so‘ngra barcha texnik vositalar va taqdimot materiallardan foydalangan holda mashg‘ulot olib borishni mashq qilishi, imkon bo‘lganida esa, mashq qilingan mashg‘ulot jarayonini video tasmaga yozib olish maqsadga muvofiqdir, chunki yozib olingan materialni o‘rganish va tahlil qilish jarayonida yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni ko‘rish va ularni kelgusida bartaraf

qilish imkoniyati yaratiladi. Bu ayniqsa yosh (ma'ruza o'qishga yangi tayinlangan) o'qituvchilarga qo'l keladi.

Ma'ruza o'qishga mustaqil tayyorgarlik jarayoni tugagandan so'ng, sikl (kafedra) boshlig'i va bir-ikki tajribali metodist yosh o'qituvchining ma'ruzaga tayyorligini tekshirib qo'yishi foydadan xoli bo'lmaydi.

Ma'ruza birinchi marta o'qilganidan so'ng, uning ustida ishlash to'xtatilmaydi. Ma'ruza jarayonida ayrim yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlanishi mumkin, ularni esa bartaraf etish lozim bo'ladi. Bundan tashqari, urush vositalarining jadal rivojlanishi, qo'shinlar tashkiliy tuzilishidagi o'zgarishlar ma'ruza kursini doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab qiladi.

Ma'ruzaning ishlab chiqilgan matni asosida muallif ma'ruza mazmunini taqdim etish uchun ishchi hujjat hisoblanuvchi ma'ruzani o'qish rejasini tuzadi. Ushbu rejada quyidagilar ko'rsatiladi: ma'ruza o'qiladigan mavzu, o'quv va tarbiyaviy maqsadlar, uni o'qish vaqti va joyi, moddiy-texnik ta'minoti, ko'rgazmali qurollari, tinglovchilarning ushbu mavzu bo'yicha mustaqil ishlashi uchun adabiyotlar, o'qituvchilarning ma'ruza mazmuni va usullarini takomillashtirish bo'yicha takliflari.

Ma'ruza rejasi sikl (kafedra) boshlig'i tomonidan tasdiqlanib, unda o'quv savollari qisqa tezislar shaklida taqdim etiladi. Mudofaa vazirligining buyruqlari, nizomlari va qo'llanmalarining talablarini, shuningdek o'z echimini topishi kerak bo'lgan muammoli masalalarni alohida ko'rsatib o'tish kerak bo'ladi.

Mashg'ulot boshlanishi bilan ma'ruzachi ma'ruza xonasiga kirishi, o'quv kursida (guruhlar oqimida) navbatchi talabadan kursning (oqimning) mashg'ulotga tayyorligi to'g'risida belgilangan mazmundagi hisobotni qabul qilishi, talabalarning tashqi ko'rinishini, davomatini tekshirib olishi, o'quv jurnallarni to'ldirishi va ma'ruza qilishni boshlashi lozim.

Ma'ruzaning muvaffaqiyati asosan ma'ruzachining materialni talabalarga etkazish qobiliyatiga bog'liq. Hatto yaxshi tayyorlangan ma'ruza ham foydali bo'lmaydi agar u sifatsiz o'qilgan bo'lsa, bunday xollarda esa ma'ruzalardan tinglovchilarning ko'ngli qolishi mumkin. Ma'ruzani o'qish jarayoni o'qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyatidir: o'qituvchi o'zining ilmiy va pedagogik tajribasini o'tkazadi, talabalar ma'ruzani tinglaydilar, idrok etadilar va muhim ma'lumotlarni yozib boradilar.

Ma'ruzaning muvaffaqiyati o'qituvchining materialni aniq va tushunarli tarzda taqdim etishi, auditoriyada o'zini tutishi, tinglovchilar e'tiborini qozonish mahorati bilan ta'minlanadi. Ma'ruzachining tinglovchilar bilan aloqasi kirish nutqi bilan boshlanadi. Dastlabki iboralar bilan u ruhan talabalar diqqatini tortadi, ularni ma'ruzani idrok etish jarayoniga kiritadi, shuningdek ma'ruzaning oldingi material bilan aloqasini ochib beradi.

Ma'ruza dinamikasini shartli ravishda bosqichlarga bo'lish mumkin, bu ma'ruza o'qishda inobatga olinishi kerak bo'lgan muhim omildir : 1-bosqich - idrokning boshlanishi, 4-5 daqiqa; 2-bosqich - maqbul jarayon, taxminan 25-30 daqiqa; 3-bosqich - og'ir jarayon - 10-15 daqiqa davom etadi va 4-bosqich – toliqish jarayoni bilan tugallanadi.

Kirish qismida ma'ruza mavzusini aniq va ohista e'lon qilish, uning dolzarbligini ko'rsatish, ma'ruza maqsadlari va tarbiyaviy masalalarini bayon qilish va boshqa o'quv fanlari va mavzular bilan bog'lash tavsiya etiladi. Bu darhol tinglovchilarni faollashtiradi, faoliyatning maqsadga muvofiqligini ta'minlaydi va talabalarga material taqdimotini diqqat bilan kuzatishda yordam beradi.

Kirish so'zidan so'ng ma'ruzachi ma'ruzaning asosiy o'quv savollarini taqdim etishga kirishadi. Shu bilan birga, ma'ruzachi materialni yaxshi bilishi va matnga bog'lanmasligi, ya'ni qog'ozdan o'qimasligi muhimdir. Ma'ruzachining o'z faniga bo'lgan sadoqati va jonli so'zigina u bayon qilayotgan qoidalarning to'g'ri ekanligiga talabalarni ishontira olishi mumkin. Faqat shu yo'l bilan tinglovchilarni ishontirish, o'ziga jalb qilish, o'zaro aloqani o'rnatish, ma'ruzachi bilan hamohang bo'lish, birgalikda fikrlash muhitini yaratish mumkin.

Ma'ruzachi, agar kerak bo'lsa, vaqti-vaqti bilan ma'ruza materialidan buyuk sarkarda va qo'mondonlarning so'zlari, buyruqlar, ko'rsatmalar va boshqa manbalardan parchalar keltirgan holda xulosa chiqarish uchun foydalanishi mumkin.

Ma'ruzachining zaboni, imo-ishoralari va ohangi materialni taqdim etish usuli bilan uzviy bog'liqdir. Har bir ma'ruzachi shuni yodda tutishi kerakki, oddiy va aniq, ko'pchilik uchun tushunarli bo'lgan tilda gapirish, quloqqa olish qiyin bo'lgan va o'quv qo'llanmalarida mavjud bo'lgan og'ir jummalardan foydalanmaslik maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ma'ruzachining o'z fikrlarini ixcham va aniq bayon eta olish qobiliyati, nutqi dono, doimiy (ya'ni shablona solingan) iboralarsiz, takroriy va keraksiz (parazit) so'zlarsiz bo'lishi talabalar tomonidan o'quv materialini yaxshi o'zlashtirilishiga zamin yaratadi, tinglovchilar ko'z o'ngida pedagogning obro'-e'tibori ortib boradi. Shu qatorda, qadimiy Gretsiya faylasufi Demokritning "Agar ularni o'rganilmasa, notiqlik san'atiga ham, donolikka ham erishib bo'lmaydi" degan iboralari o'rinli deb hisoblayman.

Ma'ruzani o'tkazish texnikasiga diksiya, ohang, taqdimot tempi, takrorlash, imo-ishoralar va mimika kiradi. Yaxshi diksiya har bir tovushning aniq va ravshan eshutilishini, so'zlarning aniq talaffuzini anglatadi. Talaffuzning sustligi, so'zlarning chala va noto'g'ri talaffuz qilinishi tinglovchilarning ma'ruzani tushunishiga xalal beradi. Nutqni ba'zi imo-ishoralar bilan to'ldirish mumkin. Biroq, haddan tashqari yoki bir xildagi imo-ishoralar tinglovchilar e'tiborini chalg'itadi, ba'zan esa ularni g'ashiga ham tegadi.

Ma'ruzachi nutqining ohangi, ovozini boshqarish qobiliyati muhim rol o'ynaydi. Biroq, o'ta past ohangda gapirish ham tavsiya etilmaydi. Ovoz balandligi talabalar soniga, auditoriyaning hajmi va uning nutqni kuchaytirish moslamalari bilan jihozlanishiga bog'liqdir. Shu narsalarni inobatga olgan holda o'qituvchi ma'ruzani barcha tinglovchilar yaxshi eshitishi va tinglashini ta'minlaydigan ohangda o'qishi darkor. Yetuk pedagog olimlar iborasi bilan aytganda, "Ma'ruzani eshitish uchun baland ovozda va shu bilan birga, uni tinglash uchun yetarli darajada sokin ohangda o'qish kerak".

Osuda, o'rtacha baland ovozda o'qish, muhim jummalarni keltirishda ovoz ohangini o'zgartirish, asosiy va muhim narsalarni alohida ta'kidlab o'tish tavsiya etiladi. Muhim qoidalar aytilganida, xulosalar qilinganida, savollar berilganida nutqni sekinlashtirish zarur bo'ladi. Eng muhim ma'lumotlar (masalan: nizomlardan keltiriladigan talablar, xulosalar) balandroq ovozda va sekinroq talaffuz qilinishi kerak. Agar lozim topsa, ma'ruzachi qisqa to'htalishlarga ham murojaat qilishi mumkin. U o'zini ishonchli, g'urur bilan va shu bilan birga sodda, tabiiy ravishda, hayajonsiz tutishi tavsiya etiladi.

Ma'ruzalarning muvaffaqiyatiga o'qituvchining tinglovchilar bilan doimiy aloqani tutishi, tinglovchilar oldida emas, balki tinglovchilar bilan gaplashishi, ularning reaksiyasini kuzatish bilan erishiladi. Agar o'qituvchi aloqa uzilishini payqagan bo'lsa, u darhol nutqida o'zgarishlarni amalga oshirishi, aloqani tiklashi, qo'shimcha tushuntirishlar berishi, misollar keltirishi, u yoki bu dalilni, u yoki bu xulosani takrorlashi, o'qish tezligini va ba'zan ohangini biroz o'zgartirishi kerak bo'ladi. Bunday holatlarda janglar, mashqlar, mintaqaviy urushlar va harbiy to'qnashuvlar tajribasidan misollar keltirish, ayniqsa o'zining shaxsiy taassurotlarini hissiy jarayonlar bilan namoyish etish tinglovchilarga kuchli psixologik va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi.

Auditoriyada o'rnatilgan tartibni saqlash ma'ruzachi va tinglovchilar o'rtasida doimiy aloqani saqlash uchun ham katta ahamiyatga ega. O'qituvchi ma'ruza paytida intizomning har qanday buzilishiga yo'l qo'ymaslikka majburdir. Ikki soat davomida ma'ruza zalidagi tarang muhit ko'pincha charchashga, ma'ruzachi va tinglovchilar o'rtasida o'rnatilgan munosabatlarning buzilishiga olib keladi. Shunday ekan, o'rnatilgan munosabatlarni o'z vaqtida ushlab qolish, o'tkir so'z yoki hazil bilan vaziyatni yumshatish, va shu tariqa tinglovchilarga qisqa dam berish ma'ruzachining katta mahorat egasi ekanligining dalilidir. Ma'ruza davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun, bir savoldan ikkinchisiga o'tishda, tinglovchilar oldiga ritorik savollarni qo'yish va ularga javob berish, taqdim etilgan materialning ahamiyatini ta'kidlash, odatiy xatoliklar, imtihonlar tajribasi va bitiruvchilarning pedagogik faoliyatidagi qiyinchiliklar haqida so'zlab, talabalarning e'tiborini jamlash tavsiya etiladi. Talabalarni intizomga chorlashning bir misoli tariqasida auditoriyada sukunat

saqlanishiga xalal berayotgan talabaga (talabalarga) yuzlanib, bir oz ma'ruza qilishdan to'xtash, intizomni buzayotgan (gaplashib o'tirgan) talaba sizga yuzlanganidan so'ng faylasuf Pifagorning: "Tinglash va sukut saqlash seni donolikka etaklaydi. Sukut – donolikning boshlanishidir", - degan so'zlarini ta'kidlab o'tishning o'zi nafaqat intizomni buzgan talabaga, balki butun auditoriyani sezgir tortishiga sabab bo'ladi [5].

Mavzuni har bir savolining taqdimoti qisqa xulosalar bilan yakunlanishi va keyingi o'quv savoliga mantiqiy o'tilishi kerak bo'ladi.

Ma'ruza o'qiyotganda materialni taqdim etish tempiga alohida e'tibor qaratish lozim, ma'ruza tempining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi talabalarga ma'ruzachining fikrlarini kuzatib borish imkonini beradi. Ma'ruzaning o'rtacha tempi daqiqada 70 ta so'zni tashkil etadi, bu odatdagi muloqot nutqidan 1,5-2 baravar sekinroq degani. Talabalar yozib olishlari kerak bo'lgan ma'ruzaning yangi va eng muhim ma'lumotlari esa sekin sur'atda (daqiqada taxminan 25 ta so'z) o'qiladi.

Taqdimot materiallardan foydalanishda bir vaqtning o'zida joylashtirilgan jadvallar, chizmalar, diagrammalarning ko'pligi tinglovchilar e'tiborini chalg'ishiga olib kelishini unutmaslik lozim. Agar o'qituvchi tomonidan shunday xatolikka yo'l qo'yilsa, u xolda talabalarining bir qismi ma'ruzachini tinglaydilar, boshqalari - diagrammalarni o'rganadi, jadvallar tuzadi, chizmalarni ko'chiradi va tabiiyki, ma'ruzachining aytganlarini tushunishga ulgurmaydi. Shuning uchun, ma'ruza jarayonida tasviriy materialdan ketma-ket foydalanish maqsadga muvofiqdir. Agar auditoriya tegishli texnik ta'minot vositalari (TTV) bilan ta'minlanmagan bo'lsa, u holda faqat ma'ruzaning keyingi soati uchun kerak bo'ladigan taqdimot materiallari namoyish etiladi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, ikki soatlik ma'ruza uchun ikki yoki to'rtta chizma etarli. Ular muhim va eng qiyin masalalarni yoritish uchun ishlatilishi mumkin.

Taqdimot materialni havola qilish davomiyligining to'g'ri belgilangani ham katta ahamiyatga egadir. Shunday qilib, chizmalarining haddan tashqari tez o'zgarishi (almashishi) talabalarga ularni tushunishga imkon bermaydi, ularning zo'riqish yukini oshiradi va materialning haddan tashqari uzoq taqdim etilishi ham talabani chalg'itadi, uning tushunchasini qiyinlashtiradi. Ma'ruzachining namoyish etilayotgan chizma bo'yicha ma'lumotlarini tinglovchilar puxta tushunib olishlari, kerak bo'lsa, eskizlarini chizish imkoniyatiga ega bo'lishi darkor. Ammo ushbu jarayon juda ko'p vaqtni oladi, shuning uchun ma'ruza paytida bunday chizma qaysi darslikda yoki o'quv qo'llanmasida mavjud ekanligini e'lon qilish va mustaqil tayyorgarlik jarayonida chizib olish tavsiya etilgani yaxshiroqdir [1].

Ma'ruza o'qiyotganda texnik ta'minot vositalaridan ketma-ket va bir vaqtning o'zida har tomonlama unumli foydalanish kerak. Masalan, asosiy ekranda

diagrammani ko'rsatish, uning boshqa kattalashtirilgan detallarini boshqa proektordan yoki bo'lingan ekranli displeydan ko'rsatish orqali to'ldirilishi mumkin.

Kinofilmlardan parchalarni namoyish qilish, ko'rinishni (ko'rgazmalilikni) oshirishning samarali vositasidir, ayniqsa, agar u jang yoki harakatdagi har qanday jarayonning dinamikasini ko'rsatish uchun zarur bo'lsa.

Barcha namoyishlarning umumiy soni va davomiyligi ma'ruza mazmuni va didaktik materiallarga bog'liq bo'ladi. So'nggi yillardagi nazariy tadqiqotlar va psixologik-pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, ikki soatlik mashg'ulotlarda, umumiy davomiyligi 3-6 daqiqadan oshmaydigan 1-2 ta videofilmlarni namoyish qilish, 3-5 ta slyaddan iborat taqdimot materialidan va davomiyligi 3 daqiqagacha bo'lgan 1-2 tasma yozuvlaridan foydalanish kifoya bo'lib, umuman olganda, turli TTVlar yordamida namoyish etilgan ma'ruzada bunday didaktik materiallar to'plamidan foydalanish 20 daqiqadan oshmasligi kerak [2].

Ma'ruzada turli TTVlarning kompleks qo'llanilishi nafaqat ma'ruzaning eng muhim qoidalarini aks ettirishga, balki ma'lumotlarning muhim qismini vizual shaklda etkazishga imkon beradi. Shu bilan birga, ma'ruzaning asosiy mazmunini og'zaki bayon qilish uchun vaqt ham tejiladi.

Ko'rgazmali qurollar, TTV haqida gap ketganida, shuni ta'kidlash joizki, talabalarga (ayniqsa, u yoki bu ma'ruzani qoldirib ketganlarga), lentaga yozib olingan ma'ruza materillari mustaqil o'zlashtirishga katta yordam beradi. Ma'ruzaning yozma tasma-sini sikl (kafedra)da yoki ARMda saqlash kerak bo'ladi [3].

Ma'ruzalarda TTVdan foydalanish bo'yicha belgilangan tavsiyalar umumlashtiriladi. TTVning har bir ma'ruzada amaliy qo'llanilishi ma'ruzaning mavzusi, maqsadlari, ta'lim masalalari, shuningdek didaktik materiallarning mavjudligi va mazmuni bilan bog'liq ravishda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

Ma'ruzachi ma'ruzaning barcha savollarini ko'rib chiqqandan so'ng, 3-5 daqiqa ichida qisqa xulosa qilishi kerak. Bunday holda, aytilganlarni takrorlamasdan, ma'ruzaning bayon qilingan mavzusidan nazariy va amaliy xulosalarni shakllantirish lozim. Ma'ruza so'ngida yoki boshida talabalarga mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxati beriladi. Ma'ruza haqidagi savollarga javob berish uchun 3-5 daqiqa vaqt ajratish tavsiya etiladi, ba'zida esa tinglovchilar tarkibi va ma'ruza mavzusiga qarab ko'proq vaqt ajratilishi ham mumkin. Ma'ruzachi ma'ruzani mashg'ulot jadvalida ko'rsatilgan aniq vaqtda tugatish kerakligini unutmasligi darkor.

Ma'ruzachi o'z faoliyatida kognitiv qiziqishni (bilimga chanqoqlikni) faollashtirishning quyidagi usullarini qo'llashi mumkin: nazariy masalalarning dolzarbligini va amaliy ahamiyatini ochib berish; muvaffaqiyatli kirish tufayli ijobiy psixologik munosabatni yaratish; talabalarning mashg'ulot mavzusi bo'yicha mavjud bilimlariga, ularning qiziqishlari va ehtiyojlariga tayanish; ma'ruzaga yangi nazariy qoidalarni, oliy ta'lim muassasasi olimlarining tadqiqot natijalarini va boshqa aniq

materiallarni kiritish; muammoli xarakterdagi savollarning kognitiv vazifalaridan foydalanish; ijodkorlik, o‘zaro tushunish va xayrixohlik muhitini yaratish; materialni taqdim etishda mavjudlik va hissiylik; aqliy faoliyatni kuchaytirishning turli xil yondashuv va usullaridan foydalanish.

Talabalarning diqqatini saqlab qolish uchun ma’ruzachi quyidagi usullardan foydalanishi mumkin: ko‘rgazmali qo‘llanmalarni qo‘llash, TTV va sinf taxtasidan foydalanish; kompyuter majmuasidan unumli foydalanish; armiya, qism va bo‘linmalar hayotidan yorqin parchalarni, harbiy fakultetning etakchi professor-o‘qituvchilari ijodiy ishlanmalarini kiritish; o‘quv materialini taqdim etishning zamonaviy usullarini qo‘llashni tashkil etish; hazil-mutoyiba, badiiy obrazlar, maqol va matallardan foydalanish; o‘quv materialini taqdim etish tezligini va ovoz ohangini o‘zgartirish; o‘quv savolining ahamiyati va murakkabligini ta’kidlash; muammoli ma’ruzani tashkil etish shular jumlasidandir.

Muallif ma’ruzani o‘qib tugatganidan so‘ng uni takomillashtirish bo‘yicha o‘z takliflarini ma’ruza rejasiga kiritishi, barcha oqimlarda (kurslarda) ma’ruza o‘qib tugatilgandan so‘ng esa, o‘z takliflarini umumlashtirishi va sikl (kafedra) boshlig‘iga taqdim etishi lozim bo‘ladi.

Xulosa: Ma’ruza, darslik, nizom va yo‘riqnomalar yagona ilmiy asosga ega bo‘lishi darkor. Shu bilan birga, ma’ruza o‘quv materialining mazmuni, shakli va taqdim etish tizimi bilan darslikdan farq qilishi mumkin. Chunki, ma’ruza darslik mazmunini nashrdan keyin paydo bo‘lgan yangi materiallar bilan to‘ldirish, kelgusida yangi darslik (o‘quv qo‘llanma) ishlab chiqish va chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Ma’ruzalar talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini, bilimlarni mustaqil ravishda egallashga bo‘lgan ehtiyojlarini shakllantirish uchun mustaqil izlanishga undash vositasidir. Ular nafaqat nazariya va amaliyotning dolzarb masalalarini bayon qilibgina qolmay, balki mavzuni yanada mustaqil o‘rganish uchun tashkiliy va uslubiy tavsiyalarni o‘z ichiga olib, kredit-modul tizimida talimning etaklovchi funksiyasini ham o‘taydi.

Adabiyotlar

1. Андреев Е. Г. Педагогика в работе лектора. - М., 1994.
2. Архангельский С.И. Лекции по теории обучения в высшей школе. - М.: Высшая школа, 1974.
3. Бордовская Н.В., Реан А.А. Педагогика. Учебник для вузов - СПб: Питер, 2000.
4. Фокин Ю.Г. Преподавание и воспитание в высшей школе: Методология, цели и содержание, творчество. Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. - М.: Издательский центр "Академия", 2002.
5. Эрганова Н.Е. Методика профессионального обучения: учебное пособие для вузов. – М.: Академия, 2007.

**CHET TILLARNI O‘QITISH JARAYONIDA OLIY TA‘LIM
MUASSASALARI TALABALARINING TOLERANTLIGINI
RIVOJLANTIRISHNING TARKIBIY - FUNKSIONAL MODEL**

**Ulmasbayeva M.A. – Toshkent davlat pedagogika universiteti erkin
tadqiqodchisi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada chet tillarni o‘qitish jarayonida oliy ta‘lim muassalari talabalarining tolerantligini rivojlantirish modeli haqida so‘z boradi. Talabalarning tolerantligini rivojlantirish jarayoni modeli deganda biz har bir oldingi tarkibiy qism keyingi tarkibiy qismini belgilaydigan, shuningdek talabalarning shaxsiy xususiyatlarining miqdoriy va sifat jihatidan o‘zgarishini ta‘minlaydigan pedagogik jarayon tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘liqligini ochib beradigan dinamik tuzilmani tushunamiz.

Kalit so‘zlar: tolerantlik, model, chet tillari, an‘anaviy va innovatsion o‘qtish metodlari

**СТРУКТУРНО - ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ
ТОЛЕРАНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ВУЗА В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ
ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ**

**Улмасбаева М.А. – свободный исследователь Ташкентского
государственного педагогического университета**

Аннотация. В данной статье рассматривается модель развития толерантности студентов высших учебных заведений в процессе обучения иностранным языкам. Под моделью процесса развития толерантности учащихся мы понимаем динамическую структуру, выявляющую взаимообусловленность компонентов педагогического процесса, каждый из которых определяет следующий компонент, а также обеспечивает количественные и качественные изменения индивидуальных характеристик учащихся.

Ключевые слова: толерантность, модель, иностранные языки, традиционные и инновационные методы обучения.

**STRUCTURAL - FUNCTIONAL MODEL OF DEVELOPING
TOLERANCE OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS
IN THE PROCESS OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING**

**Ulmasbayeva M.A. - Researcher at Tashkent State Pedagogical
University**

Annotation. This article discusses the model of developing tolerance of students of higher education institutions in the process of teaching foreign languages. By model of the process of developing student tolerance, we mean a dynamic structure that reveals the interdependence of the components of the pedagogical process, each of which determines the next component, as well as provides quantitative and qualitative changes in individual characteristics of students.

Keywords: tolerance, model, foreign languages, traditional and innovative teaching methods.

Talabalarning tolerantligini rivojlantirish jarayoni modeli deganda biz har bir oldingi tarkibiy qism keyingi tarkibiy qismini belgilaydigan, shuningdek talabalarning shaxsiy xususiyatlarining miqdoriy va sifat jihatidan o'zgarishini ta'minlaydigan pedagogik jarayon tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqligini ochib beradigan dinamik tuzilmani tushunamiz.

Tuzilgan tarkibiy va funksional model talabalarning tolerantligini rivojlantirish uchun pedagogik faoliyat strukturasi aks ettiradi. Strukturaviy bloklar - bu modelning asosiy xususiyatlari, funksional bloklar - bu tarkibiy qismlar o'rtasidagi barqaror aloqalar.

L.I.Guryening ta'kidlashicha, pedagogik faoliyatni ajralmas jarayon sifatida modellashtirish "amalga oshirishning asosiy tamoyillari uning tavsifining to'liqligi, ko'p darajali xarakteri va fanlararo bog'liqligi" ni hisobga olishni o'z ichiga oladi [2]. Pedagogika metodikasi bo'yicha ishlarni, shuningdek, xorijiy tillarni o'qitish jarayonida tolerantlikni rivojlantirish bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ishlarini tahlil qilish modelning muvaffaqiyatli ishlashining quyidagi tamoyillarini ta'kidlashimizga imkon berdi:

- *ochiqlik*: bu model chet (ingliz) tilidagi asosiy dasturga qo'shimcha; modelning mazmun bloki fanlararo aloqalarni o'z ichiga oladi: autentik material turli fanlarning ma'lumotlarini o'z ichiga oladi, jumladan, sosiologiya, psixologiya, etnografiya, antropologiya, siyosatshunoslik, etika; fanlararo aloqalar nafaqat talabalar o'rtasida umumlashtirilgan bilimlarni shakllantirishga yordam beradi, balki O.G.Maksimovanning fikriga ko'ra "talabalarning bilim va amaliy faoliyatining umumlashtirilgan ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quv va hayotiy tajribalarni integrallashtirish mexanizmlarini aniqlash; hal qilishda umumlashtirilgan variasion yondashuvni talab qiladigan muammolar tizimini yaratishga imkon beradi» [5];

- *maksimal qamrov*: talabalarning tolerantligini rivojlantirish nafaqat universitetning ta'lim muhitida, balki milliy o'ziga xoslikni shakllantirishga, tillar xilma-xilligini qo'llab-quvvatlashga, turli xalqlarning etnomadaniy rivojlanishiga qaratilgan tadbirlarda ishtirok etish orqali ta'lim muassasasidan tashqarida ham amalga oshiriladi.

Ushbu tadbirlar milliy madaniyat haqidagi bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beradi va boshqa madaniyat haqida ko'proq ma'lumot olish imkoniyatini beradi. Auditoriyadagi amaliy mashg'ulotlar bilan bir qatorda talabalar madaniy tadbirlarda qatnashish vaqtida o'tilgan mavzularni birlashtirish uchun individual va guruhli loyihalarni amalga oshirishda; ekskursiyalarni tayyorlash paytida; turli xil etnik guruhlar vakillari o'rtasidagi munosabatlarni kuzatishda o'quv materiallarini mustaqil o'rganadilar;

- *yaxlitlik*: tolerantlikni rivojlantirish jarayoni talabani o'qitish, rivojlantirish va tarbiyalashni o'z ichiga olgan yaxlit hodisa sifatida qaraladi. Chet tillarni o'qitish jarayonida universitet talabalarining tolerantligini rivojlantirish modeli o'zaro bog'liq bloklarni o'z ichiga olgan ajralmas tizim sifatida qaraladi. Ushbu bloklarning o'zaro ta'siri uning samarali ishlashi uchun shartdir.

Maqsadli blokga integrasion maqsad kiradi: chet tillarini o'qitish jarayonida universitet talabalari o'rtasida tolerantlikni rivojlantirish, bunga ma'lum muammolarni hal qilish orqali erishiladi.

Nazariy va uslubiy blok o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy ilmiy yondashuvlarini o'z ichiga oladi, bu chet tillarini o'qitish jarayonida tolerantlikni rivojlantirish jarayonini loyihalashda hisobga olinishi kerak, shuningdek o'qitishning umumiy didaktik va uslubiy tamoyillari bo'lib, ularni amalga oshirish ushbu jarayonning samaradorligiga yordam beradi.

Tarkibiy blok talabalarining bilim faoliyatini faollashtiradigan vizual, muammoli didaktik materialni tanlashni o'z ichiga oladi.

Prosessual blok tolerantlikni rivojlantirish jarayonini tashkil etishni aks ettiradi: a) reproduktiv, tushuntirish-illyustratsiya va faol o'qitish usullari bilan ifodalangan an'anaviy va innovatsion o'qitish texnologiyalaridan foydalanish; b) talabalarining hissiy, intellektual, irodaviy, predmet-amaliy sohalarini rivojlantirishga hissa qo'shadigan ta'lim usullarining maqbul kombinatsiyasi, shuningdek v) ta'lim vositalari va shakllarini tanlash.

Natija bloki o'quv jarayonining kutilgan natijalarini aks ettiradi.

1-rasmda ko'rsatilgan model tarkibiy qismlarining birligi va o'zaro bog'liqligi tolerantlikni rivojlantirish jarayonining yaxlitligini ta'minlaydi.

Rivojlantiruvchi maqsad talabalar shaxsining intellektual, hissiy va motivasion sohalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Ushbu maqsadga erishish mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, hamdardlik, mulohaza yuritish, hissiyotlarning boy spektri, boshqa madaniyat qadriyatlarini qabul qilishning ichki ehtiyojini, chet tilini o'rganishda, boshqa madaniyatni bilish va uning vakillari bilan aloqalarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Ona va chet tillari madaniyatini bilish bilan bir qatorda talabalarda hamdardlik va ma'naviy rivojlanish mavjud.

	Integrativ maqsad - chet tilini o'qitish jarayenida tolerantlikni rivojlantirish	o'qitish	tarbiyalash	rivojlantirish
Maqsadli blok	Vazifalar			
	Lingvistik va lingvokultural bilimlarni shakllantirish, empatiya va refleksiya ko'nikmalarini rivojlantirish, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish va kundalik, ishbilarmonlik va professional muloqot sohasida madaniyatlararo to'qnashuv holatlarini hal qilish va mag'lub bo'lishda tajovuzkorlikni pasaytirish orqali tolerantlikning kognitiv, hissiy va xulq-atvor tarkibiy qismlarini rivojlantirish.			
Nazariy va uslubiy blok	Metodologik baza		O'qitish tamoyillari	
	kommunikativ-kompetentlikka asoslangan, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan, muammoli, madaniyatlararo yondashuvlar.		o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan yo'nalishi, o'qitishning faoliyatga yo'naltirilgan xususiyati, o'qitish ongi, ijodkorlikni o'rgatish; muloqotga yo'naltirilgan o'qitish, mulohazalarni, dialoglarni, madaniyatlarning dialogini tarbiyalash.	
Tarkibiy blok	O'qitishning tarkibi			
	Ixtisoslashgan ingliz va umumiy ingliz tillarini o'z ichiga olgan professional yo'naltirilgan chet tilining didaktik materiali, mamlakatshunoslik, ijtimoiy-madaniy va asl materiallari bilan to'ldirilgan ilmiy va badiiy matn, publisistik matn, maqola, suhbat, reportaj, notiqlik nutqi ko'rinishidagi professional va ishbilarmonlik yo'nalishi; Internet materiallari: autentik matnlar, video va audio yozuvlardan parchalar.			
Prosessual blok	Tolerantlik tarkibiy qismlarining bosqichma-bosqich parallel rivojlanishi: 1-bosqich (1 semestr) "Tolerantlik to'g'risida xabardorlik"; 2-bosqich (2-semestr) "Tolerantlikni tushunish"; 3 bosqich (3 va 4 semestrlar) "Tolerantlik bayonotlarining mustaqilligi va tolerantlik xulq-atvorini tanlash".			
	Ta'lim texnologiyasi:		Ta'lim vositalari:	
	An'anaviy va innovatsion (tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, hamkorlikda o'qitish, o'yin orqali o'qitish, projekt orqali o'qitish, keys stadi, telekommunikasion texnologiyalar)		Madaniyatlararo muloqotda tolerantlik: bilim va ko'nikmalar " va "bag'rikenglik madaniyati: ingliz tilida gapirish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida stereotiplar va muloqotdagi qiyinchiliklarni engish" o'quv qo'llanmalari; audio va video materiallar; Internet manbalari.	
	Ta'lim metodlari:			
	Reproduktiv, ko'rgazmali, aktiv.			
	Tarbiya metodlari:		Shakllari:	

	Ongni shakllantirish, faoliyatni tashkil etish, xulq-atvorni rag‘batlantirish, tarbiyalash holati, tuzatish, nazorat qilish.	Auditoriya va auditoriyadan tashqari ishlar (yakka tartibda, juftlikda, guruh bo‘lib)
Natija bloki	Kriteriyalar: Kognitiv, xissiy, xulqiy	Darajalar: Boshlang‘ich, davom ettiruvchi, yuqori

1-rasm.

Tolerantlikni rivojlantirish modelining ro‘yxatlangan bloklari haqida batafsilroq ma’lumot beramiz.

Modelning maqsadli bloki o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish maqsadlarining birligi bilan ifodalanadi. Tolerantlikni rivojlantirish jarayoni yangi bilimlarni egallashga hissa qo‘shadi, o‘z-o‘zini anglashni, o‘z-o‘zini tarbiyalashni va o‘z-o‘zini tarbiyalashni rag‘batlantiradi, shuningdek talaba shaxsini o‘z-o‘zini rivojlantirishga yordam beradi.

Ta’lim maqsadi - talabalarning umumiy madaniyatini oshirish va ularning dunyoqarashini kengaytirishga hissa qo‘shadigan o‘rganilayotgan mamlakatlar madaniyati haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish va takomillashtirish va ushbu bilimlardan madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun foydalanish.

Tolerantlikni rivojlantirishning tarbiyaviy salohiyati boshqa xalqlarning ma’naviy qadriyatlari va urf-odatlariga hurmatni tarbiyalash orqali amalga oshiriladi; bo‘lajak mutaxassisning o‘zini o‘zi qadrlashi, ishonchi, fuqarolik javobgarligini tarbiyalash; intellektual mehnat, ishbilarmon nutq va odob-axloq qoidalarini shakllantirish.

Tadqiqotning integral maqsadini amalga oshirish - chet tillarini o‘qitish jarayonida ba’zi bir vazifalar hal etilishi sharti bilan oliy ta’lim muassasalari talabalarining tolerantligini rivojlantirish:

1) *lingvistik bilimlarni rivojlantirish*: umumiy, ishbilarmonlik, terminologik va professional xarakterdagi chet tilining leksik va grammatik minimumi; talaffuz qoidalari, stress, so‘z ishlatish, iboralar va jumlar tuzish; asl mohiyatni turli lingvistik vositalarda ifoda etish qobiliyati; chet tilini ma’lum bir kommunikativ vaziyat doirasida ishlatish, nutqning maqsadi va mazmuniga muvofiq ma’lum bir uslubni tanlash (ya’ni o‘qish, gapirish, tinglash va yozishni amalga oshirish uchun ingliz tilida og‘zaki va yozma nutqni o‘zlashtirish) bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar, shuningdek lingvokultural bilimlar: jamiyatning milliy va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi ingliz tilida so‘zlashadigan mamlakatlarning geografiyasi, tarixi, siyosati sohasidagi bilimlar; urf-odatlar, odob-axloq qoidalarini bilish; madaniyatlararo aloqa nazariyasi (yuqori va past kontekstning madaniy qadriyatlari, og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan aloqa xususiyatlari, ko‘p millatli jamoadagi boshqaruv uslublari); ingliz

tilida so‘zlashuvchilar, Osiyo mamlakatlari an‘analarini aks ettiruvchi va ijodiy xarakterdagi vazifalarni bajarishda, madaniyatlararo muloqot vaziyatlarini sahnalashtirganda, turli madaniyatlar tashuvchilari bilan aloqa qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga olib keladigan odob-axloq qoidalari;

2) madaniyatlararo to‘qnashuv holatlarini rol o‘ynash va tahlil qilishda rivojlangan empatiya va aks ettirish shaklida *hissiy sezgirlik qobiliyatlarini rivojlantirish*;

3) juftlik va guruhdagi ish turlarida madaniyatlararo professional muloqotning haqiqiy holatlarini takrorlaydigan o‘quv vazifalarini bajarishda *aloqa qobiliyatlarini rivojlantirish va tajovuzkorlikni pasaytirilishi*, bu muvaffaqiyat va hamkorlik murosasini tanlashga bog‘liq.

Modelning nazariy va uslubiy bloki chet tilini o‘rganish jarayonida talabalarning tolerantligini rivojlantirishni ta‘minlaydigan yondashuv va tamoyillar tizimini aks ettiradi. Ta‘lim jarayonining markazida kommunikativ-kompetensiyaga asoslangan, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan, muammoli va madaniyatlararo yondashuvlar mavjud bo‘lib, ular o‘qitishning quyidagi umumiy didaktik prinsiplaridan foydalangan holda amalga oshiriladi:

- o‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan yo‘nalishi, bu ta‘lim jarayonining asosini uning barcha ishtirokchilarining teng o‘zaro ta‘sirida bo‘lishini nazarda tutadi. Talaba ta‘limni shaxsiy bilim sifatida oladi. O‘qituvchi va talabaning birgalikdagi hayajonli faoliyati jarayonida xotira, fikrlash, aql-idrok, his-tuyg‘ular, bilim, ma‘naviy rivojlanish, nutq xulq-atvori madaniyatini oshirish, tolerantlik xatti-harakatlari, shaxsning kommunikativ va ijtimoiy-madaniy rivojlanishi rivojlanadi;

- talabaning ijodiy faoliyat jarayonida rivojlanadigan tashqi va ichki (aqliy) faoliyatida namoyon bo‘ladigan mashg‘ulotning faoliyatga asoslangan xususiyati, ya‘ni tolerantlikni rivojlantirish doirasida chet tilini o‘qitish ijodiy bo‘lishi va haqiqiy muloqotga yaqin bo‘lishi kerak. Ushbu madaniyatda qabul qilingan boshqa madaniyat, xulq-atvor me‘yorlari va aloqa qoidalari to‘g‘risida bilimlarni shakllantirish nutq odob-axloqi va muomala madaniyati ko‘nikmalarini rivojlanishiga olib keladi;

- o‘rganishning vijdonanligi, bu tilni aloqa vositasi sifatida o‘zlashtirishi va dunyoning boshqa manzarasini o‘zlashtirishi bilan talaba ona va chet el madaniyatini birlashtiradigan va ajratib turadigan narsalardan xabardor bo‘lishidan kelib chiqadi. Ushbu prinsipni amalga oshirish talabaning kommunikativ, ijtimoiy-madaniy va bilim rivojlanishiga yordam beradi.

- ijodkorlik sifatida o‘qitish, o‘yin shaklida o‘rganish, muammoli vaziyatni hal qilish, muhokama qilish, taxmin qilingan vaziyatlarni qurish, haqiqiy muloqotni simulyatsiya qilish talaba shaxsining intellektual, bilim va hissiy sohalarini rivojlanishiga olib keladi; talaba shaxsining o‘zini namoyon qilishi va uning ijodiy

qobiliyatlarini aniqlash; chet tili va u olib boradigan madaniyatni o'rganish motivatsiyasini kuchaytiradi.

Biz ishlab chiqqan model o'qitishning quyidagi uslubiy prinsiplarini aks ettiradi :

- muloqotga yo'naltirilgan ta'lim: kasbiy masalalarni hal qilish bo'yicha topshiriqlarni bajarish va chet tilida nutq faoliyatining barcha turlarini o'zlashtirish, talabalar madaniyatlararo muloqotda qatnashadilar;

- tarbiyaviy aks ettirish: talabalarga o'quv muhitida, oilada, jamiyatda yuz beradigan o'zgarishlarni aks ettirish uchun sharoit yaratish tolerantlik munosabatini shakllantirishga yordam beradi;

- Dialog: madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy mexanizmi va shaxslararo muloqotning asosiy xarakteristikasi bo'lgan dialog chet tili darslarida deyarli barcha faoliyat turlarida juftlik va guruh ishi shaklida bo'lishi kerak;

- madaniyatlar suhbatlari: ona va chet tillaridagi lingvistik va madaniy hodisalarni qiyosiy tahlil qilish talabalarda tolerantlik tafakkuri va harakatlarini rivojlantirishga, murosaga kelishga yordam beradi [1].

Modelning tarkibiy bloki to'rt semestrda tarqatiladigan o'quv materialni ta'riflashni o'z ichiga oladi. Talabalarning tolerantligini rivojlantirish "Chet (ingliz) tili" fanini simulyatsiya qilingan chet tili muhitida universitetda o'qigan ikki yil davomida (1–4 semestr) o'rganish jarayonida amalga oshiriladi. Semestr davomida har bir mavzuni o'rganish uchun zarur bo'lgan o'quv vaqtini o'qituvchi o'zi belgilaydi: material chet tilidagi asosiy dastur bilan parallel ravishda (ajratilgan sinf soatlari ichida o'quv rejasiga muvofiq) o'rganiladi. Ikki darslikda taqdim etilgan mintaqaviy, ijtimoiy-madaniy va kasbiy-biznes mavzularidagi tanlangan didaktik material ilmiy xarakter va aniqlik mezonlariga javob beradi, talabalarning bilish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi.

Ishbilarmonlik chet tilidan foydalanish zarurati uning o'rganilayotgan mamlakat haqiqatlari, turli madaniyat vakillarining muloqot uslublari, yozma va og'zaki kelishuvlarning o'ziga xos xususiyatlari, turli millatlarning og'zaki va og'zaki bo'lmagan aloqalari, muzokaralarning o'ziga xos xususiyatlari, nizolarni hal qilish strategiyalari va madaniyatlararo jamoalarni boshqarish to'g'risida bilim manbai ekanligi bilan bog'liq.

Ishbilarmonlik aloqalari vaziyatlari madaniy va kasbiy-kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga, madaniyatlararo tolerantlik qobiliyatlarini egallashga hissa qo'shadigan o'z madaniy va kasbiy xususiyatlarini anglash vositasi sifatida ishlaydi [3].

Prosessual blok o'quv jarayonini tashkil etish ketma-ketligini o'z ichiga oladi. Tolerantlikni rivojlantirishning barcha bosqichlarida an'anaviy (reproduktiv,

tushuntirish va tasviriy) hamda innovatsion o'qitish texnologiyalari qo'llaniladi: munozara usullaridan foydalanishni o'z ichiga olgan tanqidiy fikrlashni rivojlantirish; hamkorlikda o'rganish (guruh va jamoaviy ish shaklida); o'yin mashqlari; ish texnologiyasi; loyihani o'qitish (natijasi og'zaki ma'ruza va taqdimot shaklida), telekommunikatsiya texnologiyalari (Internet-resurslar). Ushbu texnologiyalar talabalarning o'quv jarayonida faolroq ishtirok etishiga bo'lgan munosabatni amalga oshiradi, ularga tolerantlik xatti-harakatlarini rivojlantirish, tushunish va hamdardlik qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi.

Tolerantlikni rivojlantirishning har bir bosqichida ko'rsatilgan faol ta'lim texnologiyalarini amalga oshiradigan usullarning kombinatsiyasi mavjud.


Bizning fikrimizcha, tolerantlikni shaxsiy fazilat sifatida rivojlantirish mantig'iga muvofiq, uni rivojlantirish bir necha bosqichda, ya'ni: "xabardorlik", "tushuncha" va "mustaqillik" bosqichlarida amalga oshirilishi kerak.

1. "Tolerantlik to'g'risida xabardorlik" - kognitiv va hissiy tarkibiy qismlarning rivojlanishi, shuningdek, tolerantlik bayonotlari va tolerantlik xatti-harakatlari zarurligini anglash shaklida xulq-atvor komponenti.

2. "Tolerantlikni anglash" - kognitiv va hissiy tarkibiy qismlarni rivojlantirish, tolerantlik bayonotlarini shakllantirish ko'nikmalarini shakllantirish shaklida xulq-atvor komponentlarini rivojlantirish.

3. "Tolerant nutqning mustaqilligi va tolerantlik xatti-harakatini tanlash" - kognitiv va hissiy tarkibiy qismlarni rivojlantirish, tolerantlik xulq-atvorining ko'nikmalarini shakllantirish shaklida xulq-atvor komponentlarini rivojlantirish.

Shunday qilib, har bir bosqichda bir vaqtning o'zida tolerantlikning uchta tarkibiy qismi rivojlanadi: shakllanayotgan bilimlarga asoslangan tolerantlik to'g'risida anglash, hissiy sohani rivojlantirishda tolerantlikni tushunish, shakllangan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarga asoslangan tolerantlik bayonotlari va tolerantlik xulq-atvori (2-rasm).



2-rasm. Tolerantlikni rivojlantirish bosqichlari

Butun o'quv jarayoni davomida talabalarning xatti-harakatlari va bayonotlari kuzatilib boriladi.

Tolerantlikni rivojlantirish jarayonining har bir bosqichida o'quv mashg'ulotlari sinfda amaliy darsda talabalarning individual, juft va guruhlarda ishlash va sinfdan tashqari soatlarda uy vazifasini bajarish, xalqaro konsertlarga, milliy bayramlarga tashrif buyurish, ekskursiya mashg'ulotlarini o'tkazish shaklida amalga oshiriladi.

Natija bloki talabalarning tolerantligini rivojlantirish bo'yicha o'quv jarayonining kutilgan natijalarini aks ettiruvchi modelni amalga oshirish muvaffaqiyatini belgilaydi.

Talabalar tolerantligining har bir tarkibiy qismi - kognitiv, emosional va xulq-atvorining rivojlanish dinamikasi bu bosqichdan ikkinchisiga o'tish bo'lib, ularning har biri miqdoriy o'zgarishlar (sonlar bilan ifodalangan talabalarning o'zini o'zi qadrlashi) va sifat (talabalar xatti-harakatlaridagi kuzatiladigan o'zgarishlar) bilan tavsiflanadi [4].

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirib shuni ta'kidlash kerakki, ishlab chiqilgan model chet tillarini o'qitish jarayonida oliy ta'lim muassasalari talabalarining tolerantligini rivojlantirish jarayonini tizimli va har tomonlama loyihalashtirishga imkon beradi.

Adabiyotlar

1. Aripova, K. Y. (2020). METHODS OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE AS AN INDEPENDENT THEORETICAL AND APPLIED SCIENCE Bennett M. Becoming interculturally competent / M.Bennet // Towards multiculturalism: A reader in multicultural education. 2nd ed. –Newton, MA: Intetcultural Resource Corporation, 2004. –P. 62-77.
2. Гурье Л.И. Интегративные основы инновационного образовательного процесса в высшей профессиональной школе: монография / Л.И.Гурье, А.А.Кирсанов, В.В.Кондратьева. –М.: ВИНТИ, 2006. -288б.
3. Джумаева, Н. И. (2017). Внедрение кейс-технологии в систему преподавания филологических дисциплин в высшей школе. Образование и воспитание, (3), 53-56.
4. Khasanova, D. K. (2020). METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(11), 371-376.
5. Kuchkarov, V., & Matibaev, T. (2014). Certain Aspects of Formation of the Family Culture in development of a Civic Society in Uzbekistan. Eastern European Scientific Journal, (2).

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARI BILAN
AMALIY MASHG‘ULOTLAR O‘TKAZISHNING MOHIYATI VA UNGA
TAYYORGARLIK XUSUSIYATLARI**

Toshxo‘jayeva N.R. - Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqola bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga amaliy dars-mashg‘ulotlar o‘tkazish mohiyati va tayyorgarlik xususiyatlari masalariga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar: amaliy dars, faoliyat, kognitiv faoliyat, topshiriq, mantiqiy topshiriq.

**СУЩНОСТЬ ПРОВЕДЕНИЯ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ С
БУДУЩИМИ УЧИТЕЛЯМИ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ И
ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ К НИМ**

Ташходжаева Н.Р. - преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация: В данной статье основное внимание уделяется важности практических занятий, особенностям практической подготовки будущих учителей начальных классов.

Ключевые слова: практическое занятие, деятельность, познавательная деятельность, задание, логическое задание.

**THE ESSENCE OF CONDUCTING PRACTICAL CLASSES WITH
FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS AND THE FEATURES OF
PREPARING FOR THEM**

Toshkhojayeva N.R. - Teacher of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. This article focuses on the importance of practical training and training for future primary school teachers.

Keywords: practical lesson, activity, cognitive activity, task, logical task.

Ta‘lim tizimida ma‘ruza hamda amaliy mashg‘ulotlarning o‘zaro ketma-ket joylashishi katta ahamiyatga ega. Ma‘ruza talabalarni amaliy mashg‘ulotlarga tayyorlashga birinchi qadam sanaladi. Unda qo‘yilgan muammolar amaliy mashg‘ulotda o‘zining aniq ifodasi va muayyan echimini topadi. Boshqa mashg‘ulot turlari orasida ma‘ruzaga o‘xshashi uchramaydi. Har bir amaliy mashg‘ulot an’anaviy

tarzda rivojlantiruvchi, mustahkamlovchi mashg‘ulot hisoblanib, keyingi ma‘ruzani faol qabul qilishga tayyorgarlik vazifasini ham bajarishi mumkin.

Shunday qilib, ma‘ruza va amaliy mashg‘ulot muay’an vaqt oralig‘ida ketma-ketlik tartibida joylashishi, shuningdek, muammoli vaziyat bilan o‘zaro metodik bog‘liqlikka ega bo‘lishi kerak. Tajribalar ma‘ruza orqali taqdim qilingan ma‘lumotlar amaliy mashg‘ulotda ko‘riladigan masalalardan qanchalik yiroq bo‘lgani sayin, ma‘ruzachiga talabalarni ijodiy izlanishga jalb qilish shunchalik qiyinchilik tug‘dirishin ko‘rsatadi.

Biroq, ta‘kidlash lozimki, ma‘ruza hamda amaliy mashg‘ulotlarning o‘zaro nomutanosibliigi, ma‘ruza qiluvchi va amaliy mashg‘ulotni olib boruvchi o‘qituvchi ayniqsa ta‘limning dastlabki bosqichlarida bitta masala to‘g‘risida turli nuqtai nazardan gapirish, turli ta‘riflar, qisqartma va belgilarga tayanib bayon qilishi, ayrim hollarda esa hatto alohida faktlarni turli ketma-ketlikda bayon qilishi, keyingi ta‘lim jarayoniga jiddiy xavf soladi. Bu ta‘lim oluvchilarni chalg‘itishi va adashtirishi, natijada o‘zlashtirishga zarar etkazishi, ta‘lim samaradorligini pasaytirishi, o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonini murakkablashtirishi mumkin.

Har qanday o‘quv fani bo‘yicha amaliy mashg‘ulot – bu jamoaviy mashg‘ulotdir. Masalani nazariy tomonlama o‘zlashtirishda individual ish katta va muhim ahamiyatga ega bo‘lishiga qaramay (inson o‘zi fikrlamasa biror narsani o‘rgana olmaydi, fikrlash qobiliyati esa - har qanday o‘quv fanini o‘zlashtirishning negizidir), ta‘limda butun jamoa bilan guruhli tafakkurga asoslanib tashkil qilinadigan darslar ham katta ahamiyatga egadir. Bunday dars-mashg‘ulotlar davomida samimiylik va o‘zaro ishonch muhiti hukm surib, ta‘lim jarayoni ishtirokchilari o‘zlarini erkin xis qilsalar, tushunmaganlari haqida bimalol so‘ray olsalar va o‘qituvchi hamda o‘rtoqlari bilan bimalol o‘rtoqlasha olsalargina, kutilgan ijobiy natijani beradi.

Amaliy mashg‘ulot – o‘quv jarayonini tashkil etish shakli bo‘lib, o‘quvchilarga o‘qituvchining topshirig‘i va rahbarligida bir yoki bir nechta amaliy ishlarni bajarishni taklif qiladi. Amaliy dars amaliy ko‘nikmalar (manipulyatsiya, ko‘nikma, hisob-kitoblar, jadvallardan foydalanish, ma‘lumotnomalar va boshqalar) bilan shakllantiriladi [1].

Yana ham aniqroq aytadigan bo‘lsak, “Amaliy dars” tushunchasi ostida aksariyat hollarda o‘qituvchining rahbarligida olib boriladigan va ilmiy-nazariy bilimlarni chuqurlishtirish hamda o‘quv rejasidagi biror fan bo‘yicha muayyan ish usullarini o‘zlashtirishga qaratilgan. Amaliy mashg‘ulotlar sarasiga nafaqat umumiy fan kurslari bo‘yicha masalalarni yechish, balki integrativ mashg‘ulotlari va maxsus mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari va hatto chet tillarini o‘rganish bo‘yicha mashg‘ulotlar ham kiradi. Amaliy mashg‘ulotlarning turli shakllari oliy ta‘lim tizimidagi yuklamaning eng maqbul va sig‘imli qismi sanaladi.

Amaliy mashg'ulot – o'qitishning reproduktiv metodi bo'lib, nazariya va amaliyotning bog'liqligini ta'minlaydi, talabalarda ma'ruzalar hamda mustaqil ta'lim jarayonida olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakalarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Quyida amaliy darsning mazmun-mohiyati, uni tashkil qilish hamda rejalashtirish masalalarini ko'rib chiqamiz.

Amaliy dars odatda, ma'ruzada misol sifatida taqdim qilingan turli amaliy vazifalarga echim topishga oid mashg'ulot sanaladi. Natijada har bir ta'lim oluvchida har qanday masalaga echim topishga nisbatan muayyan kasbiy yondoshuv va kasbiy intuitsiya ishlab chiqilishi kerak. Shu munosabat bilan, bunday mashg'ulotlarda berilgan vazifalar soni va turlari, ularni o'rganilayotgan kurs uchun ajratilgan vaqt oralig'ida qanday joylashtirish, qanday uy vazifalari bilan mustahkamlash masalalari oliy ta'limda hanuz dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Amaliy darslar uchun mashq va topshiriqlar tizimini tanlashda o'qituvchi ular orqali o'quv fani va o'rganilayotgan fanning metodlari to'g'risida to'liq tasavvur hosil qilishga intilishi lozim bo'lib, bunda metodik funktsiya yetakchilik qiladi.

Pedagogik tajribalar amaliy mashg'ulotlarda faqat amaliy ko'nikma va malakalar ustida ishlash, jadvallar tuzish va h.k. bilan chegaralanmaslik kerakligini ko'rsatadi. Ta'lim oluvchilar har doim o'quv kursining yetakchi g'oyasi va uning amaliyot bilan bog'liqligini ko'rishlari shart. Mashg'ulotlarning maqsadi nafaqat o'qituvchi, balki talabalar uchun ham tushunarli va aniq bo'lishi kerak. Bu ta'lim jarayoniga dolzarblik bag'ishlaydi, kasbiy faoliyatga oid tajribaning zarurligini ta'kidlaydi, uni hayot bilan bog'laydi. Bunday sharoitda o'qituvchining vazifasi yetakchi ilmiy g'oyalarning amaliy ahamiyati va prinsipial ilmiy konsepsiya hamda qodilalarni ta'lim oluvchiga ko'proq namoyon qilishdan iborat [2].

Amaliy mashg'ulotlarning maqsadi:

- ◆ ta'lim oluvchiga nazariy xarakterga ega bo'lgan bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash va chuqurlashtirishga yordam berish;
- ◆ talabalarni amaliy topshiriqlarni yechish usullariga o'rgatish, hisoblash, jadvallar hamda boshqa turdagi topshiriqlar bilan ishlash ko'nikma va malakalarini egallashiga ta'sir ko'rsatish;
- ◆ kitob, xizmat hujjatlari va chizmalar bilan ishlash, ma'lumotnoma hamda ilmiy adabiyotlardan foydalanishga o'rgatish;
- ◆ mustaqil ta'lim olish, o'zini o'zi rivojlantirish, nazorat qilish usullari va metodlarini egallash malakasini shakllantirish.

Talabalarni kasbiy tayyorlash tizimida, amaliy mashg'ulotlar ularning mustaqil ta'lim olishi uchun ajratilgan soatlarning ko'p qismini egallaydi. Ma'ruza kursi tegishli yo'nalish bo'yicha mutaxassisning kasbiy malakasiga poydevor qo'yadi va uning asosini shakllantiradi. Bunday mashg'ulotlarning mazmuni va ularni

o'tkazish metodikasi shaxsni ijodiy faolligining rivojlanishini ta'minlashi zarur. Ular ta'lim oluvchining ilmiy tafakkuri va nutqini rivojlantiradi, unga o'z bilim darajasini sinab ko'rish imkonini beradi va bunda mashqlar, seminar va laboratoriya ishlari qayta aloqaning yetarlicha tezkor muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham amaliy mashg'ulotlar nafaqat bilish va tarbiyalash funksiyasini bajarishi, balki ta'lim oluvchilarning ijodkor shaxs, kelajakda ijodkor ishchi-xodim sifatida o'sishiga ham ta'sir ko'rsatishi kerak.

Ma'ruzalarda talaba ma'lum tafakkur darajasiga etishadi, ya'ni unda o'rganilayotgan hodisalar yoki real dunyoviy fanlarga nisbatan ma'lum darajada aloqadorlik hamda ularga munosabat shakllanadi, yetarlicha barqaror bo'lmagan assotsiyatsiya hamda o'xshashliklar shakllanadi. Amaliy mashg'ulotlarning fizik asosi - hosil bo'lgan aloqa hamda assotsiatsiyalarni o'quv fanini o'rganishga oid faoliyatlarni qayta bajarish orqali mustahkamlashdan iborat [3].

Mashg'ulot uchun ajratilgan vaqt oraliqida to'g'ri taqsimlangan amaliy jarayonda bajariladigan turli xil mazmun bilan boyitilgan (dastlabki ma'lumotlarning o'zgarishi, o'quv topshirig'iga yangi elementlarning qo'shilishi, ularga echim topish shartlarining xilma-xilligi va h.k.) o'quv materialini takrorlanishi ko'zlangan maqsadga etkazadi. Ma'lumki, bir qolipdagi takrorlashlar yangi bilimlarning anglangan bo'lishiga olib kelmaydi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi amaliy dars-mashg'ulot hamda boshqa metodlarning bajaradigan funksiyalarini hisobga olgan holda, ularga ilmiylik, maqbullik, shakl va mazmun birligi, boshqa o'quv mashg'uloti turlari va amaliyot bilan bog'liqlik talabi qo'yiladi.

O'qituvchining amaliy mashg'ulotga tayyorgarligi hujjatlarni (o'quv dasturi, o'quv-mavzu reja va h.k.) o'rganishdan boshlanadi, mashg'ulot rejasini ishlab chiqish bilan yakunlanadi.

Dastlabki hujjatlarni o'rganish asosida o'qituvchida amaliy mashg'ulotning maqsad va vazifalari bilan bir qatorda, har bir ta'lim oluvchi bajarishi kerak bo'lgan ish xajmi to'g'risida aniq tasavvur hosil bo'lishi lozim. Shundan so'ng amaliy mashg'ulotning mazmunini ishlab chiqishga kirish mumkin. Buning uchun esa o'qituvchining (hatto uning o'zi ushbu kurs bo'yicha ma'ruza o'qigan taqdirda ham) ma'ruza mazmunini bo'lajak amaliy mashg'ulot nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Aniq topshiriq va mashqlarda yana bir bor taqdim qilinishi zarur bo'lgan tushuncha, qoida, qonuniyatlar ajratib ko'rsatiladi. Shunday qilib, o'rganiladigan mazmun tarkibi tanlab olinadi.

Amaliy darsning eng muhim elementlaridan biri - bu echimini topish uchun taklif qilinadigan o'quv vazifasi(muammo)dir. O'qituvchi amaliy dars uchun misol va namunalar(masalalar va mantiqiy topshiriqlar)ni tanlashda har safar didaktik maqsad: har bir topshiriqda qanday ko'nikma va malakalar singdirilishi, talablardan

nima va qanday harakatlarni talab qilinishi, mazkur muammoga echim topishda talablarning ijodkorligi nimalarda namoyon bo'lishini aniq ifodalashi kerak.

Amaliy mashg'ulotlarning asosiy kamchiligi tayyor topshiriqlar to'plamining faqat eng oddiy misol va masalalardan tuzilgani, ular bo'yicha yetarlicha namuna yo'qligidir. Mavjudlari esa, tor qo'llanish sohasiga oid bo'lgan misol va masalalar bo'lib, asosan bitta qoidani ko'rsatib berishga xizmat qiladi va talabaga faqat uni qo'llash uchun tajriba beradi. Bunday misollar ko'p bo'lishi, oddiy topshiriqlar o'zlashtirilganidan so'ng, ular ta'lim oluvchini keyingi murakkabroq topshiriqlarga olib o'tishi, uni ishlashda davom etishga undovchi bo'lishi zarur.

Agar talabalar darsning barcha ta'limiy imkoniyatlari tugaganini tushunib etsalar, ularning ushbu darsga qiziqishlari so'nadi. Buni psixologik jihatdan hisobga olgan holda, darsni ta'lim oluvchilarning o'zlari bajarayotgan vazifalarining murakkablik darajasi ortib borayotganini doimo his qilib turadigan tarzda tashkil qilish kerak. Buning natijasida talabalar ta'lim jarayonida erishgan shaxsiy muvaffaqiyatlarini anglay boshlaydilar, ularning kognitiv faoliyatlari ijobiy rag'batlantiriladi.

O'qituvchi darsni unda har bir ta'lim oluvchi qizg'in ijodiy ish, to'g'ri va aniq echimlarni izlash bilan band bo'lgan holda o'z qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniga ega bo'ladigan shaklda tashkil qilishi va o'tkazishi kerak. Shu sababli, darsni rejalashtirish va individual topshiriqlarni ishlab chiqishda o'qituvchi har bir ta'lim oluvchining tayyorgarligi va qiziqishlarini hisobga olishi muhim. Bunda o'qituvchi talablarni erkinligi va tashabbuskorligini so'ndirmagan holda, kerakli yordamni o'z vaqtida ko'rsatadigan maslahatchi vazifasini bajaradi. Amaliy darsning bunday tarzda tashkil etilishi, auditoriyada ishtirok etayotganlarning hech birida uning ta'limiy imkoniyatlari tugagani haqida fikr uyg'Oliy ta'lim muassasasiydi.

Birinchi navbatda talabalarga ma'ruzalarda taqdim qilingan reproduktiv faoliyatga mo'ljallangan engil harakat usullarini takrorlashni talab qiluvchi, hotirani mustahkamlovchi sodda (mantiqiy) topshiriqlarni berish tavsiya qilinadi. Bunday topshiriqlar talabalarning (odatda, bitta ma'ruza doirasida) o'rgangan o'quv materiali yuzasidan alohida masalalarni to'g'ri tushunganlarini nazorat qilishga yordam beradi. Bunda berilgan topshiriqlarni ma'ruzada taklif qilingan namuna bo'yicha yechish ustuvorlik qiladi.

Shundan so'ng o'quv topshiriqlarining mazmuni yanada murakkablashtiriladi. Reproaktiv-transformativ faoliyatga mo'ljallangan topshiriqlar taklif qilinadi, ularda talaba nafaqat ma'lum harakat usullarini takrorlashi, balki uning amalga oshirilishi mumkinligini tahlil qilishi, muammoning shartlarini tahlil qilishi bilan bog'liq yangi fikrlarini ilgari surishi, ilgari surilgan farazlar va ulardan olingan natijalarni ifodalashi kerak. Mavzuning alohida masalalari bo'yicha topshiriqlarning bunday turi ta'lim

oluvchilarning o'rgangan metodlarini qo'llash ko'nikma va malkalarini rivojlantirishi va ularning mavjudligini nazorat qilishi lozim.

Keyingi o'rinlarda vazifalar (mantiqiy topshiriqlar) mazmuni ularning echimi dastlab samarali faoliyatning alohida elementlarini, keyinchalik esa – to'liq mahsuldor (ijodiy) faoliyatni talab qiluvchi tartibda yana murakkablashtiriladi. Odatda bunday vazifalar to'liq mujassam xarakterga ega bo'ladi va mavzu yoki kurs materialini o'zlashtirish darajasini nazorat qilishga mo'ljallanadi.

Asta-sekin o'sib boruvchi murakkablikdagi topshiriqlar tizimini tuzgan holda o'qituvchi mazkur o'quv faniga oid eng ahamiyatli metod va usullarning talablar tomonidan o'zlashtirilishiga erishadi [4].

O'qituvchining amaliy darsga tayyorgarligi qo'yidagilarni o'z ichiga oladi:

➤ talabalarning ma'ruzalarda berilgan va mustaqil o'rgangan nazariy materiallarni tushunganliklarini nazorat qilishga oid savollarni tanlash. Savollar shunday mantiqiy ketma ketlikda tuzilishi kerakki, ularga berilgan javoblar natijasida talabalarda bo'lajak darsning yaxlit nazariy asosi – tayanchi hosil bo'lsin;

➤ shu topshiriqni taklif qilayotganini aniq bilishi shart (topshiriq tasodifiy tanlanmasligi kerak);

➤ ushbu muammoga echim topish talabaga nima beradi (tanlangan topshiriqni yechishdan hosil bo'ladigan amaliy natijani oldindan ko'ra bilishi lozim);

➤ uning echimi ta'lim oluvchiga mavzu va butun o'quv fanini o'zlashtirishda nima berishi mumkin (har bir muammoning echimini ta'limning navbatdagi "bosqichi" sifatida ko'rish, uning o'ta murakkab ham, shu bilan oson echilmasligiga harakat qilish);

➤ tanlangan vazifalarning o'qituvchining o'zi tomonidan echib ko'rilishi (talabalarga taklif qilingan har bir vazifa oldindan echilgan va metodik jihatdan qayta ishlangan bo'lishi kerak);

➤ yechimi topilgan vazifalar, bu turdagi vazifalar uchraydigan hayotiy misollar yuzasidan xulosalar, yakuniy nutqni tayyorlash;

➤ dars uchun ajratilgan vaqtni har bir topshiriqni yechish uchun to'g'ri taqsimlash;

➤ topshiriqlarni yechish uchun zarur bo'lgan ko'rgazmali materiallar (plakat va chizmalar)ni, doskada rasm va yozuvlarning joylashishi, shuningdek turli namoyishlarni tanlash;

Amaliy dars odatda guruh bilan o'tkaziladi, shuning uchun ham uni o'tkazish rejasida mazkur guruh talabalarining individual xususiyatlari hisobga olinishi mumkin va shart. Bu vaqtni taqsimlash, yechish uchun taklif qilinayotgan topshiriqlarning murakkabligi va soniga tegishli.

Mavzu yuzasidan amaliy topshiriqlar (mantiqiy topshiriqlar) tizimini tuzib, muayyan dars uchun zarur topshiriqlarni tanlab, ularning har birini yechish uchun

zarur vaqtni hisoblab chiqib o'qituvchi amaliy darsni o'tkazish rejasini ishlab chiqishga kirishadi.

Uning ish rejasi qanday shaklda bo'lishi kerak? Ko'rinib turibdiki, o'qituvchining o'zi o'rgangan shakldan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Oliy ta'lim muassasalari amaliyoti bunday reja darsni o'tkazish uchun umumiy dastlabki ma'lumotlar va uning mazmunini o'z ichiga olishini ko'rsatadi.

Amaliy darsni o'tkazish rejasida quyidagi savollarga javoblar mujassam bo'lishi kerak:

- ◆ Uy vazifasini tekshirish uchun qancha vaqt talab qilinadi?
- ◆ Ta'lim oluvchilar bilan nazariya bo'yicha savol-javob o'tkazish uchun qancha vaqt ajratish kerak va qanday savollarni berish kerak?
- ◆ Qanday misol va topshiriqlar doskada ishlanadi va qanday ketma-ketlikda ishlanadi?
- ◆ U yoki bu topshiriqda nimalarga e'tibor qaratish kerak?
- ◆ Har bir topshiriq bo'yicha chizma va masalalarni qanday joylashtirish kerak?
- ◆ Kimlar bilan nazariya bo'yicha savol-javob qilish kerak va kimlarni topshiriqni yechish uchun doskaga chaqirish kerak?
- ◆ Qaysi topshiriqlarni doskaga chiqmasdan joyidan turib yechishni taklif qilish mumkin?
- ◆ "Kuchli" talabalarga qanday topshiriqlar taklif qilinadi?
- ◆ Qaysi topshiriqlar uyda yechish uchun beriladi?

Amaliy mashg'ulot rejasi o'qituvchi tomonidan fanni o'rganish bo'yicha tematik rejada belgilangan ma'lum qoidalar asosida ishlab chiqiladi.

Amaliy darsni o'tkazish tartibini ko'rib chiqamiz. Odatda, u qisqa kirish so'zi va nazorat savollari bilan boshlanadi. Kirish so'zida o'qituvchi mavzuni e'lon qiladi, darsning maqsadi va o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi. Shundan so'ng, ayrim hollarda ekranda tezkor sur'atda ma'ruzachi tomonidan avvalgi darsdagi ma'ruzada foydalanilgan lavhalarni namoyish qilish va bu bilan ta'lim oluvchilarning hotirasida o'tilgan ma'ruza materialining bugungi darsga tegishli qismini tiklash foyda beradi.

Shundan so'ng, talabalarning oldiga nazariya bo'yicha bir qator nazorat savollarini qo'yish tavsiya etiladi. Ular yordamida o'qituvchi ta'lim oluvchilarni mazkur darsga olib chiqilgan materialga yo'naltiradi. Nazorat savolini butun guruh oldiga qo'yishli metodik jihatdan to'g'ri sanaladi, shundan keyin, qisqa muddatli pauzadan so'ng ma'lum bir talaba chaqiriladi.

Amaliy darsni turli sxemalar bo'yicha o'tkazish mumkin. Bir holatda barcha ta'lim oluvchilar topshiriqni mustaqil echadilar, o'qituvchi esa qatorlar oralab, ularning ishini nazorat qiladi. Aksariyat talabalarning ishi to'xtab qolgan holatlarda,

o'qituvchi ularni to'xtatishi va kerakli tushuntirishlar (qisman izlanish usuli) berishi mumkin.

Boshqa hollarda esa topshiriqqa doskaga chaqirilgan talaba tomonidan o'qituvchining nazorati ostida echim topiladi va sharhlanadi. Biroq, ushbu holatda ham o'qituvchining vazifasi qolgan talabalarning echimni o'z daftarlariga mexanik tarzda ko'chirib olishlariga yo'l qo'ymaslik, balki maksimum darajada mustaqil ishlashlarini nazorat qilish, o'rtoqlari yoki o'qituvchi tomonidan berilayotgan tushuntirishlarga ongli va masalaning mohiyatini tushungan holda umumiy harakatni shaxsiy izlanuvchilik faoliyati bilan uyg'unlashtirgan tarzda munosabat bildirishlarini ta'minlashdan iborat.

Barcha holatlarda ham masalaga echim topish, to'g'ri javob olish emas, balki masala yuzasidan muayyan bilimlarni mustahkamlash, bilimlarni singdirish, ijodkorlik elementlarining namoyon bo'lishiga erishish muhimdir. Ta'lim oluvchi masalaga mexanik tarzda, o'ylamasdan belgilarni formulaga solish orqali echimni topishga o'rgatish emas, balki har bir masalaning echimini chuqur tafakkur jarayoniga aylantirishi lozim.

O'z fanini o'qitish bilan bir qatorda har bir o'qituvchining amaliy darsdagi asosiy vazifasi - insonni fikrlashga o'rgatishdir. Aynan shu nuqtada o'qituvchida o'zining pedagogik iqtidorini namoyon qilishga ko'plab imkoniyatlar mavjud. U avvalo o'zi dars berayotgan fanning metodlarini chuqur bilishga intilishi kerak.

Talabalarni istalgan masalani muayyan sxema bo'yicha, pedagogik maqsadlarga muvofiq keluvchi bosqichlar bo'yicha yechishga o'rgatish juda muhim. Bu talabalarda muayyan kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy xususiyatlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Bunday mashg'ulotlarda qo'yilgan o'quv maqsadlarga muvaffaqiyatli erishish uchun ularni tashkil qilishda quyidagi asosiy talablar bajarilishi shart:

- ◆ talabalar faoliyatining ma'ruza va seminar mashg'ulotlarda o'rganilgan metod va usullarga mosligi;
- ◆ talabalar harakatini kelajakdagi funksional majburiyatlarga mos real harakatlarga maksimal darajada yaqinlashtirish;
- ◆ ko'nikma va malakalarni bosqichma-bosqich shakllantirish, ya'ni bilimlardan ko'nikma va malakalarga, oddiydan murakkabga tomon harakatlanish;
- ◆ individual hamda jamoaviy ko'nikma va malakalarni ishlab chiqish.

Topshiriqning birinchi bo'limda didaktik va tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirishda asosiy e'tibor talabalarda biror ishni bajara olish ko'nikma va malakasini singdirish bilan birga ularning nazariy bilimlarini mustahkamlash va kengaytirishga ham qaratilishi lozim. Ikkinchi bo'limning asosiy mazmunini vaqtini to'g'ri taqsimlash yoki talabalarning o'quv nuqtalarida ishlarni bajarish jadvali tashkil qiladi. Muayyan sharoitlar (o'quv savollari yoki o'quv nuqtalari soni)ni

hisobga olgan holda o'quv savollari bo'yicha (o'quv nuqtalarida) ishlash uchun ajratilgan vaqt qat'iy ravishda akademik soat davomiyligi bilan bog'liq bo'maydi va shu sababdan ular orasida maxsus tanaffuslarning bo'lishi ko'zda tutilmaydi. Talabalarning dam olishi va e'tiborlarini bir ob'ektdan boshqasiga qaratish uchun o'quv nuqtalarini o'zgartirish yoki bir savoldan boshqasiga o'tishdan foydalaniladi.

Adabiyotlar

1. Моргачева Н.В. Профессиональная компетентность будущего учителя естествознания в условиях реализации ФГОС // Современные исследования социальных проблем (электронный научный журнал), Modern Research of Social Problems, № 8(64), 2016. Стр. 158-162.
2. Abdullaeva B., Toshxo'jaeva N., Toshtemirova M. Природоведение и методика ее преподавания. Часть 1. Учебное пособие. -Т.: TDPU, 2020. 11,5 b.t.
3. Abdullaeva B., Toshxo'jaeva N. Природоведение и методика ее преподавания. Часть 2. Учебное пособие. -Т.: TDPU, 2021. 11,0 b.t.
4. D.Sharipova, D.Xodiyeva, M.Shirinov. Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi. Darslik. –Т.: Avto-nashr, 2018. 450 b.

ZAMONAVIY O'ZBEK NASRIDA MUALLIF ONGI VA BADIY TAFAKKUR

Xidirov X.N. – Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek nasrida muallif ongi va obrazini tipiklashtirish, ularning badiiy asar poetikasidan alohida bir muammo tarzida ajratib o'rganilishining sabablari haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: muallif ongi, badiiy tafakkuri, ma'naviy-ruhiy ehtiyoj, ramz, mif, afsona, tush, ong osti qatlamlari.

АВТОРСКОЕ СОЗНАНИЕ И ХУДОЖЕСТВЕННОЕ МЫШЛЕНИЕ В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЕ

Хидиров Х.Н. - доцент Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В данной статье рассматривается типология авторского сознания и образа в современной узбекской прозе, а также причины их изучения как отдельной проблемы от поэтики художественного произведения.

Ключевые слова: авторское сознание, художественное мышление, духовная потребность, символ, миф, сон, подсознание.

AUTHOR'S CONSCIOUSNESS AND ARTISTIC THINKING IN MODERN UZBEK PROSE

**Khidirov H.N. - Associate Professor of Tashkent State Pedagogical
University**

Annotation. This article discusses the typification of the author's mind and image in modern Uzbek prose, and the reasons for their study as a separate problem from the poetics of the work of art.

Keywords: author's consciousness, artistic thinking, spiritual need, symbol, myth, dream, subconscious.

Dunyo adabiyotshunosligida ong va shuurda kechadigan ijod jarayoni voqelik va hodisa tabiatida sodir bo'layotgan uzil-kesil o'zgarishlarga uyg'un tarzda ko'rilayotgan yozuvchi poetik olami hamisha o'ziga xosligi bilan alohida ahamiyatga ega. Falsafa va estetikaning kesishgan chorrahasida paydo bo'ladigan ijod mahsullari psixoanalitiklarning ham qiziqishiga zamin yaratdi. Z.Freyd, K.Yung kabi psixoanalitiklar ijodkorning yozish va izlanish maylini ong ostida avval bosib o'tilgan voqelik tarzida talqin qilishi joriy adabiyotda kuzatilayotgan idealga talpinish, degan xulosaga kelinmoqda. Ma'rifat va uning bag'rida qoim bo'lgan ong va bilish manerasi g'oyadan oziqlangan yaxlit konsepsiya sifatida muallif ongini ifodalash usullarini ham birgalikda tadqiq qilish lozim, degan xulosaga kelmoqda. Aynan muallif "men"i va ong qatlamlarida paydo bo'lgan olam va odam o'rtasidagi azaliy munosabatlar yig'indisini ochib berish zaruratga aylangani sir emas.

Joriy o'zbek nasrida postmodernizm va neorealizm orasidagi chegarani aniqlashda muallif ongini ifodalash katta urinishlarga yo'l ochishga qaratilmoqda. Estetik tanlov, ong va tuyg'u nisbati muallif talqinlarini yanada teranroq kashf qilishning muhim omillaridan biri desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Badiiy nasrning modernizm va postmodernizm kabi ifoda oqimlarida bo'y ko'rsatgan muallif ongida ro'y berayotgan teran o'zgarishlar, mantiqiy bog'lam hosil qilishi bugungi kun talabidan kelib chiqib yondashuv muhim vazifalar sirasiga kiradi. Zero, "...adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu, avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q" [1]. Binobarin, asarlarni yaxlit yozuvchi ilk izlanishlari, talqin qilish usullari, ong va tuyg'u nisbati tarzida o'rganish o'sib kelayotgan yosh avlodni global ogohlikka chaqirish, tarbiya sifatini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalardan biri ekanligi ayonlashadi. Zotan, yangi inson qismatini anglash va anglatishda bevosita muallif ongi hamda shuurida kechadigan falsafiy-estetik g'oyalarning psixologiya, tarix, ma'naviyat bilan bog'liqligi yuqoridagi mulohazalar dolzarbligini namoyon etmoqda.

Barchamizga ma'lumki, badiiy asar xoh u nasriy, xoh u she'riy, dramatik turga mansub bo'lsin, muallif barcha voqelikni aks ettiruvchi, boshqaruvchi, saralovchi, biriktiruvchi, o'zgartiruvchi, qolaversa, so'zlab, bayon qilib beruvchi bosh qo'mondon vazifasini bajaradi. Xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, yozma adabiyot taraqqiy etgunga qadar, bu jarayon turli davrlarda o'ziga xos tarzda rivojlanib, sayqallanib, taraqqiy topib kelmoqda. XX asr insoniyat tarixida misli ko'rilmagan taraqqiyot pallasiga qadam qo'ygan bir davrda "odamzodning iztiroblarini badiiy in'ikos toptirish, ularni tahlillash" manerasi ham tubdan yangilandi. Mavjud hayot jumboqlarini, chigal muammolarni hal qilishda mumtoz an'analardan tamomila boshqa bir janr – roman, qissa, hikoyalar inja dardlarimizni qalamga olib, tafakkurga boshqacha yondashuv hadya qildi. Bular jadid mutafakkirlarining turli asarlarida aks etishi e'tirof etilgan hodisa.

Birinchi jahon urushidan keyin yanada ommalashgan roman shakli va tabiati odamzodning yashab qolish umidida olib borgan sa'y-harakatlarini qalamga olishga kirishdi. Kelajakni oldindan ko'ra bilgan yozuvchilar odamzod manzillar-u makonlarda qayerga qarab ketayotganini turli xil asarlarida tasvirlab berishga harakat qildilar. Bu kabi ma'naviy-ruhiy ehtiyoj o'zbek adabiyotini ham chetlab o'tgani yo'q.

Muammoning ildiziga nazar tashlaydigan bo'lsak, J.Joys, F.Kafka, A.Kamyu, T.Vulf, M.Tven, T.Drayzer, U.Folkner, E.Xeminguey kabi jahon so'z san'ati namoyandalari badiiy izlanishlarida badiiy tafakkur va muallif ongi ifodasining monologik, dialogik, polifonik nutq shakllarida aks etish jarayonini kuzatish mumkin bo'ladi.

Romanchiligimiz asoschisi A.Qodiriy eng kichik janrdagi hikoyadan to romanlarigacha "muallif ongi, badiiy tafakkuri"ni ifodalash shakllarini tubdan o'zgaritirishga hissa qo'shdi. A.Qodiriy va Cho'lpon boshlab bergan an'ana keyinchalik A.Qahhor, Oybek, G'.G'ulom, O.Yoqubov, P.Qodirov, T.Qayipbergenov, O'.Umarbekov, O'.Hoshimov, Sh.Xolmirzayev, M.M.Do'st, E.A'zam, X.Davron, N.Eshonqul, L.Bo'rixon, U.Hamdani, I.Sulton badiiy izlanishlarida turlicha shaklda namoyon bo'lgani ayni haqiqatdir. O'zbek yozuvchilari milliy kolorit, milliy adabiy-badiiy tasvir o'zanidan sira uzoqlashmagan holda qaysidir ma'noda, jahon adiblari eksperimentlariga ergashgan paytlari ham bo'ldi. Biroq ularning ijodi bir-birini to'ldiruvchi mohiyat kasb etmasdan, o'ziga xos uslubiy-ijodiy maktabini yaratish bobida tinimsiz izlanishlar olib bordi.

Zamonaviy o'zbek nasrida muallif ongi va obrazini tipiklashtirish, ularning badiiy asar poetikasidan alohida bir muammo tarzida ajratib o'rganish kam o'rganilgan. Yevropa va rus adabiyotshunosligida bu borada ancha tadqiqotlar olib borilgan. Demak, muallif ongi badiiy tafakkur shakliga aylangunga qadar bosib o'tilgan ijodiy uslub va mahoratda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, ijodkor badiiy konsepsiyasi ong va tuyg'u yaxlitligida yuzaga chiqadigan muhim masalalardan biri

ekanligi ayonlashadi. Biz badiiy asarni o‘qiganimizda, muallif – roviy – hikoyachi obrazini emas, undagi voqyelikka qiziqish natijasida muallifni yodimizdan ko‘taramiz. Aksincha, ularning hammasi, bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqelik muallif ongida ilk xamirturush sifatida etiladi. Adabiyotshunos H.Umurov: “Yozuvchi har bir qahramonning ovozini, yuz ifodasini, kechinmasini, so‘zlash uslubini berish uchun uning xatti-harakatini, iroda yo‘nalishini asoslash uchun, albatta, o‘sha qahramonlarning qiyofasiga kirishni shart qilib qo‘yadi. Busiz yozuvchi, qahramonning o‘sha sharoitdagi, ayni shu vaziyatdagi qalb holatining o‘ziga xosligini tasvirlay olmaydi. Darvoqe, tasvirlanayotgan shaxs bilan yozuvchining shaxsi o‘rtasida o‘xshashlik bo‘lmasa-da, unda yozuvchi avtobiografiyasining unsurlari ko‘rinmasa-da, baribir, o‘zining yuzlab qahramonlarining ichki tabiatiga mos o‘zak nuqtalarni topib tasvirlash qudratiga ega. Chunki yuqorida aytganimizdek, har birimizda yashirin tarzda insoniy xususiyatlarning hammasi mavjud, lekin ulardan qay biri bo‘lsin ichki ehtiyoj (qahramon xarakteri) talabi bilan birinchi planga chiqqanida, yozuvchi tasavvurida jonlana beradi. Ba’zilar o‘ylaganidek, hamma dunyoda bor ruhiy kechinmalarni yozuvchi boshidan o‘tkazgan bo‘lishi shart emas” [2]. Darhaqiqat, keltirilgan manba shuni taqozo etadiki, ilk asos – g‘oya muallifning olam va odamga bo‘lgan munosabatidan boshlab shakllana borishi mumkin. Masalan, bolalikda ko‘rilgan qandaydir voqelik inson ongida, qalbida o‘zining ijobiy va salbiy xususiyatini qoldirgan bo‘lganida asta-sekinlik bilan davrini sezilmagan tarzda o‘zgartirib boraveradi. Uni muallif tush sifatida, hayotda progmatik ro‘baro‘ kelgan taqdirda hamda anglamsiz holatda sodir bo‘lishiga yo‘l ochib berishi tabiiy.

XX asr ibtidosida insoniyat badiiy tafakkurining barcha qatlamlari – esselashuv jarayoniga asta-sekinlik bilan tadrijiy takomillashuv bosqichiga o‘ta boshladi. Unda yozuvchi “men”ining ustuvor qatlamlari borliqni badiiy idrok etish tamoyillarini qorishiq holda bayon qilish borasida yangi janrlar barqarorlashuviga zamin hozirladi. J.Joys, F.Kafka, A.Kamyu singari faylasuf-esseist yozuvchilar insonni kashf qilishning – tush, xotira, esse, badia kabi ko‘plab tasvir usullarida muallif ongini va uni ifodalash usullarini joriy qilishga erishdilar. Ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik birinchi jahon urushi yillarida badiiy tafakkurda o‘ziga xos siljishni yuzaga keltirdi. Bular har qanday sharoitda – inson yashashga va yashab qolishga mahkum mavjud ekanligini o‘z asarlarida inkishof qildilar. Bu borada Tilavoldi Jo‘rayevning quyidagi fikrlari o‘rinlidir: “O‘zbek ong oqimi nasrida tasvirlanayotgan dunyo butunlay o‘zgacha g‘oyaviy-badiiy prinsiplarga asoslanadiki, unda “yangi psixologik materiya” qidirish, borliqni mif afsonalar asosida anglash, tashqi olam va insonni sahnalashtirish, hayotning mohiyatini tub “ichki istak” singari ruhiy-g‘ayrihuuriyliklar bilan o‘lchash tendensiyalari yo‘q, balki unda romanning asl mohiyati – shaxsning jamiyat va tarix bilan yuzma-yuz to‘qnashuvi “yarq” etib ko‘rinib turadi. O‘zbek modern yo‘nalishi g‘ayrihuuriylikni inson faoliyatining

yagona stimuli, ijtimoiy, jamoat shart-sharoitlaridan mustasno ruhiy boyligi sanalmaydi. Shaxsning tarix bilan, jamiyat bilan yuzma-yuz uchrashuvi davr talabi, zamon ruhidir” [3]. Haqiqatdan ham, bunday tasvir yo‘‘sini U.Hamdamning “Yolg‘izlik”, I.Sultonning “Munojot” qissalarida o‘ziga xos tarzda yangicha tasvir yo‘sinlarida “muallif meni”ni qayta idrok etishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. U.Hamdamning “Inson” nomli hikoyasi 1996-yil chiqqan bo‘lsa-da, bu hikoyada “muallif ongi” modifikatsiyasi keyinchalik “Yolg‘izlik” qissasida keng shaklda qayta idrok qilindi. Bu o‘lchov hikoyadan – qissaga, qissadan – romanga qadar turlanib, voqelikni ifodalashda ramz, mif, afsona, tush, ong osti qatlamlarida qayta talqin qilinib, janriy-kompozision yaxlitlik sintezlashuv hodisasiga qadar uzoq va zalvorli yo‘lni bosib o‘tishga sharoit hozirladi.

Sharoit va muhit o‘rtasida uzviylik bo‘lmasa, alaloqibatda insoniyat o‘zi yashab turgan jamiyatdan ajralib, “begonalashuv” sari qadam tashlay boshlaydi. Muallif ongidagi o‘shish-o‘zgarishlar, tushish va yo‘qotishlar Freyd ta‘biri bilan aytganda, qachonlardir sodir bo‘lgan xotiradagi – tush voqelikka ro‘baro‘ keladi. Muallif ana shu vaziyatni “tutib qolish instinkti” bilan azoblanib yashaydi. Bunday tasvir U.Hamdamning “Auditoriya” nomli zalvorli hikoyasida ham ko‘zga tashlanadi:

– Inson hayotining mazmuni nimada? Biz qaydan keldigu o‘limdan keyin qayerga boramiz? – degan savol bashar ahlining doimiy so‘roqlaridan biri bo‘lib kelgan. Har bir davr, har bir soha – mifdan tortib dingacha, dindan to ilmgacha – hamma-hammasining bag‘rida fikrlovchi inson ushbu savolga baholi qudrat javob izlagan. – Professor auditoriyaning eng oxiridagi o‘rindiqlardan birida ma‘ruzani berilib tinglab o‘tirgan talabaning ko‘zlariga qarab gapirardi. – Zamonaviy dunyoda mazkur savolni ahyon-ahyonda bo‘lsa-da, o‘z-o‘ziga bermaydigan, hayotini, kechmish va kechayotgan kunlarini shu savol bilan tinmay qamchilab yashamaydigan, shunga ehtiyoj tuymaydigan odam o‘zini to‘laqonli insonman, deb hisoblashi o‘rinsizdek tuyuladi menga. Chinakam adabiyotning asos masalalaridan biri ham aslida shu. Lekin bugungi inson...”[4]

Fikrlovchi insonga jamiyat bilan murosa qilib yashash hamma zamonlarda oson kechmagan. U.Hamdam hikoyasidagi qahramon – Professor nutqida, tabiatida, mulohazalari-yu, mushohadalarida ba‘zan ikkilanish ro‘y bersa, ba‘zan materiya mohiyatini anglashda zo‘riqishga duch keladi. Inson – koinotning eng aqlli va mukammal yaratig‘i. Yozuvchi ana shu yaratiqning botinini kashf qilishga diqqat qaratadi. Muallif ongini bezovtalagan, uning kechmishlarida aks-sado berayotgan o‘z-o‘zi bilan olishuvi ma‘lum ma‘noda yolg‘izlikka mahkum etilgan qismatni yodimizga soladi. U o‘zi yashab turgan jamiyat, undan kattaroq qit‘a, materiya, borliqni anglashning birdan-bir yo‘li o‘z tabiatiga mutanosib va munosib yo‘l izlashni asosiy maqsadga yo‘naltiradi. Hikoyadagi muallif ongi va uning o‘z-o‘zi bilan

olishuv yangi atrof-muhitning yaralish mantig'ini bilishni unchalik xush ko'rmaganligida deb, bir to'xtamga kelganligida qabarib ko'rinadi.

Xulosa qilib aytganda poetik ifodada muallif dunyoqarashini rivojlantiruvchi omillarni sharoit, muhit, davr, zamon, makon, bilish, materiya singari qator komponentlar uzviyligida aniqlashtirish o'zini oqlaydi. Milliy xarakter o'sish-o'zgarishlarida qadriyat sifatida ulug'langan azaliy aqidalar insoniyatni bir-biriga o'tib turuvchi istaklarida yanada jilvalanadi. Mohiyatga intilish va mavjudlik jumbog'ini his qilishga qaratilgan muallif dunyosining hilma-xil dialektik qonuniyatlarga ergashishi "men"ning butunligini anglashga yo'l ochadi. Zero, talqin va tasvirdagi yangicha shamoyil ong osti hislarining qayta uyg'onishiga zamin yaratadi. Natijada muallif va dunyo qorishuvi yagona bir universal tizimda poetik matritsani yangilashga keng imkon yaratadi. Bu ong va tafakkur anglamlarida shaxsning o'zini-o'zi taftish qila olish malakasini ham jiddiy sinovdan o'tkazishga tayyorlaydi.

Adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдевори // Халқ сўзи. – Тошкент, 2017.
2. Умуров Х. Бадиий ижод асослари. –Тошкент: Ўзбекистон, 2001. –Б. 91.
3. Жўраев Т. Онг оқими модерн. - “Фарғона” нашриёти, 2009. –Б.162.
4. Ҳамдамов У. Аудитория. Ҳикоя Манба: www.ziyouz.com. 2021.

YANGI O‘ZBEKISTONNING BARPO ETILISHIDA MATEMATIK KOMPETENTLIK TUSHUNCHASINING AHAMIYATI

Ismoilov B.T. - Termiz davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasining tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada “kompetenlik” va “kompetensiya” atamalarining o'rgnilganlik darajasi tahlil qilinib, Yangi O'zbekistonning barpo etilishida matematik kompetentlik tushunchasining ahamiyati yuqori ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, Uchinchi Renessans, kompetentlik, kompetensiya, matematik kompetentlik.

ЗНАЧЕНИЕ ПОНЯТИЯ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ПОСТРОЕНИИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Исмоилов Б.Т. - базовый докторант кафедры начального образования Термезского государственного университета

Аннотация. В статье анализируется уровень знания терминов «компетентность» и «компетенция» и утверждается, что понятие математической компетентности имеет важное значение в построении Нового Узбекистана.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, Третий Ренессанс, компетентность, компетенция, математическая компетентность.

THE MEANING OF THE CONCEPT OF MATHEMATICAL COMPETENCE IN BUILDING A NEW UZBEKISTAN

Ismoilov B.T. - Basic doctoral student of the Department of Primary Education, Termez State University

Annotation. The article analyzes the level of knowledge of the terms "competence" and "competency" and argues that the concept of mathematical competence is important in building the New Uzbekistan.

Keywords: New Uzbekistan, Third Renaissance, competence, competency, mathematical competence.

Mamlakatimizning shiddat bilan o‘zgarib borayotgan taraqqiyot asrida barqaror rivojlanishi, innovatsion iqtisodiyoti, Uchinchi Renessans poydevorining mustahkam qo‘yilishi, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi kabi barpo etilishi, mudofaa qobiliyati bugungi boshlang‘ich sinf o‘quvchisining maktabdan olgan matematik bilimlariga uzviy bog‘liq. Shu o‘rinda muhtaram prezidentimizning quyidagi fikrlarini ta’kidlashim joiz bo‘ladi: “Yangi O‘zbekistonimizni yuksak taraqqiyot bosqichiga ko‘tarishdek ezgu niyatimizga yangicha va mustaqil fikrlaydigan, o‘z Vatanini jonidan ortiq sevadigan, uning yorug‘ kelajagi uchun sadoqat bilan xizmat qiladigan, fidoiy yoshlarni tarbiyalash orqali erishamiz[1]”.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining matematik bilimlarini biz kutgan darajada shakllantira oluvchi yagona komponent bu bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidir. Bugungi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi majoziy ma’noda, istalgan kuy uchun qo‘shiq ijro eta oladigan, eng maftunkor qo‘shiq uchun ham takrorsiz va jozibali kuylarni bastalovchi aktyor bo‘lishi lozim. Aynan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi maktabda o‘quvchi uchun nafaqat yangi fan bilimlari manbai, balki o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishni ta’minlaydigan, ularni ko‘proq bilimga yo‘naltiruvchi zamonaviy g‘oyalar, metodlar, turli toifadagi muammolarni hal qilishda samarali ishlash usullari, zamonaviy jamiyat uchun malakali kadrlar tayyorlashga bog‘liq texnologiyalarning dirijyori hisoblanadi.

Yoshlarning bilim va iqtidorini chuqurlashtirish, kreativ fikrlash qobiliyatini o‘stirish, sog‘lom raqobatda samarali muvaffaqiyatlarga erishishi, ularning kelgusida

malakali kadrlar bo'lib mamlakatimizni yanada rivojlantirishdagi ishtirokini ta'minlash maqsadida ta'lim jarayoniga zamonaviy kompetentlikka asoslangan yondashuvlar joriy etilmoqda.

Mazkur zamonaviy yondashuvlarga bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarimiz tayyormi? Xususan, matematika fanini o'qitishda samarali va kafolatlangan natijaga erisha oladimi? Matematik kompetentligi talb darajasidami kabi savollar o'z echimini kutmoqda. Bu esa tadqiqotimizning zaruratini anglatadi. Ushbu jarayonning nechog'lik ustuvorligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi N PQ-4708 07.05.2020 yildagi, qarorida ham o'z aksini topgan [2].

Uchinchi Renessans poydevorining mustahkam yaratilishida jonajon O'zbekistonimizning har bir farzandini mas'ul deb bilib, ushbu mas'uliyatni his etgan holda "Yangi O'zbekiston"ning barpo etilishida o'z kasbiy faoliyatimiz yuzasidan munosib hissa qo'shish barchamizning burchimizdir. Maqsadimiz bitta, mustahkam Uchinchi Renessans poydevorini yaratish, agarda yagona maqsad yo'lida barchamiz birlashsak, tez kunlarda Yangi O'zbekiston havosidan bahramand bo'la boshlaymiz. Maqsadimizga bekamu ko'st erishishimiz uchun, boshqa sohalar bilan bir qatorda ta'lim tizimida ham yangilanish bo'lishi talab etiladi. Bunga javoban tadqiqot ishimizda matematik tushunchalarni o'rganishning kompetentlikka asoslangan holda olib borilish g'oyasini ilgari surdik. Mazkur g'oya Yangi O'zbekistonning barpo etilishida yangicha matematik kompetentliklarning debochasi bo'lib xizmat qiladi deb o'ylaymiz.

Innovatsiyalarga asoslangan sog'lom jamiyat rivojlanishining zamonaviy davri ishlab chiqarish, unda insonning qadri, o'rni va roli, fan va ta'limning barcha sohalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) har tomonlama chuqur singdirish bilan bog'liq bo'lgan muhim ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar orqali tavsiflanadi, bu esa insonning "komil insonga", sharoitning "zamonaviy sharoitga" hamda jamiyatning "namunali jamiyatga" o'zgarishini taqozo etadi. Bugungi kunning zamonaviy odamiga endi faqat fan bilimlari yyetarli emas, unga xalqaro tajribalar bilan integratsiyalashtirilgan mavzu bilimlari hamda ko'nikmalari kerak.

Shu o'rinda amerikalik olim A.Tofflarning "Futurshok" nomli asarida zamonaviy axborot olamida bilim tobora "o'lim"ga aylanib borayotganini ta'kidlagan fikrlarini keltirish o'rinlidir, chunki bugungi haqiqat ertaga yolg'onga, saralamasdan qarshilgan bilimlarimiz esa dushmanga aylanishi mumkin. Maktab o'quvchilari va talabalar, eng avvalo, o'rganishni, o'rganishni va qayta o'rganishni o'rganishlari kerak... Ertangi savodsiz odam o'qiy olmaydigan odam emas, balki o'rganishni o'rgana olmagan odam hisoblanadi"[3, 462].

Adabiyotlar tahlili. Kompetentlikka asoslangan yondashuv nafaqat mamlakatimizda, balki dunyo ta'lim tizimida keng qamrovli ildiz otganiga va kompetentlikka asoslangan yondashuv muammosi bo'yicha bir qator yirik ilmiy-nazariy tadqiqotlar mavjud bo'lishiga qaramay, uning ma'nosini tavsiflovchi konseptual apparat mavjud emasligi bilan bir qatorda, uning asosiy tushunchalari hali oxirigacha hal qilinmagan. M.L. Zuyevaning takidlashicha[4,196], ko'pgina pedagogik maqolalarda "kompetentlik yondashuvi" iborasining mazmuni zamonaviy pedagogik mohiyatlarga qarama-qarshilik orqali ochib berilgan[5, 8].

O.E. Lebedevning fikricha ta'lim maqsadlarini belgilash, ta'lim mazmunini tanlash, ta'lim jarayonini tashkil etish va ta'lim natijalarini baholashning umumiy tamoyillari majmui mavjud. Ushbu tamoyillar quyidagi qoidalar bilan belgilanadi:

1) Ta'limning maqsadi – o'quvchilarning ijtimoiy tajribadan, shu jumladan o'z tajribasidan foydalanishga asoslangan turli muammolarni mustaqil ravishda hal qilish qobiliyatini rivojlantirish.

2) Ta'lim mazmuni - dunyoqarash, kognitiv, siyosiy, axloqiy va boshqa muammolarni hal qilishda didaktik moslashtirilgan ijtimoiy tajriba.

3) Ta'lim jarayonini tashkil etishning ma'nosi o'quvchilarda ta'lim mazmunini tashkil etuvchi kognitiv, tashkiliy, kommunikativ, axloqiy va boshqa muammolarni mustaqil hal qilish tajribasini shakllantirish uchun shart-sharoit yaratishdir.

4) Ta'lim natijalarini baholash ta'limning ma'lum bosqichida o'quvchilar erishgan ta'lim darajalarini tahlil qilishga asoslanadi [6, 3-12].

Ko'pgina Yevropa mamlakatlarida kompetentlikka asoslangan yondashuv milliy ta'lim standartlarida amalga oshiriladi. A.L.Andreev ta'kidlaganidek, mahalliy pedagogik nazariyadan ijtimoiy ahamiyatga ega hodisaga o'tishda kompetentlikka asoslangan yondashuv asta-sekin zamonaviy ta'limda davlat va turli xalqaro tashkilotlar, masalan, Yevropa Ittifoqi tomonidan amalga oshirilayotgan konseptual siyosatning rolini talab qiladi[7, 30-41].

1996-yil mart oyida Germaniyaning Bern shahrida bo'lib o'tgan simpoziumda o'zlashtirilishi kafolatlangan o'quv natijasi bo'lib xizmat qiladigan asosiy kompetensiyalarni aniqlash muammosi ko'rib chiqildi. V.Xutmacherning ma'ruzasida "kompetentlik" ko'nikma, malaka, qobiliyat, tayyorlik, o'zlashtirish kabi tushunchalarning tarkibiy qismi ekanli aytib o'tilgan bo'lib, biroq kompetensiya tushunchasining o'ziga to'liq ta'rif berilmaganligi ta'kidlandi.

Ta'limda kompetentlik yondashuvi sohasida yetakchi mutaxassislardan biri A.V. Xutorskoy birinchilardan bo'lib ta'lim faoliyatining mexanizmi va natijasi sifatida ta'lim kompetensiyalari/kompetentliklari muammosini ishlab chiqdi. Mazkur bosqichda ta'limda kompetentlikka asoslangan yondashuv nazariyasini ishlab chiqishda quyidagi rus tadqiqotchilari ishtirok etdilar: L.P. Alekseeva, V.I. Baidenko, A.A. Verbitskiy, I.A. Qish, N.V. Kuzmina, A.K. Markov va boshqalar.

Okean orti va Yevropa tadqiqotchilarning nashrlari tahlili (R. White, 1959; A. Lucia, R. Lepsinger, 1999; L. and S. Spencer, 1997; E. Holton and S. Lynham, 2000; F. Weinert, 2001 va boshqalar) shuni ko'rsatadiki, AQShda talabalarning kompetensiyalarini baholashda har bir bitiruvchining funksional mas'uliyatini aniqlashga asoslangan xulq-atvor yondashuvi ustunlik qiladi, har bir bitiruvchining funksional majburiyatlarini aniqlashga asoslangan holda, Buyuk Britaniyada - asosiy bilimlar sifati va ta'lim natijalarining funksional xususiyatlarini ham qamrab oladigan funksional yondashuv, Fransiyada kompetensiyaga asoslangan yondashuv uchta asosiy qoidaga asoslanadi: bilim, tajriba va xulq-atvor xususiyatlari. Germaniya ta'lim tizimi ta'lim va kognitiv kompetensiyaga sifatli siljish imkonini beradigan, insonning butun hayoti davomida o'rganish qobiliyati va tayyorgarligini yaratishga yo'naltirilgan harakat kompetensiyasiga qaratilgan. Hozirgi vaqtda barcha xorijiy mamlakatlarda kompetentlikka asoslangan yondashuv to'rt turdagi kompetensiyalarning birligini nazarda tutadi: kognitiv, funksional, ijtimoiy va metakompetensiyalar.

Asosiy qism. Shunday qilib, o'quv jarayonida olingan shaxsiy tajribamizga ko'ra kompetentlikka asoslangan yondashuv vositasida erishilgan ta'lim natijasi, talabalar tomonidan o'rganilgan ma'lumotlarning yaxlit jamlamasi emas, balki bitiruvchining o'z bilimlaridan foydalanish asosida turli xil faoliyat sohalarda oldindan kutilgan va kutilmagan vaziyatlarda ham mustaqil ravishda samarali harakat qila olish qobiliyati bo'lishi kerak.

Kompetentlikka asoslangan yondashuvning shakllanish tarixinining tahliliga nazar tshlanganda "kompetentlik" va "kompetensiya" atamalarining murakkabligi va ko'p qirraliligiga guvoh bo'lish mumkin.

Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining klassik universitet ta'limi bo'yicha falsafa, siyosatshunoslik va dinshunoslik bo'yicha o'quv-uslubiy kengash Prezidiumining 2005-yil 3-noyabrdagi yig'ilishida "Kompetensiya" va "Kompetentlik" atamalarining mazmuni ko'rib chiqildi va tasdiqlandi. Ushbu yig'ilish materiallarida "kompetensiya" - bu shaxs yaxshi biladigan va faoliyatni amalga oshirishga tayyor bo'lgan predmet sohasi, "kompetentlik" esa shaxs xususiyatlarining yaxlit xarakteristikasi bo'lib, bitiruvchini ma'lum sohalardagi faoliyatni amalga oshirishga tayyorlash natijasidir.

Kasb-hunar ta'limida kompetentlikka asoslangan yondashuvning mohiyati o'qituvchida ma'lum bir asosiy kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat bo'lib, bu unga keyinchalik zamonaviy jamiyatda professional moslashuvga muvaffaqiyatli o'tishda imkon beradi. "Malaka" atamasidan farqli o'laroq, ta'lim standartini tushunishda kompetensiya - bu "muayyan fan yoki fanlar guruhi bo'yicha bilim va ko'nikmalarning uzoq muddatli shakllanishi natijasida rivojlanadigan va turli vazifalar, muammolar va vaziyatlarni hal qilishga imkon beradigan yutuqlarning

o'zlashtirilgan yo'nalishi ...” [5,8]. Rossiyalik mutaxassislar evropalik olimlarning tajribasiga tayanib, umumiy (universal, asosiy, “professional dan yuqori”) va maxsus kompetensiyalar (mavzuga ixtisoslashgan) tushunchalaridan foydalanganlar.

Kompetentlikka asoslangan yondashuvda asosiy tushuncha bo'lgan “kompetentlik” atamasining mazmunini aniqlab, uni quyidagi mantiqiy ketma-ketlik ko'rinishida konkretlashtirib olaylik:

Kompetentlik → Kasbiy kompetentlik → o'qituvchining kasbiy kompetentligi.

“Kompetensiya”, “kompetentlik”, “kasbiy kompetentlik” tushunchalarining asosiy funksional xususiyatlarini umumlashtirish va konkretlashtirish “bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligi” kategoriyasining quyidagi ta'rifini shakllantirishga imkon berdi.

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligi ostida biz o'qituvchida paydo bo'ladigan odatiy kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun o'z shaxsiy potentsialini (bilim, ko'nikma, shaxsiy fazilatlar, kasbiy tajriba) ro'yobga chiqarishga tayyorligini aks ettiruvchi shaxsning integrativ sifatini tushunamiz.

Shunday qilib, bugungi kunda pedagogika fanida kompetentlik muammosiga yetarlicha ahamiyat berilib, uni zamonaviy ta'limda amalga oshirish uchun bir qancha izlashlar olib borilmoqda. Innovatsiyalarga asoslangan sog'lom jamiyatni rivojlantirishning zamonaviy sharoitida o'qituvchilar ta'limi sohasidagi tadqiqotning dolzarb vazifasi - bu bitiruvchining pedagogik faoliyatini yuqori sifatli va samarali bajarishni ta'minlaydigan kompetensiyalar tarkibini aniqlash. O'qituvchining kasbiy rivojlanishining turli darajalari va bosqichlarida kasbiy kompetentligini shakllantirish mezonlari va ko'rsatkichlari masalasi ham ochiqlicha qolmoqda.

Oliy o'quv yurti bitiruvchisini tayyorlashda kompetentlikka asoslangan yondashuvni amalga oshirish “beshikdan qabrgacha ta'lim olish” paradigmasini amalga oshirish, ta'limni faoliyat jarayoniga aylantirish imkonini beradi.

Xulosa. Uchunchi Renessans poydevorini qurishga asoslangan zamonaviy ta'lim bitiruvchiga aniq bilimlar ko'lamini emas, balki o'qitmoqchi bo'lgan o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalay olishni, uning harqanday noaniqlik sharoitlarida ham kasbiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorligini, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tanqidiy baholash va bashorat qilish qobiliyatini ta'minlaydigan kompetensiyalar majmuasini taqdim etishi kerak.

Har bir ilm beruvchi maskan, har bir auditoriya zamonaviy ta'limning pirovard maqsadini bilimdan kompetensiyaga almashtirishi kerak. Bu shuni anglatadiki, Uchunchi Renessans g'oyasining mohiyti singdirilgan zamonaviy ta'limning provard maqsadi, bilimli, mustaqil fikrli, raqobatbardosh, vataniga sadoqatli, yangi dunyoga moslashuvchan yoshlarni tarbiylashni nazarda tutadi.

Adabiyotlar

1. www.xabar.uz Muhtaram yurtboshimizning president maktabidagi faxriy mehmonlar daftariga yozib qoldirgan dashatidan olindi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 07.05.2020 y. N PQ-4708 “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Prezident qarori”.

3. Toffler, A. Futurshok [Matn] / A. Toffler. - Sankt-Peterburg: Lan, 1997. - 462 B.

4. Zueva, M. L. O'rta (to'liq) maktabda matematikani o'qitishda asosiy ta'lim kompetensiyalarini shakllantirish [Matn] : dis. ...kand. ped. Fanlar / M. L. Zueva. - Yaroslavl, 2008. - 196 B.

5. Bolotov, V. A. Kompetentsiya modeli: g'oyadan ta'lim dasturiga [Matn] / V. A. Bolotov, V. V. Serikov // Pedagogika. - 2003. - No 10. - B. 8-14.

6. Lebedev, O. E. Ta'limda kompetentsiya yondashuvi [Matn] / O. E. Lebedev // Maktab texnologiyalari. 2004. - No 5. - B. 3-12.

7. Andreev, A. L. Ta'lim istiqbollari: kompetensiyalar, intellektual muhit, disiplinlararasilik [Matn] / A. L. Andreev // Rossiyada oliy ta'lim. - 2014. - No 3. - B. 30-41.

O‘QUVCHILARNING OG‘ZAKI VA YOZMA NUTQINI O‘STIRISHDA, TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA TA’LIMIY VOSITALARNING AHAMIYATI

**Nuradilova A.D. – Toshkent davlat pedagogika universiteti “Umumiy
tilshunoslik” kafedrasi o‘qituvchisi**

Аннотация. Mazkur maqolada ta’limiy vositalarning ilmiy-nazariy asoslanishi, og‘zaki va yozma nutqni o‘stirish, tafakkurni rivojlantirish hamda ta’limiy vositalarning lingvodidaktikasi bo‘yicha tilshunos va metodist olimlar, taniqli pedagoglarning ilmiy fikrlariga izoh berilgan va munosabat bildirilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quv topshirig‘i, mashq, matn, tasviriy matn, muhokama matni, bilim, malaka, nutqiy ko‘nikma, tafakkurni rivojlantirish, og‘zaki va yozma nutni o‘stirish, matn ustida ishlash.

ЗНАЧЕНИЕ СРЕДСТВ ОБУЧЕНИЯ В РАЗВИТИИ УСТНОЙ И ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ, МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ

**Нурадилова А.Д. – преподаватель кафедры общего языкознания
Ташкентского государственного педагогического университета**

Аннотация. В статье разъясняются научные взгляды лингвистов и методистов, известных педагогов на научно-теоретические основы средств обучения, развития устной и письменной речи, развития мышления и лингводидактики средств обучения.

Ключевые слова: средства обучения, учебное задание, упражнение, текст, описательный текст, дискуссионный текст, знания, умения, навыки, умения говорения, развитие мышления, развитие устной и письменной речи, работа над текстом.

THE VALUE OF TEACHING AIDS IN THE DEVELOPMENT OF ORAL AND WRITTEN SPEECH, STUDENTS' THINKING

Nuradilova A.D. - Teacher of the Department of General Linguistics named after Nizami TDPU

Annotation. This article explains and comments on the scientific views of linguists and methodologists, well-known educators on the scientific-theoretical basis of educational tools, the development of oral and written speech, the development of thinking and the linguodidactics of educational tools.

Keywords: teaching aids, learning task, exercise, text, descriptive text, discussion text, knowledge, skills, speaking skills, development of thinking, development of oral and written speech, work on the text.

Til o'qitish jarayonida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, nutq madaniyatini, nutqiy ko'nikmalarini, dunyoqarashini, mustaqil fikrlash salohiyatini va tafakkurini rivojlantirish dars jarayonini tashkil qilishda asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bois, dars jarayonida har bir o'quvchiing nutqiy ko'nikmalarining rivojlanganlik darajasini va og'zaki va yozma nutqinig o'sizh ko'rsatkichiga e'tibor qaratish lozim.

Ona tilini o'qitishda O'quv dasturlarida belgilangan talablar asosida og'zaki va yozma nutqini o'stirishda ta'limiy vositalarning o'rni nihoyatda salmoqlikdir. Xususan, mashq va topshiriqlar ahamiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Mashq va topshiriqlar va ularning turlari bo'yicha ma'lumotlarning izohlanishi, ilmiy asoslanishi olimlar va tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilingan.

Dunyo tilshunosligida ta'limdagi mashqlarni har xil turlarga ajratganlar. B. A. Lapidus [1] mashqlarni ikki turga, ya'ni nutq mashqlari, til mashqlariga ajratgan. E. I. Passov bo'lsa "har qanday mashqlar kommunikativ, lingvistik va psixologik xususiyatlarga ega" [2] deya mulohaza yuritgan. U mashqlarni kommunikativ va shartli kommunikativ mashqlarga ajratadi. I. V. Raxmanov "til mashqlari til tizimiga oid materialni o'zlashtirish va uni nutqda qo'llashga tayyorlash uchun xizmat qiladi,

nutqiy mashqlar o'quvchini o'z fikrini boshqa tilda ifodalashga va boshqalar fikrini tushunishga o'rgatadi" [3] deb hisoblab, til mashqlarini nutqqa tayyorlovchi va umumiy tayyorgarlik mashqlari turlariga ajratgan.

Bizning fikrimizcha, ona tili darsliklaridagi mashqlarni nutqiy va lisoniy mashqlarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Binobarin, nutqiy mashqlar o'quvchilarning o'zaro fikrlarini dars davomida qiyoslash va tahlil qilish, mustaqil munosabat bildirish ko'nikmasini rivojlantiradi, yozma savodxonligining takomiliga xizmat qiluvchi omillar, kamchiliklarni tog'rilashga asos bo'ladi hamda nutqiy faoliyatini o'stirishga yordam beradi. Lisoniy mashqlar esa til sathlari bo'yicha bilimlarini oshiradi, lingvistik kompetensiyalar takomillashib boradi.

"O'quv topshirig'i" tushunchasini barcha o'quv fanlari qatori ona tili ta'limida ham qo'llaymiz. Topshiriq mashqning muhim bir bo'lagidir. U asosan mashqning shartida o'z ifodasini topadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda "topshiriq" "mashq" tushunchasiga qaraganda bir muncha tor ma'noni ifodalaydi [4]. Mashq bilan birga keladigan o'quv topshirlari o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini hosil qilishda ko'mak beruvchi ta'limiy vositalardan biri hisoblanadi.

S.Muhammadning ta'kidlashicha, "O'quvchilarga beriladigan o'quv topshiriqlari ularni fikrlashga, hukm va xulosalar chiqarishga, o'z nuqtai nazarini bayon qilishga da'vat etsagina, u tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi" [5]. Shu bois, ona tili darsliklaridagi o'quv topshiriqlarini o'quvchilarning mustaqil bajara olishini kuzatib borish va ularning fikrlashida so'zlashishida, yozma nutqida yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini interaktiv tarzda yondashish muhim o'rin egallaydi.

9-sinf "Ona tili" darsligida keltirilgan ko'plab topshiriqlar o'quvchilarning nutqiy bilimlarni, tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Xususan, mazkur darslikning 7- betidagi 1-topshiriq ham shular jumlasidandir. "...Yoshligida ko'p ertak tinglagan, kattalar ovoz chiqarib kitob o'qiganida, diqqat bilan eshitgan bolalar voyaga etgach, faqat o'zlarining emas, boshqalarning ham fikrini e'tiborga oladigan bo'lishadi. (A.Meliboyev)" [6]. Ona tili darslari davomida bu kabi topshiriqlarning bajarilishi o'quvchilarning nutqini o'stirishga xizmat qilishi, kitob mutolaa qilishga qiziqishni orttirishi bilan bir qatorda tarbiyaviy ahamiyatga ham egalarida berilgan mashq va topshiriqlar grammatik bilimlarni ega sanaladi.

6 - sinf "Ona tili" [7] darsligidagi mazkur topshiriq keltirilgan. *Berilgan matnning nima maqsadda tuzilganligini aniqlashga harakat qiling.*

Dam olish kunlaridan biri edi. Ko'chaga chiqdim. Kech kuz bo'lsa ham, havo ochiq, quyosh charaqlab turardi. Hamma yoqda yaproqlar: oq, sariq, yashil yaproqlar... Go'yo ko'chaga chiqishingizni kimdir bilgan-u yo'lingizga gilam to'shab qo'ygan. (O'. Umarbekov)

Aytish joizki, bunday topshiriqlarning darsliklarda berilishi, matnni tahlil ilishga o'rgatilishi o'quvchilarni o'ylashga, fikrlashga, keng mushohada qilishga,

tevarak-atrofimizning betakror go'zalligini badiiy tasvirlashga, obrazli idodalashga o'rgatadi. Shuningdek, bu topshiriqning o'quvchilar tomonidan mustaqil holatda bajarilishini nazoratga olish va quyidagi savollar bilan ularning fikr-mulohazalari tinglanishi yanada toshiriqning mohiyatii, matnning mazmunini tushunishga yordam beradi.

Savollar

1. Matnda qaysi kun tanlangan?

2. Oltin kuz, tillarang yaproqlar birikmalariga badiiy tarzda izoh bering. Kuzning go'zalligini tasvirlashda qanday birikmalar keltirish mumkin?

2. Kech kuzning go'zal tasvirlanishini og'zaki so'zlab bering. Sizningcha, bu matn qaysi matn turiga mansub?

O'qituvchi tomonidan yuqorida keltirilgan qo'shimcha savollarning berilishi va o'qituvchi bilan hamkorlikda tahlil qilinishi ulardagi fikrlarni yanada o'zlashtiradi.

Shu bilan bir qatorda, o'quv darsliklarida berilgan mashq va topshiriqlardan tashqari o'zlashtirilgan mavzu uchun o'quvchining yoshiga mos maxsus topshiriqlar berilsa, o'quvchilarning og'zaki va yozma savodxonligini rivojlantirishga ijobiy tarzda ta'sir ko'rsatadi.

“Ona tili oqitish metodikasi” darsligida “Maxsus mashqlar yordamida grammatika va imloni o'rganish darslari ko'pgina so'z va atamalarni o'zlashtirishga yordam beradi, o'quvchilar predmet, belgi, harakat, sanoq, tartib ifodalaydigan so'zlarni bilib oladilar” [8;114-b]. Darhaqiqat, darsliklardagi mashq va topshiriqlar bilan bir qatorda, maxsus mashqlar berilsa, o'quvchilar to'g'ri yozish va to'g'ri talaffuz qilish qoidalari me'yorlarini bilishni, o'z nutqida terminlardan foydalanishni o'rganadi.

Ona tili darsliklaridagi mashq va topshiriqlarni mustaqil bajarishi davomida quyidagi omillar rivojlanib boradi:

-ilmiy va nazariy matnlarni o'rganib, o'z fikrida dalillash va isbotlash xususiyatlari o'zlashtirish;

-yozma ish turlarini, jumladan, inshoni yozishda ijodiy fikrlashda uslubiy va imloviy xatolarga yo'l qo'ymasligi,

- mavzu mazmuniga mos leksik birliklarni to'g'ri va aniq tanlashi;

mashq va topshiriqlarni bajarishi natijasida o'quvchilarda o'zlashtirish asosida aniq asosli xulosaga kelishi

olingan bilimlarni og'zaki va yozma nutqida

-nutqning madaniyligini ta'minlaydigan kommunikativ sifatlariga, nutq texnikasiga amal qilib so'zlashni o'rgatadi.

Demak, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari uchun amaliyotga tatbiq qilingan “Ona tili” darsliklaridagi mashq va topshiriqlar o'quvchilarning og'zaki va

yo'zma savodxonligini rivojlantiradi va o'rganilgan bilimlarini amaliy qo'llashga xizmat qiluvchi ta'limiy vositalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Бобомуродова А.Я. Она тили таълими жараёнида ўйин-топшириқлардан фойдаланиш. Пед.фан.номз. ... дисс. –Бухоро.: 1996.
2. Лapidус Б.А. К проблеме функциональной дифференциации языкового материала // Иностранные языки в высшей школе. – М.: 1975.
3. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Она тили: Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun. –Т.:Tasvir,2017.
4. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. Она тили. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik.-Т.:Nashriyot uyi, - 2019.
5. Пассов Е. И. Коммуникативные упражнения. – М.–Л.: Просвещение, 1967. – С. 6–8.
6. Рахманов И. В. Методические требования к учебникам иностранных языков для восьмилетней школы // Иностранных языки в школе. – М.: 1961.
7. Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси. Т.: 2000.
8. Qosimova K., S.Matchonov va b.“Ona tili o'qitish metodikasi” darslik, Toshkent – 2009.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING XORIJIY TILDAGI KOMMUNIKATIV - METODIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MODELI

Abduvaliyeva D.I. – Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ta'limini rivojlantirilish muammolariga bag'ishlangan bo'lib, bo'lajak xorijiy tillar o'qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyasini takomillashtirish modelini ishlab chiqarishning nazariy-metodologik asoslarini ifodalaydi.

Kalit so'zlar: xorijiy til, kommunikativ-metodik kompetensiyasi, model, struktura, pedagogik xususiyat.

МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНО-МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ИНОСТРАННОМ ЯЗЫКЕ

Абдувалиева Д.И. – преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. Данная статья посвящена проблемам развития профессионального образования будущих учителей и представляет собой теоретико-методическую основу для разработки модели повышения коммуникативно-методической компетентности будущих учителей иностранного языка.

Ключевые слова: иностранный язык, коммуникативно-методическая компетентность, модель, структура, педагогические особенности.

MODEL OF THE DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE AND METHODOLOGICAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS IN A FOREIGN LANGUAGE

Abduvalieva D.I. – Teacher of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. This article is devoted to the problems of development of professional education of future teachers and represents the theoretical and methodological basis for the development of a model for improving the communicative and methodological competence of future foreign language teachers.

Keywords: foreign language, communicative-methodical competence, model, structure, pedagogical features.

Ma'lumki, bo'lajak o'qituvchilarni maqsadga yo'naltirilgan holda xususan, xorijiy tillar sohasida ta'lim berish bo'yicha o'qitish sifati va samaradorligini oshirish mutaxassisning kommunikativ-metodik kompetensiyasini ushbu maqolaning oldin qo'yilgan g'oyasiga muvofiq takomillashtirishga yo'naltirilgan modelini avvaldan ishlab chiqmasdan tasavvur etib bo'lmaydi. Shu munosabat bilan kommunikativ-metodik kompetensiyani takomillashtirish modelini tuzishda biz tayanadigan eng asosiy fikr, g'oya, qarashlarni belgilash lozim.

Birinchidan, tizimni uning elementlari birligi va elementlarini o'zaro faoliyatida tadqiq qilish bilan *model* o'rganilayotgan obyektning mohiyatini belgilashi, uning xossalari, strukturasi, dinamikasi, real obyektarning amal qilishining xususiyatlarini ifodasi, aks etishidir, chunki obyektning "o'zida inson tadqiq qilishda o'zlashtirishi mumkin bo'lgan, ko'rgazmali qilishi mumkin bo'lgan va o'z maqsadlarida foydalanishi mumkin bo'lgan potensial bilim mavjud" [1; 57-b]. Model, shuningdek, "kelajak holatning timsoli" [2; 69-b] bo'lgan holda obyektning keyingi rivojlantirish natijalarini bashorat qiladi.

Modelning pedagogik ma'no-mazmuni - ta'lim jarayonining dolzarb va istiqbolli vazifalarini aniqlash, bo'lajak pedagoglarning xorijiy til kompetentligini rivojlantirishda ehtimoliy va istalgan (xohlangan, rejalashtirilgan) o'zgarishlar

orasida ehtimoliy yaqinlashish shart-sharoitlarini ilmiy asoslashdan iborat [3; 57-b]. Biz olim A.N. Shukinning nuqtayi nazari tarafdorimiz. Unga ko‘ra, model – “voqelikning u yoki bu qismini chuqurroq bilish maqsadida aks ettirish, qayta ishlab chiqarish vositasidir” [1; 115-b]. Model u yoki bu obyektini va hodisani tadqiq qilish va takomillashtirish vositasi hisoblanadi.

O.L. Zaxarova, V.P. Sergeyeva, A.B. Sorokin, va boshqa olimlarning o‘qituvchi shaxsining kasbiy ta’limi va shakllantirilishi muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotlari xorijiy tillar o‘qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyasini takomillashtirish modelini ishlab chiqarishning nazariy-metodologik asoslariga aylandi.

Bizning tushunishimizcha, maqsad, vazifalar, tamoyillar, mazmun, shakllar, usullar, vositalar va natijalar modelning asosiy komponentlari hisoblanadi. Modelni qurish uning maqsadini aniqlash va ifodalashdan boshlanadi, deb ta’kidlaydigan tizimli tahlil tamoyiliga ko‘ra, biz maqsadni bo‘lajak *-xorijiy til o‘qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetentligini (KMK)* rivoltantirish deb belgiladik. Ushbu maqsadga muvofiq: bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ-metodik kompetensiyasining (til, nutqiy, lingvistik, ijtimoiy-madaniy, diskursiv, kasbiy) komponentlarini rivojlantirish, bo‘lajak o‘qituvchilarning xorijiy tildagi kompetentligining rivojlanganlik darajasini tashxis qilish va uni tuzatish kabi vazifalar belgilab olindi.

Tizimli-integrativ, shaxsiy-faoliyatga asoslangan va kompetentlikka asoslangan yondashuvlar kommunikativ-metodik kompetentlikni takomillashtirish modelini ishlab chiqish uchun asos bo‘ldi.

Masalan, bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilarining chet tili kompetentligini rivojlantirish jarayonini tadqiq qilish uchun tizimli yondashuv qo‘llanildi. Tizimli yondashuv obyektning tizim sifatida o‘rganilishiga asoslanadi va obyektning yaxlitligini belgilaydigan ichki va tashqi xususiyatlar va aloqalarni, shuningdek, iyerarxik aloqadorliklarni o‘rganishdan iborat. Tizim deganda “ma’lum bir vazifani bajarish uchun yagona bir yaxlitlikka birlashgan elementlarni” tashkil etish tushuniladi va tizimning xossalari “uni tashkil etuvchi elementlarning xossalari” bilan cheklanmaydi [4; 251-b].

Pedagogik tizimning tarkibiy komponentlarga bo‘linishi va ularni tahlil qilish mavhumlik kuchi bilan amalga oshirilishi ayon faktdir. Tizimli yondashuv yordamida, aniqrog‘i uning vositasi bo‘lmish tizimli tahlil yordamida voqe obyektidan modelga o‘tish mumkin bo‘ladi. Tizimli tahlil - tizimlarni o‘rganish va ularni modellar ko‘rinishida ifodalash uchun qo‘llaniladigan uslubiy vositalar majmuidan iboratdir [5; 57-b].

Modelni ta’lim maqsadlarini aniqlash, ta’lim mazmunini tanlash, ta’lim jarayonini tashkil qilish va ta’lim natijalarini baholashning umumiy tamoyillari

majmui sifatidagi kompetentlikka asoslangan yondashuv asosida ishlab chiqish quyidagi tamoyillarni amalga oshirishni taqozo etadi:

- tahsil oluvchilarning ijtimoiy tajribadan foydalanish asosida turli soha va faoliyat turlaridagi muammolarni mustaqil hal qila olish qobiliyatini rivojlantirish;
- ta'lim mazmuni bilish, axloqiy, mafkuraviy va boshqa muammolarni hal qilishning didaktik jihatdan moslashtirilgan ijtimoiy tajribasini ifodalaydi;
- tahsil oluvchilarda bilim, kommunikativ, axloqiy, tashkiliy va boshqa muammolarni mustaqil hal qilish tajribasini rivojlantirishga sharoit yaratish;
- o'quv natijalarini baholash tahsil oluvchilarning ma'lum bir o'quv bosqichida erishilgan ta'lim olganlik (savod olganlik) darajalarini tahlil qilishga asoslanadi [6; 5-6-b].

Kommunikativ yo'naltirilgan va kasbiy yo'naltirilgan yondashuvlar tamoyillarini amalga oshirish xorijiy tilga o'qitish va xorijiy tillarga o'qitish nazariyasi va metodikasi faoliyatga asoslangan xarakteriga ega bo'lishini talab qiladi. Og'zaki va yozma nutq amaliyotini o'rgatish xuddi suhbatdoshlar birgalikdagi faoliyatning real va tasavvur qilingan vazifalarini xorijiy til yordamida hal qilishga urinayotgan paytidagi muloqot jarayoniga o'xshash bo'lishi kerak. Buning uchun o'qitish sharoitlarida "real muloqot amaliyoti" ta'minlanadi va nutqqa yo'naltirilganlik (tayanish) xorijiy til darslarida kommunikativ va kasbiy ahamiyatli materialdan foydalanishni taqozo etadi.

Ma'lumki, didaktik o'qitish vositalariga o'quv-laboratoriya jihozlari, so'z vositalari (matn tashuvchilar), ko'rgazmali vositalar (uch o'lchamli va bosma), texnik vositalar (magnitafon, CD va DVD pleyer, videomagnitafon), avtomatlashtirilgan ta'lim tizimlari (kompyuterlar, lingafon laboratoriyalari), tashkiliy-pedagogik vositalar (ta'lim standartlari, o'quv rejaları, o'quv dasturlari, o'quv qo'llanmalari, imtihon va zaxet biletleri, vazifalar keltirilgan kartochkalar va boshqalar) kiradi. Bizning tadqiqotimizda barcha o'qitish vositalari fanning o'quv-metodik majmuaga, aynan esa umumkasbiy (metodik) va maxsus "Chet tilini o'qitishning integratsiyasi" fanlar bo'yicha O'MK tarkibiga kiritildi.

Ma'lumki, ta'limni tashkil etish shakli o'quv jarayonining alohida bo'g'inining qurilmasi (konstruksiyasi), mashg'ulotlarning ma'lum turidir. Modulli o'qitish orqali tajriba tarzida o'qitish quyidagi o'qitish shakllaridan foydalanishni nazarda tutadi: frontal (o'qituvchining akademik guruh yoki kichik guruhning barcha bo'lajak o'qituvchilari bilan o'zaro faoliyati), guruhiy (bo'lajak o'qituvchilar turli asoslarda yaratilgan mini-guruhlarda ishlashadi), juftlik (o'zaro faoliyatt ikki talaba orasida amalga oshiriladi), individual (o'qituvchining bir talaba bilan o'zaro faoliyati).

Pedagogik amaliyotda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning yaxshi yo'lga qo'yilgan, tan olingan shakllari (ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, seminarlar,

mustaqil ishlar, maslahatlar/konsultatsiyalar va boshq.), shuningdek, yangi texnologiya va ta'lim-tarbiya mashg'ulotlarining noan'anaviy shakllaridan (tijorat o'yini, rolli o'yin, muammoli ma'ruzalar, fanlararo darslari) foydalangan holda ishlashning faol shakllari va boshqalar kabi tajriba to'plangan.

Bizning talqinimizga ko'ra, bo'lajak o'qituvchilarning xorijiy til kompetentligini rivojlantirish modeli "talabani faoliyati mahsuldor, ijodiy izlanish xarakterida amalga oshiriladigan" faol ta'lim metodlaridan foydalanish nazarda tutiladi .

Ta'kidlash lozimki, metodlarni tanlash ta'lim muassasasining o'ziga xos xususiyatlari, xorijiy tilni o'qitishning maqsadlari, vazifalari va mazmuni, mintaqaviy sharoitlari, bo'lajak o'qituvchilar tarkibi/kontingenti va o'qituvchilar tarkibining xususiyatlari, tanlangan pedagogik texnologiya va boshqalar bilan shartlanadi (kelib chiqadi).

O'qitish metodlari bo'lajak o'qituvchilarning chet tili kompetentligini rivojlantirish jarayonining ko'rib chiqilgan modelining ajralmas kompetentlari bo'lgan muayyan o'qitish vositalari bilan birlikda qo'llaniladi. Keng ma'noda o'qitish vositalari deganda "o'qitishning maqsadlariga erishishga ko'maklashuvchi barcha narsalar, ya'ni barcha metodlar, shakllar, mazmun hamda o'qitishning maxsus vositalari yig'indisi/majmui" tushuniladi [7; 113-b].

Modulli ta'limning bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ishiga asosiy urg'u berilishini, tahsil oluvchilarning o'quv modul dasturini o'zlashtirishlari jarayonini sur'atiga ko'ra individuallashtirishni, moduldagi topshiriq/vazifalarni tanlash imkoniyatini va to'rtinchi pedagogik shartni - til materialini mazmunini differentsiatsiya qilish/tabaqalashtirishni - amalga oshirish kabi xususiyatlari ta'lim jarayonida individual maslahatlar/konsultatsiyalar ulushini oshirish zarurligiga sabab bo'lishini ta'kidlab o'tish lozim.

Mustaqil ish - tahsil oluvchining o'zi ichki bilish rag'bat/motivlaridan kelib chiqib, o'z nuqtayi nazaridan eng qulay, oqilona vaqtda tashkil etiladigan, o'qituvchi tomonidan bilvosita tizimli boshqarish asosida jarayon va natijaga asoslanib o'zi nazorat qiladigan faoliyat (o'quv dasturini, ko'rsatish/display jihozlari) hisoblanadi. Mustaqil ishning maqsadi - talabani o'quv-bilish faoliyatini faol, psixologik va funksional jihatdan "o'z qobiliyatlari, qiziqishlari, mayllari va hayotiy rejalariga bog'liq ravishda individual ta'lim trayektoriyasini qurish, tadqiqot ishlarini olib borish, turli manbalardan ma'lumot olish va uni bilimlarga aylantirishga tayyorlangan" subyektiga aylantirishga yordam berishdan iborat [8; 82-b].

Bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ishi OTTda o'quv jarayonini tashkil qilishning eng muhim shakli, o'qituvchining bevosita rahbarligisiz kechadigan va bo'lajak o'qituvchilarning doimiy mustaqil ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlarini takomillashtirishga yordam beradigan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish faoliyati

vazifasini bajaradi. Aynan bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ishi "uzluksiz ta'lim bazasini yaratadi" (bir umr ta'lim olish uchun zamin yaratadi), o'z malakasini oshirish, va kerak bo'lsa, qayta o'qish (tahsil olish), ongli va faol fuqaro va ijodkor bo'lish imkonini beradi, chunki mustaqil ish jarayonida faollik, tashabbuskorlik, faoliyatning borishi va natijalari uchun mas'uliyat hissi kabi shaxsiy sifatlar namoyon bo'ladi, shuningdek, o'z-o'zini tashkil qilish va o'zini nazorat qilish ko'nikmalari shakllanadi.

Mustaqil ish o'quv dasturi talablari, tahsil oluvchilarning qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olgan holda quriladi. Mustaqil ishning samaradorligi tahsil oluvchilarda o'zini tashkil eta olish, o'zini nazorat qilish va o'ziga baho berish kabi komponentlarni takomillashtirishdan iborat. Yuqorida bayon etilgan qoida, fikr, qarashlar bilan bog'liq holda bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ishi quyidagilarni taqozo etadi:

1) o'qitishning bir bosqichidan ikkinchisiga o'tishda murakkablashib boradigan mustaqil ishlar tizimini joriy etish;

2) ishlarning turli-tumanligi;

3) o'qituvchi tomonidan ishlarning borishini tizimli nazorat qilish;

4) o'qituvchining turli rejimlarda muntazam maslahatlar o'tkazishi;

5) bo'lajak o'qituvchilarga o'zini nazorat qilish metodlarini o'rgatish,

6) o'quv vazifalarni murakkablik darajasiga ko'ra differentsiatsiya qilish.


Demak, bo'lajak o'qituvchilarning xorijiy tildagi kompetentligini rivojlantirishda modulli ta'limning potentsiali uning quyidagi xususiyatlaridan iborat: bo'lajak o'qituvchilarning o'quv ma'lumotlarini mustaqil o'zlashtirishlarini ta'minlaydigan o'quv modullari va modulli dasturlarning mavjudligi; til materialini kompleks o'zlashtirishga yordam beradigan til materialining modulda to'planishi (konsentratsiya qilinishi); ta'lim jarayonini boshqarishni optimallashtirish uchun ta'lim vazifalarini amalga oshirish algoritmlarini o'quv modullariga kiritish; modullar tarkibida bo'lajak o'qituvchilarga o'quv axborotini o'zlashtirish usullarini tanlashni ta'minlaydigan differentsiatsiya qilingan topshiriqlarning borligi; bo'lajak o'qituvchilarning xorijiy tildagi kompetentligining rivojlanganlik daraja tashxisini ta'minlovchi joriy, oraliq va yakuniy nazorat topshiriqlaridan foydalanish.

Falsafiy, psixologik-pedagogik va lingvodidaktik adabiyotlarni tahlil qilish, shuningdek, xorijiy tillarni o'qitish amaliyotini tahlil qilish bizga bo'lajak xorijiy tillar, xususan, ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarini takomillashtirish xususiyatlarini ilmiy-uslubiy muammo sifatida aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotimizda biz tizimli-integrativ yondashuvga tayanib ish ko'ramiz. Ushbu yondashuv innovatsion o'qitish tizimlarini yaratishning yetakchi tamoyil sifatidagi integratsiyaga asoslangan, o'z elementlarining kompleksligi, sintezi va

umumlashtirilganligi, ta'lim mazmunini universalizatsiyasi va ixtisoslashuvchi bilan ifodalanadigan tizimni anglatadi.

1 rasm.



1-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ-metodik kompetensiyasini takomillashtirish modeli

Xulosa qilib aytganda, bunday yondashuv mazmunning barcha elementlarini funksional o'zaro aloqasini, metodik tayyorlash ta'limni ta'minlash bilan, til pedagogika OTTning bo'lajak o'qituvchilarining metodik kompetensiyasini takomillashtirishga sharoit yaratish bilan ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarini qamrab oladi. Aynan shunday yondashuv bizga uni kommunikativ-metodik kompetensiya tushunchasi bilan birlikda foydalanish imkonini berdi.

Adabiyotlar

1. Щукин А.Н. Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактические основы/ Учебное пособие. - М.: ВК, 2012. - 336 с.
2. Зеер Э.Ф. Саморегулируемое ученика как психолого-дидактическая технология формирования компетенции у обучаемых // Психологическая наука и образование. - 2004. - № 3. - С. 5-11.
3. Волкова О.П. Компетентностный подход при проектировании образовательных программ / О. П. Волкова // Высшее образование в России. — 2005. -№ 4. С. 34-36.
4. Пассов Е.И. Сорок лет спустя или сто и одна методическая идея. - М.: ГЛОССА-ПРЕСС, 2006; - 240 с.
5. Жураковский, В. Управление самостоятельной работой / В. Жураковский // Высшее образование в России. 2003. - № 2. - С. 45-49.
6. Информационный сайт «Учительской газеты» Электронный ресурс. -Электрон, дан. Режим доступа: www.ug.ru/01.38/t10.htm
7. Педагогика : учебник / Л. П. Крившенко [и др.] ; под ред. Л. П. Крившен- ко. - М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2007. — 432 с.
8. Абасов З. Л. Проектирование и организация самостоятельной работы студентов / З. А. Абасов Н Высшее образование сегодня. - 2007. - №10. - С. 81-84.

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA IQTISODIY BILIMLARNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Artikbayeva S.T. – Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘quvchilarning iqtisodiy bilimlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Birinchi sinf o‘quvchilarida ilk iqtisodiy bilimlarni shakllantirishga turtki bo‘luvchi iqtisodiy atama, tushunchalar va bolalar yosh xususiyatiga mos ta’lim-tarbiya mazmuni, tashkil etishning samarali shakl, usul, vositalari hamda uzviy amalga oshirishning pedagogik texnologiyasi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, o‘quvchilar, iqtisodiy bilim, metodika, vosita, shakl, rivojlantirish.

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Артикбаева С.Т. - исследователь Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. Статья посвящена развитию экономических знаний студентов. Обсуждаются экономические термины, концепции и соответствующее возрасту содержание образования, эффективные формы, методы, инструменты организации и педагогическая технология органической реализации, стимулирующие формирование у первоклассников базовых экономических знаний.

Ключевые слова: начальная школа, учащиеся, экономические знания, методика, инструмент, форма, развитие.

METHODOLOGY OF FORMATION OF ECONOMIC KNOWLEDGE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Artikbaeva S.T. - Researcher of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. This article deals with the development of students' economic knowledge. Economic terms, concepts and age-appropriate educational content, effective forms, methods, tools of organization and pedagogical technology of organic implementation, which stimulate the formation of basic economic knowledge in first-graders, were discussed.

Key words: elementary school, students, economic knowledge, methodology, tool, form, development

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilk iqtisodiy bilimlarning davomli va uzviy, muhimi to'g'ri shakllantirilishi bola iqtisodiy tafakkurining o'sishiga ta'sir etib, unda hayotga, atrof-muhit ekologiyasiga, tabiiy resurslarga nisbatan oddiy iste'molchilikni emas, balki tabiatning bir bo'lagi sifatida ijobiy munosabatni tarbiyalaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining har bir narsaga ijodiy yaratuvchilik ko'zi bilan qaray boshlashi, bir so'z bilan aytganda egallangan ilk iqtisodiy bilimlarning boyishi tufayli, atrofini o'rab turgan tabiiy ne'matlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, jamiyat taraqqiyoti uchun foydali ishlar ustida mushohada yurita oladigan iqtisodiy madaniyatli shaxs darajasiga etishiga turtki bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilk iqtisodiy bilimlarni shakllantirishning eng samarali yo'li, har ikki ta'lim muassasaning ta'lim-tarbiyaviy tadbirlar mazmunini iqtisodiy mavzular bilan uyg'unlashtirish, uning tashkiliy shakl, usul, vositalari va uzviy amalga oshirish texnologiyasini yaratishdir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf ta'lim-tarbiya mazmunini iqtisodiyotga oid mavzular bilan uyg'unlashtirishda boshlang'ich ta'lim oluvchilarda ilk iqtisodiy bilimlarning shakllanishiga turtki beradigan iqtisodiy tushunchalar, ular anglay oladigan iqtisodiy atamalarni aniqlash va ular asosida bolalarga uzviy ravishda iqtisodiy bilimlar berib borish zarur.

Quyida ta'lim-tarbiya jarayonida umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilk iqtisodiy bilimlarni shakllantirishning mazmuni, shakl, usul, vositalarini yoritamiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ilk iqtisodiy bilimlar tayanch dasturiga muvofiq kichik yosh davridan boshlab mujassam mashg'ulotlar uyg'unligida berib borilishi ko'zda tutilgan. Ushbu ta'lim muassasalarining amaldagi tayanch dasturini batafsil o'rganish jarayonida turli yosh davr bolalarining iqtisodiy ta'lim-tarbiya faoliyatini uzviy tashkil etishga yetarlicha ahamiyat qaratilmagani va uning mazmunini qayta ko'rib chiqish, zarur holda unga o'zgartirishlar kiritish kerakligi belgilandi.

Tahlillar umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonini murakkablashtirishga ehtiyoj yo'qligi, aksincha iqtisodiy bilimlarni mashg'ulotlar mazmunini iqtisodiy mavzular bilan uyg'unlashtirish orqali, sayr, ekskursiya va bola hayotining muhim qismiga aylangan o'yin faoliyatida berib borilishi ahamiyatga molik ekanini ko'rsatdi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarda ilk iqtisodiy bilimlar tayanch dasturi ko'zda tutgan aqliy, axloqiy, vatanparvarlik, nutq o'stirish, tabiat, tevarak atrof bilan tanishtirish, mehnat tarbiyasi, hayot xavfsizligi asoslari, huquqiy bilimlar, o'yin, tasviriy faoliyat uyg'unligida mujassam mashg'ulotda berib boriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda boshlang'ich iqtisodiy bilimlar o'quv reja, fan dasturiga ko'ra fanlar va ekologik bilimlar integratsiyalashuvida tashkil etiladigan mujassam darslarda shakllantiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ilk iqtisodiy bilim berishga qaratilgan mujassam mashg'ulot muassasaning shusiz ham to'lib turgan mashg'ulotlar jadvalini yana bir qo'shimcha mashg'ulot turi bilan zichlashtirmaslik, ularga qo'shimcha "yuk" bo'lishi mumkin bo'lgan, izohini ba'zida kattalarning o'zlari ham tushunmaydigan murakkab iqtisodiy tushunchalar bilan yanada qiyinlashtirmasligi zarur.

Aksincha, ilk iqtisodiy bilimlar bolalarning bevosita kundalik hayot tarzi – ovqatlanish, sayr, turli kundalik mashg'ulotlar mazmunida, savol-javob musobaqalari, bayram esdaliklari, ijroli-voqeaband, ta'limiy va boshqa o'yinlar, tasviriy faoliyat va badiiy adabiyot vositasida shakllantirilishi maqsadga muvofiqdir [1].

Ba'zida kutilmaganda yuz beradigan holatlar ham bolalarda ilk iqtisodiy bilimlarning bevosita hosil bo'lishiga imkoniyat yaratadi-ki, erkin tarzda ro'y bergan bunday misollardan pedagoglarning mohirona va samarali foydalana olishlari bola psixikasiga ham jismonan, ham ma'nan zo'riqish bermay maqsadga erishish yo'llarini osonlashtiradi.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining boshlangʻich sinflarida taʼlim oluvchilarda ilk iqtisodiy bilimlar taʼlim bosqichlarining har ikkida ham birdek uygʻunlik va muntazamlikda mujassam mashgʻulot va oʻquv fanlari mazmunida tashkil etiladigan mujassam dars jarayonida shakllantirilishi hamda oʻyin, tasviriy faoliyat va tarbiyaviy tadbirlar jarayonida ularning mustahakamlanishi maqsadga muvofiqdir.

Boshlangʻich bolalar nutqini faollashtirish va mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirishga xizmat qiluvchi jahon va milliy adabiyot xazinasidan iqtisodiy mazmundagi qiziqarli sheʼr, hikoya, rivoyatlar, xalq ogʻzaki ijodi namunalari, maqol, matal, ertaklar oʻqib berish orqali ham bunday bilimlarni shakllantirish mumkin.

Taʼlimiy, ishchan, voqeaband-ijroli oʻyinlar, ijtimoiy-foydali mehnat faoliyatida ham ilk iqtisodiy bilimlarni samarali shakllantirish mumkin. Bolalarda shakllantiriladigan ilk iqtisodiy tasavvurlar, ularning bu boradagi bilim va koʻnikmalari darajasini tekshirishda sinovning topishmoq, rebus, boshqotirma, maxsus tashkil etilgan savol-javob, suhbat, bilimdonlar intellektual bahs-munozaralari, “Breyn ring” musobaqalari kabi shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi. [2, 12].

Bugungi kunda yurtimiz umumiy oʻrta taʼlim maktablarining boshlangʻich sinfidanoq maktab taʼlimiga ruhiy va jismonan tayyorlab bormoqda. Ushbu izchillik asnosida barcha taʼlimiy va darsdan tashqari tarbiyaviy faoliyatlarni bir-biriga chambarchas bogʻlovchi ketma-ketlik vujudga keladi-ki, natijada rivojlanishning keyingi bosqichida ijobiy son va sifat oʻzgarishlari kuzatiladi.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining boshlangʻich sinf oʻquvchilarida ilk iqtisodiy bilimlar taʼlim muassasasining tayanch dasturi, mashgʻulotlar rejasi, mashgʻulot mavzulari mazmunini iqtisodiyot bilan uygʻunlashuvida, ikki yoʻnalishda tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Faoliyatning tarbiyaviy shakli – ijtimoiy-foydali mehnat, oʻyin va boshqa faoliyatlarni oʻz ichiga olgan tarbiyaviy tadbirlar majmuida boshlangʻich sinf bolalarida ilk iqtisodiy bilimlarni shakllantirishga qaratilgan.

U oʻz ichiga umumiy oʻrta taʼlim maktablarda darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar majmuini olgan bayram ertaliklari, suratga qarab hikoya tuzish, hikoya asosida tematik rasmlar ishlash, suhbat, ekskursiya, ota-onalar, taniqli shaxslar bilan uchrashuvlar, bolalar ijodiyotini ragʻbatlantiruvchi koʻrgazma, taqdimot marosimlarini tashkil etishda oʻz ifodasini topadi.

Maʼlumki, taʼlim-tarbiya sohasidagi uzviylik quyi bosqichlarni pogʻonama-pogʻona keyingi bosqichlar bilan bogʻlashda koʻprik vazifasini oʻtaydi. U sohada maʼlum bir oʻquv faniga oid tushunchalarni maqsadli kengaytirib, rivojlantirib, pogʻonalararo fanlar davomiyligi va bilimlar uygʻunligini saqlab turadi.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining boshlangʻich sinf oʻquvchilarida ilk

iqtisodiy bilimlarni shakllantirishning mazmuni, shakl, usul, vositalari, umumiy oʻrta taʼlim maktablarining taʼlim oluvchilarida shakllangan ilk iqtisodiy bilimlarni pogʻonama-pogʻona, uzviy davom ettirish bilan davom ettiriladi.

Boshlangʻich taʼlim oʻquv fanlari mazmunini iqtisodiy mavzularda uygʻunlashtirishda, umumiy oʻrta taʼlim maktablar taʼlim-tarbiyasiga qoʻyiladigan davlat talablari, bolalar yosh xususiyati, psixik rivojlanish imkoniyatlari, tayanch dasturi asosida egallagan iqtisodiy bilim va koʻnikmalar darajasi toʻliq inobatga olinishi zarur.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarning 6-8-sinf oʻquvchilariga jami 44 ta iqtisodiy atama tavsiya etilib, bu atamalarning 14 tasini bolalarga yaxshi tanish boʻlgan, ular avval ham oilada kattalardan yoki atrofdagilardan eshitgan soʻzlar tashkil etdi. “Bozor”, “bepul”, “vaqt”, “kambagʻal”, “maosh”, “mehnat”, “pul”, “reklama”, “foydali”, “eng yaxshi”, “qaytim”, “qimmat”, “hashar”, “xaridor” kabi atamalar shu jumlasidandir. Atamalarning (30 tasi)ni bolalarga tanish boʻlmagan yangi soʻzlar tashkil etdi [3].

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining boshlangʻich sinf oʻquvchilariga tavsiya etilgan iqtisodiy atamaning bir qismi tavsiya etildi. Bularga “abonent”, “almashtirish”, “vaqt”, “jihaz”, “jarima”, “ijara”, “isrof”, “intizom”, “logotip”, “maosh”, “muhim”, “mahsulot”, “natija”, “raqobat”, “ramz”, “reklama”, “xomashyo”, “xoʻjalik”, “hashar” kabilarni kiritish mumkin. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarning boshlangʻich sinf oʻquvchilariga tavsiya etilgan atamalarning katta qismi oʻquvchilarga notanish boʻlgan yangi atamalardan tashkil topdi [4].

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarning boshlangʻich sinfida avval maktabgacha taʼlim muassasiga qatnamagan oʻquvchilar ham taʼlim oladilar. Shu bois, maktabga tayyorlov davrida bolalar olgan bilimlarni boshlangʻich sinfda mustahkamlash, atamalarni egallash koʻnikmasida ham uzviylikni saqlash maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar

1. Артиқова М.Б. Оилада ўсмирларни тадбиркорлик фаолиятига тайёрлашнинг педагогик шарт-шароитлари: Пед.фан.ном. ... дисс. – Т.: 2008.
2. Абдуллаева Б., Тошпулатова М., Садикова А., Жабборова Ю., Мухитдинова Н. Математика: ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» (3 синф). 2016. – 175 б.
3. Абдуллаева Б., Тошпулатова М., Садикова А., Жабборова Ю., Мухитдинова Н. Математика: ўқитувчилар учун методик қўлланма (1 синф). – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси». 2014. – 176 б.
4. Бикваева Н.У., Янгибоева Э., Гифранова К.М. Математика: Умумий ўрта таълим мактабларининг 4-синфи учун дарслик. – Тошкент: «Ўқитувчи» нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – 208 б.

**TALABALAR MEDIAMADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR
PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARI MAZMUNI VA UNI TASHKIL
ETISH METODIKASI**

Yakubjonova M.I. - Qo‘qon davlat pedagogika instituti, o‘qituvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Oliy o‘quv yurtlarida talabalar media madaniyatini rivojlantirishga doir olib borilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari mazmuni, tashkil etish metodikasi va tajriba sinov ishlaridan olingan natijalar tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: madaniyat, mediamadaniyat, media ta’lim, tajriba-sinov, matematik statistika

**СОДЕРЖАНИЕ И МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ
ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ РАБОТЫ ПО
РАЗВИТИЮ МЕДИАКУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ**

Якубжонова М.И. – преподаватель Кокандского государственного педагогического института

Аннотация. В данной статье проводится анализ содержания педагогических экспериментов, методов организации и результатов экспериментальной работы по развитию медиакультуры студентов в высшей школе.

Ключевые слова: культура, медиакультура, медиа-обучение, эксперимент, математическая статистика

**CONTENT AND METHODOLOGY OF ORGANIZATION OF
PEDAGOGICAL EXPERIMENTAL WORKS FOR THE DEVELOPMENT
OF STUDENTS IN MEDIA CULTURE**

Yakubjonova M.I. – Teacher of Kokand State Pedagogical Institute

Annotation. This article provides an analysis of the content of pedagogical experiments on the development of student media culture in higher education, the methodology of organization and the results of experiments.

Keywords: culture, media culture, media-learning, experiment, mathematical statistics

Mahalliy pedagogikada so‘nggi paytlarda jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichi bilan bog‘liq bo‘lgan ta’lim sohasidagi madaniyatshunoslik muammolarning keng doirasi ishlab chiqilmoqda. Zamonaviy jamiyatdagi shaxs inqirozi nafaqat

tashqi sabablar, balki ichki sabablarga ham bog‘liq: axloqiy tarbiya, milliy g‘ururni, ma’naviyatni va vatanparvarlikni tarbiyalash uchun motivatsiyaning yo‘qolishi. Umuminsoniy qadriyatlarga, o‘zini borliqning bir qismi, dunyo kishisi, jahon madaniyatining bir qismi sifatida anglaydigan, o‘zini madaniyatlar muloqoti asosida anglaydigan, butun insoniyatning madaniy tajribasini ko‘paytiradigan shaxsni tarbiyalashga qaytish zarurati shubhasizdir. Ushbu qoidalarining barchasi zamonaviy pedagogik ta’lim madaniyatshunoslik paradigmasining asosini tashkil qiladi.

Pedagogika fan sifatida madaniyatshunoslik bilan tobora chambarchas birlashib bormoqda, shuning uchun yangi pedagogik tushunchalar paydo bo‘lmoqda: mediata’lim, mediamadaniyat, mediakompetentlik, media savodxonlik, mediapedagogika, media texnologiyalar, media matnlar, mediaidrok.

Talabalar media madaniyatini rivojlantirish muammosiga qaratilgan tadqiqotimiz asosini zamonaviy pedagogik ta’limning madaniy paradigmasi tashkil etadi.

Oliy ta’lim jarayonida talabalarning mediamadaniyatini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi. Nazariy taxminni tasdiqlash uchun oliy o‘quv yurtlarida tajriba-eksperimental ishlari jarayonida ishlab chiqilgan modelni sinab ko‘rish kerak edi. Tadqiqot maqsadiga erishish ishlab chiqilgan model samaradorligini sinash bilan bog‘liq.

Ushbu tadqiqotda biz oliy o‘quv yurtlarida talabalar mediamadaniyatini rivojlantirishning quyidagi yo‘nalishlari mavjudligini ko‘rsatdik:

o‘qiladigan o‘quv fanlariga media-madaniy texnologiyalarni faol tatbiq etish;

media-ta’lim siklining fakultativlarini yaratish;

o‘quv rejasiga media madaniyatni rivojlantirish bilan bog‘liq yangi fan yoki maxsus kursni kiritish.

Eksperimental tadqiqotda pedagogik, ijtimoiy-psixologik va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar qoidalariga tayangan holda, maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari shaxsining media madaniyatini rivojlantirish bilan bog‘liq holda media ta’lim asosida “Talabalarning media madaniyatini rivojlantirish” bilan bog‘liq bo‘lgan maxsus fakultativ kursini ishlab chiqamiz, uning maqsadi yosh mutaxassislarni axborotga boy jamiyatda hayotga tayyorlashdan iborat.

Shunday qilib, eksperimental tadqiqotning maqsadi aniqlandi - oliy o‘quv yurti sharoitida media-ta’lim siklida fakultativ kurs yordamida ularning media-ta’lim faoliyatini tashkil etish orqali maktabgacha ta’lim mutaxassislik talabalari shaxsining mediamadaniyatini rivojlantirish.

Eksperimental tadqiqot maqsadlari:

- shaxsning media-madaniyatini, media kompetentligini tadqiq etish usullarini o‘rganish va talabalar shaxsining media madaniyatini tadqiq etish metodikasini ishlab chiqish;

- maktabgacha ta'lim ta'lim yo'nalishi talabalarida shaxs mediamadaniyati va uning tarkibiy qismlarining rivojlanish darajasini aniqlash;
- maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari shaxsining mediamadaniyatini rivojlantirishda fakultativ kursdan foydalanishni asoslash;
- fakultativ darslar orqali maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari shaxsining mediamadaniyatini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish;
- shakllantiruvchi eksperimentda qatnashgan va eksperimentda qatnashmagan maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari shaxsining mediamadaniyati rivojlanish darajasini qiyosiy tahlil qilish;
- maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari shaxsining mediamadaniyatini rivojlantirish bo'yicha media-ta'lim siklining fakultativ faoliyati samaradorligini baholash.

Eksperimental tadqiqotning asosiy bosqichlarini tavsiflaymiz.

Birinchi bosqich – tashkil etish – farazni ishlab chiqish, samaradorligini eksperimental ravishda isbotlash kerak bo'lgan bir qator ahamiyatli holatlarni, muhim jihatlarni qamrab oladi. Hozirgi vaqtda tadqiqot olib borishda dastlab ishchi faraz ishlab chiqiladi, bu tadqiqot jarayonining samarali rivojlanishi uchun zaruriy shartdir.

Kelgusida farazning mazmuni ko'p narsani: tashkil etishni ham, ilmiy tadqiqotlar usullarini ham, adabiyotdagi muammoning holatiga nuqtayi nazarni qaratishni ham, o'tmish tajribasiga murojaatni ham, uning tarixiy anglanishini ham va ko'plab boshqa narsalarni ham oldindan belgilab qo'yadi.

Pedagogika nazariyasi va ta'lim amaliyotida o'rganilayotgan muammoni tahlil qilish asosida biz quyidagi farazni ifodalashga to'xtadik: agar "talabaning mediamadaniyati" tushunchasining mohiyat tavsifi aniqlanganda; talabalar mediamadaniyatini rivojlantirish faoliyatining xususiyatlari aniqlanganda; talabalarning mediamadaniyatini rivojlantirish modeli yaratilganda; ushbu faoliyat ishlashining mazmuni va texnologiyalari ishlab chiqilgandagina ushbu jarayonning samaradorligini ta'minlaydigan pedagogik sharoitlar yaratiladi.

Ushbu pedagogik sharoitlar quyidagilardan iborat: oliy o'quv yurtlaridagi o'quv jarayoni media texnologiyalari va ularning usullaridan faol foydalanishga qaratilgan; media texnologiyalar to'g'ridan-to'g'ri o'quv jarayoniga kiritilgan; talabalarning o'quv jarayoniga "Talabalarning mediamadaniyatini rivojlantirish" fakultativ kursini kiritish; talabalar bilan ishlashning jamoaviy, guruhli va individual shakllarining maqbul kombinatsiyasi; ta'limning barcha bosqichlari o'tishining uzluksizligi, izchilligi va ketma-ketligi; media vositalari va texnologiyalaridan foydalangan holda o'quv jarayoni sub'ektlarining o'zaro munosabatlari; psixologik va pedagogik diagnostika jarayonning samaradorligini ta'minlaydigan pedagogik sharoitlar yaratiladi.

Psixologik-pedagogik nazariya va me'yoriy hujjatlar tahlili asosida oliy o'quv yurti ta'lim jarayonida talabalarning mediamadaniyatini rivojlantirish modelini ishlab chiqdik va nazariy jihatdan asosladi. Modelni eksperimental tekshirish modelni amalga oshirish jarayonida maqsadlar, vazifalar va qarorlarni qo'yishni talab qiladi.

Shundan kelib chiqib, tajriba-eksperimental ishning maqsadi aniqlandi: farazda ilgari surilgan pedagogik sharoitlarni tekshirish va asoslash. Kutilayotgan natija – bu talabalarning mediamadaniyati darajasining o'sishidir.

Ushbu maqsadga muvofiq biz tajriba-eksperimental ishning vazifalarini aniqladik.

Aniqlovchi tajriba: talabalarning mediamadaniyati darajasi tashxisini ishlab chiqish; talabalarning mediakompetentligi rivojlanishining hozirgi shakllangan darajasini aniqlash.

Shakllantiruvchi eksperiment: ishlab chiqilgan modelni uning samaradorligini aniqlash uchun sinab ko'rish.

Nazorat eksperimenti: shakllantiruvchi tajriba materiallari asosida talabalar mediakompetentligining rivojlantirish darajasini aniqlash.

Ikkinchi bosqich – amalga oshirish – dastlab farazda aytilgan va eksperimentning tayyorlangan materiallariga ko'chirilgan g'oyalarni amalga oshirishni ta'minlaydi. Bu yerda asosiy narsa – pedagogik eksperimentning sofligini ta'minlash, olingan ma'lumotlarning yetarlicha ishonchli bo'lishini ta'minlash.

Ushbu bosqichda oliy o'quv yurti talabalari mediamadaniyatini rivojlantirish modelini realizatsiya qilish amalga oshiriladi. Modelni amaliy realizatsiya qilish texnologiyasi quyida tavsiflanadi.

Uchinchi bosqich – aniqlash – bu natijalarning miqdoriy va sifat xususiyatlarini aniqlash, ularga kirish imkoniyatiga va ishonchlilikka ega bo'lgan qiymatlarni olish va belgilangan qonuniyatning mohiyatini ochiq namoyon etuvchi ma'lumotlarni olish uchun tegishli ishlov berishga qaratilgan barcha ishlar majmuini ifodalaydi.

To'rtinchi bosqich – talqin qilish – to'plangan faktlar turli asoslarga ko'ra tasniflanadi, statistik qonuniyatlar belgilanadi, rivojlanish tendensiyalari, barqarorlik zonalari, eksperimental tadqiqot obyektida ma'lum fazilatlar shakllanishidagi sakrash vaqtlari aniqlanadi. Induktiv va deduktiv usullarni qo'llash natijasida haqiqiy material umumlashtiriladi, uning ilmiy ahamiyati aniqlanadi. Eksperimental ma'lumotlarning daliliy talqini talabalarning mediamadaniyatini rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalarni taklif qilish imkonini beradi, bu oliy o'quv yurti amaliyotida qo'llanilishi mumkin.

Ma'lumki, maqsadlarga ko'ra, aniqlash, shakllantirish va nazorat qilish tajribalari farqlanadi. Aniqlash tajribasining maqsadi – o'rganilayotgan hodisaning

hozirgi darajasini o'ldash. Bu yerda shakllantiruvchi eksperimentni tushunish va tashkil etish uchun dastlabki material olinadi [1, 45-b].

Shakllantiruvchi (o'zgartiruvchi, talaba) eksperiment muayyan faoliyatning shakllanish darajasini, talabalarning muayyan ko'nikmalarini rivojlantirish darajasini shunchaki aytib berishga emas, balki ularni faol ravishda shakllantirishga yoki tarbiyalashga qaratilgan. Bu yerda maxsus eksperimental vaziyatni yaratish kerak [2, 105-b].

Nazorat eksperimenti (nazorat qiluvchi) – uning yordami bilan shakllantirish (o'rgatish) eksperimentidan ma'lum vaqt o'tgandan so'ng, Talabalarning bilim va ko'nikmalar darajasi, har qanday shaxs fazilatining rivojlanishi shakllantirilgan eksperiment materiallari asosida aniqlanadi.

Bizning tadqiqotimizdagi rivojlanish jarayoni talabalar mediamadaniyatining yuqori darajada rivojlanganligiga erishishga qaratilgan. Biz pedagogika bo'yicha lug'at-ma'lumotnoma muallifi V.A.Mijerikovning rivojlanishni yaxlit tizimlarni o'zgartiruvchi harakat jarayoni deb hisoblaydigan nuqtai nazariga amal qilamiz [3, 240-b]. Rivojlanishning eng xarakterli xususiyatlari quyidagilardan iborat: sifat jihatidan yangi obyekt (yoki uning holati)ning paydo bo'lishi, miqdoriy va sifat o'zgarishlarining yo'nalishi, qaytarilmasligi, muntazamligi, birligi, progress va regressning o'zaro bog'liqligi, shaklning (siklilik) nomuvofiqligi, adolatliligi. Bizning ishimizda aynan rivojlanish jarayoni haqida gap boradi, chunki biz talabalardagi mediamadaniyatning muayyan bir darajasini idrok etamiz.

Tayyorgarlik bosqichida asosiy maqsad media madaniyati, media texnologiyalar, turli xil ko'rinish va shakllarga bo'lgan qadriyat munosabatini shakllantirishdir, buning uchun biz, kursning butun dasturini amalga oshirishda biz tomondan hisobga olingan talabalar bilan suhbatlar, seminarlar va treninglar tashkil etdik va o'tkazdik, shuningdek, talabalar auditoriyasining media afzalliklari, uning mediakompetentlik darajasi to'g'risida tasavvurni shakllantirgan so'rovnomanini o'tkazdik.

Bizning ishimizning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat edi: kasbiy o'zini o'zi mustaqil takomillashtirishga ijobiy munosabatni shakllantirish; ushbu yo'nalishda ishlash uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish; mediata'lim sohasida kasbiy o'zini o'zi mustaqil takomillashtirish ehtiyojlarini aktuallashtirish.

Zamonaviy sharoitda ta'lim mazmunini bashorat qilishning roli sezilarli darajada oshib bormoqda, buning natijasida o'quv rejalari va dasturlarini qurish, ularni tezkor o'zgartirish uchun zarur bo'lgan ma'lum bilim sohalarini, mehnatning tabiati va obyektlarini rivojlantirish, ehtimoliy istiqbollari to'g'risida ilg'or ma'lumotlarni olish kerak.

Ta'lim mazmunining rivojlanishini bashorat qilib, o'quv dasturini iloji boricha zamonaviy sharoit talablariga moslashtirishga intilib, biz o'z ishimizda, har

birining individual xususiyatlari, motivlari va qadriyat yo‘nalishlari xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim mazmunini talaba shaxsining qiziqishlari va ehtiyojlariga moslashtirish zarurati hamda moslashuvidan kelib chiqdik. Ushbu vazifa ta’limning haqiqiy mazmuni doirasidan tashqariga chiqadi va uni muvaffaqiyatli hal qilish faqat o‘quv jarayonining o‘zida, shaxslararo munosabatlar tizimida imkonlidir.

Nazariy tayyorgarlik bosqichida talabalar o‘rtasida mediamadaniyat to‘g‘risida bilimlar tizimini rivojlantirish, talabalarning media madaniyatini oshirish maqsadida “Talabanning mediamadaniyatini rivojlantirish” fakultativ kursini ishlab chiqdik va tatbiq etdik. Ushbu kurs bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, shaxsan va professional ravishda yo‘nalish olishga, media madaniyat haqida o‘z nuqtayi nazarini shakllantirishga, talabanning kasbiy faoliyatida media texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan.

Kursning maqsadi: talabalarning mediamadaniyatini rivojlantirish. Ushbu maqsaddan kelib chiqadigan asosiy vazifalar: talabalarni mediakompetentlik, mediata’limni rivojlantirish sohasi bilan bog‘liq asosiy tushunchalar bilan tanishtirish; talabalarga dunyo va O‘zbekistonda mediata’limning tarixiy rivojlanishi genezisini ko‘rsatish; mediata’lim jarayonida talaba shaxsining mediamadaniyatini rivojlantirish; media ta’limining rivojlanishini uni ta’limning yaxlit pedagogik jarayonidagi o‘quv jarayonida qo‘llash nuqtayi nazaridan tahlil qilish.

Ushbu kursni o‘zlashtirish natijasida talabalar quyidagilarni bilishlari kerak: kursning asosiy tushunchalarini (“media kompetensiyasi”, “mediata’lim”, “media savodxonligi”, “media pedagogikasi” va boshqalar); dunyo va O‘zbekistonda mediata’lim tarixiy rivojlanishining asosiy bosqichlari; muayyan mamlakatlarda turli xil ijtimoiy-madaniy sharoitlarda va turli davrlarda mediata’limning tarixiy rivojlanish bosqichlarining asosiy xususiyatlari; mediata’limni rivojlantirish sohasining hozirgi holati; shaxsning mediamadaniyatini rivojlantirish nuqtayi nazaridan mediata’lim imkoniyatlari; media-idrok etishning tipologiyasi; media ta’lim metodikasi asoslari.

Ushbu kursning amaliy ahamiyati shundan iboratki, seminarni o‘zlashtirish natijasida talabalar nafaqat media ta’limining nazariyasi va uslublari bo‘yicha bilim zaxiralariga ega bo‘lishlari, balki bu bilimlarni pedagogik faoliyatda qo‘llashlari kerak.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini o‘tkazishdan maqsad – talabalar mediamadaniyatining rivojlanganlik darajasini aniqlashdan iborat.

Ishlab chiqilgan ko‘rsatkichlar va mezonlarga muvofiq biz talabanning shakllangan mediamadaniyatining uchta darajasini (past, o‘rta, yuqori) aniqladik.


Talabalarning shakllangan mediamadaniyat darajasi va uning tarkibiy qismlari ishlab chiqilgan diagnostikasi yordamida aniqlandi.

Aniqlash tajribasi talabalarni mediamadaniyatining shakllanganlik darajasini aniqlash maqsadida o‘tkazildi.

So‘rovnomalar, suhbatlar, ekspertli baholash usuli yordamida motivatsion-qadriyat, jarayonli va mediakompetentlikning tarkibiy qismlari shakllanganlik holati aniqlandi.

Ishlab chiqilgan baholash mezonlariga muvofiq, o‘rganilayotgan guruhlardagi mediamadaniyatning har bir komponentining shakllanganlik darajasi aniqlandi.

Aniqlash tajribasining olingan natijalari asosida aniqlovchi tajriba bilan bir xil guruhlarda o‘tkazilgan shakllantiruvchi tajriba tashkil etildi.



Barcha oliy o‘quv yurtlarida o‘tkazilgan pedagogik tajriba-sinov natijalarining umumlashgan holati

O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari matematik-statistika usullari orqali tahlil qilindi. Tajriba natijalarini qayta ishlashda matematik-statistika Student usuli formulalaridan foydalanildi.

Tajriba-sinov ishlaridagi natijalarning samaradorligi 17 foizga yuqoriligi matematik-statistika usullari orqali isbotlandi.

Adabiyotlar

1.Афанасьев В.В. Психолого-педагогическая диагностика качества образовательного процесса / – М.: Школьные технологии, 2008. – 280 с.

2.Ингенкамп К. Педагогическая диагностика. пер.с нем. – М.: Педагогика, 1991. – 241 с.

3.Мижериков В.А. Словарь-справочник по педагогике. – М.: Сфера, 2004. – 448 с.

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHISINING
METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO
BAHOLASH DASTURLARIDAN FOYDALANISH**

Saidova M.J. - BuxDU Pedagogika instituti boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirishda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish imkoniyati ochib berilgan. PIRLS va TIMSS xalqaro baholash dasturlarini ta‘lim jarayonida qo‘llashda erishiladigan yutuqlar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, xalqaro baholash dasturi, matn ustida ishlash, savodxonlik darajasi, PIRLS, TIMSS.

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ПРОГРАММ
ОЦЕНИВАНИЯ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ МЕТОДИЧЕСКОЙ
ПОДГОТОВКИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

Саидова М.Ж. - доцент кафедры теории и методики начального образования Педагогического института БухДУ, доктор философских наук в области педагогики

Аннотация. В статье раскрывается возможность использования международных оценочных программ для совершенствования методической подготовки будущих учителей начальных классов. Анализируются достижения в применении международных программ оценивания PIRLS и TIMSS в образовательном процессе.

Ключевые слова: будущий учитель начальных классов, международная программа оценивания, текстовая работа, уровень грамотности, PIRLS, TIMSS.

**USE OF INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS TO
IMPROVE METHODOLOGICAL PREPARATION OF FUTURE PRIMARY
SCHOOL TEACHER**

Saidova M.Zh. - Associate Professor of the Department of Theory and Methods of Primary Education of the Pedagogical Institute of BukhDU, Doctor of Philosophy in Pedagogy

Annotation. The article reveals the possibility of using international assessment programs to improve the methodological training of future primary school

teachers. Achievements in the application of PIRLS and TIMSS international assessment programs in the educational process are analyzed.

Keywords: prospective primary school teacher, international assessment program, text work, literacy level, PIRLS, TIMSS.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib xalqaro baholash reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan [2]. Shuningdek, konsepsiya doirasida o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg‘u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta’lim dasturlari va yangi davlat ta’lim standartlarini joriy etish, o‘quvchilarning bilim darajasini baholashda xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan.

– PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) – boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matni o‘qish va tushunish darajasini baholash;

– TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) – 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash;

PIRLS – boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matni o‘qish va tushunish darajasini baholash ta’rifiga ko‘ra, o‘qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma’no hosil qila olish qobiliyatidir [8].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matni o‘qish va tushunish darajasini baholashga asoslangan ta’lim-tarbiya jarayonida dars maqsadlari o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatiga asoslangan holda belgilanadi, bu esa ta’lim-tarbiya jarayonida yuqori natijaga erishishni kafolatlaydi, o‘qituvchi hamda o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi va o‘quv harakatlarini aniq baholash imkoniyatini yaratadi.

XXI asrga xos xalqaro baholash dasturlari asosida o‘quvchilar bilimni baholash, o‘qitish va ta’lim olishning zamonaviy usullaridan maqsadli foydalangan holda ularni yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishlarini ta’minlashga xizmat qiladi. O‘quvchilarni fikrlash chegarasidan tashqariga chiqishga, ijodiy, samarali va odobli fikrlashga undaydi. Binobarin, mazkur muammolarning har birini


qamrab oluvchi mavzular, ko'rsatmalar, sinfxona muhiti, baholash mexanizmi va texnik qo'llanmalardan foydalanish kabi masalalarda turli xil yondashuvlarga asoslanilgan holda kafolatlangan natijani ta'minlash, ko'zlangan maqsadga erishishni nazarda tutadi.

O'quvchilar bilimini baholashda PIRLS tadqiqotlarining topshiriqlaridan foydalanish ("Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash" metodik qo'llanmasi) va unda belgilangan baholash mezonlariga amal qilish ularda:

- o'qish savodxonligining maqsadiga erishishda badiiy tajriba orttirish va axborot olish va undan foydalanish;
- ko'p qirrali, murakkab vazifalarni amalga oshirishga o'rganish;
- har bir muammo xususida chuqur fikrlash va o'z bilimini oshirib borishni boshqara olish;
- o'z tengdoshlari, o'qituvchilar va mutaxassislar bilan chuqur mulohazani talab etuvchi muhim vazifalarni bajarishda hamkorlik qila olish;
- qarorlar qabul qilish, muammolarni hal etish va yangi fikrlar yaratishda texnologiyalardan foydalana olish kabi kompetensiyalarni shakllanishiga ko'maklashadi.

Matnni tushunish jarayonida quyidagilarga erishiladi:

1. Matnni o'qish asosida diqqatni jamlash va aniq ma'lumotlarni to'plash.
2. Xulosa chiqara olish.
3. G'oya va axborotlarni tahlil qilish va uyg'unlashtirish.
4. Kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish kabilar (1-rasm).



1- rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobxonlik ko'nikmalarini baholashda PIRLS tadqiqotlaridan foydalanish imkoniyatlari.

- ***Yuqoridagi imkoniyatlardan foydalanish natijasida*** matnni to'liq tushunish, matn elementlarini baholash, g'oyalar va axborotlarni tahlil qilish, muloqot qilish, ijodiylik va qiziquvchanlik, tanqidiy fikrlash va tizimli fikrlash, axborot va ommaviy o'quv va kognitiv faoliyatning sinovdan o'tgan mazmuni va turlarini yetarli darajada yoritish;

- xalqaro testlar mazmunining aksariyat ishtirokchi mamlakatlarda o'rganilayotgan materialga maksimal darajada mos kelishi;

- testlarning o'zaro aloqasini ta'minlash;

- tekshirilayotgan mazmunning matematika ta'limini rivojlantirish nuqtayi nazaridan ahamiyati;

- o'quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiqligi, test ishlab chiqilgan yutuqlarni baholash;

- ommaviy tadqiqotlar uchun talablarga muvofiqligi.

- 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika fanidan baholash uchun test topshiriqlarini berishda belgilangan tildan foydalaniladi.

- axborot vositalaridan foydalanish, shaxslararo hamkorlik, muammolarni aniqlash, shaklga solish va echimini topish, o'z-o'zini yo'naltirish, ijtimoiy mas'uliyat kabi hayotiy ko'nikmalar shakllana boradi.

TIMSS bu — “Trends in International Mathematics and Science Study”, ya'ni 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematik va tabiiy-ilmiy yo'nalishlar bo'yicha ta'limdagi natijalarini xalqaro miqyosda baholaydigan tadqiqotdir.

TIMSS tadqiqot vositasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

• matematika va tabiiy fanlar sikli fanlaridan topshiriqlar (4- va 8-sinflar);

• ta'lim muassasalari rahbarlari uchun anketa (4- va 8-sinflar);

• o'qituvchilar uchun so'rovnoma (4- va 8-sinflar);

• Ota-onalar uchun so'rovnoma (4-sinf).

TIMSS testi to'rtta topshiriq blokidan iborat (ikkitasi matematikadan va ikkitasi tabiatshunoslik). 4-sinfda butun testni bajarish uchun tanaffus bilan 72 daqiqa ajratiladi (ikki qism 36 daqiqa). 8-sinfda butun testni bajarish uchun tanaffus bilan 90 daqiqa berildi (ikki 45 daqiqadan iborat qismlar).

TIMSS xalqaro tadqiqot vositalari to'plamiga quyidagilar kiradi:

- kognitiv va ma'lumotlar sohasiga tegishli testlar;

- anketalar (o'quvchilar, o'qituvchilar, ta'lim muassasasi ma'muriyati,

- ta'lim sohasidagi mutaxassislar (tadqiqot sifatini kuzatuvchilar uchun);

- uslubiy ta'minot (o'rganishni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha milliy koordinatorlar uchun yo'riqnoma, namuna olish bo'yicha qo'llanma, maktab koordinatorlari uchun qo'llanma, test o'tkazish bo'yicha qo'llanma, bepul javoblar

bilan topshiriqlarni tekshirish bo'yicha qo'llanma, ma'lumotlarni kiritish bo'yicha qo'llanma va boshqalar);

- dasturiy ta'minot (sinflar va o'quvchilarni tanlash uchun, ma'lumotlarni kiritish uchun).

Xalqaro testlar quyidagi tamoyillar asosida ishlab chiqiladi:

Jahon ta'limida Lesley University olimi **Jennifer Anne Evans** matematika baholash tizimi haqida ilg'or fikrlarni ilgari surgan.

Tadqiqotchi baholash tizimini ikki o'lchovga bo'ladi: mazmunli va kognitiv. Uning fikricha, matematikani o'rganib, mazmun o'lchovi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan matematik ko'nikmalar yoki tushunchalarga ishora qilish lozim (masalan, ko'paytirish, perimetr va boshqalar) [6; 32-33-b.].

Jennifer Anne Evans tadqiqot ishida mazmunli va kognitiv o'lchamdagi topshiriqlarni alohida ajratib ko'rsatgan (1-jadval).

1-jadval.

4-sinf matematika mazmunli o'lchov	4-sinf matematika kognitiv o'lchov
Raqamlar (50%)	Bilish (40%)
Geometrik shakllar va o'lchovlar (35%)	Qo'llash (40%)
Ma'lumotlarni ko'rsatish (15%)	Mulohaza yuritish (20%)

O'zbekiston ta'limida ham bugungi kun o'quvchisi xalqaro baholashga javob berish uchun yangi avlod darsliklari va milliy dastur yaratildi. O'quvchilarning mazmun va kognitivli bilimlarini o'lchashning dastlabki nazariy va amaliy ishlari boshlandi [5; 227-b.].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida TIMSS xalqaro tadqiqoti O'zbekistonda joriy etilishi belgilab qo'yilgan bo'lib, mazkur tadqiqotlarni joriy etish maqsadida Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etilgan.

Endilikda, O'zbekiston TIMSS-2023 xalqaro dasturida qatnashishga kirishadi. Bu borada IEA tashkilotining "Xalqaro matematik va ilmiy-tadqiqotlar (TIMSS) 2023 tendensiyalarida qatnashish uchun rasmiy taklifi"ga muvofiq O'zbekistonning TIMSS dasturida ilk marotaba qatnashishi masalasida Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi o'rtasida olib borilgan muloqotlar asosida IEA rahbariyatining dastlabki roziligiga erishildi.

TIMMS 2023-yilda mazmun o‘lchovi asosida topshiriqlarni quyidagi struktura asosida olinishi ko‘zda tutilgan (2- jadval):

2-jadval.

4-sinf matematika mazmunli o‘lchov	Mazmuni
Sonlar va amallar (50%)	1. Butun sonlar. 2. Ifodalar, sodda tenglamalar va munosabatlar. 3. Oddiy kasrlar va o‘nli kasrlar.
Geometriya va o‘lchashlar (30%)	1. O‘lchashlar. 2. Geometriya.
Ma’lumotlar bilan ishlash (20%)	1. Ma’lumotlarni o‘qish va tasvirlash. 2. Ma’lumotlarni talqin qilish, birlashtirish va taqqoslash.

TIMSS bo‘yicha xalqaro baholash dasturini ishlab chiqish ta’lim jarayoniga tatbiq etish qator vazifalar, qoidalarga bo‘ysinishni talab etadi.

Boshlag‘ich ta’lim o‘quvchilarida o‘qish va amaliy jarayonlarda ishlash savodxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning tizimli bosqichlarini aniqlash, ta’lim jarayoniga olib kirish va amaliyotda foydalanishning innovatsion usullarni ishlab chiqish, bevosita, ta’lim sifati va xalqaro baholash dasturlari talablariga tayyor bo‘lish imkoniyati oshiradi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi 2022-yil 28-yanvardagi 60-sonli Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 29-aprel, 5712-sonli Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifati baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli Qarori.

4. Mullis, I.V.S., Martin, M.O., Minnich, C.A., Stanco, G.M., Arora, A., Centurino, V.A.S., & Castle, C.E. (Eds.) TIMSS 2011 Encyclopedia: Education Policy and Curriculum in Mathematics and Science, Volumes 1 and 2. - Chestnut Hill, MA: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College, 2012. -1088 p.

5. Hutchison, D., Schagen, I. Comparisons between PISA and TIMSS - Are we the man with two watches? / Loveless, T. (Eds.) // Lessons Learned - What international assessments tell us about math achievement. - Washington, D.C.: Brookings Institute Press, 2007. - P. 227-261.
6. Jennifer Anne Evans Gender, Self-Efficacy, and Mathematics Achievement: An Analysis of Fourth Grade and Eighth Grade TIMSS Data from the United States. Lesley University School of Education 2015 32-33-p.
7. Raxmatov M., Zaripov B. Yangi O‘zbekiston Uchinchi Renessans ostonasida. – T: Zamin nashr, 2021.
8. “Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash” metodik qo‘llanmasi. – T., 2019.

TALABALARNING MOTIVATSIYASI TA’LIMDA MUVAFFAQIYATGA ERISHISHNING OMILI SIFATIDA

**Abdullayeva B.S. – Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy
ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, pedagogika fanlari doktori,
professor**

Annotatsiya. Ushbu maqolada motivatsiyaning psixologik nazariyalari, oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarning o‘quv va ilmiy faoliyatida ta’lim olishga bo‘lgan motivatsiyani rivojlantirish masalalari, motivatsiyani rivojlantirishning darajalari hamda olimlarning motivatsiya haqidagi fiklari bayon etilgan.

Kalit soz‘zlar: motiv, motivatsiya, rag‘bat, gomeostaz, bioenergetik, psixologik nazariya, individ, struktura.

МОТИВАЦИЯ СТУДЕНТОВ КАК ФАКТОР УСПЕХА В ОБРАЗОВАНИИ

**Абдуллаева Б.С. - проректор по научной работе и инновациям
Ташкентского государственного педагогического университета, доктор
педагогических наук, профессор**

Аннотация. В данной статье рассматриваются психологические теории мотивации, развитие мотивации у студентов к обучению в высших учебных заведениях, уровень развития мотивации и взгляды ученых на мотивацию.

Ключевые слова: мотив, мотивация, мотивация, гомеостаз, биоэнергетика, психологическая теория, личность, структура.

STUDENT MOTIVATION AS A FACTOR OF SUCCESS IN EDUCATION

Abdullayeva B.S. - Vice-Rector for Research and Innovation, Tashkent State Pedagogical University, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Annotation. This article discusses the psychological theories of motivation, the development of motivation for students to study in higher education institutions, the level of development of motivation and the views of scientists on motivation.

Keywords: motive, motivation, homeostasis, bioenergetics, psychological theory, individual, structure.

Xulq-atvorni va faoliyatni rag‘batlantirish motivatsiyasi muammosi psixologiyadagi asosiy muammolardan biridir. Motivatsiyani o‘rganishda nazariy va eksperimental yondashuvlarning xilma-xilligi, birinchidan, zamonaviy psixologik maktablarning turli falsafiy yo‘nalishlari, ikkinchidan, bu hodisaning ziddiyatlarga to‘laligi va murakkabligi bilan yuzaga keladi. Natijada “motiv” (rag‘bat) tushunchasining ma’no-mazmuni bir xil bo‘lmay, ko‘pincha tabiati xossalari, xususiyatlari turli tuman bo‘lgan hodisalarni anglatadi. Motivatsiyaning mohiyatini tushunish psixologik nazariyalarning g‘oyalaridan kelib chiqadi. Biz o‘z ishimizda mamlakatimiz va xorijiy psixologiyasida ushbu muammoning zamonaviy holatini va uni tadqiq qilishning an‘analarini ko‘ra bilish (tushunish) imkonini beruvchi motivatsiyaning eng nufuzli konsepsiyalariga to‘xtalib o‘tamiz.

Birinchi marta “motivatsiya” so‘zini olim A. Shopengauzer o‘zining “Yetarli sababning to‘rt tamoyili” [1] maqolasida ishlatgan. Keyinchalik bu atama inson va hayvon xatti-harakatlarining sabablarini tushuntirish uchun psixologiya fani muomalasida mustahkam o‘rnashib qoldi.

V.G. Leontyev motivatsiyaning xorijiy psixologlar ishlab chiqayotgan bir necha turlarini ajratadi. Birinchi turga bioenergetik asosga ega motivatsiya kiradi: “instinkt motivatsiyasi”, “qiziqish/muhabbat motivatsiyasi”, “drayv (harakatlantiruvchi kuch) motivatsiyasi” [2]. Fiziologik gomeostaz ushbu turdagi motivatsiyaning yetakchi mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi [3, 4, 5]. Freydchilar va bixevioristlarning nazariy nuqtayi nazarlari ularning motivatsiyani organishning faolligini anglatuvchi umumiy atama sifatida tushunishlarini va organizm o‘z tabiati yoki ichki strukturasi bilan harakat qiladi va belgilanishi deb tushunishlarini ko‘rish imkonini beradi.

Ikkinchi turga psixenergetik asosi mavjud motivatsiya kiradi: “ehtiyoj motivatsiyasi”, “psixik va ijtimoiy omillar motivatsiyasi”. Ushbu tur motivatsiyasi

mexanizmlari juda kam ishlab chiqilgan. G'arb psixologiyasida motivatsiya haqidagi ta'limotda "ijtimoiy motivatsiya" nazariyasi jiddiy o'rinni egallaydi. Unga geshtalt-psixologiyasining vakili, olim K. Levin asos solgan. U assotsiasiyalar (qarash, voqea, hodisa, tushunchalar keltirib chiqardaigan tasavvur, fikr, tushunchalarning) faolligi haqidagi qoida, fikr, qarashga qarshi chiqib, bixeviorizmning assosianistik mohiyatiga jiddiy zarba berdi. Uning fikricha, tarkibida yaxlitning spesifikasi (xususiyati) saqlanib qoladigan psixikaning faqat "birliklari" faollikka ega bo'ladi. Bunday "birliklarga" u ehtiyoj va motivlarni kiritgan [6].

Olim F. Xoppening fikriga ko'ra, individga erishish uchun rejalashtiradigan maqsad sifatidagi intilishlar darajasi rag'batlantiruvchi (motivatsion) element hisoblanadi [7].

Motivatsiyaga nisbatan intilishning, ya'ni da'voning darajasi bir holatda, uning kuchini oshiradigan sharoitda bo'lsa, ikkinchi holda esa - insonni muvaffaqiyatga yoki muvaffaqiyatsizlikning oldini olishga undaydigan shaxsiy xususiyatlari orqali xulq-atvorni ishga tushiruvchi boshlab beradigan omil hisoblanadi.

G'arb psixologiyasida "muvaffaqiyatga intilish" va "muvaffaqiyatsizlikdan qochish" masalalarini J. Atkinson D. Mak Klelland va boshqa olimlar tadqiq qilishgan. Masalan, J. Atkinson muvaffaqiyatga erishishga bo'lgan motivatsiyada individning muvaffaqiyatga baho berish etaloni sifatida xizmat qilgan faoliyatning kutgan bahosi sifatida ko'rgan.

J. Atkinson va D. Mak Klellandning fikricha, "muvaffaqiyatsizlikdan qochishning" (oldini olishning) motivi (sababi) insonning o'z oldiga, yoxud bajarish shubha tug'dirmaydigan juda oson vazifalarni qo'yish, yoxud bajarilmasligi muvaffaqiyatsizlik deb hisoblanmaydigan va umidsizlikka olib kelmaydigan o'ta qiyin vazifalarni qo'yishga intilishi bilan bog'liq. Shu sababdan ham "muvaffaqiyatsizlikdan qochish" doimo faoliyatning shaxs imkoniyatlariga mos ravishda qurilmasligi bilan bog'liq.

J. Atkinson "muvaffaqiyatga intilish" va "muvaffaqiyatsizlikdan qochish" o'rtasidagi farqlarni motivatsiyaning kuchi bilan tushuntiradi.

Ijtimoiy motivatsiya nazariyasida shaxs faolligining asosiy manbalari sifatida inson ehtiyojlari tizimi bilan bog'liq qarashni ajratib ko'rsatish mumkin. A. Maslou ushbu konsepsiyaning vakili hisoblanadi. A. Maslou ehtiyojlarda bir necha darajalarni, dastlab ijtimoiy darajani ajratib ko'rsatadi. Uning fikricha, shaxsning rivojlanishini jamiyat belgilamaydi, balki (aksincha) shaxs jamiyatga nisbatan birlamchi belgilovchi ibtido hisoblanadi [8].

Motivatsiyaning o'ziga xos jihatlarni olimlar P. Fress, J. Nyutten va boshqa Yevropa psixologlari ham o'rganishgan. O'z ishlarida ushbu olimlar motivatsiyani

birlamchi va ikkilamchi turlarga ajratadilar. Masalan, P.Fress “ikkilamchi” motivatsiya ijtimoiy xususiyatga ega, fiziologik ehtiyojlarga bog‘liq emas, - deb hisoblaydi. U insonni insoniyat madaniyatining turli sohalarida, shu jumladan ijod sohasida ham atayin amalga oshiriladigan xulq-atvor va xatti-harakatlarga undaydi.

G.Merfi motivatsiyani ijtimoiy determinasiya nuqtayi nazaridan o‘rganadi. Xususan, motivatsiyani motivlar majmui, ularning tizimi sifatida o‘rganib, G. Merfi u motivatsiya ko‘plab ijtimoiy omillardan bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi.

G. Merfi motivatsion strukturada boshqa undaovchi omillarni o‘ziga bo‘ysundiradigan: moddiy boyliklar, hokimiyat va nufuz, obro‘-e‘tiborga intilish kabi uchta eng kuchli motiv sababni ajratadi [9].

Demak, xorijiy psixologiyada ishlab chiqilgan turli nazariyalarning tahlili motivatsiya ko‘p hollarda organizmning amal qilishi, o‘z tabiati yoki ichki strukturasi bilan determinatsiya qilinishi bilan belgilanganligi, barcha tirik mavjudotlarda faollikni tanlash asosida, tashkil etilgan holda namoyon qilishi an‘anasi mavjudligini anglatadigan umumiy atama sifatida qaralishini ko‘rsatdi. Biroq, motivatsiyaning bunday talqinida noaniqliklar juda ko‘p, unda hatto ko‘plab Freydchilik, bixevioristik va boshqa xorijiy nazariyalarda ko‘rib chiqilgan funksiyalar aks etilmaydi.

Xorijda va MDX da motivatsiya va motivlarni o‘rganish uchun muayyan tamoyillar ishlab chiqilgan. Xususan, S.L. Rubinshteyn insonning tabiat bilan, ijtimoiy muhit bilan aloqasini (aloqadorligini) tavsiflash uchun determinizm tamoyilini qo‘lladi. Olim tashqi sabablar insonning ichki shart-sharoitlari orqali ta’sir qilishini ta’kidlaydi [10].

L.S. Vigotskiy inson xulq-atvorini aniqlash va rag‘batlantirish muammosini o‘rganishda, motivlar kurashi masalasiga katta e‘tibor beradi. U birinchilardan bo‘lib rag‘bat/motiv va stimulni/turtkini bir-biridan ajratishni, ixtiyoriy motivatsiya haqida gapirishni boshlagan.

L.I. Ansiferova, L.I. Bojovich, B.F. Lomov, S.L. Rubinshteyn va boshqa Rossiya olimlarning ishlarida inson uchun ijtimoiy muhit shunchaki tashqi emas, balki u insonning ichki tomoni bilan yaqindan bog‘liq, va u muayyan sharoitlarda ushbu ichki hissiyotlarni yaratishga qodir.

Strukturalilik tamoyili insonni va uning motivatsiyasini bevosita emas, balki ijtimoiy quyi strukturalar (ijtimoiy guruhlar, institutlar/ muassasalar) o‘rganish imkonini beradi. Strukturalilik soha va motivning o‘zini o‘zaro aloqador komponentlarning muayyan tizimi sifatida o‘rganishni nazarda tutadi.

Ong va faoliyat orasidagi aloqadorlik tamoyili ham inson motivatsiyasining muhim tamoyillaridan biridir. L.I. Bojovich, L.S.Vigotskiy, A.N. Leontyev, V.S. Merlin, S.L. Rubinshteyn, P.M. Yakobson va boshqa olimlarning ta’kidlashlaricha, ongda kuchli tartibga solish funksiyasi mavjud. Ong voqelikni

aks ettirish asosida kishilarning ijtimoiy va ularni o'rab turgan olam bilan munosabatlarini tartibga soladi.

V.G. Aseyev, L.I. Bojovich, I.A. Djidaryan, V.I. Kovalev kabi olimlari motivatsiya chuqur shaxsiy hodisa, his, tushuncha hisoblanadi deb ta'kidlaydilar. Motivlar tizimni shakllantiruvchi omillar tarkibiga kiritib, olim B.F. Lomov "motiv faoliyatning shunchaki bir "tarkibiy qismi" emas", - deb ta'kidlaydi. Motiv, ya'ni rag'bat murakkab tizimning bir komponenti - shaxsning motivatsion sohasi vazifasini bajaradi" [11]. Motiv shaxsning tipologik xususiyatlari, temperament bilan chambarchas bog'liq. U shaxsning barcha strukturaviy tarkibiy qismlari, ayniqsa, uning yo'nalgantirilganligi, xarakteri, emotsiyalari, hissiyotlari, qobiliyatlari, psixik jarayonlari va faoliyati ichida mavjud.

Motivlarning turli nazariyalarini taklif qiluvchi tadqiqotchilar motivatsion jarayonlar va ularning shakllanish mexanizmlarini turlicha ta'riflaydilar.

Olim D.N. Uznadzening psixologik nazariyasiga ko'ra, insonning maqsadga muvofiq xulq-atvorini, xatti-harakatini tushunish uchun individning har qanday xatti-harakatni amalga oshirishdan oldin unda yaratiladigan yaxlit psixik holatni, ya'ni ustanovkani (oldindan belgilangan hatti harakat tarzini) o'rganish zarur. Insonda qanaqa ehtiyojlar borligi va uning qaysi predmet muhitida bo'lishiga qarab, unda muayyan ustanovka (oldindan belgilangan hatti harakat tarzi) yaratiladi, va uning xulq-atvori aynan shu ustanovkaga muvofiq amalga oshiriladi.

Olim V.D. Shadrikovning sxemasiga ko'ra, motivatsiya shaxsning ehtiyojlari va maqsadlari, ishtiyoqlari va ideallarining darajasi, faoliyat shart-sharoitlari (ham obyektiv tashqi va ham subyektiv, ichki - bilimlar, malakalar, qobiliyat, xarakter) va dunyoqarashi, e'tiqodlari va yo'naltirilganligi va boshqalar bilan belgilanadi. Ana shu omillarni hisobga olgan holda qaror qabul qilinadi, istaklar va niyatlar shakllanadi [12].

Motivatsion ustanovkalarining o'zgarishi orqali shaxsning shakllanish jarayonini tasvirlashda, olim V.G. Aseyev uni "ma'lum ma'noda, turtki beryuchi omillarning ahamiyatini qayta qurish jarayoni" - deb aytadi. Idealdan kundalik voqelikka aylanib yoki insonning hayotidan va shaxsiy sohasidan butunlay chiqib ketib, ba'zi turtkilar ahamiyat oshadi yoki tushib ketadi. Turtkilar, u yoki bu ma'noda, mazmun-ma'no jihatidan yoki umumiy amalga oshirish vositalari orqali bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'ladi" [13].

Motivatsiyaning barcha ta'riflarini olim Ye.P. Ilin 2 xil yo'nalishga kiritadi. Birinchisi motivni (rag'batni) strukturaviy nuqtayi nazardan, omillar yoki rag'batlar majmui deb qaraydi. Ikkinchi yo'nalish esa motivatsiyani statik emas, balki dinamik hodisa jarayoni, mexanizm sifatida o'rganadi. Masalan, R.S. Vaysmann motivatsiya jarayoni rag'batning faollashtirilishi aktualizatsiyasi bilan

boshlanadi, deb hisoblaydi [14].

Ko‘p hollarda psixologlar motivatsiyani xulq-atvornining determinasiyasi deb hisoblaydilar, shuning uchun ular tashqi va ichki motivatsiyani farqlaydilar.

V.K. Vilyunas “motiv” nima degan savolni muhokama qilishning maqsadga muvofiqligi haqida shubha bildiradi. Buning o‘rniga, deb o‘ylaydi u, faollikning keltirib chiqaruvchilari sifatida qabul qilinadigan alohida hodisalarni aniqroq belgilash va tavsiflashga e‘tibor qaratishni lozimligini taklif qiladi [15]. Olim RS. Vasmann yana bir yondashuvni taklif qiladi. Uning fikricha, “motiv” atamasini motivatsion sohaning muayyan ehtiyojlar ko‘rinishidagi barqaror hodisalariga va bevosita faoliyatni boshlab beruvchi konkret vaziyat hodisasini anglatish uchun “istak, turtki berish, uyg‘otish” atamasidan foydalanish lozim deydi.

“Motiv” tushunchasini o‘rganishda ham ko‘plab qarashlar mavjud. Uni anglatish sifatida turli tuman psixologik hodisalar: shaxsning tasavvurlar va g‘oyalari, his-tuyg‘ular va ichki kechinmalari, ehtiyojlar va qiziqishlari, intilishlari, turtkilari, uyg‘otishlar va mayllari, istaklar va xohishlari, odatlari, fikrlari va burch tuyg‘usi, axloqiy, ma‘naviy-siyosiy ustanovkalari va xayollari, psixik-ruhiy jarayonlar, holatlar va xususiyatlari, tashqi olam predmetlari va yashashga shart-sharoitlari beriladi:

Bir qator ilmiy tadqiqot ishlarida “motiv” faqat bosh miya faoliyatining aqliy, intellektual faoliyatining mahsuli sifatida qaraladi. Masalan, S. Keronning yozishicha, “motiv” - bu bir mulohaza, tushunish, xayol bo‘lib, unga ko‘ra subyekt amal qilishi va harakat qilishi lozim. X. Xekxauzauzenning fikricha: u motiv “fikrlashning atigi bir mahsuli”, ya‘ni voqelikda real mavjud psixologik hodisa emas, balki nazariy bir qurilma hisoblanadi [16].

Tadqiqotchi olim S.L.Rubinshteyn “motivatsiya psixika orqali amalga oshiriladigan determinasiya” deb hisoblaydi. Olima A.K. Markova, “motivatsiya” atamasini “insonning faolligi yo‘naltirilganligini belgilaydigan munosabatlar, niyatlar, motivlar, ehtiyojlar, qiziqishlar, manfaatlar, ideallar va intilishlarning murakkab tizimi” deb ta‘riflaydi.

Motivatsiyani ko‘pincha “harakatning xulq atvor va faoliyatdan tashqarida tasavvur qilib bo‘lmaydigan ichki sababi” deb ham atashadi.

V.G. Leontyevning konsepsiyasi eng qiziqarli deb o‘ylaymiz. V.G. Leontyevning fikriga ko‘ra, motiv individning faoliyatini tashkil etishning yaxlit usuli bo‘lib, faoliyatning integral ajralmas turtki beruvchisi, sababchisi va tartibga soluvchisi hisoblanadi. U motiv ehtiyoj, tartibga soluvchi - ijro etuvchi, tanlab olish funksiyalarni birlashtiradi. Bu funksiyalarni motivning strukturaviy komponentlari sifatida ko‘rsatish mumkin. Ushbu komponentlarning har biri mustaqil psixologik ahamiyatga ega bo‘lgan, motivatsiya tarkibiga kirish bilan o‘z ma‘nosini yo‘qotmaydi. Biroq, birgalikda bu komponentlar yangi, tizimli sifatlarni

- shaxsning faoliyati va xulq-atvorini o'zi mustaqil tartibga solishni tashkil etadi. Tartibga solishning o'ziga xosligi shundaki, u o'zini mustaqil tartibga solish darajalaridan biri sifatida faollikning selektivligi orqali amalga oshiriladi. Motiv shaxs strukturasi yaxlit holatini aks ettiradi. U barcha tizimlarning "manfaatlarini" hisobga oladi va birlamchi turtki, undashlarning o'zlarining tartibga soluvchisi, regulyatori hisoblanadi. V.G. Leontyevning fikriga ko'ra, uni faqat energetik xususiyat bilan cheklab qo'ymaslik kerak, chunki uning funksiyasining asosi - ehtiyojga asoslangan turtkilar, undashlarni tanlash va faoliyat maqsadlarini shakllantirishdan iborat.

Motivatsiya, V.G. Leontyevning fikriga ko'ra, motiv va maqsad birlashtirilgan psixik hodisadir. V.G. Leontyevning fikriga ko'ra, faoliyatning kelajakdagi natijasi sifatida maqsad o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. "U maqsad shaxsiy ma'no kasb etganda, ya'ni motiv bilan bog'langandagina maqsadga aylanadi. Xuddi shu kabi motiv ham o'z undash, uyg'otish, turtki bo'lish funksiyalarini faqat unda yo'naltirilganlik paydo bo'lgandagina, ya'ni maqsad bilan munosabatga kirishgandagina oladi" [17].

Olim V.G. Leontyev asosiy motivatsion birliklarning nisbatini insonning xulq-atvori va faoliyatida namoyon bo'ladigan motivatsion strukturasi modeli shaklida taqdim etgan. Bu model 2 ta asosiy blokdan iborat bo'lib, ularning har biri o'z navbatida bir qator o'zaro bog'liq elementlarga bo'linadi. Birinchi blokda organizm darajasida paydo bo'ladigan ibtidoiy motivatsiyani aks ettiradi va ikkinchi blok esa inson faoliyatiga turtki berish va tartibga solishning yaxlit usuli sifatidagi integral, motiv yotadigan motivatsiyaning shaxsiy darajasini aks ettiradi. V.G. Leontyev ushbu 2 blokda turli faoliyat shakllarida amalga oshiriladigan motivatsiya jarayonini organizm darajasida - instinkt, qiziqish, ehtiyoj shaklida, shaxs darajasida- motiv shaklida tushunadi. V.G. Leontyevning fikriga ko'ra, turtki berish, uyg'otish jarayoni va turtki beruvchilar, uyg'otuvchilar, sabab bo'luvchilar tizimi sifatida ko'p jihatdan tashqi muhitga, uning insonga ta'siridan bog'liq bo'ladi. Motivatsiya nuqtayi nazaridan tashqi muhit - insonga ta'sir etuvchi ma'lum qo'zg'atuvchilar majmuidir. Funksional tizimlar ta'limotiga ko'ra va V.G. Leontyevning fikriga ko'ra bu qo'zg'atuvchilarga asosiy, vaziyatli va boshlab beruvchi omillar kiradi. Ushbu omillarning ta'siri asosida motivatsion qo'zg'alishlar paydo bo'ladi.

Asosiy qo'zg'atuvchilar o'zlarining ehtiyojga, qiziqishlarga va instinktga muvofiq kelishi bilan tavsiflanadi. Odatda hayvonlardagi bu muvofqlik tug'ma bo'ladi. V.G. Leontyevning fikriga ko'ra, asosiy qo'zg'atuvchilarning asosiy xossalari organizmning o'zlariga nisbatan yuqori darajadagi sezuvchanligini chaqirish bilan qiziqishlar va ehtiyojlarni qondira oladi va bunda ushbu qo'zg'atuvchilarga nisbatan tanlab olish paydo bo'ladi.

Vaziyatli qo'zg'atuvchilar - ehtiyojni qondirish amalga oshadigan o'ziga xos shart-sharoitlarini ifodalaydi. Olim V.G. Leontyevning fikriga ko'ra, inson o'z faoliyatini amalga oshiradigan yoki o'z xulq-atvori amallarini amalga oshiradigan vaqt, muayyan vaziyat bunday qo'zg'atuvchilar vazifasini bajarishi mumkin. Ma'lumki, ko'pincha inson faoliyatning u yoki boshqa muayyan tashqi sharoitlarining paydo bo'lishi unda muayyan ma'lum motivatsion munosabat keltirib chiqaradi va u ularga sharoitlarga ko'nikadi.

V.G. Leontyevga ko'ra, boshlab yuboradigan (trigger stimulii) qo'zg'atuvchilar go'yoki ehtiyojni qondirishga ruxsat beradigan omillar yoki "buyruqlar" hisoblanadi. Motivatsion qo'zg'alish, uyg'onish apparatini faollashtiradilar.

O'quv faoliyatining asosida yotadigan motivatsion jihat psixologiya fanining diqqat markazida bo'lib kelgan va bo'lib qolmoqda.

Psixologlar va o'qituvchilar va boshqalar oliy ta'lim tashkiloti talabasi uchun o'quv va ilmiy faoliyatlarni birgalikda olib borish yetakchi faoliyat turlari ekanligini aniqlashgan.

Oliy ta'lim tashkilotlariga kirishda abituriyent tahsil oluvchi pozitsiyasidan tahsil olayotgan shaxs pozitsiyasiga o'tadi, ya'ni uning faoliyati yoshi katta odamning faoliyatining barcha xususiyatlarini olishi talabani motivatsion jihatdan ta'xminlashning muhim xususiyatidir. Binobarin, talabaning mustaqilligi, o'zini boshqarishga, o'z imkoniyatlari, qobiliyatlari va salohiyatlarini amalga oshirishga intilishi zamonaviy sharoitlarda oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotganlarning asosiy xususiyatlaridir. Tashqaridan o'rganishga hech qanday majburlashning zarurati yo'qligi sharoitida tahsil olayotganlarning mustaqilligi "harakatlarning ongli motivatsiyasi" sifatida, yaxlit o'quv faoliyatini yaratishning asosiy shartidir. Motivatsiyani shakllantirish va o'quv maqsadlarini belgilashda yetakchi rol ham tahsil olayotgan shaxsga tegishli. Talabaning bilishga bo'lgan ehtiyoji uning muayyan muammolarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoji bilan belgilanishi sababli, o'quv dasturlarining amaliy yo'naltirilganligi, ularning har bir talabaning aniq maqsadlari bilan muvofilashtirilganligi oliy ta'lim tashkilotlarida o'quv jarayonini tashkil etishning asosiga aylanadi. Demak, talabaning o'quv faoliyatini motivatsion ta'minotning asosiy xususiyatlaridan biri uning oliy ta'lim tashkilotlarida o'quv jarayonidagi pozitsiyasini o'zgartirishdir. U tahsil olayotgan pozitsiyasiga o'ta muvofiq ravishda, uning faoliyatining ahamiyatini va o'qituvchi faoliyatining rolini o'zgartiradi.

Olimlarning fikricha, talabalarning kasbga yo'naltirilganligi shaxsning tipologik xarakteristikasi, uning yaxlitligining ifodasi; ma'no va mohiyatni hosil qiluvchi strukturasi, xususiyatlar majmui; kasbiy o'zligini aniqlashning o'zagi; ichki sharoitlar motivlar, ustanovkalar, qadriyatlar tizimi hisoblanadi. Kasbga

yo'naltirilganlikning yuqori darajasi shaxsning energiya va ijodiy salohiyatini uyg'otadi, qo'zg'atadi va ishga tushiradi. Demak, kasbga yo'naltirilganlik va uning bilish mustaqilligi bilan aloqadorligi talabanning o'quv faoliyatini motivatsion ta'minlashning eng muhim xususiyatlaridan biridir.

Biroq, talabanning o'quv faoliyatini motivatsion ta'minlashning komponentlari ba'zi xususiyatlar bilan tavsiflanishini ta'kidlab o'tish lozim. Diqqat-e'tiborni o'quv vaziyatiga jamlash talabalar o'quv faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib qolmoqda. Biroq, oliy ta'lim tashkilotlari sharoitlarida, diqqat-e'tiborning mazmuni o'quv jarayonining maqsadlarining keng ko'lamliligi, diqqat-e'tibor obyektlarining sonining oshishi, o'quv ishining turlari va usullarining turli-tumanligi, bo'lajak mutaxassisning kasbiy tayyorlanganligi darajasi bog'lq bo'ladigan talabanning o'quv faoliyati natijalariga maktabdagiga qaraganda sifat jihatdan talablar bilan bog'liq holda murakkablashadi.

Xulosa qilib aytganda, motivatsion ta'minotning yana bir xususiyati - talabanning o'quv va ilmiy faoliyati bilan bog'liq undashlar, qo'zg'atish, istaklarni integrasiya qilinganligidan iborat kasbiy yo'naltirilganligi hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, talabalarda malaka va ko'nikmalarni egallashga ehtiyoj paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Talabalarining "sintezlangan" bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishlari, bir tomondan, bo'lajak kasbga bo'lgan qiziqishni, unga bo'lgan qadriyat munosabatini, ikkinchi tomondan esa - fanga bo'lgan qiziqishni shakllantiradi, chunki tahsil oluvchilar uning amaliy tabiatini anglaydilar.

Adabiyotlar

1. Шопенгауер А. Поли. собр. соч. В 4-х томах. Т.1. М. 1900-1910. С.14-16
2. Леонтьев В.Г. Психологические механизмы мотивации учебной деятельности. Новосибирск. 1992. С.67-80
3. Freud S. New Introductory Lectures on Psycho-Analysis. - N.Y. - 1933. - 2lp.
4. Hail G. Psychology of Motivation. - N.Y. - 1961. - 12p.
5. McDougall W. Outline of psychology. - N.Y. -1923.- 52p.
6. Lewin K. Grundzuge der topologische Psychologie. - Bern - 1969. - 66p.
7. Hoppe F. Erfolg und Misserfolg // Psychol. Vorschunddg. - 1930. - 14p.
8. Maslow A.H. Motivation and Personality. - N.Y. - 1954. - 75p.
9. Merfe S. Perception of emotional words. //Neuropsychology. - 1978. -

V. 21. -N.1.-34-37p..

10. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. М.: изд-во «Педагогика». 1946. С.77

11. Ломов Б.Ф. Методологические и теоретические проблемы психологии. М.: изд-во МГУ. 1984. С.22-27

12. Шадриков В.Д. Проблемы системогенеза профессиональной деятельности. М.: изд-во «Просвещение». 1982. 84с.

13. Асеев В.С. Мотивация поведения и формирование личности. М.: «Наука». 1976. 156с.

14. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. СПб: изд-во «Питер». 2000. С.30-58

15. Вилюнас В.К. Психологические механизмы биологической мотивации. М.: «Наука». 1986.206с.

16. Caron S. Achivement and avoidant motivation as determinants of epistemic behavior. // Am. J. Psychol. - 1963. - V.108. - №3. - 213-215p.

17. Леонтьев В.Г. Психологические механизмы мотивации учебной деятельности. Новосибирск. 1992. С.67-80

Bosh muharrir:

Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Avazov Sherimmat

Tahrir hay'ati:

Abdullayeva B.S., Asqarov A.A., Azimov I.M., Djurayev R.X., Muslimov N.A.,
Xalikov A.A., Djurakulova E.S., Djamilova N.N., Mamarajabova Z.N.,
Masharipova U.A., Abdug'aniyev O.T., Axmedova N.M., Kurbanova Sh.I.,
Rahimov V.Sh., Maqsudova G.O., Ishquvvatov V.T., Nurullayev M.E.,
Ergashev J.B., Xo'janazarov O'.E., Isakulova N.J., Normurodova N.A.,
Mamarajabov M.E., Orlova T.A., Nosirov A.N.,
Qahharov M.M., Sariyev Sh.U., Pulatova D.R.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi 27-uy.

e-mail: tdpuia@mail.ru

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Tahrir va nashr"
bo'limida chop etildi. Adadi 10 nusxa. Hajmi 21 b/t. Bichimi 60x84 ^{1/8}
Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi 27-uy.